


MILLIY MA'NAVIYATIMIZ ASOSLARI




**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

Muhammadjon Imomnazarov

**MILLIY MA‘NAVIYATIMIZ
ASOSLARI**
(o‘quv qo‘llanma)

*O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi nashrga tavsiya etgan*



O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti
Toshkent – 2006

Tahrir hay'ati:

R.S. Qosimov (rais), Q. Nazarov, M. Quronov, N. Komilov, A. Hasanov, S.Ashurboev, E. Nabiyeu, A. Abdullayev, Z. Islomov, A. Mansurov, S. A'zamxo'jayev.

Mas'ul muharrirlar:

filologiya fanlari doktori, professor *Najmiddin Komilov*,
pedagogika fanlari doktori, professor *Muhammadjon Quronov*

Taqrizchilar:

filologiya fanlari doktorlari, professorlar
Zohidjon Islomov, Nasimxon Rahmonov
tarix fanlari doktori, professor *Mirsodiq Is'hoqov*

Ushbu qo'llanma muallifning ko'p yillik amaliy ish tajribasi va ilmiy izlanishlari mahsuli bo'lib, unda milliy ma'naviyatimizning bugungi dolzarb masalalari va tarixiy takomil yo'li izchil bayon qilingan.

Qo'llanma uch qismdan iborat. Har bir qism o'z navbatida boblar va fasllarga taqsimlangan bo'lib, kitob oxirida bir qator jadval va xulosalar, asosiy timsoltushunchalarning izohli lug'ati, tavsiya etiluvchi va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ilova qilingan.

O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning milliy ma'naviyat masalalariga oid nutq va risolalarida bildirilgan fikrlar ushbu qo'llanmaning nazariy-uslubiy yo'nalishiga asos qilib olindi. O'quv qo'llanma asosan ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlarining bakalavriat bosqichi talabalariga mo'ljallangan bo'lib, ehtiyoj darajasida fan o'qituvchilari, magistratura talabalari, soha tadqiqotchilari, mutaxassislar va keng kitobxonlar ommasi ham foydalanishi mumkinligi e'tiborga olingan.

*Ushbu kitob mustaqil O‘zbekiston Respublikasining
o‘n besh yillik to‘yiga bag‘ishlanadi*

“MA’NAVIYAT –

INSONNING,

XALQNING,

JAMIYATNING

KUCH-QUDRATIDIR.

U YO‘Q JOYDA HECH QACHON BAXT-SAODAT
BO‘LMAYDI”.

“Ma’naviyat haqida gap ketar ekan,

men avvalo,

insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da’vat etadigan,

inson ichki olamini boyitadigan,

uning iymon-irodasini, e’tiqodini mustahkamlaydigan,

vijdonini uyg‘otadigan

qudratli botiniy kuchni tasavvur qilaman”.

**Islom KARIMOV,
O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti**

INSON HAYOTINING MA'NOSI

(muqaddima)

Fikr yurituvchi har bir inson albatta o'z hayotining ma'no-mazmuni, mohiyati haqida bir kun emas, bir kun o'ylab qoladi. Bu yorug' dunyoda yashashdan maqsad nima, degan savolni o'ziga o'zi beradi. Darhaqiqat, inson hayotining ma'nosi bormi, u nega yaratilgan o'zi?

Buyuk mutafakkir, alloma, shayx Najmiddin Kubroning iste'dodli shogirdlaridan Najmiddin Doya (Abu Bakr Abdulloh Asadiy Roziy) o'zining 1223-yilda yozilgan «Mirsod ul-ibod min-al-mabda' ilal-maod» («Alloh bandalarining boshlang'ichdan tugallanishgacha bo'lgan hayot yo'li») asarida ushbu savolga javob sifatida bir ruboiy keltiradi:

Maqsudi vujudi ins-u jon oyina ast,
Manzuri nazar dar du jahon oyina ast,
Dil oyinai jamoli shohanshoh ast,
V-in har du jahon g'ilofi on oyina ast.

(Inson vujudidan maqsad ko'zgudir,
Har ikki jahonda e'tiborga arzigulik narsa ko'zgudir,
Ko'ngil ko'zgusi (Borliq) hukmdorining jamolini aks ettiruvchidir
Va har ikki jahon ushbu ko'zguning g'ilofidir.)

Alloh insonni ikki jahonda aziz-u mukarram qilib yaratdi. Butun moddiy olamni unga bo'ysundirdi. Inson vujudidan maqsad esa uning ko'ngil ko'zgidir. Chunki bu ko'zgu Borliq haqiqatini – Haq jamolini o'zida aks ettirish qobiliyatiga ega. Bu tabarruk g'oya turli tarzda, turli ko'rinish-ifodalarda ko'pchilik ulug' allomalarimiz ijodida o'z aksini topgan. Ular yo'q joydan paydo bo'lmagan. Oxirgi va bizgacha mukammal yetib kelgan ilohiy vahiy bo'lmish Qur'oni karimning «Nur» surasi 35-oyati “Allohu nur us-samovoti val-arz»(Alloh osmonlar va yerning “nuridir”) deb boshlanadi va davomida «Alloh o'zining (bu) nuriga o'zi xohlagan kishilarni hidoyat qilur» (Yahdi-l-lohu li-nurihi man yashau) deb ta'kid etiladi¹.

Ma'lumki, inson mukammal mavjudot emas. Vaqti kelsa, u eng

¹ Qur'oni karim. T., 2001. (Iqtiboslar Abdulaziz Mansur tarjimasida asosida berildi. Faqat ba'zi maxsus eslatilgan o'rinlarda ushbu tarjimadan chetga chiqildi.)

quturgan hayvondan badtar vahshiylashishi yoki eng razil maxluqdan ham badtar tubanlashuvi mumkin. Ammo Alloh hikmati shundaki, begunoh farishtalar emas, ayni Odam nasli yer yuzida xalifa qilib yaratilgan. Alloh taolo Odam Atoni yaratishni iroda etar ekan, farish-talarga “Men yerda xalifa yaratmoqchiman”, – deydi (Baqara surasi, 30-oyat). Qur’oni karimda insonning yer yuzida xalifa qilib yaratilgan-ligi haqidagi xabar yana qator suralarda zikr etiladi. “U sizlarni yerda xalifa qilib qo‘ygan zotdir”, – deyiladi Fotir surasi 39-oyatida. An’om surasi 165-oyatida, Yunus surasi 14-oyatida, Sod surasi 26-oyatida, Naml surasi 62-oyatida, Nur surasi 55-oyatida, A’rof surasi 129-oyati-da ham shu mazmun ifodalanadi. Shunday ekan, Najmiddin Doya keltirgan fikrlar milliy ma’naviy merosimiz uchun tasodifiy emas, balki yetakchi fikrdir. Ma’naviyat haqida so‘z yuritganda biz, avvalo, ana shu tabarruk haqiqatni faromush etmasligimiz kerak.

Ajdodlarimiz merosida surat va ma’no, majoz va haqiqat haqida so‘z boradi. “Surat” va “majoz” tushunchalari bu o‘rinda foniy dunyoni, jumladan, inson vujudini, “ma’no” va “haqiqat” esa boqiylikni, Bor-liqning boqiy mohiyatini ifodalash uchun ishlatiladi. Demak, inson ma’naviyati uning baqoga daxldorligini, ushbu foniy xilqatda aks eti-shi mumkin bo‘lgan boqiy haqiqatni, xullas, fanoda baqoning namo-nyon bo‘lishini anglatadi.

Har qanday hodisani nazariy o‘rganish deganda uning mohiyatini turli nisbatlarda ko‘rib chiqish nazarda tutiladi. Ma’naviyat baqoning fanoda zuhuri bo‘lganligidan yaxlit va behududdir. Demak, uning o‘zga hodisalarga nisbatlari ham cheksiz bo‘lib, inson ilmi cheksizlik-ni yaxlit qamrab olishi mushkul. Nailoj, shu cheksiz nisbatlararo biz uchun eng dolzarb va muhimlarini tanlab olishga to‘g‘ri keladi. Bu-gunning eng dolzarb muammosi esa mustaqillik va ma’naviyat nisbati bo‘lib, qolgan masalalarning barchasi shunga bog‘liq. Demak, ma’naviyat haqidagi suhbatimizni ayni shu mavzudan boshlaganimiz durust.

I qism

MUSTAQILLIK MA'NAVIYATI

– MA'NAVIYAT MAS'ULIYATDIR –

1-BOB. ISTIQLOL VA MA'NAVIYAT

1-fasl. Milliy mustaqillik sharoitida ma'naviyat masalalarining dolzarblashuvi va buning sabablari

Mustaqillik ma'naviyatining tayanch qoidalari 1992-yildayoq Prezidentimizning kitoblarida aniq va ravshan ifodalab berilgan edi. Biz o'z o'rnida ularga batafsil to'xtalamiz. Hozir Mustaqillik ma'naviyatining bosh masalasidan so'z ochmasak bo'lmaydi. Ma'naviyat haqida har qancha gapirish, yozish mumkin. Ammo ma'naviyat falsafa emas, dunyoni har qancha izohlab, qonun-qoidasini aniqlab, tushuntirib berganingiz bilan siz aqlli, bilimdon, mantiqiy fikrlovchi odam sifatida qadrlanishingiz mumkin, ammo bular sizni ma'naviy barkamol ekanligingizdan dalolat bermaydi. Yana Siz o'ta iste'dodli bo'lishingiz, Vatan haqida, mustaqillik haqida ajoyib qasidalar bitishingiz mumkin. Albatta, iste'dod ham ma'naviyat nishonasi, ammo ta'rif-u tavsiflar bilan Vatan ravnaqi ta'min etilmaydi, mustaqillik mustahkamlanmaydi. Mustaqillik ma'naviyatining bosh mezoni, asos-poydevori mas'uliyat tuyg'usidir.

Necha mingyillik tarix davomida ne-ne xoqonlar-u xonlar, amirlar-u shohlar o'tdi. Ularning birlari millat dovrug'ini dunyoga tarqatgan bo'lsalar, boshqalari yurtni abgor qilganligi ham sir emas. Oxirgi yuz yil davomida yurtimizning yetakchi o'g'lonlari foje taqdirga ro'baro' keldilar. Amir Olimxonning siyosatidan norizo bo'lgan Fayzullaxo'ja xalqim deya qon yutdi, ammo orzusi ushalmadi. Usmon Yusupov umrini O'zbekiston xalqi uchun tikdi, ammo xalq asoratda qolaverdi. Sharof Rashidov xalq og'irini yengil qilaman deb ko'p urindi, ammo oxiri borib xalqni ham, uning o'zini ham yomonotliq qilish boshlandi. Qaramlik kasofatidan edi bu fojialar. Yangi davrda o'zbek xalqining baxti Islom Karimov nomi bilan bog'landi.

Biz Prezidentning mustaqil milliy siyosat, Ota yurt mavqeyini olam uzra yuksaklarga ko'tarish, mamlakatda barqarorlik va ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlash, demokratik huquqiy davlat tizimini shakllan-

tirish, ijtimoiy kafolatlarni mukammallashtirish yo'lidagi va boshqa qator xizmatlariga alohida to'xtalmaymiz. Zotan, bularning har biri alohida mavzu.

Sobiq SSSRning xomashyo bazasi bo'lmish markaz manfaatlariga qat'iy bo'ysunuvchi yagona tizim zanjiriga qo'l-oyog'i, har bir hujayrasi bilan chambarchas bog'lab tashlangan respublikaning asli nochor iqtisodiy-ishlab-chiqarish binosi, SSSR parchalangach, butkul xarobaga aylangan edi. Islom Karimov bozor iqtisodiga o'tish yo'lidagi islohotlarni shunday murakkab sharoitda, shunday nosoz poydevorga tayanib amalga oshira boshladi. Bugungi kunda O'zbekistonning ahvoli Mustaqil davlatlar hamdo'stligida barqarorligi va ijobiy siljishlari bilan ajralib turibdi. Ammo biz iqtisodiy masalalarga ham batafsil to'xtalmoqchi emasmiz.

Bugungi kunda aytilish mumkinki, O'zbekiston jahon miqyosida o'ziga xos barqaror siyosiy mavqe kasb etib turibdi. Jahonning eng ilg'or davlatchilik an'analarini o'zbekning milliy tabiati bilan, o'z qadim udumlari bilan uyg'unlashtira olgan Konstitutsiyamiz — mustaqil mamlakatning asosiy qonuni — har bir sohada batafsil ishlab chiqilayotgan qonun va kodekslar bilan amalda qo'llanib, mustahkamlanib bormoqda. Bozor iqtisodiga o'tish, mamlakatning ichki iqtisodiy tizimini uyg'unlashtirish, ilg'or texnologik jarayonlarni ishlab chiqarishga tatbiq etish borasida o'tgan yillar ichida ulug' ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Ijtimoiy uyg'unlik, barqaror osoyishtalik, xalq birdamligi fikrlar, qarashlar xilma-xilligi bilan bahamjihat rivojlanmoqda. Turli siyosiy partiyalar o'z mustaqil yo'nalishlarini shakllantirib, siyosiy muhorabaning madaniyatli usullarini, demokratik tamoyillarini o'zlashtirib bormoqdalar. *“Vatan manfaati, mustaqillik manfaatini hamma narsadan ustun qo'yadigan, qalbida o'ti va erk tuyg'usi bor, g'ayratli, kuyunchak”*¹, ayniqsa, bugungi kun millat ehtiyoji va jahon talablariga javob bera oladigan yosh va qobiliyatli avlod asta-sekin maydonga kirmoqda. Xullas, yutuqlar bisyor. Eng muhimi, xalq, millat o'zligini anglab bormoqda.

Ammo, baribir, xotirjamlikka o'rin yo'q. Chunki muammolar hanuz yetarli. Jumladan, kishilarimizning, ayniqsa, yosh avlodning ma'naviy

¹ I.Karimov. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild, T., «O'zbekiston» — 1996, 245-b. (Keyingi sahifalarda shu kitob nomi qisqartirilgan holda.) — I. Karimov. Asarlar. 1-jild deb sahifasi bilan ko'rsatiladi. I.Karimov asarlarining boshqa jildlari ham shu tartibda beriladi.)

tarbiyasi borasida qiyinchiliklar ko'ngildagidek bartaraf etildi, deyish qiyin. Insonlar ongining eski aqidalar asoratidan poklanishi oson savdo emas ekan. Ayniqsa, yurtning yetakchilari bo'lishi lozim bo'lgan ziyolilarimiz ruhiga singib ketgan ko'nikmalarni yengib o'tish mashaqqati har qadamda sezilib qolyapti. Agar katta-kichik rahbarlar ham odatan ayni shu ziyolilar toifasi ichidan yetishib chiqishini inobatga olsak, vaziyatning jiddiyligi yanada oydinlashadi. Ularning har biri jamiyatda o'zi egallab turgan mavqe va maqomini butun mas'uliyati bilan, ko'lami va zalvori bilan his etyaptimi, o'tmish va kelajak oldida, xalq va Alloh oldida o'zining har bir qadami uchun javob berishga hozirmi? O'ziga ishonib topshirilgan vazifani eplab, ko'ngildagidek uddalay olishga qudrati, bilim va iqtidori, iroda va saboti yetadimi? Nega jamoani boshqarish iqtidori, amalga oshirgan ezgu ishlari tufayli xalq e'tiborini qozongan, yaxshi nom orttirgan odamlar ba'zan kattaroq lavozimlarga munosib topilsa, ikki-uch yil o'tmay tabiatida o'zgarish paydo bo'lib qolyapti?

Iqtisodiy va siyosiy islohotlar xalq ongiga teran yetib borishi, amalda jadal o'zgarishlar hosil qilishi uchun insonlar ongida tub o'zgarishlar yuz berishi zarur. Biz totalitar davlat mulkiga asoslangan iqtisodni rad etib, mulkchilik shakllarining turli-tumanligiga asoslangan erkin bozor iqtisodiga o'tmoqdamiz. Siyosatda yakka partiya, yagona mafkura zo'ravonligiga barham berib, ko'p partiyaviylik, fikr va qarashlar xilma-xilligiga yo'l ochmoqdamiz. Lekin insonlar tafakkurini eski andazalar, tor qoliplar tugal tark etishi qiyinchilik bilan amalga oshmoqda. Tafakkurimiz, qarashlarimizdagi yangi tamoyillar hanuz ancha yuzada, ongimizning sirtqi qatlamlarida qolib ketmoqda, ba'zan yangi qadriyatlarni ham eski o'lchovlar bilan baholashga urinmoqdamiz. Insonlar ongida tub o'zgarishlar yuz bermas ekan, O'zbekistonning buyuk kelajagini qurish orzusi shirin xayollicha qola beradi. Ma'naviyat va mafkuraga alohida e'tibor qaratilishining bosh sababi ham shunda.

2-fasl. Insonlar ongidagi eski mafkura asoratlaridan qutulish muammosi va yangicha tafakkur zarurati

Inson agar Haq yo'lida astoydil urinsa, ko'p ish qo'lidan keladi. Ammo insonlarda faqat fazilatlar emas, qusurlar ham bor. Masalan, g'afolat, shahvatparastlik, takabburlik. Insoniy illatlar ichida eng qattoli – xudbinlik balosi, nafs balosidir. Bu kasallik jami ahli basharga begona emas. Shunga qaramay, dunyoning ko'pgina mamlakatlarida

jamiyat bu illatni qandaydir hududlarda jilovlashga erishgan. Har bir inson o'z huquqi va mas'uliyati me'yorlarini muayyan o'lchovlarda saqlab borishga odat hosil qilgan. Afsuski, sobiq totalitar tuzum davrida ayni shu me'yorlarning asos tomirlari qirqib tashlandi, tub ma'naviy negizlariga jiddiy rahna solindi. Kommunistik aqidaparastlar diktaturasi 70 yil davomida, izchil sur'atda million-million xalqlarni yalpi manqurtlashtirish siyosatini olib bordi. Bu tuzum turli millat, turli o'lkalarni majburiy ravishda bir partiya izmiga bo'ysundirgan qurama mamlakat aholisini millatsiz, ma'naviyatsiz, mustaqil o'y-fikrsiz "kommunizm quruvchilari" atalmish qiyofasiz mavjudotlarga, dunyoga hukmdorlik orzusida bo'lgan kichik bir guruhning irodasini quloq qoqmay ijro etuvchi ulkan mexanizmning "parrak" va "vintcha"lariga aylantirish niyatida edi. Va darhaqiqat, o'z manfur niyatlarini ancha-muncha amalga oshirib ulgurdi.

XX asrning 70-yillariga kelib, aytish mumkinki, «Sovet Ittifoqi» atalmish ulkan bir hududda voqean «manqurtlar saltanati» shakllandi. Keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining birinchi yig'ilishida Prezident I. Karimov bu haqda shunday fikr bildiradi: *"Bu tuzum o'z xalqining tarixini, uning ruhi va urfodatlarini, o'z avlod-ajdodini bilmaydigan manqurtlarga tayanar edi"*. Ular yo'q emas edi, hayotimizda mavjud edi. Xalq ongini, uning barcha faoliyatini markaz izmiga bo'ysundirish asosan o'shalarga ishonib topshirilgan edi.

Allohga beadam shukrlar bo'lsinki, bizning xalqimiz aksariyati ushbu makr domiga to'liq tushib qolmadi. Chunki tuzum olg'a surgan marksistik mafkura bizning necha mingyillik ma'naviy merosimiz, milliy an'analarimiz, xalqimiz ruhi uchun mutlaqo begona bo'lib, faqat siyosiy va iqtisodiy qaramlik sharoitida chetdan zo'rvonlik yo'li bilan kiritilgan va shafqatsiz usullar bilan ongimizga singdirishga urinilgan edi. Ammo, taassuf bilan qayd etish lozimki, totalitar tuzumining urinishlari baribir muayyan "natija"larga erishdi. Chingiz og'a Aytmatov juda yorqin gavalantirib bergan "manqurtlik kasali" odamlarimiz ongida ancha-muncha tomir otib ulgurdi. 70-yillik istibdod mobaynida bolshevistik mafkuraning yakka hukmronligi, ayniqsa, 1937–1938-yillar qatag'onlaridan keyingi avlodni o'z milliy qadriyatlaridan, ma'naviy merosidan jiddiy begonalashuviga sabab bo'ldi. Ana shu majburiy yuqtirilgan illat ba'zi insonlar ruhiyatida hanuz qaramlik asorati sifatida namoyon bo'lmoqda.

“O‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘limiz, – deb yozgan edi I. Karimov mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq, – bu gul bilan qoplangan yo‘l emas, totalitarizm merosidan xalos bo‘lish va poklanish, mafkuraviylik illati yetkazgan ziyon-zahmatlarni bartaraf etishning qiyin, uzoq davom etadigan yo‘lidir”.

Bugungi kunda ham ushbu poklanish jarayoni davom etmoqda. Yangicha, mustaqil tafakkur zarurati hanuz dolzarb, milliy mafkurani shakllantirish, xalq ma‘naviyatini yuksaltirish bugunning ham eng muhim vazifasidir. Mustaqillik mas‘uliyati ayni shu vazifalarni mukammal hal etishni taqozo qilib turibdi.

3-fasl. O‘zbekiston Prezidenti I. Karimovning ma‘naviyat masalalariga alohida e‘tibori

Inson ma‘naviy dunyosi nozik soha. Undagi vaziyatni osonlikcha, muayyan farmon yoki qaror qabul qilish bilan tuzatib bo‘lmaydi. Uni o‘nglash uchun yillar davomida muntazam va sabr-toqat bilan mafkuraviy, tarbiyaviy, ma‘rifiy ish olib borish, amaliy chora-tadbirlar, hayotiy o‘zgarishlar joriy etish taqozo qilinadi.

Milliy ma‘naviyat millatning o‘tmishi, buguni va kelajagini qamraydi, ularni yaxlit tizimda tutib turadi. O‘tmish ajdodlarimiz merosi bugungi jahon darajasi bilan uyg‘unlashtirilsa, mamlakatimizdagi voqe ahvolga tatbiq etilsa, undan kelajak kurtaklari unib chiqadi, kelajak siymosi shakllanadi.

Shu sababli ham I. Karimov O‘zbekiston Prezidenti lavozimiga saylangan dastlabki kunlardan beri xalq ma‘naviyatini yuksaltirishga birinchi darajali e‘tibor qaratib kelmoqda. Hali sho‘rolar tuzumi mavjud bo‘lib, yurtimiz “Sovet Sotsialistik Respublikasi” deb atalgan davrda – 1990-yil 24-mart Oliy Kengash sessiyasida O‘zbekistonda birinchi marta prezident lavozimi joriy etilib, Islom Abdug‘aniyevich Karimov ushbu lavozimga munosib topilgach, O‘zbekiston Prezidentining birinchi nutqidayoq *“xalqni ma‘naviy yuksaltirish, insonni axloqiy va ma‘naviy yuksaltirish”* masalasi davlat rahbarining eng muhim vazifalaridan ekanligi alohida ta‘kidlab o‘tildi². Ma‘naviyat degan so‘zni yuqori doiralarda ishlatish mutlaqo urf bo‘lmagan o‘sha zamonlarda bu mutlaqo yangicha yondoshuv, o‘sha paytlar respublika rahbari uchun katta jasorat edi.

¹ I. Karimov. Asarlar. 1-jild, 359-b.

² I. Karimov. Istiqlol va ma‘naviyat. – T., «O‘zbekiston», 1994, 65-b.

Milliy mustaqilligimizning ikkinchi yilida Prezident “*O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li*” risolasini e‘lon qildi. Ushbu kitobning alohida bobi “*Mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishning ma‘naviy-axloqiy negizlari*” deb nomlandi va unda ilk bor xalq ma‘naviyatini rivojlantirish masalalari batafsil tahlil etildi¹.

1995-yil fevral oyida ilk bor ko‘ppartiyaviylik asosida o‘tkazilgan erkin va demokratik saylovlar hosilasi bo‘lmish O‘zbekiston Respublikasi birinchi chaqiriq Oliy majlisining birinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Unda Prezident I. Karimov “*O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari*” mavzusida katta ma‘ruza qilib, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy rivojiga oid muhim masalalar bilan bir qatorda millatning ma‘naviy takomili yo‘nalishida ham yangicha yondashuvlar, dolzarb muammolarning puxta o‘ylangan yechimlarini xalq namoyandalari muhokamasiga havola etdi. Unda avvalo, 130 yillik mustamlaka asoratidan qutulib, qayta qad rostlagan mustaqil davlatchiligimizning betakror qiyofasi ochib berildi. Uning xalqimiz, millatimiz “*tarixiy va ma‘naviy taraqqiyotining*” samarasi, “*o‘ziga xos, o‘ziga mos madaniyati rivojining*” natijasi ekanligi qayd etildi². Sotsializm g‘oyalarining xalqimiz hayotiga chetdan zo‘ravonlik bilan joriy etilgani, ular xalqimizni manqurtlashtirish uchun xizmat qilgani ochiq aytiladi. Taraqqiyot taqdirini ma‘naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Shunday ekan, davlat tuzumini, jamiyat hayotini demokratlashtirish, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish barobarida ma‘naviyatga ham doimo alohida e‘tibor qaratish talab etilishi voqeyi zaruratdir. Prezident ma‘ruzaning “*Yuksak ma‘naviyat — kelajak poydevori*”³ deb nomlangan faslida mustaqillikning dastlabki to‘rt yilida bu sohada erishgan yutuqlarni tilga olish barobarida kelajak yo‘nalishlarini ham batafsil tahlil etib berdi. “*Endigi asosiy vazifa, — deb fikrini davom ettirdi Yurtboshimiz, — kishilarimizning mustaqil fikrlashga o‘rganishi, o‘ziga ishonchining orta borishidir*”⁴. Buning uchun har birimiz “*bosib o‘tgan yo‘limizni tanqidiy baholab*”, “*buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o‘tmishimizdagi boy an‘analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog‘imiz kerak*”⁵.

¹ I. Karimov. Asarlar. 1-jild, 76–85-b.

² I. Karimov. Asarlar. 3-jild, 6-b.

³ O‘sha kitob, 33–42-b.

⁴ O‘sha kitob, 34-b.

⁵ O‘sha kitob, 7-b.

Umuman qayd etish joizki, O‘zbekiston Prezidenti I. Karimovning deyarli har bir nutqida ma‘naviyat masalasiga e‘tibor qaratiladi, har bir kitobida alohida bob ajratiladi. Ular birinchi marta alohida yig‘ilib, 1994-yilda *“Istiqlol va ma‘naviyat”* nomli kitob bo‘lib chiqqan bo‘lsa, 1997–98-yillarda yanada to‘ldirilib, *«Ma‘naviy yuksalish yo‘lida»* (*«На пути духовного Возрождения»*) nomi bilan o‘zbek va rus tillarida mukammal shaklda nashr etildi¹. Ayniqsa, Prezidentning *«Ma‘naviy meros qudrati»* (O‘zbekiston mustaqilligining bir yilligi tantanalarida so‘zlangan nutq), *«Xalqni Vatan manfaatlarini birlashtiradi»* (Yozuvchilar bilan suhbat), *«Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili»* (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasining ochilishi marosimida so‘zlangan nutq), *«Vatan – hamma narsadan mo‘tabar»* (Mustaqillikning besh yilligidagi bayram tabrigi), *«Ma‘naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglashning tiklanishi»* (*“O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”* kitobida), *«Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin»* («Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga javoblar), *«Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q»* (Tarixchi olimlar bilan suhbat), *«Milliy istiqloq mafkurasi – xalq e‘tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir»* («Fidokor» gazetasi muxbiri bilan suhbat), *«Egali yurt erkini bermas»* (2000-yil avgust Oliy majlis sessiyasida so‘zlangan nutq), *«Alloh qalbimizda, yuragimizda»* kabi qator asarlarida ma‘naviyat masalalariga oid muhim fikrlar, yangicha g‘oyalar olg‘a surilgan.

1994-yil bahorida “Ma‘naviyat va ma‘rifat” respublika jamoatchilik markazini tuzish haqida Prezidentning Farmoni chiqdi. 1996-yil sentabrda ushbu markaz faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risida yana alohida Farmon bo‘ldi va uning asosida Vazirlar Mahkamasi maxsus qaror qabul qildi. Nihoyat, 1999-yilga kelib, bu markaz Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashiga aylantirildi.

O‘zbekiston Prezidentining milliy ma‘naviyat masalalariga bag‘ishlangan fikr va mulohazalari alohida yirik jiddiy tadqiqot mavzusidir. Ammo mazkur tadqiqot yakunlarini kutmay turib ham, I. Karimov asarlarini shu yo‘nalishda e‘tibor bilan o‘rganib chiqqan

¹ I. Karimov. Ma‘naviy yuksalish yo‘lida. T., «O‘zbekiston», 1998 (I. Karimov. На пути духовного Возрождения. Т., «O‘zbekiston», 1997).

odam Prezident qarashlari milliy ma'naviyat nazariyasini shakllantirish yo'lida o'q tomirlarni aniq va muayyan ko'rsatib berishga qodirli-giga amin bo'ladi. Shundan kelib chiqib, ushbu kitobdagi mavzularni bugungi kun nuqtayi nazaridan yoritish jarayonida nazariy zamin si-fatida asosan Prezident I. Karimov asarlarida bildirilgan fikr va xulo-salarga tayanildi.

Yurtboshi xalqdan ayri emas. Chunki xalqning, millatning nihoniy tilagi, istagi bugun Yurtboshining ko'nglidagi tilakdir, istakdir. Prezi-dentning barcha nutq va risolalarini ma'naviyat mavzusi nuqtayi nazari-dan birma-bir ko'zdan o'tkazib chiqqan odamni hayratga soladigan narsa shuki, ajdodlarimiz yaratgan ma'naviy meros, xalqimizning dili-da saralanib kelayotgan, uning og'zaki ijodi, hikmatlari, matal va maqollarida aks etgan ezgu aqidalar va O'zbekiston Prezidentining ma'naviyat masalalariga munosabati, mulohazalari, fikr yo'nalishi o'zak-o'zagidan o'zaro muvofiq va uyg'undir. Boshqacha bo'lishi ham mum-kin emasdek tuyuladi birinchi qarashda. Ammo dunyo siyosatida bun-ga zid misollar kam emas-ku. Alloh taolodan baxt tilaganda to'kis tilagan durust. Ilohi, millatimizga mustaqillik saodatini nasib etgan Parvardigori olam uning bardavomligini ham, barakatini ham to'kis ato etgan bo'lsin. Inshoolloh, millat va uning Yurtboshisi azm-u qarorda, sa'y-harakatda doimo hamdam, hamqadam kelmoqda, kelajakda ham shunday bo'lsin.

Ma'naviyatsiz buyuk kelajak yo'q. Chunki uni robotlar emas, in-sonlar yaratadi. Insonlar ongi qanday bo'lsa, mamlakat kelajagi ham shunga yarasha bo'ladi. Eng katta boylik — insonlar ruhiyatida yashi-rin. Ana shu sarmoya tobora kengroq miqyosda muomalaga kirgan sari, hosil unumliroq bo'la beradi, O'zbekistonning jahon hamjamiya-tidagi mavqeyi yuksala beradi, o'zbeklar o'z ajdodlariga munosib ulug'vorlik kasb eta beradi.

2-BOB. MILLIY G‘OYA, MAFKURA, MA’NAVIYAT. MILLIY MA’NAVIYAT NAZARIYASINING UMUMMETODOLOGIK ASOSLARI

1-fasl. Milliy g‘oya, mafkura, ma’naviyat. Ularning o‘zaro nisbati

Milliy g‘oya – millatning yetakchi maqsadi, *“Xalqni, millatni bir-lashtiruvchi, yo‘lga boshlovchi bamisoli bir bayroq”*¹. Bu maqsadning aniq ifodasini Prezident I. Karimov 2000-yil 8-iyundagi “Fidokor” gazetasi muxbiri bilan suhbatida shunday bayon qiladi:

“Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangilanish va taraqqiyot siyosatining strategik maqsadi – huquqiy demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iborat.

*Yurtimizda istiqomat qiluvchi barcha insonlar uchun millati, tili va dinidan qat’i nazar munosib hayot sharoiti yaratib berish, rivojlangan demokratik mamlakatlardagi kafolatlanadigan turmush darajasi va erkinliklarni ta’minlash. Va shu asosda O‘zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashiga erishish”*². Buning uchun siyosat sohasida, iqtisodiy va ma’naviy yo‘nalishlarda nimalar qilish lozim ekanligi to‘g‘risida ham o‘sha suhbatda batafsil javoblar berilgan.

Darhaqiqat, milliy g‘oya 130 yillik asoratdan qutulib, mustaqillikning oydin yo‘liga chiqib olgan, hayotida erkinlik sari tub o‘zgarishlarni dadil amalga oshirayotgan millatning bosh maqsadi, intilishi. Uni Yurtboshimiz istiqolning dastlabki yillaridayoq bir jumlada yorqin ifodalab bergan edi: *“Mustaqillikning oliy maqsadi – o‘zbek xalqining izzatini joyiga qo‘yish”*³. Bu – o‘z izzati va qadrini bilgan millat o‘zini ham xo‘rlatib qo‘ymaydi, o‘zgalarning ham hurmatini joyiga qo‘yadi, degani. O‘zbek – doim jahon sahnasida o‘zining salmoqli mavqeyiga ega bo‘lib kelgan xalq. Jahon tarixini xolis varaqlagan odam bunga amin bo‘ladi. Ayni shu sababdan elimiz bag‘rikengligi bilan mashhur. Amu va Sir oralig‘ida doimo turli elat, turli e‘tiqod vakillari inoq-ittifoq yashab kelishgan. Agar urushgan bo‘lsa, sulolalar urushgan, aka-ukalar taxt talashgan, xalqlar yoki millatlar emas. Ajdodla-

¹ I.Karimov. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. 7-jild. T.: «O‘zbekiston», 1999, 89-b.

² I.Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. T.: «O‘zbekiston», 2000, 495–496-b.

³ I.Karimov. Asarlar. 1-jild, 107-b.

rimiz qo'shni xalqlar madaniyatiga, turmush tarziga e'tibor bilan qarang, o'zlaridan meros qoldirgan o'lmas ma'naviy obidalarni turli tillarda yaratishgan. *"O'z kuchiga ishongan xalqning bag'ri keng bo'ladi"*, deydi Prezident¹.

Milliy mafkura millatning fikr maydoni, uning asriy orzulari, kela-jak rejalarining munazzam bir ifodasidir. Ma'naviyatimiz an'analardan kelib chiqib, tushunib yetishimiz lozimki, biz ishlatadigan "mafkura" so'zi sovet davri targ'ibotchilarining tilidan tushmay kelgan "ideologiya" tushunchasining ayni tarjimasini emas. Mafkura – fikr maydoni, uni xoh tor qolip qilib oling, xoh jahon sivilizatsiyasi va milliy ma'naviyatimiz qadriyatlarini uyg'unlashtiruvchi keng tafakkur olami sifatida yondoshing. Albatta, har bir ijtimoiy toifaning, siyosiy harakatning, guruhning o'z mafkurasi bo'lishi mumkin. Bu tabiiy holat. Ammo millat mafkurasi uning tarkibiga kiruvchi barcha toifalar va guruhlarning maqsad yo'nalishi, tafakkuridagi eng umumiy tomonlarni birlashtiradi. Uning ahamiyati ham shunda. Elni Vatan manfaatini birlashtiradi, degan qutlug' ibora bor. Milliy istiqloq mafkurasi bizga el-yurtimiz, Vatanimiz oldidagi fuqarolik burchimizni teran anglab yetishimizga yordam beradi, yosh avlodning har bir vakilini haqiqiy millat farzandi bo'lib ulg'ayishiga ko'maklashadi. Milliy istiqloq mafkurasi qonun moddasi kuchi bilan emas, ma'naviy kamolot orqali erishiladigan hidoyat yo'lidir.

Mustaqillikning ikkinchi yilida asosiy qonunimiz qabul qilindi. Uning ikkinchi bobi 12-moddasida *"O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas," deb yozib qo'yilgan*². Yetmish yil totalitarizm jabrini tortgan xalqimiz bu qoidaning qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini yaxshi tushunadi. *"Uzoq va yaqin tarixdan yaxshi ma'lumki, – deb ta'kid etadi Prezident, – biron mamlakatda, biron davlatda yakka-yu yagona g'oya yoki mafkura hukmronlik qilar ekan, bu jamiyat, bu davlat, albatta inqirozga yuz tutadi"*³. Chunki hayot doimo o'zgarishda, rivojlanishda. Inson tafakkuri, uning intilishlari, oldiga qo'ygan maqsadlari ham doimo o'zgarib, takomillashib boradi. Shu sababli unga har qanday g'oyaviy, mafkuraviy tazyiq o'tkazishga urinish aks ta'sir

¹ O'sha kitob, 107-b.

² O'zbekiston Konstitutsiyasi, T.: «O'zbekiston», 1992, 11-b.

³ I.Karimov. Asarlar. 8-jild, 467-b.

ko'rsatishi, noxush oqibatlariga olib kelishi tabiiy. Qolaversa, jamiyatning rivojlanish jarayoni ham undagi yetakchi tamoyillarning vaqti-vaqti bilan yangilanib, o'zgacha ma'no, o'zgacha tarkiblar hosil qilib turishini taqozo qiladi. Undagi ijtimoiy toifalarning mavqeyi va ahamiyati ham turli davrlarda turli holatda bo'ladi. Shunga muvofiq siyosiy kuchlar nisbati ham muayyan o'zgarishlarga uchrashi mumkin. Shunday ekan, hech qaysi mafkura, jumladan, hatto milliy mafkura ham hayotiy ehtiyojlardan uzoqlashib, qotib qolgan aqida holiga tushmasligi uchun "*davlat mafkurasi maqomiga ko'tarilmasligi, aylanmasligi kerak*".

"*Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizga xos bo'lgan eng muqaddas tuyg'u va tushunchalarning mujassam ifodasi bo'lishi kerak*",² – deydi Prezident. Milliy mafkurani o'zlashtirish, bir tomondan, tafakkurimizning milliy ma'naviyatimiz ildizlaridan muntazam oziqlanib, quvvat olib turishi bilan bog'liq. Ikkinchi tomondan, jahon madaniyati samaralaridan bahramand bo'lmagan, zamon ruhini his qilmagan odam hech qachon milliy mafkuraning mohiyatini yaxshi anglab yeta olmaydi. Chunki odam o'z qudratini to'g'ri belgilashi uchun maydonga chiqib, mardlar bilan kuch sinashi kerak. Shu ikki jihatning uyg'unligiga erishish milliy mafkurani har bir inson ruhida voqean shakllantirish bo'ladi. Asli milliy mafkura yo'q joydan sun'iy hosil qilinmaydi, allaqanday kabinetlarda o'tirib to'qib chiqarilmaydi. Bu haqiqatni Prezident O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi umumiy yig'ilishida 1994-yil yozida so'zlagan nutqidayoq batafsil tushuntirib bergan edi. Unda islomiy qadriyatlar, ma'naviy meros, xususan, Sharq falsafasini teran o'rganish haqida so'zlab, Yurtboshimiz yaqin o'tmishdagi qaramlik mafkurasidan xalos bo'lish uchun "*o'zimizning asrlar sinovidan o'tgan, ulug' ajdodlarimiz bizga qoldirgan milliy mafkura va tafakkurimizni tiklash, uni zamonaviy umumbashariy ruh bilan boyitish vazifamiz*" ekanligini ta'kidlagan edi³.

Keyinchalik 2000-yil 6-aprelda Oqsaroy qarorgohidagi suhbat asnosida bu haqda mukammal ta'rif shakllandi. Prezident unda yuqoridagi fikrni batafsil ifodalab aytdiki, "*milliy mafkuramiz xalqimizning azaliy an'alariga, udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga, bir so'z bilan*

¹ O'sha kitob, 467-b.

² O'sha kitob, 502-b.

³ I. Karimov. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. T., «O'zbekiston», 1996, 260-b.


aytganda, o'z milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning dunyoqarash va tafakkuriga asoslanib, shu bilan birga, zamonaviy, umumbashariy, umuminsoniy yutuqlardan oziqlangan, ularni o'ziga qamrab olgan holda, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq manfaati, uning farovonligi yo'lida xizmat qilmog'i darkor".

Milliy mafkuraning ma'naviyatga nisbati qanday? Bu nisbatni to'g'ri aniqlash uchun yana bir narsani e'tiborga olish lozim bo'ladi. Mustaqilligimizning uch asosiy jihati mavjud. Siyosiy mustaqillik, iqtisodiy mustaqillik, ma'naviy mustaqillik. Bularni bir-biridan judo qilib bo'lmaydi. Ammo har birining o'ziga xos masalalari ham bor. Biz ularni keyinroq yana batafsil ko'zdan kechiramiz. Hozircha ta'kidlash o'rinliki, siyosat, iqtisod va ma'naviyat sohalarida bizning bugungacha erishgan yutuqlarimiz darajasi barobar emas. Undan tashqari har bir sohaning mohiyatidan kelib chiqsak, milliylik unsurining salmog'ida ham farq bor. Demak, dunyo xalqlari tajribasidan biz o'rganishimiz, balki bevosita o'zlashtirishimiz kerak bo'lgan narsalar turli yo'nalishda turlicha miqyosda bo'lishi tabiiydir. Shunday ekan, milliy mafkuramiz tizimini faqat yoki asosan ma'naviy merosimizda mavjud qadriyatlarga bog'lab qo'yish voqelik talablariga to'liq javob berishi qiyin. Chunki mafkuramiz, ya'ni kelajak rejalarimizni belgilovchi va aniqlashtiruvchi maqsad yo'nalishlarimiz tizimida yuqorida sanab o'tilgan har uch yo'nalish: siyosat, iqtisod va ma'naviyat sohasiga oid muammolar barchasi o'zaro uyg'unlikda qamrab olinadi. Ma'naviyat shular ichida faqat bir yo'nalishdir. Albatta, juda muhim yo'nalish, asli ma'naviyat masalalarini yechmay turib, na iqtisodiy, na siyosiy vazifalarimizni tugal hal qilib bo'lmaydi; ammo baribir uch yo'nalishning biri, xolos. Iqtisod yoki siyosat sohalaridagi dolzarb yumushlarni ham hech qachon, xalq ma'naviyatini talab darajasida yuksaltirib olib keyin amalga oshiramiz, deb orqaga tashlab bo'lmaydi. Bu sohalar bir-biri bilan oldin-keyin emas, bir paytning o'zida, teng rivojlantirilib boriladigan sohalaridir.

2-fasl. Milliy ma'naviyat nazariyasini shakllantirishning umum-metodologik asoslari

Qaramlik davrida marksizm falsafasi totalitar tuzum imkoniyatlari-

¹ I. Karimov. Asarlar. 8-jild, 466-b.



dan foydalanib, yagona haqiqatga da'vo qilishi oqibatida uning metodologik asosi qilib olingan dialektika xususida ham bir tarafdama tasavvurlar shakllandi. Sobiq SSSR hududida dialektikadan boshqa metodlar g'ayri ilmiy deb e'lon qilindi. Faylasuflarimiz Forobiydan ham «dialektika» topishdi, o'sha davrlarda. Asli bu yerda atamalarni chalkashtirish bor, xolos. Qadim Yunon falsafasidan islom ilmiga o'tgan narsa – «ilmi jadal», shuning yunonchasi «dialektika» deyiladi. «Ilmi jadal» – bahs mantig'i, o'ziga xos ilmiy bahs yuritish metodologiyasi. U barcha fanlar uchun «yagona» metodologik zamin bo'la olmaydi.

Ammo metodologiya muammosi baribir ilmiy voqelikda mavjud, undan qutulib bo'lmaydi. 1999-yildan boshlab O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyotining iqtisodiy, siyosiy-ijtimoiy, ilmiy-falsafiy va ma'naviy asoslari bo'yicha nomzodlik va doktorlik ilmiy darajalari, dotsentlik va professorlik ilmiy unvonlariga da'vogarlar uchun maxsus imtihonlar kiritildi. Bu bejiz emas. Ma'lumki, ushbu fanning asosini Prezident I. Karimov asarlari tashkil etadi. Demak, Prezident asarlari mamlakatimiz miqyosida bugungi kun ijtimoiy fanlar sohasi uchun metodologik zamin bo'lib xizmat qilishi nazarda tutilmoqda. Bu to'g'rimi? Nihoyatda to'g'ri. Chunki O'zbekistonning milliy mustaqilligini I. Karimov e'lon qildi. O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li konsepsiyasini I. Karimov ishlab chiqdi.

Prezident I. Karimov asarlarida o'z aksini topgan g'oyalar va qarashlar bugungacha millatimiz va butun insoniyat bosib o'tgan taraqqiyot yo'llari tajribasini imkon va zarurat darajasida hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Demak, uning asarlarida taklif etilayotgan metodologik asoslar ham bugungacha bashariyat ilmi erishgan yutuqlarga begona emas. Shu bilan birga bizning yo'limiz muayyan darajada o'ziga xos ichki yaxlitlikka ega va biror-bir zamon va makonda ishlab chiqilgan metodologik asoslarning hech birini hech qanday o'zgarishsiz, taqlidiy shaklda bugungi bizdagi ijtimoiy ilmga bevosita poydevor qilib, ko'chirib olib kelib, o'rnatib bo'lmaydi. Qiyosiy tahlil uchun jalb etish boshqa narsa. Nega shunday? Chunki har bir millatning tarixi, ma'naviy qiyofasi, ustun qadriyatlar tizimi betakrordir. Alloh shunday yaratgan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida Prezident O'zbekistonning o'ziga xos iqtisodiy rivojlanish yo'li asoslarini ishlab chiqar ekan, birinchi marta *“dunyoda umumiy yo'l-yo'riqlar, o'xshash andazalar yo'q”*¹

¹ I. Karimov. Asarlar. 2-jild, 3-b.

ekanligini e'tirof etib, o'zimizning milliy "betakror yaxlit andazamizni ishlab chiqish"ni maqsad qilib qo'ydi¹. Buning uchun milliy tafakkur an'analarimizni insonlar ongida qayta tiklash zarur edi. "Ajdodlarimizning ruhi poklari va urf-odatlari, bizning eng yaxshi an'analarimiz qayta tiklanganda islohotlar muvaffaqiyatga erishadi", deb ta'kidladi Prezident². Asosiy qonunimizni yaratish jarayonida ham shu jihatga katta e'tibor berildi. Shu sababli mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasi "umumiy mazmunidan tortib oddiy bir bandiga qadar Xo'ja Ahmad Yassaviy bobomiz davrida, Amir Temur zamonida shakllangan milliy tafakkurni, muqaddas islomiy qadriyatlarni o'zida aks ettiradi"³.

Shunday qilib, mustaqil O'zbekistonning XXI asrdagi taraqqiyot yo'lini belgilab beruvchi umummetodologik asoslar Prezident I. Karimov asarlarida o'z aksini topgan bo'lib, quyida biz ushbu asoslarning o'z mavzuyimizga bevosita aloqador bo'lgan ba'zi muhim jihatlarni qisqacha ko'zdan kechirib o'tamiz.

a) ko'p qutbli dunyo

Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" kitobi mustaqillik davri milliy mafkurasining umummetodologik asoslari shakllanishida muhim bosqich bo'ldi. Bu asar voqelikka yondoshuv va muammolar tahlilida mutlaqo yangicha g'oyalarni oldinga suradi.

"Bu yorug' olamda biz kimmiz va ne bir sir-sinoatimiz, qayoqqa qarab ketayapmiz?" deb o'z-o'ziga savol beradi kitob muallifi. XXI asr bo'sag'asida dunyo ko'zimizga qanday ko'rinadi? Uning fazilat va qusurlari nimada? "Biz yashayotgan davr qanday xususiyatlarga ega?"⁴ Bu yorug' jahon marksizm talqiniga mutlaqo muvofiq emasligini Yurtboshining kitobidan yorqin tasavvur qilamiz. Masalan, sobiq SSSR davrida tashqi siyosat muammolari ham dunyoni qarama-qarshi ikki qutbga bo'lingan holda tasavvur qilish asosiga qurilar edi. Jumladan, o'sha davrdagi sho'rolar tuzumi uchun eng asosiy xavf manbayi "xalqaro imperialistik kuchlar" hisoblanar edi. Sovet jamiyatidagi barcha ichki illatlar manbayi ham "feodal va burjua o'tmish sarqitlari"

¹ I.Karimov. Asarlar. 1-jild, 277-b.

² I.Karimov. Asarlar, 2-jild, 13-b.

³ O'sha kitob, 93-94-b.

⁴ I.Karimov. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-jild. T.: «O'zbekiston», 1998, 31-b.

hamda “jahon imperializmining nayranglari” oqibati deb qaralardi. Muallif bu tasavvurlarning o‘tmishga aylanganini qayd etadi: *“Ikki mafkuraviy tuzumning kurashi va bu kurashning xalqaro hayotning hamma sohalariga soya tashlashi ostida o‘tgan kuchli qarama-qarshilik barham topdi”*¹.

Dunyo endi ikki qutbli emas, deb ta’kidlaydi Prezident o‘z asarida va ushbu ko‘p qutbli dunyoda har bir millat, har bir inson o‘z yo‘lini to‘g‘ri topib yura olishi uchun voqelikka qanday nazar bilan qarashni o‘rgatadi. Nasihat qilib, ko‘rsatma berib emas, shaxsiy namuna ko‘rsatib, voqeyi ibrat orqali namoyon qiladi. Bu muhim g‘oya Prezidentning falsafiy qarashlari uchun yangilik emas. I. Karimov 1995-yil 27-oktabrda O‘zbekiston teleko‘rsatuvlar muxbiri bilan suhbatdoyoq bugungi kunda *“ko‘p qutbli dunyo haqida fikr yuritish lozim bo‘ladi”*,² deb aytgan edi. U Birlashgan millatlar tashkilotining vazifalari haqidagi o‘z mulohazalari bilan o‘rtoqlashar ekan, yana shu fikrni rivojlantirib shunday degan edi: *“Afrika qit‘asi vakillari o‘zlariga xos, osiyoliklar – boshqacharoq fikr qiladi. Amerikaliklarning o‘z yondoshuvlari, yevropaliklarning o‘z yondoshuvlari bor”*³. Demak, shunday sharoitda jahonning 187 davlati vakillaridan tuzilgan tashkilotning asosiy vazifasi – *“xalqlar o‘rtasidagi ahillikni ta‘minlash, turli qarama-qarshiliklar, to‘qnashuvlarga olib keladigan nizolarga yo‘l qo‘ymaslikdan iborat”* bo‘lmog‘i tabiiydir⁴.

Prezidentning yangi kitobida xavfsizlikka tahdid soluvchi omillar ham, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari ham turfa yo‘nalishda, yashab turgan dunyomiz, atrof-voqelik kabi serjilo va murakkab ekanligiga e‘tibor qaratilgan. Muallif ularni bir-bir sanab ko‘rsatar ekan, aslo yagona manbaga olib borib bog‘lamaydi, yagona dushman axtarmaydi. Kitobda bayon etilgan mamlakat xavfsizligiga tahdid soluvchi kuchlar turlicha va turli darajada quvvatga ega, taraqqiyotimiz kafolatlari ham rang-barang va turli-tuman omillarning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq.

Prezidentning bu yangicha yondoshuvi to‘lig‘icha, ham necha mingyillik milliy ma‘naviyatimiz an‘analariga, ham bugungi jahon fikriy kamolotining eng ilg‘or tamoyillariga tayanadi. Unda har bir shaxs

¹ I. Karimov. Asarlar. 6-jild, 41-b.

² I. Karimov. Bunyodkorlik yo‘lidan 4-jild. T, «O‘zbekiston», 1996, 62-b.

³ O‘sha kitob, 62-b.

⁴ I. Karimov Asarlar. 4-jild, 61-b.

ma'naviy hurligi, bir tomondan, vatan va millat manfaatlariga muvofiqlik bilan, ikkinchi tomondan, umumbashariy qadriyatlar muhofazasi bilan uyg'unlashgan. Zero, asl ma'naviyat shaxs, millat, bashariyat manfaatlarining uyg'unligidadir. Bu uyg'unlik yagona Oliy Haqiqatga og'ishmay intilishda namoyon bo'ladi.

b) inson – dunyo mehvari

Bu dunyo ko'p qutbli bo'lsa, uning mehvari, tayanchi qayerda, aniqroq aytadigan bo'lsak, dunyoga yondoshuvda qaysi nuqtaga tayanmoq kerak?

Yevropa falsafiy tafakkurida inson va jamiyat munosabatlariga nisbatan olganda ikki xil yondoshuvni kuzatamiz. Ulardan birinchisi jamiyatni birinchi o'ringa qo'yib, undan alohida inson taqdirini, uning fazilat va qusurlarini keltirib chiqarishga intiladi. Bu yondoshuvning ildizi chuqur. Marksning «inson o'z mohiyatiga ko'ra barcha ijtimoiy munosabatlar majmuyidir», deb bergan ta'rifining uzoq tarixi avvalida Arastuning “Zoon politikon”(ijtimoiy maxluq) atamasi turadi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Hegel falsafasi ham qadim Yunondan boshlangan yo'nalishni davom ettirib “mutlaq g'oya”dan keyin moddiy borliq, ya'ni tabiat, undan keyin jamiyatni va oxirida alohida subyektni olib tadrijiy tahlil etadi. Bunga keyinchalik marksistlar “obyektiv idealizm” deb tang'a bosishgan. Yevropa falsafasining ikkinchi yo'nalishini faylasuflarimiz “subyektiv idealizm” deb nomlab o'rganishgan bo'lib, bunda birinchi o'ringa inson shaxsi chiqariladi. Bugun dunyoda keng yoyilgan ekzistensializm, freydizm kabi falsafiy tizimlar, darhaqiqat, inson shaxsi, uning o'y-kechinmalarini falsafiy tahlil markaziga qo'yishi bilan ajralib turadi. Bu sohada XX asrning yetakchi faylasuflaridan hisoblangan Erix Frommning jiddiy mushohadalari ko'pchilikning e'tiboriga sazovor bo'lib kelmoqda. Ammo bizning maqsadimiz bugungi kun Yevropasidagi falsafiy bahslarni tahlil qilish emas. Bizni birinchi navbatda o'z milliy ma'naviyatimiz an'analari qiziqtiradi.

Alloh Odam Atoni yer yuzida xalifa qilib yaratganligi ilohiy kalom bilan tasdiqlanishini muqaddimada keltirib o'tgan edik. Bu maqom inson zotiga nafaqat imtiyoz, balki juda og'ir mas'uliyat yuklaydi. Inson yer yuzidagi barcha Alloh yaratgan mavjudotlarni tasarruf qiladi, shu bilan birga ular uchun mas'ul hamdir. Agar Hegel o'z yaxlit falsafiy tizimida nazarini “mutlaq g'oya”dan moddiy borliq(tabiat),

jamiyat orqali alohida subyekt (Inson)ga qarab yo'naltirgan bo'lsa, bu uning muayyan ichki intilishlari, maqsad yo'nalishi, va balki, u yashab ijod etgan muayyan zamon va makonning taqozosidir. Bugun bizning muayyan sharoitimizda Prezident I. Karimov mutlaqo boshqacha yondoshuvni taklif etmoqda. Bugun biz – O'zbekiston xalqi bir tan-u bir jon bo'lib, o'zimiz saylab qo'ygan Prezidentimiz yetakchiligida yangi voqelik – mustaqil va mutaraqqiy Vatan, farovon va ozod jamiyat yaratmoqdamiz. Buning uchun “ijtimoiy maxluq” emas, qudratli yaratuvchi kuch egasi bo'lmish erkin va sobitqadam Inson shakllanishiga erishmog'imiz kerak.

“Bizning asosiy maqsadimiz, – deydi Prezident, – bir kishi yoki jamoat tashkilotlarining fikri davlat tuzilmalarining fikridan ustun bo'ladigan fuqarolar jamiyati qurishdan iborat”¹.

Darhaqiqat, o'tmishimiz qancha buyuk bo'lmasin, kelajagimizning ulug'vorligi millatning har bir a'zosi, O'zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi ushbu kelajakda Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, inson baxti to'kis ta'minlanishi uchun qay darajada faollik ko'rsata bilishi va bu faolligining samaralari, unumi bilan belgilanadi. Buning uchun esa imon va ilm, iqtidor va iste'dod, iroda qudrati va maqsad yo'lida fidoiylilik, keng dunyoqarash va erkin fikr kerak. Agar qaysi millat o'ziga mansub har bir insonning barcha ichki imkoniyatlari, iste'dodi ro'yobga chiqishiga sharoit yaratmas ekan, har bir shaxsning tashabbusi qadr topmas ekan, har bir yosh qalbida bilimga, tafakkurga, faol yaratuvchilikka intilish ishtiyoqi alanga olmas ekan, millat kamoli, mamlakat qudratining yuksalishi haqidagi gaplar og'izda qolib keta beradi. Har bir fuqarosining baxti uchun qayg'urmagan jamiyat yetuk jamiyat bo'lmaydi. Shu sababli mustaqil yurtimizda o'tkazilayotgan barcha islohotlar, qabul qilinayotgan barcha qonunlar ruhi shunga yo'nalmoqda. Jahondagi eng oliyjanob va mas'uliyatli yumush – do'stingni, hamkoringni, qo'shningni, xullas, o'zga insonni *“ulug' maqsadlar yo'lida yo'ldoshlik qilishga ko'ndirish,”* – deydi Yurtboshimiz².

Tavhid ta'limoti “vahdatda kasrat, kasratda vahdat” g'oyasiga taynadi. Har bir inson Borliq haqiqatining bir jihatini ifodalaydi, butun insoniyat fikri umumiy maxrajga keltirilsa, haqiqatga ancha yaqin ke-

¹ I.Karimov. Asarlar. 4-jild T., 1996. 80-b.

² I.Karimov. Asarlar. 4-jild, 69-b.

linadi. Bu g'oya milliy ma'naviyatimizdagi yetakchi g'oyalardan bo'lib, ayniqsa, Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonida yorqin ifodalangan. I. Karimov xuddi shu g'oyani amaliyotchi sifatida quyidagicha bayon qiladi: "*Har qanday fikrni umumiy fikrlar majmuyining bir bo'lagi deb hisoblab, bundan kerakli xulosalar chiqarish lozim*"¹.

Borliqda biz bilgan va bilmagan dunyolar, biz bilgan va bilmagan shaxslar(subyektlar), biz bilgan va bilmagan munosabatlar mavjud. Shunday ekan, biz Borliq haqiqati haqida umuman fikrlamoqchi bo'lsak, kalavaning uchini topa olishimiz dargumon. Agar biz nimanidir aniq tasavvur qilib, hayotimizga bevosita tatbiq qilishni istasak, o'zimiz inson ekanmiz, o'z mohiyatimizdan kelib chiqishimiz, ya'ni inson shaxsini, uning voqe ehtiyojlarini diqqat markaziga qo'yib, voqelikning aniq maqsadlar sari yo'nalgan modelini yaratishimiz zarur.

Marksizm jamiyatni birlamchi qilib olib, insonning mohiyatini undan keltirib chiqarmoqchi bo'lgani uchun qanday usul bilan bo'lmasin (masalan, inqilob, ya'ni siyosiy to'ntarish vositasida) ijtimoiy vaziyatni o'zgartirishga erishilsa, inson ham shunga qarab o'zgaradi, degan aqidada bo'ldi. Albatta, atrof-voqelikning insonga mutlaqo ta'siri yo'q, deb hisoblash to'g'ri emas. Ammo inson ma'naviy kamoloti ta'minlanmasa, turli siyosiy to'ntarishlar faqat fojialarni ko'paytiradi, xolos. Bunga tarixning achchiq saboqlari — dalil. Inson mustaqil tafakkur egasi, shu sababli har bir alohida shaxs o'z atrofida yuz berayotgan muayyan voqealarga o'ziga xos munosabat namoyon etadi, voqelikni hech qachon hamma bir xil qabul qilmaydi. Demak, birov o'ziga nisbatan yuz bergan salbiy hodisadan ijobiy xulosa chiqarsa, ikkinchi kishi, aksincha, ijobiy munosabatga salbiy aks ta'sir namoyon etishi ham mumkin.

Inson mohiyatida asli yaratuvchilik yetakchi o'rin tutadi. Dunyoning obodligi insonning yaratuvchilik faoliyati bilan bog'liq. Insoniyat yaratuvchiligi bilan barhayot, kurashlari bilan emas. Demak, har bir zamon va makonda jamiyat taraqqiyotini insonlarning faol yaratuvchiligi belgilaydi, aksincha emas. Mustaqillik sharoitida nihoyat ushbu o'zak muammo to'g'ri hal qilindi. Hayotga yondoshuvda diqqat markazi "jamiyatga" emas, alohida insonga qaratildi. Iqtisod sohasida bu narsa ayniqsa yaqqol namoyon bo'lmoqda. "Jamiyat"ga tayangan tuzum "ijtimoiy" mulkning yakka hukmronligini o'rnatib, xususiy mulk-

¹ O'sha kitob, 204-b.

ka egalikni jinoyat darajasida talqin etib, qonun bilan taqiqlab qo'ydi. Faqat mustaqillik tufayli har bir insonning mulkni erkin tasarruf qilish huquqi Konstitutsiyamiz asosida to'liq qayta tiklandi, jumladan, endilikda xususiy mulk barcha boshqa mulk turlarining poydevori sifatida qaralmoqda. Bu o'zgarish iqtisod sohasida alohida inson shaxsi birinchi o'ringa chiqayotganligini anglatadi.

Haqiqiy xalq hokimiyatchiligini mustahkamlash, qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolar jamiyatini shakllantirish yo'lida olib borilayotgan islohotlar esa siyosat sohasida alohida shaxs mavqeyini birinchi o'ringa olib chiqishga qaratilgan. Siyosat sohasida erkinlashtirishni kengaytirish rejalari ham yana bir marta davlatimiz va Prezidentning ushbu yo'nalishga ustuvor ahamiyat qaratayotganligidan darak beradi.

d) iqtisod, siyosat, ma'naviyat: inson va jamiyat hayotida ularning o'zaro uyg'unligi zarurati

Moddiyunchilar jamiyatni birinchi o'ringa qo'yishlariga yana bir sabab bor. Ma'lumki, inson jamoa bo'lib yashaydi, shu bilan birga har bir inson moddiy vujud sifatida nafaqat atrofidagi o'zi singari mavjudotlar bilan, balki tabiat, aniqrog'i moddiy borliq bilan ham doimo amaliy munosabatda bo'lishga majbur. Shundan kelib chiqib, moddiyunchilar insonning mohiyatini iqtisodiy va ijtimoiy (jumladan, siyosiy) munosabatlar doirasida belgilashga harakat qilishadi. Ular dinni ham, madaniyatni ham faqat ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar majmuyidan keltirib chiqarmoqchi bo'lishadi. Bunday yondoshuvda inson moddiy, biologik mavjudot sifatida namoyon bo'ladi. Ammo uning boshqa biologik mavjudotlardan mohiyatan farq qiluvchi maxsus munosabatlar doirasi mavjudligi va bu munosabatlar o'zicha mustaqil sohani tashkil etishi tan olinmay, soyada qolib ketadi. Bu soha insonning Haq bilan, Borliqning mohiyati bilan munosabatiga oiddir.

SSSR davrida hukmron komfirqa va davlatning barcha qarorlarida iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy masalalarga katta ahamiyat berilgan holda madaniyatga eng oxirida g'aribgina bir joy ajratilar, "ma'naviyat" tushunchasi esa o'sha paytlarda yuqori doiralarda umuman ishlatilmas edi. Alohida qayd etib o'tish joizki, milliy ma'naviyat nazariyasining shakllanishiga O'zbekiston Prezidentining qo'shgan eng muhim hissasi ma'naviyatning iqtisod va siyosat bilan bir qatorda inson va jamiyat hayotidagi alohida mustaqil o'rni va ahamiyatini ajratib ko'rsatish

bo'ldi. Bizuz nafaqat ma'naviyat nazariyasi, balki insonning mustaqil mohiyati haqidagi g'oya ham o'z mukammal izohini topmay qolib kelayotgan edi.

Prezident I. Karimov doimo iqtisod, siyosat va ma'naviyatning uyg'un rivojlanishi zarurligini ta'kidlab keladi: *“Davlat qurilishi, iqtisodiy rivojlanish jarayonlari ma'naviy kamolot, yuksak axloqiylik bilan to'la uyg'un bo'lmog'i kerak»*.¹ Chunki mustaqilligimizning uch tayanchi – mustaqil milliy siyosat, iqtisodiy qudrat va xalq ma'naviyati bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Agar siyosiy mustaqillik bo'lmasa, millat asta-sekin o'zligini yo'qota boradi, iqtisodiy mustaqillik bo'lmasa, siyosiy mustaqillikning zamini mo'rt bo'ladi. Ammo ma'naviy mustaqillik bo'lmasa, millatning o'zi bo'lmaydi. Faqat ularning o'zaro uyg'un rivoji ta'min etilsagina, O'zbekiston ulug' yurt sifatida jahon hamjamiyatida o'z munosib o'rnini egallay oladi.

Iqtisod, siyosat, ma'naviyat tushunchalari bugungi kunda turli doiralarda har qadamda ishlatilmoqda. Bu masalaga iqtisodchining o'z qarashi, siyosatshunosning yana mustaqil ta'riflari bor. Ammo inson va jamiyat hayotini uch yo'nalish yoki uch sohaga ajratib o'rganishning o'ziga xos jihatlari mavjud. Avvalo, O'zbekiston Prezidentining ushbu yo'nalishdagi mulohazalarini milliy ma'naviyatimiz an'analari va jahon falsafiy tafakkurining turli oqimlariga xos umumiy jihatlardan uyg'unlikda olib, xulosa qiladigan bo'lsak, inson hayotining bu uch yo'nalishi voqelikda o'zaro qanchalik murakkab va chatishib ketgan bo'lmasin, ularni bir-biridan aniq farq qilgan ma'qul. Chunki iqtisod, siyosat va ma'naviyat insonning Borliq bilan turlicha mustaqil munosabatlariga oid bo'lib, ulardan har birining manbasi ham, maqsadi ham alohidadir.

Inson hayotida ma'naviyat sohasining mustaqil ahamiyati alohida ta'kidlanishi, qolgan sohalarning o'zaro chegaralarini ham qayta ko'rib chiqishni taqozo qiladi. Ulardan, shartli ravishda, iqtisod yo'nalishi deb nomlash mumkin bo'lgan birinchisi inson bilan atrof tabiat orasidagi amaliy munosabatlardan iborat. Buning asosida insonning moddiyligi yotadi. U moddiy vujud sifatida tabiat bilan doimiy modda almashuv holatida bo'ladi. Buning uchun inson o'zгалar bilan ham murakkab munosabatlarga kirishadi. Ammo bu yo'nalish doirasida insonlarning bir-biri bilan munosabati bevosita ular orasidagi nisbatga qaratilgan

¹ Islom Karimov. Asarlar. 3-jild, 354-b.

emas, balki tabiat bilan modda almashuv munosabatlarini tashkil etishga yo'nalganidir.

Insonlarning bevosita bir-biri bilan munosabati ham o'z mustaqil asosiga ega. Har bir insonning o'zga insonlar bilan bevosita munosabatlariga oid bo'lmish bu yo'nalishni, yana shartli ravishda, siyosat deb atash ma'qul ko'rindi. Bu munosabatlar nimada ko'rinadi? Iqtisodiy, ya'ni moddiy ta'minot bilan bog'liq muomalalar bevosita siyosatga aloqasi yo'q, buni yuqorida ham eslatdik. Sof siyosat doirasida insonlararo munosabatlar oxir-natijada mavqe va maqom masalasiga borib taqaladi. Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» dostoni voqealarining boshlang'ich tuguni ayni shu maqom va mavqe muammosidan ulgu olishi bejiz emas. Agar insonlar faqat «qorin to'ydirish» tashvishi bilan yashaganda, ularning hayvonlardan umuman farqi bo'lmas edi. Va iqtisodiy munosabatlar ham o'zga jonzotlardagi kabi anchayin ibtidoiy bosqichda qolib ketish ehtimoli bo'lardi. Ayni mavqe va maqom doirasidagi bahs xolis siyosiy munosabatlarni vujudga keltiradi. Makia-velli kabi mashhur g'arb allomalarining qarashlarida ushbu sof holda olingan siyosat o'z aksini topgan deyish mumkin.

Ammo inson nafaqat tabiat va o'zga insonlar bilan munosabatga kirishadi, balki u o'zining Haqqa, Borliqning mohiyatiga nisbatini ham bilmoqchi bo'ladi. Inson uchun bu yo'nalish ham o'ta muhim. Avvalo, inson biror narsaga ishonmay yashay olmaydi. Imon-e'tiqodsiz hayot – bema'ni umrguzaronlik, xolos. Qolaversa, inson ilmga, ya'ni Borliqni anglab yetishga o'zida juda kuchli ehtiyoj sezadi. Inson Borliqning mohiyati haqida muayyan tasavvur hosil qilmay yashay olmaydi. Yana inson doimo oldiga kattami-kichikmi bir maqsad qo'yib, shunga intilib, shu yo'lda qandaydir faoliyat ko'rsatib yashaydi. Aytish mumkinki, hayvon nuqtayi nazaridan qaraganda, inson o'zini ko'pincha bekordan-bekorga qiynaydi. Masalan, Tohirning Zuhroga ishq, bu yo'ldagi fidoiyliklari fiziologik ehtiyojlar nuqtayi nazaridan uncha tushunarli emas. Abu Ali ibn Sinoning umrini ilmga baxsh etishi, Alisher Navoiyning «Xamsa» yozishi ham moddiyuncha «jaydari» falsafa nuqtayi nazaridan anchayin oshiqcha o'zni qiynashdir. Ammo inson ma'naviyatida riyozat, ya'ni muayyan maqsad yo'lida barcha qiyinchiliklarni bo'yinga olish nihoyatda muhim o'rin tutadi. Yana insonda mehrga ehtiyoj bor. O'zgaga mehr ko'rgazish va o'zganing mehr ko'rish ehtiyoji. Bu tuyg'uni ham faqat g'arazli maqsadlarga bog'lash yetarli bo'lmaydi. Albatta, moddiyunchilar aytib o'tilgan har qaysi ma'naviy

ehtiyojga o'zlaricha moddiy zamin topib berishga harakat qiladilar. Hozircha, bu masalalar yuzasidan jiddiy bahs boshlamay turib, faqat bir narsani qayd etib o'tish joizki, inson hayotidagi uchinchi yo'nalish, ya'ni insonning Haqqa, Borliqning mohiyatiga bo'lgan munosabatini tan olmaslik insonning o'zga maxluqotlardan asliy farqini yo'qqa chiqaradi va oxir-natijada inson hayotini ma'nosizlantiradi. Chunki inson mohiyatan ma'naviy kamolot imkoniga ega bo'lgan yagona moddiy mavjudotdir.

Albatta, ta'riflab o'tilgan uch soha manfaatlari voqelikda nihoyatda chatishib ketgan, har qanday hodisada har uch soha unsurlari uchraydi. Bundan tashqari umuman mavjud uch sohadan birining muayyan muddat o'zgalaridan orqada qolishi, oqsashi qolganlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatib, ularni orqaga torta boshlashi ham tabiiy qonuniyat. Biroq tarix ibrati va mantiq xulosasi shundan dalolat beradiki, iqtisod, siyosat, ma'naviyat yo'nalishlarini bir-biriga bo'ysundirishga, birini-biridan keltirib chiqarishga urinish ham yaxshi natijalarga olib kelmasligi aniq.

3-BOB. MA'NAVIYAT – BOTINIY QUDRAT

1-fasl. Inson hayotida ma'naviyatning o'rni va ahamiyati. Fano va Baqo

Bugungi kunda “ma'naviyat nima?” degan savolga xilma-xil javoblar paydo bo'lmoqda. Ayniqsa, 1997-yildan boshlab mamlakatimizdagi barcha oliy o'quv yurtlarida “Ma'naviyat asoslari” fani o'qitila boshlanganligi munosabati bilan bu mavzuga olimlarimizning e'tibori yanada kuchaydi. Qator risolalar, o'quv qo'llanma va dasturlar chop etildi. Matbuotda kun sayin bu mavzuda katta-kichik maqolalar e'lon etilmoqda. Ushbu kitob va maqolalarda har kim aqli yetganicha ma'naviyat tushunchasiga ta'rif berishga, hech bo'lmaganda, munosabat bildirishga urinib kelmoqda. Ba'zan bir kishining o'zi bir maqolaning ichida turli ta'riflarni keltirgan holatlar ham uchraydi. Ma'naviyat nihoyatda keng qamrovli tushuncha bo'lganligidan bunga hayron bo'lmasa ham bo'ladi. Undan tashqari keltirilgan ta'riflarni barchasini dabdurustdan bekorga chiqarish, butkul noto'g'ri deb baholash ham insofdan emas, chunki ularning ko'pchiligida masalaning qaysidir qirrasini o'z aksini topgan bo'lishi mumkin.

Ammo, afsuski, yaqin-yaqinlargacha ko'pchilik masalaga jiddiy yon-

doshishga, ilgari nazariy tizim darajasida ko'rib chiqilmagan inson va jamiyat hayotidagi muhim yo'nalish, hassos bir sohaga kamoli e'tibor bilan razm solishga muvaffaq bo'lmadi.

Ushbu qisqa bayonda ma'naviyat xususida bildirilayotgan barcha fikr-mulohazalarni batafsil tahlil etish imkoni yo'q. Bir jumla bilan ularning ko'pchiligida uchraydigan umumiy kamchilikni ifodalaydigan bo'lsak, uni yangi voqelikka oid tushunchalarni eski andazalar qolipida talqin etishga urinish deyish mumkin. Masalan, shunday kitoblardan birida muallif yozadi: «Ma'naviyat moddiy hayotni aks ettiradi va jamiyatda mavjud bo'lgan ma'naviy hodisalar yig'indisi sifatida ko'zga tashlanadi»¹. Bu qarashning eskichaligi shundaki, muallif «Ma'naviyat moddiy hayotni aks ettiradi» deb, yana moddiyatni birlamchi, ma'naviyatni esa passiv (ko'zgu singari), ikkilamchi hodisa sifatida talqin etadi. Shu bilan ma'naviyat hodisasining mustaqil mohiyati inkor etilib, u moddiyatga to'liq tobe qilib qo'yiladi. Buning oqibatida ma'naviyatga yaratuvchilik quvvatiga ega bo'lgan alohida kuch deb qarash imkoni kesiladi. Qolaversa, «ma'naviy hodisalar yig'indisi» jumlasini kiritilishi bilan ta'rif berilayotgan hodisa umuman yaxlit mohiyat emas, degan haqiqatga xilof xulosaga yo'l ochiladi.

Bugun biz insonni birinchi o'ringa qo'yib, uning yaratuvchilik fazilati, ijtimoiy faolligi, ma'naviy qudratiga urg'u bermoqdamiz. Chunki O'zbekistonning buyuk kelajagini shakllantiruvchi bosh omillar – shular. Ammo yuqoridagi kabi ta'riflarda inson moddiy borliqning bir unsuri sifatidagina e'tirof etilib, boshqa maxluqotlardan farqli mustaqil mohiyati soyada qolib ketmoqda. Insonning mohiyati aslida murakkab bo'lib, ayni moddiyat va ma'naviyatning tutashuvi bilan izohlanadi. Ularning qay biri ikkinchisi orqali ta'riflanishi boshlansa, inson mohiyati haqida biryozlama tasavvur hosil bo'laveradi.

Bu sohada yo'l qo'yilayotgan yana bir kamchilik ma'naviyatni madaniyat, ruhiyat, axloq, tarbiya, did, dunyoqarash kabi muayyan darajada o'zaro aloqador, ammo mohiyatan mustaqil hodisalar bilan qorishtirib tushuntirishga moyillik tarzida namoyon bo'lmoqdaki, bu masalani o'z o'rnida batafsil ko'rib chiqish lozim bo'ladi. Hozircha biz ma'naviyatning inson hayotidagi o'rni masalasiga qaytamiz.

Oldingi bobda ta'kidlab o'tganimizdek, siyosat jamiyatda insonlarni uyushtirish, ular hayotini bir muayyan tartibga keltirish vositasidir. Tur-

¹ E.Yusupov. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. T., «Universitet». 1998, 5-b.

li siyosiy uyushmalar, jumladan, davlat ushbu vazifaga mas'ul bo'ladilar. Iqtisod esa insonning moddiy mavjudligini ta'minlash vositasi bo'lib, u ishlab chiqarish, foydali yaratuvchilik mehnatiga aloqador.

Ma'naviyat insonning ruhiyati bilan bog'liq. Inson ruhiyati, albat-ta, tashqi ta'sirlar natijasida o'zgarib turadi. Insonning iqtisodiy ahvoli, jamiyatda tutgan o'rni va mavqeyi uning ma'naviyatiga ta'sir qilmay qolmaydi. Ammo, baribir, ma'naviyat o'z mustaqil yo'nalishiga ega. Masalan, inson qanchalik boy, o'ziga to'q bo'lsa, shunchalik uning ma'naviy kamoloti yuqori yoki, aksincha, past bo'ladi, desak, har ikki hukmda ham yanglishib qolamiz. Alisher Navoiy, Xoja Ahrori Valiy, Maxdumi A'zam, Xoja Sa'd Jo'yboriy kabi allomalar ham ma'naviy barkamol, ham nihoyatda badavlat bo'lishgan. Shu bilan birga, dunyo molidan yuz o'girgan, umrini zohidlikda o'tkazgan buyuk allomalarimiz ham kam emas. Aksincha, nihoyatda ziyod mol-davlat sohibi bo'lgan holda ma'naviy kamolotdan uzoq kimsalar yoki na dunyo molini, na ma'naviy kamolotni qo'lga kirita olmagan bechoralar ham hayotda uchrab turishini hamma biladi.

Siyosat va iqtisodning manbasi ham, maqsadi ham ushbu foni dunyodan tashqarida emas. Inson zoti bu sinov dunyosiga kirib kelar ekan, undagi moddiy vujud iqtisodiy ehtiyojni tug'diradi, har bir tirik zot tug'ilgandan keyin kun kechirish tashvishiga tushadi. Siyosat jamiyatga oid tushuncha, insonlar jamiyati shakllangan ekan, unda turli shaxslar, toifalar manfaatlarini qaysidir bir usulda muvofiqlashtirib turish ehtiyoji mavjud. Ushbu ehtiyoj siyosatni paydo qiladi.

Ma'naviyat esa o'z manbasiga ko'ra ham, maqsadiga ko'ra ham bu foni dunyodan tashqariga — baqoga yo'nalgan. Ma'naviyat asli baqo-ning fanoda zuhur etishidir. Ma'naviyat inson uchun moddiy ehtiyoj ham, siyosiy zarurat ham emas. Ma'naviyat insonning o'z mohiyati oldidagi mas'ulligidir. Uning mohiyati esa Borliq abadiyatiga daxldor.

2-fasl. Ma'naviyatning turli ta'riflari. Ularning bir-biriga muvofiqligi

“Ma'naviyat — insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir. U yo'q joyda hech qachon baxt-saodat bo'lmaydi”, — deb yozgan edi Prezident mustaqillikning dastlabki yillaridayoq¹. Keyin-

¹ Islom Karimov. Asarlar. 1-jild, 81-b.

chalik «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida bu g‘oya yanada muayyanlik kasb etib, ma‘naviyat «insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da‘vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymonirodasini, e‘tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg‘otadigan qudratli botiniy kuch» sifatida ta‘riflandi¹. Xo‘sh, bu sehrli qudrat, bu botiniy kuch qanday bunyodga keladi?

Ma‘naviyat tushunchasining ta‘rifi, biz ba‘zan osongina hal qilib qo‘ya qolmoqchi bo‘lganimizdek, oddiy lisoniy jumboq emas, “ma‘no”, “ma‘ni” so‘zlarining bugungi biz tushungan mazmuni bilan yechilmaydi. Jaloliddin Rumiyning buyuk irfoniy asari behudaga “Masnaviyi ma‘naviy” nomi bilan shuhrat taratgan emas. Bu yerdagi “ma‘no” tushunchasi oliy bir mazmunni anglatmoqda, ulug‘ allomalarimiz uni “Haq asrori” deb ataganlar, zohiriy nazarlar uchun u “g‘ayb”, agar bugungi ilmiy ifodalarga ko‘chirsak, biz zohir ko‘zimiz bilan ko‘rib turgan cheksiz zamon va makonda cheksiz va hududsiz shakllar majmuyini to‘zg‘itib yubormay, g‘oyat bir murakkab tizimda ushlab turgan ichki uyg‘unlik, inson ongi hech qachon to‘liq anglab yeta olmaguvchi yaxlit mohiyatdir. Shaxs ma‘naviyati ayni shu behudud manbadan quvvat oladi.

Prezidentning ta‘riflari shu yaxlit mohiyatga tutash botiniy qudratga aloqadordir, uni boshqa, ikkilamchi hodisalardan, moddiy voqelik unsurlaridan keltirib chiqarishga urinish muammoni teran ilg‘amaslikni bildiradi. Bugun mustaqil va farovon O‘zbekiston atalmish buyuk voqelikni vujudga keltirish uchun har bir insondan, millatning har bir vakilidan alohida ichki quvvat, cheksizlikka tutashuvchi botiniy kuch talab etilmoqda. Ana shu kuch har bir inson ruhida yashirin, deydi Prezident. O‘zini mustaqil shaxs deb bilgan har bir inson uni o‘zi uchun kashf etishi kerak. Buning uchun, avvalo, ruhimizdagi xudbin mayllarni, yolg‘on hoyu-havaslarini, ro‘yolarni yengib o‘tib, cheksiz qudrat manbayiga qalbimizni ochishimiz lozim.

Ma‘naviyat – inson qalbida, ko‘ngil ko‘zgisida aks etgan Haqiqat nuridir, deyilgan ta‘rif birinchi marta ishlatilganda, ba‘zi faylasuflarimiz uni diniy-mistik ta‘rif deb baholadilar. Darhaqiqat, bu ta‘rif tasavvufiy talqinlarga suyangan so‘fiyona, ramziy ta‘rifdir. Zotan boshqacha ta‘rif bu cheksiz mohiyatni cheklab qo‘yishi mumkin. So‘fiy ulamolarimiz “Haq asrori” haqida faqat ishora, ramz, timsol bilan

¹ Islom Karimov. Asarlar. 7-jild, 381-b.

so'zlaganlar, chunki Haq ilmi biz uchun "g'ayb ilmi" dir, inson muhazalari esa doimo notugal va noto'kis. Ammo, baribir, inson aqli bir narsalarni aniqroq, muayyanroq bilgisi keladi, u yaxlit yog'duni ham kamalak ranglariga ajratmagunicha ko'ngli joyiga tushmaydi. Alloh inson aqliga shunday betizgin shiddat baxsh etgan ekan, bizda ne ixtiyor. Inson aqli, aniqrog'i, mantiqiy tafakkur, har qanday hayotiy uyg'unlikning ichki tarkibini birma-bir ko'zdan kechirib chiqish, uning qismlarini, bularning bir-biriga nisbatini tahlil va tadqiq etmoqqa qiziqadi, shuni amalga oshirmasa, ichi yonib, yuragi olovkana beradi.

Ma'naviyat inson qalbida aks etgan ilohiy nur, degan ta'rifda, majoziy shaklda bo'lsa ham, uning manbayi muayyan ma'noda inson jismidan tashqarida ekanligiga ishora bor. Bu bejiz emas. Alloh butun maxluqotlar qatori insonni ham moddiy mavjudot sifatida dunyoga keltirgan. O'tmishda ba'zi faylasuflar shartli ravishda «birinchi turtki» nazariyasi atalmish qarashlarni ham olg'a surgan bo'lib, unga ko'ra, go'yo Alloh olamni bir yo'la yaratgan-u so'ng unga muayyan rivojlantirish qonunlari baxsh etib, o'z holiga qo'yib qo'yan, boshqa uning ishlariga aralashishni lozim topmagan. Bu nazariya hayot tajribasida o'zini oqlamadi va shu sababli keyinchalik dunyo ilmida rad qilindi. Borliq haqiqati bilan inson orasidagi munosabat aslida bir martalik emas, doimiydir. Alloh «nuri» degan ramz bilan ifodalanuvchi ilohiy fayz ushbu munosabatning namoyon bo'lish shakllaridan biri bo'lib, u faqat insonlarga qaratiladi. U payg'ambarlarga bevosita vahiy tarzida, avliyolarga ilohiy jazba shaklida, oddiy insonlarga iste'dod va ilhom ko'rinishida, balki qobiliyat va yaratuvchilik qudrati sifatida yo'naltirilishi mumkin. G'aybni tan olmay, milliardlab insonlar e'tiqodini afyunga teng bilgan marksistlar ilohiy fayzni ham afsona deb talqin etdilar va uning inson hayotida namoyon bo'lish shakllarini turlicha usullar bilan «materialistik» izohlashga urindilar. Bu urinishlar hech qachon ilmiy dunyoni qoniqtira olgan emas. Ammo ateizm zo'rlik bilan mafkura asosi sifatida joriy etilgan zamonda «suyagi qotgan» sobiq mafkurachilar hanuz o'sha aldovlar tuzog'idan qutulib ketishi qiyin kechmoqda. Ular inson hayotining mohiyati faqat moddiy borliq bilan chegaralanmasligini tasavvurlariga sig'dirishga qiynalmoqdalar.

Shaxs ma'naviyati behudud. Chunki u Oliy haqiqat nurining inson qalbida aks etishi bilan bog'liq. Asli ilohiy oyatga tayanuvchi bu ma-

joziy ta'rif milliy ma'naviyatimiz takomil bosqichlari davomida mukammal shakllanib, turlicha tarzda qator allomalarimiz merosida ifodasini topgan. Majoziylik ilmning boshlanish nuqtasidir. Biz bugungi kun ilmiy ifodalari darajasida turib yuqoridagi ta'rifning falsafiy sharhini topishga ham urinib ko'rishimiz mumkin. Bunda tushunchalarning muqobilini qidirib topish va hodisaning mohiyatini sharhlash yo'lidan borgan ma'qul. Ma'lumki, "inson qalbi" birikmasi odatda "insonning ruhiy dunyosi" ma'nosida ishlatiladi. Oliy haqiqatni esa falsafiy tilda "Borliq haqiqati" deb atasak, o'ng'ayroq jaranglaydi. Endi "nurning ko'zguda aks etishi" nimani anglatishini aniqlasak, kifoya. Buning uchun eng to'g'ri yo'l yana ajdodlarimiz merosiga murojaat etishdir.

Masalaga insonning Borliq haqiqatini anglab yetishga bo'lgan urinishlari jihatidan qaraydigan bo'lsak, bizda buning ham ikki yo'li mashhur: ularning biri ilm yo'li bo'lsa, ikkinchisi so'fiylar tanlagan irfon yo'li. Ilm yo'li mantiqiy tafakkur, maxsus tajribalar va ularning tahlili shaklida amalga oshiriladi. Irfoniy bilimning manbayi bevosita Haq nurining qalb ko'zgusida aks etishi bilan bog'liq bo'lib, bu hodisani yaqin o'tmishda ateistik «ilm»nigina haqiqiy ilm deb o'rgangan ko'pchilik olimlar «mistika» deb baholab kelishdi. Aslida unday emas. Materialistlar tan oladigan ilm yo'li juz'iy haqiqatlarnigina bila oladi. Irfon yo'li esa bevosita Borliq haqiqatining mohiyatini anglab yetishga qaratilgan bo'lib, bu maqsadga faqat mantiqiy tafakkur va maxsus tajribalar orqali erishib bo'lmaydi.

Ma'naviyatning manbayi ilohiy fayz dedik. Shunday ekan, undan bahramand bo'lishning asosiy sharti nima? Bunga ham ajdodlarimiz merosida mukammal javoblar mavjud. Ajdodlarimiz irfoniy majozlarga tayanib, inson qalbini ko'zguga, Alloh fayzini nurga qiyos etishlaridan maqsad nima? Qadimda ko'zgu toblangan po'latdan tayyorlangan. Demak, temir ma'dani qazib olinib, uni maxsus ko'ralarda eritib, po'lat hosil qilib, uni toblab, so'ngra unga sayqal berilgan. Buyuk tasavvuf pirlari shogirdlarining ma'naviy kamolotini ayni shu murakkab jarayonga o'xshatganlar. Ilohiy nur barkamol aks etishi uchun ko'ngil ko'zqusini shunday mashaqqatli riyozat jarayonida poklash, unga to'kis sayqal berish lozim. Chunki yuksak darajada sayqal topmagan po'lat sahnida hech qanday nur aks etmaydi. Ayni shu ko'ngil ko'zqusini sayqallash jarayoni tasavvufda ma'rifat deyilgan. Milliy ma'naviyatimizda bu jarayonning qanday kechishi, ya'ni ma'rifat yo'llari masalasi ham batafsil ishlab chiqilgan. Ular ilm va imon, riyozat va

mehr tushunchalari orqali ifodalanuvchi o'zlikni anglash jarayoni bo'lib, shu murakkab, mashaqqatli, ammo hech qanday moddiy dunyo laz-zatlariga tenglashtirib bo'lmaydigan sururli jarayonda inson ruhi Borliq haqiqati bilan uyg'unlashib boradi. Demak, bugungi ilmiy tilimizda ajdodlarimiz shakllantirgan majoziy ta'rifni sharhlab beradigan bo'lsak, **Ma'naviyat** – Inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg'unlik deyish mumkin.

Inson – foni y vujud, u bu dunyoga bir kun keladi, taqdirida belgilangan umrini yashab, yana tuproqqa qo'shilib ketadi. Borliq haqiqati esa – boqiy, azaliy va abadiy. Inson ruhi Borliq haqiqati bilan uyg'unlashgan muddatda fanoda baqo zuhur eta boshlaydi, natijada inson ruhida hadsiz-hududsiz qudrat bilan botiniy tutashuv yuz beradi. Bu yerda faqat bir shart bor: xolislik, poklik. Ma'naviyat atalmish botiniy qudrat zarra g'araz, xudbinlik, kibrni ko'tarmaydi: botiniy tutashuv, Borliq haqiqati bilan uyg'unlik yo'qoladi. Alloh taolo o'z kitobida “meni poklab yod eting” deb amr etishining hikmati ham shunda.

3-fasl. Shaxs ma'naviyati va milliy ma'naviyat nisbati. Milliy o'zlikni anglash

Ma'naviyatni tadqiq etish oson ish emas, bu hozirgi kunda ushbu ilmni rivojlantirishga urinishlar o'ta qiyinchilik bilan samara berayotganida ham sezilmoqda. Ammo baribir uni «tutib bo'lmaydigan» o'ta mavhum narsa deb qaramaslik kerak. Ahli bashar ma'naviyatsiz bo'lmaydi, chunki aslida inson mohiyati moddiy va ma'naviyatning tutashuvidadir. Har bir shaxs, har bir ijtimoiy guruh yoki toifa, har bir elat, millat va mintaqa xalqlari o'z tabiati bilan yaratilgan. Demak, har birining o'ziga xos ma'naviy olami mavjud. Ushbu ma'naviy olamlar doimo bir xil saqlanmaydi, zamon va makonda o'zgarib, goh kamolot sari yuksalib, goh qashshoqlashib turadi. Bularning barchasini alohida olib o'rganish mumkin. Ammo bugun biz uchun eng muhimi, tadqiq va tahlil uchun eng qulayi – ikkita: shaxs ma'naviyati va millat ma'naviyati. Chunki, birinchidan, ma'naviyatning asosiy namoyon bo'lishi shaxs ma'naviyati va millat ma'naviyati shaklidir. Qolaversa, ijtimoiy guruh va toifalar millatning uzviy tarkibiga kirgani sababli, millat ma'naviyatini yaxshi tasavvur qilmay turib, undagi turli toifalarning alohida ma'naviy qiyofalarini gavdalantirishga urinish ishonchli xulosalar berishi mushkul.

Ma'naviyat – Inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg'unlik der

ekanmiz, bu bilan bir narsa aniq bo'ladiki, ushbu hodisaning yuz berish makoni va voqean mavjud bo'ladigan yagona zamini inson ruhiyati ekan. Shu sababli masalaga yuzakiroq qaragan moddiyunchilar ba'zan ma'naviyatni ruhiyat bilan adashtiradilar. Buning sababi har ikkisi ham g'ayri moddiy bo'lganligidan hodisani uning sodir bo'lish makoni bilan farq qilmaslikdan kelib chiqadi. Inson ma'naviy kamolot imkoniga ega bo'lgan biz bilgan yagona moddiy mavjudot. Shaxs o'zidagi ma'naviy kamolot imkonini yuzaga chiqara boshlagan inson. Demak, Shaxs ma'naviyati ushbu sohani o'rganishda asosiy obyekt ekanligi o'z-o'zidan ravshanlashadi.

Shaxs ma'naviyatini o'rganish ikki yo'nalishda bo'lishi mumkin. Birinchisi, muayyan shaxs ma'naviyatini o'rganish, ikkinchisi, ushbu hodisaning umumiy jihatlarini tasnif va tadqiq etish. Imkon nuqtayi nazaridan, birinchi yo'nalishda faqat ayrim hodisalarni, masalan, o'tmish va bugunning umummilliy ahamiyatga ega bo'lgan buyuk shaxslari ma'naviy dunyosini o'rganish mumkin bo'lib, mohiyatan bu ish millat ma'naviyatining tarkibiy qismlarini o'rganish demakdir. Chunki Millat ma'naviyati, tom ma'noda olganda, ushbu millatga qaysidir bir tarzda aloqador hisoblanuvchi o'tmish, bugun va kelajakdagi barcha shaxslar ma'naviyatining majmuyidan iborat.

Har bir shaxs, o'zi buni chuqur idrok qiladimi, yo'qmi — qat'i nazar, biror elat yo millatga mansub bo'lmay iloji yo'q, hech bir inson eldan butkul ajralib yashamaydi. Prezidentning g'oyatda hikmatli iborasi bilan aytganda, har bir inson *“o'zini xalqining bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o'ylab, mehnat qilib yashagandagina ma'naviyat bilan tutashadi”*. Buning ma'nosi, shaxs ma'naviyati voqelikda millat ma'naviyatidan ayri, undan tashqarida bo'lmaydi. Shunday ekan, mavjud ahvolni to'g'ri idrok etadigan bo'lsak, millat ma'naviyati haqida muayyan tasavvurga ega bo'lmay turib, alohida shaxs ma'naviyatini ham o'rganish imkondan tashqari.

Bilim — cheksiz. Chunki voqelik — cheksiz. Inson ruhiyati cheksiz jilolarga ega, Borliq haqiqati asli behudud. Demakki, har bir shaxs ma'naviyati ikki karra bepoyon va cheksizdir (agarchi mantiqiy jihatdan cheksizlikning karrasi bo'lmasa ham). Millat ma'naviyati ushbu millatga qaysidir bir tarzda aloqador o'tmishda yashab o'tgan, bugun yashab turgan va kelajakda yashaydigan hududsiz bir miqdordagi shaxslar

¹ Islom Karimov. Asarlar. 1-jild, 81-b.

ma'naviyatining majmuyi bo'lgani sababidan 3 karra cheksizlik darajasidagi hodisa sifatida tasavvur etiladi.

4-fasl. Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari

“Biz, – deydi Prezident, – iqtisodiy o'nglanish, iqtisodiy tiklanish, iqtisodiy rivojlanishni ma'naviy o'nglanish, ma'naviy poklanish, ma'naviy yuksalish harakatlari bilan tamomila uyg'un bo'lishini istaymiz”. Chunki xalq ma'naviyati o'nglanmaguncha, na ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda, na iqtisodiy sohada jiddiy yangilanishlar quvvatga kirishi qiyin.

Ma'naviyat juda murakkab, serqirra, shu bilan birga xalq diliga nihoyatda yaqin, tushunarli hodisa. Uni, bir tomondan, soxta «ilmiy» murakkab ta'riflar bilan mavhumlashtirmay, shu bilan bir paytda siyqa, odmi «targ'ibot»ga aylantirmay, xalq ongiga tiniq yetkazmoq, yosh avlod ruhiga esh qilmoq lozim. Bunda qanday me'yorlarga rioya etish zarurligini 1992-yildayoq O'zbekiston Prezidenti aniq tavsiflab bergan edi:

*“Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
Xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
Insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
Vatanparvarlik”*.

Mustaqillik ma'naviyatining asosini tashkil etuvchi bu to'rt negiz o'zaro chuqur ichki uyg'unlikka ega. Shu bilan birga bugungi kun uchun dolzarbli jihatidan alohida inson shaxsining o'z ichki imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi masalasi birinchi o'ringa chiqib turibdi. *“Erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir”*¹, deb ta'kidladi I. Karimov 1999-yili 14-apreldagi ma'ruzasida. Shu sababli biz ham ushbu masalaga oldingi mavzu doirasida batafsil to'xtalib o'tdik. Davlatimiz va Prezidentimizning milliy ma'naviyatimizni rivojlantirishga e'tibori, aslida va birinchi navbatda, har bir insonning haqiqiy erkinligini ta'minlashga bo'lgan asosli e'tiborini ko'rsatadi. Chunki o'zligini anglamagan odam, unga qancha imkon va sharoit yaratib bermang,

¹ Islom Karimov. Asarlar. 3-jild, 35-b.

² Islom Karimov. Asarlar. 1-jild, 76-b.

³ Islom Karimov. Asarlar. 7-jild, 381-b.

voqean hur va ozod bo'la olmaydi. Ammo o'zligini anglash degani, o'zining Vatanga, millatga, bashariyatga, Borliq haqiqatiga nisbatini to'g'ri belgilay bilish degani, bunga erishish osonlik bilan bo'lmaydi. "Ma'naviyat asoslari" fani ayni shu yo'nalishda bilim berishga qaratilgan.

4-BOB. DIN VA MA'NAVIYAT

1-fasl. Mustaqillik sharoitida dinga munosabatning tubdan o'zgarishi

Suhbatimiz boshida biz, ma'naviyat insonning Haq bilan munosabati, dedik. Ko'pchilik beixtiyor: bu dinning o'zi emasmi, deb xayolidan o'tkazishi mumkin. Shuning uchun bir yo'la shu mavzuni ham oydinlashtirib olib, keyin boshqa masalalarga to'xtalaylik.

Mustaqillik sharofati bilan 1300 yil mobaynida ota-bobolarimiz e'tiqod qilib kelgan islom diniga munosabat ham tubdan o'zgara boshladi. Sobiq "Ittifoq" davrida butun O'zbekistonda bori-yo'g'i 80 ga yaqin masjid faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, mustaqillikning dastlabki yillaridayoq minglab yangi masjidlar ishga tushdi. Ilgari birgina Buxoroda kichik bir madrasa tor doirada diniy bilim berib kelgan bo'lsa, bugungi kunda deyarli barcha viloyatlarda madrasalar ishlab turibdi. Toshkent oliy ma'hadining mavqeyi ko'tarilib, endi uning diplomi ham bakalavr darajasida tan olinishi masalasi ishlab chiqilmoqda. O'nlab o'tmish diniy ulamolarimizning tabarruk nomlari, meroslari tiklanmoqda. Maqbaralari qadamjoyga, ziyoratgohga aylanmoqda. Jumladan, Imom Buxoriy maqbarasi majmuyining bunyod etilishi, Bahovuddin Naqshband masjidi-maqbarasining yangidan ta'mirlanib, obod etilishi, imom Moturidiy, Burhonuddin Marg'inoniy kabi buyuk siymolarning xoki poklari qo'yilgan Samarqanddagi Chokardiza qabristonini tiklash va o'rganish ishlarining jiddiy yo'lga qo'yilishi — barchasi mustaqil O'zbekiston rahbariyatining muqaddas dinimizga, ushbu dinni ma'rifat, ma'naviy qadriyat darajasiga ko'tarilib, jahonga tanitgan ulug' ajdodlarimizga bo'lgan yuksak va samimiy ehtiromning yorqin namoyishidir.

"Din odamzodni hech qachon yomon yo'lga boshlamaydi", deydi Prezident. Dinni niqob qilib nizolar chiqarishga urinish ostida esa doimo muayyan xudbin niyat, g'arazgo'ylik yoki jaholat yotadi. Shu

¹ Islom Karimov. Asarlar. 1-jild, 26-b.

sababli I. Karimov haqiqiy imon-e'tiqodni siyosiy nayranglardan farq qilish zarurligini ta'kidlash barobarida o'zbekning imoni xususida doimo sobit turadi:

“Men ham shu xalqning bir farzandiman, shu millatning bir o'g'liman. Alhamdulillah, bir musulmon farzandi sifatida xalqimga xos islomiy tushuncha va tuyg'ular mening ham qalbidam, yuragimda barqaror va men bu dunyo-yu u dunyo o'z e'tiqodimdan qaytmayman”¹.

“Bu e'tiqod yurtimizdagi millionlab vatandoshlarim qatori mening ham dunyoqarashimga asos bo'lib, butun borlig'im, ma'naviy olamim mazmunini tashkil etadi”².

E'tiqod masalasi, albatta, ma'naviyatga aloqador. Ta'bir joyiz bo'lsa, e'tiqod ma'naviyatning umurtqa pog'onasidir. Demak, imon-e'tiqodsiz ma'naviyat haqida gapirish o'zi ortiqcha.

Ma'naviyat har bir insonning Haqqa (Alloh haqiqatiga, Borliq haqiqatiga) munosabati ekan, bu aslida foni insonning Baqoga (abadiylikka) munosabatidir. Bundan farqli o'laroq insonning insonga munosabati faqat shu yorug' dunyo tashvishlariga oid narsa. Har kim o'zining Haq oldidagi mas'uliyatini to'g'ri anglab masalaga yondoshsa, o'zi foyda qiladi, birovning Haq oldidagi mas'uliyati haqida o'zboshimchalik bilan hukm chiqarish yoki, ayniqsa, o'zgani zo'rlik bilan, zug'um bilan imonli qilishga urinish ma'naviyat nuqtayi nazaridan mutlaqo botil harakatdir. Chunki Insonning imonga kirishi faqat Alloh irodasi-ga bog'liq, bandaning vakolati doirasidan tashqarida.

“Islom” so'zining o'zi tinchlik-totuvlikni, hilm (yumshoqlik)ni, o'zgaga yaxshilik tilagini bildiradi. “Assalom-u alaykum” deb murojaatni boshlaymiz, demak, qarshimizdagi odamga Allohdan tinchlik va salomatlik, ezgulik istab muomalaga kirishamiz. Shunday ekan, yurt osoyishtaligi, insonlararo ahillik va murosas, o'zgani tushunishga intilish, Alloh yaratgan barcha mavjudotga samimiy mehr ko'zi bilan yondoshuv – haqiqiy islomiy qadriyatlardandir va bugun biz mustaqillik ma'naviyatini ushbu asos nuqtalarga tayanib shakllantirmoqdamiz. Tan olish kerak, Yurtboshimiz ushbu yo'lda har jihatdan bizga namuna ko'rsatmoqda, faqat biz ushbu samimiy urinishlarga jiddiy e'tibor qaratsak, ularni ko'ngilda tahlildan o'tkazib, amalda o'zimiz uchun ibrat qilib olsak, bas. *“Agar biz adolatli davlat, erkin jamiyatni qur-*

¹ Islom Karimov. Asarlar. 7-jild, 352-b.

² Islom Karimov. Asarlar. 7-jild, 350-b.

moqchi bo'lsak, bu oliyjanob maqsadni amalga oshirish yo'llari mingyillik diniy aqidalar bilan mushtarak ekanligini yodda tutishimiz lozim", deydi Prezident.

2-fasl. Diniy aqidaparastlik va ekstremizm – diniy qadriyatlar-ning totalitarizm tafakkuri ruhidagi g'arazli talqini sifatida

Bizda davlat dindan ajratilgan. Chunki davlat boshqarish siyosat yo'nalishiga, din, e'tiqod masalasi esa ma'naviyatga oid masaladir. Davlatda qonun bor, zarur o'rinda kuch ishlatiladi, umuman, siyosat insonlararo muomalaga oid bo'lganligi sababli turlicha vaziyat bo'lishi mumkin. Ammo ma'naviyat ko'ngil ishi, insonning o'z shaxsiga munosabati, asl mohiyatiga muvofiq aytilsa, har bir insonning yagona Haq oldidagi mas'uliyati masalasidir. Shu sababli davlat va dinning bir-biridan ajratilganligi mantiqqa muvofiqdir. Jamiyatdagi umumiy ma'naviy saviya qancha past bo'lsa, bu jamiyatda odamlar orasidagi muomalada kuch ishlatish ehtiyoji va ehtimoli shuncha yuqori bo'ladi. Ma'naviy barkamollik esa siyosatni ham mo'tadillashtiradi, kuch ishlatuvchi tuzilmalar xizmati qisqarib, fuqarolarning ixtiyoriy birlashuvi asosidagi jamoat tashkilotlarining mavqeyi oshib boraveradi.

Dinni siyosiyashtirishga urinish, nafaqat insonlar jamiyatiga nisbatan, balki Alloh oldida ham eng og'ir jinoyatdir. Chunki bunda insonning Haqqa e'tiqodi bir guruh kimsalarning siyosiy g'arazlari yo'lida vositaga, xavfli qurolga aylantiriladi. Siyosat yuqorida ham ta'kidlab o'tilganidek, insonlararo munosabatlarga, ya'ni faqat shu yorug' dunyoga aloqador hodisa, din esa Alloh bilan uning bandasi bo'lmish inson orasidagi munosabatlarga doirdir. Bir insonning Allohga bo'lgan imon-e'tiqodini o'zga biron o'zining boshqalarga qarshi amalga oshirmoqchi bo'lgan biror-bir g'arazli niyati yo'lida vositaga aylantirishga urinsa, u ikki karra jinoyatga qo'l urgan bo'ladi. Birinchidan, muayyan inson shaxsiga qarshi jinoyatga yo'l qo'yadi, chunki bir inson ikkinchi insonni o'z g'arazlari yo'lida vositaga aylantirishga haqqi yo'q. Yer yuzidagi barcha mavjudot inson uchun vosita, ammo hech bir inson o'zga insonlar uchun vosita, qurol deb qaralishi mumkin emas. Ikkinchidan, o'zga insonning Allohga bo'lgan imonini o'z g'arazi yo'lida vositaga aylantirishga uringan zot Alloh oldida ham og'ir gunohga botadi. Bunday odam, islomiy nuqtayi nazardan, nafaqat mo'minlar

¹ Islom Karimov. Asarlar. 3-jild, 41-b

safidan chiqadi, balki u oddiy munofiq darajasidan ham tubanlashadi. Chunki oddiy munofiq o'zi sidqidildan mo'min bo'lmagan holda faqat odamlar ko'ziga o'zini dindor qilib ko'rsatishga urinadi, xolos. O'zgalar e'tiqodidan o'z g'arazi yo'lida foydalanmoqchi bo'lib, ular orasiga diniy asosda nizo solishga uringan kimsa esa Alloh oldida munofiqdan ham, mushrikdan ham badtar kufrga yo'l qo'yadi, deyish mumkin.

“Taassufki, ba'zan islom dini va islom fundamentalizmi haqida gapirganda bu ikki tushunchani bir-biriga aralashtirib yuborish hollari uchramoqda”, deb yozadi Prezident¹. Islom dini – Allohning dini, “islom fundamentalizmi” esa tor bir guruhlar tomonidan musulmonlarning diniy aqidalarini o'zlarining muayyan siyosiy maqsadlariga bo'ysundirib “talqin” etishlari. Bu “talqin”lar asosida siyosiy faoliyat boshlansa, islom ekstremizmi kelib chiqadi. Allohning kitobidagi oyatlarni mufassirlar turlicha tafsir qiladilar, payg'ambarimiz hadisleri ham turlicha talqin etilishi mumkin, chunki insonlarning masalalarga yondoshuvi turlicha. Ammo o'z talqinini eng to'g'ri deb da'vo qilib, fikriga qo'shilmaganlarni islom nomidan qoralash, hatto kofirga chiqarishga urinish, kamida o'zga insonga zulm darajasiga ko'tarilgan takabburlikdir.

Dinni ekstremistik talqin etuvchi guruhlar insoniyat tarixida qadimdan ma'lum, ammo ular doimo ozechilikni tashkil etishgan. Bir haqiqatni ochiq tan olish kerak, XX asr diniy ekstremizmi ijtimoiy-siyosiy yo'nalishdagi o'ta ekstremistik harakat bo'lmish marksizmdan, ayniqsa, uning ijtimoiy terror yo'lini dasturulamal qilib olgan lenincha-bolshevikcha ko'rinishidan juda ko'p narsani o'zlashtirdi. Bolsheviklarning avval sobiq Rossiya imperiyasi hududida, keyinroq «sotsialistik sistema» atalmish kengroq hududda vaqtincha hukmdorlikni qo'lga kiritishi, aytish mumkinki, «inqilobiy yo'l»ning yolg'on «imkoniyatlari»ga mahliyolikni kuchaytirib yubordi. Buning ustiga g'oyaviy jihatdan dinga dushmanlik e'lon qilgan kommunist aqidaparastlar muayyan g'arazlar bilan o'zlari hukmron bo'lmagan o'lkalardagi «inqilobiy islom» tarafdorlarini doimo ham zimdan, ham ochiq siyosatda qo'llab keldilar. Bugun ham bunday kuchlar yo'q emas.

¹ Islom Karimov. Asarlar. 7-jild, 352-b.

3-fasl. Din va ma'naviyat. Umumiy va farqli jihatlar

Alloh imonli odamning qalbida bo'ladi. Imonli odam imonini birovning «boshini urib yorish»ga vosita qilmaydi. *“Xalqimizning mingyillik tarixini, bugungi ma'naviy hayotini, din-u diyonatimizni muxtasar ifodalab aytish mumkinki, Alloh bizning qalbimizda, yuragimizda”*, deydi I. Karimov¹. Bu shunchaki gap emas. Ayni shu ma'no Allohning kitobida qator oyatlar mazmunini tashkil etadi. Ushbu matn boshida eslab o'tilgan “Nur” surasining 35-oyatida esa bu g'oya bevosita ifodalangan. Keyinchalik bu g'oya payg'ambar hadislarida, buyuk tasavvuf shayxlari, piri murshidlarning hikmatlarida mukammal talqinini topdi.

Milliy ma'naviyatimiz an'alariga tayanib xulosa qiladigan bo'lsak, insonning Haq bilan bog'lanuvi ikki yo'nalishdadir. Birinchisi, insonning moddiy vujud sifatida Alloh tomonidan yaratilganligiga oid bo'lib, bunda inson tabiatning uzviy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Biz bu haqda oldingi bobda ham aytib o'tdik. Ammo insonning Haq bilan tutashuvi faqat “birinchi turtki” masalasiga borib taqalmaydi. Ikkinchi yo'nalish ham bor. Ma'lumki, insonning har bir xatti-harakatida Allohning irodasi namoyon bo'ladi. Alloh insonning yaratuvchisi, unga rizq ato etuvchi bo'lish barobarida uni hidoyatga yo'llovchi hamdir. Oxirgi masalada bir o'ziga xos jihat bor. Alloh insonni yaratadi, shu bilan birga moddiy dunyoning turli ne'matlari orqali uning rizqini ham sochib qo'yadi. Biroq bu dunyo inson uchun sinov dunyosi. Shunday ekan, Alloh hidoyati majburiy tarzda emas, balki ixtiyoriy bir shaklda, da'vat, taklif shaklida namoyon bo'ladi. Ya'ni, bu dunyoda Alloh taolo insonga to'g'ri yo'lni tanlash imkoniyatini bermoqda. Inson hayotining o'ziga xosligi, boshqa mavjudot-u maxluqotlardan farqi shunda. Chunki Alloh insonni yer yuzida xalifa qilib yaratgan, shu sababli unga bu dunyoda iroda erkinligini ham bergan. “Fayzi ilohiy” masalasi ham oldingi bobda yoritildi. Payg'ambarlarga Alloh hidoyati bevosita vahiy shaklida g'ayrimoddiy mavjudotlar bo'lmish farishtalar orqali yuborilsa, oddiy insonlarga “fayzi ilohiyini” yetkazuvchi, biz iste'dod, ilhom, karomat, bashorat kabi nomlar bilan belgilovchi, g'ayri moddiy vositalar ham mavjud. Bu hodisalarni moddiy asosda turlicha izohlashga urinishlar fanda hech qachon ko'ngildagidek samara bergan emas, chunki mohiyatan g'ayri moddiy

¹ Islom Karimov. Asarlar. 7-jild, 351-b.

hodisalarni moddiy dunyo qonuniyatlariga tayanib izohlashga urinish o'zi aslida g'ayriilmiy tamoyillarga yetaklovchi harakatdir. Ma'naviyat insonning Haq bilan bevosita bog'lanishidir. Bu — asos mohiyatiga ko'ra g'ayri .oddiy munosabat. Demak, ma'naviyatni birinchi yo'ldan emas, ayni ikkinchi yo'ldan borib qidirgan maqsadga muvofiqroq.

“Din xalq uchun afyundir” deguvchilar insonning eng muhim ehtiyojlaridan bo'lmish imon ehtiyojini tan olmaydilar yoki nazarga ilmaydilar. Imon-e'tiqod ehtiyoji, agar u samimiy inson bo'lsa, hatto dahriyda ham bo'ladi. Faqat u o'z botiniy ehtiyojini ko'pchilik e'tiqod qiluvchi dinlardan emas, turli ”izm”lardan qidiradi yoki shaxsan o'zi uchun alohida e'tiqod tizimi yaratishga urinadi. Bu, albatta, insonga xos kibr va gumrohlikning nishonasi, xolos. Yo'q, narsani kashf etishga urinishdan ko'ra, ko'pchilik tan olgan narsani tushunib, mohiyatan anglab yetishga harakat qilish, bizning nazarimizda, samaraliroq yo'ldir.

Qalbni, ko'ngil ko'zgusini poklash avvalo imon-e'tiqoddan boshlanadi. *“Ezgulikka sadoqati bo'lmagan, biror narsaga ixlos qo'ymagan, ishonmagan odam qo'rqinchlidir”*, deb ogohlantiradi Prezident¹. Albatta, ma'lum bir davrda kommunistik g'oyaga ham samimiy ishonganlar bo'lgan, sof vijdonli dahriylar ham hayotda uchrashi mumkin. Ammo dahriylik inson tarixida alohida holatlarda bir-bir namoyon bo'luvchi hodisa. Din esa asrlar davomida million-million insonlarning e'tiqodini shakllantirib kelgan. Jumladan, islom dini 14 asrdan beri ulug' bir mintaqada insonlar tafakkur yo'nalishiga ta'sir o'tkazib kelmoqda. Marksizm ongimizda ajdodlar salohiyatiga nopisandlikni tarbiyaladi. Kimki 5–6 asr ilgari o'tgan bo'lsa, uning mulohazalari bizga noqis ko'rinadigan bo'ldi (ayni marksizm aqidalariga nomuvofiqligi tufayli). O'z vaqtida biz Imomi A'zam, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Mahmud Zamaxshariy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro va hokazo yuzlab jahonshumul ulug' allomalarning e'tiqodini “afyun” deb e'lon qildik va aslo etimizga o'ylab ko'rmadikki, “xo'sh, ular yaratgan ulkan ma'naviy merosga o'zimiz bir misqol qo'shish qudratiga egamizmi?” Mustaqillik bizga imonimizni, e'tiqodimizni qaytarib berdi. *“Islom dini bu ota-bobolarimiz dini, — deydi I. Karimov, — u biz uchun ham imon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ckanligini unutmaylik”*².

¹ Islom Karimov. Asarlar. 4-jild, 79-b.

² Islom Karimov. Asarlar 3-jild, 40-b

Bugungi kunda diyonat, axloq tushunchalari imon-e'tiqoddan ajralmas ekanligi ravshan bo'lib qoldi. Ammo islom ma'rifati masalasida hanuz jiddiy xulosaga kela olmay, gumon aralash turibmiz. Ongimizni marksizm aqidalari tugal tark etmas ekan, bu masalada uzil-kesil xulosaga kelishimiz, albatta, mushkul. Chunki tug'ilganimizdan buyon marksistik mafkura bizning yoshimizdagi avlodga birdan-bir haqiqiy ilm – faqat hayotni materialistik idrok etishga asoslangan ilmdir deb uqtirib kelgan. Yaqin o'tmishda shunday yalpi targ'ibot ta'sirida ta'lim olgan ko'pchilik tengdoshlarimiz (ustozlarimiz ham) "ilm boshqa, din boshqa" degan aqidani tark etishga botinmay turishibdi. Diniy ilmlarni haqiqiy ilm qatoriga qo'shish mumkinligiga shubhalari to'liq targagan emas. Mashhur akademiklarimizning kitoblarida bugun ham Payg'ambarimizga "vahiy" kelishini siyosiy maqsadlar bilan izohlashga intilish kuzatiladi. Aslida esa ilm faqat aqlga tayanmaydi. Ayniqsa, ijtimoiy soha, ma'naviyatga aloqador sohalarda aqliy va naqliy ilmlar mutanosibligi muhim o'rin tutadi. Bizgacha o'tmishdan yetib kelgan kitoblar ham ikki toifa ilohiy matnlarga tayanuvchi, ya'ni "vahiy" orqali yetib kelgan, insoniy matnlar asosidagi, ya'ni insonlar ijod etgan kitoblar. Bulardan birinchilarining mazmuni azaliy va abadiy mohiyatga tutashadi, ikkinchilari esa muayyan zamon va makonda yashab o'tgan insonlarga tegishli bo'lgani tufayli, ayni o'sha zamon va makonning ta'siridan xoli emas, ya'ni ularga mutlaq haqiqat sifatida yondoshish noto'g'ri bo'ladi. Masalan, Qur'on oyatlari mazmuni o'zida mutlaq haqiqat sirini yashirgandir, ammo uning turli tafsirlari mufassirlar shaxsi bilan, ularning turlicha talqini bilan bog'liq. Ilmlarni turlarga ajratadigan bo'lsak, masalan, maqsad yo'nalishiga ko'ra farqlash mumkin. Shunda dunyoviy maqsadlarga yo'nalgan yoki uxraviy (oxiratga, ya'ni bu dunyodagi faoliyatimizning u dunyodagi oqibatiga oid) maqsadlarga yo'nalgan ilmlar haqida gapirish mumkin bo'ladi. Ma'naviyat ayni dunyoviy va uxraviy maqsadlarimizni uyg'unlashtirishga oid sohadir. Xulosa qiladigan bo'lsak, Haq yo'lida qilinadigan har qanday ilm haqiqiy ilmdir va u inson ruhini poklashga xizmat qiladi, ilmda haqiqatdan har qanday chekinish esa jaholatga olib keladi.

Yuqorida sanab o'tilgan umumiy jihatlardan kelib chiqib, ba'zilar din va ma'naviyatni bir narsa deb qarashga moyil bo'lishadi. Bu unchalik to'g'ri emas. Har bir insonning o'z dini bo'lmaydi. Dinlar ko'p dunyoda, lekin ular muayyan. Din – ilohiy kitoblar orqali nozil etil-

gan alohida qonun-qoidalarni bildiradi. Ma'naviyat qat'iy qonun-qoidalar tarzida tasavvur qilinmaydi. Har bir shaxs ma'naviyati o'ziga xos, har bir insonning o'z ma'naviy olami mavjud. Din insonning dilida bo'lishi kerak, albatta, ammo har bir inson bir dinni qabul qilib oladi va uning qonun-qoidalariga umr bo'yi rioya qiladi. Ma'naviyat esa inson qalbidagi nur, u tanlab olinmaydi, u Allohning inoyati, odamni Haq yo'lga yetaklovchi hodiy, uning qonun-qoidalari ochiq bayon qilingan hukmlar bilan chegaralab berilmaydi. Ma'naviyat inson umri davomida, millatning tarixiy taraqqiyotida takomil topib boradi, din esa ilohiy vahiy asosida, payg'ambar hadislariga tayangan holda ulamolar tomonidan muayyan chegaralarda qat'iy qilib belgilab beriladi, bu chegaralarni har kim ham o'zgartira oladigan narsa emas. Harholda bizning tasavvurlarimiz shunday. Navoiy "Talab vodiysining sifati"da yozadi:

*Kufr ila imonga urgaysen ilik,
Bu ta'madinkim ochilgay bir eshik.
Chun eshik ochildi ne kufr-u ne din,
Ichkari kirgach qutulding barchadin.
Kufr-u imon rohravg'a kesh emas,
Asli yo'lda bandi rohe, besh emas'.*

Samimiy diniy e'tiqod ma'naviyat eshiklaridan biridir. Yana bir nozik masala. Ko'proq oddiy e'tiqod egalari dinni sunna darajasida idrok etadilar. Yaqin o'tmishda, ilm va imon ikki qutbga ajratib tashlangan, san'at marksizm g'oyalarining targ'ibotchisiga aylantirilgan bir sharoitda, darhaqiqat, Qur'on va payg'ambarimiz hadislarini din ahli uchun yagona ma'naviy panoj bo'lgan edi. Ammo voqelikda milliy ma'naviyatimiz maydonlari behududdir. O'z vaqtida buyuk al-lomalarimiz ijodida ilm va mantiq, irfon va badiiyat olamlari imondan tashqari bo'lmagan, balki ilm va imon bir-biriga quvvat bag'ishlagan, tavhid e'tiqodini idrok etish ilm va irfon orqali teranlik kasb etib borgan.

Din va ma'naviyatni birlashtiruvchi fazilat e'tiqoddur. Dinning zo-hiriy va botiniy jihatlari bor. Botiniy jihati imon bo'lib, qolgani — ibodatlar — zohiriy jihatlari, ular imonni muayyan tashqi harakatlar bilan tasdiqlaydi. Ammo imon faqat tilda bo'lsa, islomiy hayot qonunlari

¹ Alisher Navoiy. Lison ut-tayr.T., 1991, 191-b.

bilan ichki ma'naviy uyg'unlik hosil qilinmasa, unda ma'naviyat nuqtayi nazaridan dahriyning o'z aqidasiga e'tiqodi munofiqning tashqi dindorligidan afzal bo'lib chiqadi. Chunki e'tiqodli dahriy do'zax azoblari xavfi oldida ham o'z bilganidan qaytmaydi. Munofiq esa o'z hayot tarzi bilan halol insonlarning dinga ixlosini qaytaradi. Dinning zohiri saqlab qolinsa-yu, botiniga e'tibor yetarli bo'lmasa, din xurofotga aylanadi. Dinni xurofot darajasida tushungan zohirbin aqidaparast nuqtayi nazarida din va ma'naviyat butkul bir-biriga zid narsalar bo'lib qoladi. Dinni aqidaparastlik darajasida tushunish insonlar orasida arzimagan narsadan nifoq chiqishiga, balki og'ir xunrezliklarga olib kelishi mumkin. Bunday yondoshuvda turli din vakillari orasidagina emas, hatto bir dinga e'tiqod qiluvchilar orasida ham qonli nizolar kelib chiqishi hech gap emas. Tarixda bunday fojeiy voqealar ko'p bo'lgan. Payg'ambarimizning eng yaqin sahobalari, Haq yo'ldagi xalifalardan(xulafoyi roshidin) hisoblangan hazrati Usmon va Alilarning shahid etilishi g'ayridinlar tomonidan emas, ayni islom aqidaparast oqimlarining vakillari tomonidan amalga oshirilganligi tarixdan ma'lum. Sunniy-shia qirg'inlari-chi? Ayni shu sabablar tufayli Prezident dinga ma'naviy qadriyat sifatida yondoshuvni izchil qo'llab chiqmoqda. Mustaqil O'zbekiston rahbariyati dinning zohiriy jihatlari inkor qilmagan holda, uning botiniy, ma'naviy jihatiga birinchi darajali ahamiyat qaratishni maqbul ko'rmoqda. Chunki jahon dinlarining botiniy jihati o'zaro uyg'unlikni taqozo etadi.

Ma'naviyat uchun turli dinlararo farqlar muhim emas, inson qalbidagi imon nuri muhim. Bunday yondoshuv ko'proq tasavvuf irfoni sohiblariga oiddir.

Har qanday bo'lganda ham, e'tiqod dilda bo'ladi, u insonning o'zi uchundir, ibodatlar tashqi xatti-harakat bilan ifodalanadi, bunda inson ham shaxsiy e'tiqod tuyg'usini qondiradi, ham qaysi dinda ekanligini o'zgalarga zohir etadi. Ibodatni ado etmaslikning ham sababi ikki xil bo'lishi mumkin. Biri — agar shaxs o'zgalalar uchun biror-bir savobli ishni bajarishni o'zi uchun (ibodat doim insonning o'zi uchundir) bajariladigan ibodatdan ortiq bilsa (albatta, bunda yanglishuvi ham mumkin). Ikkinchisi, o'z shaxsiy g'arazi yo'lida ibodat o'rniga boshqa bir yumushga chalg'isa. Har ikki holatda ham inson o'z kelajak taqdirini xavfga qo'yadi. Alloh oldida buning javobi qanday — yolg'iz Yaratganga ayon. Harholda ma'naviyat uyg'unlikka intiladi, shu jihatdan mo'min faqat ibodat bilan qoniqib, o'zga amallarini

ezgulik bilan uyg'unlashtirishga e'tibor qilmasa, bunday insonni ma'naviy barkamol deyish qiyin.

Dinda e'tiqod, taqvo, halol va harom masalalari asosiylardan bo'lib, bular bevosita inson ma'naviyatiga aloqadordir. Ma'naviyat muayyan ma'noda dinning botiniy jihati bilan tutashadi. Taqvo ma'naviyat belgisi bo'lib, halol rizq taqvoning eng o'zak tushunchasi hisoblanadi. Bu masalalar xususida kelgusida yana batafsil suhbatlar bo'ladi.

4-fasl. Yosh avlodni milliy ma'naviyatimiz an'analari ruhida tarbiyalash – ular ongini turli g'arazli «oqimlar» ta'siridan himoyalashning eng samarali yo'li

E'tiqod ma'naviyatning o'zak tomiri. E'tiqodsiz kishida ma'naviyat bo'lmaydi, tashqi madaniy ko'rinish, hatto ancha-muncha bilim ham bo'lishi mumkin, ammo mag'zida ma'naviyat bo'lmaydi.

Kishida umurtqa pog'onasi shikastlangan bo'lsa, unday inson gavasini tik tutib tura olmaydi. Ma'naviy olam uchun e'tiqod ham shunday bir narsadir. Kommunistlar olg'a surgan g'oyalarga xalq ozmi-ko'pmi ishongan, umid bog'lagan davrda Sovet davlati ancha-muncha o'sdi, rivojlandi. "Kommunizm" g'oyalari puch narsa ekani ma'lum bo'lib qolgach, asta-sekin bu tuzum ich-ichidan yemirila boshladi va oxiri barbod bo'ldi. Shuning uchun yolg'on g'oyalarga ishonish, o'ylab topilgan aqidalarning etagini tutish yaxshilikka olib bormaydi. E'tiqod masalasi – jiddiy masala. Tarixda turli yolg'on payg'ambarlar ko'p bo'lgan. Ular oxir-oqibat beburdlikka mahkum bo'lganlar. Bashariyat, el, xalq qabul qilgan Oliy haqiqatlar esa asl ma'nosi bilan ilohiy, azaliy va abadiy manbaga egadir. Islom dinimiz ana shunday ilohiy inoyat hisoblanadi. Bizni 70 yil bu e'tiqoddan qaytarishga urindilar, jazoladilar, masxaraladilar, taqiqladilar. Bari befoyda bo'ldi. SSSRda mafkuraviy tazyiq kuchaygan sari, jahonda islomning nufuzi oshib bordi. Amerika, Yevropa, Avstraliyaga islom dadil kirib bormoqda. Marksist dahriylar islomni arab bosqinchiligi bilan bog'lamoqchi bo'ldilar. Nahot 1400 yil avvalgi bosqinchilik asorati shuncha kuchli bo'lishi aqlga to'g'ri kelsa? Aleksandr Makedonskiy, Chingizxon, chor Rossiyasi olib kelgan e'tiqodlar qani? Haqiqat boshqa narsa, bosqinchilik boshqa.

Imom Buxoriy kabi ulug'larimiz birovning tazyiqi bilan musulmon bo'ladigan shaxslar emasdi. Ular haqiqat fidoiylari edi.

“Lo ikroha fid-din”, ya’ni “dinda zo‘rlash yo‘q” deyilgan. Avvalo, islomda tadrijiylik mavjud, Muhammad (s.a.v)ga nozil etilgan ilohiy kitobda o‘zidan avvalgi kitoblar va barcha payg‘ambarlar, jumladan, Muso va Iso alayhissalomlar to‘liq e’tirof etiladi va barcha payg‘ambarlarning hurmati barobar ekanligi ta’kidlanadi. Qolaversa, ma’naviyat ahli uchun yuzta musulmonlik da’vosini qiluvchi riyokordan bitta e’tiqodli dahriy yoki butparast afzal. Ajdodlarimiz bizga shunday ta’lim beradi. Masalan, Amir Xusrav Dehlaviy “Shirin va Xusrav” dostonining “Dar fazilati ishq” bobida yozadi:

Ba ishq gar butparasti, din-t pok ast,

Va-gar toat kuni bi ishq xok ast¹.

(Sen ishqda butparast bo‘lsang – dining pok,

Agar ishq bo‘lmasa, toat erur xok.)

Payg‘ambarimiz uchun vatan va imon tushunchalari bir-biridan ajralmas edi. Makkadan Yasribga hijrat qilish ul janobning imonlarini yanada baquvvat qildi. Bugun ham xorijdagi birodarlarimizning ko‘pchiligi uchun imon va Vatan mehri bir-birini quvvatlab turibdi, zero Vatanga tosh otgan kimsalardan imon umidi ham behudadir.

Ma’rifat yo‘llari haqida hisob. Biz imon haqida gapirdik. Ammo imon darajalari ham har xil: taqlidiy imon bor, unga ibrat bosqichida erishiladi, agar uni ilm bilan mustahkamlanmasa, oqibati yaxshi bo‘lmasligi mumkin, chunki bunday insonlar ishonuvchan bo‘ladilar, bugungi murakkab dunyoda makr tuzog‘iga tushib qolishlari xavfi bor. Ibrat va ilmdan tashqari, milliy ma’naviyatimiz an’analarida riyozat va mehr yo‘llari ham ma’rifatga oid hisoblanadi. Inson ruhi Borliq haqiqati bilan doimiy uyg‘unligini saqlashi uchun ibrat va ilm, riyozat va mehr ma’rifati uni bir zum tark etmasligi talab etiladi, ayni shular ko‘ngil ko‘zgisini pok tutib turadi. O‘z navbatida Borliq haqiqatini anglab yetishning ham o‘z darajalari borki, ular ulug‘ ma’naviy qadriyatlar – Vatan, Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat atalmish silsilada ifodasini topadi. Bularning har biri haqida O‘zbekiston Prezidenti asarlarida keltirilgan qimmatli fikr va mulohazalar tahlili alohida tadqiqotlarga mavzu bo‘la oladi. Biz hozircha faqat ba’zi eng umumiy mavzularga qisqacha to‘xtalib ulgurdik. Yana ko‘p masalalar haqida bahs hali davom etadi. Ammo baribir ma’naviyat xususidagi bahs inson hayoti

¹ Амир Хусрау Дихлави. Ширин и Хусрау. М., «Наука», 1979, с. 40.

davomida tugamaydi. Din va ma'naviyat nisbati haqidagi suhbatning xulosasi shuki, dinni siyosiyashtirishdan qochish, unga buyuk ma'naviy qadriyat sifatida yondoshib, yoshlarimizdagi e'tiqod ehtiyojini ayni shu yo'nalishda, Prezidentimiz "Jaholatga qarshi ma'rifat" deb chiroyli ifodalagan ma'noda botiniy qudratga, ma'naviy kamolot sari yetaklovchi boqiy quvvatga aylantirish uchun butun imkoniyatlarni safarbar qilmog'imiz zarur.

5-BOB. UMUMINSONIY QADRIYATLAR VA MIL-LIY MA'NAVIYATIMIZNING UYG'UNLIGI

1-fasl. Milliy ma'naviyatimizning teran tomirlari

Ma'naviyatning asl manbayini bildik. Millat ma'naviyati ushbu millatga aloqador barcha shaxslar ma'naviyatining majmuyidan iboratligini ham aniqlashtirib oldik. Ammo bu hammasi nazariy ta'riflar. Amalda milliy ma'naviyat nazariyasini yaratish uchun qaysi manbalarga tayanish, uning asoslarini qayerlardan qidirish kerakligi Prezident asarlarida avvalboshidanoq aniq ko'rsatib berilgan va qayta-qayta ta'kidlab kelinmoqda. Bu manbalardan eng birinchi va asosiysi buyuk ajdodlarimiz merosidir. Buyuk ajdodlarimiz bizga qoldirgan ulkan meros – milliy ma'naviyatimiz nazariyasini shakllantirish uchun butun kerakli unsur va tarkiblarni yaratib qo'yibdi, faqat uni xolis nazar bilan astoydil qidirsak, kifoya. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab muntazam davom etib kelayotgan qutlug' an'ana – ulug' bobolarimiz, dunyoga dong taratgan, jahon jamoatchiligi allaqachon o'z muqaddas mulki deb tan olgan ma'naviy meros sohiblarining yubiley-larini mamlakat va jahon miqyosida nishonlash haqidagi farmonlar va ularning ijrosi ayni shu masala – milliy ma'naviyatimiz sarchashmalariga butun xalqimiz va, birinchi navbatda, yosh avlod e'tiborini jalb etish maqsadini ko'zda tutadi.

.Xalq ma'naviyatini, millat ma'naviyatini sun'iy ravishda, qandaydir o'ylab topilgan aqidalarga, dogmalarga tayanib, yuzaga keltirib ham, keskin o'zgartirib ham bo'lmaydi. Chunki ma'naviyat tushunchasining mazmuni bir kunda, bir yilda, hatto bir asrda shakllanadigan narsa emas, u har bir xalqning juda uzoq tarixi qa'ridan oziq olib, teranlik kasb etib keladi.

Islom Karimov xalq ma'naviyatini yuksaltirish deganda nimani ko'zda tutganligini hali mustaqillikka erishmasimizdan – 1990-yili

O'zbekiston Prezidenti sifatidagi birinchi nutqidayoq ochiq-oydin bayon etgan edi. Prezident ushbu ma'ruzasida inson ruhiyatining nozik va murakkab tomonlari bilan, "xazinalarga to'la milliy-tarixiy an'analar bilan, umuminsoniy ma'naviy boyliklar bilan hisoblashmaslik" yaqin o'tmishimizda jamiyatga qanchalar zarar keltirganligini qayd etib, yangicha vazifalarni olg'a surgan edi:

*"Birinchi navbatda milliy madaniyatimiz, xalq ma'naviy boyligining ildizlariga e'tibor berish lozim. Bu xazina asrlar davomida misqollab to'plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o'tgan. Insonlarga og'ir damda madad bo'lgan. Bizning vazifamiz – shu xazinani ko'z qorachig'imizdek asrash va yanada boyitish, so'zda emas, amalda har bir kishining vijdon erkinligini, e'tiqodining erkinligini ta'minlashimiz kerak"*¹.

1991-yil "Alisher Navoiy" yili deb e'lon qilindi va o'sha yil to'kin kuzning birinchi oyida o'zbek milliy ma'naviyatining quyoshiga bag'ishlanadigan asosiy tantana va tadbirlarni o'tkazish belgilandi. O'llohning inoyatini qarangki, xuddi ushbu tantanalar boshlanishi oldidan mamlakatimiz siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritdi va sentabrning birinchi kuni Mustaqillik bayramiga aylandi. Prezidentimiz "millat bayrami" deb atagan Mir Alisher Navoiyning qutlug' to'yi, shunday qilib, "O'zbekistonimiz hayotiga alohida fayz, tarovat baxsh etdi", "yurtimiz, elimiz tarixida qutlug' keldi, unutilmas sana bo'lib qoldi"².

Shu o'rinda yana bir masalaga qisqa izoh berib ketish zarurga o'xshaydi. Sobiq totalitar mafkura ta'sirida yaqin-yaqinlargacha bizdagi ijtimoiy fanlar sohasida adabiyotshunoslikka, filolog olimlarga ma'lum darajada mensimay qarash mavjud edi. Bunga, albatta, yaqin o'tmishdagi adabiyotshunosligimizning qusurlari ham ancha-muncha sabab bo'lganligi sir emas. Chunki marksizm mafkurasi hukmron bo'lgan sovet zamonida adabiyotshunoslarimizning aksariyati milliy ma'naviyatimizga butkul yot bo'lgan va hatto dunyo sivilizatsiyasi ham mohiyatan inkor etgan «sotsialistik realizm» deb nomlanuvchi soxta «nazariya» domiga tushib, XX asrda yaratilgan barcha adabiy merosni ushbu qolipga moslashtirish yo'lidan bordilar. Bu haqda jild-jild «ilmiy tadqiqotlar» yaratildi, odamlar doktor, professor, hatto akademiklikgacha daraja va unvonlarga sazovor bo'lishdi. Mumtoz

¹ Islom Karimov. Istiqloq va ma'naviyat. T., «O'zbekiston», 1994, 65–66-b.

² O'sha kitob, 100-b.

adabiyotimiz bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda bu illat bevosita va ochiq namoyon bo'lmasa-da, marksistik mafkura ta'siriga berilish bu sohada ham sezilarli edi. Agar xolis yondoshilsa, ilmiy adabiyotlarga nisbatan badiiy adabiyotda Borliq haqiqatini uyg'un his etish tamoyili ustun turadi. Ayniqsa, bu holat Navoiy she'riyati darajasidagi falsafiy teranlikda ham biki¹ bo'lgan badiiyat namunalarida yaqqol o'zini namoyon etishi sir emas. Shu sababli ham Alisher Navoiy badiiy olami millatimiz ma'naviyati uchun doimo mahak toshi² vazifasini bajarib kelgan va kelgusida ham shunday bo'lib qoladi.

Hech bir xalq dunyoda yakka yashamaydi, yolg'izlikda rivojlanmaydi ham. Elat va millatlar doimo o'zaro turlicha munosabatda bo'ladilar va tarix davomida bir-birlariga ta'sir o'tkazib, o'zlarini ham, o'zgalarni ham ma'naviy boyitib boradilar. Ammo hech qachon, hech bir xalq o'zligidan butkul kechib, boshqa xalq ma'naviyati hisobidan o'zini boyita olgan emas. Yakka bir shaxs butkul o'zga bir ma'naviy muhitda tarbiya topib, unga to'liq moslashishi mumkin. Bu inson tabiatiga xos narsa. Ammo bir xalq to'lig'icha o'zligidan kechib, o'zga xalq ma'naviy dunyosini qabul qilsa, demak, unday xalq yo'q bo'ladi, o'z ma'naviy qiyofasini yo'qotgan millat yo'qolgan millatdir. Shu sababli ham milliy mustaqillik poydevorini ma'naviy mustaqillik tashkil etadi, deymiz. Milliy ma'naviyatning takomili esa o'sha millatga mansub har bir shaxsning ma'naviy kamoloti bilan bevosita bog'liq va ushbu zaminga tayanib yuksaladi.

2-fasl. Mustaqillik davrida ajdodlarimiz ma'naviy merosiga munosabatning tubdan yangilanishi

Parijda, YUNESKO ijroiya kengashida so'zlagan nutqida Prezident Islom Karimov aytganidek: "*vatanimiz asrlar mobaynida jahon sivilizatsiyasining beshiklaridan biri hisoblangan*"³. Ammo yurtimizda 70 yil hukmronlik qilgan sobiq totalitar tuzum makkorlik bilan o'z asoratiga olgan xalqlarning buyuk o'tmishini avlodlar xotirasidan o'chirmay turib manfur maqsadlariga yeta olmasligini yaxshi bilar edi. Shu sababli tinimsiz kurash g'oyasini hayot ma'nosi deb e'lon qilgan "dohiyalar" ning sodiq shogird va izdoshlari nafaqat tirik "dushmanlar"

¹ puxta, mukammal, g'ubor tegmagan

² Qimmatbaho metallarning saraligini aniqlovchi mineral jism «mahak toshi» deb ataladi

³ Islom Karimov Asarlar. 4-jild, 332-b

bilan kurashdilar, balki millatlarning o'tmish ma'naviy merosi bilan ham tinimsiz "jang" qildilar. "Din – afyun", diniy ilm peshvolari, tasavvuf ulamolari "ashaddiy reaksioner", barcha o'tmishdagi hukmdorlar – qonxo'r, bosqinchi (faqat ayrim rus podshohlari bundan istisno etildi), o'tmish allomalar – dunyoqarashi cheklangan, shoirlar – maddoh va hokazo da'volar qilindi. Bunday qora tamg'alar qaramlik asoratiga tushgan barcha xalqlarning boy ma'naviy merosiga bosib chiqildi. Hatto uyidan eski arab yozuvida kitob topilgan odamlar davlatga qarshi jinoyatda ayblangan davrlar bo'ldi. Bolshevizm mafkurasining itoatkor qullariga aylantirilgan "sovet intellegensiyasi"ga tirik va o'lik "dohiylar"ni madh etish, "kommunizmning birinchi bosqichi" deb e'lon qilingan bolshevistik diktatura tuzumining jahon tarixidagi barcha makon va zamonlardan "afzalligi"ni har qanday usul bilan isbotlab va dalillab berish asosiy vazifa qilib belgilangan edi. Ushbu vazifadan zarracha chekinish xalqqa va "nurli kelajak"ka xiyonat deb baholanardi.

Mustaqillik tufayli bizning ma'naviy qadriyatlarimiz, o'tmish ajdodlarimiz qoldirgan meros, o'zining butun mukammalligida, qaychilanmasdan, "progressiv-reaksion" atalmish zo'raki qoliplarga tiqishtirilmasdan tiklana boshladi. Qur'oni karim, Hadisi shariflar birinchi marta o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi. Nosiriddin Rabg'uziy, Ahmad Yassaviy, Ubaydiy, Muhammad Rahimxon Firuz, Burxoniddin Marg'inoniy, Abu Mansur Moturidiy, Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon va boshqa sovet davrida, hatto, nomlarini eslash man qilingan allomalarimizning asarlari birin-ketin nashr etilib, chanqoq kitobxonlar qo'liga yetib kela boshladi. Davlat tili haqidagi qonun qabul qilindi. Tasavvuf pirlari – Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Bahovuddin Naqshband yubileylari millatimizning ruhida poklanish tuyg'ularini uyg'otdi. Poytaxtimizning qoq markazida sohibqiron bobomiz Amir Temurning ulug'vor mujassamasi o'rnatilishi o'zbek xalqining har bir farzandi ruhida haqli iftixor hislaridan o'chmas yog'du paydo qildi. XX asr boshlarida millatni ma'rifat, adolat, hurriyat sari yetaklagan jadid allomalarimiz xalq dilidan yana munosib o'rin ola boshladi. "Bosmachi" deya yoppa qoralangan milliy ozodlik harakati ishtirokchilari o'z qadrlariga loyiq baholandilar.

Yaqin o'tmishda, ya'ni qaramlik davrida milliy ma'naviy merosni o'rganishga qanday yondoshildi, degan masalada ba'zan bahs tug'ilib qoladi. Ba'zilar shunday fikrlashadi: "Axir o'sha yillar davomida ham

o'tmish meros ozmi-ko'p o'rganildi-ku! Forobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqa qator allomalarning asarlari rus va o'zbek tillarida bosilib chiqdi, tadqiq va targ'ib etildi. Bu ulkan ijodiy mehnat bir necha avlod olimlarining umr mazmunini tashkil etmadi-mi?" Nihoyatda to'g'ri. Ustozlarimiz bu yo'lda chinakam fidoiylik namunalari ko'rsatishdi. Bugungi milliy ma'naviyatimizni tiklash yo'lidagi urinishlar ko'p jihatdan o'sha zahmatkash ustozlar yaratgan zalvorli poydevorga tayanib turibdi. Ammo ayrim insonlarning millat ma'naviyati yo'lidagi fidoiyligi bilan hukmron tuzum va uning mafkurasi ko'zlagan asl maqsad, bu sohada yuritgan qat'iy siyosati orasida jiddiy farq bor ekanligini ham bugun o'zimizga oydinlashtirib olishimiz kerak. Biz o'tmishni yoppa inkor qilish yo'lidan borsak, yana "bolshevikcha" ish tutgan bo'lamiz. Yetmish yil ichida nimalar yutdik va nimalarni yutqizdik – uning sarhisobi alohida. Bu o'rinda yaxshi anglab yetishimiz kerak bo'lgan masala shuki, sobiq hukmron tuzum o'tmish merosni o'rganishda ham o'z siyosati, yetakchi g'oyasi, mafkurasi ildizlarini mustahkamlashni niyat qildi. O'zbekning asl milliy ma'naviyati, ajdodlarimiz yaratgan boylik bevosita ularni hech qachon va mutlaqo qiziqtirgan emas.

Bolsheviklar diktaturasi agar olimlarimiz uchun o'tmish ajdodlar merosini o'rganishga zarracha imkon bergan bo'lsa, buning evaziga ular oldiga ulkan shart va talablar ham qo'ygan edilar. Bir so'z bilan "kommunistik partiyaviylik" deb atash mumkin bo'lgan talabning mazmuni shunda ediki, o'tmish merosimizda marksizm g'oyalari quvvatlovchi, bu g'oyalarning keng xalq ommasi ongiga puxta va mustahkam o'rnashuviga xizmat qiluvchi har qanday narsa topilsa, barchasini yaqqol ochib berish, targ'ib qilish, ajdodlarimiz bildirgan fikr va mulohazalarni iloji boricha "marksistik ruhda" talqin qilish, ammo agar nimaiki "proletar diktaturasi" g'oyalari zid kelish ehtimoli bo'lsa rad etish, inkor qilish, qora yorliqlar yopishtirish, zarur holatlarda esa ko'rib turib ko'rmaslikka solib o'tib ketish lozim edi. Merosni o'rganish ishiga marksizm "falsafa"sini chuqur va jiddiy o'zlashtirgan, totalitar siyosatga sodiqligi tajribada isbot etilgan, mavjud tuzumga chin dildan tarafdor kishilar darg'a qilib belgilanar, ularga har bir soha tadqiqotchilarining "dialektik va tarixiy materializm", "ilmiy kommunizm" prinsiplaridan zarracha o'ng yo'solga og'ishmay borayotganligini qat'iy nazorat etish va ta'minlash ishonib topshirilgan edi. Qatag'onlar odamlarning yuragini olib qo'ygan, ko'plar hukmron

“partiya” nima desa, “ha, shu to‘g‘ri ekan-da” deb qo‘ya qoladigan bo‘lib qolishgan edi.

Sobiq tuzum davrida ajdodlarimiz merosini o‘rganish bo‘yicha bajarilgan ishlarni baholashda unutmazlik lozimki, buyuk allomalari-mizning qarashlari ularda asli holidek aks etgan emas, balki begona qoliplar, yot andozalarga moslab sun‘iy talqin etib kelingan. Buning uchun turli usullardan foydalanilgan. Masalan, ommaviy nashrlarda ularning asarlaridagi “kommunistik partiyaviylik” qolipiga tushmay qolgan joylari (ko‘pincha, eng muhim qismlari) qirqib-kesib tashlanishi shunday “usul”lardan biri edi. Tan olish kerak, sobiq tuzum davrida olimlarimiz, tadqiqotchilarimiz shaxsan qanchalik pok, samimiy bo‘lishmasin, ajdodlar merosiga xolis yondoshuv imkoniga ega bo‘lgan emaslar. Ular ba‘zan o‘zlari to‘g‘ri deb o‘ylagan holda, ba‘zan majburiyatdan yo‘qni bor, borni yo‘q qilib ko‘rsatganlar, ajdodlarimiz so‘zini xolis, mintaqa ma‘naviyatining amaliy va nazariy takomili mantiqiga muvofiq tarzda emas, marksistik mafkura talablariga mos yo‘nalishda talqin etganlar. Natijada o‘tmish merosimiz namunalari bilan asl qo‘lyozmalardan, to‘liq matnlardan emas, ommaviy nashrlar asosida tanish bo‘lgan ko‘pchilik oliy ma‘lumotli mutaxassislar ham yagona hukmron ideologiya ruxsat bergan “haqiqatlar”dan o‘zga haqiqatlar mavjud ekanligidan deyarli bexabar tarbiya topganlar. Bugun ziyolilarimizning ko‘pchiligi ma‘naviy merosni to‘g‘ri idrok qilishga qiyalayotganliklarining sabablaridan biri ham shunda. Demak, o‘tgan 70 yillik davrda ma‘naviy merosni o‘rganish bo‘yicha qilingan ishlarning amaliy tomonlari – nashrlar, ma‘lumotlar – bugun uchun xizmat qilishga yaroqli bo‘lsa ham, g‘oyaviy-nazariy yo‘nalishlar, talqin va xulosalar, andaza va tushunchalar – barchasi jiddiy va diqqat bilan qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi va bu milliy ma‘naviyatimiz nazariyasini to‘g‘ri, asliga muvofiq shakllantirishda o‘ta muhim muammolardan biridir.

3-fasl. Umuminsoniy qadriyatlar va milliy ma‘naviyat nisbati

«Milliy ma‘naviyat desak, milliy biqizlikka yo‘l qo‘yamiz, umuminsoniy ma‘naviyat haqida fikr yuritish kerak», degan gapni na ma‘naviyat nimaligini, na milliylik va umuminsoniylik orasidagi nisbat qanday bo‘lishini to‘g‘ri tasavvur eta olmaydigan, ilmiy savodi chala odamlargina aytishi mumkin. Bir insonga o‘z milliy ma‘naviyatini tug‘anglab yetish uchun ham, Alloh yuz yil umr bersa, kamlik qiladi.

Hindiston madaniyatidan bir chimdim, Yevropa ilmidan ikki jumla, islom dunyosi ma'naviy merosidan ikki cho'qim olib, «jahonshumul» ma'naviyat nazariyasiga da'vo qilgandan ko'ra, o'zbek yurtida yashab o'tgan buyuk allomalar ijodini imkon darajasida izchil o'rganib, shu bilimlar asosida milliy ma'naviyat haqida fikr yuritgan afzal emasmi? Biz «ma'naviyat nima?» degan savolga nemis yohud ingliz, rus yoki polyak, hind yoki yapon qanday javob berishi mumkinligini bashorat qila olmaymiz. Umr bo'yi milliy ma'naviyatini, uzoq asrlar davomida o'z millati mansub bo'lgan mintaqa madaniyati vakillari ijodini asl manbalardan o'rganib kelgan odam ham milliy ma'naviyatimizni mukammal anglab yetdim, deb da'vo qilishga xijolat bo'ladi. Bu ish aslida ko'pchilikning ishi. Millat ma'naviyati uchun butun millat qayg'urishi kerak.

Ma'lumki, har bir millat, har bir xalq o'z hayot tarzini, kelajagini ajdodlarining tarixiy tajribasi asosiga quradi, hech bir xalq begona qoliplar, begona andozalar asosida emin-erkin yashab, taraqqiy eta olmaydi. *“Odamzod bironing bo'yiga qarab o'ziga to'n bichmaydi”*, deydi Yurtboshimiz¹. Har bir xonadonning o'z tartib-qoidalari bo'lganidek, har bir yurt hayotini tashkil etishning ham o'z andoza-o'lchovlari, qonun-qoidalari bo'ladi. Ular o'sha yurtning tabiiy-jug'rofiy shart-sharoiti, tarixiy tajribasi, milliy fe'l-atvori bilan bog'liq tarzda shakllanadi.

Ming yillar davomida yer yuzidagi turli mintaqalarda yashagan xalqlarning o'zaro siyosiy, madaniy, ijtimoiy aloqalari hozirdagidek yaqin bo'lgan emas. Asrlar mobaynida yer yuzida turli madaniy mintaqalar shakllangan. Yevropa xalqlarining umummintaqa madaniyati, janubi-sharqiy Osiyo xalqlari mintaqa madaniyati, Hindiston yarim-oroli va unga qo'shni hududlarda yaratilgan umumiy madaniyat va boshqa bir qator mintaqalar madaniyati – bularning har biri o'zgasidan farq qiluvchi qator diniy e'tiqod, falsafiy maktablar, san'at va adabiyot, urf-odat va an'analarning o'ziga xos uyg'un bir tizimlarini vujudga keltirganki, ahli basharning bunday bebaho mulkini, ma'naviy xazinalarini befarqlik bilan bir-biriga qorishtirib yuborishimiz mutlaqo ijobiy natijalar bermaydi.

Hech qachon bir inson haqiqatning tagiga yetgan emas. Chunki Borliq haqiqati – cheksiz. Uni anglab yetish uchun, birinchidan, shu

¹ Islom Karimov. Asarlar. 1-jild, 12-b.

kungacha insoniyat erishgan barcha yutuqlarni o'zlashtirish lozim bo'ladi. Ammo butun insoniyat yaratib qoldirgan ilmiy merosni mu-kammal o'zlashtirish bir kishi uchungina emas, hatto kattaroq ilmiy jamoalar uchun ham og'irlik qiladi. Ikkinchidan, barcha insoniyat-ning yetishgan bilimlari ham Borliq haqiqati oldida ummondan tom-chidek emas. Shunday ekan, voqe dunyo haqidagi tasavvurlarimizni qanday shakllantirganimiz maqsadga muvofiqroq?

Umuminsoniy qadriyatlar har bir millat ma'naviyatida o'ziga xos va maxsus tizim shaklida namoyon bo'ladi. Chunki milliy ma'naviyat tarixiy hodisa, o'zbekning ma'naviy takomili nemis yoki xitoy xalqi boshidan kechirgan tarixiy jarayonlardan butkul farq qiluvchi siyosiy-madaniy makon va zamonda yuz bergan. Har bir xalq mohiyatan umuminsoniy bo'lgan qadriyatlarni tamomila o'ziga xos shakl-u sha-moyilda ifoda etishining siri shu yerda. Zohirbinlar ayni shu tashqi farqlarga e'tibor qaratib g'avg'o ko'taradilar, ahli dillar botiniy uyg'unlikni muhim hisoblashadi.

Turli millatlar ma'naviyatining o'ziga xosligi kamalakdagi turli ranglar tovlanishiga monand bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi, boyitadi, ammo inkor etmaydi, bir so'z bilan aytganda, ma'naviyat ellarni zidlash-tirmaydi. Umuminsoniy qadriyatlarni biror-bir alohida xalq yaratmay-di, bu qadriyatlarni har bir xalq, har bir elat o'z tarixiy tajribasi bilan asta-sekin shakllantirib boradi va o'zaro turlicha munosabatlar jarayo-nida elatlar, millatlar bir-birini tushunib, o'zaro ma'naviyatlaridagi umumiy jihatlarni tadrijiy anglab boradi.

4-fasl. Milliy ma'naviyatimizning umuminsoniy mohiyati

Aytilganlardan xulosa shuki, o'z milliy ma'naviyatimizni tiklashga astoydil kirishganimiz aslo o'zgaga g'ayirlik ma'nosini bildirmaydi, balki umumbashariy muvozanatni, uyg'unlikni, demakki, adolatni tiklashga urinishdir. Zotan, uyg'unlik buzilsa, bashar ma'naviyati ham to'kis bo'lmaydi. Butun dunyo xalqlari bir-birini tushunib yashashga intilmog'i lozim. Dushmanlik, g'ayr ko'zi bilan qarash emas, mehr bashariyatni birlashtiradi. Bu ulug' haqiqatni bizning ajdodlarimiz allaqachon anglab yetganlar. Ammo o'zgani tushunish uchun, o'zgaga mehr ko'zi bilan boqish uchun, avvalo, inson o'zligini anglab yetmog'i kerak. O'zligini anglamagan zot hech qachon o'zgani tushunmaydi, uni xolis qabul qilmaydi. Asli milliy ma'naviyatimizga bugungi ayricha e'tibor ham ushbu o'zligimizni anglab yetishga bo'lgan kuchli ehtiyoj natijasidir.

Ma'naviyat doimo milliy bo'ladi, shu bilan birga unda umuminsoniy qadriyatlarga zid narsa ham bo'lmaydi, chunki har bir millatning mustaqil ma'naviy dunyosi, ma'naviy qiyofasi bir paytning o'zida ichki mohiyatiga, o'zak tomirlariga ko'ra, o'zga xalqlar ma'naviyati bilan umumiy jihatlariga, butun bashariyatni birlashtirib turuvchi mushtarak unsurlarga ega bo'ladi. Ma'naviyatning yuqorida eslab o'tilgan ta'rifini millat ma'naviyatiga tatbiq etadigan bo'lsak, uni bemalol millat ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg'unlik, deb atash joizdir. Shunday ekan, ayni millatimizni o'zga millatlardan ajratib turuvchi mohiyatlar emas, balki birlashtiruvchi omillar milliy ma'naviyat zahirini tashkil etadi. Faqat buni jo'n tushunish ham, jo'nlashtirib talqin etish ham –xato. Ma'naviyatimizdagi eng umuminsoniy g'oyalar ham nihoyatda milliy bir tarzda o'zligini namoyon qiladi, ular boshqa millat ma'naviyati unsurlaridan nusxa ko'chirish shaklida namoyon bo'lmaydi.

Biz milliy urf-odatlarimiz, marosimlarimizga baho bermoqchi bo'lsak, butun insoniyat manfaatlari nuqtayi nazarini, alohida shaxs erkinligi, Vatan va millat manfaatlarini, milliy qadriyatlarimiz majmuyini yaxlit uyg'unlikda olib qaramog'imiz talab etiladi. Agar shu uyg'unlikka mohiyatan muvofiq bo'lsa yoxud loaqal unga zid bo'lmasa, demak, maqbul, ammo insonlararo ziddiyat tug'dirsa, nifoq solsa, yoki o'zga shaxs erkini bo'g'sa, Vatan va millat manfaatlariga zid bo'lsa, demak, maqbul emas. Ammo bir narsani esdan chiqarmaylik: biz milliy ma'naviyatimizni qadrlasak, uni rivojlantirishga urinsak, qaysidir o'zga xalqlar, siyosiy kuchlar, bizdan gumondor bo'lishi mumkin, bizning tilimiz, dinimiz, kiygan kiyimimiz yoki urf-odatlarimiz ularning didiga o'tirishmasligi, tanlagan mustaqil yo'limiz ular nazarda tutgan qoliplarga mos kelmay qolishi mumkin deb, oshiqcha «andisha»larga berilsak, demak, bu hanuz ongimizdagi qaramlik asoratidir. Ko'nglimizda Haq nuri bilan bir ishga jazm qilar ekanmiz, o'zgalarning noo'rin shubha-gumonlari bilan hisoblashish, chumchuqdan qo'rqib tariq ekmaslik bilan barobar.

Yevropa xalqlari ijtimoiy va madaniy sohalarda o'z tarixiy tajribalaridan kelib chiqib, ajdodlari qoldirgan merosga mos qilib, ilmiy andoza va o'lchovlar yaratganlar, ta'rif va tizimlar shakllantirganlar. Agar ular yaratgan meros ta'sirida, unga ergashib boshqa bir xalq madaniy boylik hosil qilgan bo'lsa (masalan, sovet davrida SSSR xalqlari vakillari yaratgan ko'pchilik asarlarni olaylik), albatta, Yevropa madaniyati andoza va o'lchovlarini unga tatbiq etsa bo'lar. Ammo o'zbekning

milliy tafakkuri oxirgi 70 yilda shakllangan deb bo'lmaganidek, bugun endi ijtimoiyot mavzularida ilmiy mulohazalar yuritish uchun onginizga kechagi zo'raki joylashtirilgan sun'iy qoliplardan o'ylamay-netmay foydalanishga urinishimiz ham o'rinli emas.

Mavhum bir shakldagi umuminsoniy madaniyat, umuminsoniy ma'naviyat hayotda asli mavjud emas, jahon madaniyati turli o'lka va mintaqalarning o'ziga xos madaniyatlari majmuyidan iborat. Qanday millat, qanday xalq bo'lmasin, baribir, uni muayyan insonlar tashkil etadi. Insonlarning har biri o'z qiyofasi, o'z fe'l-atvori, fikr-andishalari, o'z hayot yo'li va orzu-niyatlariga ega. Ammo ularning barchasi Alloh yaratgan maxluqotning bir toifasi – bani odamga mansub bo'lgani tufayli ularning barchasi uchun umumiy bo'lgan muayyan qadriyatlar majmuyi ham mavjuddir. Bu qadriyatlar har bir millat, har bir inson uchun alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularning ko'r-ko'rona inkor etilishi, tan olinmasligi butun bashariyat uchun halokatli bo'lishi mumkinligini jahon tarixi tajribasi ko'p marta isbotlagan. Albatta, bunday qadriyatlar barcha insonlar, barcha millatlar tomonidan birdaniga, azal-ibtidodan anglab yetilgan, idrok qilingan deb bo'lmaydi. Umuminsoniy qadriyatlar har bir millatning ma'naviy mulkiga aylanishi uchun asrlar, balki ming yillar kerak bo'ldi. Hatto bugun ham barcha insonlar, barcha elat va toifalar ularni tugal anglab yetgan, deyish qiyin.

Masalan, eng asosiy umuminsoniy qadriyat – har bir dunyo yuziga kelgan insonning yashash huquqini olaylik. Barcha ilohiy kitoblar insonning yashash huquqini himoya qiladi, o'zgalarga nohaq ozor yetkazmaslikka, insonni nobud etmaslikka chaqiradi. Ammo insonlar doimo ushbu da'vatga rioya etib kelmoqdami? Qaytaga, o'sha kitoblar qatidan o'zlariga maqbul bo'lmagan o'zga insonlarni yo'q qilish uchun fatvolar izlaydilar, o'zlarini “musulmon”, o'zgalarni “kofir” deb e'lon qiladilar. Holbuki, insonlar e'tiqodi haqida hukm chiqarish faqat Allohga tegishlidir. Alloh hatto o'z payg'ambarlariga ham o'zgalar ustidan hukm chiqarish huquqini bergan emas, Allohning rasullari faqat uning hidoyatini bandalarga yetkazishga mas'ul etilgan, ya'ni payg'om (xabar) eltuvchidirlar. “Hukm qilish faqat Allohning o'ziga xosdir”, deyiladi Qur'oni karimning “An'om” surasi 57-oyatida. Atrof-muhit, tabiatga behuda ziyon yetkazmaslik yana bir umuminsoniy qadriyat bo'lib, afsuski, bu ham hanuzgacha ko'pchilik insonlar tomonidan amalda rioya etilayotgan qoidaga aylangani yo'q. Insonlar, odatda, arziyas hoyu-havaslari yo'lida o'z kelajaklari ildiziga ayovsiz bolta uradilar. Yana bir

umuminsoniy qadriyat adolat tuyg'usi bo'lib, o'zbek xalqining "pichoqni avval o'zingga ur, og'rimasa, birovgaga", degan o'tkir ramziy maqoli bu qadriyatni kuchli bir tarzda ifodalaydi. Inson kofirga ham, musulmonga ham, do'stiga ham, dushmaniga ham adolat yuzasidan muomala qilishi zarurligi ilohiy kitoblarda ham ochiq-oydin bayon etilgan. Alloh taoloning "Rahmon" ism sifatida uning Oliy adolati yorqin ifodasini topgan va bu ham insonga tabarruk ibrat bo'lmog'i kerak. Ammo adolat tarozisi pallalarini doimo teng tutish juda kam odamlarga nasib etib kelmoqda. Yaratuvchilik mehnati bilan shug'ullanib, o'z moddiy ehtiyojlarini ta'min etish ham umuminsoniy qadriyat va tabiiy zaruratdir. Bu qadriyatni tan olgisi kelmay, aylanib o'tishga, o'zgalar mehnati hisobidan o'z baxtini qurishga uringan kimsalar ham hanuz keragidan oshiq uchraydi. 130 yillik asoratdan so'ng yangidan mustaqilligini qo'lga kiritgan O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'z munosib o'rnini egalashga intilar ekan, avval-boshdan o'z baxtini o'zgalar hisobiga qurishga umid bog'lamasdan, barcha xalqlar bilan teng, adolatli, do'stona va samimiy munosabatlar o'rnatishga tarafdor bo'lib chiqmoqda, bashariyatning kelajagi uchun o'zini ham boshqalar qatori mas'ul his etmoqda. Bunday yondoshuv o'zbek xalqining mingyillik ma'naviy tajribasiga ko'p jihatdan muvofiq keladi.

6-BOB. «MILLIY MA'NAVIYAT ASOSLARI» FANI IJTIMOIIY VA MA'NAVIYATGA ALOQADOR FANLAR TIZIMIDA

1-fasl. Ijtimoiy fanlar metodologiyasi xususida

Inson ilmi hech qachon Borliq haqiqatining oxiriga yeta olmaydi. Shunday ekan, har qanday ilm biror-bir aniq maqsad sari yo'nalmasa, cheksiz-chegarasiz, ibtido-intihosiz bo'lib qolib, biror samaraga muayassar bo'lishi qiyin. "Metodologiya" tushunchasi voqelikni ilmiy idrok etishning ayni shu muayyan maqsadga qaratilgan mantiqiy tizimini anglatadi. Ma'lumki, ajdodlarimiz – buyuk tasavvuf pirlari – Haqqa yetishishning irfoniy yo'llarini ishlab chiqqanlar va ularni "tariqat" yoki "suluk" deb ataganlar. "Metod" atamasi ham aslida yunoncha "metodos" so'zidan olingan bo'lib, "yo'l", "haqiqatni anglab yetish yo'li" ma'nolarini ifodalaydi. Arab tilida bu so'zning muqobili "tariq" yoki "tariqa" bo'ladi. "Tariqat" atamasining kelib chiqishi shundan. Alisher Navoiy XV asrda ayni shu an'anaga tayangan holda ada-

biyotda “badiiy metod” muammosini hal qilib berdi va “haqiqat tariqi”, “majoz tariqi” tushunchalarini ilmiy iste’molga kiritdi.

Marksizm-leninizmga so’nggi haqiqat deb qaragan paytimizda ijtimoiy fanlar sohasi juda jo’nlashib ketgan edi. Chunki mutlaq haqiqatlar allaqachon aniqlangan, endi nisbiy, ikkinchi darajali masalalarni hal qilish qolgandek tasavvur hukmron edi. Hozir ham yaqin o’tmishda marksistik falsafani yaxshi o’zlashtirib olganlar uchun eski andaza va qoliplardan kechish qiyin bo’lmoqda. Ammo bugun, ko’zimizni kattaroq ochib qarasak, birgina Yevropa mintaqasida shuncha ko’p bir-biridan keskin farq qiluvchi falsafiy tizimlar yaratilgan ekanki, ularning har birini jiddiy anglab yetish uchun bir insonning umri yo yetadi, yoki yetmaydi. Shunday sharoitda sobiq sovet davrida kimki marksistik dialektikaning targ’iboti bilan ilmiy darajalarga erishgan bo’lsa, bugun ham kechagi bilimlarini «ilmiy falsafiy ta’limot» sifatida talabalarga taqdim qilishga urinishi, yumshoq qilib aytganda, insofdan emas, qolaversa, bunday “o’jarlik”ning oqibatini ham o’ylash kerak. Kechagi biz boshdan kechigan “savdolar”dan bexabar yoshlarimiz bunday mas’uliyatsizligimiz tufayli yana yolg’on “haqiqat”larni chin deb o’zlashtiradimi? Bunday metodologik chalkashliklar faqat falsafa emas, boshqa qator ijtimoiy fanlarga ham oid bo’lib, 70 yillik marksistik mafkura asorati ularning barchasiga o’z “tamg’a”sini bosib ketganligi biz katta avlodga sir emas.

Prezident I. Karimov “Fidokor” gazetasi muxbiri savollariga javoblarida bu haqda shunday deydi:

*“Ko’p asrlik tariximiz shuni ko’rsatadiki, inson dunyoqarashining shakllanishida ma’rifatning, xususan, ijtimoiy fanlarning o’rni beqiyos. Bu jamiyatshunoslik bo’ladimi, tarix, falsafa, siyosatshunoslik bo’ladimi, psixologiya yoki iqtisod bo’ladimi — ularning barchasi odamning intellektual kamolotga erishuvida katta ta’sir kuchiga ega. Lekin bugun o’rta va oliy o’quv dargohlaridagi ta’lim-tarbiya jarayonlarida foydalanilayotgan darsliklar, dastur-qo’llanmalar, kitoblar qanday mafkuradan oziqlangan? Ularda eski tuzum davridan qolgan g’oyaviy qarashlardan to’liq voz kechilganiga kim kafolat bera oladi? Bu haqda qayta-qayta gapirishga to’g’ri kelmoqda. Afsuski, biz mam-lakatimizda ijtimoiy fanlarning rivoji zamon talablaridan ortda qolayotganini tan olishga majburlmiz. Bu boradagi xato va kamchiliklarni zudlik bilan bartaraf etish choralarini ko’rishimiz lozim”*¹.

¹ Islom Karimov. Asarlar. 8-jild, 504–505-b.

Ijtimoiy sohada asl haqiqatni anglab yetish tabiiy va aniq(matematik) fanlarga nisbatan bir necha barobar mushkulroqdir. Chunki ijtimoiy sohadagi tushunchalar tarixan shakllanadi. Ularni anglab yetish uchun millat tarixini, uning madaniy merosini chuqur o'rganish kerak. Yevropa mamlakatlari boshidan kechirgan davlatchilik tarixini o'rganish asosida Osiyodagi ushbu soha muammolarini anglab yetish mumkin deb o'ylagan odam qattiq yanglishadi. Markschilar butun insoniyat tarixiy takomiliga tatbiq etmoqchi bo'lgan formatsion nazariya ham ayni shu sababdan o'zini oqlamadi. Rossiyadagi krepostnoylik tuzumi, O'rta asrlar Yevropasidagi feodalizm tizimi yoki Yunonistondagi quldorlik ayni o'sha o'lka va mintaqalarga xos bo'lgan betakror ijtimoiy hodisalar edi. Ularni Xitoy yoki Hindistondan qidirish hech qachon qoniqarli natija bergan emas. Shunday ekan, bugungi kunda yana muayyan zamon va makonda tug'ilayotgan dolzarb muammolarga «jahonshumul» miqyosda javob berishga behuda urinmasdan, yaqin o'tmishdagi ilm tarixining achchiq saboqlarini biroz inobatga olib reja tuzsak va harakat qilsak, o'zimizni ham, boshqalarni ham chalg'itmay ish tutgan bo'lur edik.

Ilm xoh juz'iy masalaga bag'ishlansin, xoh umummetodologik muammolarni hal qilishga qaratilgan bo'lsin, agar xolis bo'lmasa, ilm bo'lmaydi, real natijaga erishilmaydi. Qanday maqsadni oldiga qo'yanligidan qat'i nazar, xolis izlanishlarga tayanmagan ilm – ilm emas. Shu nuqtayi nazardan, bir achchiq haqiqatni nihoyat tan olishimiz kerak: sobiq SSSR sharoitidagi ijtimoiy fanlar sohasida o'tkazilgan «tadqiqotlar»ning aksariyat qismi haqiqiy ilm emas, mafkurabozlik edi, xolos. Shunday ekan, kechagina o'tmish mafkurasiga sodiq xizmat qilib, turli “ilmiy” daraja va unvonlarga sazovor bo'lganlar, hech bo'lmasa, hali ham adabiyotchi, tarixchi, va h.k. boshqa fanlar namoyandalari bepisandlik bilan yuqoridan qarashga urinmasalar, dunyo ilmining rivojiga durustroq nazar solib, ajdodlarimiz ma'naviy merosiga jiddiyroq munosabatda bo'lishga harakat qilsalar yomon bo'lmas edi. Ularning ko'pi yaxshigina fikrlash qobiliyatiga ega odamlar, demak, aniq mavzular ustida binoyidek tadqiqot o'tkazishlari mumkin. Ammo «umummetodologik asosga» o'tganda bir vaqtlar xotiraga joylashtirilgan eski andaza va qoliplar yana o'z ta'sirini ko'rsata boshlashi ishni murakkablashtiradi.

2-fasl. Ma'naviyat va falsafa

Qadim Yunonda barcha fanlarning asosi falsafa deb qarashgan. Chunki avom tafakkuri o'sha davrda asotir darajasida edi, e'tiqod ham shunga muvofiq mushriklik edi. Tavhid tafakkuri dastlab falsafiy tafakkur sifatida shakl ola boshlagani uchun qadim yunon ziyolisiga voqelik haqidagi eng to'g'ri bilim falsafa bo'lib anglashildi. Falsafiy tafakkur yunonlar uchun shu ma'noda ilmiy tafakkurning ibtidosi bo'ldi, deyish mumkin. Asli falsafiy tafakkur Borliq haqiqatini anglab yetishning yagona yo'li emasligi bugungi kunda ko'pchilikka ma'lum.

Ma'naviyatning asosi uyg'unlikdadir. Yangi davr Yevropa ilmi quruq sxolastikaga emas, amaliy tajriba (eksperiment, sotsiologik so'rov, psixologik kuzatuvlar va h.k.) xulosalariga tayanadi. Ammo XVII–XX asrlarda Yevropada e'tiqod (din) va ilm orasidagi ziddiyatning ancha jiddiy chuqurlashuvi kuzatildi, ateizm (dahriylik) qudrat kasb etdi. Islom mintaqa madaniyatida esa bunday adashuvlar (payg'ambarlik va ilohiy vahiyni ratsionalistik talqin etishga urinishlar) IX–X asrlardayoq bosib o'tilgan va X–XII asrlarga kelib Forobiy, Moturidiy, Ibn Sino kabi buyuk allomalimiz ijodi timsolida Borliq haqiqatini talqin etishdagi aql va naql uyg'unligi asosan o'z isbotini topgan edi.

XIX asr Yevropasida mantiqiy tafakkurning yuksak cho'qqisi Hegel falsafasi hisoblanar edi. Darhaqiqat, olmon mumtoz falsafasining mashhur vakili Georg Vilgelm Fridrix Hegelning "Mantiq ilmi" va boshqa asarlari o'z davrida Yevropa falsafasida katta e'tibor qozondi. Uning Borliq, mohiyat va tushuncha haqidagi ta'limoti ko'p Yevropa allomalari falsafiy ongida hal qiluvchi burilish yasadi. Ammo marksistik falsafa ta'limida Hegel haqida dialektika qonunlarini idealistik talqinda kashf etgan yarim "reaksion", yarim "progressiv" g'oyalar ifodachisi sifatida tasavvur shakllantirilar edi. Shuning oqibatida ba'zi faylasuflarimiz XX asrning oxirgi yillarida (mustaqillik davrida) tayyorlab chop ettirgan o'quv qo'llanmalarida ham talabalarga Hegel ta'limotini eskicha talqinda bayon qilib kelishdi. Shunday talqinlarning hanuz kitoblarga kirib qolayotganligiga ikki misol keltiramiz: "Hegel to'g'risida so'z borganda uning falsafasidagi ikki tomonni – dialektik usul va metafizik konservativ sistemasini farq qilmoq zarur. Agar dialektik usul o'zida "ratsional mag'izni" – taraqqiyot to'g'risidagi ta'limotni gavdalandirgan falsafa shakli bo'lsa, uning dogmatik idealistik sistemasini esa konservativ, ya'ni taraqqiyotning to'xtab qolishini

talab etadi va shuning natijasida dialektik usulga tubdan ziddir”¹. “Hegelning dunyodagi barcha hodisalar “mutlaq g’oyaning”, “ruh”ning turli ko’rinishlaridan iborat degan fikri dunyoni Xudo yaratgan deb hisoblovchi diniy ta’limotning boshqacha bayon qilinishi edi”².

Bu talqinlar shundoqqina sovet davrida bosilib chiqqan marksizmleninizm falsafasiga doir o’quv qo’llanmalari va ma’lumotmalardan ko’chirib qo’yilganligini o’sha kitoblar asosida “falsafa”dan “ta’lim” olgan biz keksa avlod yaxshi bilamiz. Mustaqillik yillarida ham almi-soqdan qolgan shunday gaplar bilan kitob to’ldirish yoshlar tafakkuriga qanday ta’sir ko’rsatishini o’ylab ko’rishimiz kerak emasmi?

Hegel asarlarida sof falsafiy tushunchalar bo’lmish Borliq, sifat, miqdor, me’yor, mohiyat, hodisa, voqelik, tushuncha, mutlaq g’oya singari mantiqiy atamalarning o’ziga xos ichki uyg’unlikka bo’yinsundirilgan tizimi yaratilgan bo’lib, marksistlar Hegelni maqtaganda ham, tanqid qilganda ham faylasufning murakkab mantiqiy mulohazalarini xolis idrok etishni emas, balki ulardan o’zlarining qarashlariga mos keluvchi jihatlarini ajratib olib, ustalik bilan foydalanishni ko’zlaganlar.

Ikkinchi bir ulug’ olmon mutafakkiri dinshunos va faylasuf Lyudvig Feyerbax ham hanuz Hegel “idealizmi” ning fosh etuvchisi va yangidan “materializm g’alabasi” ni ta’minlagan shaxs sifatida eslanadi. Vaholanki, “Xristianlikning mohiyati” kitobida olg’a surilgan g’oyalar faqatgina marksistik materializmga “xizmat qilish” maqsadiga bo’ysundirilgan emasligi har bir jiddiy olimga ayondir.

70 yil davomida jahon kommunist faylasuflari tomonidan Yevropa falsafasining butun tarixi xuddi shu tarzda marksistik aqidalar nuqtayi nazaridan «andozalab» chiqilgan. Tarixda o’tgan har bir yirik faylasuf merosining «yutuq» va «kamchiliklari» sarhisob qilingan, agar uning mulohazalari «dialektik materializm»ning biror-bir qirrasini «isbotlash»ga xizmat qilsa, bu o’sha faylasufning «progressiv», «haqiqatga muvofiq» tomoni, agar marksizm aqidalariga zid kelsa, mos tushmasa, bu uning «reaksion», «adashgan» tomoni ekani ta’kidlangan. Bu ishlarni anchamuncha iste’dodli olimlar «qotirib» bajargani tufayli, sovet davri “faylasuf”lari ular yozgan narsalarni o’z vaqtida sof ilmiy haqiqat sifatida qabul qilishgan. Bugun endi o’z xohishlaridan qat’i nazar xotiraga joylashib olgan bunday yarim yolg’onlardan xalos bo’lish

¹ J. Tulenov, Z. G’ofurov. Falsafa. T., «O’qituvchi», 1997, 133–134-b.

² O’sha kitob, 134-b.

ular uchun oson emas. Marksizmning og'ir jinoyatlaridan biri shuki, o'z davrida minglab qobiliyatli yoshlarni ilmda ana shunday bosh berik takabburlik ko'chasiga kiritib qo'yib, ham ularga Alloh bergan tabarruk ne'matni yelga sovurdi, ham jamiyat rivojiga ikki tomonlama zarar yetkazdi.

O'sha davrda falsafa fakultetlarida marksizmdan boshqa yana ni-maiki o'rgatishgan bo'lsa, yana o'sha marksizm nuqtayi nazaridan o'rgatishgan. Bugun bizda Kantni aslyatda o'qigan nechta faylasufni topish mumkin? Hegel yoki Feyerbaxni-chi? Aflotun va Arastu asar-larini ruscha tarjimada agar astoydil o'qib chiqqanlar bo'lsa ularga ming rahmat! Lekin bular bari hali Yevropa falsafasi, xolos. Jahonda yana mumtoz hind falsafasining turli oqimlari, qadim xitoy falsafasi va hoka-zolar bor. Agar milliy ma'naviyatimiz takomiliga bevosita aloqador bo'lgan islom mintaqasi hududlariga nazar soladigan bo'lsak, ulug' al-lomalimiz Forobiy, Moturidiy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy, Ibn Tu-fayl, Ibn Rushd asarlarining asl matnlari bilan jiddiy tanishib chiqish hozirga kelib bizdagi falsafa bilimdonlaridan kimlarga nasib etdi-yu, ularni to'g'ri idrok etish uchun yana qancha bilim, qancha mashaqqatli mehnat kerak. Xullas, milliy ma'naviyatimiz an'analarida yangi bir fikr aytish uchun o'zidan oldin yaratilgan ma'naviy boyliklarni chuqur anglab yetish talab etiladi. Albatta, bu 1–2 yilda bitadigan ish emas.

Bizning fikri ojizimizga ko'ra, sobiq marksizm hukmronligi o'sha davrda falsafa va unga yondosh yo'nalishlarni tanlaganlarning ko'pchiligi ongiga turli yo'llar bilan o'zi joylashtirgan Borliq haqidagi tasavvur-lar, metodologik andoza va qoliplarni mutlaq haqiqat deb ishontir-gan. Shu ishonch ruhi va alternativ bilimlarning yetarli emasligi hanuz yanglish tasavvurlarga quvvat berib kelmoqda. Masalan, dialektika mutlaq haqiqat yo'q deb o'rgatadi, deydi faylasuf do'stimiz. Ammo yaqin o'tmishda xuddi shu dialektika qonunlariga mutlaq haqiqat deb qarash odat tusiga kirgan edi. Asli ularning o'zi ham cheksiz Borliq haqiqatini modellashtirishning bir tajribasi – o'z davri talablari nati-jasida yuzaga kelgan bir qolip, andoza emasmidi?

Yana bir masala – tom ma'nodagi mustaqil falsafiy tafakkur egasi bilan, o'zgalarning falsafiy qarashlarini o'rganuvchi falsafashunosni farq qilish zarurati. Rahmatli professor G'aybullas-Salom bir katta izdihomda afsus bilan aytgan edi: «Falsafa nihoyatda ulug' narsa, ammo qani bugungi O'zbekistonda birorta «men – faylasufman» deb yurak yutib da'vo qiluvchi bormi?» Da'vogarlar ko'p bo'lishi mum-

kin, ammo Arastu, Kant, Forobiy, Rumiy kabi mustaqil falsafiy tizimga asos solish uchun qancha bilim va iste'dod kerak? Sobiq sovet davrida falsafa fakultetida ta'lim olgan, yoki sobiq sovet marksist «faylasuf»larining ta'limini olish bilan kifoyalanib qolgan har bir oliy ma'lumotli mutaxassisni, hatto u ilmiy daraja egasi bo'lsa ham, tom ma'noda faylasuf hisoblasak bo'laveradimi?

G'arbda muayyan ilm sohasida falsafiy umumlashmalar yarata olganlarga «falsafa doktori» ilmiy darajasi beriladi. Bizning falsafashunoslarimiz orasida nihoyatda teran fikrlovchi insonlar bor. Agar ular yangi voqelikni eski andazalar bilan o'lchashni qo'yib, biror muayyan fan yo'nalishi bilan shug'ullana boshlasalar, balki jamiyat ko'proq yutuqlarga erishgan bo'larmidi?

Xullas, falsafa va mantiq ilmi o'ta jiddiy fanlar bo'lib, jahon mumtoz falsafasini, jumladan, XIX–XX asr Yevropa faylasuflarining ijodiy merosini mustaqil va atroflicha o'rganish muhim ahamiyatga ega. Faqat bu jiddiy mashg'ulot bilan alohida falsafiy yo'nalishidagi ilm va ta'lim dargohlarida shug'ullanib, asl manbalar asosida ta'lim va tadqiqot olib borish, hozirgi jahon falsafasi va falsafashunosligining yetakchi namoyandalari bilan yaqin muloqotda bo'lib, ular bilan hamkorlikni har taraflama rivojlantirish unumli natijalar berishi mumkin.

XX asr Yevropa falsafasining yetakchi yo'nalishlari – Akvinalik Toma izdoshlari (“yangi tomizm”), Zigmund Freyd, Bertran Rassel, Lyudvig Vitgenshteen, Erix Fromm, Martin Xaydegger, Karl Yaspers, rus mutafakkirlari Vladimir Solovyov, Pavel Florenskiy, Nikolay Berdyayev va jahonning boshqa taniqli faylasuflari ijodini xolis o'rganish bugungi zamondoshimizning fikriy dunyosini benihoya kengaytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari qadim va hozirgi zamon arab, hind, qo'yingki, jahon falsafiy tafakkuri durdonalarining barchasini ham har tomonlama o'rganish foydadan xoli emas. Ammo bir narsani yoddan chiqarmaslik lozimki, avvalo, falsafa inson ma'naviyatini shakllantiruvchi yagona omil emas, qolaversa, dunyoning hamma ilmini har bir kishi o'zlashtirib yetkaza olmaydi. Shu sababli bugungi kunda falsafa fanini qaysi chegaralarda va kimlar o'rganishi lozimligi haqida atroflicha mulohaza bilan fikrlashib olish va kerakli xulosalar chiqarish lozim. Bir sharti shuki, bunday fikr almashuvida qatnashuvchilar doirasi kengroq va xolisroq bo'lmog'i, faqat falsafashunoslar, yoki ularga yondosh soha vakillaridan iborat bo'lib qolmagani ma'qul.

Barcha faylasuf ham Borliq haqiqatining asl mohiyatini anglab ye-

tishga intiladi. Ammo, agar u haqiqiy iste'dodli alloma bo'lgan taqdirda ham aslida cheksiz Borliq haqiqatining bir qirrasida xususida muayyan xulosalar bera oladi, balki muayyan yangi jihatlarini yoritib beradi. U yaratgan tizim baribir oxirgi haqiqatni ifoda etmaydi. Shu nuqtayi nazardan, masalan, Hegel ta'limoti ham voqelikning mutlaq haqiqatini kashf etgan emas, balki uning ba'zi yangi qirralariga e'tibor qarab, ularni o'z davridagi mavjud tasavvurlarga muvofiq talqin etgan, deb qaralsa, to'g'riroq bo'lsa kerak. Oradan bir asr o'tar-o'tmas Hegel talqinlari hayotni, Borliqni to'g'ri anglab yetish uchun yetarli bo'lmay qoldi, chunki zamon o'zgardi, XIX asr voqeligi kechagi kunga aylandi. Shu sababli XX asr o'rtalariga kelib, mutlaqo yangicha tarixiy voqelikda Karl Popper singari Yevropada shuhrat qozongan faylasuflar Hegel falsafasiga nisbatan jiddiy raddiyalar bildira boshladilar.

Milliy ma'naviyatimiz an'analari me'yor qonuniga tayanadi. Murakkab voqelikning turli jihatlarini mutanosiblik, uyg'unlik bo'lishigina insoniyat taraqqiyoti uchun, hayot mukammalligi uchun asosiy shart ekanligini ulug' allomalarimiz o'z davridayoq anglab yetganlar va o'z asarlarida ifodalab berganlar. Dialektika qonunlari esa bu murakkab dunyoni, bugungi kun nuqtayi nazaridan olganda, anchayin jo'nlashtirib tushuntirishga urinish sifatida baholanishi mumkin, shu sababli voqelikni o'ta murakkab strukturali tizim deb qarash G'arb ilmidagi ham allaqachon shakllangan. Unda ba'zan "qarama-qarshiliklar birligi va kurashi", ba'zan "inkorni inkor" yoki "miqdor o'zgarishlardan sifat o'zgarishlarga o'tish" tarzida tasavvur qilsa bo'ladigan hodisalar uchray turadi. Ammo bu qonunlarni voqelikni anglab yetishning asosiy vosita va usullari deb mutlaqlashtira boshlasak, darhol sun'iy muammolar hosil qila boshlaymiz. Biz sovet davrida mustabid mafkuraga bo'ysunib marksizm falsafasini eng oliy haqiqat deb qabul qilib, barcha ilm va tarbiya yo'nalishlari markaziga qo'yib keldik. Vaholanki, milliy ma'naviyatimiz tajribasida falsafa yo'nalishi, o'zining butun ko'lami bilan insonning Borliq haqiqatini izlashidagi turli yo'nalishlardan biri deb qaralgan. Darhaqiqat, falsafa o'zining barcha oqimlarida mantiqiy tafakkurga tayanadi. Vaholanki, insonning voqelikka yondoshuvi faqat mantiqiy tafakkur bilan cheklanmaydi. Ibrat va ibodat, irfon va riyozat, san'at va nafosat, did va farosat, va, nihoyat, amaliy yaratuvchilik faoliyatining turli yo'nalishlari — barchasi insonga Borliq haqiqatini anglab yetishda ko'makdosh bo'la oladi. Asotir tafakkur, badiiy tafakkur, irfoniy tafakkur, tarixiy tafakkur va hokazo inson

tafakkurining yoʻnalishlari behisob. Maʼnaviyat oʻzini bir tafakkur tarzi bilan bogʻlab qoʻymaydi, Borliq mohiyatini va oʻzining unga nisbatini anglab yetishiga urinishida faqat aqlga tayanish bilan cheklanmaydi, balki aqlni ham koʻngil koʻzgisiga sayqal berish uchun bir vosita deb qaraydi.

Konkret ilm yoʻnalishlaridan farqli oʻlaroq, faylasuf tanlagan mavzu oʻta murakkabdir. Borliq haqiqatining qirralari, jihatlari shu qadar cheksizki, hech qachon ularni mukammal qamrab olib boʻlmaydi. Shu sababli faylasuf yaratgan tizim mantiqiy asoslanishiga koʻra ilmga oʻxshasa ham, aslida Borliq haqiqatini modellashtirishga navbatdagi urinishdir. Faylasuf mantiqiy fikr yuritadi, ammo u rosmana falsafiy tizim yarata olishi uchun voqelikni modellashtirish isteʼdodiga ega boʻlishi lozim. Falsafiy modelni ilmiy haqiqatdan farq qilmaslik oxir-oqibatda uni mutlaqlashtirishga olib keladi. Vaholanki, har zamonning, har makonning, balki har yoʻnalishning oʻz falsafiy modeli boʻladi. Ularni bir zamon va makondan boshqasiga taqlidiy koʻchirishga urinish – koʻpchilikni chalgʻitib qoʻyishi mumkin. Shu sababli gap mohiyatdan «dialektik materializm»ning yolgʻon yoki rostligida ham emas, haqiqat shundaki, kechagi sovet voqeligida ideallashtirilib ongimizga singdirilgan falsafiy model bugungi mustaqil Oʻzbekiston sharoiti uchun mutlaqo yaroqsizdir.

Bugun mustaqil Oʻzbekistonning birinchi Prezidenti jahon tajribasi va milliy anʼanalarimizga tayangan holda mutlaqo yangi model yaratmoqda va u amaliy hayotga tatbiq etilib, shu kungacha oʻzini oqlab kelmoqda. Uning asosida mustaqil davlatchiligimiz, iqtisodimiz, maʼnaviy qadriyatlarimiz rivojlanib va taraqqiy topib bormoqda. Demak, bizning ijtimoiy sohalaridagi izlanishlarimiz ayni shu umummetodologik asosga tayanmogʻi zamon va makon ruhining taqozosidir. Biz bugun shu voqe modelni ilmiy tahlil qilmogʻimiz, uni jahon va tarix tajribasi bilan qiyoslab, tub xususiyatlarini kashf etmogʻimiz maqsadga muvofiq.

3-fasl. “Milliy ma’naviyat asoslari» fanining «Ruhshunoslik» (Psixologiya), «Axloqshunoslik» (Etika), «Madaniyatshunoslik» (Kulturologiya), “Nafosatshunoslik” (Estetika), «Tarbiyashunoslik» (Pedagogika) kabi inson va jamiyat hayotini o’rganuvchi turli fanlarga nisbati

O‘z bilimlarini muayyan tizimga keltirib, tartibga solishga urinish nafaqat har bir inson, balki har bir millat, xalq uchun ham xos narsa. Ilmlar tasnifi yo‘nalishi ushbu tabiiy ehtiyojdan kelib chiqadi. Turli mintaqalarda, turli xalq vakillari tomonidan ishlab chiqilgan ilm tasniflari bir-biriga tamomila mos va muvofiq kela bermaydi: yunonlar falsafaga birinchi darajali e‘tibor berishgan bo‘lsa, arablar filologiyani avvalgi o‘ringa qo‘yishgan, forslar tarix faniga alohida mehr bilan yondoshgan bo‘lsalar, turkiy xalqlarni ijtimoiy va axloqiy muammolar uyg‘unligi ko‘proq qiziqtirgan. Natijada, turli xalqlarning o‘zaro madaniy munosabatlari rivojlangan sari ilm tasniflari ham mukammallashib borgan.

Ilmlar tasnifi Borliq haqiqatini uyg‘un idrok etishning ibtidosi edi, deyish mumkin. Yevropada keyincha “ilmshunoslik” (науковедение) deb nom olgan bu yo‘nalish islom mintaqasida IX asr o‘rtalaridan boshlanib to XVII–XVIII asrlargacha takomillashib borgan. Bu sohada butun islom mintaqasida qator qomusiy allomalar yetishib chiqdi.

Hozirgi bizga ma‘lum Yevropa ilmida ijtimoiy (jamiyatga oid) va gumanitar (insonga oid) deb sifatlanuvchi qator fanlar mavjud bo‘lib, ular inson hayotining uch sohasi – siyosat, iqtisod va ma‘naviyatga oid fanlarni qamrab olgan. Ulardan birinchi guruhiga “Siyosatshunoslik”, “Huquqshunoslik” yoki “Qonunshunoslik”, “Jamiyatshunoslik” kabi fanlar kiradi. Ikkinchi turkumga kiruvchi asosiy fan – “Iqtisod nazariyasi” bo‘lsa, undan tashqari bugungi kunda bizda ham keng urf bo‘layotgan “Marketing” (“Bozorshunoslik”), “Menejment” (“Iqtisodiy faoliyatni boshqarish ilmi”) kabi iqtisodiy muomalaga oid fanlar ham shu jumlagi kiradi. Shu bilan bir qatorda juda ko‘p tabiiy va aniq fanlar, “Ziroat ilmi” (Agronomiya), texnika va texnologiyaga oid bilimlar insonning bevosita amaliy ishlab chiqarish faoliyatiga xizmat qilishi bilan ma‘lum darajada iqtisod sohasiga aloqador bo‘lib qoladi. Albatta, keyingilar bevosita insonlararo muomalaga doir emasligi sababli, odatan, ijtimoiy va gumanitar fanlar guruhiga kiritilmaydi.

Va nihoyat uchinchi soha hisobidan — ozmi-ko'pmi ma'naviyatga aloqador bo'lgan “Ruhshunoslik” (Psixologiya), “Axloqshunoslik” (Etika), “Madaniyatshunoslik” (Kulturologiya), “Qadriyatshunoslik” (Aksiologiya), “Dinshunoslik”, “Falsafa”, “Tarbiyashunoslik” (Pedagogika), “Elshunoslik” (Etnografiya), “Nafosatshunoslik” (Estetika) kabi qator fanlarni qayd etish mumkin.

Bulardan tashqari “Adabiyotshunoslik” (Литературоведение), “Tilshunoslik” (Лингвистика), “Manbashunoslik va matnshunoslik” (Источниковедение и текстология) kabi fanlarni o'zida birlashtiruvchi “Filologiya” sohasi, matnlar tahlili va sharhi bilan bog'liq “Germenevtika” fanlari ham ma'lum darajada ma'naviyatga aloqador bilimlarni o'rganadi.

Islom mintaqasida “filologiya” va “germenevtika” ga oid fanlar juda qadimdan keng rivojlangan va muayyan ma'noda barcha inson va jamiyatga oid fanlarning avvaliga qo'yilgan. Buning asosiy sababi ilohiy kitoblarga va ma'naviy merosga ayrica ahamiyat bilan bog'liq bo'lib, Yangi davr Yevropa odami ilmida ham, badiiy ijodda ham ko'proq originallikka, betakrorlikka intilsa, Islom mintaqasida har bir alohida inson o'z bilimlarini yagona va cheksiz (g'aybga ulanib ketuvchi) Borliq haqiqatining juzviy qismi, xususiy sharhi deb yondoshgan. Yevropada har bir shaxs o'z fikrini o'zgaralar qarashidan farq qilib turishiga e'tibor qaratsa, bizning milliy an'analirimizga ko'ra har bir ulug' alloma o'zi anglab yetgan haqiqatlarni ilohiy kalom va o'zidan oldingi o'tgan salaflarga ayon bo'lgan haqiqatlar bilan uyg'un jihatlarni ta'kidlashga uringan. Buning natijasida, ba'zan Yevropa kishilari Sharqni original (yangicha) fikrlay olmaslikda ayblash singari holatlar ham uchraydiki, bu hayotga yondoshuvdagi o'ziga xosliklarni tushunmaslikdan kelib chiqadi.

Barcha ijtimoiy va insonga oid ilmlar ilojsiz inson va millat ma'naviyatining u yoki bu qirralari, jihatlari bilan bevosita ish olib boradi, ularni muayyan nuqtayi nazardan tekshiradi. Falsafa dunyo mohiyatini, unda insonning o'rnini, vazifasini mantiqiy tafakkur asosida aniqlashga harakat qiladi. Sotsiologiya jamiyatni tadqiq etsa, psixologiya inson ruhiyatini o'rganadi. Etnografiya turli elatlarning urf-odatları, turmush tarzlaridagi o'ziga xosliklarni, antropologiya fani esa alohida insonni o'rganadi. Teologiya dinlarni, diniy e'tiqodga oid muammolarni o'rganishga urinsa, teosofiya irfoniy bilimlarga e'tibor qaratadi. Ammo hozirgacha mavjud hech bir fan inson va millat

ma'naviyatini yaxlit holda olib o'rganmadi, hech qaysi fan insondagi botiniy qudratni, undagi fazilatlar, iste'dod va qobiliyatlarning kelib chiqish manbayi, hosil bo'lish holatlarini yetarli va qoniqarli izohlab berishga qaratilmadi. Vaholanki, ayni shu masala yechilmas ekan, insonning asl mohiyati ochilmay qola beradi. Demakki, inson ruhiyati, axloqiy xususiyatlari, imon-e'tiqod, mehr, burch, ilmga intilish, yaratuvchilik qudrati va undan kelib chiquvchi madaniyat, san'at, adabiyotning paydo bo'lish va rivojlanish sabablariga oid ko'plab muammolar o'z qoniqarli yechimiga ega bo'lmaydi.

Albatta, turli fanlar doirasida ushbu masalalar yuzasidan minglab mulohazalar mavjud. Ammo ularning hech biri insonni tugal qoniqtiradigan darajada emas. Masalan, hayotni saqlab qolish uchun eng zaruriy moddiy ehtiyojlar jihatidan inson va boshqa biologik mavjudotlar, ayniqsa, sutemizuvchi hayvonlar orasida mohiyatan farq yo'q. Hayvonlar ham yeydi, ichadi, qovushadi, bola ko'radi, hatto o'ynaydi ham. Ammo buning uchun ular yuksak rivojlangan madaniyat, san'at va adabiyotga ehtiyoj sezmaydi. Hayvonlarda imon-e'tiqod ehtiyoji yo'q. Ularda ma'lum darajada qiziquvchanlik bor, ammo buning izchil ilmga aylanish imkoni yo'q. Ularda mehr bor, lekin o'z jufti, bolalari miqyosida bo'lib, u ham instinkt darajasidadir. Eng asosiy masala – hayvonlar jamoasi, uning irsiy rivojlanish tarixi bo'lishi mumkin, ammo ijtimoiy (siyosiy, madaniy) tarixi yo'q. Buning hayvon zotiga zarurati ham yo'q. Materialistik izohlardan biri insondagi imon-e'tiqod ehtiyojini uning o'z o'limini bilishi (anglab yetganligi) bilan tushuntirishga urinadi. Ammo nega hayvon shuni tushunmaydi, yoki tushunadi, deb faraz qilsak, ongi shunga muvofiq o'zgaraydi? Chunki inson aqli boshqa mavjudotlarga nisbatan rivojlanganroq, deydi moddiyunchilar. Xo'sh, nega inson aqli rivojlanganroq bo'lib qoldi? Nega filning, eshakning, boring ana, maymunning aqli rivojlanmay qoldi-yu, insonniki rivojlanib ketdi? Bunday savol-javoblar intihosiz va samarasi ham noaniq bo'lib kelmoqda.

Gunoh va savob masalasi ham shunday moddiylik darajasida izohlab bo'lmaydigan muammolardan. Xullas, Inson haqida, insonlar jamiyati haqida ma'naviyat nuqtayi nazaridan turib fikr yuritadigan alohida bir ilm yo'nalishi shakllanmas ekan, ko'p sohalarda muammolar ustiga muammolar tug'ila beradi, inson va jamiyatga oid ilmlarning boshi qovushmay tura beradi.

Ma'naviyat haqidagi fan inson va jamiyat uchun xos bo'lgan bar-

cha muammolarni bir yo‘la yechib bermaydi, albatta. Ammo ushbu yo‘nalishdagi fanlar tasnifini mukammallashtirib, Oллоh nasib etsa, inson intilishlarida yangi ufqlar ochishiga umid bog‘laymiz.

Sovet davrida bizda, birinchi navbatda, falsafa, qolaversa, boshqa barcha inson va jamiyatga oid fanlar ham Yevropa madaniyati an‘analari asosida, uning ham asosan bir yo‘nalish — marksistik materializm yo‘nalishi bilan bog‘liq holda shakllandi. Hatto o‘z ma‘naviy merosimizni ham begona qoliplarga moslab o‘rganishga urindik. Shunday ekan, bugungi kunda milliy ma‘naviyatimizni nazariy asosda jiddiy o‘rganishga kirishishimiz bejiz emas. O‘zbek xalqining madaniyati, ma‘naviyati hech qachon jahon madaniyati, ma‘naviyatidan tamomila ayri, alohida bir yo‘ldan rivojlangan emas. Hamisha boshqa xalqlar ma‘naviy boyligini ijodiy o‘zlashtirib, o‘zi ham jahon madaniyatini boyitib borgan. Shu bilan birga millatimizning o‘z mustaqil ma‘naviy qiyofasi mavjud, u asrlar, balki ming yillar davomida shakllangan, u umuminsoniy qadriyatlarga yot emas, ammo Borliqning oliy haqiqatiga nisbatan o‘z talqinlari, o‘z yondoshuvi, o‘z tushunchalariga ega.

Ana shularga birinchi navbatda e‘tibor berish milliy ma‘naviyatimizning o‘z qadriyatlari, o‘z andaza va yondoshuvlari, o‘z tushuncha va talqinlarini ilmiy asosda o‘rganishni izchil va munazzam yo‘lga qo‘yish “Milliy ma‘naviyat asoslari” fanining birinchi navbatdagi vazifasi hisoblanadi. Bu fan ma‘naviyat sohasiga aloqador turli fanlar bilan yaqin aloqada bo‘lgan holda o‘z mustaqil mavzular tizimiga tayanadi. U, birinchidan, milliy ma‘naviyatimiz an‘analari, ajdodlarimiz yaratgan meros bilan bog‘liq eng umumiy muammolarni tadqiq etadi, ularning inson va Haq nisbati bilan bog‘liq tomonlariga e‘tibor qiladi. Bu fan ma‘lum darajada ba‘zi fanlarning bosh mavzulari bilan tutashlik hosil qilishi, ularning o‘zaro ichki uyg‘unligini ta‘minlashga harakat qilishi mumkin. Ammo ma‘naviyatning asosi ayni me‘yor, uyg‘unlik bo‘lgani sababli yondosh fanlarning mustaqil mavzulariga alohida va batafsil kirishib ketish uning vazifasi emas. Shu bilan birga, ayni tilga olingan uyg‘unlikka intilish bois, inson mohiyatiga e‘tiborni qaratuvchi qay bir soha boshqa fanlar mavzu doirasidan chetda qolgan bo‘lsa, “Milliy ma‘naviyat asoslari” fani tabiiy ravishda o‘sha sohaga kengroq e‘tibor qaratadi va balki shu bilan kelgusida yangi fan sohasi shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin.

“Milliy ma‘naviyatimiz asoslari” fani mavzu doirasiga kiruvchi

muammolarga jahonning turli xalqlari ilmida o'ziga xos bir tarzda yondoshuvlar yo'q emas. Masalan, qadim hind falsafasining turli yo'nalishlari, buddizm, daosizm kabi diniy ta'limotlar, hozirgi zamonada shakllangan antroposofiya yo'nalishi va h.k. Ammo "Milliy ma'naviyatimiz asoslari" fanining ushbu yondoshuvlardan jiddiy farqi, bu fan o'z ajdodlarimiz merosiga, xalqimiz dilida, tilida aks etgan ma'naviy qadriyatlar tizimiga tayanadi. Chunki bir xalq ma'naviyatiga tayangan holda boshqa xalq ma'naviyatini tiklab ham, yuksaltirib ham bo'lmaydi. Qiyosiy tahlillar bo'lishi mumkin, ammo bu masala fan rivojining kelajakdagi rejalariga oiddir.

Endi "Milliy ma'naviyat asoslari" fani bilan bevosita tutash bo'lgan ba'zi fanlarni qisqacha qiyoslab ko'ramiz. Avvalo, "Ruhshunoslik" faniga e'tibor qarataylik. "Ruhshunoslik" fani, bir tomondan, juda qadim, ikkinchi tomondan, nisbatan yosh fan. Uzoq vaqtgacha bu fan falsafiy fanlar sohasiga oid hisoblangan. Ammo hozirgi zamon G'arb psixologiya maktablarida ruhiyatni insonning moddiy borlig'i, undagi fiziologik jarayonlar bilan bog'liq ravishda (ya'ni eksperimental – zohiriy tajribalar asosida) o'rganish yetakchi o'ringa ko'tarildi. Ular o'z tadqiq mavzularini inson jismi moddiy mohiyat bilan bog'liq holda o'rganishadi. Uning tibbiyot fanlari bilan bevosita bog'liqligi ham shu sabablidir. Ammo ma'naviyatni bunday o'rganib bo'lmaydi. Ma'naviyat botiniy hodisa bo'lgani uchun, zohiriy tajribalar bilan uning poyoniga yetib bo'lmaydi. Ma'naviyat insonning Haq bilan munosabati. Shunday ekan, hech qachon bir inson o'zga inson ma'naviyati haqidagina emas, hatto o'z ma'naviy qudrati haqida ham to'liq tasavvurga ega bo'la olmaydi. Chunki ma'naviyat – baqoning fanoda zuhuri sifatida doimo cheksizlikka tutashdir.

Inson mohiyatida ikki jihat mavjud. Biri – moddiylik. Ikkinchisi-chi? Ba'zilar ma'naviyat, deydi. Boshqalar – ruhiyat. Bundan kimdir shoshib xulosa qiladi: "Demak, ma'naviyat ruhiyat ekan-da. Chunki moddiylik materiya (hayulo) bilan bog'liq, u insonning shakliy vujud, suvrati. Ruhiyat esa g'ayrimoddiy, mavhum mohiyat".

Asli unday emas. Inson moddiy vujud sifatida yaratilgan, shu bilan birga unga ma'naviy kamolot imkoni berilgan. Ruhiyat insonning tabiatiga oiddir. Unda shahvat bor: shahvat inson jismiga bog'liq, ruhiyatimizdagi ko'p holatlar ana shu shahvatning ta'sirida yuz beradi. Insonda nafs bor, moddiy vujudini doimiy qayta tiklab borishi uchun u turli ozuqa bilan taomlanib turmog'i kerak. Insonda jahl bor, u ruhi-

yatga oid, ma'naviyatga emas. Shunday qilib inson ruhiyati ziddiyatli voqelikdir.

Inson ruhi bevosita uning moddiyatidan kelib chiqadi. His-tuyg'ular – sezish a'zolarining qobiliyati bilan, aql ishlatish, tafakkur yuritish inson miyasining vazifasi bilan bog'liq, bu narsalarni bugun hech kim inkor qila olmaydi. Biz ma'naviyatga Inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg'unlik deb ta'rif berdik. Demak, ma'naviyat ayni shu uyg'unlik sifatida inson ruhida o'zini ko'rsatadi. Ruhiyat aql va sezgilar bilan bog'liq bo'lsa, ma'naviyat ruhiyatda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, ruhiyat va ma'naviyat har biri alohida, ammo bir-biri bilan muayyan ma'noda tutash hodisalar.

Shaxs va millat ruhiyati murakkab voqelik sifatida o'zida ham rahmoniy, ham shaytoniy xislatlarni, ham fazilat, ham qusurlarni, ham tabiiy-irsiy, ham atrof-muhit ta'siridagi holatlarni aks ettirsa, ma'naviyat shaxsning, millatning insoniy fazilatlarini, uning qalbidagi ilohiy nur in'ikosini namoyon qiladi.

Inson vujudi tabiatga aloqador, aniqrog'i uning bir uzvi, ajralmas bo'lagi. Uning ruhiyati ham tabiati, moddiy borlig'i bilan tutash. Ma'naviyat esa inson ruhini yagona ilohiy mohiyat, Haq bilan tutash-tiradi. Shu ma'noda inson hayvon va farishta orasida turadi. Hayvon sof moddiy olamga, farishta sof ma'naviy olamga aloqador sanalsa, insonda hayvon zotiga xos moddiylik ham, farishtaga xos ma'naviyat ham mavjud.

“Zubdat ul-haqoyiq” risolasida Azizuddin Nasafiy inson ruhiyatiga xos murakkabliklarni o'z davri tushunchalari asosida shunday bayon qiladi:

“Bilgilki, ba'zilarning fikricha, ayrim odamlarda to'rtta ruh mavjud, ya'ni: o'simlik ruhi, hayvon ruhi, jon (qalb) ruhi va inson ruhi (nafsi notiq). Yana boshqa bir xil odamlarda beshta ruh bor deydi, ya'ni: o'simlik ruhi, hayvon ruhi, qalb ruhi, inson ruhi va muqaddas ruh. Va yana deydi, insoniy ruh va muqaddas ruh yuqori olamdandir, ya'ni g'ayb olamidandir – osmoniy farishtalar jinsidan. O'simlik ruhi, hayvon ruhi va qalb ruhi – quyi olamdan, ozuqaning qiyomi va sharbatidan. Ushbu besh ruhning har biri bir javhardir. Ular bir-biridan ajratilgan va o'zaro farqlanadi. Tana go'yo sham bo'lib, o'simlik ruhi misli shamdon, hayvon ruhi go'yo pilik, qalb ruhi bamisoli yog' bo'lsa, inson ruhini nurga qiyoslash mumkin. Muqaddas ruh esa – bu “nuran alo nur” (nur ustiga nur)dir. Boshqa ba'zilar har bir odamda faqat

bitta ruh bor deydilar, ammo bu ruhning darajalari bor va har bir darajaning nomi mavjud... Ruh bitta va jism ham bittadir, lekin jismning darajalari bor va har bir darajaning qandaydir nomi bor. Ruhning ham darajalari bor va darajalar qandaydir nomlarga ega. Jism ruhga muvofiqdir va ruh jismga muvofiqdir... Jism ham, ruh ham ikkalasi birga rivojlanadi va komillikka erishguncha kamolot zinapoyalaridan ko'tarilib boraveradilar va darajalarni egallaydilar. Ularning zuvalasini har qancha ko'proq pishitsa, tarbiyalansa, ular mohiyatida yashiringan sifatlar ko'rina boshlaydi"¹.

Shunday qilib, "Ruhshunoslik" inson vujudidagi murakkab ruhiy jarayonlarni o'rgansa, "Ma'naviyat asoslari" esa bevosita ruhiyatni emas, balki inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg'unlikni o'rganadi.

Ruhshunoslikdan keyingi o'rinda ma'naviyatga eng yaqin turuvchi soha "Axloqshunoslik" (Etika)dir. Axloq – ma'naviyatning amalda namoyon bo'lishi bilan bog'liq. Inson ilmi va imoni, dunyoqarashi va idroki uning xulqida o'ziga xos tarzda aks etib, ma'naviyati axloqiy fazilatlar sifatida zohir bo'ladi. Ma'naviyat – botiniy qudrat bo'lsa, axloq bevosita har bir shaxsning o'zgalarga nisbatan ma'naviy munosabatini anglatadi. Shu sababli axloq insof va adolat tuyg'usi, imon va halollik kabi ma'naviyatning o'zak tushunchalarini inson amaliy faoliyatida yuzaga chiqaruvchi hodisadir. Ma'naviyat – o'zlikni anglash, deymiz. O'zligini anglab yetgan inson – ma'naviy yetuk shaxs hisoblanadi. Uning bizga zohir bo'luvchi barcha insoniy fazilatlar qalbidagi ma'naviyat nurining jilolaridir. Axloqiy qusurlar esa – insonning ko'ngil ko'zgusidagi zang va chirklarning o'zgalar nigohida namoyon bo'lishi. Bir jumla bilan ifodalaganda ma'naviyat shaxsning o'zi uchun, o'z qalbiga qaratilgan, dil ko'zini yorituvchi nur, axloq ushbu ma'naviyatning mazhari, o'zgalar nazdida namoyon bo'luvchi qirralari majmuyi, desak bo'ladi.

Axloqshunoslik fani o'z mohiyatiga ko'ra insonga tashqaridan baho beradi, unga mana bu – qusur, mana bu – fazilat deb insonning mavjud xislatlarini tahlil qilib ko'rsatadi. Bu fan mavjud dalillarni qiyosiy o'rganib, ularga jamiyatda qabul qilingan me'yorlardan kelib chiqib baho beradi. Ma'naviyat baho bermaydi, u imkoniyatlardan so'zlaydi. "Ma'naviyat asoslari" fani insonga uning ichki imkoniyatlarini ko'rsatadi, unga botiniy qudrat kasb etish yo'llarini o'rgatadi.

¹ Aziziddin Nasafiy. Zubdat ul-haqoyiq. T., "Kamalak", 1995, 40-b.

Bu fan inson qusurlarini qoralash bilan shug'ullanmaydi, balki fazilat-larning manbayini qidiradi, ularni qanday hosil qilishni o'rgatadi. Ma'naviyat nuqtayi nazaridan qaraganda qoralash yoki oqlash qozilik, sud ishi, ilm bu bilan shug'ullanmagani ma'qul. Axloqshunoslik inson xislatlarini boricha olib tahlil qiladi, "Ma'naviyat asoslari" ularning hosil bo'lish asoslarini qidiradi.

Nima bo'lganda ham, "Ruhshunoslik" va "Axloqshunoslik" fanlari "Milliy ma'naviyat asoslari" faniga eng yaqin, u bilan ko'p o'rinlarda tutashib ketuvchi fanlardir, lekin baribir bu fanlarning har biri o'z tadqiqot mavzusi, qiziqish doirasiga ega.

"Ruhshunoslik" bugungi rivoji darajasida ijtimoiy fanlardan ko'ra tabiiy fanlarga yaqinroq tursa, "Axloqshunoslik" sof ijtimoiy fan sifatida shakllandi. Unda tarixiy-ijtimoiy yondoshuv yuqori, an'anaga ko'ra unda inson axloqi jamiyatda qabul qilingan axloq me'yorlariga nisbatan baholanadi. Bu etikadagi normativlik xususiyati deyiladi. Ma'naviyat esa inson kamoloti uchun imkon qidiradi, uni normativlash, ma'lum me'yorlarga bo'ysundirish yo'lidan bormaydi.

"Ma'naviyat asoslari" bilan bevosita tutashuv hosil qiluvchi yana bir fan "Madaniyatshunoslik"dir. Bu fan o'z xususiyatiga ko'ra ko'proq jahon, muayyan davr yoki millat madaniyatining moddiy ko'rinishlarini tasvirlash va tasniflashga asosiy e'tiborni qaratadi. Fanning mavzusi-dan kelib chiqqanda bu yondoshuv to'g'ri va muhim. Ammo bunday yondoshuv ma'naviyat muammolarini izchil tadqiq etishdan tamomila farq qiladi.

"*Madaniyat*" tushunchasini turlicha sharhlaydilar. Biz uni sodda qilib, "*ma'naviyatning moddiy voqelikdagi izlaridir*" degan bo'lur edik. Albatta, boshqacha ta'riflar ham bor. Ulardan biriga ko'ra asli tabiatdan farqli o'laroq, inson faoliyatining barcha mahsulini "madaniyat" (aniqrog'i, культура) deyiladi. Ammo masalaning bir nozik jihati bor. Afsuski, inson voqelikni doim ham ijobiy tarafga o'zgartiradi, deb bo'lmaydi. Ajoyib qasrlarni bunyod etgan, vohalarni obod etgan ham inson, shaharlarni to'pga tutib kulini ko'kka sovurgan, o'rmonlarga o't qo'ygan ham odam bolasi (zero hayvonning qo'lidan bu ishlar kelmaydi). Dunyoni hayratga solgan kashfiyotlar, ko'ngillarni zabt etuvchi g'azallar, dostonlar inson aql-zakovati, iste'dodi mahsuli, ammo kitoblarni gulxan qilib yoqtirgan, ona tuproqni zaharlab, zilol suvni og'uga aylantirganlar ham johil sarboz-u savodsiz dehqon emas, o'zini tabiat-u jamiyat ustidan hukmfarmo bilgan ulamo-yu kubarolardir.

Shu sababli madaniyatni insonning faqat yaratuvchilik faoliyati natijalariga nisbat bersak durust, buzg'unchiligiga emas. Yaratuvchilik esa aql-idrok, iste'dod va mahorat, bilim va tajriba, riyozat va mehr bilan amalga oshadi, jaholat va qahr, xudbinlik va g'aflat bilan emas.

Qisqasi, ma'naviyat madaniyatni yaratadi, ma'naviyat imkon, madaniyat – ushbu imkondan tug'ilgan mavjudlik. Ma'naviyat o'tmish, bugun va kelajakni qamrab oladi. Madaniyat esa o'tmish va bugunga taalluqli. Ma'naviyat kelajakni belgilaydi, madaniyat bugungi ahvolni ko'rsatadi.

“Shaxs madaniyati” degan tushuncha mavjud. Agar muayyan millatga taalluqli shaxslar ma'naviyati oxir natijada millat ma'naviyatining tarkibini hosil qilsa, milliy madaniyatning yaratuvchilari bo'lsa, bundan farqli o'laroq, shaxs madaniyati ko'proq millat madaniyati, aniqrog'i, milliy madaniyatning hosilasi sifatida namoyon bo'ladi.

Albatta, har bir millat madaniyatining tarkibi murakkab. Aslida inson tafakkuri va qobiliyatining barcha samaralari “Madaniyatshunoslik” mavzularidir. Faqat ulardan ko'pchiligi alohida fan tarmog'i bo'lib, ajrab chiqib ketgan. Masalan, “Ilmshunoslik”, “San'atshunoslik”, “Musiqashunoslik” va h.k. Biz ularning har biriga alohida to'xtab ulgurishimiz qiyin. Faqat yana ikki fanni eslab o'tmasak bo'lmas. Ularning biri san'at haqidagi fanlarning umumiy nazariy asosini tashkil etuvchi falsafiy fan “Nafosatshunoslik” (Estetika)dir. Bu faning asosiy mavzusi badiiy tafakkur qonuniyatlarini, go'zallikning mohiyatini o'rganish. Ma'lumki, go'zallik uyg'unlikdan tug'iladi. Demak, ma'naviyat va go'zallik ta'riflarida umumiy jihatlar mavjud bo'lishi tabiiy. Ular orasidagi jiddiy farq shundaki, estetika uyg'unlikning hayotda va san'at asarlarida uchraydigan muayyan shakllarini o'rgansa, “Ma'naviyat asoslari” umuman inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg'unlikni o'rganadi. Bu ikki fanning ham tutashadigan joylari ko'p, ammo ularning mavzulari va yondoshuv uslublari, baribir, boshqa-boshqa.

Yana bir “Ma'naviyat asoslari”ga yondosh fan – “Tarbiyashunoslik” (Pedagogika). Insonning ta'lim-tarbiyasiga oid dolzarb nazariy-uslubiy muammolarni tadqiq etuvchi bu fan bugungi kunda turli tarmoqlarga bo'linib ketgan. Ammo “Umumiy pedagogika” bilan ma'naviyat tarbiyasiga oid ko'plab tutash masalalar mavjudki, ularni o'rganish uchun ikki fan vakillari yaqin hamkorlikni yo'lga qo'ysalar, yaxshi natijalarga erishish mumkin bo'lardi.

Xulosa qilib aytganda, “Ma’naviyat asoslari” endi-endi tetapoya qila boshlagan yangi fan bo‘lishiga qaramay, uning rejalari – ulkan, niyatlari – ulug‘. Uning mustahkam oyoqqa turib olishi, ko‘p jihatdan, ilgaridan mavjud bo‘lib kelgan unga yondosh va tutash turli fan egalarining xolisligi va xayrixohligiga ham bog‘liq.

Ma’naviyat insonning Borliq haqiqati bilan nisbatiga asos e’tiborini qaratadi. Ma’naviyat insonni fanodan baqoga eltuvchi yagona yo‘ldir. Asli falsafa ham, barcha o‘zga fanlar ham Borliq haqiqatini izlaydi, ammo “Milliy ma’naviyat asoslari” fani o‘z izlanishlarini, birinchidan, milliy ma’naviyatimizning teran tomirlari bilan, ajdodlarimiz bizga qoldirgan bebaho ma’naviy meros bilan bog‘laydi, ya’ni muayyan insonlar qo‘lga kiritgan tarixiy tajribaga tayanadi, uning asosida xulosalar qiladi. Ikkinchidan, faqat mantiqiy, ilmiy tafakkurga tayanib qolmay, o‘zga tafakkur yo‘nalishlarga ham keng e’tibor qaratadi.

Ma’naviy tarbiyaning vositalari faqat *aql* va *bilimgina* emas, balki *ibrat*, *iroda*, *mehr* hamdir. Milliy ma’naviyatimizda shular barchasi mujassam ifodasini topgan. Undan tashqari milliy ma’naviyatimizni boyitishda kalom ilmi, fiqh, tasavvuf tariqatlari va irfoni, mumtoz adabiyot kabi o‘ziga xos yo‘nalishlarning ham ulkan hissasi borki, Yevropa ilmi ularni asrlar mobaynida Sharqdan o‘zlashtirib keladi.

Xullas, Xalloqi olam ikki dunyoni inson uchun yaratdi, maqsad inson edi, unga butun maxluqlardan o‘zgacha fazilatlar baxsh etdi. Inson ko‘nglini ma’rifat xazinasi qilib, bu sehrli tilsim ichiga o‘zini yashirdi. Inson ko‘ngli maxfiy xazina sifatida Alloh haqiqati sirrini o‘zida pinhon etgan bo‘lib, uni yashirgan ham, asraguvchi ham o‘zidir. Ma’naviyat ana shu ko‘ngil tilsimiga yashiringan Alloh haqiqatining zuhuridir.

4-fasl. «Milliy ma’naviyat asoslari» fanini o‘rganish va o‘qitish uslublari

Ma’naviyat ko‘ngil ko‘zgidan taralgan nur, u inson qalbida yashiringan. Demak, “Milliy ma’naviyat asoslari” fanining asosiy vazifasi ham ruh tarbiyasi, ko‘ngil ko‘zgisiga sayqal berishda har bir shaxsga ko‘maklashuvdir. “Milliy ma’naviyat asoslari” fani insonning Oliy haqiqatga nisbatini o‘rganadi. Buning uchun ma’naviyat muallimi, faylasufdan farqli o‘laroq, o‘z mulohazalarini sof mantiqiy mulohazalar tarzida emas, balki ma’naviy merosga, bu sohada ajdodlarimiz erishgan beqiyos yutuqlarga asoslangan holda olib boradi, ya’ni bu

fan, ma'lum ma'noda, tarixiy-nazariy fandır. Uning teranligi va ko'lami ajdodlarimizning ming yillar davomida to'plagan yaxlit tarixiy-ma'naviy tajribasi bilan belgilanadi, shu bilan birga xalq dónishmandligining turli suratlarda zuhur etishi ham undagi nazariy xulosalarning manbai bo'lib xizmat qiladi.

Milliy ma'naviyat o'tmishnigina emas, ham bugun, ham kelajakni o'zida mujassam etadi. Buning uchun uning manbasi sifatida biz faqat ajdodlarimizning yozma merosiga tayanib qolmay, balki ushbu merosdan anglaganimizni bir paytning o'zida xalqning tirik xotirasi bilan, uning ma'naviy qadriyatlari bilan qiyoslab, ularning uyg'un jihatlari e'tibor qaratishimiz lozim bo'ladi. Shu bilan birga tarix tajribasi va sinovlaridan o'tgan qiymatlarni umumbashariy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirib, hozir va kelajak uchun ahamiyati nuqtayi nazaridan baholash ko'zda tutiladi. Xullas, milliy ma'naviyat nazariyasi voqelikni faqat ong bilan, aql bilan tushunib yetish tajribasiga emas, Haqiqatni anglab yetishning barcha vositalari, e'tiqod, ibrat, taqvo, riyozat, irfon, mehr, did-farosat, amaliy yaratuvchilik faoliyatining barcha turlariga e'tibor qaratib, millatning barcha amaliy va nazariy tajribasini o'rganishga intiladi, ushbu tajribani ongli o'zlashtirishda har bir insonga ko'maklashadi, maqsad — bitta, ko'ngil ko'zgisiga sayqal berishda har bir shaxsga iloji boricha yordam berish.

Inson ruhida tabiatga nisbatan, o'zgalarga nisbatan mehr va adolat tuyg'ulari shakllanishiga uning moddiyligi bilan bevosita bog'liq bo'lgan nafi ammorasi, ya'ni g'aflat, shahvat va kibr kabi qusurlar doimo xalaqit berib turadi, shuning uchun har bir kishi hayotga, o'z faoliyatiga sergak boqishi lozim. Ushbu illatlar har bir inson fitrati bilan bog'liq bo'lgani tufayli inson moddiy mavjudot sifatida tirik ekan, ulardan butkul qutulish umidi xom xayol, faqat ularni muvozanatlovchi kuch kerak. Ayni shu kuch — ma'naviyatdir.

1999-yil 14-aprel kuni ochilgan Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» deb nomlangan ma'ruzasida Prezident I. Karimov mamlakatimizni yangi asr arafasi va uning dastlabki yillaridagi rivojlanish strategiyasini belgilab berar ekan, «jamiyat ma'naviyatini yanada yuksaltirish» ni ustuvor yo'nalishlardan ekanligini alohida ta'kidlab, ma'naviyatga mukammal ta'rif berish bilan birga bu sohada bugungi kunda oldimizda turgan eng muhim masalani ham aniq ko'rsatib o'tdi:

“Erkin fuqaro ma'naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi

oldimizda turgan eng dolzarb vazifadir. Boshqacha aytganda, biz o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mam-lakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak»¹. Shu ma'noda har bir inson ruhida Borliq haqiqati bilan uyg'unlik hosil etishga har tarafлама ko'maklashish "Milliy ma'naviyat asoslari" fanining asosiy maqsadi bo'lib qoladi.

"Milliy ma'naviyat asoslari" mustaqillikkacha maxsus fan sifatida biror o'quv yurtida o'qitilgan emas va bu sohaga yetarli e'tibor ajratilgan emas. "Ma'naviyat" tushunchasi faqat ba'zi hollarda "madaniyat" tushunchasining tarkibida "ma'naviy madaniyat" ("духовная культура") sifatida olib qaralgan. Bugungi kunda bu masalaga yangicha qarash shakllanib kelmoqda. Bu qarashga binoan ma'naviyat moddiy ehtiyojlar hosilasi sifatida emas, inson va jamiyat hayotining asosini tashkil etuvchi mustaqil uch yo'nalish (iqtisod, siyosat, ma'naviyat)ning biri sifatida olib qaralmoqda. Shunday yondoshuvdan kelib chiqqanimizda, aksincha, "madaniyat" inson ma'naviy faoliyatining hosilasi, boshqa so'z bilan aytganda, inson ma'naviyatining moddiy voqelikdagi izlari sifatida namoyon bo'ladi. "Milliy ma'naviyat asoslari" fani dasturiy tizimini belgilashda ushbu yangicha yondoshuvga tayanildi.

Har bir mustaqil millat o'z hayot tarzini, kelajagini ajdodlarning tarixiy tajribasi va jahondagi ilg'or tamoyillar uyg'unligi asosiga qursa, yangilishmaydi. Bunday mustaqil rivojlanish yo'li istiqlolning dastlabki yillaridan e'tiboran O'zbekiston Prezidenti I. Karimov tomonidan ishlab chiqildi va o'tgan yillar mobaynida izchil amalga oshirib kelinmoqda.

Ma'naviyat insondagi yaratuvchilik qudratidir, insonda shu qudratni uyg'otish va harakatga keltirishga muvaffaq bo'linsa, barcha ulug'vor rejalarni amalga oshirish uchun voqe imkon vujudga keladi. Masalaga bugungi jahon taraqqiyotining ilg'or tamoyillari darajasida yondoshil-sa, milliy ta'limning eng muhim vazifasi ham ana shu imkonni shakllantirish, ya'ni yosh avlod ruhida yaratuvchilik qudratini uyg'otib, uni bashariyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muayyan o'zanlar sari yo'naltira bilish bilan belgilanadi.

¹ Islom Karimov. Asarlar. 7-jild, 381-b.

Ma'naviyat poydevori baquvvat bo'lmasa, unday insonning butun g'ayrati, jo'shqin faoliyati, oxir natijada, xalq va vatan uchun, bashariyat kelajagi uchun, qolaversa, uning o'z shaxsi uchun qanday xulosaga olib keladi, aytish qiyin. Imom G'azzoliy o'z davrida bekorga aytmaganlar: "Shuni bilsinlarki, odamzodni azbaroyi o'yin uchun yaratmamishlar, aning amali ulug'dir va uning uchun buyuk xatar bordir". Ana shu "ulug' amal" va "buyuk xatar" oralig'ida yo'nalishni to'g'ri belgilab olmoq ko'p jihatdan ma'naviy ogohlik va kamolotga bog'liq. "Milliy ma'naviyat asoslari" fanini o'qitish jarayonida asosiy e'tibor ushbu "ma'naviy ogohlik" masalasiga qaratiladi, shu bosh maqsaddan kelib chiqqan holda, imkon darajasida yosh avlodni milliy ma'naviyatimizning asosiy tamoyillari, uning mingyillik ildizlari, takomil bosqichlari, bosh qadriyatlari va tayanch nuqtalari, kelib chiqish manbalaridan ogoh etiladi.

"Milliy ma'naviyat asoslari" fanining asosiy obyekt — mustaqil O'zbekiston uchun eng dolzarb muammolardan biri bo'lgan shaxs va millat ma'naviyatining takomili, asosiy qadriyatlari, shakllanish yo'llari xususidagi milliy ma'naviy merosimiz an'alariga tayanuvchi nazariy xulosalar va qarashlar tizimidan iboratdir. Ma'lumki, jahon madaniyatiga bizning ajdodlarimiz qo'shgan hissa ozmuncha emas. "Milliy ma'naviyat asoslari"ning maxsus fan sifatida o'rganilishi, shu ma'noda, bugungi kunda ham jahon madaniyati rivojiga muayyan ijobiy natijalar keltirish ehtimolini nazardan qochirib bo'lmaydi. Demak, milliy ma'naviyat doimo umumbashariy miqyosni nazarda tutgan holda o'rganiladi.

Fanning o'qitish uslublari 1) uning maqsad va vazifalaridan 2) ta'lim qaysi tinglovchilar (talabalar, o'quvchilar) uchun mo'ljallanayotganligidan kelib chiqib belgilanadi: ma'ruzalar, suhbatlar, turli xil amaliy mashg'ulotlar tizimi har bir o'quv yurti ixtisos yo'nalishiga muvofiq ravishda ishlab chiqilib, ular nafaqat ushbu o'quv yurti professor-o'qituvchilari, balki mavzu taqozosiga ko'ra, respublikaning muayyan sohadagi yetakchi olimlari va mutaxassislarini taklif qilingan holda tashkil etiladi. Darslar, ayniqsa, suhbatlar faqat dars xonalarida emas, mavzuga muvofiq ravishda turli madaniyat muassasalari, jumladan, muzeylar, teatrlar, ilmiy tadqiqot institutlari va h.k.larda ham tashkil etilishi yaxshi samara beradi.

Talaba va o'quvchilarning fan mavzularini o'zlashtirish ustida mustaqil tayyorgarlik olib borishlariga alohida ahamiyat beriladi. Ular

hosil qilgan bilim va ko'nikmalarni tekshirish referat-taqriz, erkin in-sho, og'zaki suhbat-seminar, mo'jaz bob, ijodiy ishlar tarzida amalga oshiriladi va mustaqil tayyorgarlikni tekshirishning boshqa turli usullari ham keng istifoda etiladi.

Amaliy mashg'ulotlar, asosan, seminar-suhbat, referat-taqrizlar yo-zish, ba'zi mavzularni anglab yetishdagi muammolarni hal qilishga qaratilgan savol-javoblar tarzida o'tkaziladi. Bunda chetdan chaqi-rilgan mutaxassislardan ham foydalaniladi. Tasviriyo-ko'rgazmali vosi-talarning imkoniyatlaridan keng foydalanish, bir qator mashg'ulotlarni turli ma'naviyat va madaniyatga aloqador muassasalarda o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

II qism

SHAXS VA MILLAT MA'NAVIY KAMOLATI. MILLIY MA'NAVIYATIMIZNING TAKOMIL BOSQICHLARI

— MA'NAVIYAT O'ZLIKNI ANGLASHDIR —

1-BOB. ISLOMGACHA MILLIY MA'NAVIYATIMIZ TAKOMILI

1-fasl. Milliy ma'naviyatimiz tarixiy takomilini davrlashtirish muammolari. Qadim ma'naviyatimizni anglab yetish qiyinchilik- lari

Milliy ma'naviyat, avvalo, tarixiy hodisadir. U bir kunda, bir yilda, balki, hatto bir asrda ham mukammal shakllanmaydi. O'rta Osiyo xalqlari tarixining ibtidosi asrlar qa'riga singib ketgan bo'lib, ular bosib o'tgan necha mingyillik ma'naviy kamolot pillapoyalarini aniqlash bugun uchun muhim muammodir.

Ammo milliy ma'naviyat tarixi bilan siyosiy, ijtimoiy, hatto madaniy hayot tarixi orasida muhim farqli jihatlar mavjud. Avvalo milliy ma'naviyat tarixi millatning ma'naviy takomil jarayoni bilan bog'liq. Unda ba'zan asrlar kunlarga, va aksincha, kunlar asrlarga teng bo'lishi mumkin. Millatning ma'naviy kamoloti zamonda, ya'ni uning butun tarixi davomida yuz beradi, ammo u ba'zan shiddat bilan yuksalib borsa, ba'zan esa ma'lum darajada tanazzulga yuz tutishi ham mumkin. Bir narsa ayonki, tarix hodisalari, shaxslar, voqealar o'tib ketadi, moddiy madaniyat unsurlari yemiriladi, ma'naviyat esa yuksalib, bo'yib, tobora kengroq ko'lam va teranroq mazmun kasb etib boraveradi. Millatning aksariyati ma'naviy tanazzulga yuz tutgan fojeiy sharoitlarda ham milliy ma'naviyat yo'qolmaydi, ko'lam va mazmunda o'zi yetishgan kamolot bosqichini yo'qotmaydi. Chunki buning uchun ajdodlar yaratgan barcha ma'naviy merosni mahv etish, insonlar xotirasini, hatto irsiy xotirani ham barbod qilish kerak. Unday kundan Alloh o'zi asrasin!

Demak, milliy ma'naviyat hodisasi ham tarixiy (o'tmish tarix jarayonida yuz berib borgan), ham bugungi kunda mavjudligini saqlab turgan ko'p o'lchamli voqealidir. Albert Eynshteyn kashf etgan to'rt

o'lchamli (zamon va makonda bir paytda mavjud bo'lgan) voqe olam ushbu ma'naviy olam bo'lsa ajab emas. Balki ma'naviy olam o'lchamlari cheksiz bo'lib, to'rt o'lchamli qolipga ham sig'mas.

Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari o'lkamiz xalqlari madaniy taraqqiyot jarayoni bilan bevosita bog'liq va ushbu sahnda yuz beruvchi hodisadir. Faqat madaniy taraqqiyot o'ta murakkab tarixiy hodisalar majmuyini tashkil etsa, ma'naviy kamolot bosqichlarini belgilashda, biz ulardan bugungi kungacha o'z dolzarbligini saqlab kelayotgan asosiy o'zak unsurlarni ajratib olmog'imiz kerak bo'ladi. Avval boshdan tan olish lozimki, yaxlit tarixiy-ma'naviy jarayonning har qanday tasnifi shartli va noto'liqdir. Ammo bu borada qandaydir o'zak tomirlar, asosiy bo'g'inlar ajratib olinmasa, umuman ilmiy mulohaza yuritib bo'lmaydi.

Shu sababli shartli ravishda milliy ma'naviyatimizning necha mingyillik takomilini uch yirik davrga ajratib ko'zdan kechirishni maqbul bildik:

1. Islomgacha milliy ma'naviyatimiz taraqqiyoti.

2. Islom mintaqa madaniyati doirasida milliy ma'naviyatimizning takomili.

3. Yangi davrda jahon madaniyati va milliy ma'naviyatimiz ahvoli.

Bu davrlar o'z ichiga olgan muddatlariga ko'ra o'zaro aslo teng emas. Birinchi davr necha ming yilni qamrasa, ikkinchi davr 8–9 asrni o'z ichiga oladi, uchinchi davr esa bizning o'lkamiz – Turkiston uchun 5 asr çhamasi davom etib, oxirgi 200 yili ko'proq fojialarga to'liq bo'ldi.

Ushbu davrlashtirishning asosida ko'proq tashqi belgilar yotadi. Ularning eng muhimi manbalar ahvoli bilan bog'liq. Islomgacha ma'naviyatimiz takomili haqidagi eng muhim manbalar o'lkamizning bugungi milliy hududlaridan tashqarida topilgan bo'lib, asl matnlarning yaxlit va nisbatan mukammallari "Avesto" kitobi va turkiy toshbitiklardir. Ikkinchi qismi bilvosita ma'lumotlar bo'lib, qadim Shumer, Bobil va Ashshur, qadimgi Misr va Yunon, Hind va Xitoy manbalarida, Eron shahanshohlaridan qolgan toshbitiklarda aks etgandir. Uchinchi guruh manbalar arxeologik yodgorliklar bo'lib, ular bevosita yurtimiz hududidan yoki atrof-mintaqadan topilgan moddiy ashyolar va inshootlar bilan bog'liq. To'rtinchi guruh manbalar so'nggi davrlargacha og'zaki an'ana holidi yetib kelgan xalq adabiyoti, urfodat va marosimlar, o'yinlar, bayramlar, xurofiy irim-sirimlar bo'lib, ular yuzasidan uzil-kesil xulosalar chiqarish, ayniqsa, murakkabdır.

Umuman, bunday turli guruh manbalar o'zaro jiddiy qiyosiy tahlilni talab qiladi va oxir-natijada ham ko'pincha muayyan darajada taxminiy xulosalar chiqariladi. Islomgacha ma'naviyat haqidagi tasavvurlarimiz, shu sabablarga ko'ra, baribir uzil-kesil bo'lishi qiyin va qancha qadim zamonlarga kirib borsak, shu qadar tarixiy haqiqat va afsonalar qorishib, chatishib ketadi.

Islom davri manbalari qadim davrga nisbatan beqiyos darajada boy va ishonchliroqdir. Islom davridan boshlab, aytish mumkinki, masalaga ilmiy yondoshuv imkoni jiddiy tarzda oshadi va millatning ma'naviy kamolot bosqichlari mintaqa madaniyati doirasida aniq tarixiylik kasb etadi.

Uchinchi davr bizga eng yaqin bo'lgani sababli uni o'rganish masalalari tadqiqotchilarning ancha keng doirasini qamrab olgan, chunki manbalar asosan o'zbek, rus va qisman boshqa qardosh xalqlar tillarida saqlanganligidan bu sohada imkoniyatlar yetarli. Mustaqillikkacha ba'zi arxivlar davlat siri hisoblanib, tadqiqotchilar nazaridan pinhon tutilgan bo'lsa, bugun ularning eshiklari ochildi va tabiiyki, matbuotimizdagi eng ko'p nashrlar ushbu Yangi davr ma'naviyati muammolariga aloqador bo'lmoqda.

Insoniyat tarixiy takomili hozirgi Yevropa ilmida 4 asosiy davrga ajratiladi:

1. Ibtidoiy jamoa. 2. Qadimgi dunyo. 3. O'rta asrlar. 4. Yangi davr.

Ammo qadimshunoslar (arxeolog va paleontologlar) masalaga biron o'zgacha qaraydilar. Ular 1) *tosh asri*, 2) *bronza asri*, 3) *temir asri*, deb ibtidoiy jamoa va qadimgi dunyoni uch bosqichga bo'lib o'rganadilar. Biz yaxlit olib qarayotgan *islomgacha ma'naviyatimiz taraqqiyoti davri* ushbu *uch bosqichni* qamrab, ilk o'rta asrlarga ham o'tadi. Shunga ko'ra biz ham ma'naviy takomil nuqtayi nazaridan birinchi katta davrni bir qator bosqichlarga ajratib chiqishni ma'qul topdik.

Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni birinchi qismida Chin xoqonining o'g'li Farhod tilsimlangan ko'zgu sirini bilish qasida Yunon yurtiga safarga chiqadi. Bu yo'lda u avval dahshatli ajdahoni, so'ng zardushtiy dinidagi yovuzlik ruhi Axrimanni va nihoyat temirtanli tilsimni yengib o'tib, donishmand Suqrot suhbatiga yetishadi. Suqrot eng baland tog' bag'ridagi g'ordan joy olgan edi. Navoiy shularni alohida ta'kidlab deydi:

*Bu uch manzildan o'tkarganga mahmil
Deyilgan tog' erur to'rtinchi manzil*¹.

Ya'ni, Farhod Suqrotga yetishguncha uch manzilni bosib o'tgan (Navoiyning majoziy tasvirida birinchi manzildagi ajdahoni – ibtidoiy tosh asri ma'naviyatida inson tabiatidagi yovvoyilik timsoli, ikkinchi manzildagi Axrimanni – bronza davri "Avesto" madaniyatidagi asotir tafakkurga xos xurofotlar timsoli, uchinchi manzildagi temir odamni – o'z nomi bilan temir davri – harbiy demokratiyaga asoslangan ulkan imperiyalar davrida olib borilgan ayovsiz qirg'in urushlar va shafqatsizlik timsoli deb talqin qilish mumkin). Shahzoda Farhod timsolida buyuk turk elati asta-sekin o'zining ichidagi dushmanlari – yovvoyilik, xurofot, shafqatsizlik xislatlarini bir-bir yengib o'tib, ma'naviy kamolot bosqichlaridan donishmandlik sari ko'tarilib bordi. Bular – badiiy adabiyotdagi majoziy timsollar talqini. Ammo voqe hayotda ham tarixiy takomil deyarli shunday izchillikda rivoj olgan deb tasavvur qilsak, haqiqatdan uzoq bo'lmaydi.

Milliy ma'naviyat tarixiy hodisa bo'lib, millatning ma'naviy takomil jarayoni bilan bog'liq va ajdodlarimiz yaratgan ma'naviy merosda o'z aksini topgandir. Biz "Milliy ma'naviyat asoslari" kursining ushbu ikkinchi qismida milliy ma'naviyatimizning tarixiy takomil jarayoniga yengil bir nazar tashlab o'tishga urinamiz. Albatta, barcha asosiy jihatlarni qamrab olish qiyin. Masalan, xalq og'zaki ijodi deb ataluvchi behudud ma'naviyat ummoni haqida, ko'chmanchilik madaniyatida aks etgan ma'naviyat unsurlari haqida maxsus to'xtalish imkonini topmadik. Urf-odatlarimiz, marosimlarimiz ma'naviyatining tarixiy takomili haqida ham maxsus tadqiqotlar lozim. Biz asosan yozma merosga tayandik, ammo shu ham to'liq qamrovda emas. Albatta, qo'limizdan kelganicha, aqlimiz yetganicha harakat qildik.

Shunday qilib, Milliy ma'naviyatimiz takomilining eng qadimgi davrini 3 bosqichga ajratib o'rganish ma'qul ko'rindi.

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 8-jild. T., «Fan», 1991, 125-b

2-fasl. Islomgacha ma'naviyat. O'lkamizda ibtidoiy jamoalar va inson ma'naviyatining ilk shakllanish jarayoni

Ularning birinchisi *ibtidoiy jamoa* (Ibn Xaldun iborasi bilan "bada'viya jamoasi") davrida inson ma'naviyatining ilk shakllanish jarayonini o'z ichiga olib, uni *eng qadimgi ma'naviyat bosqichi* deyish ham mumkin. Qur'oni karimning "Tin" surasi 4-oyatida aytiladi: "Laqad xalqna-l-insana fi ahsani taqvim. Summa radadnahu asfala safilin...". (so'zma-so'z tarjimasi: "Darhaqiqat, biz insonni eng ko'rkam shakl-u shamoyilda yaratdik. So'ngra uni asfala sofilinga qaytardik...". "Asfalasofilin" so'zi "eng tuban holat" deb tarjima qilinadi). Alloh taolo insonni yaratar ekan, unga nihoyatda ulug' risolat taqdir etdi, ammo jannatdan yerga tushgan inson kamolot yo'lini eng tuban holatdan asta-sekin yuksak ma'naviy ufqlarga intilish bilan boshladi.

Inson ma'naviy kamolotida eng uzoq davom etgan bosqich tosh asri bo'lib, bu davrda inson va tabiat orasidagi munosabat nihoyatda yaqin bo'lgan. "Avesto"ning bizgacha saqlanib yetib kelgan to'rt qismidan biri "Vendidad" kitobining ikkinchi bobida Jamshid (asli Yima vaxishta — go'zal Yima) haqidagi asotir (mif) bayon qilinadi. Ushbu asotir mazmuni quyidagicha:

Butun olamlar parvardigoridan Zardushtga payg'ambarlik rutbasi inoyat bo'lgach, u tangriga murojaat qilib so'raydi: "Ey, butun dunyoning yaratuvchisi, muqaddas zot Axura Mazda (Oliy bilimlar egasi)! Sen mendan ilgari insonlardan qay biri bilan suhbat qilgansan, kinga ilk bor Axura Mazdaning muqaddas dinidan ta'lim bergansan!"

Oliy bilimlar egasi bo'lmish yagona tangri unga shunday javob qiladi:

"Ey, Haq bandasi Zardusht! Sendan ilgari men ilk bor insonlardan Yima (Jamshid)ga, chorva va yilqi podalari egasi o'shal go'zal insonga xabar yo'lladim. Men unga: "Ey, Vivaxvanta o'g'li go'zal Yima! Sen mening dinimni o'rganib, uni himoya etishga tayyorgarlik ko'rgin", dedim. Ammo, ey, Zardusht, ul go'zal Yima shunday javob qildi: "Men bunday vazifa uchun yaratilmagan bo'lsam, o'qimagan bo'lsam, men din-e'tiqodni chuqur o'zlashtirish va himoya qilishga qodir emasman". Shunda, ey, Zardusht, Men — Axura Mazda — unga buyurdim: "Agar sen, ey, Yima, mening dinimni o'zlashtirish va himoya qilishga tayyor bo'lmasang, unda men yaratgan dunyoni obod qil, kengaytir. Sen ushbu yer yuzini himoya qilishga, ehtiyotlashga va boshqarib turishga mas'ul bo'!" Va, ey, Zardusht, ul go'zal Yima menga javob qildi:

“Men sen yaratgan dunyoni obod qilaman, uni kengaytiraman, uni himoya qilishga, ehtiyotlashga, boshqarib borishga men tayyorman”¹. Shundan so‘ng 900 yil davomida Yima (Jamshid) yer yuzini obod qilib, turli hunarlarni joriy qildi. Boy moddiy madaniyat bunyod etildi. Ammo umrining oxirida Jamshid yutuqlardan g‘ururlanib ketib, kibrga berildi. O‘zini “yaratuvchi” e‘lon qilib, butun xalqdan o‘ziga sajda qilish, sig‘inishni talab qila boshladi. Shungacha, rivoyat qilishlaricha, o‘lim ham, kasallik ham, sovuq ham, ochlik ham bo‘lmagan ekan. Jamshid o‘zini “xudo” deb e‘lon qilgach, yer yuziga o‘lat tarqaydi, ochlik va qahraton sovuq boshlanadi. Va shundan keyin dahshatli yovuz kuch – Aji Dahaka yurtga bostirib kirib, o‘z hukmronligini o‘rnatgan va ming yil yurtni zulmat qoplagan ekan.

Qur‘oni karim Haqni botildan ajratish uchun nozil etilgan kitob bo‘lib, shu sababdan Furqon (farqlab beruvchi) deb ham ataladi. Unda haqiqatlar ba‘zan juda qisqa, ba‘zan bir ishora bilan eslab o‘tilgan. “Avesto” kitobida esa inson aqliy takomilidagi asotir tafakkur bosqichi ifodasini topgan. Shu sababli undagi voqealar bayoni ham asotir (mif) shaklida bo‘lib, tarixiy voqelik o‘ziga xos talqin etiladi. Qanday bo‘lganda ham Alisher Navoiy qahramoni Ajdaho (Aji Dahaka)ni yengib o‘tgan birinchi manzil yoki “Avesto”ga ko‘ra Jamshid davri shartli ravishda ajdodlarimiz ma‘naviy kamolotining birinchi bosqichi – tosh asriga ishora, deb qabul qilish joizdir. Bu davr qancha muddat davom etgani haqida hozir fanda turli bahslar ketmoqda, lekin bir necha ming yillar davom etgani shubhasiz. Bu davrda inson turli tosh qurollar yasash va ulardan foydalanishni o‘rgandi, kamon va o‘q yoy, ibtidoiy sopol idishlar kashf etildi, ibtidoiy chorvadorlik va dehqonchilik shakllandi, ilk uy hayvonlari va madaniy o‘simliklar paydo bo‘la boshladi. Bu davrda ajdodlarimiz asta-sekin tabiat va insonaro uyg‘unlik mavjudligini his eta boshlashdi, yaratuvchilik mehnati zavqini tuyishdi.

Ushbu ma‘naviyat unsurlari “Avesto” matnlari tarkibida o‘z aksini topgan. “Avesto” matnlari G‘arbiy Yevropa, Sibir yoki Afrika, Janubiy Hindiston mintaqalari sharoitini emas, bevosita bizning mintaqqa iqlimi, ob-havosi, yer-suv sharoitida tabiat va atrof-voqelikka nisbatan inson ongida shakllanishi mumkin bo‘lgan munosabatlarni aks ettira-

¹ Брагинский И. С. Из истории таджикской и персидской литератур. М., «Наука», 1972. с. 50–51.

di. “Avesto” matnlari mazmunidan biz ota-bobolarimizning ona zaminga, xalqimiz uchun asosiy tiriklik manbai bo‘lgan oqar suvga, olovga ixlosi, e‘zozini aniq his qilamiz. Yana amaliy yaratuvchilik faoliyati, ayniqsa, yerga ishlov berish va chorva hayvonlarini parvarishlash, ajdodlarimiz tarafidan nihoyatda muqaddas bir yumush, oliy ibodat deb qabul qilinganining ham guvohi bo‘lamiz.

Darvoqe, ibodat masalasi. Ushbu masalaga kelganda ilk insoniyat ko‘p adashdi, to‘g‘ri yo‘lni idrok etish juda qiyin bo‘ldi, masalan, dastavval inson tabiatdagi ayrim buyumlar yoki hodisalar qudratini aniqlay olmay, ularga sig‘ina boshladi, hozirgi zamon Yevropa fanida “fetishizm” deb nom olgan yangilish e‘tiqod shakli paydo bo‘ldi. Jamshid fojiasi birinchi – tosh davri ma‘naviyatidagi noqislik natijasidir, yangi ma‘naviy bosqichga o‘tish ehtiyojidan tug‘ilgan inson ongidagi bo‘hrondir. Insonni bu bo‘hrondan qutqarish uchun yana vahiy lozim bo‘lgan. Nazarimizda, ibtidoiy odam shuurini ilk bor ilohiy nur yoritgan.

Shunday qilib, insoniyat asosan tosh qurollaridan foydalangan ilk ibtidoiy jamoa davri ajdodlarimiz ma‘naviy takomilida juda muhim bosqich bo‘lib, Turkiston o‘lkasi hududida kamon va o‘q-yoy ixtiro qilingan 10–12 ming yil ilgarigi o‘tmishdan boshlab, bir necha ming yillarni o‘z ichiga oladi. Uning so‘nggi 4–5 minginchi yillaridan sug‘orish asosidagi dehqonchilik va uy hayvonlarini maxsus parvarishlashga asoslangan chorvadorlik faoliyatining dastlabki shakllanish jarayonlari rivoj oldi va shu bilan bog‘liq ravishda *bu davrdagi inson ruhida uning hayoti uchun muhim bo‘lgan Ona tabiatga mehr, yer, suv, olovni e‘zozlash, yaratuvchilik mehnatini ulug‘lash kabi ma‘naviy fazilatlar paydo bo‘ldi*. Buning izlari birinchi navbatda mintaqamizda ilk bora yaratilgan mukammal yozma manba “Avesto” kitobida o‘z aksini topgandir.

Ilova:

«Avesto» kitobi va “Mazdayasna” e‘tiqodi

(Tarix fanlari doktori Mirsodiq Is‘hoqov va falsafa fanlari nomzodi Muhammadjon Qodirovlarning materiallari asosida talabalarga qo‘shimcha foydalanish uchun matn)

Ushbu e‘tiqodning asl kelib chiqishi, uning payg‘ambari va «Avesto» kitobi haqida turlicha fikrlar mavjud. Kitobning asli nomi «Apastak» bo‘lib, parfiyoncha «matn» yoki boshqa talqinlarga ko‘ra «tayin etilgan», «muqarrar qilingan», «o‘rnatilgan» ma‘nolarini bildiradi. Bu

kitob payg'ambar Zardusht ("Avesto"da Zaratushtra) nomi bilan bog'lanadi. Qadim yunon tarixchisi Plutarx Zaradushtra Troya urushidan 6 ming yil ilgari tug'ilgan deb ta'kidlaydi. Agar Troya urushi miloddan 1200 yil ilgari yuz berganini nazarda tutsak, Zardusht yashagan davr bugungi kundan 9 ming yil oldin bo'lib chiqadi. Arastu Zardusht vafotini Platon (mil. avv. 428–348-y.) vafotidan 6 ming yil ilgari bo'lgan deb ko'rsatadi. Germodor va Germini Zoroastr (yunoncha talaffuz) Troya urushidan 5 ming yil ilgari yashagan, deb hisoblaydilar.

Zardushtiylik dini va uning tarixini jiddiy o'rgangan olim Meri Boys bu dinning shakllanish davrini miloddan XIV–XII asrlarga taalluqli deb topadi. Qator olimlar Zardusht payg'ambarlik e'lon qilgan davrni miloddan avvalgi VII asrga oid deydilar.

Harholda o'lkamizga Iskandari Maqduniy lashkarlari bilan ellinizm ta'siri yetib kelgunga qadar bo'lgan eng qadimgi mukammal shakllangan diniy e'tiqod "Avesto" kitoblarida aks etgan "Mazdayasna" e'tiqodi bo'lib, uni Yangi davr fanida ko'pincha payg'ambari nomi bilan "zardushtiylik" deb kelishgan. Dunyoda keng tarqalgan yana bir yanglish tasavvur zardushtiylikni faqat Eron bilan bog'lab, "Avesto" madaniyatini shu hududgagina aloqador deb bilishdir. To'g'ri, sosoniylar imperiyasi davrida (milodiy 224–651-yillar) Eronda zardushtiylik davlat dini darajasida bo'lgan. Ammo bu dinning kelib chiqishi sosoniylardan emas, hatto Iskandar Maqduniydan ham ilgarigi davrga to'g'ri kelishi nazarda tutilsa, sosoniylar davri zardushtiyligi mutlaqo ikkilamchi hodisa ekanligi ayon bo'ladi.

Zardushtiylikning haqiqiy vatani haqida "Avesto" kitobining o'z ma'lumotlariga suyanish, bizningcha, eng maqbul yo'ldir. "Avesto"ning bugungacha saqlanib qolgan qismlaridan biri "Vendidad"ning birinchi bobida Axura Mazda yaratgan o'lkalar sanaladi:

1) Ariyana Vaeja, 2) Gava, 3) Mouru (Marg'av), 4) Baxdi, 5) Nisaya, 6) Xaroyiva, 7) Vekerta, 8) Urva, 9) Xnenta, 10) Xaraxvayiti, 11) Xetumant, 12) Raga, 13) Chaxra, 14) Varna, 15) Xapta Hindav, 26) Upa Aodshu Rangxaya.

Olimlarning tadqiqotlari natijasida bular taqriban hozirgi quyidagi o'lkalarga to'g'ri kelishi ma'lum bo'ldi: 1) Xorazm yoki Amu va Sir oralig'i, 2) Sug'diyona, 3) Marg'iyona, 4) Baqtriya (Balx), 5) Nisa (Parfiya poytaxti – hozirgi Turkmanistonning janubi g'arbida), 6) Hirot, 7) Kobul, 8) Tus (hozirgi Eronning Xuroson viloyati), 9) Go'rgon (Astrobod), 10) Horut, 11) Gilmand (hozirgi Afg'oniston shimoli),

12) Rey (Tehron), 13) Chehra (Xurosonda), 14) Varna (Kaspiy dengizi janubi), 15) Hind daryosi bo'ylari, 16) Rangha daryosi kelib chiquvchi joy. Albatta, ba'zi joy nomlari hanuz bahsli. Ammo "Avesto" kitobida sanab o'tilgan yerlar butun Movarounnahr va Xuroson (jumladan, hozirgi Eron va Afg'onistonning shimoliy o'lkalari)ni qamrab olganligi ko'rinib turibdi. «Avesto»da Orol dengizi (Vorukasha yohud Vurukasha) va Amudaryo (Doytiya) ham ta'rif etiladi. Demak, dastlabki davrlardanoq zardushtiylik yoki aniqrog'i, "Mazdayasna» e'tiqodi, eroniy va turoniy xalqlar qadimdan aralashib yashagan yaxlit bir mintaqani qamrab olgan va shu hududda tarqalgandir. "Avesto" tili o'sha davrlardayoq juda qadimiy til hisoblanar va Eron imperiyasining rasmiy tili bo'lmish qadim fors tilidan ham farq qilar edi.

"Avesto" tili sharqiy Eron tillar guruhiga kiruvehi so'g'd, xorazmiy va boxtariy tillari bilan ko'pgina umumiy jihatlariga ega. Bu asar Iskandar istilolaridan ancha ilgari 12 ming buzoq terisiga yozilganligi ko'p manbalarda yod etiladi. "Avesto"eng qadimgi hisoblangan qismlarida temir qurol haqida ma'lumot yo'q, ammo sariq rangli bolta haqida eslab o'tiladi. Shu kabi dalillar asosida "Avesto" kitoblar majmuasida aks etgan madaniyatga bronza asri madaniy qatlamidan bizgacha yetib kelgan buyuk meros sifatida qarashimiz mumkin. Milodiy eradan ilgari V–I mingyilliklar orasida shakllangan bu madaniy yaxlitlik, albatta, o'z ichki takomil bosqichlariga ega bo'lgan. Bashariyat takomilidagi bu madaniy bosqichlarning birinчисini "Avesto"ning o'z mazmunidan kelib chiqqan holda Jamshid (Yima) davri, ya'ni tosh asri madaniyatiga oid deb hisoblasak, undan keyingi bosqichni shartli ravishda bronza asri yoki ilk shahar madaniyati bosqichiga to'g'ri keladi, deb qayd qilish mumkin. Bu kitobda turli qabila asotirlari bilan tavid e'tiqodidan ta'lim beruvchi qarashlar o'zaro chatishib ketgani seziladi. Bu bashariyat ongidagi murakkab tafakkur jarayoni bir necha ming yillarni tashkil etishi mumkin. Namozgoh va Oltintepa, Sopolli va Jarqo'rg'on ilk shaharlarida istiqomat qilgan aholi ushbu murakkab ma'naviy jarayonni boshdan kechirganligi ko'pgina ashyoviy dalillarda ko'zga tashlanadi. Albatta, arxeologik qazilma natijalarining tadqiq va talqini, qadim matnlar tadqiq va talqinidan jiddiy farq qiladi va ularni qiyosiy o'rganishda ba'zan deyarli hal qilib bo'lmaydigan muammolar paydo bo'ladi. Ammo na iloj, biz Alloh inoyatiga umid bilan o'z o'tmishimizni bilish uchun astoydil urinsak, ajab emas, yashirin haqiqatlar biroq oydinlashsa.

Biz zardushtiylik deb o'rgangan e'tiqod tizimi asli manbada "Mazdayasna daena" (Mazdaga sig'inish dini) deb atalgan. "Mazda so'zi «bilim», "bilimdonlik", "donolik", "donishmand", "oqil" ma'nolariga to'g'ri keladi. Bu so'z oldiga "Axura" ("parvardigor", butun borliqning egasi, hukmroni") so'zi qo'shilsa – Axura Mazda ismi hosil bo'ladi. Shunday qilib, «oliy, ilohiy bilimlar egasi» ma'nosidagi Axura Mazda "Mazdayasna" dinida yagona tangri, borliqni yaratuvchi qudratli zotning nomlanishidir.

IX asrda tuzilgan «Avesto» sharhiga oid "Denkart" kitobida bayon etilishicha, qadim zamonda Navro'z bayramiga tayyorgarlik kunlarida muqaddas xaoma ichimligi tayyorlayotgan kohinlardan biri Zardusht sahar pallasida daryo yoqasiga suv olish uchun tushadi. Shu payt daryoning o'rtasida nurli siymo – Axura Mazdaning Vohu Maana (Ezgu fikr) ismli malagi paydo bo'ladi. Voxu Maana Zardushtni yetaklab Axura Mazda huzuriga olib boradi. Borlig'i ezgu nur bilan yo'g'rilgan Axura Mazda zamin-u osmondagi barcha ezgu narsalarning yaratuvchisi ekanini Zardushtga bildiradi. Odamlar orasida Axura Mazdaga sig'inish e'tiqodini yoyishga Zardushtni mas'ul qilib, uni "payg'ambar", ya'ni xabar yetkazuvchi qilib tanlaganini e'lon qiladi.

Bu tasvir asosida bir qator tadqiqotchilar "Mazdayasna" dini vahiy orqali bildirilgan ilk samoviy e'tiqod bo'lsa kerak, deb taxmin qilmoqdalar.

Zardusht yashagan davrda ajdodlarimiz hali yozuvga ega emas edilar. Zardusht Axura Mazda payg'ambarligiga musharraf bo'lib, u haqida, uning dini haqida turli qavmlarga xabar yetkazgan zamonlarda o'sha davrning turli qabila va urug' ma'budlariga bag'ishlangan madhiya-alqovlar, afsun va asotirlar keng tarqalgan bo'lgan. "Avesto" kitobini to'laligicha Zardushtga nisbat berish durust emas. Asli "Avesto" tarkibida bevosita Zardusht nomi bilan bog'liq matnlar "Yasna" kitobi tarkibiga kiritilgan 17 qo'shiqdan iborat "Goh"lar bo'lib, ilmiy adabiyotlarda ularni "Gate" yoki "Gose" ham deyishadi. "Gose" so'zining so'nggi undosh tovushi o'ta yumshoq tish oralig'i, til oldi sirg'aluvchi tovush bo'lib, talaffuzi ingliz tilidagi *th* harflari bilan ifodalanuvchi tovushga yaqindir. Bu tovush tilning tarixiy rivojida keyinchalik *h* harfi bilan ifodalanuvchi tovushga aylangan va bugungi kundagi "dugoh", "segoh", "chorgoh" atamaları tarkibida uchrovchi "musiqiy ohang", "qo'shiq" ma'nosiga mos keluvchi "goh" tushunchasi o'sha qadimgi "gose"dan kelib chiqqandir. Zardusht "goh"lari

madhiya va pand yo'sinidagi munojotlardan iborat bo'lib, «Avesto» tarkibidagi "Yasna" kitobining 28–34, 43–51 va 53-boblarini o'z ichiga oladi. Ular asosan Axura Mazda dinini targ'ib etishga bag'ishlangan.

«Goh»larda Axura Mazda vahiysi bilan tinch-osoysishta yaratuvchilikka qaratilgan hayot, oqil va adolatli hukmdor rahnamoligi, ijtimoiy va ma'naviy uyushish g'oyalari tashviq etiladi. Turli xurofotlar, yolg'on va talonchilik, huda-behuda hayvonlar qonini to'kib, qurbonliklar o'tkazish qattiq qoralanadi. Har bir qabila, har bir urug' o'zi o'ylab topgan yolg'on ma'budalarga sig'inib, befoyda qurbonliklar keltirib yurgan bir paytda, Axura Mazdaning yakka-yu yagona parvardigor, Borliqning donishmand, odil va oqil mutlaq yaratuvchi va idora etuvchi ekanini e'lon etish, insonlarni yagona tangriga e'tiqod etishga chaqirish ilk bor inson qalbini ilohiy nur yoritganligining dalolati bo'lishi mumkin.

Agar Zardusht insoniyat tarixidagi minglab payg'ambarlarning birinchilaridan bo'lgan bo'lsa, uning taqdiri ham o'sha qadim davrlarda o'tgan o'zga nabilar hayoti singari murakkab va mashaqqatli bo'ldi. "Goh"larda Zardusht o'zi bunga ishora etadi:

*Boshim olib qayga ketay, qaydan topay panoh,
O'z qavmimda tan olmaslar, quvlar urug'doshlarim...*

Umuman "goh"larda hayotiy voqea-hodisalarga ishoralar juda ko'p. Ularda uy hayvonlarini, moddiy ne'matlarni yetishtirish targ'iboti juda izchil bo'lib, tabiat boyliklarini nest-nobud etish, talonchilik, inson mehnatiga bepisandlik yovuzlik sifatida talqin etiladi. Hamma yovuzliklarning boshi yolg'onchilik va beboshvoq hayotdadir.

Bu davr, tarix nuqtayi nazaridan, milodiy eradan bir necha ming yillar ilgari bashariyat madaniy-ma'naviy takomilida yuz bera boshlagan evrilish bilan bog'liq bo'lib, ibtidoiy urug'-jamoalar o'rniga ilk sug'orma dehqonchilik va xonaki chorvadorlik zaminida shakllana boshlagan ilk shahar madaniyati, davlatchilik asoslarining vujudga kelishi, yaxlit mafkuraviy tizimga ehtiyoj tug'ilishi kabi hodisalar bilan bevosita aloqadordir.

Zardusht ta'limotining axloqiy qarashlari nihoyatda ibratlidir. Mazdayasna e'tiqodiga amal qilgan har bir inson ibodat oldidan quyidagi niyat so'zlarini baralla ovozda aytmog'i lozim edi:

"Quvonsin Axura Mazda, eng loyiq Haq taoloning irodasi ro'yobga chiqib, Angra Maynyu daf bo'lsin. Ezgu o'y, ezgu so'z va ezgu amal-

ni alqayman. O'zimni butkul ezgu o'y, ezgu so'z va ezgu ishlarga bag'ishlayman. Qabih o'y, qabih so'z va qabih ishlardan yuz o'g'iraman... Haqni sharaflab deyman: «Haqiqat oliy ne'mat, bu ne'matdan ul kishi bahramand va savob unga bo'lg'ayki, u agar eng ezgu Haq yo'lida savob ishdan qolmasa». Mazdaga sig'inaman, Zardusht yovlari bo'lgan devlarga yovman. Axura Mazda so'ziga da'vat etaman, deb imon keltiraman...Nurafshon Axura Mazdaga sig'inishim tufayli uning sevinchiga topinch-u hamdlarim, suyunch-u olqishlarim bo'lsin. "Ezgulikda benazir egam..." deya boshlayman ushbu ibodatimni..".

Zardusht davrida "Avesto" kitobi biror-bir tartibga solib yig'ilganmidi, buning aniq javobi yo'q. Har holda Zardusht yagona Axura Mazda nomidan payg'ambarlik qilgani, faqat uning xabarini elga yoyishga uringani e'tiborga olinsa, dastlabki ta'limot keyin shakllangan"Avesto"dan farq qilgan, uning tarkibidagi muqaddas duo va takbirlar yolg'iz Axura Mazdaga bag'ishlangan bo'lishi kerak.

Zardushtdan keyingi asrlarda uning ta'limoti yoyilgan yurtlarda mahalliy elatlar, qabila va urug'lar orasida tarqalgan asotir tasavvur asosidagi mushriklik unsurlari, har bir elatga xos ibtidoiy ma'budalarga topinish xurofiy an'analari asta-sekin Mazdayasna e'tiqodi bilan murosaga keltirilgan. Natijada sof yakka xudolik tizimi qobig'iga qadim xurofiy marosim va udumlar ham joylasha borgan. "Avesto" kitobining takomil yo'li ushbu jarayonni butun ichki murakkabligida aks ettiruvchi ziddiyatli va ko'p qatlamli asotir tasavvurlar va yagona tangriga e'tiqodning qorishiq ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Bu haqda ilmiy adabiyotda V.A.Livshits, S.N.Sokolov singari taniqli mutaxassis olimlar ham fikrlarini bayon qilishgan.

«Avesto» kitobida o'z aksini topgan g'oyalarni dualistik talqin qilish ham fanda keng tarqalgan. Bunga ma'lum darajada «Yasna» kitobining 30-bobidan o'rin olgan fanda «axloqiy dualizm» deb nomlanuvchi insonlar olamiga xos Yaxshilik va Yomonlik orasidagi kurash tasviri ham sabab bo'lgan, deyish mumkin. Keyinchalik, milodiy III asrda yashagan Moniy zardushtiylikni ushbu ruhdagi talqiniga urg'u berib, o'zining mashhur monaviylik bid'atini yaratdi. Unga ko'ra bu olam ikki asosning, ikki ibtidoning, ya'ni yorug'lik va zulmat, yaxshilik va yomonlik orasidagi to'xtovsiz kurashdan iboratdir. Moniy Axura Mazda(Xurmuz)ni yorug'lik va yaxshilik ilohi, Angra Maynyu (Axriman)ni zulmat va yomonlik ilohi deb talqin qiladi va ular o'rtasidagi

kurash abadiy davom etadi, deb hisoblaydi. Avestoning ba'zi joylarini ilohiy uchlik ruhida talqin qilishlar ham uchrab turadi.

«Avesto» kitobi dastlab 12 ming oshlangan buzoq terisiga yozilganligi haqida ma'lumotlar borligini eslab o'tdik. O'sha qadim kitobda 1200 bob (fragard) mavjud bo'lib, qadim yunon tarixchilari xabar berishicha, 2 million misra (satr)ni tashkil etar ekan. Bu kitobning bizgacha yaxlit yetib kelishiga Iskandari Maqduniy istilolari monelik qildi. Rivoyatlarga ko'ra, Iskandar kitobning bir nusxasini Yunonga jo'natib, qolganlarini yoqib yuborgan. Keyinchalik arshakiylar shohi Valaxsh "Avesto" kitobining koinlar yodida qolgan barcha qismlarini to'plab, asl matnни tiklash haqida farmoyish bergan. Sosoniylar sulolasining asoschisi Ardasher Popokon(227–243) davrida donishmand vazir koin Tansur rahbarligida "Avesto" matni qonunlashtirilgan. Ardasherning o'g'li Shopur (243–273) ushbu kitobga kirmay qolgan ilmi nujum, tib, riyoziyot, falsafaga oid qismlarни to'plab, qayta ko'chirtirgan. Keyingi shohlar davrida matn yana bir necha marta boyitib ko'chirilgan. Ushbu ikkinchi qayta yig'ilgan matn – "Denkard" kitobida berilgan ma'lumotlarga ko'ra, 348 bobni o'z ichiga oluvchi 21 kitobdan iborat bo'lgan. Har bir kitob "nask" deb atalgan. "Denkard" kitobida ushbu har bir kitobning mavzu va mazmuni qisqacha bayon etilgan. Jumladan, 1-nask – saxovat, valiylik, savob ishlarning mazmun va mohiyati; 2-nask – diniy marosim amallari; 3-nask – Mazdayasna e'tiqodi mohiyati va aqidalari; 4-nask – olamning yaralishi, fano va baqo, ruhlarning qayta tirilishi, qiyomat; 5-nask – samovot, osmoniy jinlar, 6-nask – poklanish qonun-qoidalari; 7-nask – koinlar hayoti tartib-intizomi; 8-nask – huquqiy masalalar; 10-nask – Vishtaspning shohlik zamoni, uning Zardusht da'vatini qabul qilishi; 11-nask – bashariyat tarixi; 12-nask – Zardushtning ezgu ishlari va bolalik davri; 13-nask – har bir ishda adolat, o'zgalar haqidan qo'rqish, tosh-tarozi o'lchovida halollik, avliyolar tarixi; 14-nask – adliyaviy va harbiy qonunlar, nikohda qondoshlikka qarshi qonunlar, din ahkomlari; 15-nask – koinlar ta'limi, munajjimlik va folbinlik; 16-nask – mulk va oila huquqi; 17-nask – devlar va jinlarga qarshi amallar, rasm-rusum, tahorat va boshqa poklanish qoidalari (ushbu qism mavjud "Avesto" matnida "Videvdat" ataluvchi bugungacha to'liq yetib kelgan kitoblardan birining mazmunini tashkil etadi); 18-nask – ruhning u dunyodagi "sarguzashtlari» xususida bo'lib, 19-nask – Axura Mazda va uning olti ulug' farishtasi – o'lmas muqaddas maloikalari

sha'niga alqovlardan iborat. Ushbu 21 kitobning umumiy hajmi olimlar hisoblashiga ko'ra 345700 so'zdan iborat bo'lgan.

Arablar bosqini natijasida bu keyingi yig'ilgan kitoblar ham yo'q qilingan. Hozirgi kunda faqat "Videvdat" ("Devlarga qarshi amallar") naski to'lig'icha va yana bir necha kitobdan ayrim qismlar saqlanib qolgan. Bu mavjud matn 4 kitob, 140 bob, 83000 so'zdan iborat bo'lib, sosoniylar davri matnining bor-yo'g'i chorak qismini tashkil etadi. Ushbu asarning bizgacha yetib kelgan eng qadimgi qo'lyozmasi 1278-yilda ko'chirilgan.

Birinchi "Vendidad" (O'rta fors tilida "Videvdat", "Avesto" tilida "Vi dayevo datem") kitobi 22 bob (fragard) bo'lib, uning birinchi bobi yuqorida sanab o'tilgan o'lkalar ta'rifidan iborat, ya'ni o'ziga xos Avesto jug'rofiyasini tashkil etadi. Ikkinchi bobda afsonaviy podshoh Jamshid (Yima Xshayta) hukmronligida o'tgan bashariyat tarixi asotir tasavvurlarga binoan bayon etiladi. Uchinchi bob dehqonchilik, xonaki chorvadorlik, oila, pokiza hayot, olovni ulug'lashga bag'ishlangan. Bu bob Axura Mazdaga savollar va uning javoblari asosiga qurilgan.

Zardusht savol beradi:

– Ey, moddiy olamning yaratuvchisi! Yer yuzida qaysi o'lka senga eng maqbuldir?

Axura Mazdaning javobi:

– Qayerda taqvodor inson o'ziga oila qursa, unda olov va sut, ayol va farzandlar, chorva bo'lsa, o'sha o'lka maqbuldir, bunday o'lkada chorva ham mo'l, ayol va farzandlar ham mo'l, olov va turli ne'matlar ham, ozuqa va itlar ham mo'l, taqvodorlik ham ortiqdir...

Ey, Zardusht Spitama! Qayerda g'alla, o't-o'lanlar, yemish uchun turli sabzavot va mevalar ko'p yetishtirilsa, qo'riq yerlar sug'orilib, botqoqliklar quritilsa, qo'y va mollar ko'p boqilsa, ular go'ngi yerga (tuproqqa) solinsa, o'sha o'lka eng maqbul o'lkadir. Kimki bu yerga, ey, Zardusht Spitama, o'ng va chap qo'li bilan ishlov bersa, o'sha, darhaqiqat baraka topadi.

Sevguvchi er o'z mahbusasi – ayolini yumshoq o'rinda qanday erkalab, unga o'g'il yo boshqa farzand baxsh etsa, dehqonning yerga ishlov berishi ham shunga o'xshashdir.

Shunda yer unga aytadi:

– Ey, inson, sen meni o'ng qo'ling va chap qo'ling bilan parvarish etsang, chap qo'ling va o'ng qo'ling bilan ishlov bersang, men senga mo'l hosil va turli ne'matlar yetkazib beraman.

Kim agar bu yerga ishlov bermasa, ey, Zardusht Spitama, agar o'ng qo'li va chap qo'li bilan yerni parvarish etmasa, yer unga aytadi:

– Ey, inson, sen menga parvarish bermas ekansan, bilki, abadulabad o'zgaralar eshigi oldida sarg'ayib, tilanib turuvchilar qatorida bo'lasan, sening oldingdan erta-yu kech turli taomlarni olib o'tishadi (sen esa qarab qola berasan)...

Kim g'alla eksa, u taqvodorlik urug'ini ekadi, g'allani o'rib yan-chishga tayyorlashganda, devlarni ter bosadi, tegirmonni un tortishga hozirlashganda, devlar toqati toq bo'ladi, undan xamir qorishga ki-rishganlarida, devlar zor qaqshab faryod chekishadi, xamirdan kulcha yasab, tandinga yopishganda, devlar dahshatdan uvvos tortishadi”.

Bu kitobning qolgan boblari pokizalik, gunoh va savob, halol va harom masalalariga bag'ishlangan bo'lib, ular qatorida olovni, suvni, tuproqni uy hayvonlari, turli daraxt va o'simliklarni ulug'lashga bag'ishlangan duolar ham mavjud. Mazdayasna dinida pokizalik ma-salasiga alohida e'tibor qaratiladi. Masalan, “Vendidad”ning 17-bobi to'lig'icha soch va tirnoqlar parvarishiga bag'ishlangan. 18-bobda Axu-ra Mazda xabarchisi Surush va uning qushi hisoblanmish xo'rozga alohida e'tibor qaratilgan. 19- bobda yovuzlik dahosi, devlar hukm-dori Angra Maynyuning yolg'onchilik devi Druj (hozirgi fors tilida “durug'” – yolg'on demakdir) yordamida Zardushtni yo'ldan ozdirish yoki o'ldirish uchun urinishlari tasvir etiladi. Zardushtga Axura Maz-da madad beradi. Cheksiz zamon timsoli Zurvan (Zrvana akarana)ga munojot ham ushbu bobdan o'rin egallagan. Ushbu bobda vafot et-ganlar ruhi Chinvad ko'prigidan o'tishi jarayoni tasvirlanadi. Yovuz-lar ruhi bu ko'prikdan o'ta olmay tubsiz zulmatga qulaydi, taqvodor insonlar ruhi esa Chinvad ko'prigidan eson-omon o'tib, Xara tog'iga Garonmana makoniga yetishadilar. 20-bobda eng birinchi tabib – Tri-ta haqida, 21-bobda esa muqaddas ho'kiz, bulutlar, quyosh, oy, yulduz-lar, bepoyon yog'du haqida madhiyalar, 22-bobda Axura Mazdaning Angra Maynyuga qarshi jangi va Zardushtning bu kurashdagi ishtiroki haqida gap boradi. Ikkinchi saqlanib qolgan kitob “Vispered”(o'rta fors tilida Vispart, “Avesto” tilida “Visperatavo” – “Barcha qudrat egalari”) deyiladi. Unda “karde”(«Avesto» tilida “kereti”) deb ataluv-chi 24 bob mavjud bo'lib, to'lig'icha duolar kitobidir. Bu kitob bir-muncha keyin “Avesto” tarkibiga qo'shilgan deb taxmin qilinadi. Uchin-chi kitob “Avesto”ning eng katta qismi “Yasna” bo'lib, 72 bobdan iborat. Avval ham aytib o'tganimizdek, ushbu kitobning 28–34, 47–

51 va 53-boblari Zardusht “Goh“laridan iborat bo‘lib, ilgari ular boshqa kitoblar tarkibida bo‘lgani taxmin etiladi. Zardusht “Goh“lari “Avesto” tarkibidagi eng qadimgi qismlar ekani ularning til xususiyatlariga ko‘ra ham aniqdir. “Avesto” yaxlit kitob holiga keltirilgan paytlarda-yoq ushbu “Goh“lar tilini tushunish, hatto “Mazdayasna” dini kohinlariga oson bo‘lmagan.

Zardusht “Goh“laridan birida bashariyat tarixi uch davrga bo‘linadi: 1) davr — ibtidoiy tuzum bo‘lib, yer yuzida ezgulik hukm surgan, insonlar gunoh nima bilmaganlar. Ammo Vivaxvant o‘g‘li shoh Yima (Jamshid) “odamlarning ko‘nglini olmoq uchun” ularga go‘sht yeishni o‘rgatgan. Shundan so‘ng 2-davr — ezgulik va yovuzlikaro ayovsiz kurash davri boshlangan. 3- davr — kelajak bo‘lib, ezgulik yovuzlik ustidan g‘alaba qozongach boshlanadi.

Zardusht ta‘limotiga ko‘ra insonlar o‘z amallari bilan ezgulik g‘alabasi uchun xizmat etmoqlari kerak, yolg‘on-yovuzlik kuchlariga keskin zarba bermoqlari lozim.

“Yasna” kitobining boshqa boblari asosan qurbonlik paytida o‘qiluvchi duolar, turli ezgu zotlar sha‘niga madhiyalar, marosim duolari, Muqaddas xaoma ichimligi va ezgulik xabarchisi Surush, suv ruhi — Ardivisura Anaxita va olov ruhi Atarni madh etuvchi, yovuz ruhlar — devlarni haydovchi duolardan tashkil topgan. “Yasna” boblari “Ha” deb ataladi. Zardusht “Goh“lari orasida “Yasna xapta xatay”(yetti bob Yasna) deb nomlanuvchi qism mavjud bo‘lib, bu 7 bob “goh“larga teng tutiladi. Undan muqaddas ho‘kiz ruhi va uning yaratuvchisiga atalgan madhiyalar ham joy olgan. “Yasna” kitobining ba‘zi boblari bir-birini ma‘lum darajada takrorlaydi.

To‘rtinchi kitob — “Yashtlar” deb ataladi. Undagi har bir bob (“yasht”) alohida bir ma‘bud yoki ma‘budaga (“yazat”, forscha “yazid” so‘zi shundan; “yasna” so‘zining ham kelib chiqishi “yaz” o‘zagidan bo‘lib, bu o‘zak “sajda”, “ta‘zim”, “topinch” ma‘nolariga ega, ya‘ni “yazid” yoki “yazat”ning asl ma‘nosi “topinish obyekti”. “ma‘bud” bo‘lib chiqadi) bag‘ishlangan madhiya- alqovlardan (“yasht” — “alqov”, “madhiya”) tuzilgan bo‘lib, jami 22 bobdan iborat. Hozirgi paytda Eronda, hijriy quyosh yilidagi qator oy nomlari ushbu bobda tilga olingan ma‘budlardan ba‘zilarining ismi bilan atalgan. Masalan, Mehr (Mitra — nur farishtasi), Tir (Tishtriya — Mushtariy yulduzi), Obon (Ardivisur Anaxita — suv farishtasi), Farvardin (taqvodorlar ruhi — fravashay so‘zidan).

Bu nomlar bilan atalgan ma'budalar 5,8,10,13 "yasht"larda madh etiladi. Bundan tashqari Xurmuz (Axura Mazda), quyosh (Xurshid – Xvarshet), Oy (Moh), Surush, Bahrom (Baraxran-Vertragna – chaqmoq farishtasi), Xoma (muqaddas ichimlik) va boshqalarga bag'ishlangan alqovlar (gimnlar) ham ushbu to'plamdan o'rin egallagan.

«Avesto» hajmi katta kitob bo'lganligi sababli kohinlar kundalik faoliyatida foydalanish uchun keyinchalik uning ihchamlashtirilgan shakli – «Kichik Avesto» (Xurde Avesto) yaratilgan.

Xullas, "Avesto" kitobida jamlangan bilimlar tosh asrining oxirgi bosqichi va bronza asri davrida, ya'ni 5 ming yildan oshiq davr ichida Turonzamin va hozirgi Eron, Afg'oniston va Hindistonning shimoliy o'lkalarida istiqomat qilgan turli elat va xalqlar yaratgan boy va rang-rang ma'naviy merosni o'ziga xos bir yaxlitlik va shu bilan birga ichki murakkablikda aks ettirgan bo'lib, ming afsuski, uning juda ko'p qismi bizgacha o'sha davrlardagi mukammalligida yetib kelmadi. Iskandar Maqduniy istilolari, arablar bosqini bu o'rinda halokatli ta'sir qildi. Ammo bu boy meros o'sha qadim davrlardayoq dunyoning turli xalqlari madaniy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgani bugungi kun ilmiga sir emas. Ayniqsa, qadim yunon madaniyati (falsafasi, adabiyoti, ilmi) bu ta'sirdan bahramand bo'lganligiga ko'plab guvohliklar mavjud.

Iskandardan keyin Turonzamin xalqlari madaniyati ellinizm unsurlari (yunon madaniyati bilan Sharq madaniyatining sintezi), buddizm, xristianlik (ko'proq, nasroniylik qiyofasida), Hindiston va Xitoydagi boshqa turli e'tiqodlar bilan tanishdi. Mazdayasna e'tiqodi bilan ba'zi boshqa qarashlar ta'siri ostida milodiy asr boshlarida monaviylik ta'limoti yuzaga keldi va mintaqada keng shuhrat qozondi. Sosoniylar davriga kelib zardushtiylik yana yangidan buyuk bir imperiyaning dini sifatida hukm surdi, yangi muhitda rivojlandi, ba'zi jihatlari yangilandi. Haqiqatni tan olish kerak, bizning bugungi qo'limizdagi ma'lumotlar sosoniylar davri yozma yodgorliklari orqali yetib kelgandir. Bu davrda "Avesto"ning barcha saqlanib qolgan qismlari o'rta fors (yoki pahlaviy) tiliga tarjima qilindi, ilmiy, diniy va badiiy adabiyotda "Avesto" matnlari keng istifoda etildi. Arablar Xuroson va Movarounnahrni egallaganlaridan so'ng, ko'pchilik islom e'tiqodini qabul qilganda ham zardushtiylik Samarqandda, yana boshqa ba'zi joylarda yashab keldilar, o'z e'tiqodlaridan qaytmadilar. Faqat mo'g'ul bosqini O'rta Osiyo hududidagi zardushtiylik jamoalariga to'liq barham berdi, deyish

mumkin. Hozir zardushtiylik e'tiqodini mahkam tutganlar, asosan, Hindistonda "parslar" nomi bilan jamoa bo'lib yashaydilar. Eronning janubi-sharqida ham ancha-muncha bor, deb hisoblanadi. Ularning ko'pchiligi "Avesto"ni, albatta, mustaqil mutolaa qila olmaydi. "Avesto" matnlarining talqini to'liq holda kohinlar toifasi qo'lida. "Avesto"ni o'rganish islom davrining birinchi bosqichida ancha keng yo'lga qo'yilgan edi. Tarixchi Mas'udiy, Ibn Balxiy, Tabariy, Beruniy va boshqalar bu kitob haqida tayinli ma'lumotlar keltirishgan.

Yangi davr Yevropasida bu kitobni o'rganish XYIII asrdan boshlandi va tolmas fransuz tadqiqotchisi Anketil Dyuperron (1731–1805) "parslar" orasida necha yil yurib, «Avesto» tilini o'rganib, "Avesto"ning mavjud kitoblarini fransuz tiliga tarjima qildi va bu tarjima 1771-yilda bosilib chiqdi. O'sha davrdan beri bu masalani Yevropa olimlaridan P. Bartolome, Rode, R.K. Rask, G. Ritter, E. Byurnuf, Vestorgord, F. Shpigel, F. Yusti, S. Dexarle, V. Geyger, P. Rot, Benfey, Fr. Vindishman, X. Bartolome, M. Xaug, K. Geldner, I. Darmsteter, Y. Benvenist, F. Altgeym, I. Gershevich, N.S. Nyuberg va boshqalar, parslarning o'zlaridan chiqqan bir qator olimlar, qator rus sharqshunoslari, jumladan, V. Miller, K. Kossovich, K. Zaleman, A.O. Pogodin, V.A. Ragozina, V.V. Stuve, S.P. Tolstov, Y.E. Bertels, A.O. Makovelskiy, S.N. Sokolov, I.S. Braginskiy va boshqalar o'rganib kelishdi. "Avesto" kitobining ilmiy-tanqidiy matnlari va bir qancha Yevropa tillariga tarjimalari bosilib chiqdi. Ammo bu haqdagi bahslar hanuz tingan emas.

Xullas, "Avesto" kitoblari majmuyi islomgacha bo'lgan madaniyatimiz va ma'naviyatimizning holatidan bizni ancha mukammal xabardor qiluvchi yozma manba sifatida beqiyos qiymatga egadir va biz uni jiddiy tadqiq va tahlil etmog'imiz juda zarur. Faqat undagi bayon va uslubning nihoyatda o'ziga xosligini unutmay, bu matnlar dastlab yaratilgan davr ruhini to'g'ri idrok eta bilmog'imiz taqozo etiladi.

3-fasl. Ilk shahar jamoasi ma'naviyati.

Ilm va imon nisbati

Tarixan birinchi ziyolilar – payg'ambarlardir. Chunki ular o'z davri ijtimoiy muhiti sharoitida muayyan ustozlar murabbiyligida muayyan matnlarda bitilgan munazzam bilimlar tizimini o'zlashtirish imkoniga ega bo'lmaganlar. Ularga Oliy haqiqat sirlari bevosita vahiy tarzida nuzul etgan. Mintaqamiz an'analarida Muhammad (s.a.v.)gacha

necha ming nabi va rasullar, yuzlab ilohiy kitob va suhflar nozil bo'lgani qayd etiladi.

“Avesto”da tosh asri ma’naviyati unsurlari aks etganini ko’rdik. Ammo bu kitobda ular asotir ko’rinishida aks etgan o’tmish xotiralari, xolos. “Avesto” ma’naviyatining asl mohiyati ularda emas. “Avesto” kitobida ajdodlarimizning necha mingyillik madaniy merosi o’z aksini topgan. Ammo uning yaxlit tizimga uyushuvi, bizgacha yetib kelgan asos mohiyati Zardusht nomi bilan bog’liq. Zardusht “goh”lari necha ming yillar davomida uni tabarruk tutgan insonlar tomonidan ilohiy vahiy, deb tan olib kelindi. Bugun bu haqda aniq bir narsa deyish imkondan tashqari. Qur’oni karimda Zardusht payg’ambar sifatida, “Avesto” yoki uning uzviy bir qismi ilohiy kitob sifatida esga olinmagan. Ammo shuni ham alohida qayd etish lozimki, ilohiy kitobda Zardusht yolg’on payg’ambarlar sifatida fosh etilgan emas, “Avesto” haqida ham maxsus raddiya bildirilmagan. Ushbu sir yolg’iz Allohga ayon. Biz esa aqlimiz yetgan darajada mulohaza yuritamiz.

Har qanday bo’lganda ham Zardushtgohlari “Avesto” matnining umumiy ruhidan ma’lum darajada farq qilishi allaqachon ushbu soha bilimdonlarining diqqatini tortgan. “Avesto” matnlarining ko’pchilik qismi, yuqorida aytib o’tganimizdek, insoniyat ongi takomilida asotir tafakkur bosqichini aks ettiradi. Zardusht “goh”lari esa tavhid g’oyalari asosiga qurilgan, ya’ni olam va koinotning yagona Parvardigoridan xabar beradi, uni Oliy va muqaddas (aniqrog’i, mutlaq) bilim egasi — Axura Mazda deb ulug’laydi. Shundan kelib chiqib, ikkinchi bosqich ibtidosida haqiqatda ham ilohiy kalom (ilohiy nur) turgan emasmi-kan, degan tasavvur paydo bo’ladi. Tosh asri, hatto Bronza asri odami ham o’z-o’zidan Koinotni his qilgan, Koinot sirini o’sha davrda anglab yeta olgan deb o’ylashga aql bovar qilmaydi. Zardusht “goh”lari esa koinotdan, cheksiz borliq va uning mohiyatidan so’zlaydi, bir so’z bilan aytganda, “g’ayb siri”dan ogoh etadi. Zardusht ta’limoti qaysi zamonga, qay tarixiy muddatga to’g’ri keladi, degan savolga hanzu bir xil aniq javob yo’q.

Yuqoridagi ilovadan ham ma’lum bo’ladiki, Qadim Yunon va Rim madaniyati vakillari Zaratushtrani, hatto Troya urushidan 5–6 ming yil avval o’tgan deb hisoblaganlar. Darhaqiqat, Zardusht “goh”lari til jihatidan “Avesto”ning asotir tafakkur aks etgan qismidan qadimiyroqdir. Bu Zardushtning tafakkurda o’z zamondoshlaridan bir necha asr yoki ming yillar ilgari lab ketib qolganini anglatadi-

mi yoki “goh”lar matni vahiy bo‘lib, Zardusht payg‘ambarlik rutbasiga sazovor etilganmi? Bu savollarga javob topish imkondan tashqari. Ammo bizning mintaqada milodiy eradan 3–4 ming yil ilgari hozirgi Turkmaniston hududida va miloddan avvalgi XVIII–XVII asrlar Janubiy O‘zbekistonda ilk (ibtidoiy) shahar jamoalari paydo bo‘la boshlaganini arxeologlarimiz dalillab berishdi. Turkmaniston janubida Namozgohtepa, Oltintepa, O‘zbekistonda Sopolitepa, Jarqo‘ton yodgorliklari bu ilk shahar madaniyatining namunalaridir. Metallurgiyaning kashf etilishi, tosh qurollar o‘rnini mis va bronza qurollari egallay boshlashi, tarixchilar shahodatiga ko‘ra, ilk shahar jamoalari paydo bo‘la boshlagan davrga to‘g‘ri keladi. Bu bosqichda o‘troq dehqonchilik asosida vujudga kelgan doimiy manzilgohlar asta-sekin ilk shaharlar darajasiga qarab yuksalib bordi. Shaharda hunarmandchilik rivojlanib, turli kasbdagi kishilarning alohida mahallalarga birikuv yuzaga keldi.

Mintaqamiz hududidagi qadimshunoslarning kashfiyotlariga tayanган holda islomgacha ajdodlarimiz ma‘naviy kamolotining ikkinchi bosqichi bugungi kundan kamida 4–5 ming yil ilgari boshlanib, to Iskandar Maqduuniy zamonigacha yoki, aniqrog‘i, Eronda Haxomanihiylar (ahmoniylar) sulolasi imperiya tuzgan VI asrgacha davom etgani haqida taxmin qilish mumkin. Bu bosqich dunyoni asotir tafakkur doirasida yaxlit tasavvur qila boshlash davri bo‘ldi. “Avesto” kitobi ushbu tasavvurning mevasi, hosilasidir. Bu davrda qadim Dajla va Furot daryolari oralig‘ida (Mesopotamiyada) hamda Nil daryosi quyi oqimida qudratli yozma madaniyat yaratildi, ilk davlat tizimi shakllandi. Ajdodlarimiz bir payt o‘sha yirik davlatlar bilan turli munosabatlarga kirishganlar. Ular yaratgan “Avesto” madaniyati ma‘naviy mazmuniga ko‘ra, shumer va akkad tillarida Bobil va Ashshur davlatlari hududida yaratilgan asotir madaniyati yodgorliklaridan aslo kam emas, balki ortiq bo‘lishi mumkin. Ammo, afsuski, Iskandar Maqduuniy bosqini tufayli yurtimizning eng qadimgi yozma yodgorliklari shafqatsiz yo‘q qilindi, bizgacha mukammal yetib kelmadi. Bizning bu davr haqidagi tasavvurlarimiz “Avesto” kitobidan bizgacha yetib kelgan juzvlar (qismlar), o‘zga o‘lkalar qadim yozma madaniyat yodgorliklari ichidagi ma‘lumotlar va arxeologik topilmalarni qiyosiy o‘rganish natijasidagina shakllanib bormoqda. Bu davrda ilk shaharlar madaniyati vujudga keldi, turli hunarmand toifalari ajralib chiqa boshladi, yaxlit e‘tiqod yuzaga kela boshladi, inson ilk bor Koinot nuridan

bevosita bahramand bo'ldi. Asotir tafakkurni, qabilachilik xurofotlarini yengib o'tishga ilk qadam ikkilanish, toyishlar bilan og'ushta birinchi tetapoya qadam qo'yila boshlandi. "Avesto" kitobida aks etgan voqelik yaxlit olganda ko'proq shu davrga mos keladi. Bu davrning eng buyuk ma'naviy yutug'i ilk bor, garchi asotir tafakkur bilan qorishiq bir darajada bo'lsa ham bobolarimiz ruhida ilm va imon uyg'unligi shakllana boshlagani, deyish mumkin. Agar "Mazdayasna", "Axura Mazda" so'zlarida yashiringan ma'nolarni Qur'oni karim «Baqara» surasining 255-oyati («Oyat al-kursi») mazmuni bilan ma'lum darajada muvofiq kelishiga e'tibor qiladigan bo'lsak, o'sha paytda ham insoniy bilimlar manbaiy yolg'iz ilohiy boqiy bilim deb tasavvur qilinganini sezamiz. Ammo u davrlar odamining aksariyati asotir tafakkur darajasida dunyoni tasavvur qilganliklari sababidan, Zardusht "goh"lari (munojotlari)dagi tavhid g'oyalari mushriklik adashuvlari bilan qorishib ketdi.

"Mazdayasna" e'tiqodining axloqiy tamal toshi — *"ezgu o'y, ezgu so'z, ezgu amal"* birligi qoidasi ham shu davrdan kelayotgan yana bir ulug' ma'naviy qadriyat deyish mumkin.

4-fasl. Turkiy toshbitiklar ma'naviyati. Millat va milliy davlatning shakllanishi, millatning o'z-o'zini anglab yetishi

Milliy davlatlarning shakllana boshlashi millatning shakllanishi bilan bevosita bog'liq hodisa. "Avesto" madaniyatining tugal shakllanishi miloddan ilgarigi VII–VI asrlarda yakunlangan va balki shu davrlarda yozma matnga ko'chgan bo'lsa ehtimol. Harholda Iskandar Maqduniy o'lkamizga kelganda "Avesto"ning to'liq yozma matni mavjud bo'lganligi turli qadim kitoblarda qayd etiladi. Bizning mintaqada ilk davlatchilikning yuzaga kelishi ham ushbu davrlargacha boshlangan bo'lib, "Avesto" matnlarida ilk davlatchilikka oid atamalar va tushunchalar uchrashi bejiz emas. Ammo "Avesto" kitobining to'liq shakllanish davri bo'lgan Bronza asri boshlarida asosan, yuqorida eslab o'tganimiz, ilk shahar-davlatlar mavjud edi. Ular atrofida esa hanuz kichik urug' jamoalari, qabilalar alohida-alohida, guruh-guruh bo'lib istiqomat qilardilar. Asta-sekin o'zaro yaqin joylashgan turli o'lkalararo madaniy, iqtisodiy, siyosiy aloqalar vujudga kela boshladi. "Avesto" kitobida Oliy tangri Axura Mazda yaratgan o'lkalar Ariana Vaeja (Xorazm), Gava (So'g'diyona), Mouru (Marg'iyona), Baxdi (Boxtar yoki yunoncha shaklida Baqtriya), Nisaya (Nisa — Parfiya

poytaxti), Xaroyva (Hirot) va boshqalarni sanab o'tilishi "Mazdayasna" e'tiqodi dastlab tarqalgan ushbu o'lkalar yagona madaniy mintaqaga, keyincha Movarounnahr va Xuroson deb atalgan sarhadni tashkil etganligi ma'lum bo'ladi. Shimolda Xorazmdan janubda Shimoliy Hindistongacha, hozirgi Eronning shimoli-sharqidan Farg'ona vodiysi, Yettisuv o'lkasigacha, Afg'oniston chegaralari esa deyarli to'liq ushbu hudud ichida joylashgandir. Ushbu mintaqaga miqyosida shakllangan madaniy-ma'naviy muhit asta-sekin o'z chegaralarini kengaytirib borib, butun Eron va Ozarboyjonga tarqaldi. Eron hududida zardushtiylik e'tiqodiga tayangan buyuk imperiyalar tarkib topdi va ular orqali bu ta'limot Mesopotamiya (ya'ni Dajla va Furot daryolari oralig'i, hozirgi Iroq va Suriya, Arabiston yarim oroli, Kichik Osiyo (hozirgi Turkiya, qadimda Vizantiya), hatto qadim Yunon va Rum (hozirgi Italiya) chegaralariga yetib borib, o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ammo Zardusht g'oyalari qadim Yunonda ilm-fanning rivojiga xizmat qila boshlagan bir paytda bizning mintaqaga xalqlari boshiga ko'p kulfatlar yog'ildi. Avvalo, Eronda saltanat o'rnatgan ahmoniyalar (haxomanishiylar — Kurush, Doro va boshqalar) qadim Turon yurtiga ketma-ket bosqinlar uyushtirdilar. So'ng Yunonistondan Iskandar Maqduuniy lashkar tortib keldi. Ikkinchi tomondan, Xitoy xoqonlari goh josus yuborib mintaqaga xalqlari orasida nizo chiqarar, goh o'zi qo'shin tortib kelib, Sharqiy Turkiston va Farg'ona vodiylarini bosib olishga urinar edi. Ya'juj-ma'juj (yoki juan-juan)lar shimoldan hujum uyushtirib turardilar. Endi kichik shahar-davlatlar yoki erkin qabila ittifoqlari yetarli bo'lmay qoldi, mintaqaga xalqlari o'z kuchli va birlashgan imperiyasini tuzish zaruratini his qila boshladilar. Mintaqadagi kichik davlatlar o'rnida miloddan avvalgi III asrdan boshlab xunlar harbiy demokratik ittifoqi, so'ngra Kushonlar imperiyasi dunyoga keldi. Sharqiy xun hukmdorlari Xitoygacha yetib borgan bo'lsalar, G'arbda ular Balamir (374—400), Yulduz (400—410), Attila (434—453) kabi nomdor lashkarboshilar timsolida butun Rim imperiyasini larzaga soldilar. Kushonlar imperiyasi milodiy era boshlarida hozirgi Shimoliy Hindiston va Turon o'lkalarini yagona hududga birlashtirishga muvaffaq bo'ldilar. Bu ikki yirik davlatchilik tajribasi turkiy xalqlar ishtiroki bilan bo'lgan bo'lsa, keyinroq borib turkiy elat o'z mustaqil imperiyasini tuzishga muvaffaq bo'ldi. Millatning o'z-o'zini anglab yetishi shu tariqa amalga oshdi. Milodiy eraning V—VI asrlaridan boshlab, gullab yashnagan paytlarida Qora dengiz bo'ylari va Dunay sohillaridan to Janubiy Sibir va

Mo'g'uliston yerlarigacha, Volga bo'ylari va O'rol tog'i etaklaridan hozirgi Shimoliy Afg'onistongacha hukmini yuritgan Buyuk turk xoqonligi (yoki Ko'k turk xoqonligi – “ko'k” bu o'rinda “osmoniy”, “muqaddas” ma'nolarini anglatadi) shakllandi. Bu ulug' imperiya goh yuksalish va goh tanazzul davrlarini boshdan kechirib, to milodiy eraning VIII asri boshlarigacha mavjud bo'ldi. Ushbu davrda umum-turk adabiy tili shakllandi, harbiy demokratiya qonunlari asta-sekin barqaror davlatchilik qoidalariga aylana bordi, maxsus turkiy yozuv ishlab chiqilib, boy adabiy yodgorliklar dunyoga keldi. Ularning juda ko'pchiligi bizgacha yetib kelmagan bo'lishi mumkin, ammo yetib kelganlarining o'zini olganda ham jiddiy ma'naviy boylik yaratilganligi har qanday shubhadan xolidir. “O'g'uznoma”, “Kultegin bitiklari”, “To'nyuquq bitigi”, “Bilka qog'on bitigi” singari yirik tarixiy-badiiy asarlar o'sha davr ajdodlarimiz tafakkur tarzi, orzu-armonlari, ma'naviy kamolot darajasini aks ettiradi. Bizning nazarimizda, ushbu tosh bitiklardagi eng muhim mavzu Vatan va millat, mustaqil davlatchilik g'oyalaridir. Ular bitik mualliflari Yo'llig' tigin, To'nyuquq va boshqalar qalbida yuksak ehtirolarni tug'dirgan va bu tug'yon ularni o'qigan bugungi kitobxon diliga ham bundan 12 asr burun qanday bo'lsa, xuddi shunday ta'sir ko'rsata oladi. Budunning (ya'ni, o'sha davr tilida – xalqning) butunligi, yurtboshining oqilligi va tadbirkorligi, bahodirlar shiddati va shijoati bugungi kunimiz uchun ham ibrat va namuna bo'lgulikdir.

Ushbu bitiklar mazmunidan turkiy elat islomdan oldinoq yaxlit bir xalq sifatida o'zligini tanib olganini his qilamiz va islom davridagi turkiy sulolalar yuksalishining ma'naviy omillar va asoslarga ega ekanligi ayon bo'ladi. Bu paytda turkiy xalqlar yagona Tangriga e'tiqod qilishgan. 716–720-yillar orasida yozilgan “Kichik Kultegin bitigi” shunday shiddat bilan boshlanadi:

*Tangri toq. Tangri inoyati bilan
Turk Bilka qog'on bu yerga o'lturdim.
So'zimni tugal eshitgil.*

*Og'a-inilarim, o'g'lonim,
Birlashgan ulusim, budunim,
O'ngdagi hokim, katta beglar,
So'ldagi buyruq tarqatuvchi beglar,
O'tuz*

*To'quz o'g'uz beklari, buduni
Bu so'zimni yaxshilab eshit,
Qattiqla tingla!*

Bu satrlarni 716-yilda taxtga o'tirgan Bilka qog'on nomidan uning jiyani, buyuk sarkarda Kulteginning nabirasi ulug' shoir Yo'llug' tigin (tigin – turkiyda “shahzoda” ma'nosini bildiradi) yozmoqda. Bu Vatan va millat fidoiysi o'z ajdodlari, bobosi va amakisining shonli kurashlariga bag'ishlab yozgan yirik marsiya – dostonlarida millat va xalq boshini qovushtirish uchun o'z hayotini tikkan bahodir va tadbirkor yurt ulug'larini madh etdi, ulusning bosh manfaati, milliy davlatning yetakchi g'oyasi nima ekanligini yorqin satrlarda ifodalab berdi:

*Turk budunini biriktirib,
El tutunmog'ingizni bunda bitdim.
Yanglishib parchalanishingizni,
Yana bunda bitdim.
Ne-ne so'zim esa,
Mangu toshga bitdim.
Uni ko'ra biling,
Endigi turk buduni, beklar².*

Iste'dodli sarkarda Kultegin turli turkiy qabilalarni yagona xalq sifatida birlashtirish uchun butun umrini fido qildi, Turk xoqonligining oxirgi hukmdorlaridan bo'lmish akasi Bilka qog'on saltanatini bobolari boshqargan dovrug'li yurt hududlarida saqlab qolish uchun tinmay turli buzg'unchilik tamoyillariga qarshi ayovsiz janglar olib bordi. Yo'llug' tigin buyuk bobolari timsolida elni vatanga muhabbat, millatparvarlik ruhida tarbiya qilishga intiladi, yurt tinch, xalq hayoti farovon bo'lishi uchun davlatni boshqaruvchilardan, beklardan va oddiy aholidan qanday ma'naviy fazilatlar talab etilishini ulug' xoqonlar davridan namuna keltirib ko'rsatib beradi:

*Bilka qog'on ermish,
Alp qog'on ermish,
Buyruqchilari ham bilka(bo'lg'on bo'lsa) ermish,
Alp bo'lgan bo'lsa ermish.*

¹ A.Qayumov. Qadimiyat obidalari. T., 1972, 134-b. (Matn tarjiması ba'zi o'zgarishlar bilan berilmoqda.)

² O'sha kitob, 137-b.

*Beklari yana, buduni yana to'g'ri ermish,
Shuning uchun ancha qo'l tutgan bo'lsa ermish'.*

Demak, hukmdorning asosiy fazilati bilimli, farosatli, shu bilan bir paytda shijoatli va mard bo'lsa, lashkarboshilar, amaldorlar ham shunday bo'lsa, beklar, oddiy fuqarolar millat va Vatanga sodiq, to'g'riso'z, gapi bilan amali bir joydan chiqadigan bo'lsa mamlakat yuksalar, el farog'atda yashar ekan. Agar hukmdorlar elni o'ylamasa, xalq to'g'ri yo'ldan toysa, yurt xarob bo'lib, millat o'zgalari asoratiga giriftor bo'lar ekan. Bu azaliy va abadiy ma'naviy qadriyatlar bugungi kunimizda ham o'z dolzarbligini saqlab kelayotgani O'zbekiston Prezidentining qator asarlarida o'z aksini topib kelmoqda. Bundan 1300 yil ilgari Yo'llig' tigin, To'nyuquq kabi millat uchun qayg'urgan shoirlari bo'lgan el o'zligini hech qachon yo'qotmaydi, daharning ming bir balolaridan omon chiqib yana yuksalaveradi.

Xullas, asotir tafakkur bosqichida urug' jamoasi bo'ladi, qabilalar bo'ladi, qabilalar ittifoqi shakllana boshlaydi. Ammo millat tushunchasi bu davrdan ancha keyin, milliy davlat shakllanishi bilan bir paytda yuzaga keladi. Masalan, "Avesto" kitobi yozilgan til biror muayyan millatning tiliga mos kelmaydi. Eronda ahmoniyalar sulolasi hukmronligining o'rnatilishi mintaqa tarixida imperiyalar davrini boshlab berdi. O'lkamiz xalqlari begona imperiya da'vogarlarining mingyillik bosqinchilik azoblarini ko'rdi, ushbu kurashlar mobaynida mustaqil millat sifatida shakllanib bordi, avval xunlar va kushonlar tarkibida, so'ng mustaqil millat sifatida milliy davlatchilikni — Buyuk Turk xoqonligini vujudga keltirdilar. Bu davrda (V—VII asrlarda) turkiy adabiy til ham shakllandi va ushbu umumturkiy adabiy til yodgorliklari bizgacha toshbitiklar va boshqa matnlarda yetib keldi. Millatning o'z-o'zini anglab yeta boshlagani, turli turkiy elatlarning bir butun xalq ("*budun*") sifatida birlashuvi hayot va mamot masalasi bo'lib yuzaga chiqqanligi ushbu matnlar mazmunida aniq ifodalangandir. Turkiy millat o'z mustaqilligi uchun, elatlar birligi uchun kurashda, ayovsiz janglarda shakllandi.

¹ O'sha kitob, 139-140-b.

2-BOB. ISLOM MINTAQA MADANIYATI DOIRASIDA MILLIY MA'NAVIYATIMIZNING TAKOMILI. ISLOM MINTAQA MA'NAVIYATIDA SUNNA BOS- QICHI

1-fasl. Yangi era boshlaridan jahonda va mintaqada ma'naviy yangilanish zaruratining kuchayishi va tavhid e'tiqodining shakllanishi

Islomgacha butun bashariyat, jumladan, o'lkamiz xalqlari juda uzoq tarixiy jarayonni boshdan kechirdilar, buyuk ma'naviy kamolot yo'lini bosib o'tdilar. Ajdodlarimiz avvalo tabiat bilan munosabatda ma'lum urug', qabila jamoasi tarkibida o'zligini anglab yetgan bo'lsalar, so'ng mintaqa miqyosiga chiqdilar. "Avesto" ma'naviyati Hindistonning "Veda" madaniyati, qadim Shumer, Bobil va Ashshur madaniyatlari, qadim Yunon va Rum antik madaniyatlari mohiyatiga monand bo'lib, ular singari tosh asridan boshlab shakllanib kelgan asotir tafakkur asosidagi ma'naviyat edi, unda dunyoni, atrof-muhitni idrok etish o'ziga xos tarzda kechardi. Inson ma'naviy kamolotining dastlabki bosqichlarida bu idrok tarzi ancha-muncha ijobiy ahamiyatga ega bo'lgan esa-da, keyinchalik uning cheklanganligi, ichki qusurlari bilib qola boshladi. Bu ma'naviy kamolotda bo'hron holatini yuzaga keltirdi, mintaqa xalqlari taraqqiyotida ma'naviy turg'unlik xavfi paydo bo'ldi.

Navoiy timsollaridan foydalanib ta'bir etganda, ajdahoni yengib o'tgan Farhod oldida endi Axriman – devni yengish zarurati paydo bo'ldi. Mazdayasna e'tiqodi asotir tafakkur qobig'idan chiqib keta olmadi. Zardushtiylik Eronda sosoniylar davrida yana hukmron din bo'ldi. Payg'ambarimiz hazrati Muhammad (s.a.v.)ga vahiy tushgan davrda ham sosoniylar ko'hna aqidalaridan voz kechmadilar. Xusrav II Parviz Rasululloh da'vatini rad qildi va sulola tanazzulini boshlab berdi.

Ammo ahli bashar ongida o'zgarishlar, yangilanishlar davom etar edi. Miloddan avvalgi XVIII asrda hazrati Ibrohim alayhissalom Zardusht singari ilk bora tavhid nuridan bahramand bo'lgan bo'lsalar, XIV asrga kelib hazrati Muso Kalimulloh yagona Tangri inonchini yahudiy qavmiga targ'ib qildi. Milodiy era boshlaridan hazrati Isoyi Masih (Ruhulloh) va ul zotning havoriylari endi tavhid e'tiqodiga butun bashariyatni da'vat eta boshladilar. Iso (a.s.) nomi bilan

bog'langan e'tiqod III asr xalq orasida yoyilib borib, IV asr boshlarida Vizantiya imperatori ulug' Konstantin tomonidan xristian dini sifatida rasman tan olindi.

Turon o'lkasida asotir tafakkurning mutlaq hukmronligi aslida qay davrgacha bo'lganligini hozir aytish qiyin, ammo milodiy era boshlanishidan ancha ilgariyoq bu o'lka xalqlari tafakkurida yangilanish boshlangan edi. Iskandar Maqduuniy davridan Sharq va G'arb madaniyatlari uyg'unligining yorqin timsoli — ellinizm yo'nalishi shakllangan bo'lsa, keyinroq Mazdayacna e'tiqodini qayta isloh qilish orqali monaviylik bid'ati vujudga keldi. Kushonlar davrida Hindistondan Budda e'tiqodi tarqalib, Vizantiyadan nasroniylar ko'chib kela boshladilar. Sibir va Mo'g'uliston turkiy xalqlari Ko'k tangri e'tiqodini takomillashtirib bordilar. O'lkamizda milliy birlik tamoyili kuchayib borishi e'tiqodlar xilma-xilligi bilan bir paytga to'g'ri keldi. Bunday murakkab ma'naviy vaziyatning ham ijobiy, ham ma'lum darajada salbiy oqibatlari o'zini ko'rsatmoqda edi. Ijobiyligi shunda ediki, ajdodlarimiz ongidan asotir tafakkur unsurlari asta-sekin siqib chiqarilib, milliy tafakkur yetakchi mavqega ko'tarilib bordi. Salbiy jihati shunda ediki, e'tiqodda sobitlik, dunyoni idrok etishda yaxlit tasavvurlar tizimi yo'q edi. Eski asotir tafakkurning inson ongidagi mutlaq hukmronligi boy berilgach, faqat milliy birlik, yagona davlatchilikka intilishgina ma'naviyatdagi umumiylikni ma'lum darajada saqlab turar edi. Tan olish kerakki, bunday bo'hronli holat faqat bizning mintaqaga xos bo'lib qolmay, balki butun ahli bashar qarshisida ulug' bir ma'naviy yangilanish ehtiyoji bunyodga kelgandi.

Inson dunyoni, voqelikni, borliq mohiyatini to'liq va to'kis, muayyan va ravshan idrok etishi uchun yana bir ilohiy inoyat lozim bo'ldi. Insoniyat hayotidagi bu ulug' ma'naviy yangilanish Arabiston yarim orolidan dunyoga tarqaldi. Johiliya (ya'ni islomdan avvalgi davr) arablarini ba'zan yalpi ibtidoiy jamoa tuzumida yashagandek talqin etishadi. Bu to'g'ri emas. Arab tili qadim Bobil xalqi akkadlar va qadim yahudiylar tili bilan bir guruhdagi qardosh tillardan bo'lib, shuning o'zi arab xalqining qadimiyligiga ishoradir. Janubiy Arabistondagi Yaman va Xadramavt o'lkalarida miloddan avvalgi mingyillik boshida yozma madaniyat va davlatchilik an'analari yaxshi rivojlanganligi fanga ma'lum. Keyingi davrlarda ham Arabistonda turli podsholiklar mavjud bo'lgan. Faqat o'zgarlar singari arablar ham Qur'oni karim nozil bo'lishidan oldin ma'naviy va ijtimoiy jihatlardan bo'hronli holatda edilar.

Yana bir narsani qayd etib o'tmoq lozimki, arablarda to VII asrgacha "Avesto" yoki "Vedalar" singari mukammal shakllangan asotir dunyoqarash tizimi mavjud emas edi, bu holat, aytish mumkinki, yangi yaxlit e'tiqod tizimini qabul qilishni ma'lum darajada osonlashtirar edi. Aksincha, mintaqada va uning chegaralarida tavhid ta'limotiga asoslangan yahudiy va xristian e'tiqodlari keng tarqalganligi ham birmuncha jaryonni osonlashtirar edi. O'sha davrda arab qabilalarining holati turkiy qavmlarning Buyuk turk xoqonligi tuzilishidan biroz oldingi ahvoliga yaqin bo'lib, ular oldida ham qabilachilik ziddiyatlarini yengib o'tib, yagona milliy davlat tuzish zarurati ro'y-rost ko'rinib qolgan payt edi.

Allohning oxirgi kitobi Qur'oni karim 23 yil davomida (610–632) Makka shahridagi Quraysh qabilasining hoshimiylar xonadoniga mansub Amin (ishonchli) laqabli Muhammad (sallallohu alayhi vasallam)ga vahiy orqali nozil bo'ldi. Muhammad Rasululloh oxirgi payg'ambar bo'lib, shu sababdan bu muhtaram zotni "Xotimat un-nabi", ya'ni "Payg'ambarlar muhri (yo oxirgisi)" deb atashadi. Muhammad (s.a.v.) ilk oyatlar nozil bo'lganda 40 yoshda, uylangan, 3 qizlarini turmushga chiqargan edilar. Ayollari Xadicha (raziiallohu anho) o'sha paytda 55 yoshlarda bo'lib, avval boshidanoq Payg'ambarimizning risolatlariga ishonch bilan qaradilar va ul kishini doimo quvvatlab turdilar. Birinchilardan bo'lib islom e'tiqodiga imon keltirganlar payg'ambarimizning yaqin do'stlari Abu Bakr, jiyani Ali ibn Abu Tolib, tutingan o'g'illari Zayd va boshqalar bo'ldi. Ammo yangi e'tiqod payg'ambarimizning ko'pchilik yaqin qarindoshlari tomonidan ham yaxshi qabul qilinmadi. Amakilarining ko'pchiligi avval qarshi chiqishdi, ulardan eng mehriboni bo'lmish Abu Tolib butun umri davomida jiyani himoya qilgan bo'lsa-da, o'zi islom e'tiqodiga imon keltirmadi. Abu Tolib va Xadicha onamiz vafotlaridan so'ng Makka musulmonlari ancha qiyalib qolishdi va Rasululloh do'stlari Abu Bakr bilan birga 622-yil yoz oxirlarida Makka shahridan Madina (o'sha davrda Yasrib)ga yo'l oldilar. Ularning izdoshlari ilgariroq ko'chib o'tishgan edi. Ushbu hodisa hijrat (ko'chib o'tish) deb ataladi va islom tarixida buyuk ahamiyat kasb etadi. Muhammad (s.a.v.)ning o'z tug'ilgan shaharlarini e'tiqod yo'lida tashlab chiqishlari bilan islom e'tiqodi g'alabasi boshlanadi, chunki Madina shahrining ko'pchilik aholisi Rasululloh da'vatlarini qabul qilib, yagona Allohga imon keltirgan edi. Ushbu voqea 16 yildan keyin musulmon yil hisobining boshlanishiga asos bo'ldi va shu sababli musulmon yil hisobi "hijriy era" deb ataldi.

Islom dini asotir tafakkurga eng keskin va oxirgi zarbani berdi. Qur'oni karimda "ilm" so'zi asosidagi "alima" (bilmoq) fe'l negiziga tayangan kalimalar 750 marta uchrashligi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan bo'lib, bu o'zak faqat "Alloh", "Rabb" (Parvardigor ma'nosida), "bo'lmoq" va "gapirmoq" kabi eng ko'p ishlatilgan o'zak-so'zlardan keyin beshinchi o'rinda turar ekan.

Rasulullohga ilk nozil bo'lgan 5 oyat hozirgi Qur'oni karim matni 96-surasi ("Alaq")ning birinchi oyatlari bo'lib, shunday boshlanadi: "Iqra' bi-ismi robbikal-lazi xalaq!" ("Yaratgan rabbing nomi bilan o'qi!") Orada bir oyat o'tib, yana "o'qi!" so'zi qaytariladi: "Iqra' va robbikal akram, allazi allama bil qalam. Allama-l-insona ma lam ya'lam". ("O'qi! Sening o'ta karamli parvardigoring qalam vositasi bilan ta'lim berdi. Insonga u bilmagan narsalarni o'rgatdi"). Shunday qilib, islom e'tiqodi avval boshidanoq insonni o'qib-o'rganishga, ilm vositasi bilan dunyoni anglab yetishga targ'ib qiladi. Islom dinining yana bir muhim xislati ahli bashar ma'naviy kamolotida tarixiy tadrijiylikni qat'iy qoida qilib belgilab qo'yilganligidadir. Bu masala Qur'oni karimning ko'p suralari jumladan, ikkinchi ("Baqara") va uchinchi ("Oli Imron") suralarining boshlang'ich oyatlarida ochiq-ravshan ta'kidlangan bo'lib, o'zbekcha tarjimada quyidagicha ifodalangan: "Alif. Lom. Mim. Ushbu (ilohiy) Kitob (Qur'on) shubhadan xoli va (u shunday) taqvodorlar uchun hidoyat (manbayi) dirkim, ular g'oyib (diniy xabarlar) ga imon keltiradigan, namozni mukammal o'qiydigan va Biz rizq qilib bergan narsalardan (sadaqa va) ehson qiladiganlardir. Yana, ular Siz (Muhammad) ga va Sizdan ilgari (o'tgan payg'ambarlarga) nozil qilingan narsa (ilohiy kitoblar)ga imon keltiradigan hamda oxirat (qiyomat) ga qat'iy ishonch hosil qiladiganlardir. Aynan ular Parvardigorlari tomonidan (ato etilgan) hidoyat uzradilar va aynan ular najot topuvchilardir". ("Baqara" surasi, 1-5-oyatlar). Demak, mo'min bo'lmoqning asosiy shartlaridan biri faqat Qur'onni emas, balki undan oldingi payg'ambarlarga nozil etilgan kitoblarni ham yagona Alloh tomonidan yuborilganligini tan olishda ekan.

Keyingi, "Oli Imron" surasining boshlang'ich oyatlarida ushbu g'oya yanada aniqroq qilib tushuntiriladi: "Alif. Lom. Mim. Alloh - Undan o'zga iloh yo'qdir. U tirik va abadiy turuvchidir. (U) Sizga (ey, Muhammad), Kitob (Qur'on) ni haqiqatan o'zidan oldingi (ilohiy kitoblar) ni tasdiqlovchi holda nozil qildi. Tavrot va Injilni oldin nozil qilishi esa, odamlarga hidoyat (manbayi) bo'lishi uchun edi. (Endi

esa) haq bilan nohaqlikni ajrim etuvchi (Qur'on) ni nozil qildi..". ("Oli Imron" surasi, 1–4-oyatlar.)

Bu oyatlarda Qur'onning Furqon deb nomlanishi alohida ta'kid etilganki, bu ham chuqur hikmatga ega. Tarixiy tadrijiylik nafaqat Qur'onda, balki undan oldingi ilohiy kitoblarda ham ta'kid etilgan va ularda o'zidan keyingi kitoblarga ishoralar mavjud ekanligi ma'lum.

Qur'onda qayta-qayta ta'kidlanishicha, islom dinida Alloh oldidagi eng og'ir gunoh shirk, ya'ni yagona Parvardigorga qaysi bir zotni sherik qilishga urinishdir. Barcha ilohiy kitoblarda olg'a surilgan Tavhid (yaratuvchining yagonaligi va barcha mavjudot manbayi ekanligi) g'oyasi islomda o'zining oliy darajadagi talqinini topgan.

Islom ma'naviyatining qirralari rango-rang, mohiyati teran. Sanab o'tganimiz ilmiylik va yozma madaniyatga tayanish, tarixiy tadrijiylik va tavhid izchilligi shular jumlasidandir. Qur'oni karim oyatlariga binoan insonning yer yuzida xalifa ekanligining bir necha qayta ta'kidlanishi islom ma'naviyatining eng ulug' qadriyatlaridandir. Qur'oni karimning juda ko'p oyatlarida insonning aziz va mukarram qilib yaratilgani, unga yer va osmondagi barcha narsalar bo'ysundirib qo'yilganligi alohida uqtirib o'tilgan.

2-fasl. VIII–IX asrlarda islom mintaqa madaniyatining tashkil topishi

Islom ma'naviyatining eng oliy nuqtalaridan biri qabilachilik xurofotlariga uzil-kesil barham berganligi, urug' jamoasi, yagona ajdodga borib taqaluvchi irsiy birodarlik o'rniga tavhid e'tiqodi asosidagi insoniy birodarlik jamoasi – "umma" tushunchasining kiritilishi bo'ldi. Bu hodisa ahli bashar ma'naviy takomilida eng muhim burilish nuqtasidir, ammo ushbu g'oya hanuz ham mukammal anglab yetilgan, deb bo'lmaydi.

Islom ma'naviyatining mintaqa ma'naviyatiga aylanishi osonlik bilan bo'lgani yo'q, buning uchun ba'zi siyosiy masalalar to'g'ri hal bo'lmog'i zarur edi. Payg'ambarimiz umrining oxirlariga borib arab dunyosida "umma" g'oyasi g'oliblikni qo'lga kiritdi, arablar qabilachilikdan yagona millat darajasiga ko'tarila boshladi. Bu jarayon ilk xalifalar Abu Bakr va Umar (raziallohu anhumu) davrlarida nihoyasiga yetdi. Yagona arab davlati shakllandi. Islom qo'shni mamlakatlarni ham fath eta boshladi. 642-yilda oxirgi Sosoniy Yezdigerd III Nahovand yaqinidagi jangda yengilib, Xurosonga qochdi. 674-yilda arab

qo'shini birinchi marta Amudaryoni kechib o'tib, Buxoroga kirdi. Qutayba ibn Muslim (705–717) davrida Movarounnahr arablar tomonidan asosan ishg'ol qilindi. Agar tarixiy voqelikni to'g'ri idrok etadigan bo'lsak, bu davrga kelib qadim Turon o'lkasida muayyan siyosiy parokandalik holati hukm surar, turli kichik hukmdorlar bir-biri bilan olishib yotar, Buyuk Turk xoqonligi tanazzulga yuz tutib, turkiy va eroniy qavmlardan biri arablarga keskin qarshilik ko'rsatsa, ikkinchisi murosasozlik yo'lini tutardi. Baribir bosqinchilikka qarshi milliy-ozodlik kurashi to'xtamadi, islom dini ham dastavval mahalliy xalq ongiga juda qiyinchilik bilan singib bordi. Ammo ilg'or tavhid e'tiqodi eski xurofiy aqidalar ustidan asta-sekin g'olib kelishi tabiiy edi. Bir qator turkiy va eroniy qavmlar arablar bilan yagona e'tiqod asosida ittifoqlashuv yo'lini tutishga moyil bo'lib borardilar. Faqat ummaviy xalifalardan aksariyati mahalliy ajam xalqlarini arablar bilan teng ko'rmaslik siyosatini tutar va bu bilan xalqlarning ixtiyoriy ravishda imon keltirishlariga ma'naviy jihatdan to'sqinlik qilardi. Bu orada Rasulullohning qarindosh va avlodlari, birinchi navbatda, kuyovlari hazrati Ali (raziyallohu anhu) va amakilari hazrati Abbos (raziyallohu anhu) avlodlari nomidan xalifalik taxtiga da'vogarlik boshlandi. Abbosiylar o'z maqsadlariga erishish uchun Xuroson va Movarounnahrda yordam istadilar. Asli ajamlik Abu Muslimni imom Ibrohim qullikdan ozod qilib, Xurosonga Abbosiylar foydasiga targ'ibot olib borishga jo'natdi. Abu Muslim juda tez vaqt ichida ajam xalqlaridan katta qo'shin to'plab, Ummaviylarga qarshi kurash boshladi va 750-yilda Ummaviylar sulolasi yo'q qilinish, Abbosiylar xalifalik taxtiga o'tirdilar. Abu Muslim qo'zg'oloni g'alabasi mintaqa tarixida hal qiluvchi o'zgarishlarga olib keldi. Abbosiylar ajam xalqlari bilan hamkorlikda g'alabaga erishdilar. G'olib qo'shin tarkibida arablardan ko'ra ajamliklar, ya'ni fors va turklar ko'proq edi. Xorun ar-Rashid zamonidan xalifaning shaxsiy qo'riqchilari turkiy xalq vakillaridan, saroy kotiblari va vazirlar ko'proq eroniy xalq namoyandalaridan tayinlanadigan bo'ldi.

Shunday qilib, VIII asr ikkinchi yarmi – IX asr boshlaridan mintaqaning uch buyuk xalqi – arab, fors va turkiy elatlararo siyosiy qudratda o'ziga xos muvozanat holati vujudga keldi. Islomning asl g'oyasi – musulmon ummatining tengligi amalda joriy bo'lishiga voqe imkon tug'ildi. Shu davrdan boshlab mintaqa xalqlari orasida islom dinining nufuzi tez osha boshladi. Islom mintaqa madaniyatining shakllanish jarayonini shu sabablarga ko'ra VIII asr o'rtalari – Abu Mus-

limning ummaviylar ustidan g'alabasi va abbosiylar xalifaligi o'rnatilishidan boshlash maqbul ko'rinadi. Ushbu mintaqa madaniyati XIII asr boshlarigacha shiddat bilan yuksaldi, mo'g'ullar bosqini bir muddat madaniy taraqqiyotga monelik qilgan bo'lsa ham, baribir, XVI asr boshlarigacha mintaqada ma'naviy yuksalish davom etdi. Ammo XVI asr boshlarida yuz bergan katta siyosiy o'zgarishlar natijasida butkul o'zgacha holat vujudga keldi. Kichik Osiyoda usmoniylar, Eronda safaviylar, Movarounnahr va Xurosonda shayboniylar, Afg'oniston va Shimoliy Hindistonda boburiylar sulolasi bir necha yuz yilga mustahkam o'rnashib, yaxlit islom madaniy mintaqasi o'rniga alohida davlatlar hududida milliy-madaniy o'ziga xoslik shakllana boshladi. O'zaro ta'sir ma'lum darajada saqlanib qolgan bo'lsa ham, asta-sekinlik bilan mintaqaviy umumiylikdan ko'ra milliy o'ziga xosliklar quvvati oshib bordi. Biroq bu holat darhol bilingani yo'q, balki bir necha yuz yillarga cho'zilgan jarayon bo'ldi. Aytish mumkinki, XX asr boshlarida ham Shimoliy Afrikadan Sharqiy Turkistongacha, Volga bo'ylaridan Bengaliyagacha yoyilgan islom mintaqa madaniyatining yirik va nufuzli namoyandalari bir-birlarini bilar, o'zaro ijodiy-ma'naviy hamkorlik rishtalarini uzmagani edilar. Buyuk Britaniya va Rossiya imperializmi ham uhdasidan chiqmagan niyatga Sho'ro hukumati erishdi – qadim Turonzamin xalqlarining qo'shni xalqlar bilan necha mingyillik madaniy-ma'naviy aloqalarini butunlay uzib tashladi, nafaqat qo'shnilar bilan, balki o'z o'tmish madaniyati bilan ham bevosita munosabatda bo'lish imkonini keskin kamaytirib, milliy ma'naviyatimizni g'ariblikka mahkum etdi. Mana endi bugungi mustaqillik sharoitida biz necha yillar ko'zimizdan yashirin bo'lgan ulkan ma'naviy zaxiralarni yangidan kashf etmoqdamiz.

Islom mintaqa madaniyatining eng yuksak qadriyati tavhid e'tiqodini butun qudrati, mazmuni, amaliy mohiyati va ko'lami bilan anglab yetish mintaqaning ilg'or ziyo egalari uchun necha asrlik yumush bo'ldi. Bu yo'lda mintaqa ma'naviyati kamolot yo'lining bir qator pillapoyalarini bosib o'tdi. Ulardan dastlabki pog'onasini *sunna bosqichi*, deb atash mumkin.

3-fasl. Hadis ilmi va mazhablar. Imomi A'zam va Imom Buxoriy

Payg'ambarimiz hayot vaqtlarida "Mening so'zlarimni yozmang, faqat Alloh oyatlarini yozib olinglar", deb buyurgan edilar. Shunday qilindi ham. Albatta, kimlardir o'z tashabbusi bilan u hazratning ayt-

gan gaplari va qilgan ishlari haqida muayyan ma'lumotlarni qayd etib borgan bo'lishi mumkin. Ammo Allohning kitobi but bo'lmay, yagona o'zgarmas matn holiga keltirilmay turib, unga boshqa so'zlar aralashib ketish xavfiga yo'l qo'yib bo'lmas edi. Oldingi ilohiy kitoblar tajribasi ham shuni taqozo etardi.

651-yilda, xalifa Usmon davrida ushbu yumush mukammal bajarildi. Mus'haf tuzilib, undan bir necha nusxa ko'chirib, ko'paytirildi. Ana shundan so'ng VII asr ikkinchi yarmidan boshlab, Abu Hurayra (vafoti 676–yil), Anas ibn Molik (vafoti 710-yil), Abdulloh ibn Abbas (619–686), Abdulloh ibn Umar, Jobir ibn Abdulloh kabi ilk roviylardan Rasululloh so'zlari va amallari xususida minglab hadislar yozib olindi. Abu Said al-Xudriy, Ibn Shihob az-Zuhriy singari ilk muhaddislar yetishib chiqdi. VIII asr boshlarida Ummaviy xalifalaridan Umar ibn Abdulaziz (717–720) noiblariga Muhammad (s.a.v.) hadislarini jamlash haqida farmon berdi. Abdulmalik ibn Abdulaziz Jurayx (vafoti 766), Ar-Rabi' ibn Subayx kabi allomalar hadislar jamlab yozishga boshladilar. Natijada hadis ilmi rivoj olib, Imom Malik ibn Anas (713–795)ning “Al-Muvatto”, Imom Shofe'iy (767–820) va Imom Ahmad ibn Xanbal (780–855)larning “Musnad” deb nom olgan yirik hadis to'plamlari yaratildi. O'lkamizda quyida nomlari zikr etilgan zotlar birinchi bo'lib hadis to'plamlarini tuzdilar: Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy, Is'hoq ibn Raxovayx al-Marvaziy, Imom al-Xaysam ibn Kulayb ash-Shoshiy va boshqalar.

Keyingi IX asr hadis ilmining “oltin asri” deb shuhrat qozongan. Chunki bu asrda hadislarini to'plash davri o'tib, endi ularni manbashunoslik va matnshunoslik ilmi qoidalariga muvofiq tahlil va tadqiq etish, ma'lum mazmun asosida tartib berishga kirishildi. Hadishunoslik atalmish jiddiy ilm yo'nalishi mukammal shakllandi. Hadis ta'lif etish sohasida “Musnad”, “Sahih” va “Sunan” deb nomlangan yo'nalishlar vujudga keldi. Bu davrda keyingi asrlar uchun namuna bo'lgulik ishonchli hadis to'plamlari yaratildi. Butun islom olamida eng nufuzli manba sifatida dong taratgan “Kutubi sitta” (“Olti kitob”) mualliflari shu davrda yashab ijod etdilar. Ular: Abu Abdulloh Ismoil al-Buxoriy (810–870), Imom Muslim ibn al-Xajjoj (819–874), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (824–874), Abu Dovud Sulaymon (817–888), Ahmad an-Nasoyi (830–935), Abu Iso Muhammad ibn Yazid ibn Mojja (824–886) kabi muhaddislardir. Olti buyuk muhaddisning avvalgisi vatandoshimiz Abu Abdulloh Muhammad ibn

Ismoil ibn al-Mug'ira al-Buxoriy edilar. Imom Buxoriyning "Jome' as-sahih" kitoblari bugungi kunda o'zbek tiliga tarjima qilinib, 4 jildda e'lon qilindi. Imom Buxoriy o'zlarini to'plagan 600 ming hadisdan 7275 ta eng ishonarli "sahih"larini mazmuniga ko'ra tasniflab, butkul yangicha tartibdagi hadislar to'plamini yaratishga muvassar bo'ldilar. Ul muhtaram zotning asarlarini keyingi muhaddislar uchun barcha jihatdan o'rnatq va namuna bo'ldi. Imom Buxoriy yaratgan "Al-adab ul-mufrad" ("Adab durdonalari"), "Kitobi af'ol il-ibod" ("Alloh bandalarining xulqlari") kabi boshqa qator asarlar ham mintaqa xalqlarini islom axloqi ruhida tarbiya qilishda alohida ahamiyatga ega.

Dastlab Imomi A'zam Abu Xanifa an-Nu'mon ibn Sobit (699–767) qarashlari asosida sunniy yo'nalishida Hanafiya mazhabi shakllangan bo'lsa, keyin ul zotning shogird va izdoshlari tomonidan molikiya, shofe'iya, xanbaliya mazhablari, shia yo'nalishida esa payg'ambarimiz avlodidan oltinchi Imom Ja'far as-Sodiq (700–765) nomi bilan bog'liq ja'fariya mazhabi vujudga keldi.

X–XI asrlarda islom mintaqa ma'naviyati takomilida yangi pog'onaga ko'tarilish boshlandi. Ushbu yangi bosqich ta'rif va tavsifiga o'tishdan oldin Sunna bosqichining mohiyati va uning milliy ma'naviyatimiz takomilida tutgan o'rni haqida ikki og'iz so'zlab o'tsak.

Avvalo, bu bosqichni mintaqada manbashunoslik va matnshunoslik fanining yuksak rivoji sifatida baholash lozim bo'ladi, chunki Rasululloh hadislarini Qur'oni karim oyatlaridan keyin mo'tabarlikda ikkinchi o'rinda turuvchi manba bo'lib, uning ham matni, ham isodi (ya'ni ushbu hadis roviylari silsilasining naqadar ishonchli va e'tiborli ekanligi) nihoyatda nozik va jiddiy munosabat talab qiluvchi mavzu edi. Bu masalalarda arzimagandek tuyuluvchi yangilish qandaydir tor ilmiy munozaraga emas, balki har bir musulmonning e'tiqod amalida jiddiy gumrohlikka olib kelish xavfi bo'lgani uchun ham bu soha o'ta zukkolik va daqiqlikni taqozo etar, muhaddisga nihoyatda qat'iy qoidalarga rioya etishni buyurar edi. Ushbu og'ir shartlarga ko'nikma hosil qilish islom ilmlarining keyingi rivoji va kamolotiga jiddiy zamin yaratdi. Ilm naqadar jiddiy mehnat ekanligi ushbu bosqichda butun zalvori bilan his etildi. Afsuski, sovet davrining yagona hukmron mafkuraga so'zsiz bo'ysunish sharoitida, ayniqsa, ijtimoiy fanlar sohasida matn va manbaga jiddiy munosabat, jiddiy ilmning ushbu tagzaminini anchamuncha e'tibordan chetda qoldi va zamonasozlik ruhida oldi-qochdi shiorbozlik ko'p o'rinda haqiqiy ilm o'rnini egallab ola boshladi.

Bugun biz bu sohada ham, yanada aniqrog‘i, birinchi navbatda ushbu sohada, milliy ma‘naviyatimiz erishgan yutuqlarni qayta tiklashimiz, matn va manbaga yondashuvda o‘ta jiddiy munosabatga qaytmog‘imiz, bu borada Imom Buxoriy, Muslim ibn al-Hajjoj, Abu Iso at-Termiziy saboqlarini diqqat bilan o‘rganmog‘imiz darkor.

4-fasl. Shariat va islom axloqi. Mintaqa ma‘naviyatida Rasu- lulloh ibrati

Sunna bosqichining ikkinchi ulug‘ muvaffaqiyati islom axloqining mintaqada puxta shakllanuvidir. Payg‘ambarimiz hadislarining eng muhim va salmoqli qismi kishilarda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan. Undagi ota-onaga munosabat, ilmga munosabat, sabr-bardosh, shukronalikka da‘vat, o‘zaro mehr, inoqlik, mehmondo‘stlik, yetimparvarlik, vafo va sadoqat, mehnatsevarlik va halol luqmani sharafdash, kamtarlik, kamsuqumlik, samimiyat va rostgo‘ylik xislatlarining birinchi o‘ringa qo‘yilishi insoniyat uchun bebaho ma‘naviy qadriyatlar silsilasini tashkil etadi. Qolaversa, islom axloqi ma‘naviy qadriyatlarning tasodifiy to‘plami emas, balki munazzam va mukammal bir tizim holiga keltirilgani bo‘lib, albatta, bunda buyuk muhaddislar, birinchi navbatda, yurtdoshimiz Imom Buxoriyning xizmatlari beqiyosdir. Payg‘ambarimiz sunnatlarining ibratli o‘rinlari nihoyatda ko‘p. Misol tariqasida u zotning ahli ayolga munosabatiga e‘tibor beraylik.

Ibn Umar raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: “Biz, janob Rasu-lulloh hayotlik vaqtlarida, “Tag‘in, biror baloga giriftor bo‘lib qolmaylik!” deb xavotirlanganimizdan, ayollarimizga biror (qattiq) so‘z aytib, bimalolroq muomala qilishdan qo‘rqar edik. Janob Rasululloh (s.a.v.) vafot qilganlaridan so‘ng, ayollarimizga (qattiq) gapirib, bimalolroq muomala qiladigan bo‘ldik”¹. Ushbu hadis mazmunidan ko‘rinib turibdiki, Payg‘ambarimiz ayollariga aslo qo‘pol muomala qilmaganlar, natijada boshqa sahobalar ham o‘z ahli ayollariga ehtirom va yumshoqlik bilan muomala qilishni o‘rganib borganlar. Darhaqiqat, Muhammad (s.a.v.) biror ayolning ko‘ngliga zarra ozor berganlari, xafa qilganlari haqida hech bir hadisda biror ishora yo‘q, aksincha, ayollar payg‘ambarimizga nisbatan ba‘zan ozor beruvchi xatti-harakatga yo‘l qo‘ysalar ham u zot nihoyatda halimlik bilan javob

¹ Al-Buxoriy. Hadis (“Al-jome‘ as sahih”). 3-jild. T, 1995, 421-b.

qilganlar. Albatta, u kishi har bir inson singari ayollarning ham o'ziga yarasha kamchiligi bor ekanini sezganlar, ammo urish-so'kish, qattiq gapirish, izza qilish orqali bu kamchiliklarni aslo tuzatib bo'lmasiligi, faqat sabr, yumshoq muomala va shaxsiy namuna bilan ta'lim berilsa, ta'sirli bo'lishi mumkinligini yaxshi bilgan va bu odobga izchil amal qilganlar. Demak, sunnaga amal qilgan kishi, ko'p xotin olish haqida emas, ahli ayol ko'nglini ranjitmaslik haqida qayg'urishi islom axloqiga munosibdir. Jismoniy va ma'naviy poklikka intilish islom axloqining, Rasululloh hadislarining yana bir muhim mavzu yo'nalishidir. Tahorat, g'usl masalalari, misvokdan foydalanish (ya'ni, tishni toza tutish) tashqi ozodalik talablari bo'lsa, haromdan, yolg'on so'z, g'iybat, tuhmat, zinakorlik, o'zga haqiga xiyonat, nohaqlik va zulmga yo'l qo'ymaslik, ulardan qat'iy saqlanish ichki, ma'naviy poklikka oid talablaridir. Bular barchasi ham Qur'oni karimda, ham Rasululloh sunnatlarida juda qat'iy qilib qo'yilgan.

5-fasl. IX asrda ilm va madaniyat. Turkiy tilda islomiy she'riyat

Sunna bosqichining yana bir yutug'i islom mintaqa xalqlari ma'naviy takomilining ushbu birinchi pog'onasida shakllangan 5 islomiy mazhab, ya'ni islom e'tiqodiga oid qarashlar va amallarning ba'zi farqlarga ega bo'lgan besh yo'nalishi orasida bir-birini inkor etmaslik va o'zaro hurmat munosabatlari o'rnatilishidir. Bunday vaziyat osonlikcha va birvarakay shakllangani yo'q, albatta. Lekin oxir natijada yuzaga kelgan bunday o'zaro murosa holati muayyan darajada e'tiqod masalalarida taassub (fanatizm) va bir yoqlama aqidaparastlik xavfining oldini olib, shu bilan birga keyingi rivojlanishga zamin hozirlagan omillardan bo'ldi.

Musulmon huquqi – shariat va fiqh asoslarini shakllantirish ham shu davrdan boshlandi. Imom A'zam – Abu Hanifaning yaqin shogirdlari Imom Abu Yusuf Ansoriy (731–804) va Imomi Muhammad ash-Shaybon (749–805) bu sohada asoschi bo'ldilar. Imom Abu Yusuf islom dunyosining birinchi qozi ul-quzzoti (qozilar qozisi – bosh qozi) qilib tayinlandi. Imom Muhammadning “Al-Mabsut” (yoki “Kitob al-asl fil-furu” – “Juz'iy masalalarning asoslari”), “Kitob al-jome'-al-kabir”, “Kitob al-jome' as-sag'ir” kabi asarlari bu sohada yaratilgan keyingi barcha ishlarga dasturulamal vazifasini o'tadi.

Sunna davrida payg'ambarimizning hayot yo'llari haqida dastlabki mukammal asarlar – Ibn Is'hoq (704–707) va Ibn Hishom (vafoti

834-yillar) “Sira”lari (“Sirat ar-Rasululloh”) vujudga keldi. Bu kitoblar oddiy tarjimayi hol emas, balki Allohning payg‘omini ahli basharga yetkazish vazifasi yuklangan shaxs – Rasululloh haqida bo‘lib, diqqat markazida risolat (payg‘ambarlik – missiya) masalasi turgani uchun asarning Muqaddima qismida Muhammad (s.a.v.) dan oldin o‘tgan payg‘ambarlar haqida ham axborotlar berilgan edi. Ushbu an‘ana keyincha rivoj olib, hazrati Muso alayhissalom va boshqa payg‘ambarlar hayoti va faoliyati haqida ham batafsil xabar beruvchi kitoblar yaratilgan boshlandi.

Bu davrda Muhammad (s.a.v.)dan boshlangan Qur‘on tafsirlari an‘anasi ham rivoj oldi, keng ma‘nodagi adab ilmiga asos solindi. Ibn al-Muqaffaning (724–759) “Al-Adab as-Sag‘ir”, “Al-Adab-al-Kabir” asarlari yozildi. Xalil ibn Ahmad (718–792) lug‘atshunoslik asoslariga bag‘ishlangan “Al-Ayn” asari tarkibida aruz ilmining nazariy asoslarini yaratib, ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslikka zamin hozirladi. Keyingi asr oxirida Ibn al-Mutazz (861–908) adabiyotshunoslikning yana bir tarkibiy qismi “ilmi bade” (she‘riy san‘atlar haqida ilm)ni kashf etdi. Arab mumtoz she‘riyatining asoschilari Abu Nuvas (762–813), Bashshar ibn Burd (714–784), Abul Ataxiya (718–825) kabi ulug‘ shoirlar, Al-Johiz (775–868) kabi adiblar shu davrda yashab ijod etdilar. Shu zabardast siymolar orasida islom davrining ilk turkiy shoiri Adib Ahmad ham bor edi. Alisher Navoiy guvohlik berishicha, islom turkiy she‘riyatining bu to‘ng‘ich shoiri hanafiya mazhabining asoschisi Abu Hanifa an-Nu‘mon bin Sobit – Imomi A‘zam (699–767)ning eng sevimli shogirdlaridan bo‘lib, ko‘zi ojiz bo‘lsa ham, dil ko‘zi nihoyatda ravshan va tiyrak edi. Yurtdoshimiz Adib Ahmaddan bizgacha turkiy adabiy tilda yozilgan “Hibatul-haqoyiq” (“Haqiqatlar tuhfası”) dostonining XV asrda ko‘chirilgan bir necha nusxasi va Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan yana 1–2 parcha yetib kelgan. Adib Ahmad birinchilardan bo‘lib Rasululloh hadislariga she‘riy sharhlar bag‘ishlagan alloma shoirdir. Uning ilm fazilati, johillikning kasofati haqida o‘n bir asr ilgari aytgan hikmatlari hanuz dolzarbligini yo‘qotgan emas¹.

Shunday qilib VIII–IX asrlarda islom mintaqa madaniyati shakllandi va uning dastlabki bosqichi – Sunna o‘zining eng oliy yutuqla-

¹ Adib Ahmad Yugnakiyning yashagan davri haqida fanda bahsli fikrlar mavjud. Ammo biz bu borada Navoiy keltirgan naqlni rad etishga arzigulik jiddiy dalil-isbotni uchratmadik.

riga erishdi. Bu yutuqlar, avvalo, islom axloqi asoslarining mukammal tizimi vujudga kelganligi, shariat va fiqh ilmi, manbashunoslik, matnshunoslik nazariyasi va amaliy tarjibalarining shakllanishi, adab ilmi, dastlabki Qur'on tafsirlari, qiroat ilmi, she'riyat nazariyasi, sarf-u nahv (grammatika), lug'atshunoslik va boshqa ilmlarga asos solina boshlaganligi bilan belgilanadi. Bunday ulug' ma'naviy boylikning vujudga kelishi va rivojida mintaqaning barcha xalqlari, ayniqsa, arab, fors, turk elatlarining hissasi katta bo'lib, jumladan, bizning vatandoshlarimiz – Adib Ahmad Yugnakiy, Imom Muhammad al-Buxoriy, Abu Iso at-Termiziy kabi allomalar qo'shgan ma'naviy ulush butun jahon afkor ommasi tomonidan tan olingandir.

Insoniyat tarixida minglab payg'ambarlar o'tgan. Ularning oxirgisi (“Xotimat un-nabi”) Muhammad (s.a.v.) arab qabilalari yagona millat sifatida shakllanishida yetakchi o'rin tutdi. Ammo Qur'oni karim asosida shakllangan Tavhid e'tiqodi va “umma” tushunchalari faqat arablarni birlashtirishgagina qaratilgan bo'lmay, balki butun insoniyatni, balki butun tabiat, koinot, Borliqni yaxlit bir mohiyat sifatida anglab yetish imkonini beradi. Ammo bu Oliy mazmunga xalqlar osonlikcha yetishgani yo'q. Dastlab, VIII asr ikkinchi yarmi – IX asr boshlarida umummintaqa islom madaniyati shakllanishiga g'oyaviy-siyosiy zamin yaratildi. Abu Muslim qo'zg'oloni va Ma'munning (813–833) xalifalik taxtini egallashi jarayonida mintaqada arabiy, eroniy, turkiy millatlarning o'zaro siyosiy-ijtimoiy muvozanat holati vujudga keldi. Harbiylar ko'proq turkiy xalqlar vakillaridan, vazirlar va saroy amaldorlari eroniylardan, diniy nufuz egalari arabdan bo'lishi an'anaga aylandi. Keyinroq she'riyat asosan fors tilida, aniq fanlar arab tilida yozila boshlandi. Ana shunday sharoitda IX–XV asrlar mobaynida turli xalq namoyandalari ishtirokida yagona mintaqa madaniyati shakllandi. Va turkiy millat vakillari ham ushbu umumiy merosga sezilarli ulush qo'shdilar.

3-BOB. ISLOM MA'RIFATCHILIGI BOSQICHI

1-fasl. Mantiqiy tafakkur ehtiyoji

Alloh taolo Qur'oni karim orqali marhamat etgan mukammal Tavhid ta'limotini ahli bashar tomonidan anglab yetishning ilk pog'onasi bo'lmish Sunna bosqichi o'zining inkor etib bo'lmaydigan fazilat va yutuqlariga ega ekanligi oldingi bobda qayd etib o'tildi. Bu bosqichda

islom ma'naviyatining poydevori hisoblanuvchi shariat ahkomlari va islom axloqi shakllandi. Tavhid ta'limotining ilk talqini bo'lmish ushbu qadriyatlar tizimi umummintaqa ma'naviyatining takomilida naqadar muhim bo'lganligi har qanday shubhadan xolidir. Bu bosqich qadriyatlarini biroz bo'lsa-da inobatga olmaslik yomon oqibatlariga olib kelishi mumkinligi ham tarix tajribasida necha bor sinalgan haqiqat. Ammo Tavhid ta'limotini butun borlig'i, mohiyati bilan anglab olish uchun bo'lgan harakat bu bosqichda to'xtab qolgani yo'q. Islom mintaqasi ma'naviyatining takomil tarixi yana bir qator bosqichlarni bosib o'tdi. IX asrdan boshlab ushbu ma'noda yangi yo'nalishlar bo'y ko'rsata boshladi va keyingi asrlarda ular yetakchi mavqega ko'tarildi. Masalaning mohiyati shundaki, Sunna, birinchi navbatda, ibrat asosiga qurilgan, ya'ni Sunna Alloh hidoyat etgan Haqiqat yo'liga (as-Sirot al-mustaqim -- to'g'ri yo'l) Rasululloh Muhammad (s.a.v.)ning hayot va tafakkur tarziga taqlid etish, undan ibrat olish orqali erishishni nazarda tutadi. Payg'ambarimiz va ul zotning yaqin kishilari (sahobalari) hayoti davomida musulmon jamoasi ("umma")ga birlashib qanday qadriyatlarga amal qilgan bo'lsalar, ushbu yashash tarzi keyingilarga ham o'rnak va namuna bo'lmog'i Sunna ma'naviyatining o'zak tomiridir. Ammo zamon o'zgaruvchan, inson tabiati esa bequrur emas. Payg'ambarimiz vafotidan so'ng uning eng yaqin sahobalari, ul zot ishongan, tayangan, ko'ngil bog'lagan insonlar orasida nafaqat ichki raqobat, bahs va kelishmovchiliklar, balki qonli to'qnashuvlar, rosmana janglar sodir bo'ldi. Birgina payg'ambarimiz risolatiga birinchilardan bo'lib imon keltirgan hazrat Ali bilan boshqa bir guruh, ya'ni Talxa, Zubayr kabi sahobalar orasida yuz bergan jiddiy to'qnashuv, unda Talxa va Zubayrning halok bo'lishi bilan aloqador hodisalarni misol keltirsak, shuning o'ziyoq voqelikning naqadar murakkab ekanligiga guvohlik beradi. Buning ustiga payg'ambarimiz hayotlik davrlariga nisbatan keyingi asrlarda mintaqasi xalqlari ijtimoiy takomilida katta o'zgarishlar yuz berdi, ularni inkor etish, Rasululloh davridagi musulmlar ummasining hayot tarziga to'liq qaytish, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar taqozosini tan olmaslik keyingi asrlar mintaqasi ahli uchun imkondan tashqari edi. Bundan tashqari Sunna bosqichida Rasululloh ibrati ko'pgina savollarga bevosita javob topish imkonini bergan bo'lsa, keyinroq borib, birmuncha murakkabroq, jiddiy fikr yuritishni talab qiladigan muammolar paydo bo'la boshladi. Natijada aql bilan, aniqrog'i mantiqiy tafakkur bilan ish olib borishga ehtiyoj

kuchaydi. Masalaning yana boshqa jihati ham borki, Sunna bosqichi — ibrat yo'li. Agar ilm bo'lmasa, ibrat taqlidga aylanish xavfi bor. Taqlidchilik esa islomda doim qoralanadi. Shunday ekan, ma'rifatchilik davr taqozosi, hayotiy ehtiyojdir.

Asli bu ehtiyoj payg'ambar hadislarini to'plash jarayonidan ularni mavzular bo'yicha tasniflash jarayoniga o'tishdayoq, ya'ni Malik ibn Anas, Imom Muhammad ash-Shaybon, keyincha Imom Buxoriy, Imom at-Termiziy kabi muhaddis ulamolalar faoliyatida ayon bo'la boshlagan edi. Ammo muhaddislar faoliyati baribir ularning tafakkur qudrati natijalarini yordamchi mavqeda ushlab turar, mazmun jihati asosan hadislarining o'zida mujassam edi. Shu bilan birga islomda sof diniy maqsadlarda ham mantiqiy tafakkurga tayanish ehtiyoji avval boshdanoq mavjud bo'lgan. Buning sabablaridan yana biriga to'xtalib o'tsak.

Sodda bir mushrikni tavhid imoniga keltirmoq uchun, agar Alloh taolo uning dil ko'zini berkitmagan, ma'nan quloqlarini kar qilmagan bo'lsa, Qur'on oyatlarining Payg'ambarimiz va sahobalar tafsiri va talqinidagi bayoni, musulmon jamoasi qo'lga kiritgan siyosiy va ma'naviy yutuqlar ibrati balki kifoya qilar. Ammo islomdan ilgari shakllangan o'ziga xos mukammal tizimga ega bo'lgan diniy ta'limotlar, jumladan, Mazdayasna (zardushtiylik), Veda kitoblari asosidagi hindaviylik, buddaviylik, masihiylik va hokazolar har biri mintaqa xalqlarining azim bir guruhini o'ziga jalb etgan bo'lib, ushbu eski aqidalar etagini mahkam tutgan shaxslar VIII–IX asrlarda mintaqada ko'pchilikni tashkil etardi. Ularni majburlab, qilich bilan yangi e'tiqodga jalb etish oxir-natijada qoniqarli bo'lmasligi ayon edi. E'tiqod zo'rlik bilan bo'lmaydi. Xullas, Sunna axloqi musulmlar jamoasining ichki muvozanati va intizomi uchun zarur bo'lsa, mintaqa va jahondagi o'zga ta'limotlar, o'zga aqida tizimlarini ma'nan yengib o'tish uchun endi mantiqiy tafakkur qudrati lozim edi. Darhaqiqat, IX asrda Eronda, qisman, Movarounnahr va Xurosonda, Mazdayasna e'tiqodi hanuz keng urf bo'libgina qolmay, hatto bu ta'limot xususida bugungi kungacha yetib kelgan muhim asarlar yaratilgani bizga ma'lum. Xuddi shu davrda Sharqiy Turkistonda monaviylik bid'ati va buddaviylik e'tiqodi ruhida turkiy tilda boy adabiyot yaratildi. Kishilar ongiga asrlar mobaynida o'rnashib kelgan bu singari ko'hna aqidalar yangi izchil Tavhid e'tiqodi bilan almashishi uchun Sunna an'anasi kifoya qilmas edi. Bu kurashda xolis ilmiy bahs quroli bo'lmish mantiqiy tafakkur qudrati o'ta zarur edi. Demak, Tavhid ta'limotining taraqqi-

yotida ma'rifatchilik bosqichi har jihatdan tarixiy zarurat bo'lib, bu yo'nalishdagi harakat Sunna bosqichi hali yetakchi mavqe egallab turgandayoq boshlangani sir emas.

Islom ma'rifatchiligi haqida gapirishdan oldin yana bir masalaga oydinlik kiritib olish lozim. Nega islom mintqa ma'naviyati rivojining birinchi davrini Sunna bosqichi deymiz va uni IX asr bilan yakunlaymiz? Chunki ushbu asrda yashab, faoliyat ko'rsatgan 6 buyuk muhaddisning bajargan ishlari nihoyasiga yetmay turib, keyingi bosqichga o'tib ketish ma'naviy takomil mantiqiga to'g'ri kelmas edi. Qur'oni karimning qonunlashtirilgan matni tayyor bo'lib, undan nusxalar ko'chirilgach, Rasululloh hadislarini to'plash, tartibga keltirib, ularning ishonchli to'plamlarini ("Jome' as-sahih") tuzish imkoni paydo bo'ldi va keyingi 2 asr shunga sarf bo'ldi. Shunga qiyosan aytish mumkinki, 6 buyuk muhaddis imomlarning ishonchli hadis to'plamlari hozirgi mavjud holatida tartib berilmay turib, Tavhid ta'limotining aqlga, mantiqiy tafakkurga tayanuvchi talqinlariga urinish nomukammal xulosalarga olib kelishi mumkin edi. Mu'tazila yo'nalishining yanglishuvlari bunga misol bo'la oladi. Ammo hayot murakkab, inson izlanishlari nazariy mukammalliklarni kutib turmaydi. Yangi bosqichdagi yetakchi yo'nalishlarning deyarli barchasi buyuk muhaddislar faoliyati bilan bir zamonda, ya'ni IX asrda paydo bo'la boshladi.

2-fasl. Borliq haqiqatini anglab yetishning turli yo'nalishlari

Xullas, ikkinchi bosqichda aqlga, mantiqiy tafakkurga tayanish natijasida haqiqatni anglab yetishning turli muvoziy (parallel) yo'nalishlari shakllana boshladi. Sunna doirasidagi mazhablarga qaraganda endi bu davrda shakllangan fikriy oqim va yo'nalishlarning o'zaro farqi anchamuncha sezilarli tus olgan va o'zaro munozara ham kuchaygan edi. Bu davrning katta-kichik oqimlari nihoyatda ko'p bo'lganligi sababli biz faqat eng muhimlarigagina to'xtalib o'tamiz. Ularni tanlashda o'z bilгимizcha ish ko'rmaslik uchun ushbu davrning eng nufuzli namoyandalaridan bo'lmish Imom Abu Hamid G'azzoliy (1058–1111) hamda mutafakkir shoir va olim Umar Xayyom (1048–1122) sanab o'tgan yo'nalishlarning o'ziga diqqat qaratsak, kifoya qilsa kerak. Chunki bu davr islom mintqasining tafakkur olamini qamrab olish uchun o'nlab emas, balki yuzlab jildlar bitish kerak bo'ladi va bu gaplar aslo mubolag'a emas.

Eng ajoyibi shuki, davrning eng muhim yo'nalishlarini ajratib

olishda buyuk mutakallim G‘azzoliy va buyuk faylasuf va tabiiyunchi (tabiiy fanlarni o‘rganuvchi) Umar Xayyom mutlaqo bir xil xulosaga kelganlar. Demak, bu xulosa ko‘p jihatdan o‘sha davrda mavjud haqiqatni aks ettirgan, deyish mumkin.

Islom ma‘rifatchiligi davrining eng buyuk allomalaridan bo‘lmish Imom Abu Hamid Muhammad bin Muhammad al-G‘azzoliy haqida uning muxlislari “Agar Muhammaddan keyin payg‘ambar bo‘lishi mumkin bo‘lganda, albatta G‘azzoliy bo‘lur edi”, deb mubolag‘a qilishlari bejiz emas. Ushbu muhtaram zot islom mintaqa ma‘naviyatining o‘zidan oldingi 5 asrlik takomilini o‘z asarlarida teran xulosalab, yangi yo‘nalishlarni belgilab bera olgan buyuk ustozdir. “Al-Munqiz min ad-dalal” (“Adashuvlardan qutqaruvchi”) asarida Imom al-G‘azzoliy yozadi: “Menda shunday tasavvur shakllandiki, Haqiqatni izlovchilar toifasi to‘rt guruhga bo‘linadilar:

1. Mutakallimlar...
2. Botiniylar...
3. Faylasuflar...
4. So‘fiylar...”¹.

Umar Xayyom ham o‘zining “Darxostnoma” (“So‘ralgan narsa haqida kitob”) risolasida ushbu yo‘nalishlarni o‘zgarishsiz qaytaradi, ya‘ni mutakallimlar, faylasuflar, ismoiliylar (ya‘ni botiniylar) va so‘fiylarni u ham sanab o‘tadi².

Albatta, har bir yo‘nalishning ta‘rifi har ikki allomada bir xil emas, chunki ularning dunyoqarashida o‘zaro jiddiy farqlar mavjud edi. Har ikki olimning tasnifi o‘zaro mos tushganligi avvalo islom ma‘rifatchiligi davriga xos bir ma‘naviy fazilatni muayyan aks ettiradi: bu davrga kelib islom mintaqa ma‘naviyatida nafaqat shariat ahkomlari talqinida turlicha qarashlar, balki yanada kengroq ma‘noda, ya‘ni Borliqning oliy haqiqatini izlashda bir-biridan jiddiy farq etuvchi turlicha yo‘nalishlar vujudga kelgan va ular ziyoli davralarda o‘zaro rasman tan olingan edi. Hozirgi zamon tiliga o‘girib aytganda, Sunna davrida islom e‘tiqodi aqidalari majmuyi bo‘lmish shariat doirasi bilan cheklangan talqinlar plyuralizmi (islom dinining besh mazhabi) shakllangan bo‘lsa, endi ikkinchi bosqichda Haqiqatni anglab yetishda turli

¹ Григорян С.Н. Из истории философии Средней Азии и Ирана. М., «Наука», 1960, s. 217 (G‘azzoliyning har bir guruhga bergan qisqacha ta‘riflarini tushirib qoldirdik – muallif)

² Морочник С. Б., Розенфелд И. А. Омар Хайям. Поэт, мыслитель, ученый. Сталинабад, 1957, с. 207–208.

oqim va yo'nalishlar (Tavhid ta'limoti doirasidagi turlicha qarashlar) plyuralizmi vujudga keldi. Ushbu hodisa hurfikrlik an'analari islom mintaqa ma'naviyatida X–XI asrlardan yanada keng rivoj ola boshlaganini anglatar edi.

a) kalom ilmining rivojlanishi va Moturidiy merosining ahamiyati

Asli islom ma'rifatchiligi bosqichida keng rivoj olgan ko'pchilik oqimlar Ummaviylar davridayoq mustaqil bo'lib, ajralib chiqqan mo'tazila diniy falsafasining ma'naviy ta'siri ostida yuzaga keldi desak, mubolag'a bo'lmaydi. O'z davrida Basra qozisi bo'lmish yirik va mashhur din arbobi Hasan al-Basriy (642–728)ning salohiyatli shogirdi Vosil ibn Ato (699–748) bir masalada ustoz bilan bahslashib qolib, tarafdorlari bilan uning suhbatini tark etadi va yangi mustaqil yo'nalishga asos soladi. I'tazala (tark etish) so'zidan kelib chiqqan holda bu oqim mo'tazila degan nom oladi. Vosil ibn Ato tegishli deb hisoblanuvchi kitoblarning biri "At-Tavhid va-l-Adl" deb nom olgan. Keyingi asrda uning izdoshlari Muammar b. Abbod (vafoti 830-yil), Abu Is'hoq an-Nazzom (vafoti 845), Abu Xuzayl al-Allof (749–849) va boshqalar mo'tazilaning 5 asosiy qoidasini ishlab chiqdilar. Ularning birinchisi Al-Adl (Allohning adolati) va ikkinchisi At-Tavhid (Allohning yagonaligi) bo'lib, bu ikki tushuncha islom mintaqa ma'naviyatining keyingi rivojida yetakchi g'oyalarga aylandi. Mo'tazila ta'limoti Alloh adolati deganda mavjud voqelikning muayyan qonuniyatlar asosida rivojlanishi va inson irodasining erkinligi kabi o'ta muhim qoidalarni nazarda tutardi. Allohning mutlaq yagonaligi (At-Tavhid) qoidasi esa, mo'tazila talqinida Yagona ilohiy zotni tasavvur etishda asotir tafakkurning butun qoldiq unsurlari, ayniqsa, Alloh taolo zotiga insonga xos sifatlar (ko'z bilan ko'rish, quloq vositasida eshitish, qo'l bilan yaratish yoki tutib turish, aql bilan bilish kabilar) nisbat berilishini (ya'ni antropomorfizmi) to'liq inkor qilardi. Mo'tazilaga shuhrat keltirgan va uni bid'at sifatida qoralanishining bosh sabablaridan bo'lgan "Qur'onning yaratilganligi" ("Hudus al-Qur'on") haqidagi o'ziga xos nuqtayi nazar ham bu yo'nalishning mantiqiy tafakkurga tayanganligiga ishora qiladi. Kalom yo'nalishining dastlabki yirik oqimi bo'lgan mo'tazila shaktsiz diniy falsafa edi, ya'ni din aqidalarini aql tarozisida o'lchab talqin etishga asoslangan edi, ammo bu oqim vakillari islomning eng muhim ikki masalasi – Adolat va Tavhid tushunchalari talqinida shu darajada ilgari ketdilarki, ular izidan islom ma'rifatchiligining buyuk to'liqini

- kelishi davrning mantiqiy taqozosi bo'lib qoldi. Xalifa Ma'mun (813–833) davrida islomning mo'tazila talqini rasmiy ta'limotga aylandi va hatto Qur'onning yaratilganligi haqidagi qarashga qo'shilmagan ruhoniylar tazyiq ostiga olina boshlandi. Bu holat chorak asr davom etdi. Nihoyat 849-yilda xalifa Mutavakkil (847–866) Qur'onning yaratilganligi haqidagi bahslarni taqiqlash haqida farmon chiqardi. Endi mo'tazila oqimi vakillarining o'zlari quvg'in etildilar. Ammo fikr to'xtab qolmadi, mo'tazila oqimi ham yo'q bo'lib ketmadi. Xalifa Ma'mun homiyligida Bag'dodda shakllangan “Baytul-hikma” (Donishmandlik uyi, hozirgi til bilan – Akademiya) doirasida tabiiy fanlarni o'rganish keng yo'lga qo'yildi. Bizning yurtdoshlarimiz Muhammad ibn Muso Xorazmiy (780–850), Ahmad Farg'oniy (vafoti 861-yil) va boshqalar bu davr islom mintaqa madaniyatining faxri edilar.

Kalom falsafasi Tavhid ta'limotini mintaqadagi barcha eski aqidalar majmuyidan har tomonlama ustunligini aql va mantiq qudrati bilan isbotlab bergach, islomning ma'naviy mavqeyi beqiyos yuksalib ketdi, shu bilan birga Qur'oni karim oyatlarida ta'kidlangan tarixiy tadrijiylik qoidasi chuqurroq idrok etila boshlandi. Allohning oxirgi kitobi keltirgan ma'naviy boylikni teran anglab yetish uchun islomgacha yaratilgan butun madaniy merosni chuqur o'rganish va to'g'ri talqinda o'zlashtirish lozimligi ma'lum bo'lib qoldi. Bu bilan islom ma'rifatchiligi bosqichining ikkinchi muhim xususiyati – o'tmish merosni o'rganishga jiddiy kirishish va uni yangicha asoslarda anglab yetish harakati har taraflama rivojlandi. IX asrdayoq keng miqyosda tarjima-chilik faoliyati boshlanib, Xunayn ibn Is'hoq (810–873), Sobit ibn Kurra (886–901) kabi atoqli va sermahsul tarjimonlar, butun-butun oilaviy tarjima-chilik maktablari yetishib chiqdi. Qadim Yunon falsafiy merosi deyarli to'liq arab tiliga tarjima qilindi. Qadim Suriya, Bobil, Eron, Hind va boshqa o'lkalarda yaralgan muhim manbalar arab tiliga o'girildi. Adabiy va tarixiy asarlar, jumladan, Eron va Turon tarixiga oid manbalar ham tarjima qilindi. Og'zaki badiiy adabiyot namunalarini yozib olish va tartibga solib, mavzular asosida to'plamlar tuzish avj oldi. Bu ishlarning ko'pi davr ziyolilarining fidokorona mehnati va tashabbusi bilan amalga oshirilardi.

Xorun ar-Rashid, Ma'mun kabi yirik davlat arboblardan tortib turli o'lka va viloyat hokimlari, noiblari, vazirlar, turli darajadagi zodagon guruhlarining bu boradagi xizmatlarini ham nazardan qochirmaslik lozim. Sunna davridayoq islom hukmdorlari, oliy tabaqa vakil-

lari o'rtasida ziyo ahlini saroyga jalb qilish, shoirlar, muarrixlar, muhajjimlar, faqihlar, tib olimlari, hatto riyoziyot (matematika), handasa (geometriya), adab ilmi (filologiya va ritorika) namoyandalarini atrofga to'plab, ularning ilmiy faoliyatini moddiy rag'batlantirish keng urf bo'la boshlagan edi.

Ammo bir haqiqatni qayd etib o'tish kerakki, Sunna va hadis ilmining buyuk ustozlari doimo saroydan o'zlarini chetga tortib keldilar, Abu Hanifa va Imom Buxoriy kabi islom olamining eng yorqin siymolari hatto qozilik vazifasini bajarishga rozilik bermadilar. Ma'rifatchilar saroy homiyligi bo'lmasa, maqsadlariga erisha olmas edilar. Chunki tabiiy fanlar va o'tmish merosni jiddiy o'rganish uchun butun umrni bag'ishlash, bundan tashqari turli moddiy xarajatlarni qoplash kerak bo'lar edi. Shu sababli islom ma'rifatchiligi namoyandalarining ko'pchilik yirik vakillari saroyda, saroy bilan bog'liq holda yoki saroyga yaqin doiralarda ijod qilishdi.

Mo'tazila oqimi boshlab bergan Kalom falsafasiga X asrdan yana ikki mustaqil yirik oqim kelib qo'shildi. Ularning birinchisi ko'pchilikka ma'lum bo'lgan ash'ariya oqimi bo'lib, asoschisi Abulhasan Ali bin Ismoil al-Ash'ariy (873–935) nomi bilan shuhrat qozondi. Al-Ash'ariy o'zi Basrada mo'tazila oqimining o'sha davrdagi yetakchi ustozlaridan Abu Ali al-Jubboyi (vafoti 915-yil) qo'lida ta'lim olgan bo'lib, ustozi begona emas, Abulhasanga o'gay ota bo'lar edi. Ammo 912–913-yillarga kelib, al-Ash'ariy mo'tazila oqimidan uzoqlashib, Bag'dodga ko'chib o'tdi va o'zi yangi mustaqil ta'limotga asos soldi. IX asrda mo'tazila oqimi shakllanayotgan paytda hali yunon fayla-suflarining merosi arab tiliga mukammal o'girilgan emas edi. Shu sababli aytish mumkinki, Tavhid ta'limotining mo'tazila talqini nisbatan mustaqil mantiqiy tafakkurga tayangan edi. Ammo al-Ash'ariy davriga kelib, Aflotun va Arastu kabi ulug' yunon faylasuflari izidan boruvchilar paydo bo'lib, arab tilidagi mustaqil islom falsafa maktabi shakllana boshlagan va bu sohada yangilik yaratish qiyinlashgan edi.

Al-Ash'ariy o'z ta'limotini yaratishda Demokritning atom haqidagi nazariyasidan foydalangani haqida ilmiy doiralarda mulohaza yuritiladi. Ammo Al-Ash'ariyning eng asosiy asarlari bevosita bizgacha yetib kelmagani sababli bu haqda aniq xulosalar qilish qiyin. Yaqin o'tmishda ash'ariya oqimi reaksiyona hisoblanib, avval falsafaga, keyin mo'tazilaga ham qarshi qo'yib kelindi. 80-yillar oxiridan boshlab, bunday yondoshuv uncha to'g'ri emasligi, mo'tazila va ash'ariya oqimlari orasida

farqlargina emas, umumiy jihatlar ham ko'p ekanligi ko'pchilikka ma'lum bo'lmoqda. Bu oqimning keyingi namoyandalari ichida Al-Baqilloni (vafoti 1013-yil), Abu Is'hoq al-Isfaro'ini (vafoti 1027-yil), Al-Juvayniy (vafoti 1085-yil), Ash-Shahristoniy (vafoti 1153), Faxridin Roziy (vafoti 1209-yil) kabi ulug' allomalar ijodi jahon il-mida ko'plab maxsus tadqiqotlar mavzuyi bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, oxirgi ikki buyuk zot ijodi alohida e'tiborga sazovor bo'lib, ularda falsafa va Kalom yo'nalishlarining yaqinlashuvi kuzatiladi.

Abulhasan al-Ash'ariy bilan deyarli bir vaqtda bizning yana bir buyuk yurtdoshimiz Abu Mansur Muhammad bin Muhammad al-Hanafiy as-Samarqandiy al-Moturidiy (870–944) Kalom ilmining uchinchi mustaqil oqimi moturidiyaga asos soldi. Alloma tavallud topgan Moturid qishlog'i hozirgi kunda Samarqand shahrining bir mahal-lasiga aylangan. Yosh Abu Mansur Muhammad Samarqandda hanafiya mazhabi faqihlari qo'lida ta'lim oldi va keyincha o'sha yerda o'zi ham mudarrislik qilib, fiqh va Kalom ilmini talabalarga o'rgatdi. Olimning asosiy asarlaridan "Kitob ut-Tavhid" va "Kitob ta'vilat al-Qur'on" asarlari bizgacha yetib kelgan. Moturidiyning qabri Samarqandning mashhur ziyoratgohlaridan, yuzlab ulug' allomalarning xoki poklari joy olgan Chokardiza mozorida bo'lib, sobiq totalitarizm zamonida (1948-yildan keyin) atayin buzib tashlangan bu tabarruk qabriston mustaqillik sharofati bilan qaytadan obod qilindi. Moturidiya oqimi ash'ariyadan ba'zi masalalarga munosabati jihatidan jiddiy farq qiladi. Masalan, insonning iroda erkinligi, ya'ni o'z harakatlarida sohibi ixtiyor ekanligi moturidiya oqimida tan olinadi. Moturidiya oqimi hanafiya mazhabi doirasida, ash'ariya esa shofe'iyalar orasida yoyilgan bo'lib, 1040–1044-yillarda Bag'dod va Samarqandda bu ta'limotlar rasmiy islom aqida va arkonlari sifatida tan olindi va hayotga joriy etildi. Moturidiya oqimining insonni sohibi ixtiyor deb hisoblashi va inson aqli yaxshilik va yomonlik (xayr-u sharr)ni bir-biridan ajrata oladi, deyishi ash'ariyadan farqli ravishda Movarounnahr va Xurosonda keyingi (XII–XV) asrlarda ilm-fan ravnaq topishiga yo'l ochdi. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi musulmon Sharqida yetishib chiqqan islohotchi ulamolar (Muhammad Abdu, Abdurahmon al-Kavkabiylar) Imom Moturidiy ta'limotiga asoslanib, shariatdan chekinmagan holda islom dunyosini aqlga tayanib, zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan foydalanib va ularni taraqqiy ettirib, islom jamiyati olg'a rivojlanishi zarurligini nazariy asoslab berganlar, zamon

talabiga javob beruvchi fatvolar chiqarganlar. Bu yoʻnalish Shayx Sayid Jamoliddin al-Afgʻoniy, Ismoilbey Gʻaspirali, Mahmudxoʻja Behbudiy kabi ilgʻor islom ulamolari faoliyatida yanada keng avj oldi.

b) botiniya taʼlimoti va “Ixvon us-safo” ensiklopediyasi

Islom maʼrifatchiligi bosqichining ikkinchi yirik yoʻnalishi botiniya boʻlib, uning asosida ismoiliya bidʼati yotadi. Shia mazhabidan ajralib chiqqan bu bidʼat namoyandalari boshqa shialar kabi oltinchi imom Jaʼfar as-Sodiq (700–765) ning kichik oʻgʻli Muso al-Kozim (vafoti 799-yil) ni emas, katta oʻgʻli Ismoilni imomlikdagi vorisi deb tan oladilar (Ismoil bin Jaʼfar otasi hayot chogʻida 762-yilda vafot etgan). Misrda Fotimiylar davlat tepasiga kelgach (909-yil), ismoiliylarning mintaqa boʻylab faoliyati avj oldi va taʼsiri ham kuchaydi. Davr aql va mantiqiy tafakkur davri edi. Shunga munosib ravishda ismoiliya bidʼati targʻibotchilari oʻzlarining murakkab falsafiy tizimini ishlab chiqdilar. Ular bilimni zohiriy (tashqi) va botiniy (ichki) darajaga ajratdilar. Zohiriy bilim avom uchun moʻljallangan boʻlib, asosan shia mazhabi shariat ahkomlariga mos kelardi. Botiniy bilim esa faqat tanlangan tor doira – xoslar orasidagina tarqalishi nazarda tutilar va borliqni idrok etishning murakkab falsafiy tizimidan iborat edi. Botiniy bilimlar qomusi sifatida shuhrat qozongan buyuk meros – X asrda yaratilgan 52 risoladan iborat “Rasoili ixvon-us-safo va xullon ul-vafo” (“Pok birodarlar va vafodor doʻstlar risolalari”) majmuasi boʻlib, bu majmuada 14 risola riyoziyot (matematika)ga, 17 risola tabiiy fanlarga, 11 kitob Oliy haqiqat sirlari va yana 10 kitob diniy masalalarning mantiqiy tahliliga bagʻishlangan edi.

Bu mukammal qomus islomgacha hosil boʻlgan ilmiy-falsafiy merosni chuqur oʻzlashtirish asosida yuzaga kelgan boʻlib, mintaqa ilmining keyingi rivojiga katta taʼsir koʻrsatdi. Botiniya yoʻnalishi asosan ismoiliya bidʼatiga bogʻlab talqin etilsa ham, aslida oʻsha davrlarda koʻpchilik rasmiy aqidaga muxolif qarashlar shu nom ostida umumlashtirib talqin qilinganligini ham nazardan qochirmasligimiz kerak. “Pok birodarlar” guruhidan tashqari ismoiliyaning An-Nasafiy (942-yilda oʻldirilgan), Al-Kirmoniy (vafoti 1021-yil) singari boshqa mashhur nazariyotchilari ham fanga maʼlum. Movarounnahrda ismoiliya bidʼatini targʻib etgan eng buyuk shaxs shoir va mutafakkir Nosir Xusrav (1004–1088) boʻlib, u Pomir togʻlari bagʻridagi mashhur Badaxshon oʻlkasidan edi. U ismoiliya qarashlarini jiddiy falsafiy ruhda talqin qilib, ayniqsa, ijtimoiy adolat masalalariga alohida diqqatini qaratdi.

d) falsafa yo'nalishi: ustodi soniy Forobiyning jamiyat haqidagi qarashlari

Uchinchi, aytish mumkinki, aql qudrati va mantiqiy tafakkurga tayangan eng yirik va eng teran yo'nalish – islom falsafa maktabi bo'lib, bu yo'nalish tabiiy va aniq fanlarni o'rganish bilan bevosita bog'lanib ketadi. IX asrdayoq falsafa yo'nalishining birinchi yirik vakili Al-Kindi (800–870) ijod etganligi ma'lum. IX asrga kelib, bu sohada ham eng buyuk allomalar yana bizning yurtimiz yoki, kengroq olganda, Movarounnahr va Xurosondan yetishib chiqqa boshladi. Avvalo, yurtdoshimiz Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug' Tarxon Forobiy (873–950) ni esga olish joiz. U Forobda turkiy elatdan bo'lgan harbiy oilasida tug'ildi. Shosh, Buxoro, Samarqand shaharlarida ta'lim olib, so'ng Rey, Isfahon, Hamadon shaharlarini bosib o'tib, Bag'dodga kirib bordi. 70 dan ortiq tilni, o'z davrigacha yaratilgan ilmiy-falsafiy boylukni chuqur o'zlashtirdi. Forobiy saroy doiralariidan iloji boricha o'zini uzoq tutgan, kamtarona hayot kechirgan, faqat umrining oxirida Xalab hokimi Sayfuddavla (943–967) iltifotiga sazovor bo'lib, uning homiyligida birmuncha barakali ijod qilishga muyassar bo'lgan. Arab dunyosining Misrdan tortib ko'p shaharlarini kezib chiqqan alloma Damashq shahrida vafot etgan va o'sha yerga dafn etilgan.

Forobiy 160 dan oshiq asar yozgan qomusiy bilim sohibi edi. U yunon faylasuflari merosini chuqur o'rganib, ularga sharhlar yozdi. Ayniqsa, Arastuning murakkab falsafiy asarlarini batafsil sharhlab berdi. Uning sharhlari asosida katta bir guruh allomalar yunon falsafa maktabi mazmunini yangicha talqinda o'zlashtirdilar. Bundan tashqari Forobiy ilmning turli yo'nalishlari bo'yicha (falsafaning umumiy masalalari, bilish nazariyasi, fanlar tasnifi, matematika, astronomiya, musiqa, adabiyot nazariyasi, notiqlik san'ati, fizika, kimyo, tibbiyot, biologiya, etika, pedagogika, huquqshunoslik, davlatni boshqarish nazariyasi, siyosatshunoslik va boshqa turli sohalarda) mustaqil risolalar yaratdi.

Insonning baxt-saodatga erishuvi, fozil jamiyat va uning hukmdori haqidagi Forobiy olg'a surgan g'oyalar keyingi asr allomalari tomonidan yanada rivojlantirilib, insoniyat tarixini to'g'ri tushunish va talqin qilishda yangicha yondoshuvlarga asos soldi. Forobiy merosi XII–XIII asrlardayoq lotin, qadimiy yahudiy va boshqa tillarga tarjima qilinib, Yevropa xalqlari ma'naviyatini boyitishga xizmat qildi.

Forobiy va uning ijodiy faoliyati haqida katta monografik risolalar o'zbek tilida bosilib chiqqanligi uchun bu haqda ortiqcha ta'rif shart bo'lmasa kerak. Faqat bir narsaga e'tibor berishni bugungi kun taqozo qiladi. Allomaning borliq haqidagi yaxlit tasavvuri va talqinlari sovet davri hukmron mafkurasi talablaridan kelib chiqib ko'p jihatlardan chalkash talqin etilgan.

Forobiy sof falsafiy Tavhid ta'limotini yaratishni niyat qilgan, desak to'g'riroq bo'lar. Uning mulohazalari islomdan tashqarida emas, balki ilohiy kitobda ta'kid etilgan Tavhid ta'limotini to'g'ri talqin etishga tomon yana bir pog'ona yuqoriroq ko'tarilish, deyish ma'qulroq ko'rinadi. Shu o'rinda Arastu va Forobiy, kengroq olsak, qadim Yunon mumtoz falsafasi va islom ma'rifatchiligi davri bilan Tavhid falsafasi orasidagi nisbat haqida ba'zi mulohazalarga ehtiyoj seziladi. Nega islom ma'rifatchilari Homerning badiiy ijodiga yoki Esxil va Sofokl tragediyalariga kamroq e'tibor berib, Aflotun va Arastu falsafasiga ayricha diqqat qaratdilar? Avval musulmon mutafakkirlari yunon badiiy adabiyotidan xabardor bo'lmaganlar deb faraz qilindi, ammo bu noto'g'ri bo'lib chiqdi. Bizning nazarimizda, masalaning mohiyati boshqacharoq. Ma'lumki, qadim yunon madaniyati asotir tafakkur bosqichida (fikrlash tarziga ko'ra olganda "Avesto" madaniyatining mantiqiy davomi sifatida) shakllangan. Shu sababli u davr badiiy adabiyoti ham xalqqa yaxshi ma'lum bo'lgan asotir timsollarga tayanib yaratilgandir. To Aflotun falsafasiga qadar biz shu holatni mushohada qilamiz. Aflotun falsafasida asotir timsoliy qobiq yoki po'stloqqa aylangan. Asl idealizm — bu Aflotun falsafasidir. Undagi ideyalar olami haqidagi tasavvur asotir tafakkur qobig'ida yangi bir dunyoqarash — borliqning falsafiy talqini yaralib kelayotganidan darak berardi.

Forobiyni va umuman, X–XI asr musulmon donishmandlarini Arastu falsafiy merosiga jazb etgan narsa xuddi shu holat, ya'ni asotir tafakkurni sof falsafiy dunyoqarash yengib o'tganligi bo'lsa, ajab emas. Shu nuqtayi nazardan Arastu qarashlari Borliq haqiqatini ochiq ko'z bilan, ya'ni sof aql ko'zi bilan idrok etishdagi birinchi qadam bo'lib, Forobiy talqinida bu qarashlar sohibi Birinchi muallim nomini oldi. Talqin etuvchining o'zi esa Ikkinchi muallim ataldi. Shu o'rinda yana Navoiy yaratgan timsollar yodga tushadi. Suqrot Farhodni ming yil kutganini aytadi. Arastu merosi ham turk yigiti Abu Nasr Muhammadni 14 asr kutdi. Islomgacha ahli bashar falsafiy tafakkuri avj nuq-

tasi bilan Tavhid falsafasining sof aqlga tayangan ifodasi tutashuvi shu tariqa amalga oshdi.

Forobiy timsolida milliy tafakkurimiz umumbashariy miqyosga ko'tarildi, ya'ni Forobiy falsafasi o'zidan oldingi umumbashariyat mantiqiy tafakkurining cho'qqisi — Arastuning borliqni idrok etish darajasiga yetishib, undan ilgari ketdi. Islom Tavhid falsafasining Forobiydan keyingi taraqqiyoti butun bashariyatni tafakkur taraqqiyotida yangi pillapoyalardan yuqori olib chiqib keta boshladi. Abu Abdulloh Xorazmiy (vafoti 997-yil), Abu Ali ibn Sino (980–1037), Abu Rayhon Beruniy (973–1048) kabi yurtdoshlarimiz merosi ushbu yuksalish pillapoyalarining ayrim bo'g'inlarini tashkil etadi, deb bemalol aytish mumkin.

Ilmiy adabiyotda arab tili urf bo'lgani uchun turkiy adabiyot badiiy ijodga ijtimoiy va falsafiy qarashlarni olib kira boshladi. Behuda emaski, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni (1069-yilda yozilgan) ko'p jihatdan zamondoshi Abu Ali ibn Sinoning falsafiy va ijtimoiy tafakkuri darajasiga uyg'un keladi.

Forobiydan boshlab Ibn Sinogacha barcha faylasuflarimiz qomusiy bilim egasi edilar. Beruniy umumfalsafiy mulohazalar bilan kamroq shug'ullanib, ko'proq turli muayyan ilm sohalariga ahamiyat bergan bo'lsa, Ibn Sino ham aniq va amaliy bilimlar sohasida, ham sof falsafiy mushohadalarda yuksak cho'qqilarni zabt etdi.

Shu o'rinda Forobiy va Ibn Sino falsafasi orasidagi aniq ko'rinib turgan farqni qayd etib o'tish mintaqa ma'naviyati taraqqiyotidagi o'zgarishlarga e'tiborimizni jalb etishi mumkin. Forobiy X asr birinchi yarmida ijod etdi. Uning falsafiy tafakkuriga tasavvuf ta'limotining jiddiy ta'siri sezilmaydi. Ammo Ibn Sino merosidagi "Hayy ibn Yaqzon", "Solomon va Ibsol", "Qush risolasi", "Ishq haqida risola" kabi qator asarlarda tasavvufga oid muammolar ko'tariladi va ularga falsafiy javoblar izlanadi. Masalaning jiddiy muhokamasiga kirishmagan holda aytish mumkinki, bu o'zgarish bejiz emas edi.

e) tasavvufiy qarashlarning shakllanishi

Tasavvuf ta'limoti ham islomning dastlabki asrlaridayoq paydo bo'la boshlagan bo'lib, avval taqvoga o'ta qattiq rioya qilish, nafl ibodatlariga berilish bilan ko'zga tashlangan bu yo'nalish VIII asrga kelib, Robiyayi Adaviya siymosida ilohiy ishqni ulug'lashni birinchi o'ringa chiqardi. IX asrdan Zunnun Misriy (vafoti 859), Xoris Muhosibiy (791–857), Boyazid Bistomiy (vafoti 875-yil) kabi so'fiy shayxlari tasavvuf nazari-

yasiga ilk poydevor toshlarini qo‘ya boshladilar. IX asr oxiri X asr boshlarida Junayd Bag‘dodiy (vafoti 910-yil), Mansur Xalloy (858–922) kabi mashhur siymolar yetishib chiqdi. X asr oxirida tasavvuf bo‘yicha ilk umumlashtiruvchi kitoblar “Kitob al-luma‘ fi-t-tasavvuf” (Abu Nasr Abdulloh ibn Ali Sarroj – vafoti 988-yil), “Kitob at-taarruf li mazhab-ul-tasavvuf” (Muhammad ibn Ibrohim Buxoriy Kalobodiy – vafoti 995-yil) kabilar yozildi. Tasavvuf ta‘limotining keng yoyilishi XI asrdan boshlandi, deyish mumkin. Bu asr tasavvuf nasriy adabiyotining yirik vakili – Alisher Navoiy tarafidan “piri Hirot” deb ulug‘langan Abdulloh Ansoriy (1006–1089), fors tilida ijod etgan xalqchil tasavvuf she‘riyati vakillari Bobo Tohir Uryon, Abusayid Abulxayr (967–1049), Abdulhasan Xaroqoniy (vafoti 1033-yil), Bobo Kuhiy (vafoti 1050-yil), tasavvuf haqida turli risolalar mualliflari Kushayriy (987–1073), Hujviriyy (vafoti 1076-yil), As-Sulamiy (937–1021) va tasavvufning boshqa mashhur amaliyotchi va nazariyotchilari yashab o‘tgan davrdir. Bular ichida bizning diyor vakillari Arslonbob ota, Bob Farg‘oniy, Husam ota kabilar ham bor. Kengayib borayotgan bu yangi ma‘naviy jarayon aql va mantiqiy tafakkurni ma‘naviyat asosi deb bilgan, insoniylik mohiyatini avvalo aqliy bilimlarni o‘zlashtirish va ularni hayotga tatbiq etishda ko‘rgan islom ma‘rifatchiligi bosqichi namoyandalariga o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qo‘ymadi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik” dostonida zohid so‘fiy alohida timsol O‘zg‘urmish qiyofasida aks ettirildi. Ammo shunga qaramay, XI asrda hanuz islom ma‘rifatchiligi – faylasuflar, mutakallimlar, botiniylar, tabiiy va aniq fan allomalari, qisqasi, aql va bilimni birinchi o‘ringa qo‘yuvchilar yetakchilikni qo‘ldan bergan emas edilar. Bu davrga o‘z ijodi bilan yakun yasagan kishi ham aslida XI asr oxiridagi mantiqiy tafakkurning eng zabardast vakili Imom Abu Homid G‘azzoliy (1058–1111) bo‘ldi. G‘azzoliy nihoyatda baquvvat mantiqiy tafakkur egasi, faylasufdir. G‘arbda uni hatto materialistik tamoyildagi donishmand deb bilishgan. Buning sababi, olimning “Maqosid al-falosifa” (“Faylasuflarning maqsadlari”) asari bo‘lib, uni o‘qigan kishi, darhaqiqat, G‘azzoliyni ham Forobiy va Ibn Sino yo‘nalishidagi odam deb o‘ylashi mumkin. Bu kitob 1145-yildayoq lotin tiliga tarjima qilingan va arab tilida yozilgan islom falsafiy merosidan yevropaliklar birinchi navbatda shu kitob orqali xabar topishgan edi. G‘azzoliy haqida Hegel ham yuqori fikrda bo‘lgan.

Ammo G‘azzoliy keyingi “Taxofut al-falosifa” (“Faylasuflarning o‘z-o‘zini inkor qilishi”) asarida mantiqiy tafakkurning ichki ziddiyat-

larini, islom ma'rifatchiligi davri faylasuf allomalarining asarlaridagi o'zaro zid keluvchi o'rinlarni chuqur tahlil qilib berdi. G'azzoliy ko'proq mutakallim-faylasuf edi, ammo u asarlarida mutakallimlarni ham ayab o'tirgani yo'q, ular mantig'idagi zaif joylarni ham keskin fosh etdi. Alloma behudaga "Haqiqat izlovchilar"ning turli toifalarini sanab ko'rsatgan emas. Maqsad ularning qarashlarini birma-bir tahlil qilib chiqib, o'zaro ichki ziddiyatlarni aniqlash, oradagi mo'tadil muvozanat holatini topishga urinish edi. G'azzoliy faqat faylasuflar bilan emas, balki barcha yo'nalish vakillari bilan bahsga kirishadi, xristianlarning, botiniylarning (ismoiliya bid'ati vakillarining), so'fiylarning qarashlaridagi ifrotiy(ya'ni umumiy me'yordan chiqib ketgan) joylarini ilmiy tahlil asosida ochib beradi. G'azzoliyning tafakkuri turli nazariyalardagi ichki ziddiyatlarni teran ko'ra bilish qudratiga ega edi. Uning Sharqdagi eng mashhur va keng qamrovli asari "Ehyoyi ulum ad-din" ("Diniy bilimlarning qayta jonlanishi") bo'lib, bu asarda alloma o'z qarashlarini muntazam bir tarzda bayon etgan. G'azzoliyning falsafiy qarashlari islom mintaqa ma'naviyatining ma'lum bir bosqichi yakunlanib, yangi bosqich boshlanayotganidan yorqin bir nishona edi. G'azzoliy dunyoga kelgan davrda Saljuqiylar islom mintaqasining katta va muhim qismini qamrab olgan, mustahkam markazlashgan islom davlatini tuzishgan edi. Mintaqada harbiy kuch va hokimiyat to'liq turkiy sulola qo'lga o'tgan bo'lib, arab xalifalari faqat rasmiy diniy peshvolik hurmatini saqlab qolgan, turli davlat ishlarini boshqarishda esa ko'proq yangi fors tili qo'llanilar edi. Shu sababli ulug' vazirlarning ko'pchiligi fors tilida gaplashuvchilardan bo'lib, kelib chiqishi turkiy elat vakillari bo'lgan amaldorlar ham odatiy qoidaga ko'ra davlat ishlariga oid yozuvlarni fors tilida yuritar edilar. G'azzoliy Xurosonda turkiy va forsiy elatlar azaldan aralash yashaydigan Tus shahrida tug'ildi. U ukasi Ahmad bilan erta yetim qolishdi. G'azzoliy boshlang'ich ta'limni Tusda olgach, ilmini oshirish uchun Jurjon (Astrobod) va Nishopurga keldi va ash'ariy oqimining atoqli namoyandalaridan Imom al-Haramayn (ikki muqaddas dargoh imomi) deb shuhrat topgan mutakallim al-Juvayniy (vafoti 478/1085) qo'lida to uning vafotigacha ta'lim oldi.

Kuchli mutakallim va fiqh olimi bo'lib yetishgan G'azzoliy ulug' vazir Nizomulmulk (1063–1092)ning diqqatini tortdi va Nizomiya madrasasida dars berishga jalb etildi. 1095-(488-hijriy) yilda kuchli ruhiy iztirobga tushgan G'azzoliy o'zining butun mudarrislik va faqihlik

faoliyatini to'xtatib, hajga yo'l oldi va tasavvuf yo'liga kirib, 11 yil mobaynida zohidlik va tarkidunyo bilan kun kechirdi. Shu davr ichida o'zining eng mashhur va mukammal asari – “Ehyoyi ulum ad-din”ni yozib tugatdi. 1106-yilda Nizomulmulkning o'g'li Faxrulmulk iltimosiga quloq osib, yana Nizomiyada dars berishga qaytdi va shu davrda o'z falsafiy qarashlarining takomil bosqichlarini aks ettiruvchi “al-Munqiz min ad-dalal” asarini yozdi. Umrining oxirida yana ona shahri Tusga qaytib, so'fiy xonaqohini ixtiyor etdi va muridlariga so'fiyona hayot tarzidan saboq bera boshladi.

G'azzoliyning bosh kitobi “Ehyoyi ulum-ad-din” to'rt qism (rub'-chorak)dan iborat bo'lib, har bir qism 10 kitobdan tashkil topgan. Birinchi qism “Ibodatlar” deb ataladi va unda ilm va aqoyid haqida umumiy ruhdagi muqaddimadan so'ng, tahorat, namoz, zakot, ro'za, haj, Qur'on tilovati, zikr va Allohga munojot amallarining ichki mohiyati, ruhiy mazmuni asosli ravishda ochib berilgan.

Ikkinchi qism “Odatlar” deb nomlangan va “Taom iste'mol qilish qoidalari”dan tortib “Payg'ambarlik axloqi”gacha, inson hayot tarziga oid barcha muammolar batafsil tahlil qilib chiqilgan.

Uchinchi qism – “Muhlikot” (“Insonni zalolatga boshlovchi ishlar va xislatlar”) haqida bo'lib, unda ko'ngil mo'jizalari va dil tarbiyatiga oid suhbat boshlanadi va turli zararli hoy-u havaslar – ochko'zlik va hirs, ezmalik, hasad va nafrat, baxillik va dunyo to'plashga intilish, kibr va munofiqlik kabilar qoralanadi.

To'rtinchi qism – “Munjiyot” (“Najotga eltuvchi xislatlar”) deb unvon olgan bo'lib, ko'proq tasavvuf maqomlari yo'nalishida – tavba, sabr va shukronalik, xavf-u rijo (yomon amallar uchun Alloh jazosidan qo'rqish va yaxshi amallar evaziga Alloh inoyatiga umid bog'lash), zuhd va faqr, tavhid va tavakkul, ishq, hijron, qanoat, niyat, samimiyat va haqgo'ylik, o'z-o'zini ehtiyot va nazorat qilish, o'z holini mushohada qilish va o'limni yodda tutish masalalariga maxsus e'tibor qaratilgan. Asar muallifi ham faylasuf, ham muqaddas kitoblar bilimdoni, ham huquqshunos-faqih ham tasavvuf sirlaridan chuqur xabardor alloma, ham axloqshunos – nosih (nasihat etuvchi) sifatida o'zini namoyon etadi. Kitobda axloqiy, diniy, huquqiy, irfoniy tushuncha va muammolar baquvvat mantiqiy dalillar yordamida jiddiy tahlil etiladi va ishonarli tarzda tushuntirib beriladi. Ulug' allomaning ushbu asaridagi g'oyalar ixchamlashgan tarzda “Kimyoyi saodat” nomi bilan fors tilida ham bayon qilingan.

IX asrdan avj ola boshlagan Islom ma'rifatchiligi X – XI asrlar davomida mintaqa madaniyatiga islomgacha bashariyat yaratgan butun ma'naviy boylikni o'sha davr imkoni darajasida olib kirib, uni chuqur o'zlashtirish va yangicha ruhda qayta talqin qilishga erishdi. Ammo bu orada ushbu bosqichning noqis jihatlari ham ko'rinib qola boshladi. Birinchidan g'oyalar xilma-xilligi nihoyatda kuchayib, ular orasida ba'zan murosasiz kurash va ziddiyatlar avj olib ketdi. Islom dini ichida turli bid'atlar beaded ko'payib ketgan edi. Ikkinchidan, ko'proq hukmdorlar saroyida va xos ziyolilar orasida yuqori darajalarga ko'tarilgan ilm va mantiqiy tafakkur mevalari hanuz Sunna va shariat bosqichida qolib kelayotgan oddiy shahar va qishloq aholisi (avom) orasiga ko'p singib bormagan va ma'lum ma'noda, keng xalq ommasi bilan xos ilmiy doiralar tafakkur darajasi orasida uzilish vujudga kelgan edi. Sunna yo'nalishi namoyandalari jamiyatni ushbu uzilish tug'dirishi mumkin bo'lgan ma'naviy nomavzunlik holatidan himoya qilish niyatida moturidiya va ash'ariya Kalomiga tayangan holda xalifa al-Qodir (991–1031) farmoni bilan imon asoslarini ishlab chiqdilar va joriy etdilar. Ammo bu bilan fikr rivoji to'xtab qolgani yo'q. Tavhid ta'limoti zaminida borliqni anglab yetish turli yo'nalishlarda davom eta berdi va tafakkur rivojini hech qanday farmon bilan ushlab turish mumkin emasligi borgan sari oydinlashib bordi. Uchinchidan, Abbosiylar (750–1055), Somoniylar (874–999), G'aznaviylar (955–1048), Saljuqiylar (1040–1092) tomonidan takomillashtirilib, islomgacha davrga nisbatan butunlay yangilangan davlat tizimi va jamiyat tizimi ma'lum avj pallasiga ko'tarilib, XI asr oxirlariga borganda uning muayyan ichki ziddiyatlari namoyon bo'la boshladi. Ismoiliya bid'atining yaratuvchilik faoliyati susayib, yashirin qotilliklar yo'liga o'tishi, ulug' vazir Nizomulmulkning o'ldirilishi (1092-yil) va buyuk saljuqiy hukmdori Malikshoh (1072–1092) vafotidan so'ng o'g'illarining toj-taxt janjallari shu ulg'ayib kelayotgan ijtimoiy-siyosiy bo'hronning nishonalari edi.

To'rtinchidan, shahar aholisi, ayniqsa, hunarmand – kosiblar va o'rta hol savdo ahlining ma'rifati va ijtimoiy mavqeyi yuksalib borar, ularning ma'naviy ehtiyojlari va bilim darajasi keskin oshib, ijtimoiy faolliklari har sohada sezila boshlagan edi. Futuvva va axiylik jamoalari borgan sari keng tarkib topib, tasavvuf g'oyalari xonaqoh va hujralardan chiqib, xalq ichiga yoyildi. Xullas, XI asr oxiri – XII asr boshlarida jamiyatning ma'naviy ahvoli yangi bir bosqichda uyg'unlashuv

va muvozanatni taqozo etardi. G‘azzoliy ijodi ushbu ehtiyojga eng mukammal javob bo‘ldi. O‘zaro bahs va nizolar o‘rniga el ma’naviyatida shunday bir uyg‘un muvozanat taklif etildiki, uning barcha toifa va yo‘nalishlar, barcha ijtimoiy guruhlar va fikriy oqimlarga o‘zaro yaqinlashuv imkonini beruvchi qudrati va mazmun boyligi yaqqol sezildi. G‘azzoliy o‘zining bosh asarida Sunna va tasavvuf qadriyatlarini o‘zaro uyg‘un ekanligini isbotlab qo‘yaqolmay, imon, ilm va irfonning yaxlitligini mantiqiy asoslab berdi. Sunna ahlini ilm va irfon vakillari bilan yaqinlashtirib, islom olamida yangi bosqichdagi ma’naviy uyg‘unlikni ta’minlashga ulkan asos yaratdi. Shu bilan birga G‘azzoliyning ilmiy-ijodiy faoliyati mintaqa xalqlari ma’naviy kamotini islom ma’rifatchiligi bosqichidan tasavvuf irfoni bosqichiga uzilkesil olib o‘tib qo‘yishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi, deb ham bemalol aytish mumkin.

3-fasl. X–XI asrlar islom mintaqasida ilm va madaniyat rivojining yuksak bosqichga ko‘tarilishi

IX asrdayoq mintaqa bo‘yicha shuhrat taratgan qator yurtdoshlarimiz – olimlar va davlat arboblari – Ahmad ibn Tulun (835–883), Muhammad ibn Muso Xorazmiy (780–850), Ahmad Farg‘oniy (vafoti 861-yil), Amayuriy Farg‘oniy, Abu Hafs So‘g‘diy (vafoti 832-y.) kabi ulug‘ shaxslar yetishib chiqdi. Ular singari o‘nlab ulug‘ siymolar mintaqada miqyosidagina emas, balki jahon miqyosida ham nom qozondilar va hanuz ahli basharga qilgan xizmatlari unutilgan emas.

Milodiy X–XI asrlarga o‘tgach, endi mintaqa miqyosida mashhur shaxslarning hisobiga yetib bo‘lmay qoldi, bu davrning turli qomuslar va farhanglarda nomi tilga olingan atoqli namoyandalar ro‘yxati har bir asr uchun 150–200 ismdan kam emasdir. Bularning ko‘pchiligi Xuroson va Movarounnahrda yetishib chiqqan siymolar bo‘lib, Balxiy, Samarqandiy, Marvaziy, Buxoriy, Farg‘oniy, Xorazmiy nisbali allomalar safiga endi Shoshiy, Forobiy, O‘zgandiy, Jurjoniy, Termiy, Tusiy kabi boshqa shaharlarning vakillari ham qo‘shila borganining guvohi bo‘lamiz. Bu davrda yurtdoshlarimiz ilmning deyarli barcha sohalariga faol hissa qo‘shib bordilar. She‘riyat va unga oid ilmlar, ilmi adab va axloqshunoslik, fiqh, Kalom, tibbiyot, riyoziyot, handasa, sarf-u nahv(grammatika), ilmi nujum, tarix va jug‘rofiya, tasavvuf irfoni, falsafa, qiyosiy tilshunoslik va og‘zaki ijodni o‘rganish, musiqa ilmi, kitobat ilmi va hokazo ilmlarning juda keng doirasi qam-

rab olindi, hattotlik, me'morlik, naqqoshlik kabi turli amaliy san'atlar urf bo'ldi.

Bu davrda adabiyot asosan saroy adabiyoti sifatida gullab-yashnadi. Har bir hukmdor qoshida mustaqil adabiy maktablar tashkil topdi. She'riyat uch tilda – arab, fors va turkiy adabiy tilda yaratildi. Bag'dodda turkiy til bilimdonlari ijod etgan bo'lsa, Buxoro va Samarqand, Xorazm va Toshkentda arab tilida ijod etuvchi adib va shoirlar yetishib chiqdi. Firdavsiy “Shohnoma”si, Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit-turk” asari, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” dostoni kabi o'nlab buyuk adabiy obidalar shu davr mevalaridir. Bu davr saroy adabiyotida ishqiyl g'azallar, may va musiqa tarannumi, madhiya-qasidalar va hijo, ya'ni alohida shaxslarni hajv etish keng rivoj olgan edi. Nasriy asarlar risola tusida bo'lib, ko'proq pand-nasihahat, dunyoning o'zgaruvchanligi haqida mulohazalardan iborat bo'lardi.

Ahli basharning islomgacha yaratgan yozma va og'zaki merosini jiddiy tadqiq etish natijasida ikki muhim yo'nalish vujudga keldi. Birinchisi, qadim Yunon falsafasi ta'sirida shakllangan mustaqil islom falsafasi bo'lsa, ikkinchisi, sosoniylar davrida yaratilgan tarixiy yilnomalar – “Xudoynamak”lar (Hukmdorlar tarixi)ni jiddiy o'rganish va arab tiliga tarjima qilish natijasida islom mintaqasida avval arab, so'ng fors tilida mustaqil fan sifatida shakllanib, keng urf bo'lgan tarixshunoslik, ya'ni dunyo tarixiga oid ko'p jildlik asarlar yozish an'anasi edi.

Bu davrga kelib butun mintaqa bo'ylab turkiy qavmlardan ulug' lashkarboshilar va hukmdorlar yetishib chiqq boshladi. Ulug' turkiy sulolalar -qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar dunyo siyosatini shakllantirishda faol ishtirok eta boshladilar. Volgabo'yi bulg'or (turkiy) hukmdorlari rasman islomni qabul qildi. Misrda IX asrda hokimiyatga kelgan turk voliylari bu o'lka hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdilar. XI asr (hijriy V asr) turkiy hukmdorlarning mintaqa bo'ylab to'liq davlat boshqaruviga o'tgan davri, deyish mumkin. Qoraxoniylar va g'aznaviylar butun Xuroson va Markaziy Osiyoni egallagan bo'lsalar, 1058-yilda saljuqiylar hukmdori Muhammad Tug'rulbey (1040–1063) Bag'dodga kirib keldi. Shu yillardan Abbosiy xalifalarning dunyoviy hukmdorlik faoliyatiga rasman chek qo'yildi. Ammo ularning ruhoniy yetakchi sifatidagi obro'lariga tajovuz qilinmadi. Bu davrda turkiy sulolalar ta'siri Volgabo'yi, G'arbiy Sibir va Sharqiy Turkiston hududlaridan to Shimoliy Hindiston yerlarigacha taraldi. Qafqozorti, Eron, Shom va

Iroq turkiy islom sulolalari qo'liga o'tdi. Ularning hukmdorligi asta-sekin Misr va Kichik Osiyogacha yoyilib bordi.

X–XI asrlar butun Islom mintaqasida ilm va madaniyatning eng gullab-yashnagan davri, ayniqsa, XI asr uning avj nuqtasiga ko'tarilgan pallasi bo'ldi, deyish mumkin. Bu davrda ilm markazlari, adabiy maktablar endi bir-ikki joyda emas, balki butun mintaqa bo'ylab yoyilib ketdi. Bag'dod, Xorazm, Farg'ona, Toshkent, Termiz, Nasaf, Marv, Qoshg'ar, Bolosog'un, Talas, Volgabo'yi shaharlari, Nishopur, Isfahon, Hirot, Jurjon, Tus, Rey, G'azna, G'arbda Ispaniya va Shimoliy Afrikaning turli shaharlari ilm-ma'rifat o'choqlariga aylandi.

Milliy ma'naviyatimiz rivojida mazkur bosqichni – *islom ma'rifatchiligi* deb nomlash maqbul ko'rindi. Abu Nasr Forobiy (873–950), Abu Mansur Muhammad al-Moturidiy (870–944), Abu Abdulloh Xorazmiy (vafoti 997-yil), Abu Ali ibn Sino (980–1037), Abu Rayhon Beruniy (973–1048), Yusuf Xos Hojib (1019-yilda tug'ilgan) kabi ajdodlarimiz ijodi ushbu bosqichga to'g'ri keladi. Bu bosqichning asosiy xislati aqlga, mantiqiy tafakkurga tayanish, o'tmish (islomgacha) insoniyat yaratgan ma'naviy boylikni o'zlashtirib, yangicha talqin qilish, aniq va tabiatga oid fanlarga qiziqishning behad kuchayishi edi. Bu bosqich an'analari keyin ham davom etdi. Bu bosqichda "Haqiqat izlovchilar" ning turli yo'nalishlari: Kalom, falsafa, botiniya va tasavvuf mukammal shakllandi. Bu yo'nalishlar keyingi asrlarda ham rivojlanishda davom etdi (masalan, yurtdoshimiz ulug' tilshunos va mufassir Mahmud az-Zamahshariy (1075–1144) XII asrda adab ilmi va mo'tazila oqimining buyuk namoyandasi bo'lib maydonga chiqdi). Shu jihatdan islom mintaqasida ilm-fan rivojini faqat X–XI asrlar bilan cheklash, albatta, mumkin emas, ammo biz har bosqichning chegaralarini belgilashda muayyan shartlilikka yo'l qo'yib, millat ma'naviy kamolotining yetakchi tamoyillarini va ichki mantiqiy rivojini nazarda tutdik.

4-BOB. TASAVVUF TARIQATLARI VA IRFON BOSQICHI

1-fasl. Zohidlik, oshiqlik va oriflik. Ibn Sino va G'azzoliy "Ishaq" haqida

So'zboshidan ta'kidlash zarurki, zohidlik bu – irfon emas, ammo tasavvuf zohidlikdan ayri ham emas. Shu nuqtayi nazardan Uvays Qaraniy (vafoti 644-yil), Molik Dinor (vafoti 748-yil) kabi mashhur

siymolar tasavvufdan tashqari emas, ammo asli tasavvufning shakllanishini, bizning nazarimizda, Hasan Basriy (642–728) faoliyati, ya’ni VIII asrdan, deb belgilagandan ko’ra, IX asr o’rtalaridan, ya’ni Zun-nun Misriy (796–859), Xoris Muxosibiy (791–857), Boyazid Bistomiy (vafoti 875-yil) ijodlaridan boshlash o’rinliroq bo’lsa kerak. Mulohaza shundaki, tasavvuf tariqining maqomlari tugal bo’lmagunicha va muayyan tizimga tushib shakllanmagunicha, oldingi salafilar o’rni ham muayyan bo’lmog’i tasavvurdan tashqaridir. G’azzoliygacha tasavvuf irfoni islom ma’rifatchiligi bosqichining yirik yo’nalishlaridan biri sifatida shakllanib ulgurdi. G’azzoliy o’z asarlarida Kalom, falsafa, va boshqa yo’nalishlarni umumiy me’yorga keltirib, hosil qilgan xulosasi irfon foydasiga edi. Masalan, uning ishq turlari va ularning o’zaro nisbati xususidagi mulohazalarini olib ko’raylik. Ishq hodisasi qadimdan ahli basharni qiziqtirib kelgan. Qadim Hind, Xitoy, Yunon tafakkur mevalari orasida yolg’iz bani basharga xos bu ruh, nafs va jismni bir nuqtada birlashtiruvchi hodisaning tahliliga bag’ishlab yozilgan talay asarlar mavjud. Islom mintaqasida bu mavzuga oid Poklik birodarlari yaratgan qomus tarkibidagi risoladan keyin yaratilgan yaxlit falsafiy asar Ibn Sinoning “Risola fi-l-ishq” kitobidir. Albatta, bu asarning yozilishiga tasavvufning ta’siri bor, chunki tasavvuf irfonida yetakchi o’rin tutuvchi hodisa ishqdir. Ammo, tabiiyki, Ibn Sino faylasuf va amaliyotchi tabib bo’lganligidan ishqqa ham mavjud voqelikning ilmiy tadqiqotchisi va sof faylasuf sifatida yondoshadi. Tibbiyotga oid kitoblarida insondagi ishq hodisasini ruhiy muvozanat buzilishining bir turi sifatida sharhlagan olim, ishqqa falsafiy nuqtayi nazardan yondoshganda, Poklik birodarlari va Forobiyning bu haqdagi falsafiy mushohadalarini ijodiy rivojlantirib, ishqni ruhiy hodisa mazmuni sifatida tadqiq etadi. Ibn Sino ishqni (bir narsaga moyillik ma’nosida) barcha tabiat unsurlariga xos deb biladi va inson ishqidagi hayvoniy va ruhoniylar jihatlarini ajratib ko’rsatadi¹. Olim fikriga ko’ra ulardan qaysi biri g’olib kelishiga qarab inson ishqni hayvoniy hirsdan ilohiy ishq sari ulug’lashib boradi. Alloh ma’rifatiga intilish ishqning eng oliy darajasidir, deb hisoblaydi Ibn Sino. Ammo uning asari chuqur falsafiy mushohadalar ruhida yozilganligidan oddiy xalq namoyandalari uchun ancha mavhum ko’rinishi mumkin. G’azzoliy matni o’zgacha. “Ihyoi ulum-ad-din”ning to’rtinchi qismi “Munjiyot” da

¹ Серебряков С. Б. Трактат Ибн Сины (Авиценны) о любви. Тбилиси, 1976, с. 47-68.

alohida “Ishq haqida kitob” bo‘lib, unda bu insoniy tuyg‘u kimga yo‘naltirilganiga ko‘ra tasniflanib uning besh turi sanaladi:

1. Insonning o‘z-o‘ziga muhabbati.
2. Uning o‘z homiylari, unga mehr-shafqat ko‘rsatuvchilarga muhabbati.
3. Uning umuman insonlarga yaxshilik qiluvchilarga muhabbati.
4. Insonning barcha ichki va tashqi go‘zallik egalariga muhabbati,
5. Mohiyat jihatdan o‘ziga o‘xshagan zotga muhabbati¹.

Ammo ushbu barcha muhabbat turlari G‘azzoliyning keyingi mantiqiy tahlili natijasida insonning butun borliq va mavjudotlarning yaratuvchisi va xojasi Allohga bo‘lgan muhabbatida yagona oliy tuyg‘uga aylanadi. Allomaning bu haqdagi isbot va dalillari lo‘nda va yorqin bo‘lganligidan tushunarli va ishonarli chiqqan, uning ta‘sir kuchi ham beqiyosdir. G‘azzoliy mulohazalari salafлари fikridan bahra oladi, ammo uning talqini va ifoda usuli mavhum falsafiy tahlillardan farqli o‘laroq, ommabop va hayotga yaqinlashtirilgandır.

Shunday qilib, G‘azzoliy tafakkur tarzida salafлари izidan borgani holda, birinchidan, mulohazalarini oddiy insonlarga tushunarli tarzda bayon qilishga muvaffaq bo‘ldi, ikkinchidan, ma‘rifatchilikka ma‘lum darajada yakun yasab, bu bosqich allomalari erishgan yutuqlarni umumlashtirdi va ommalashtirdi. Uchinchidan, tavhid mohiyatini anglab yetmoq uchun aql va mantiqning o‘zi kifoya qilmasligini tan olib, qat‘iyan tasavvuf irfoni qadriyatları himoyasiga o‘tdi. Shular asosida mintaqa ma‘naviyatining irfon bosqichi sari yuksalishiga fikriy muhit hozirladi. G‘azzoliydan keyin tasavvuf tariqatlarining keng miqyosda shakllanishga o‘tishi Tavhid ta‘limotini anglab yetishning yangi bosqichi mintaqada g‘alaba qilganini anglatar edi².

2-fasl. Tasavvuf nazariyasi va Ibn al-Arabiy merosi. Tasavvuf tariqatlarining shakllanishi

Darhaqiqat, XII asrdan tub o‘zgarishlar boshlandi. Imom G‘azzoliyning tug‘ishgan ukasi Abdulfutuh Ahmad G‘azzoliy (vafoti 1126-yil) akasi izidan bormay, so‘fiylik yo‘lini ixtiyor etdi. U shayx Abu Ali

¹ Абу Хамид ил-Газали. Воскресенье наук о вере. М., “Наука”, 1980, с. 238.

² G‘azzoliy qarashlarining mintaqa ma‘naviyatida burlish nuqtasi bo‘lganligi jahon tadqiqotchilarining ishlarida ham alohida qayd etiladi. Masalan: G. E. Fon Грюнеbaum, “Классический ислам”, М., 1988, с. 146-147; Дж.С. Трименгем, “Суфийские орден в исламе”, М., 1989, с. 21; “Ислам”, Энциклопедический словарь, М., 1991, с. 229.

al-Farmoziy (vafoti 1084-yil) va shayx Abu Bakr an-Nassoj at-Tusiy (vafoti 1084-yil) suhbatlariga noil bo'ldi va Ibn Sinoning "Qush risolasi" asariga tasavvuf ruhida javobiya yozdi.

XII asr boshlarida fors mumtoz she'riyatining eng yorqin yulduzlaridan Abdulmajid Majdud ibn Odam Sanoiy (1048–1140) yangi bir an'anani boshlab berdi; u birinchilardan bo'lib asr boshida saroyni va madhiyago'ylikni tark etib, she'riyatga jiddiy falsafiy-ijtimoiy va axloqiy masalalarni olib kirdi. Shu sababdan uning "Sayrul-ibod ilal-maod" ("Alloh bandalarining qaytar makonga safari") va 10 ming baytdan ortiq hajmdagi "Hadoiyq ul-haqiqa" ("Haqiqat bog'lari") dostonlari buyuk xalflari (izdoshlari) tomonidan so'fiyona ruhda talqin etildi. Asr oxirlariga borib bu jarayon ancha keng yoyildi – o'sha davr saroy she'riyatining atoqli vakillari Anvariyy(vafoti 1191- y.), Hoqoniy (1120–1199) va boshqalar birin-ketin uzlatga chekinib, o'z homiylariga madh-u sano o'rniga jiddiy falsafiy qasidalar yozishga kirishdilar.

XII asr birinchi yarmida G'azzoliy qarashlari mintaqaning ko'p joyida hanuz jiddiy anglab yetilmagan, hatto uni qoralash, rad qilish harakatlari ko'zga tashlanar edi. Ammo vaqt o'tgan sari buyuk mutafakkir merosining qadri va nufuzi osha bordi. Irfon qadriyatlar borgan sari kengroq insonlar jamoasini o'ziga jalb etib, turli tasavvuf tariqat va suluklari tarkib topa boshladi. XII–XIII asrlar davomida to bizning zamonamizgacha muayyan ta'sirini saqlab kelgan asosiy tariqatlar – suxravardiya (asoschilari Ziyauddin Abu Najib as-Suxravardiy (1037–1168), Shahobiddin Yahyo as-Suxravardiy (1155–1191), Shahobiddin Abu Xafs Umar as-Suxravardiy – vafoti 1234), qodiriya (asoschisi - Abdulqodir bin Abu Solih Jiloniy (1077–1166), Rifoyia (asoschisi- Ahmad bin Ali ar-Rifoiiy – 1106–1182), Yassaviya (Ahmad Yassaviy vafoti – 1166-yil), kubraviya (Najmiddin Kubro (1145–1221), shoziliya (Abulhasan Ali ash-Shoziliy (1196–1258), badaviya (Ahmad al-Badaviy (1199–1276), dasukiya (Ibrohim ad-Dasukiy (1246–1288), chishtiya (Muiniddin Muhammad Chishtiyy – vafoti 1236), mavlaviya (Jaloliddin Rumiy (1207–1273) shakllanib ulgurdi. Keyinchalik naqshbandiya deb shuhrat topgan Xojagon sulukining qator shayxlari – Yusuf Hamadoniy (1049–1140), Abdulxoliq G'ijduvoniy (vafoti 1179), Orif Revgariy (vafoti 1259-yil), Mahmud Anjir Fag'naviy (vafoti 1272) kabilar ham shu ikki asr oralig'ida yashab o'tdilar. Abu Madyon Shuayb bin al-Husayn (1126–1198), Majiddin Bag'dodiy (vafoti 1219-yil) Yunus bin Yusuf ash-Shayboniy (vafoti 1222-yil), Abdulfath al-Vositiy (vafoti 1234), Abu Muham-

mad Ali al-Harkuliy (vafoti 1247), Tolib ar-Rifoiy (vafoti 1284), Abulabbos Ahmad Sanhojiy (1088–1141), Farididdin Shakarganj (1175–1265), Nuriddin Muborak Gʻaznaviy (vafoti 1274), Bahouddin Zakariyo (1182–1268) kabi mintaqada dong taratgan boshqa qator ulugʻ shayxlar ham shu davrda yashab faoliyat olib bordilar.

Bu ikki asr mobaynida irfoniy sheʼriyat va tasavvuf falsafasi ham yuksak choʻqqilarga koʻtarildi. Agar Sanoiy dostonlari yoʻnalishi haqida hanuz taraddud mavjud boʻlsa, Farididdin Attor (1147–1229) va Jaloliddin Rumiy (1207–1273) dostonchiligining mazmuni sof tasavvuf ruhida ekanligi har qanday bahsdan xolidir. Arab dunyosi ushbu asrlarda ikki buyuk zotni – irfoniy ishqning otashin kuychisi Ibn al-Farid (1181–1234) va nazariy tasavvufning choʻqqisi boʻlmish “Futuhoti Makkiya” asarining muallifi Ibn al-Arabi (1165–1240)ni yetkazib berdi. Bugungi kunda Ibn al-Arabi merosini chuqur oʻzlashtirmay turib, tasavvuf irfoni haqida salmoqli ilmiy mulohaza yuritish mushkul ekanligi jahon afkor ommasiga ayondir. Bu murakkab falsafani anglash va anglatish uchun ne-ne sharhlar yozilmadi. Shular jumlasidan fors tasavvuf sheʼriyatining zabardast vakillaridan Faxriddin Iroqiy (1213–1289) yozgan “Lamaʼot” asari boʻlib, unga sharh sifatida Alisher Navoiy iltimosiga binoan Abdurahmon Jomiy (1414–1492) “Ashaʼot-ul-lamaʼot” risolasini yozdi va uning asosida ulugʻ vazirni irfon falsafasining murakkab sirlariga oshno qildi.

3-fasl. Turkistonda tasavvuf. Yassaviya va Kubraviya. Bahouddin Naqshband va tasavvuf irfonining kamoli¹

Tasavvuf haqida gapirganda, albatta, turkiy tasavvuf namoyandalari haqida toʻxtalib oʻtish lozim boʻladi. Maʼlumki, Alisher Navoiy oʻzining “Nasoyim ul-mahabba min shamoyim ul-futuva” asarida turkiy tasavvuf shayxlari haqida batafsil maʼlumotlar bergan. Bu oʻrinda biz faqat jahon tasavvuf tariqatlaridan eng mashhurlarining asoschilari hisoblangan Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy va Bahouddin Naqshband faoliyatlariga qisqacha toʻxtalib oʻtamiz, xolos.

Sharqning mashhur irfoniy murshidlaridan biri, kubraviya tariqatining asoschisi “shayxi valiytarosh” deb nom chiqargan Najmiddin Kubro 1145-yili Xorazmda tavallud topgan boʻlib, 1221-yili moʻgʻul bosqinchilari

¹ Ushbu faslni tayyorlashda filologiya fanlari nomzodi, TDSHI dotsenti M. Eshmuhammedovning muayyan ishtirokini qayd etib oʻtish lozim.

qo'lida shahid bo'lgan. Najmiddin Kubro ham orif, ham oshiq, ham shoir sifatida mashhur. U ruboiylar, «Favoih al-Jamol va favotih al-Jalol», «Al-usul al-ashara», «Risolat al-Xoif al-Xa'im min laumon al-la'im», «Risolat odob uz-zokirin» kabi arab tilidagi asarlarning hamda so'fiylar uchun fors tilida alohida yozilgan qo'llanmaning muallifidir.

U o'z tasavvuf maktabini yaratdi. Ko'plab muridlar uning tarbiyatida shayxlik martabasiga erishganlar. Najmiddan Kubro asos solgan maktab bir qancha mustaqil shoxobchalar vujudga kelishiga sabab bo'ldi va ular musulmon Sharqida keng tarqaldi. Jumladan, buyuk tasavvuf shoiri Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiyning padari buzrukvori, Balx shahrining eng nufuzli ulamosi Shayx Bahouddin Valad, taniqli tasavvuf adiblari Azizuddin Nasafiy va Najmiddin Doya kabi o'nlab islom olamida shuhrat taratgan shaxslar kubraviya tariqatining vakillari hisoblanadi.

Turkiy tasavvufning yana bir yirik vakili Xoja Ahmad Yassaviy Sayramda Ibrohim ota oilasida dunyoga keldi. Uning vafoti manbalarda 1166-yil deb ko'rsatilgan. U Buxoroda Abduxoliq G'ijduvoniylar bilan birgalikda Yusuf Hamadoniylar maktabida tahsil olgan deb rivoyat qilinadi. So'ngra Turkistonga qaytib, mustaqil Yassaviya tariqatiga asos soldi va o'z ta'limoti bo'yicha muridlar tarbiyaladi.

Ahmad Yassaviy islom ahkomlarining turkiy xalqlar orasida yoyilishiga katta hissa qo'shdi. Irfoniy adabiyotda maxsus "Hikmat" janri-ning yaratilishi ham uning nomi bilan bog'liq. U o'z hikmatlarida ishq, poklik, halollik, yolg'ondan saqlanish, kishi moliga xiyonat qilmaslik, to'g'rilik kabi ko'pgina insoniy fazilatlar haqida kuyladi. U turkiy tasavvuf adabiyotida o'ziga xos maktabga asos soldi. Turkiy dunyoda biror so'fiy shoir yo'qki, unga ergashmagan, undan o'rganmagan bo'lsin.

"Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband" kitobida shunday rivoyat bor: "Bir kuni xojamizning sharif suhbatlarida Sulton ul-Orifin (ya'ni Boyazid Bastomiy)ning "Bu yo'lda yuruvchi qanchalik yurmasin, so'nggi qadami bizning birinchi qadamimiz ustida bo'ladi", degan so'zlari naql qilinibdi. Xojamiz g'ayrat yuzasidan: "Birinchi qadami Boyazidning oxirgi qadami ustida bo'lmagan kishiga Haq subhonahuning suhbatini harom bo'lsin!" degan edilar. Va ular: "Biz intihoni ibtidoda tugallaymiz", der edilar"¹.

Ushbu naqlida bir haqiqat aks etgan: tasavvuf irfonining takomilida

¹ Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Bahouddin Balogardon (Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband). T., «Yozuvchi», 1993, 47-b

Boyazid Bastomiy (IX asr oxiri) yo‘l boshida, Bahouddin Naqshband (1318–1383) esa yo‘l oxirida turibdilar. Boyazid Bastomiyning oxirgi qadami, naqshbandiya suluki uchun birinchi qadam bo‘lmog‘ligi farzdir, chunki tadrijiylik shuni taqozo etadi.

Darhaqiqat, IX asrdan ongli ravishda rivojlana boshlagan tasavvuf irfoni XII–XIII asrlarda o‘zining oliy bosqichiga ko‘tarilib, naqshbandiya tariqatida mukammal nihoya topdi. Shu sababli keyingi asrlarning eng keng tarqalgan (g‘arbda Hijoz-u Yaman, shimolda Bolqon-u Volgabo‘yi, janubda Indoneziyagacha urf bo‘lgan) tariqati naqshbandiya bo‘ldi. Naqshbandiya yo‘li, aytib o‘tganimizdek, Bahouddin Naqshband hazratlaridan ancha ilgari Yusuf Hamadoniy va Abduxoliq G‘ijduvoniy (vafoti 1179-yillar tomonidan “Xojagon” suluki sifatida asos olgan bo‘lib, uning mashhur o‘n bir qoidasidan sakkiztasi o‘sha XII asrdayoq shakllanganligi ma‘lum.

Naqshbandning eng mashhur iborasi “Dil ba yor-u dast ba kor” (“Dil yor bilan, qo‘l ish bilan band bo‘lsin”) esa endi tasavvuf irfoni o‘z asosiy maqsadiga erishganligini, ya‘ni Haqiqat asrori ko‘ngillardan muqim o‘rin olganligi va bu yog‘i amaliy harakat birinchi o‘ringa chiqq boshlaganini bildirar edi. Endi so‘fiyning “Analhaq”, ya‘ni men Haqiqatni topdim, men Haq asrorini anglab yetishga erishdim, deb hayratlanishi oxirgi qadam emas, birinchi qadam bo‘lib qolgan edi. Behuda emaski, hazrati Bahouddindan naql etadilar: *“Talab ayyomlarida Mansur Xalloy sifati ikki marta menda tug‘yon urdi. Bir dor bor edi, ikki marta o‘zimni dor ostiga yetkazdim va dedim: “Joying mana shu dordir! Tangri inoyati bilan bu maqomdan o‘tib ketoldim”. Hazrati Azizon (Xoja Ali Romitanij – vafoti 1321-yil) aytgan ekanlar: “Agar yer yuzida Xoja Abduxoliq G‘ijduvoniy qaddasallohu sirrahu-l-azizning farzandlari (ya‘ni, ma‘naviy merosxo‘rlari – muridlari) dan bir kishi bo‘lganida edi, Mansur hargiz dorga osilmas edi”*¹. Bu rivoyatlar yana bir marta naqshbandiya tariqatining mintaqa ma‘naviyati takomilida irfon bosqichi uchun yakunlovchi va umumlashtiruvchi bo‘lganligiga ishora etadi.

4-fasl. Ilm va irfon. Nafs tarbiyasi va riyozat ma‘rifati

Tasavvuf haqida oxirgi paytda ko‘p yozilmoqda. Oxirgi yillarda filologiya fanlari doktori, professor Najmiddin Komilov bu borada

¹ O‘sha kitob, 38-b.

jiddiy tadqiqotlar olib bormoqda. Avvalo olim fors tilidagi tasavvufga oid qator muhim manbalarni o'zbek tiliga tarjima qildi. Keyinchalik ularni to'plab, "Komil inson haqida to'rt risola" nomi bilan nashr ettirdi. Bundan tashqari tadqiqotchining ikki jilddan iborat "Tasavvuf" asari ham bosilib chiqdi.

Tasavvuf haqida (va umuman, har qanday mavzu xususida) yozganda tarixiylik va matn masalalariga jiddiy e'tibor bermoq lozim. Masalan, X –XI asrlarda ko'chirilgan qo'lyozma bilan XX asr boshlarida nashr etilgan toshbosma kitobning ma'lumotlari mutlaqo teng qiymatga ega emas. Irfoniy g'oyalar rivojini faqat tarixiy tadrijiylikda ko'rib chiqishgina ishonarli xulosalarga asos bo'la oladi. Shu sababdan hozircha faqat ba'zi eng umumiy jihatlarga e'tibor qaratish bilan cheklanishga to'g'ri keladi.

Sunna bosqichi – o'git va ibrat asosiga, islom ma'rifatchiligi esa aql va mantiqiy tafakkur qudratiga tayanishini ko'rib o'tdik. Irfonchi? Ilm egasi olim bo'lsa, irfon nima-yu, orif kim? O'git va ibrat tashqi hodisa, aql ham mavzuga tashqaridan turib yondoshadi. Irfon esa Tavhid mohiyatini anglashga insonning butun ruhiy quvvatini safarbar etadi, buning uchun esa avval ruhiy quvvatni jamlashga o'rganish kerak bo'ladi. Xuddi shu amalni, ya'ni ruhiy quvvatni bir nuqtaga jamlay bilish usullarini ikki yo'nalishda ishlab chiqqa boshlagan so'fiylardan Zunnun Misriy (796–861) va Xoris Muhosibiy (781–857)larni eslash mumkin. Ularning birinchisi ma'rifat yo'lining hol va maqomlarini ishlab chiqqan bo'lsa, ikkinchisi o'z nafsini kuzatish va nazorat qilish (muroqaba va musohaba) qoidalarini – "Ilm al-qulub va-l-xatarot" (qalb va uning ma'rifati yo'lidagi xavf-xatarlardan saqlanish ilmi)ni ishlab chiqdi. Muhosibiyning fikricha, asosiy narsa niyatda, ammo insonning poklanishi yo'lida turli xatarlar, masalan, kibr, riyo va boshqalar mavjud. Ularni yengib o'tish uchun inson har bir qadamini Alloh irodasiga muvofiq bosmog'i va faqat Alloh rizoligini sidq va ixlos bilan tilamog'i kerak. Muhosibiy fikricha, inson ko'nglida ilohiy muhabbat chirog'ini yoquvchi ham Allohning o'zi. Insonning ruhiy kamoloti tasavvufning asosiy maqsadi bo'lib, bu yo'nalishda har bir ulug' shayx o'z tartib-qoidalarini ishlab chiqdi va shu asosda turli tariqat suluklari shakllandi. Masalan, solik o'z nafsini yengib o'tish yo'lida qanday maqomlarni bosib o'tadi, degan savolga turli tariqat pirlari turlicha javob beradilar. Abu Nasr Sarroj 7 maqom (tavba, vara, ya'ni parhezkorlik, zuhd, faqr, sabr, rizo, ya'ni Alloh taqdiriga

rizolik, tavakkul, ya'ni o'zni Haqqa topshirish)ni sanab ko'rsatgan bo'lsa, ba'zi tadqiqotchilar bundan faqat oltitasini, ba'zilari xavf va rajoni qo'shib to'qqizta maqomni tilga oladilar, al-Kalobodiy (vafoti 990-yil) 17 maqomni, Abu Sayid Mayxoniy (967–1049) 40 maqomni, Abdulloh Ansoriy (1006–1089) esa 100 maqomni eslaydi. Ibn al-Arabiyy "Futuhoti Makkiya"da 19 maqom, 360 ta manzil va rabotni ajratib ko'rsatadi. Agar maqomlar so'fiyning o'z harakati, riyozati bilan bog'liq bo'lsa (tadbir), "hol" tushunchasi Alloh barakati va marhamatiga aloqador (taqdir) hisoblangan. Bunday "fayzi ilohiy" solikning poklik kasb etgan dilini bir lahzada chaqmoqdek yoritib, yana g'oyib bo'lishi mumkin. Ba'zan holni ham darajalarga ajratadilar. Nazarimizda, gap maqomlar soni va holning darajalarida emas. Asosiy masala ko'ngilning poklanishida. "Bilgilki, ko'ngil sayqallangan ko'zgidir", deb yozadi Ibn al-Arabiyy. Hadisda aytiladiki: "Qalb temirdek zang bosishi mumkin".

Ma'naviyat haqidagi suhbatlarimizning ibtidosida Shayx Najmiddin Kubroning iste'dodli shogirdi Najmiddin Doya haqida eslab o'tgan edik. U o'zining 1223-yili Kunyada yozib tugallagan risolasida¹ Inson va uning mohiyati, Oliy haqiqat (Haq asrori)ga va Borliqqa munosabati haqida shunday mulohaza yuritadi:

Mavjudotlar olami, ya'ni moddiy dunyodan maqsad inson vujudidir. Ikki olam inson vujudi uchundir. Inson vujudidan maqsad esa Alloh taolo zot-u sifatlarini anglab yetishdir. Buni ma'rifat deyдилar. Farishta va jinlar Allohga ibodat etishda insonga sherik bo'ldilar. Ammo ma'rifat insondan o'zga hech qanday maxluqotga nasib bo'lmadi. Haq ma'rifati yukini ko'tarmoq faqat inson zotiga vojib bo'ldi. Insonning mumtozligi shu tufaylidir. Ammo Najmiddin Doyaning fikriga ko'ra, inson vujudida Haq ma'rifatini aks ettiruvchi ko'ngil ko'zgusi dastavval faqat imkon darajasida mavjud, xolos. Uni voqelikka aylantirish uchun uzoq jidd-u jahd lozim. Ko'ngil ko'zgusi riyozat bilan sayqal topadi, insonning ma'naviy tarbiyasi, o'z intilishi, pir-tarbiya-

¹ Olimning «Mirsod ul-ibod min al-mabda' ilal-maod» asari fors tilida yozilgan bo'lib, XIX asrda Xorazmda Muhammad Rahimxon II (Firuz) topshirig'iga binoan o'zbek tiliga o'g'irilganligi ma'lum. Ushbu asar qo'lyozmalari O'zFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Eronda bu asar nashr etilgan, ammo bizda bu asar haqida hanzu maxsus tadqiqotlar ham, asar tarjimalari ham e'lon qilinmagan. Faqat «Sog'lom avlod uchun» jurnali 1996-yil 1-sonida Najmiddin Doya haqida dastlabki maqola e'lon qilindi (40–43-b).

chining irshodi nafs tarbiyasi bilan bo'ladi. Buning uchun inson, birinchi navbatda, ham jismoniy, ham ma'naviy poklanmog'i kerak. Tasavvuf tariqati ushbu poklanish yo'li bo'lib, uni temirchining olovli ko'rasiga qiyos etish mumkin. Unda inson ko'ngli avval mumdek yumshab, shakl oladi, so'ng chiniqtiriladi va sayqal beriladi. Oxirida ko'ngil po'lat ko'zgu singari shunday sayqal topadiki, o'zida ilohiy nurni akslantirib, oy singari nurlanib, o'zi ham atrofga ziyo tarata boshlaydi. Ana shunday ko'ngil egasi komil insondir.

O'zbek tilimiz komil inson mohiyatini nihoyatda teran ifodalaydi – "ziyoli", ya'ni o'zidan atrofga ziyo, nur taratuvchi. Ziyoli inson atrof zulmatni yoritadi, o'zga insonlar ruhini ham ma'rifatli etadi, ko'ngillarni nurlantiradi. Ziyoli, ya'ni o'zligini anglab yetgan insonda ilm, imon va amal birligi vujudga keladi. Hazrati payg'ambarimiz marhamat qiladilar: "Man arafa nafsahu, fa qad arafa rabbahu". ("Kim o'z nafsini anglab yetibdi, demak, Parvardigorini anglab yetibdi"). Mana shu odam orif, uning yetishgan ma'rifati – irfondir. Shoir yozadi:

*Ey nusxai nomai ilohiy-ki tuiy,
V-ey oyinai jamoli shohi-ki tuiy,
Birun zi tu nist harchi dar olam hast,
Dar xud betalab, har on chi xohi-ki tuiy.*

*(Ey ilohiy noma nusxasi – o'zing,
Va hukmdor jamoli oyinasi – o'zing,
Olamda neki mavjud, sendan tashqarida emas,
Har neki istasang, o'zingdan ista, barchasi – o'zing)*

Inson yer yuzida xalifa etib yaratilgan. Bu juda jiddiy va og'ir mas'uliyat. Ochiq aytish kerak, bunday zalvorli vazifani har bir shaxs alohida o'zi aslo ko'tara olmaydi. Zotan, xalifalik bir kishining emas, butun ahli basharning mas'uliyatidagi yaxlit yumushdir. Biz hassos so'fiylar xitobi bo'lmish "Anal haq"ni ba'zan jo'n talqin etamiz. Asli bu so'zning yuki benihoya vazmin. "Lison ut-tayr"dagi Mansur Xal- loj haqida keltirilgan rivoyat shu jihatdan ibratli. Rivoyatning qisqacha mazmuni shundayki, unga ko'ra ulug' so'fiy tavihd maqomiga yetishib "Anal-haq!" iborasi tilida takrorlanib qolgach, din ahli unga nasihat qilib, bu da'vodan qaytarmoqchi bo'ladilar, joningga jabr qilma, deyдилar. Ammo shoir tashbehiga ko'ra, Mansur ichgan qadah

o'ta mast qiluvchi bo'lib, bu yo'ldan qaytish imkoni yo'q edi. Atrofdagilar uning jonini o'ylashar, uning xayolini esa butkul boshqa savollar band etgandi. Mansur o'ylar edi:

Nega Muhammad Rasululloh me'roj kuni Allohning cheksiz inoyatiga sazovor bo'lib, tangridan “Ey habib, ne istaging bo'lsa, ayt!” degan xitob eshitganda, faqat o'z ummatining gunohlarini afv etishni so'radi? Shunday bir behudud ilohiy saxovat fursatida Rasululloh dunyo yaralgandan qiyomatgacha o'tgan barcha gunohkor bandalar uchun Allohning rahmatini so'rab olsa bo'lardi-ku, nega o'z qavmi bilan cheklandi, ekan deb kuyunadi. Demak, so'fiy tavhid maqomida o'zini butun bashariyat, o'tmish va kelajak uchun mas'ul his qiladi. Mana tavhid ma'naviyatining qudrati!

Alisher Navoiy insonlarni “avom” va “xos” ga ajratadi. Biz yaqin o'tmishda xoslar – zodagonlar, oliy tabaqa, avom – qora xalq, mehnatkashlar, deb talqin etdik. Ammo Navoiyning farqlashi bunday ma'noda emas, “avom” – o'zini hali anglab yetmaganlar, “xos” o'zligini anglab yetgan, demak, voqean Parvardigorini tanigan ziyo ahlidir. Bu oliy tabaqaning faqat bitta Oliy imtiyoz bor, u ham bo'lsa Alloh oldidagi ma'suliyati og'irroq, vazifasi jiddiyoqdir.

Tavhid asrorini anglab yetish Sunna bilan boshlanib, tasavvuf irfonida yuksak kamolotga erishdi. Ammo bu yo'nalishlar ibrat, mantiqiy tafakkur va ruhiy kamolot sifatida asosan insonning ichki takomiliga qaratilgan edi. Inson o'z-o'zini anglab yetish orqali Haq asrorini idrok etishga intildi, ammo insonning yakuniy maqsadi shunda tugaydimi? Inson Tavhid asrorini o'zi uchun anglab yetdi, deylik, endi u nima qilishi kerak?

Shu savolga tasavvufning oxirgi tariqati – Naqshbandiya javob berdi: birinchi maqsadga erishildi – “dilda yor” holati mavjud, endi ishga kirishmoq lozim – “dast ba kor” ga o'tishi kerak. “Dilda yor” holati dilda g'araz, ya'ni xudbinlik yo'qligini ko'rsatadi, endi “dast ba kor” bo'lsa, ya'ni ishga qo'l urilsa, o'z shaxsiy g'arazli maqsadlari uchun emas, xolis Alloh uchun, Haq uchun, haqiqat va adolat tananasi uchun amaliy harakatga kirishilgan bo'ladi. Shu sababli har nafas “dilda yor” bo'lishi, “Alloh” ismi dilda zikr etilishi, ya'ni “Hush dar dam” qoidasiga rioya etilishi taqozo qilinadi. Chunki Alloh nomi bir nafas dilni tark etsa, darhol o'rnini g'araz, xudbin bir niyat egalashi mumkin. “Nazar bar qadam” ham shu ma'noga yaqin turadi, ya'ni behuda biror qadam qo'yimaslik, har bir amaliy harakatning

Haq yo'lida qo'yilayotganini tahlil etib, diqqat bilan kuzatib, nazardan qochirmay borish kerakligi ikkinchi qoidadir. Uchinchi qoida – "Safar dar vatan", ya'ni vujud ichida turgan holda ruhning moddiylik balchig'iga bulg'anmasligi, Haq irodasi moddiy hoy-u havaslarning g'arazidan xoli ravishda ruhingda hukmron bo'lishi lozim. To'rtinchi qoida – "Xilvat dar anjuman" Haq asrorini anglab yetgan orifning xalq bilan birga bo'lishi lozimligini, ammo doimo Haqni dilda tutgan holda xalq bilan birga bo'lishni ta'kid etadi. To'liq "xilvat"ni tanlash kibrga, to'liq "anjuman"ga kirishib ketish g'arazga yetaklashi mumkin, "Xilvat dar anjuman" esa muvozanatni saqlab turish demakdir. Naqshbandiyaning o'n bir qoidasini mukammal sharhlash uchun alohida jiddiy tadqiqot lozim, biz faqat irfon bosqichini yakunlab, yangi bosqichga o'tish oldidan ba'zi mulohazalarni qayd etdik, xolos.

Shunday qilib, XII–XIII asrlar *Tasavvuf tariqatlarining shakllanishi va irfon bosqichi*, deb ataldi. Aytib o'tganimizdek, tasavvuf g'oyalari va nazariyasi VIII–IX asrlardanoq shakllana boshlagan bo'lsa ham, faqat Imom Abu Homid Muhammad G'azzoliy (1058–1111) ijodida islom ma'rifatchiligi davri yakunlangach, tasavvuf ta'limoti islom mintaqasida zafarli "yurish" boshladi va Borliqni idrok etishning Irfon yo'nalishi uzil-kesil yetakchi o'ringa ko'tarildi. Buyuk tasavvuf shayxlari – Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Abduxoliq G'ijduvoni shu davrda yashadilar. Tasavvuf she'riyatining eng zabardast vakillari Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Ibn al-Farid va irfoniy tafakkurning eng buyuk namoyandasi Ibn al-Arabiy ham shu muddatda ijod qildilar. Irfon yo'nalishi Borliqni idrok etishning mutlaqo o'ziga xos yo'li bo'lib, Sunnadan ham, mantiqiy tafakkurdan ham tamomila farq qiladi. Bu haqida ibratli rivoyat bor. Ma'lumki, olov kuydiradi. Buni bizga muallim tushuntiradi va biz uning gapiga ishonib, "olov kuydiradi" deymiz. Bu – Sunna bosqichi. Ikkinchi bosqichda biz tajriba o'tkazamiz – qog'ozni sham olovi tepasida tutsak, qog'oz yona boshlaydi va biz "olov kuydiradi", deb xulosa qilamiz. Bu – ilm deyiladi. Islom ma'rifatchiligi davri namoyandalari shu yo'nalishda ish olib borganlar.

Irfon bosqichi – tasavvuf yo'lidir. So'fiylar olovga o'zlari kiradilar va riyozat chekib Haqni taniydilar. So'fiy Tavhid mohiyatini anglashga butun ruhiy qudratini safarbar etadi. Buning uchun ishini nafsni poklashdan boshlamoq kerak bo'ladi. Tasavvuf tariqatlari ma'naviy poklanish yo'li bo'lib, o'zligidan (xudbinlikning barcha ko'rinishlaridan)

pok bo'lgan inson ko'ngli Haq ziyosini o'zida akslantira boshlaydi. Komil inson – tom ma'nodagi ziyolidir. Ziyoli, ya'ni o'zligini anglab yetgan insonda imon, ilm va amal birligi vujudga keladi. Bunday inson o'zidan atrofga ziyo tarata boshlaydi, o'zga insonlar ruhini ham ma'rifatli etadi, ko'ngillarni nurlantiradi.

5-BOB. ISLOM MINTAQA MA'NAVIYATIDA “MA-JOZ TARIQI” BOSQICHI

1-fasl. Badiiy adabiyotning mintaqada madaniyatida tutgan o'rni

“Majoz tariqi” o'zi nima? Islom mintaqada madaniyati doirasida milliy ma'naviyatimizning takomili haqida gapirar ekanmiz, nega alohida va eng mukammal kamolot bosqichining nomi sifatida ushbu iborani tilga olmoqdamiz? Bu ibora Alisher Navoiy ijodining so'nggi davridagi qator asarlari, jumladan, “Holoti Pahlavon Muhammad” va “Muhokamat ul-lug'atayn”larda tilga olinadi va “Mahub ul-qulub”da maxsus tushuncha sifatida tahlil etiladi. Alisher Navoiy “Majoz tariqi” tushunchasini Borliq haqiqatini anglab yetishning badiiy adabiyotga xos maxsus yo'nalishi sifatida talqin etadi. Shu sababli bu safar suhbatni umuman badiiy adabiyotning mintaqada ma'naviyatida tutgan o'rni masalasidan boshlash o'rinli bo'ladi. Mintaqada madaniyatining boshqa sohalariga singari badiiy adabiyotda ham til har xil bo'lganiga qaramay (biz, asosan, mintaqada darajasiga ko'tarilgan uch til – arab, fors va umumturkiy adabiy tildagi adabiyotni nazarda tutamiz), g'oyalar, timsollar olami, sujetlar, turli badiiy shakl unsurlari (vazn, qofiya, badiiy san'atlar), nazariy zamin ko'p jihatdan musharak edi. Umummintaqada madaniyatining boshqa yo'nalishlari – Sunna, Kalom, falsafa, tasavvuf kabi badiiy adabiyot ham asrlar davomida rivojlanib keldi. Asli har uch tildagi badiiy adabiyot ham islomdan oldin shakllangan bo'lib, tabiiyki, islomiy yo'nalish birinchi davrda arab tilidagi adabiyotda o'z aksini topa boshladi. Ammo Ummaviylar davri saroy adabiyotida islomiy tus ko'proq tashqi libos darajasida bo'lib, al-Axtal (640–710) hatto islomni qabul qilmagan holda islom xalifalari saroyida ijod qiladi, al-Farazdak (641–730) va Jarir (653–733) ijodlarida ham hanzu qabilachilik an'analari ustun edi. Arab mumtoz adabiyotida “yangilanish” harakatini boshlab berganlarning aksariyati asli kelib chiqishiga ko'ra sof arab emas edilar. Bashshar ibn Burd

(714–784) fors, Ibn al-Muqaffa (724–759) ham Eronda, zardushtiylikka e'tiqod etuvchi oilada tug'ilgan, bu davrning eng zabardast shoiri Abu Nuvas (762–713) ning ham onasi fors ayoli edi.

Sunna bilan bir bosqichda arab nasrida adab yo'nalishi shakllanganini, islom davri ilk turkiy she'riyat namunasi Adib Ahmad ijodi shunga yaqin turishini oldinroq eslab o'tgan edik. Bu yo'nalish Abul Ataxiya (748–825) ijodi bilan hamohang bo'lib, Abu Nuvasda shakl-koklik mayllari kuchliroq edi. Umuman, arab tilidagi mumtoz adabiyot gullab-yashnagan davr sunna va islom ma'rifatchiligi bosqichlariga ko'proq mos keladi va unda ikki yo'nalish yorqin namoyon bo'lgan: biri saroy adabiyoti uchun xos bo'lgan madhiya, may va go'zallar vasfi bilan yo'g'rilgan she'riyat bo'lsa, ikkinchisi, pand-nasihahat, hayotning mohiyati haqidagi falsafiy mushohadalarga bag'ishlangan qasida, qit'a va nasriy risola (noma)lardan iborat bo'lib, dastlabki davrda bu ikki yo'nalish hatto bir-biriga muayyan darajada qovushmay turdi. Ammo asta-sekin ishqiy mavzu teranlik kasb etib, adab yo'nalishi bilan mazmunan yaqinlashib bordi va Abula'lo al-Maarriy (973–1058) ijodida yuksak falsafiylik, Ibn al-Farid (1181–1234) she'riyatida esa irfoniy ishqning eng oliy qabatlariga ko'tarildi.

IX–XII asrlardagi adabiyot ham ilm singari ko'proq saroyda markazlashgan bo'lib, madhiya qasidalar, ishqiy g'azallar, xamriyot (may mavzuyi), zuhdiyot (dunyo va uning hoy-u havaslari bebaqoligi va ularga mehr qo'ymaslik mavzusi), hijo (muayyan shaxslarga yo'naltirilgan hajv) kabi mavzu turlari yetakchilik qilardi, ya'ni badiiy adabiyotning vazifasi hanuz ikkinchi darajali, amaliyroq ko'rinishda edi. Shu davrda "eng yolg'on she'r – eng yaxshi she'rdir" va "eng rost she'r – eng yaxshi she'rdir" degan iboralarda o'z aksini topgan she'riyatga ikki xil yondoshuv shakllangani ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan va bunga muayyan darajada o'sha davr adabiyotining mavzu qamrovi va vazifasi, ijtimoiy voqelikda tutgan mavqeyi ham sababchidir. Hukmdorni madh etish, uning dilini xushlash, hukmdorning va o'zining shaxsiy raqiblarini hajv etish VIII–XI asrlar saroy adabiyotida yetakchi o'rin tutar va shoirning mavqeyi ham ushbu sohalaridagi yutuqlari bilan belgilanardi. Bu davr arab tilidagi she'riyat bilan boshlanib, VIII asr ikkinchi yarmidan turkiy tilidagi dastlabki asarlar (Adib Ahmad va Mahmud Koshg'ariy asaridagi ba'zi namunalar) paydo bo'lgan bo'lsa, X asr boshlaridan somoniylar saroyida Abu Abdulloh Rudakiy yetakchiligidagi baquvvat fors she'riyat maktabi shakllandi.

IX–X asrlar davomida Movarounnahr va Xurosonda har uch tilda asarlar yaratilgan bo‘lsa, XI asr boshlarida arab tili asosan ilm tili sifatida saqlanib qolib, g‘aznaviyalar saroyida asosan fors tilida va qoraxoniylar saroyida turkiy va forsiy tillaridagi she‘riyat rivoj topdi. Mahmud G‘aznaviy saroyida shakllangan nufuzli she‘riyat maktabi namoyandalari Unsuriy, Farruhiy, Manuchehriy va boshqalar madhiyaviy qasidaning mumtoz namunalari yaratdilar. Shu davrning o‘zida adabiyotda ma‘rifatchilik bosqichiga xos yana bir yo‘nalish – islomdan oldingi merosni yangicha talqinda o‘zlashtirish ham rivojlanib bordi. Arab tilidagi adabiyot vakillari johiliya davri adabiy merosini to‘plash va tartibga solishga jiddiy kirishdilar. Rum, Eron, Hind adabiyotining mashhur namunalari arab tiliga o‘girildi. Masalan, “Panchatantra” – “Kalila va Dimna”, “Xudoynamak”lar “Siyar ul-Muluk” nomlari bilan arabchalashtirildi. Keyinroq borib Rudakiy fors tilida she‘riy “Kalila va Dimna” dostonini yaratgan bo‘lsa, Unsuriy Rumning lotin va yunon tilidagi ishqiy romanlar mavzu doirasida bir necha dostonlar yozdi. Afsus, bu asarlardan bizgacha faqat ayrim parchalargina yetib kelgan. X asrda Daqiqiy va boshqa ba‘zilar “Shohnoma” yaratishga urindilar. Va nihoyat X asr oxiri – XI asr boshlarida Firdavsiy Tusiy (940–1020) o‘zining ulug‘ epopeyasini yo‘zib tugatdi. Firdavsiyning 60 ming baytga yaqin ulkan “Shohnoma” si islomgacha Eron va Turonda yaralgan boy ma‘naviy merosning o‘ziga xos badiiy qayta ishlangan qomusidir. Uning tarkibida yuzlab qahramonlar, o‘nlab alohida murakkab sujetli dostonlar mavjud. Unda asotir tafakkur mevalari va Eron, Turon xalqlari tarixi o‘z badiiy in‘ikosini to‘liq namoyon etgan.

Firdavsiy asari fors va turkiy tildagi keyingi necha asrlar badiiy mumtoz adabiyotiga mavzu va qahramonlar yetkazib bergan ulug‘ xazina bo‘ldi. Forsiy tildagi adabiyotda dostonchilik, ya‘ni ishqiy, tarixiy, qahramonlik dostonlari yozish an‘anasi mintaqa adabiyotining yetakchi yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ammo Firdavsiyga ko‘r-ko‘rona ergashganlar, yangicha talqin yarata olmadilar, hech qaysisi Firdavsiy shuhratiga yaqin bora olgan emas. Faqat Yusuf Xos Hojib singari turkiy she‘riyat vakillari butkul yangicha uslubda, yangilik yaratish yo‘lidan borganliklari uchun adabiyot tarixida munosib o‘rin egallay bildilar.

2-fasl. Mintaqa adabiyoti Alisher Navoiy talqinida

Alisher Navoiy Firdavsiy va uning “Shohnoma”sini yaxshi biladi va chuqur ehtirom bilan yodga oladi. Ammo badiiy ijod tariqi haqidagi nazariy mulohazalariga muayyan shoirlar ijodini misol keltirganda, biror-bir o‘rinda Firdavsiyni eslamaydi, u sanab o‘tgan ustozlarning tarixan eng birinchisi Sanoiydir, chunki fors tilidagi adabiyotda “Haqiqat asrori”ni (ya’ni Borliqning mohiyatini) badiiy tarzda anglab yetish va anglatishga ilk bor jiddiy ravishda kirishgan ulug‘ mutafakkir shoir Sanoiy edi. Uning “Sayr ul-ibod ilal maod” (“Alloh bandalarining qaytar makonga safari”) va “Hadoyiq ul-haqoyiq” (“Haqiqat bog‘lari”) asarlari nomlarining o‘zayoq shoir maqsadini aniq anglatib turibdi. E’tiborga sazovor yana bir jihati shundaki, Navoiy Sanoiy ijodini baholashda o‘sha davr an’anasiga zid borib, uni “haqiqat tariqi” suxanvarlari qatorida emas, “Haqiqat asrorig‘a majoz tariqini maxlut” qilganlar safida tilga olgan. Buning sababi, bizning nazaramizda; shundaki, XI asr oxirlariga borib Abulmajid Sanoiy birinchilardan bo‘lib saroy madhiyago‘yligini tark etgan va ijtimoiy-falsafiy yo‘nalishni badiiy adabiyotga dadil olib kirganligida edi.

XII asr oxirgi choragiga borganda esa saroyini, madhiyaviy qasidago‘ylikni tark etib, ijtimoiy-falsafiy yo‘nalishga o‘tgan shoirlar soni keskin ko‘paydi. XI asrda tasavvuf she‘riyati kichik lirik janrlar (ruboiy, g‘azal) bilan cheklangan bo‘lsa, XII asrdan tasavvufiy ruhdaagi dostonlar yaratila boshlandi. Va nihoyat, XII asr oxirgi choragidan boshlab, fors tilidagi she‘riyatning ikki yorqin yulduzi Nizomiy Ganjaviy va Farididdin Attor siymolari adabiyot osmonida paydo bo‘ldi.

“Mahoub ul- qulub” risolasi “avvalgi qism”ining 16-faslini Alisher Navoiy “Nazm gulistonining xushnag‘ma qushlari zikrida” deb ataydi va shunday boshlaydi:

“Ul necha tabaqadir: avvalgi jamoa nuqudi kunuzi ma’rifati ilohiydin g‘aniylar va xalq ta’rifidin mustag‘niylardur. Ishlari maoniy xazoidin ma’rifat javharin termak va el fayzi uchun vazn silkida nazm bermak. Nazm adosi bag‘oyat arjumand va benihoyat sharif va dilpisand o‘ldug‘i uchun oyoti kalomda nozil bor va hadisi mo‘jiznomda tilagan topar, chun maal-qasd emas, el hurmati jihatidin ani she’r demas”¹ (Nasriy bayoni: Ular bir necha guruhdir. Birinchi guruh ma’rifati ilohiy xazinasining naqdinalari bilan boyigan va xalq ta’rifiga ehtiyoj

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 14-jild. T., «Fan», 1998, 24-b.

sezmaganolardir. Ishlari ma'nilar xazinasidan ma'rifat gavharini termoq va u gavharni el fayz topsin uchun nazm ipiga tortmoq. Nazmlarining ifodasi g'oyat qutlug' va benihoyat yoqimli va ulug' bo'lganligidan ilohiy kalom oyatlari va Rasulullohning mo'jizali hadislari mazmunini izlagan kishi ulardan topa oladi va qasddan yozilmagani sababli el ularga ehtirom bildirib, she'r deb atashga jur'at etmaslar".) Alisher Navoiy bu toifani "haqiqat tariqining suxanvari", deb ataydi va ular jumlasidan tasavvuf adabiyotining eng buyuk siymolari Farididdin Attor va Jaloliddin Rumiylar nomlarini tilga oladi. Olim bu guruh vakillarini "avliyoi ogoh va mashoyix va ahlulloh", deb ulug'laydi. Attorga "nozimi javohiri asror" ("haqiqat sirlari javohirlarini nazmga soluvchi"), Rumiylarga "g'avvosi bahri yaqin" ("yaqinlik dengizining g'avvosi"), deb sifat beradi. Navoiy ta'riflarining qanchalar voqelikka muvofiq ekanligiga iqror bo'lish uchun Attor va Rumiylar asarlarining nomlarini eslab o'tish kifoya: "Ilohiynoma", "Asror-noma", "Mantiq ut-tayr" ("Qushlar mantiqi"), "Masnaviyi ma'naviy" va h.k. Bu asarlar haqida Sharq va G'arbda shuncha ko'p tadqiqotlar amalga oshirilganki, biz ulardan o'tkazib so'z aytish qudratiga ega emasmiz.

Navoiy "majoz tariqi" xususidagi ta'riflarga o'tib, o'zi kashf etgan haqiqatlarni shunday bayon qiladi:

"Yana bir jamoatdurkim, haqiqat asrorig'a majoz tariqin maxlut qilubdurlar va kalomlarin bu uslubda marbut etibdurlar. Andoqki, maoniy ahlining nuqtapardozi Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy va ishq ahli guruhining pokbozi va pokravi Amir Xusrav Dehlaviy va tasavvuf va diqqat mushkulotining girihkushoyi Shayx Zahiriddin Sanoiy va faridi ahli yaqin Shayx Avhadiddin va maoniy adosiga lofiz Xoja Shamsuddin Muhammad al-Hofiz.

Yana jam'e bordurlarki, majoz tariqi adosi alar nazmiga g'olib va alar bu shevaga ko'proq rog'ibdurlar. Andoqkim, Kamoli Isfaxoniy va Xoqoniyi Shirvoniy va Xojuyi Kirmoniy va mavlono Jaloliddin va Xoja Kamol va Anvariylar va Zahir va Abdulvosi' va Asir va Salmon Sovajiy va Nosir Buxoriy va Kotibiy Nishopuriy va Shohiy Sabzavoriy"¹.

(Nasriy bayoni: "Yana bir guruhdurkim, Haqiqat sirlariga majoz yo'lini aralashtiribdurlar va so'zlarini bu uslubda bog'labdurlar. Chu-

¹ O'sha kitob, 25-b.

nonchi: ma'ni ahlining nozik so'zlisi Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy va ishq guruhining halol oshig'i Amir Xusrav Dehleviy, tasavvuf va tafakkur mushkullarining chigalini yechuvchi Shayx Zahiriddin Sanoiy, haqiqat ahlining yagonasi Shayx Avhadiddin va lafz bilan ma'noni anglatishga mohir Shamsuddin Muhammad Hofiz.

Yana bir qanchalari bordurlarki, majoz yo'li ularning she'rlarida g'alaba qozongan va ular bu ravishga ko'proq rag'bat etganlar. Chunonchi: Kamol Isfahoniy, Xoqoniy Shirvoniy, Xojuyi Kirmoniy, Mavlono Jaloliddin, Xoja Kamol, Anvariyy, Zohir, Abdulvosi', Asir, Salmon Sovajiy, Nosir Buxoriy, Kotibi Nishopuriy va Shohiy Sabzavoriy"¹.

Yuqorida tasavvuf she'riyatining eng ulug' ustozlariga "haqiqat tariqi suxanvarlari" deb nom berilganini qayd etib o'tgan edik. Ko'rdikki, Navoiy "majoz tariqi"ga aloqador deb hisoblagan shoirlarni ham ikki qismga ajratadi. Nazarimizda, birinchi qismda ulug' ustozlar, ushbu yo'nalishning qudratini belgilovchilar yodga olingan bo'lib, ikkinchi qismda ijodiy qarashlari ushbu tariqqa mos tushuvchi mintaqa miqyosida nomlari ma'lum bo'lgan shoirlar sanab o'tilgan.

Endi ularni tarixiy tadrijiylikda ko'zdan kechiraylik.

"Haqiqat asroriga majoz tariqin maxlut" etganlarning tarixan birinchisi tabiiy ravishda Sanoiy (1048–1140) bo'lib chiqmoqda. Undan keyin XII asr ikkinchi yarmida yashab ijod etgan Abdulvosi' Jabaliy (vafoti 1160), Anvariyy (vafoti 1191), Asiriddin Axsmkatii (1108–1196), Xoqoniy (1120–1199), Zohir Faryobiy (vafoti 1202-yil) va boshqalar sanab o'tilgan bo'lib, bu atoqli fors shoirlari deyarli barchasi Sanoiy singari umrlarining oxirida saroy madhiyago'yiligini tark etib, ijtimoiy-falsafiy ruhda qasidalar yozishga kirishganlar. Ular ichida alohida yirik doston yozganlar deyarli uchramaydi. Bularga XII–XIII asr chegarasida yashagan Kamol Isfahoniy (vafoti 1237) va XIII asrning buyuk axloq muallimi Sa'diy Sheroziy (1189–1292)lar ham qo'shiladi. Yana bular qatorida surat ("majoz") va ma'ni ("haqiqat") nisbati xususida g'oyat muhim fikrni aks ettirgan ruboiy muallifi so'fiy shayxi Avhadiddin Kirmoniy (vafoti 1236) ham tilga olingan.

XIII asrdan faqat ikki ulug' shoir (Kamol va Sa'diy) yodga olingan bo'lsa, XIV asrga borib Alisher Navoiy "majoz tariqi"ga mansub deb hisoblagan mashhur shoirlar ro'yxati keskin oshib ketadi. Bular avvalo Navoiyning "xamsanavislik" va g'azalnavislikda g'oyat qadr etgan salafi

¹ Alisher Navoiy. Asarlar. 13-jild. T., 1966, 191-b.

Amir Xusrav Dehlaviy (1253–1325), dunyoga dong‘i taralgan Xo‘ja Hofiz Sheroziy (1320–1389) va nihoyat g‘azal va qasidalar ustasi Nosir Buxoriy (vafoti 1371-yil). XV asr shoirlaridan Navoiy o‘zidan ilgari yashab o‘tgan Kotibiy (vafoti 1436-yil) va o‘zi shaxsan tanigan Shohiy Sabzavoriy (1385–1453) ni tilga oladi. “Mahbulul-qulub”ning ikkinchi qismi “Ishq zikrida” bobida “xos ishq” egalari qatorida Amir Xusrav va Xoja Hofizlar qatorida Faxriddin Iroqiy (1207–1289) yodlab o‘tilsa, “Holoti Pahlavon Muhammad” risolasida XV asr atoqli turkigo‘y shoirlardan Mavlono Lutfiy eslanadi.

Demak, Alisher Navoiy “majoz tariqi” haqida gapirganida ikki guruh shoirlar tilga olingan, birinchi guruhi asosan XII asrda yashagan bo‘lsa, ikkinchi guruhi XIV–XV asrlarga mansub shoirlardir. Bular orasida ayrim farqlar mavjud bo‘lib, suhbat davomida yana bunga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

3-fasl. Badiiy tafakkur tariqlari – dunyoni idrok etish va uni ijodiy akslantirishning o‘ziga xos yo‘llari sifatida

Bir narsani afsus bilan qayd etish lozimki, sovet davri o‘zbek adabiyotshunosligi, ayniqsa, 30-yillardan boshlab asos e‘tibori bilan noto‘g‘ri tamoyilga yo‘naltirildi. Bu tamoyilning mohiyati bir mintaqa adabiy merosini o‘rganishda, ko‘ra bila turib, butkul begona an‘analar asosida shakllangan o‘zga mintaqa adabiyot nazariyasiga tayanishdir. Ma‘lumki, badiiy adabiyot amaliyoti bilan uning nazariyasi orasida uzviy bog‘liqlik mavjud bo‘ladi. Ammo adabiyot nazariyasi odatda bir millat adabiyoti tajribasiga emas, balki muayyan madaniy mintaqaning yetakchi xalqlari badiiy ijodi tajribalariga suyanadi va shu zaminda yaratiladi. XIX asr o‘rtalarigacha ham yaxlit jahon madaniyati emas, balki mintaqa madaniyatlari mavjud bo‘lganini nazarda tutsak, Yevropa mintaqasi xalqlari yaratgan buyuk badiiy meros Yevropa adabiyotshunosligiga asos bo‘lganligini, ammo qadim davrlardan Uzoq Sharq (Xitoy, Yaponiya, Koreya), Hindiston, Yaqin va O‘rta Sharq mintaqalarining har birida alohida o‘ziga xos mukammal rivojlangan adabiyot nazariyalari mavjudligi, bu nazariy tizimlar ushbu mintaqalardagi butun madaniy-ma‘naviy muhit, jumladan, ushbu mintaqa xalqlari badiiy tafakkuri mevalarining bevosita ta‘sirida shakllangan va o‘z navbatida ushbu mintaqa adabiyoti namoyandalari ijodiga asrlar davomida sezilarli ta‘sir ham ko‘rsatib kelganligi bugungi kunda aniq-ravshan isbot etilgan tarixiy voqelikdir. Bu haqda yaratilgan tad-

qiqotlar majmuyi ilgari ko'proq Uzoq Sharq va Janubiy Osiyo mintaqalariga oid bo'lgan bo'lsa, oxirgi yigirma yilda islom mintaqada adabiyotshunosligini o'rganish bo'yicha ham jahon ilmida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Ushbu ilmiy tahlil va kuzatishlar natijasini umumlashtirish, ularning takomil tarixini adabiy jarayon bilan bog'lab o'rganish hozirgi davr adabiyotshunosligining dolzarb masalalaridan bo'lmog'i, hatto diqqat markaziga qo'yilmog'i joiz.

Xullas, har bir mintaqada adabiyoti o'sha mintaqada yaratilgan adabiyot nazariyasi bilan mushtarak holda o'sha mintaqada ma'naviy qadriyatlarini muhitidan ajratib olinmay o'rganilsa, natijalar ham asl voqelikka muvofiq bo'ladi. Jumladan, islom mintaqada adabiyotshunosligi haqida qisqacha gapirib o'tadigan bo'lsak, quyidagilarni qayd etish o'rinlidir.

VIII–IX asrlardan oq arab tilida islom mintaqada adabiyotshunosligining o'ziga xos maktabi vujudga kela boshladi. Xalil ibn Ahmad (718–786), Ibn Qutayba (828–889), Ibn al-Mutazz (861–908) va boshqa iqtidorli nazariyotchilar qadim yunon poetikasidan mohiyatan farq qiluvchi islom she'riyat va badiiyat ilmini shakllantirishga kirishdilar. Ko'p o'tmay bu sohaga Movarounnahrda yetishib chiqqan qomusiy allomalar o'z hissalarini qo'shdilar. Forobiy, Ibn Sino, Nasriddin Tusiy kabi zabardast faylasuflar qadim yunon poetika ilmini mintaqada adabiy an'analari bilan qiyosiy o'rganib, she'riyat ilmiga oid maxsus nazariy risolalar yaratdilar. X–XV asrlarda bu yo'nalishda ijod etgan qator allomalarimizning qomusiy asarlari jahon ma'naviyat xazinasining boqiy mulkiga aylandi. Masalan, X asrda yashab arab tilida ijod qilgan vatandoshimiz Abu Abdulloh al-Xorazmiyning "Mafotih ul-ulum" ("Ilmlarning kalitlari") asarida adabiyotshunoslikka oid ilmi ma'oniy va bayon, aruz va qofiya, badiiy san'atlarga alohida boblar ajratib, bu ilmlardagi har bir atamaga ta'rif va tavsif berilgan. XI asrda yashab ijod etgan O'rta osiyolik alloma Abu Xafs an-Nasafiy o'zining "Majma' ul-ulum matla' un-nujum" ("Ilmlarning jam bo'lishi – yulduzlarning chiqishi") qomusiy risolalar to'plamiga aruz ilmiga oid "Muxtasar al-aruz ala usul al-ma'ruz" asarini kiritgan. XI asrda vatandoshimiz Abul Hasan Nasr al-Marg'iloniy badiiyat ilmi bo'yicha arab tilida "Mahosin al-kalom" asarini ta'lif etdi. Shu asrda yashagan Abu Qohir al-Jurjoniy (vafoti 1078-yil) Qur'oni karim oyatlarining yuksak badiiy qudratini ilmiy tahlil asosida dalillab berishga bag'ishlangan "Daloyil ul-e'joz" va "Asror ul-balog'a" asarlarida mutlaqo o'ziga

xos *badiiy timsol nazariyasini* kashf etdi. XI asr oxiri – XII asrdan boshlab fors tilida ham poetikaga oid maxsus asarlar yaratila boshlandi. Ularning birinchisi Roduyoniyning “Tarjumon ul-balog‘a” asari bo‘lsa, ikkinchisi xorazmlik ulug‘ alloma Rashiddin Vatvotning qator asarlari, ayniqsa, mashhur “Hadoiyq as-sehr fi daqoyiq ash-she‘r” (“She‘riyat teranliklarida sehr bog‘lari”) risolasidir. XII–XIII asrlarda “arab va ajam faxri” deb dong taratgan xorazmlik alloma Mahmud az-Zamaxshariy “Al-qustos fil aruz” nomli ilmiy risolasini yozdi. Uning kichik zamondoshi va yurtdoshi Yusuf as-Sakkokiy o‘zining filologiyaga oid “Miftoh ul-ulum” kitobining katta bir bobini she‘r ilmiga bag‘ishladi. Keyingi asrlarda mintaqada turkiy tilda ham adabiyot nazariyasiga oid asarlar yaratildi. Jumladan, Mirzo Ulug‘bek zamonida yaratilgan Taroziyning ushbu mavzudagi ilgari fanga noma‘lum bo‘lgan “Funun al-balog‘a” risolasining qo‘lyozmasi bir necha yil oldin AQShga ilmiy safar bilan borgan tilshunos olim E.Umarov tomonidan topilib, ilmiy iste‘molga kiritildi. Shunday qilib, VIII–XV asrlarda mintaqamizda arab, fors va turkiy tillarda mukammal bir adabiyotshunoslik nazariy maktabi shakllangan edi. Allomalarimizning tilga olingan asarlari keyingi necha asrlar davomida islom mintaqasining turli davlatlarida qayta-qayta ko‘chirilib, ilm ahli tomonidan chuqur o‘rganildi, oliy madrasalarda uning asosida she‘r ilmi alohida fan sifatida o‘rgatildi. Ajdodlarimiz yaratgan bu ilm nafaqat Xorazm yoki Movarounnahr, balki butun islom mintaqasida keng o‘rganildi va amalda qo‘llanildi. Ushbu qimmatli nazariy merosni jiddiy tahlil etib, allomalarimizning xizmatlarini yuzaga chiqarish, mumtoz shoirlarimiz she‘riyatiga uni tatbiq etish, badiiyat ilmining ko‘z ilg‘amas nozik tomonlarini hozirgi zamon shoirlariga ochib berish va ularni ham buyuklarimiz yaratib ketgan ulug‘ merosdan bahramand etish bugungi kun adabiyotshunosligining kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalaridandir.

Badiiy tafakkurning o‘z qonun-qoidalari bor. Asotir tafakkur, mantiqiy tafakkur, irfoniy tafakkur kabi bu ham borliqni idrok etishning o‘ziga xos bir yo‘li (tariqi, usuli)dir. XV asr oxirida Alisher Navoiy o‘zigacha 8 asr davomida mintaqa miqyosida keng rivojlanib borgan badiiy tafakkur ilmini yanada yuksak nazariy umumlashmalar darajasiga ko‘tarib, jahon ma‘naviyati takomiliga o‘zining mustaqil bosqich darajasidagi kashfiyotini olib kirdi.

Alisher Navoiy yaratgan nazariya badiiy tafakkur tariqi masalasiga oid bo‘lib, Yevropada bu ilmiy yo‘nalish Sharqdan ancha keyin –

XVIII asrdan shakllana boshladi va XX asrdagina yakuniy natijalarga erishdi. Yevropa adabiyotida barokko, klassitsizm, romantizm, realizm nomlari bilan ataluvchi hodisalar Yangi davrda paydo bo'ldi. Rus tadqiqotchilari bunday hodisalarni “литературное направление или течение” (adabiy yo'nalish va oqim) deb atadilar va keyinchalik shuning asosida ijodiy yoki badiiy metod (творческий или художественный метод) nazariyasini shakllantirdilar. Afsus, 30-yillar mafkuraviy tazyiqi bilan bu nazariya asosan Stalin tomonidan “sotsialistik realizm” deb sun'iy nom ostida tiqishtirilgan proletar realizmi metodining totalitar hukmronligini ta'minlash maqsadlariga bo'ysundirilgani sababli, barchaning jig'iga tegib, asl muammo bir chetga surilib qola boshladi. Vaholanki, adabiyot nazariyasining o'zak tomiri baribir badiiy tafakkur tariqi sifatida shakllanadigan dunyoni idrok etish va uni ijodiy akslantirishning o'ziga xos yo'llarini aniqlay bilish va uni har tomonlama sharhlab ko'rsatishdan iboratdir. Alisher Navoiy ushbu nazariy masalani XV asr oxirida birinchi marta ochiq-ravshan belgilab va sharhlab bergan edi.

Qadim yunon tilida “metodos” nima ma'noni bildirsa, IX–XV asrlar islom mintaqa madaniyatining ilmiy atamalar tili bo'lmish arab tilida “tariq” so'zi ham xuddi shu ma'noni, ya'ni “yo'l”, “borliqni anglab yetish va aks ettirishning o'ziga xos yo'li” ma'nosini anglatar edi. Alisher Navoiy ushbu atamadan foydalanib, islom mintaqa adabiyotida “haqiqat tariqi” va “majoz tariqi” deb atalmish ikki adabiy yo'nalishni ajratib ko'rsatdi va ularning har birini qisqacha ta'riflab berdi. Bu hodisa Yevropa adabiyotshunosligi erishgan yutuqlardan 5 asr ilgari yuz bergan edi. Badiiy ijodga Borliq mohiyatini idrok etish va ijodiy akslantirishning alohida bir yo'nalishi sifatida ongli yondoshuv islom mintaqasida Yevropadan ancha ilgari, XII–XIII asrlarda boshlangan edi.

4-fasl. Alisher Navoiy “majoz ishq” haqida

Ushbu bob avvalida biz islom mintaqa adabiyotining rivoji haqida gapirar ekanmiz, dunyoni idrok etish va uni ijodiy akslantirish nuqtayi nazaridan ham adabiyot taraqqiy etib borganiga ishonch hosil qildik. Alisher Navoiyning nazariy kuzatishlari bilan adabiy jarayonining borishini qiyoslab xulosa qilish mumkinki, bu taraqqiyot ikki katta davrga bo'linadi.

Birinchisi, VII–XI asrlar bo'lib, bu davrning eng yuksak namunasi

Firdavsiy "Shohnoma"si deyish to'g'ri bo'ladi. Ushbu bobning birinchi faslida bu davrni qisqacha tavsiflab o'tdik. Alisher Navoiyning badiiy ijod tariqiga oid mulohazalari bu davrga daxl etmaydi.

Ikkinchi, yirik davr XII–XV asrlar bo'lib, Alisher Navoiy yuqorida ko'rib o'tilgan mintaqa adabiyotiga oid nazariy mulohazalarida ayni shu davr shoirlariga e'tibor qaratadi. Nega?

Ma'lumki, adabiyot mavzularining markazida inson, uning ruhiyat dunyosi yotadi. Insonning kechinmalari esa, asosan, ikki yo'nalishda kechadi: biri – insonning Oliy haqiqatga, Haqqa, Borliqning mohiyatiga, sodda qilib aytsek, maxluqning Xoliqqa munosabati, nisbati masalasi; ikkinchisi, insonning o'zi singari maxluqlarga, ya'ni o'zga insonlarga, atrof-voqelik, mavjud jamiyatga munosabati.

Birinchi yo'nalish Insonni o'z ko'ngli bilan suhbatga chaqiradi, ruhiyatning ichki teran qatlamlariga yo'nalgan bo'ladi. Ikkinchi yo'nalishda ijtimoiy munosabatlar tizimida har bir insonning o'rni masalasi ko'proq e'tibor qaratiladi.

Sanoiy ijodida har ikki yo'nalish aralash tadqiq etilgan, Navoiy iborasi bilan aytsek: "Haqiqat asroriga majoz tariqi maxlut" etilgan. Bu ulug' mutafakkir shoirning mintaqa she'riyatida mavqeyi shu qadar balandki, "haqiqat tariqining suxanvari" Fariddin Attor ijodi ham, xamsanavislik an'anasi boshida turgan Nizomiy Ganjaviy dostonchiligi ham uning "Hadiqa"sidan sarchashma oladi. Jaloliddin Rumiy yozgan edi:

*Attor ruh budu Sanoiy du chashmi o',
Mo az pai Sanoiyu Attor omadem'*

*(Attor ruh edi, Sanoiy uning ikki ko'zi,
Biz Sanoiy va Attor izidan keldik.)*

Buyuklarning biror so'zi behikmat bo'lmaydi. Nega Mavlono Jaloliddin Attorni "ruh"ga, Sanoiyi esa "ikki ko'z"ga qiyos etadi? "Hadoiyiq ul-haqiqa" asarini Yevropa sharqshunoslari uzoq vaqt "tasavvuf qomusi" deb talqin etdilar. Lekin bu asarni diqqat bilan o'rgangan Y.E. Bertelsning guvohlik berishiga ko'ra, unda na "tariqat" iborasi uchraydi, na "Haq vasli" haqida so'z boradi. "Hadoiyiq" 10 bobdan iborat bo'lib, ularning birinchisi "tavhid", ikkinchisi "na't" (payg'ambar madhi), uchinchisi aql va to'rtinchisi ilm haqida, beshinchisi ishq

¹ Бертельс. Е.Э. Избранные труды. Низами и Физули. М., «Наука», 1962, с. 174.

haqida bo'lib, Sanoiy Abu Ali ibn Sinoni tanqid qiladi va ishqni aqldan ustun qo'yadi. Oltinchi bob "nafsi kull" haqida bo'lib, uni shoir piri murshid qiyofasida tasvirlaydi. Yettinchi bob ilmi nujumga bag'ishlangan. To'qqizinchi bob do'stlik va dushmanlik haqidagi hikoyatlarni o'z ichiga olsa, oxirgi o'ninchi bobda Sanoiy o'z tarjimayi holidan so'zlab, bu dunyoga etak siltab, zohidlikni ixtiyor etganligi sabablarini bayon qiladi. Shoir faxr bilan aytadi:

*Yek suxan z-in-u olami donish,
Ham chu Qur'oni porsu donash¹.*

*(Bunda har so'z – bir olam bilim,
Xuddi fors tilidagi Qur'on deb bilgudek)*

Shoir bu dostonida so'z kamolini eng yuksak darajaga olib chiqqanini ta'kidlab, o'zini hazrati Muhammad (s.a.v.) ga qiyosan "Shoirlar xotami" (oxirgi yakunlovchi shoir) deb ataydi:

*Xotami anbiyo Muhammad bud,
Xotami shoiron manam, hama sud.*

*(Payg'ambarlar oxirgisi Muhammad edi,
Shoirlarning yakunlovchisi menman,
So'zim boshdan oyoq hammasi foydali.)*

Shoirlarning bu faxriyalari lof emas edi, darhaqiqat, Sanoiy mintaqa she'riyatining muayyan bosqichi uchun (aniqrog'i, she'riyatdagi saroy ma'rifatchiligi bosqichi uchun) o'z ijodi bilan yakun yasab berdi va G'azzoliy singari ishqning aqldan ustunligi haqida xulosa chiqardi.

Undan keyin, yuqorida ko'rib o'tganimizdek, zamonasining boshqa yetakchi shoirlari ham asta-sekin saroyini va madhiyago'ylikni tark eta boshladilar. Navoiy ko'zda tutgan "majoz tariqi"ning birinchi bosqichi asosan ushbu yangi yo'nalishga o'ta boshlagan shoirlar ijodidan, ya'ni XII asr ikkinchi yarmidan boshlanadi.

Sanoiy ham G'azzoliy singari tom ma'nodagi so'fiy emas, ammo Sanoiy boshlab bergan yangi bosqich uning izdoshlarida ikki yo'nalishda rivoj oldi: biri Attor yo'nalishi, ikkinchisi Nizomiy Ganjaviy yo'nalishi. Bu ikki yo'nalishning farqi nimada?

¹ O'sha asar 177-b.

Koʻrdikki, Sanoiy “ikki koʻz”ga qiyos etildi. Koʻz tashqaridagi narzalarni koʻradi, ichkaridan tashqariga yoʻnalgan boʻladi. Attor esa “ruh” – uning nazmdan maqsadi “asrori ilohiy adosi” (“ilohiy sirlarni bayon etish”) – inson ruhiyatidagi ilohiy asror pardalarini birma-bir ochib koʻrsatish. Jaloliddin Rumiy ham shu yoʻldan bordi. Asli tasavvuf sheʼriyatining mohiyati ham, bizning fikri ojizimizcha, shunda.

Irfon – oʻzlikni anglashdir. Men kimman? Yagona Allohga mening nisbatim qanday? Tasavvuf shu savolga javob qidiradi. Uning javobi qisqa va sodda qilib ifodalanganda, quyidagichadir: Haq – yagona va mutlaq borliq, Ahad (yakkalik, birlik). Haq oʻz jamolini koʻrmoq istaydi va oʻziga koʻzgu sifatida moddiy borliqni bunyod etadi. Soʻfiylar Haqning asl zotini Haqiqat va uning mazhari, qiyosan aytganda, koʻzgdagi aksini “majoz”, deb ataydilar. “Haqiqat” va “majoz” tazodi shundan boshlanadi. Ammo tasavvuf mashoyixlari ushbu tazodga turli davrda turlicha yondoshib keldilar. Masalan, buyuk tasavvuf shoiri Farididdin Attor eng mashhur asari “Mantiq ut-tayr”da qushlarni Simurgʻ sari daʼvat etuvchi Hudhud tilidan shunday xitob qiladi:

... *Ey, giriftori majoz,*
Az sifat dur-u ba surat monda boz¹.
(...Ey, majoz tuzogʻiga ilingan,
(ichki) sifatdan uzoqlashib,
(tashqi) suratga mahliyo boʻlib qolgan.)

XIII asr boshida Attor mohiyatga eʼtibor berishni talab qilmoqda, “majoz”, yaʼni tashqi moddiy dunyo hoy-u havaslariga berilib ketishdan qaytarmoqda. Ammo XIII asr oxirlarida yashab oʻtgan shayx Avhadiddin Kirmoniy (vafoti 1298-yil) ushbu nisbatni biroq boshqacharoq talqin etadi:

Z-on minigaram ba chashmi sar dar surat,
Zero-ki zi maʼnest asar dar surat.
In olami suratest-u mo dar suvarem,
Maʼni natvon did magar dar surat².

(Shu sababdan boshdagi koʻz bilan suratga tikilamanki,
Suratda maʼnoning izi bordir.

¹ Sittayi Farididdin Attor (OʻzFA Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmalar xazinasi, inventar №813), 17a-varaq.

² Alisher Navoiy. Asarlar. 15-jild. T., 1968, 166-b.

*Bu olam suratdir, biz suratlar ichidamiz,
Ma'noni suratdan tashqarida ko'rish mumkin emas.)*

Ya'ni, inson oliy haqiqatni (Borliqning yagona oliy mohiyatini) bevosita uning mazharidan (moddiy borliqda o'zligini ko'rsatishi, zuhur etishi, namoyon bo'lishidan) tashqarida ko'ra olmaydi, chunki u o'zi ham shu mazhardan tashqarida emasdir ("surat" ichidadir). Inson ruhida Borliq haqiqati bilan uyg'unlik hosil bo'lishi uchun, birinchi navbatda, o'zga insonlar bilan o'zaro uyg'unlikka intilish, ular dilidan Borliq haqiqatini qidirishi lozim, boshqa yo'l bilan bu maqsadga erishib bo'lmaydi. Mana shayxning xulosasi. Ammo bu xulosa Naqshbandiyaning shiori singari Irfonning nihoyasidir. Bundan keyingi bosqich tasavvufdan tashqarida, biroq tasavvuf bosqichini tugal o'tmay turib, olg'a siljishga urinish ham mukammal ma'naviy takomilni ta'minlamasligi aniq.

Adabiyotning asosiy mavzusi insonning ruhiy kechinmalari bo'lsa, bular ichida eng go'zali, eng yuksak darajasi, eng ta'sirchani ishq-muhabbatga oid kechinmalar bo'lib, shu sababli *ishq mavzusi* butun zamon va makonlar adabiyotida yetakchi mavzu sifatida ko'zga tashlanadi. Ammo unga yondoshuv hech qachon bir xil bo'lgan emas.

Islom ma'rifatchiligi bosqichining eng yuksak namunasi bo'lmish Ibn Sino falsafiy merosida alohida "Ishq haqida risola" uchraydi. Oldingi boblardan birida bu haqda batafsil gapirgan edik. Ibn Sino ishqqa, bir tomondan, tibbiyotchi-tabiathunos sifatida yondoshsa, ikkinchi tarafdin ishqning so'fiyona talqinlariga ham e'tibor beradi. G'azzoliy ta'limotida bu yondoshuv yanada izchil shakl olib, alloma insoniy mehrning barcha turlarini oxir-natijada Allohga muhabbat, ya'ni "ishqi ilohiy" yoki tasavvufiy atamada "ishqi haqiqiy"ga bog'laydi. Bu qarash XII–XIII asrlar davomida yetakchi yo'nalish bo'lib keldi. Bu davr shoirlari ikki toifa bo'lib, birinchilari butun fikru-zikrlari bilan "ishqi haqiqiy"ga intildilar, "Haq asrori"ni izlash ular uchun har narsadan muhim bo'ldi, ya'ni she'riyat imkoniyatlarini ular tasavvuf g'oyalarini ifodalash uchun safarbar etdilar. Shu sababli Navoiy ularni "haqiqat tariqining suxanvarlari" deb ta'rif etadi va bu yo'nalishning eng atoqli vakillari sifatida Navoiy Farididdin Attor va Jaloliddin Rumiylarni ko'rsatib o'tadi. Ular bilan hamzamon yashagan Sanoiy, Anvariy, Xoqoniy, Sa'diy kabi ikkinchi yo'nalish vakillari esa "Haq asrori" mavzusini "majoz tariqi"ga, ya'ni inson hayotining dunyoviy

muammolariga “maxlut qilib” (aralashtirib) bayon etdilar, ya’ni irfoniy g’oyalari bilan ijtimoiy muammolarni uyg’unlashtirishga intildilar. Lekin hali irfoniy muammolarning o’zi tugal yechimini topmagani uchun, bu shoirlar ijodida irfoniy va ijtimoiy masalalar ko’pincha yonma-yon, aralash (Navoiy tili bilan “maxlut”) izhor etilar, hanuz ular yetarli darajada uyg’unlashmagan edi.

Ammo XIV asr boshlaridan bu sohada jiddiy o’zgarish ro’y berdi. Amir Xusrav Dehlaviy 40 yoshdan oshib, uch devon va bir yirik doston sohibi bo’lgach, Nizomiy “Xamsa”sining mohiyatiga alohida e’tibor qaratdi va astoydil unga javob yozishga ahd qildi. Ota-bobolari shahrisabzlik turkiy qavmlardan bo’lmish bu buyuk iste’dod egasi Nizomiyning “Xusrav va Shirin” dostoniga javob sifatida yozilgan asarining muqaddima qismida yana “ishqi haqiqiy” va “ishqi majoziy”dan gap ochadi va o’z ijodida uzil-kesil “ishqi majoziy”ni bosh mavzu qilib tanlaganini bayon etadi. Shoir bu fikrlarini bevosita “Xamsa”dan keyin yozilgan “Do’valroniy va Xizraxon” dostonida ham yana bir bor ta’kid etadi.

Navoiy ongli ravishda Dehlaviy an’anasini davom ettirdi va «Xamsa»ning besh dostonida «majoziy ishq»ning mukammal badiiy tasviri va talqinini yaratdi. «Xamsa» an’anasiga biz keyingi bobda batafsilroq to’xtalamiz. Hozircha qayd etish zarurki, «Xamsa» dostonlari «majoziy ishq» tasviridagi eng mukammal tizim darajasiga ko’tarilgan yaxlit badiiyat olami bo’lib, uni Borliq haqiqatining badiiy modeli deyish mumkin. Bu modelga jon baxsh etuvchi ichki quvvat manbasi esa — ishq. Ishqni Navoiy inson uchun o’zlikni anglash yo’li, “Haqiqat asrori” ganjinasining kaliti deb biladi. Shoir “Layli va Majnun” xotimasida yozadi:

*Ey ishq, g’arib kimiyo sen,
Bal oyinayi jahonnamo sen.
Ham zotingga darj kimiyoliq,
Ham oyinayi jahonnamoliq...
Xurshedi jahonkushoy sensen,
Mir’oti jahonnamoy sensen,
Kim qildi senga nazarni ravshan,
Ko’rdi yer-u ko’kdagin muayyan.
Chun boqqali ixtiyor topti,
Har soriki boqti yor topti!*

¹ Alisher Navoiy. Xamsa. T., 1960, 447-b.

Ko‘rinib turibdiki, shoir muhabbatga g‘aroyib kimiyo, ya‘ni misni oltinga aylantira oluvchi sehrli kuch, insonga Borliq sirlarini oshkor qiluvchi ko‘zgu, deb ta‘rif bermoqda. Buning ma‘nosi shuki, Alisher Navoiy, salaflari Nizomiy va Dehlaviylar izidan borib, badiiy va ilmiy-ijtimoiy tafakkurida «ishq» tushunchasiga, birinchi navbatda, ijtimoiy-axloqiy munosabatlar nuqtayi nazaridan qaraydi, shu asosda «majoziy ishq»ni voqe‘ hayotdagi insonlararo muomalada birinchi o‘ringa chiqaradi, o‘zak mohiyatga aylantiradi. Inson ma‘naviy kamoloti darajasini ushbu mahak toshiga urib o‘lchaydi.

Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida Nizomiy va Dehlaviylar qalamga olmagan bir mavzuga alohida ahamiyat berilgan va aytish mumkinki, turkiy dostonning mazmun-mohiyatiga ushbu mavzu kalit vazifasini o‘tagan. Bu Farhodning Yunonistonga safari va Suqrot bilan uchrashuvidir. Qadim Yunon falsafasining timsoli etib tanlangan Suqrot Farhodning kelajak taqdiridan bashorat etar ekan, unga nasihat qilib, bu dunyoning o‘tkinchiligi, inson hayotidan asl maqsad «ishqi haqiqiy», ya‘ni Haq vasliga intilish ekanligi, buning uchun inson, avvalo, o‘zligidan, o‘z xudbin nafsidan kechmog‘i lozimligini ta‘kid etadi va deydi:

*Bu o‘zlukdin qutulmoq chorasozl,
Nima yo‘q, o‘ylakim ishqij majoziy...
Majoziy ishq bo‘ldi subhi anvar,
Haqiqiy ishq anga xurshedi xovar...
Sening olingdadir ishqij majoziy,
Ki jisming o‘rtabon so‘z-u gudozi
- Ham ovozungni ofoq ichra solg‘ay,
Ham ovozing ko‘xan toq ichra solg‘ay’.*

Doston mundarijasiga ko‘ra, Farhod Yunonga Iskandar ko‘zguning sirini yechish maqsadida borgan edi. Suqrotning “ishqi majoziy” haqida gapirganlari ayni shu tilsimli ko‘zguga aloqador bo‘lib chiqdi. Chunki ko‘zguda Farhod taqdiri aks etgan, bu taqdir esa, Suqrot aytganidek, “ishqi majoziy” bilan bevosita bog‘liq ekan. Shunday qilib, “majoz tariqi” shoirlari nuqtayi nazariga ko‘ra, Borliq sirlarini namoyon etuvchi qudrat – ishq. Payg‘ambarimiz “al-majozu qantarat ul-haqiqat” (majoz haqiqatning ko‘prigidir) deganlar. Suqrotning

¹ O‘sha asar. 219-b.

soʻzlari ham ayni shunga ishora etadi. Ammo yana bir masalani aniqlab olish ehtiyoji bor. Tasavvufda “ishqi haqiqiy” – Haq vasliga intilish, “ishqi majoziy” insonlarning bir-biriga, bu dunyo ashyolariga boʻlgan ishq deb talqin etildi va koʻp hollarda biri ikkinchisiga zid qoʻyib kelindi. Ikkinchisi birinchisiga oʻtish yoʻli, koʻprigi boʻlishi uchun yana qandaydir aniqlik kiritish lozim emasmikin? Alisher Navoiy ijodining uchinchi bosqichida – “Lison ut-tayr” va “Mahbub ul-qulub” asarlarini yaratib, ana shu muhim nazariy masalalarni hal qilib berdi.

Alisher Navoiy “Mahbub ul-qulub” asarining ikkinchi qismi 10-bobini “Ishq zikrida” deb atadi va unda ishq tasnifidagi oʻsha davrlarda mavjud anʼanani takomillashtirib, shungacha oʻzi ham ishlatib kelgan *ishqi haqiqiy* va *ishqi majoziy* tushunchalari oʻrniga *avom ishq*, *xos ishq* va *siddiqlar ishq* deb nomlangan yangi tushunchalarni kiritdi:

“Ishqqa marotibdur va ul uch qism bila munqasim boʻlur.

Avvalgʻi qism *avom ishqidurki*, avomunnos orasida bu mashhur va shoedurkim, derlar: “Falon falongʻa oshiq boʻlubtur”. Va bu navʻ kishi har navʻ kishigʻa boʻlsa boʻlur, shagʻab va iztiroblaricha lazzati jismoniy va shahvati nafsoniy emas va bu qismning biyikrak martabasi sharʻiy nikohdurkim, bari xaloyiqqa sunnatdur va muboh. Va pastroq martabasida parishonliq va mushavvashliqlar va besomonliq va noxushliqlareki zikri tarki adabdur va bayoni behijobliqqa sabab”¹.

(Qisqartirilgan nasriy bayoni: “Ishq uch qismga boʻlinadi. Birinchi qism – oddiy odamlar(avom) ishq boʻlib, xalq orasida mashhur va keng tarqalgandir... Bu ishq jismoniy lazzat va shahvoniy nafs bilan chegaralanadiki, oliy martabasi – shaʻriy nikohdir... Quyiyoq martabasida janjal, tashvishlar, koʻngilsizlik va sharmandaliklar koʻrinadiki, bu haqda soʻzlash – odobsizlik, bayon etish hayosizlikdir”)².

“Ikkinchi qism *xavos ishqidurkim*, xavos ul ishqqa mansubdurlar. Ul pok koʻzni pok nazar bila pok yuzga solmoqdur va pok koʻngil ul pok yuz oshubidin qoʻzgʻalmoq va bu pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz mahbubi haqiqiy jamolidin bahra olmoq”³. («Ikkinchi qism – alohida fazilat egalariga xos ishq boʻlib, bu xos ishqqa mansub shaxs-

¹ Alisher Navoiy. Asarlar. 13-jild T., 1966, 42-b.

² Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub, T., 1983, 51–52-b.

³ Alisher Navoiy. Asarlar 13-j., 42-b.

lar pok ko'zni pok niyat bilan pok yuzga soladilar va pok ko'ngil u pok yuzning shavq-zavqi bilan beqaror bo'ladi. Va bu pok yuz vositasi bilan pok oshiq haqiqiy mahbubning jamolidan bahra oladi")¹.

Matn davomida "ishq ahlining pokbozlari" qatorida Amir Xusrav Dehlayiy, Shayx Iroqiy va Xoja Hofiz Sheroziylar ta'rif qilinadi. Bulardan ikki ustoz shoir va mutafakkirni Alisher Navoiy "haqiqat asroriga majoz tariqin maxlut qilgan"lar qatorida eslab o'tganligini yuqorida ta'kid etdik. Uchinchi zot shayx Faxriddin Iroqiy (1217–1289) bo'lib, bu so'fiy-shoir va irfoniy faylasuf Hamadonda tug'ilib, 18 yoshida Hindistonga shayx Bahouddin Zakariyo huzuriga borib, tasavvuf yo'lga kiradi va so'ngra Arabiston orqali Kichik Osiyoga o'tib, Qo'nyada shayx Sadriddin Qo'nyaviy suhbatiga erishadi. Shu yerda Ibn al-Arabi irfonini o'rganib, uning ruhida "Lama'ot" kitobini yozadi. Alisher Navoiy bu kitobga qiziqib, ustozni Jomiydan unga sharh yozishni iltimos qilgach, Jomiy "Asha'ot ul-lamaot" risolasini yozib, o'z sharhi asosida Navoiyga Iroqiy irfonidan ta'lim beradi². Iroqiyning "Ishqno-ma" deb ataluvchi alohida masnaviysi ham mavjud bo'lib, unda irfoniy ishq holat va sifatlari maxsus sharhlangan.

Navoiy tasavvuf she'riyati namoyandalari ijodida aks etgan "ishqi haqiqiyga quyidagicha ta'rif beradi: «Uchinchi qism — siddiqlar ishqidurkim, Oliy haqiqatning tajallisi (nurlanishi) jamolig'a uning (moddiy olam mavjudotlari qiyofasidagi) ko'rinishidan tashqari, bevosita maftun bo'lganlar va o'zlarini shu yo'lga taslim etganlar va ushbu (oliy haqiqat jamolini bevosita) ko'rishga intilish behushligida idrok qilish qobiliyati ulardan begona bo'lgan. Ularni (Oliy haqiqatni bevosita) ko'rish (istagi) butkul g'arq etgan va ular g'arq bo'lishdan o'tib, halok bo'lish darajasiga yetganlar...»³ «Agar hodisalar bo'roni osmon gulshanining bir qabatini uchirib ketsa — ular bexabar va agar yulduzlar gulbargini har tomonga sovursa, bularga ta'sir qilmaydi. Ularning hislari Haq jamolini ko'rish tashvishi bilan ishdan chiqqan, shavq-zavqlari esa, unga bo'lgan ishq hujumlari ostida yo'qolib bitgan...»⁴

¹ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub, 52-b.

² Alisher Navoiy. Asarlar, 14-jild. 1967, 46-47-b.

³ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami., 14-j. T., 1998, 70-b.

⁴ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. 1983, 54-b. (Ushbu uchinchi ishq ta'rifi mustaqil qaramlik davrida ommaviy nashrlarda tushirib qoldirdilar va faqat arab yozuvida bosilgan yig'ma nusxadagina mavjud. Biz uni tushunarli bo'lishi uchun faqat nasriy bayonda ifoda etdik — muallif.)

Har uch qism ishq ahliga Navoiyning munosabati ular ta'rifida so'z tanlash va qaysi jihatlarini ajratib ko'rsatishidan ham bilinib turibdi. «Mahbub ul-qulub» – ijtimoiy-tarbiyaviy asar. Unda muallif o'z qarashlarini ham izchil mantiqiy bayon orqali, ham jumalardagi ta'sirchanlik, badiiy tasvir vositalarining maxsus tanlanishi orqali izhor qilgan. Shu jihatdan shoirning uchinchi qismdagi oshiqlar («siddiqlar»), ya'ni tasavvuf ahliga munosabatida ular e'tiqodiga ehtirom tuyg'ulari bilan bir paytda ularning moddiy dunyo, real insonlar tashvishidan uzoqlashib ketganliklari, «xalq g'amidin g'ami» yo'qligiga muayyan ishoralar ham mavjud.

Ammo asosiy gap bunda emas. Alisher Navoiy to oxirgi asari bo'lmish «Mahbub ul-qulub» yozilgunga qadar o'zi ham *majoziy ishq* deb ishlatib kelgan hodisani umri nihoyasida mohiyatan alohida ikki turga farqlab, birini *avom ishq*i va ikkinchisini *xavos ishq*i deb nomladi. Shu bilan Farhod va Shirin, Layli va Majnun kabi boshdan-oyoq pok tuyg'ularga yo'g'rilgan «alohida fazilat egalariga xos ishq»ning ko'pchilik odatda ko'zda tutadigan yigit-qiz orasidagi oddiy «oshiq-ma'shuq»likdan ham, Oliy haqiqatning mutlaq jamoliga oshufta tasavvuf ahli intilishlaridan ham butunlay farq qiluvchi mumtoz bir tuyg'u, alohida holat ekanligini maxsus ta'kid etishga erishdi. Suqrot tilidan *haqiqiy ishq* yo'lida bir vosita sifatida ta'rif etilgan *majoziy ishq* aslida Navoiy badiiyat olamida mustaqil hodisa sifatida o'zligini namoyon etdi. Bu hodisaning mohiyati shunda ediki, unda insonning Oliy haqiqatga, Haqqa, Borliqning mohiyatiga munosabati uning o'zga insonlarga, atrof-voqelik, mavjud jamiyatga munosabati bilan uyg'unlik hosil qilardi. Badiiy ijod mazmunidagi mana shu teranlikka erishish yo'li «majoz tariqi» deb nom oldi. Milliy ma'naviyatimiz takomilidagi ushbu eng yuksak bosqichni alohida inson ma'naviy kamoloti jara-yoniga tatbiq etsak, -uni biz bugungi tilda *mehr ma'rifati* deb ataganimiz ma'qul.

Navoiy she'r ishq haqida bo'lmasa, bekorchi so'z deb hisoblaydi: «So'z kim dard choshnisidin harorati bo'lmag'ay va nazmkim, ishq haroratidin hirqati bo'lmag'ay, nursiz sham' bil va sarvarsiz jam' gumon qil. Hosilikim, so'zga bu taronadur va mundin o'zga barcha afsonadur va so'z ishq so'zidur va ko'ngulda hayot nash'asi ishq o'zidur». Oxirgi jumla nihoyatda go'zal va ma'noli – shoir nazarida inson hayotining mazmuni va zavqi ishqdan tashqari emas.

Navoiy yigitlik chog'laridan Jomiyini o'ziga pir tutgan, keyincha

undan tasavvuf irfoni bo'yicha ta'lim olgani yuqorida qayd etildi. "Mahbub ul-qulub" da shoir ustozini "haqiqat va majoz tariqida komil va ilmi har ikkalasi tariqida vofiy va shomil", deb ulug'laydi. Darhaqiqat, Jomiy nafaqat irfoniy tuyg'ular ifodasida, balki majoziy ishq tasvirida ham nihoyatda yuksak mahorat ko'rsata olgan. Ammo bari-bir Jomiy tasavvuf shoiri ekanini unutmaydi. Yusuf va Zulayho, Layli va Majnun, Solomon va Absollarning otashin muhabbatini ehtiros bilan gavdalantirib bergach, asar oxirida barcha majoziy timsollarning irfoniy sharhini berishni unutmaydi. Ya'ni Attor kabi Jomiy uchun ham "majoziy ishq" ramzdir, allegoriyadir.

Nizomiy, Dehlaviy, Sa'diy, Hofiz esa unday qilmaydilar, ular uchun majoziy ishq mustaqil qiymatga ega. Navoiy hatto "Lison ut-tayr" da ham majozni allegoriya, ramz ma'nosida qo'llamaydi. Majoz tariqi namoyandalari majozda Haqiqat asrorini ko'radilar. Navoiy yozadi:

*Ko'rmasa husni majozni ichra juz Haq sun'ini,
Oshiqkim bo'lsa ishq atvori ichra pokboz.
Zohido, bu ishqdin man' aylama oshiqnikim,
Gar sen idrok aylasang, ayni Haqiqatdir majoz¹.*

Xalqimiz aytadiki, bir ish qilsang "xolisaniulloh" qilgin, ya'ni xolis Alloh taolo yo'lida qilingan har bir ish xayrlidir, agar unga xudbinlik, g'araz aralashsa yaxshi ko'ringan ish ham yomonlikka olib keladi. Navoiy ishlatgan "pokboz" sifati ayni shu xolislikni, beg'arazlikni anglatadi.

Naqshbandiya tariqati irfoniy tafakkurning oliy cho'qqisi bo'ldi. Ammo Bahouddin Naqshband (1318–1383) yashagan davrni biz keyingi *Majoz tariqi* bosqichiga taalluqli hisobladik. Nega? Chunki bu ulug' irfon muallimidan bizga yodgor qolgan hikmatlar – "xilvat dar anjuman", "dil ba yor-u dast ba kor" o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra dunyoviy va uxraviy maqsadlarning uyg'unligiga erishishga da'vat qiladi, shunisi bilan millat ma'naviyatini tasavvuf tariqatlari bosqichidan "Majoz tariqi" bosqichiga olib o'tadi.

Shunday qilib, XII asrda Sanoiy (1048–1140), Nizomiy (1141–1202), Anvari (vafoti 1191-yil), Hoqoniy (1120–1199) kabi ulug' ijodkorlar badiiy adabiyotning o'z mustaqil tafakkur yo'lini jiddiy qidirishga kirishgan bo'lsalar, XIII asr oxiri – XIV asr boshida Amir Xusrav Deh-

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 6-j. T. 1990, 512–513-b.

laviy (1253–1325) ongli ravishda Nizomiy “Xamsa”siga javob yozish bilan “majoz ishq” ni tarannum etishga kirishdi. Amir Xusrav “Xamsa” si shu darajada shuhrat qozondiki, islom mintaqa she’riyatida “majoziy ishq”ni kuylash va “Xamsa” dostonlariga tatabbu bag’ishlash keng ko’lamli an’anaga aylandi. Shu sababli XIV–XV asrlarni “majoz tariqi”ga mansub, deb hisoblash o’rinlidir.

“Haqiqat” va “majoz” tushunchalari o’sha davr Borliqni idrok etishning tasavvuf irfoni namoyandalari taklif etgan o’ziga xos ifoda vositalari bo’lib, so’fiylar nazdida Haq – yagona va mutlaq Borliq, Ahad (yakkalik, birlik)dir. Haq o’z jamolini ko’rish uchun ko’zgu sifatida foniy dunyoni bunyod etgan. Haqning asl zoti Haqiqat va uning ko’zgodagi aksi – mazhari (zuhur qilishi) “majoz” (иносказание, метафора), deyiladi. Ba’zan Haqiqat o’rniga “ma’no” (ma’ni) va “majoz” o’rniga “surat” so’zlari ham ishlatiladi. Irfon – o’zlikni anglashdir. Asl so’fiylar insonlarni “majoz”ga (suratga) mahliyo bo’lmay, Haqiqatni qidirishga, “ma’no”ga intilishga chaqirdi. Haqqa yetishgan inson – Komil inson, Orifdir. Ammo XIII asrga kelib Avhadiddin Kirmoniy (vafoti 1298-yil), Faxriddin Iroqiy (1207–1289) kabi so’fiylar ijodida muammoning idroki teranlashdi. Iroqiy “Lama’ot” asarida “majoz” va “haqiqat” nisbatini dengiz va tuzga qiyos etadi. Tuz dengiz suvi tarkibida bo’lgani uchun bu suvning har qatrasida ham tuz ta’mi bordir. Alisher Navoiy ham Amir Xusrav va Hofizlar izidan borib, “haqiqat asrori”ni (sirlarini) “majoz”dan izladi. Navoiy g’azallari, tarj’ebandlari, qit’alari, “Xamsa” dostonlari va, ayniqsa, “Lison ut-tayr” asarida “majoziy ishqni” Haqiqatga yetishishning asosiy yo’li deb talqin etgan. “Majoz ishq” Navoiy nazdida insonning insonga bo’lgan Haq yo’lidagi (xalqimiz iborasi bilan aytganda “xolisaniллоh”, ya’ni xolis Alloh yo’lidagi) har qanday g’arazdan xoli, pok mehridir. Ana shunday ishq namoyandalarini shoir “ishq ahlining pokbozlari”, deb atadi. Ishqni ijtimoiy munosabatlar asosida ko’rishni orzu qilgan shoir odamiylikni o’zgalar g’amini o’zinkidek bilishda deb tushunadi:

*Odame ersang demagil odame –
Onikim yo’q xalq g’amidin g’ami.*

Bu mashhur bayt “Hayrat ul-abror” dostonining 13-maqolatidan bo’lib, bu bob to’lig’icha insonlarni “nafrason”, ya’ni o’zgalarga, xalqqa foydasi tegadigan shaxs bo’lishga da’vat etadi. Alisher Navoiy

insonning bu dunyoda yashashdan asl maqsadi o'zga insonlarga, el-yurtga foydasi, nafi tegishda deb biladi. "Majoz tariqi" bosqichi islom mintaqa ma'naviyati takomilining eng oliy pog'onasi bo'lib, Tavhid ta'limotining eng mukammal talqini deb, qarash mumkin. "Haqiqat asrori", Tavhid mazmunini "majoz", ya'ni ushbu zohir bo'lib turgan olamdan qidirish, Haq asrorini anglab yetish uchun xolis niyat, pok ko'ngil bilan "majoz"ni, "foniy", o'tkinchi dunyo, "surat" ni tadqiq etish, tushunib yetish orqali Haqiqatni, "ma'noni" anglashga urinish, birinchi navbatda, inson qalbiga quloq tutish, samimiy va beg'araz mehr bilan o'zgalar qalbiga yo'l topish, Insonlarni, tabiatni tushunish orqali Haq asrorini, Tavhid mohiyatini idrok etish – "Majoz tariqi"ning buyuk ajdodlarimiz Xusrav Dehlaviy va Bahouddin Naqshband, Hofiz Sheroziy va Lutfiylardan meros bo'lib, Alisher Navoiy ijodida o'zining eng mukammal ifodasini topgan o'ziga xos dunyoqarash, tafakkur tarzining mohiyati, asl o'zagidir. Bu bosqich yagona islom mintaqa ma'naviyati takomilining qonuniy yakuni bo'lib, turkiy tilda, o'zbek mumtoz adabiyotining bobokaloni ijodida avj nuqtaga erishdi. Bu dunyoqarashni butun ichki murakkabligi, ko'lami va teranligi bilan o'sha davr sharoitida faqat badiiy adabiyotda, badiiy timsollar tili bilangina ifodalash mumkin edi. Zero, "majoz" tushunchasi o'zi badiiy adabiyot tilining asosiy xususiyatiga oiddir.

5-fasl. Islom mintaqa madaniyati rivojida ajdodlarimiz yaratgan merosning o'rni

Milliy ma'naviyatimizning islom mintaqa madaniyati doirasidagi takomiliga yakun yasash oldidan bir muhim masalani aniqlashtirib olishga ehtiyoj bor. Biz islom ma'naviyati takomili va uning bosqichlarini boshdan oyoq mintaqa miqyosida qamrashga urindik. Ushbu yondashuv qanchalik maqbul, axir, asl maqsad milliy ma'naviyatimiz taraqqiyoti emasmi? Gap shundaki, VIII asr 2-yarmidan XVI asr boshlarigacha milliy ma'naviyatimiz yagona mintaqa madaniyati hududida rivojlandi va yaxlit islom mintaqa ma'naviyatining uzviy qismi sifatidagina taraqqiy etdi. Bunday tarixiy holat O'rta asrlarda nafaqat islom mintaqasi, balki Yevropa, Uzoq Sharq, Janubiy Osiyo min-taqalari uchun ham xos edi.

Bu davr islom mintaqa ma'naviyatining shakllanishi va takomiliga bizning vatandoshlarimiz sezilarli hissa qo'shdilar. Sunna davridagi 6 buyuk muhaddisning 2 tasi bugungi O'zbekiston hududidan, VIII asr

oxiri IX asr boshlarida mintqa adab ilmining iqtidorli namoyandalaridan Adib Ahmadning ilk turkiy dostoni shu hudud bilan bogʻlanadi, Muhammad ibn Muso Xorazmiy, Ahmad Fargʻoniy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi islom maʼrifatchiligining dunyoga nomi taralgan vakillari, moʼtazila yoʼnalishining soʼnggi zabardast vakili, Qurʼoni karimning eng moʼtabar tafsirlaridan “Al-Kashshof”ning muallifi Mahmud az-Zamaxshariy (1075–1144), Kalom ilmida alohida yoʼnalishga asos solgan Al-Moturidiy, fiqh ilmining oʼnlab zabardast allomalari, jumladan, butun islom dunyosi qozilarining asosiy kitobi boʻlmish fiqh ilmining qomuslaridan “Hidoya fil-furu” ni yaratgan Burhonuddin Margʻinoniy (vafoti 1197-yil), tasavvufning uch buyuk tariqati – yassaviya, kubraviya, naqshbandiya-xojagon asoschilari – Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Abduxoliq Gʻijduvoni, Bahoudin Naqshband va boshqa yuzlab tasavvuf shayxlari ushbu zamin farzandlaridir. Butun islom dunyosida IX–XIII asrlarda hukmronlik qilgan turkiy sulolalar ham ushbu zamindan chiqib borib, dunyoni zabt etganlar. Agar bugun biz Shimoliy Afrika va Ispaniya, Arabiston yarim oroli va Markaziy Osiyo hududlarida IX–XV asrlarda yashab oʻtgan allomalar merosini bir-biridan alohida oʻrgana boshlasak, tarixiy-maʼnaviy voqelikni hech qachon toʻgʻri ilgʻay olmaymiz va koʻp narsani chalkashtirib yuboramiz. Asli Mahmud Koshgʻariy turkiy adabiy til va uning shevalariga bagʻishlangan kitobini Bagʻdodda yozgan boʻlsa, Mahmud Zamaxshariyning asarlari Xorazm vohasida arab tilida ijod etilgan boʻlsa, hatto XV asrda hukmronlik qilgan Mirzo Ulugʻbek oʻzining asarlarini arab va fors tillarida yozgan boʻlsa, bu uch til (arab, fors, turk) da yozilgan yaxlit madaniy merosning yagona mohiyatini qanday qilib bir-biridan ajrata olamiz?

Xullas, 7 asrdan oshiq vaqt davomida katta bir mintaqada yagona madaniyat, yagona maʼnaviy muhit shakllandi. Ushbu muhitda arab, fors, turkiy millatlarning oʻziga xos maʼnaviy dunyosi bir-biri bilan nihoyatda yaqinlashib, oʻzaro umumiy jihatlar kasb etdi. Shu bilan birga ularning islomdan oldingi taraqqiyoti muayyan darajada farqlangani bois va boshqa turli omillar tufayli umumiy rivojlanishning milliy talqinlarida farq boʻlishi ham tabiiydir. Turkiy millatning bosh boʻgʻini boʻlmish oʻzbek xalqi milliy maʼnaviyati taraqqiyotida Alisher Navoiyning maʼnaviy olami avj nuqtani tashkil etadi.

6-BOB. ALISHER NAVOIY MA'NAVİYATI

1-fasl. Mintaqa madaniyatida turkiy she'riyatning rivoji

Alisher Navoiy o'z ijodida Nizomiy va Amir Xusrav, Attor va Faxriddin Iroqiy yaratgan badiiy va irfoniylar olamlar yog'dusidan bahramand bo'ldi. Yuqorida nomlari eslangan Sa'diy, Hofiz, Anvari, Xoqoniy kabi o'nlab fors mumtoz adabiyoti vakillariga tatabbu — javoblar yozdi. Va o'z mustaqil badiiy olamini yaratdi. Bu olam turkiy she'riyat olamiga taalluqli edi. Turkiy adabiyot vakillari esa azaldan ijtimoiy-axloqiy muammolarga alohida e'tibor berib keladilar. Adib Ahmad (VIII—IX asrlar), Yusuf Xos Hojib (XI asr), Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg'oni (XII asr), Qul Ali (XII — XIII asrlar), Yunus Emro (XIII asr), Rabg'uziy (XIV asr) kabi buyuk siymolarni yetishtirgan turkiy tildagi adabiyot XIV asrdan boshlab gurkirab rivojlana boshladi. Dastlab Xorazm adabiy maktabi shakllandi. Unda "Muhabbatnoma" muallifi Xorazmiy, Qutb, Sayfi Saroyi kabi ulug' ijodkorlar yetishib chiqdi.

XIV asr 70-yillaridan mintaqa siyosiy hayotida mo'g'ullar hukmronligi tugab, temuriylar davri boshlandi. Buyuk Sohibqiron Amir Temur tanazzulga yuz tutgan va parchalangan Chig'atoy ulusining o'rnida islom mintaqasining qalb qismini o'z hududiga birlashtirgan ulug' saltanatni vujudga keltirdi. G'arbda Iroq va Suriya yerlari, Eron, Afg'oniston va Markaziy Osiyo o'lkalarini deyarli to'liq qamrab olgan bu mamlakat islom mintaqa xalqlarining yagona siyosiy hududga oxirgi marta birlashuvi bo'lib, Temur mintaqa miqyosida nufuzga ega bo'lgan oxirgi davlat boshlig'i edi. Uning davlatni boshqarish va ulus osoyishtaligini ta'minlash yo'lidagi xizmatlari islom mintaqa madaniyati davlatchilik sohasidagi yutuqlarining yuqori cho'qqisi bo'ldi.

Bu davr mintaqa adabiy hayotida ham sezilarli o'zgarishlar bo'ldi. Nizomiy va Amir Xusravlar turkiy elat vakili bo'la turib, fors tilida ijod qilgan bo'lsalar, endi turkiy she'riyat butun mintaqa hududida rivoj ola boshladi. Sherozda Hofiz Xorazmiy shuhrat qozondi. Hirot, Samarqand, Buxoro, Tabriz, Xo'jand shaharlari, Iroq, Kichik Osiyo, Misr, Volgabo'yi, Farg'ona, Xorazm o'lkalarida turkiy tilda ijod qiluvchilar yetishib chiqqan boshlashdi. Sayid Qosimiy, Haydar Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiy, Yusuf Amiriy, Yaqiniy, Sayid Ahmad, Xo'jandiy, Muqimiy, Sayid Nasimiy, Nayimiy, Kamoliy, Latifiy, Suhayliy, Mirzo Hoji Sug'diy va boshqa shoir va adiblar turkiy

tilda g'azallar, ruboiylar, qit'alar, qasida va masnaviy, doston va nasriy asarlar yoza boshladilar. Temuriyodalar, ya'ni Amir Temurning nabira-evaralari ko'pchiligi turkiy nazmga mayl ko'rsatdilar. Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"da Sulton Iskandar Sheroziy, Xalil Sulton, Ibrohim Muhammad Xalil, Abubakr Mirzo, Shoh G'arib Mirzo, Badiuzzamon Mirzo, Abulqosim Bobur, Sayid Ahmad Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Faridun Husayn Mirzo va boshqa qator amirzodalarning she'rlaridan namunalar keltiradi. Amir Sayfiddin Barlos, Arslon Xo'ja Tarxon kabi nufuzli amirlar ham she'riyatga homiylik qilar, ham o'zlari ijod bilan shug'ullanar edilar.

Jami XV asrda o'tgan 50ga yaqin turkiy she'riyat namoyandalari Navoiy asarlarida tilga olinadi va she'rlaridan namunalar beriladi. Ayniqsa, Sulton Husayn Boyqaro bu sohada alohida xizmat ko'rsatdi. Alisher Navoiyning barakali ijodiy faoliyatida ushbu ulug' turkiy she'riyat vakili hamda homiysining ko'magi va daldasi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu davrda Qutb va Haydar Xorazmiylarning "Xamsa" an'alarini turkiy she'riyatga yoyish harakatlari, Sa'diy "Gulistoni", Attorning "Ilohiynoma" (Sayid Qosimiy) va "Mantiq ut-tayr" (Gulshahriy) asarlarining tarjima va tatabbulari, Nasimiyning yuksak irfoniy she'riyati, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Lutfiylarning devonlari, Xorazmiy, Xo'jandiy, Amiriy va Sayid Ahmad "Ishqnoma"lari (Muhabbatnoma", "Latofatnoma", "Taashshuqnoma", "Dahnoma"), Amiriy va Yaqiniylarning ramziy munozaralari va boshqalar turkiy mumtoz she'riyatni mintaqa adabiyotining yuksak pog'onalariga ko'targan edi. Bu davrda Qur'onning qator turkiy tafsirlari, turkiy tilda payg'ambarlar qissasi, axloqiy va tarixiy risolalar, adabiyotshunoslikka oid asarlar yaratilgan edi.

Alisher Navoiy badiiy ijod tariqi haqidagi o'z nazariyasini qisman turkiy adabiyot vakillariga ham tatbiq etadi. "Holoti Pahlavon Muhammad" asarida uning o'ziga ota qatorida mehribonliklar ko'rsatgan ustozlari, kushtigirlar piri bilan bir suhbatlari keltiriladi:

Pahlavon navqiron shoirdan so'raydiki, turkigo'y shoirlar ichida eng yaxshisi kim? Navoiy javobida mavlono Lutfiyni tilga oladi. Shunda Pahlavon Muhammad hayron bo'lib, so'raydi:

– Nechuk Sayid Nasimiy demading?

Faqir dedim:

– Xotirg'a kelmadi va bar taqdir kelmoq, Sayid Nasimiyning nazmi o'zga rang tushubdur, zohir ahli shuarosidek nazm aytmaydur,

balki *haqiqat tariqin* ado qilibdur. Bu savolda sening g'arazing *majoz tariqida* aytur el erdi"¹.

Bu suhbatdan ikki narsa ayon bo'ladi. Birinchidan, "majoz tariqi" va "haqiqat tariqi" yo'nalishlari faqat Alisher Navoiy taxayyulining mevasi bo'lmay, uning yoshlik davridayoq ilm va san'at ahliga ma'lum bo'lgan. (Bunga ishoralar "Xamsatul-mutahayyirin" da ham uchraydi.) Ikkinchidan, Lutfiy va Nasimiy kabi ulug' turkiy tilli shoirlar tanlagan badiiy ijod tariqlarini bir-biridan farq qilish bilan Navoiy navqironlik davridayoq bu masalada o'zining aniq-ravshan qarashlariga ega bo'lganligi oydinlashadi.

Ammo Pahlavon yosh do'stiga e'tiroz bildirib: "Sayid Nasimiyning nazmi zohir yuzidin *majoz tariqiga* shomildur va ma'no yuzidan *haqiqat tariqiga*" der ekan, bu bilan Nasimiy ijodi ham Jomiyniki singari murakkab xarakterga ega ekanligi ta'kid etiladi.

2-fasl. "Badoye ul-bidoya" da tavhid g'oyasi

Alisher Navoiy mintaqa adabiyotiga shunday bir muhitda kirib keldi. Navoiy badiiy olami benihoya keng va rang-barang. Uning Borliq-ni idrok etishi ijodining turli davrlarida va turli yo'nalishlarida o'ziga xos aksini topgan. Biz bir necha namuna keltirish bilan cheklanamiz. Avvalo, shuni aytib o'tish joizki, Navoiy ijodi shu paytgacha ko'proq tarkibiy jihatdan o'rganib kelindi, uni tadrijiy jihatdan o'rganishga asosan Izzat Sulton ("Navoiyning qalb daftari") va H.Sulaymonov ("Xazoyin ul-maoniy" tanqidiy matni) ishlarida harakat qilindi. Ushbu ishlarga tayanib xulosa qilganda, shoir badiiy kamolotining birinchi bosqichi 1469-yil Sulton Husayn Hirot taxtini egallagandan keyingi bir necha yil orasida shoir o'z qo'li bilan tartib bergan birinchi devoni "Badoye ul-bidoya" da o'z aksini topgan, deyish mumkin. Biz shu majmuadan ikki asarni olib qiyosiy tahlil qilib ko'ramiz. Bularning birinchisi devonni boshlab beruvchi "Ashraqat" g'azali, ikkinchisi ushbu devon tarkibidagi "Ketur soqiy, ul mayki, subhi alast.." deb boshlanuvchi tarjibanddir. Biz bu ikki asar mazmuniga diqqat qaratmoqchi bo'lganimiz sababi ulardagi bosh timsollar bilan bog'liq. Bu timsollar "may", "jom" va "sing'on safol" majozlari bo'lib, ular bu ikki she'r mazmunini bir-biriga bog'lab turadi.

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 15-j. T., 1999, 116-b.

Biz doimo Navoiyning bosh qahramoni – Inson deymiz. Menimcha, shunga aniqlik kiritilsa, shoirning bosh qahramoni oddiy inson emas, Oshiq inson, deb qaralsa, haqiqatga muvofiqroq bo‘lar edi. Ammo bu qanday oshiqlik? Birinchi g‘azalning ilk satrlarini o‘qiylik:

*Ashrafat min aksi shamsil ka’si anvor ul-hudo,
“Yor aksin mayda ko‘r” deb jomdin chiqdi sado.
G‘ayr naqshidin ko‘ngil jomida bo‘lsa zangi g‘am,
Yo‘qdur, ey soqiy, mayi vahdat masallik g‘amzudo¹.*

She‘riyatning, badiiy adabiyotning qudrati shundaki, o‘z qa‘ridagi sirlarni o‘zi ochadi, tilsim ham o‘zi, bu tilsimning kaliti ham o‘zida, faqat uni xolis nazar bilan, sinchkovlik bilan, mehr bilan o‘qish kerak. Yuqoridagi parchada ham ko‘rinib turibdiki, birinchi satrdagi timsollar ikkinchi satrda izohlangan. “G‘ayr” – begona demakdir. “G‘amzudo” – “g‘am zangini tozalaguvchi” ma‘nosini bildiradi. “May” – “mayi vahdat” (birlik, yagonalik sharobi), ya‘ni irfoniy ishq, “jom” esa “ko‘ngil jomi” ekan. Ko‘ngil jomi agar begona aksi tushib zang oladigan bo‘lsa, ushbu g‘amdan forig‘ etuvchi eng maqbul vosita vahdat mayi deyilmoqda. She‘r davomiga murojaat qilamiz:

*Ey, xush ul maykim, anga zarf o‘lsa bir sing‘on safol,
Jom o‘lur getinamo, Jamshid ani ichgan gado.*

Geti – jahon, koinot; getinamo butun jahonni, koinotni aks ettiruvchi ko‘zgu. Vahdat mayini ichgan kishining ko‘ngli butun koinotni o‘zida aks ettirish xislatini kasb etadi. Hech narsasi yo‘q gado agar vahdat mayini ichsa, Jamshid, ya‘ni butun yer yuzining podshohiga aylanadi (“jomi Jamshid” timsoliga ishora). Ammo “sing‘on safol” timsoli qanday sirni o‘zida yashirmoqda? Buni aniqlash uchun endi shoirning yigitlik ayyomida yaratgan tarjibandiga murojaat qilamiz :

*Ketur, soqiy, ul mayki, subhi alast,
Aning nash‘asidin ko‘ngil erdi mast.
Mayikim, qilur quysalar jom aro,
O‘zi mastu, kayfiyati mayparast...²*

She‘r davomida shoir boshidan kechirgan bir sarguzashtni hikoya qiladi:

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 1-j. T, 1987, 29-b.

² O‘sha kitob, 601-b.

*Eshit sarguzashteki, bugun menga
Necha mayparast o'ldilar hamnishast...*

Shoir mayxonada bir necha mayparast bilan birga o'tirgach, qo'liga yana may solingan sopol ko'zani olib, manzili sari yo'lga chiqadi. Yo'lda bir necha "ehtisob ahli" (ya'ni, shariat qoidalariga shahar ahli qanday rioya qilayotganini tekshirib boruvchi muhtasibning odamlari) shoirni mayxo'rlikda ayblab, kaltaklaydilar. Shoir badaniga yetgan ozorni sezmaydi, ammo qo'lidagi may to'la ko'za singaniga qattiq kuyunadi:

*Shikastim mening oncha ermas edi,
Ki may zarfi topdi aroda shikast.
Chu sindi sabu, choraye topmadim,
Meni muflis-u, ur-u, giryon-u mast.*

(Navoiy qahramoni muflis, ya'ni bozori kasod bo'lgan, ur, ya'ni yalang'och, liboslari pora, giryon – ko'zlarida shashqator yosh va mast.) Shu holida –

*Xarobataro kirdim oshuftahol,
May istarga ilgimda sing'on safol.*

Xarobot – ham vayrona, ham mayxona, ham mug' dayri, ya'ni otashparastlar ibodatxonasi, ham bu foniy dunyo – asli barchasi bir narsa – xarobot.

Shoir may istaydi, ammo may to'la ko'za chil-chil bo'lgan, uning qo'lida faqat singan sopol parchalari qolgan. Ushbu sopol bo'laklarini ehtiyot bilan yig'moq kerak. Qadimgi obidalarni tuproq ostidan parcha-parcha holda topib, to'plab, har birini chang-g'ubordan, chirkdan tozalab, ularni koshinkor ustalar kabi bir-biriga mosini aniqlab, to'g'ri joylashtirib, naqshlar yaxlitligini tiklab, keyin bir asosga tarxini chizib, o'sha asosda bir-biriga yopishtirib, yetmagan, topilmagan joyini o'rniga qarab tasavvurda tiklab, yaxlit idish holiga keltiradigan zukko atiqashunos vazifasini ado etmoq kerak. Ana shundan so'ng bu idish nima vazifa bajargan, uning mazmuni, shakli, undan foydalanish qonun-qoidalarini aniqlash mumkin. Biz ham ustoz adib ijodiga shunday munosabatda bo'lsakkina, u yaratgan yoki ishlatgan har bir timsol, tashbih, atamalarga g'oyati e'tibor bilan yondoshib, ularni bir-biriga qiyosan o'rganib, mag'zini chaqishga urinsakkina bir natija chiqishi

mumkin. She'rga qaytamiz. Uning bir bandi tugab, yangisi boshlanadi:

*Safol ichra bir jur'a loye manga,
Erur jomi getinamoye manga,
Ketarmakka xudbinligim ranjini,
Qani boda yanglig' davoye manga¹.*

Haqiqiy oshiq uchun may ko'zasining sinig'i — sopol parcha yuzida saqlangan bir qultum may quyqasi (loyi) ham butun jahonni (balki koinotni) o'zida aks ettira oluvchi vahdat mayi to'la qadah (jom) o'rniga o'taveradi, o'sha vazifani ijro qilaveradi.

Bu nima degani? Borliq mohiyati vohid va yagona. Ammo inson ushbu yagona mohiyatni ko'z bilan ko'ra olmaydi, inson faqat uning majozini — ko'zgudagi aksini ko'rishga qodir. Majozda, ya'ni tabiat, voqelik ko'zgusida tasvir parchalanib ketgan, vahdat (yagonalik) zo-hiran kasrat (ko'plik)ga aylangan, shu sababli bu voqeyiy dunyo xarobotidir, vayronadir, butparastlar ibodatxonasidir, uni oshiq mayxona sifatida ko'radi, har sanamda yagona bir sanamni ko'rib unga oshiq bo'ladi.

Inson ko'ngli vahdat mayi bilan to'la bo'lgan ko'za (sabu)ning singan bir parchasi, unda bir qultum loyqa aralash may mavjud. Vahdat mayiga tashna oshiq shu may quyqasini yaxshilab tinitmog'i lozim, shundagina u yaxlit ko'zguning bir parchasi singari Haqiqat nurini o'zida aks ettira boshlaydi. Oshiq unga boqib mast bo'ladi, o'zligini yo'qotib, abadiyatga daxldor bo'lish imkonini paydo qiladi. Bunday oshiqlik-mastlik inson ko'nglidan hirs-u havas zangini, xudbinlik (egoizm) zangini (ranjini, g'amini) yuvib tashlaydi. G'ayr (begona) shu xudbinlikdir, shirk shu xudbinlikka dildan joy berishdir, ko'ngil ko'zqusini bosgan zang ham ushbu xudbinlikning o'zidir.

Vahdat mayini ichgan oshiqqa hech kim jaf o'zida qila olmaydi, o'zi ham bировga jaf o'zida qilishdan xoli bo'ladi:

*Chun men dayr piri vafosida men,
Falakdin yetishmas jafoye manga².*

Dayr piri — mayxona sohibi, Borliq haqiqatining saqlovchisi, egasi. Oshiq yagona Borliq haqiqatiga, Oliy haqiqatga xiyonat qilmaydi, uning asrorini anglab yetishga intilishdan chekinmaydi. Demak, unga

¹ O'sha kitob, 602-b.

² O'sha kitob, 603-b.

ham taqdirdan shikast yetmaydi, dayr piriga vafodorlik saqlagan oshiqqa falak jaf o'lgan. Chunki u xudbinlik ranjini yengib o'tgan, vahdat mayi yordamida uning ko'ngil ko'zgusi begona solayardan (g'ayr naqshidan) poklangan. Bunday ko'ngil ko'zgusi fandan baqoga yuzlangandir.

Bu timsol va tasvirlar naqshbandiya irfoni doirasidan turib ilgari intilayotgan oshiq-shoir qalbida tug'ilib kelayotgan majoz tariqi unsurlaridir. Ular kelgusida yangi poyalarga ko'tarilish uchun qo'yilgan ilk qadamlardir. 15 yoshida kekxa Lutfiyini hayratga solgan ilohiy iste'dod shu tariqa yangi ufqlarga ko'z tikmoqda edi.

3-fasl. Xamsachilik an'analarining shakllanishi va turkiy "Xamsa"ning mohiyati

Ma'lumki, shayx Nizomiy "Xamsa" yozishni avvaldan maxsus rejalashtirgan emas. Ammo she'riyatda mutlaqo yangi bir yo'nalishga asos solayotganini o'zi sezib turgan. Uning birinchi dostoni "Maxzan ul-asror" ("Sirlar xazinasasi") deb ataladi. Asar ilk satrlari quyidagicha jaranglaydi:

*"Bismillohir rahmonir rahim,
Hast kalidi dari ganji hakim'.
("Bismillohir rahmonir rahim" kalimasi
Hikmatlar egasi xazinasiga kalittir.)*

Ushbu satrlar birinchi – "tavhid" bobiga kirish bo'lib, uning mazmuni yaratganning hamdidir. Shundan so'ng ikki munojot, Payg'ambar na'ti, me'roj tasviriga bir necha bob bag'ishlanib, keyin shoir zamona podshohi Faxriddin Bahromshohni madh etishga kirishadi.

Ma'lumki, Sanoiy ham asari oxirida o'sha davr hukmdori Abulxoris Bahromshohga madhiya bitgan edi. Nizomiy shu bahonada o'z dostonini Sanoiy asariga qiyoslab o'tadi:

*On zare az koni kuhan rixta,
V-in dure az bahri nav angixta².*

*(Ul eski ma'dandan oltin quygandi,
Bul yangi dengizdan gavhar chiqardi.)*

¹ Nizomiy Ganjaviy. Kulliyot. 5-jild. Dushanbe, «Irfon», 1984, 256-b.

² O'sha kitob, 281-b.

Ushbu qiyosda Sanoiyning she'riyat kamolida birinchi bosqichning yakunlovchisi bo'lgani, Nizomiy esa yangi davrni boshlab bergani ta'kid etilmoqda.

Madhiyalardan so'ng Nizomiy "ko'ngilni anglash" ("shinoxhani dil") haqida bir qator boblar yaratadi va ularda insonning ruhiyat iqlimlari ajoyib tashbeh va timsollarda teran tahlil etiladi. Bu holatlar, ya'ni insonning o'z ko'ngil bog'ida sayr etishi tunda va xilvatda amalga oshirilganligi alohida qayd etiladi.

Dostonning asosiy qismi yigirma maqolatdan tashkil topgan bo'lib, ular Odam Atoning, ya'ni Insonning yaratilishi, uning asl mohiyati, burch va vazifalari, hukmdor adolati, dunyoning buqalamunligi, insonlarning bir-biriga va umuman tirik mavjudotga munosabati, jamiyatdagi qabihliklar, do'stlik va vafu masalalariga bag'ishlangan. Har bir maqolat oxirida ijtimoiy hayotdan bir hikoyat ibrat yo'sinida ilova qilinadi va undan axloqiy-falsafiy xulosalar chiqariladi. Bu dostonida inson va jamiyat, Inson va Oliy Borliq munosabatlarini bir-biridan ajratmagan holda, uyg'unlikda tahlil va tadqiq etiladi. Shu jihatdan uning Sanoiy asariga mazmun va mavzu tarkibida hamohangligi bejiz emas. Ammo "Hadoiyq ul-haqiqat" Sanoiy ijodi uchun yakuniy asar, xulosa bo'lsa, Nizomiy uchun "Maxzan ul-asror" ijodiy rejalarining boshlanishi, ilk muqaddima edi. Agar Fariddin Attor butun umr Inson va Oliy Borliq nisbatini tahlil etishga uringan bo'lsa, Nizomiy o'zining ikkinchi dostonidan boshlab ijtimoiy munosabatlar, insonlararo munosabatlar tahliliga kirishib ketadi. "Xusrav va Shirin" shohlik va oshqlik, adolat va muhabbat masalalarini, "Layli va Majnun" ishq va oilaviy munosabatlar, ishq va insoniylik, ishq va urf-odatlar, bir so'z bilan aytganda, insonlar jamoasida ishq va oshqlik martabasi masalalarini, "Haft paykar" hukmdor va raiyat, adolat va zulm, xudbinlik va fidoyilik, insonning jamiyat oldidagi burch va ma'suliyati, inson baxti va fojiasi masalalarini, "Sharafnoma" va "Iqbolnoma" dostonlari esa afsonaga aylangan tarixiy Iskandar hayoti va taqdiri orqali umuman o'sha davr ijtimoiy hayotining murakkab va dolg'ali manzarasini, insonlar jamiyatining falsafiy va amaliy qiyofasini, mohiyatini ochib berishga qaratilgan. Nizomiy yaratgan olti dostonning oxirgi ikkitasi "Iskandarnoma" sarlavhasi ostida birlashtirilib, "Xamsa" (Beshlik) ga aylandi. "Xamsa" badiiy olami esa islom mintaqa ma'naviyati takomilida butkul yangi bosqichning ibtidosi edi. Tasavvuf irfoni islom ma'rifatchiligi bilan deyarli bir paytda (IX asrdan)

boshlanganidek, bu safar ham Nizomiy asos solgan yangi yoʻnalish “haqiqat tariqi” (yaʼni, tasavvuf epik sheʼriyati) bilan deyarli bir davrdan boshlandi. Ammo “Xamsa” yoʻnalishi Nizomiy ijodida biroq “oʻz vaqtdan ilgari” yuz koʻrsatgan boʻlib, davr tasavvuf bosqichi kamolotini taqozo qilar edi. Shu sababli XII asr ikkinchi yarmida yaratilgan Nizomiy merosi 150 yil ulusning diqqat markazidan chetda qolib keldi. Hatto XIII asrda ijod etgan Saʼdiy Sheroziy yana maʼlum maʼnoda Sanoiy anʼanasini davom ettirib, oʻzining “Boʻston” va “Guliston” asarlarini “Hadiqa” yoʻnalishda, oʻsha erkin uslubda yaratdi. Faqat Hindistonni Vatan deb bilgan forsiy zabon turk Amir Xusrav Dehlaviy-gina, XIII asr oxirida uch devon va bir yirik doston yaratib ulgurgach, 50 yoshga yaqinlashganida, yaʼni XIV asr boʻsagʻasida Nizomiy “Xamsa”siga javob yozishga bel bogʻladi va 1302-yilga borib (4 yil ichida) oʻzining javob-tatabbusini toʻliq yozib tugalladi.

Alisher Navoiy “majoz tariqi” haqida yozar ekan, Nizomiy Ganjaviy nomini tilga olishga jurʼat etmaydi, buning sababi ulugʻ shayxning tafakkur olami har qanday qoliplarga sigʻmasligini dildan his qilganidan boʻlsa kerak. Ammo Amir Xusrav Dehlaviy ismi soʻzsiz “haqiqat asroriga majoz tariqin maxlut qilganlar” qatorida shayx Saʼdiydan keyingi faxrli oʻrinni egallagan. Bu bejiz emas, albatta. “Hind sehrgari” (sohiri hind) ning oʻziga murojaat etaylik:

*Fidoi ishq shav, gar xud majozist,
Ki davlatro dar-u poʻshida rozist,
Haqiqat dar majoz inak padid ast,
Ki fathi on xazina z-in kalidast¹.*

*(Oʻzingni ishqqa baxsh et, agar u majoziy boʻlsa ham,
Chunki unda saodat sirlari yashirindir.
Haqiqat majozda shunday oʻzini namoyon etadiki,
Ul xazinani qoʻlga kiritmoq imkoni ushbu kalit orqali boʻladi.)*

Shoir majoziy ishqqa shunday taʼrif berish bilan ham cheklanmaydi, u oʻz davridagi baʼzi “ishqi haqiqiy”dan lof uruvchilarni fosh etishni ham lozim topadi:

*Tu k-az “ishqi haqiqiy” lofiy, ey doʻst,
Xaroshi soʻzane benmoy dar pust,*

¹ Amir Xusrav Dikhavi. Ширин и Хусрау. М., «Наука», 1979, с. 40.

*Tu k-az bongi sage az din shavi fard,
Nadori sharm az-in imoni bedard¹.*

*(Ey, sen “ishqi haqiqiy” dan lof uruvchi do’st,
Badaningga bir igna qadalishini tasavvur qilib ko’r.
Nogahon it “vov” desa cho’chib dindan chiqib ketasan-u,
Yana bunday “dardsiz imon”ingni ko’z-ko’z qilgani uyalmaisan-
mi?)*

Bunday mulohazalar tug‘ilishi uchun Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiylarning yuksak irfoniy she’riyati, Ibn al-Arabiyning mukammal irfoniy falsafasi yaratilib, o‘zlashtirilib bo‘lingan, Abduxoliq G‘ijduvoniylar izdoshlari uchun Mansur Xalloy va Boyazid Bistomiylarning tasavvufdagi oxirgi maqomi birinchi maqomga, oxirgi qadami birinchi qadimga aylangan bo‘lishi kerak edi. Nizomiy davri uchun esa “ishqi haqiqiy” va “ishqi majoziy”ni bir-biridan farq qilishga hali juda erta edi. Shu sababli ulug‘ shayx merosida biz bunday tazodni uchratmadik. Nizomiyni shoirlarning hech bir guruhiga qo‘shmasligi ham shu jihatdan Alisher Navoiyning nazariy xulosalarda nihoyatda ilmiy ehtiyoqkorligiga ishoradir. Biz esa “marksistik” ta’lim olganimizdanmi, ancha o‘zboshimcha bo‘lib qolganmiz. Harholda bu mulohazalar dastlabki yo‘nalish olish va tarh (loyiha) darajasida bo‘lib, keyingi mufassal va jiddiy tadqiqotlar masalaga aniqlik kiritadi, deb umid qilamiz.

Amir Xusrav Dehlaviy “Xamsa”si ongli ravishda majoziy ishqni kuylashga bag‘ishlangan. Ajablanarli joyi shundaki, Nizomiy Ganjaviy dostonlarining bizgacha yetib kelgan eng qadimgi qo‘lyozmalari XIV asr o‘rtalariga mansubdir. Amir Xusrav “Xamsa”sining saqlanib qolgan eng birinchi qo‘lyozmasi vafotidan 30 yil keyin ko‘chirilgan (ba’zilarini Hofiz Sheroziy ko‘chirgan deb taxmin qilinadi). Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”sining hozir ilmiy iste’molda mavjud to‘liq nusxalari esa bundan ham keyinroq, 1362–1365-yillarda ko‘chirilgandir. Ulardan ko‘ra qadimiyroq, ayniqsa, XII–XIII asr nusxalari hanuz topilgan emas. Shu asosda Nizomiy “Xamsa” sining keng urf bo‘lishi uning salafi Amir Xusrav Dehlaviy faoliyati bilan bog‘liq emasmikan, degan faraz paydo bo‘ladi. Chunki Nizomiyning fikriy dunyosi juda

¹ O’sha kitob, 40-b.

murakkab, uni anglab yetish oson emas, Dehlaviy “Xamsa”si esa, ma’lum ma’noda, Nizomiy badiiy olami uchun ham kalit bo’la oladi. Aniqroq qilib aytsak, Nizomiy ma’naviyatini tushunish uchun XII asrdan ko’ra XIV asrda muvofiqroq fikriy muhit hosil bo’lgan edi, deyish mumkin. Amir Xusrav “Xamsa”dan so’ng yozilgan tarixiy-ishqiy dostoni “Duvalroniy va Xizrzon” qahramonlarining muhabbati ham majoziy ekanligini alohida ta’kidlab ko’rsatadi:

*Chu ishq andar majozash jilvagoḥ dod
Majozash bar puli tahqiq rah dod¹.*

*(Ishq o’z majozida namoyon bo’lgani sababli,
Bu majoz Haqiqatni anglab yetish uchun ko’prik bo’ldi.)*

Amir Xusrav “Xamsa” g’oyalarning keng yoyilishi uchun ulug’ xizmat qildi. Undan keyin “xamsanavislik” va keng ma’noda “majoziy ishq”ni kuylashga bag’ishlangan dostonchilik an’anasi mintaqa miqyosida ko’lam kasb etdi. Navoiy eslagan Xojuyi Kirmoniy va Salmon Sovajiy, Kotibiy va Shohiy Sabzavoriylar ushbu dostonchilik an’anasiga mansub shoirlardir. Hofiz Sheroziy va Nosir Buxoriy g’azallarining majoziy ishq tavsifiga oidligi yana maxsus tadqiqotlarni talab etadi.

“Majoz” va “haqiqat” nisbatlari turkiy adabiyot doirasida keyingi asrlarda Fuzuliydan to Nodira sheriyaigacha qo’llanilib kelganligi ma’lum.

Ammo bu masalaga ayriча ahamiyat bergan va mintaqa emas, jahon miqyosida dunyoni yangicha idrok etish an’anasiga ham nazariy, ham amaliy (ya’ni badiiy ijodda) asos solgan buyuk zot – Alisher Navoiy bo’ldi. Navoiyning Amir Xusrav Dehlaviy ijodiga ixlosi ham Amir Xusravning “majoziy ishq”qa bo’lgan munosabatiga bog’liq, deb o’ylaymiz. Chunki Nizomiy asos solgan “Xamsa” an’anasining alohida yangicha yo’nalish, badiiy idrok va in’ikosning maxsus yo’li ekanligini anglab yetib, ushbu yo’nalishga el e’tiborini tortgan Amir Xusrav edi.

Navoiy ijodiy takomili ikkinchi bosqichining tayanch ustuni – shoirning shoh asari “Xamsa” desak yanglishmaymiz. 888 (1483)-yildan Alisher Navoiy o’zining eng buyuk asari “Xamsa” turkumini yozishga kirishadi va uni 890 (1485)-yilda tugallaydi. Besh dostonni o’z ichiga

¹ Amir Xusravi Dehlavi. Duvalroniy va Xizrzon. Dushanbe, «Donish», 1975, 224-b.

olgan bu ulkan badiiy qomus 50 ming misradan oshiq bo'lib, Navoiyning barcha she'riy merosining deyarli yarmini tashkil qiladi. Ammo gap hajmda emas. "Xamsa" Alisher Navoiy ijodining qalbidir. Buyuk bobokalonimiz o'zi tuzgan birinchi devoni "Badoye' ul-bidoya" bilan oq turkiy tildagi she'riyatni arab va fors mumtoz adabiyotining eng peshqadam namunalari darajasiga olib chiqqan edi. Ammo bu ishlar barchasi "Xamsa"ning debochasi edi, xolos. Agar turkiy "Xamsa" yozilmasa, nafaqat bizning, turkiy xalqlarning adabiyoti, ma'naviyati, balki butun islom mintaqa ma'naviyati bugungi yaxlitligi, bugungi tugalligiga ega bo'lmas edi, deb bemalol aytish mumkin. Alisher Navoiydek asl oshiqning dunyoga kelishi, unga berilgan ulug' iste'dodning mohiyati "Xamsa" uchundir, bu buyuk ijodkor merosining avvali ham, oxiri ham "Xamsa" tufaylidir.

Islom ma'naviyati namoyandalari o'z ijodlarida salafларini inkor etish, ilgari batamom ko'rilmagan yangilik yaratishga intilish emas, balki ustozlar yaratgan ma'naviy boylikni yanada takomillashtirish, unga yangi jilo berish, ular izlagan yaxlit va buyuk Haqiqatning yangi va toza qirralarini kashf etish, mazmuniy boyitish yo'lidan borganlar. Bu tom ma'nosi bilan muqaddas an'ana bo'lib, islomning ilohiy kitobi Qur'oni karimdan sarchashma oladi. Dehlaviy "Xamsa"si Nizomiyga ajoyib sharh va undagi mazmunlarning yangicha talqini sifatida o'zining ham, salafining ham shuhratini olamga yoydi. Keyingi XIV–XV asrlar mintaqa ma'naviyati "Xamsa" an'anasi ta'sirida rivoj oldi, shoirning salohiyati va iqtidori hech bo'lmaganda "Xamsa"ning bir dostoniga munosib javob yoza bilish bilan o'lchanadigan bo'ldi. Bu jahon ma'naviyati tarixida betakror hodisadir. Turkiy adabiyotda Qutb va Haydar Xorazmiylar boshlab bergan "xamsachilik" an'anasi o'zining kamolini Alisher Navoiy ijodida kutayotgan edi va bu qutlug' intizorlik benihoya ezgu samara berdi. Nizomiy, Amir Xusrav, Alisher Navoiy ruhiyatları "Xamsa"ning ma'naviyat maydonida birlashib, yagona iqlim, yagona mohiyat kasb etdilar. Ushbu yagona mohiyat butun islom mintaqa ma'naviyatining eng buyuk cho'qqisidir. Nizomiy va Amir Xusravsiz Navoiyni tasavvur etib bo'lmaganidek, Alisher Navoiy ijodiy merosisiz Nizomiy va Amir Xusrav badiiy olamini ham butun ko'lami bilan idrok etib bo'lmaydi. Shoir o'zi dostonlarini "zohir yuzidan afsona" degan edi. Afsus, yaqin kunlargacha maktablarmizda XX asr avlodiga "Xamsa" dostonlari ushbu "afsona" darajasida, yuzaki talqin etilib, tushuntirib kelindi. Mustaqillikning dastlab-

ki yillarida bu eski yondoshuvdan qoniqmagan ba'zi yosh tadqiqotchilarimiz Navoiyning islomiy shoir ekanligini, uning asarlaridagi tasavvuf irfoni izlarini yangidan "kashf" eta boshladilar. Vaholanki, barcha jiddiy navoiyshunoslar bu "yangilik"larni avval boshdanoq yaxshi bilishgan, to'liq idrok etishgan, faqat "zamona zo'rligi" tufayli, kommunistik mafkura tazyiqidan navoiyshunoslikni himoyalash maqsadlari bilan ba'zi jihatlarini pardalab o'tishga, ishoralar bilan cheklanishga majbur bo'lishgan edi. Bugungi mustaqillik, hurlik zamonida endi ma'naviyatimizning asl mohiyati haqida ochiq-oydin gapirish, fikr yuritish imkoniyati mavjud ekan, muammolar mohiyatiga chuqurroq kirib borish, teran tahlilga o'zimizni ham, yosh avlodni ham o'rgatib borish ayni farzdir. Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlari har biri alohida necha-necha tadqiqotlar mavzuyi bo'lib keldi, yana bu ish davom etadi. Chunki ularning mazmun qabatlari benihoyadir. Bu dostonlar shaklan qanday mukammal bo'lsa, mazmunan undan ham uyg'un, koinot singari munazzam va had-hududsizdir.

Islom aqidalariga ko'ra bir kecha-kunduzda o'qiladigan besh vaqt namoz "al-Xamsatu" deyiladi, dinimizning besh ustuni (rukni) ham tavhid (imon), namoz, ro'za, zakot, haj – o'ziga xos "xamsa" (beshlik)ni tashkil etadi. Demak, Nizomiy dostonlarining "Xamsa" turkumi sifatida talqin etilishi, unga Amir Xusrav va Navoiy javoblari bejiz emas. Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonining muqaddima qismida bu masalaga maxsus to'xtalib, "Xamsa"ning har bir dostoni yozilishini kunning ma'lum vaqtlarida o'qiladigan sahar (fajr), peshin (zuhr), asr, shom va xufton namozlari bilan qiyos etadi hamda "Xamsa"ni buyuk tog' cho'qqisiga ko'tarilish mobaynida besh o'rinda to'xtab, nafasni rostdash uchun bino etilgan besh oromgohga o'xshatadi¹. Bu oromgohlarni yaratish uchun shoir "Bilik taxti uzra chiqib o'lturmagi", "Xayol elchisini" har tarafga choptirishi, "jon mulkidan" "maoniy sipohini" (ma'nolar lashkarini) guruh-guruh (favj-favj) yetkazib berib turishi, ma'no lashkarlari jam bo'lgach, insonlar dilini zabt etishga kirishmog'i, ya'ni ma'naviyat olamida jahongirlik san'atini namoyish qilmog'i lozim edi. "Xamsa" dostonlari ijtimoiy hayotni, turli toifalarning hayotdagi o'rni va vazifalarini ularning butun ichki dunyosi va ruhiyati bilan bog'liq holda tadqiq etadi, shu bilan birga undagi barcha botiniy rishtalar Tavhid e'tiqodiga borib ulanadi.

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 11-jild. T., «Fan», 1993, 34–39-b

“Xamsa”ning badiiy olami, ma’lum maqsadga – inson ma’naviy kamolotini ta’minlash maqsadiga yo’naltirilgan bo’lib, bu yo’lda islom ma’naviyatining Sunna (islomiy ibodatlar, islom axloqi), Ma’rifatchilik (mantiqiy tafakkurga tayanish, islomgacha yaralgan merosni o’zlashtirish), Tasavvuf irfoni (tariqat maqom va hollari, pir irshodi, riyozat bilan Haq vasliga intilish, shu yo’l bilan ma’naviy poklanish) kabi turli bosqichlarini bosib o’tib erishilgan darajadan keyingi, yangi bosqichni anglatar edi. Bu bosqich ibrat, ilm, irfon yo’nalishlaridan farq qiluvchi yangi yo’nalish – badiiy tafakkur yo’nalishi doirasida bo’lib, Alisher Navoiy ijodiy takomilining uchinchi davrida nihoyat unga alohida nom berildi.

“Xamsa” turkumi alohida bir olam. Uning har bir bobi nihoyatda boy mazmun va mohiyatlarni ichiga yashirgan tilsimdir. Aytishlaricha, me’roj tunida Muhammad alayhissalom arshi a’lo ostida qulflog’lik bir xona ko’rib Jabroildan: “Bu qanday makon?” deb so’rabdilar. Javob bo’libdiki: “Ey, Rasululloh, bu makon teran ma’nolar xazinasidir va sening ummatlaring ichidagi shoirlar tili ushbu xazinaning kaliti turur”. Ushbu rivoyatdan kelib chiqib, Nizomiy o’zining birinchi dostonini “Maxzan ul-asror”, ya’ni (ilohiy) sirlar xazinasini, deb atagan edi. Navoiy “Xamsa”sining birinchi dostoni “Hayrat ul-abror”:

*Bismillohir rahmonir rahim,
Rishtaga chekti necha durri yatim¹ –*

deb boshlanadi. Nizomiy ushbu satrlarning birinchisi bilan “Maxzan ul-asror” ni boshlab, ikkinchi satrda:

Hast kalidi dari ganji hakim

(Hikmatlar egasi xazinasini eshigining kalitidir) degan edi. Navoiy avvalo ushbu satrni sharhlash uchun alohida bir bob bag’ishlaydi va uni ajoyib ibratli tazod – “ahli qabul” va “ahli rad” tushunchalariga nisbatan izohlab beradi. Komil inson tarbiyasi ushbu ilk bobdan boshlanadi. Insonni “ahli qabul” bo’lishga da’vat etib, Navoiy bobga shunday xulosa yasaydi:

*Istabon, ey xasta Navoiy, navo,
Bo’yla safarga qilur ersang havo,
Yo’l yomon-u yaxshisidin yema g’am,
Bismilloh, degil-u qo’ygil qadam².*

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to’plami. 7-j. T., 1991, 11-b.

² O’sha kitob, 15-b.

“Hayrat ul-abror”ning birinchi maqolati Imon haqida. Unga shunday batafsil sarlavha berilgan: “Avvalgi maqolat imon sharhidakim, “Al-imonu an tu’mina billahi va maloikatihi va kutubihi va rusulihi va bil-yavmil-oxiri va bil-qadari xayrihi va sharrihi” demakdan maqsud bu kalimot emas va agar ahli zohir muni imon desa, ahli ma’ni demas va uluhiyat daryosig‘a shinolig‘ ajzin zohir qilmoq, maloika havosida bir necha qanot urmoq va kutub avroqida bir necha harf surmak va rusul jodasida necha qadam yugurmak va qiyomat qoyim bo‘lurida qiyom ko‘rguzmak va qadar bobida aloqadri hol tarannum tuzmak”¹. Ushbu sarlavhani sharhlashning o‘zi necha sahifa bo‘lishi mumkin, chunki unda zohiriy imon bilan botiniy imon, “zohir ahli” (tashqi taqlid bilan cheklanuvchi insonlar) ning imon haqidagi tasavvuri bilan “ahli ma’ni” (Borliq mohiyatini idrok etishga intiluvchi, o‘zligini anglagan insonlar) imonni qanday tushunishi orasidagi farq badiiy izohlanmoqda. Maqolatda tirik (jonli, “hayvon”) bo‘lsa-yu, gapirishni bilsa (“notiq “ bo‘lsa) demak, inson deb o‘ylash nihoyatda xato ekanligidan suhbat boshlanadi:

*Sen dog‘i inson muni qilsang gumon,
Bilki hamon sen-sen-u hayvon hamon.
Muniki inson mutafovut erur,
Tengri kalomi xabar andin berur.
Bas kishi jazm aylasa inson ani,
Yaxshi-yomon ichra tafovut qani?
Bo‘lmadi bas noqis-u komilda farq,
Topmagay el olim-u johilda farq².*

Alisher Navoiy dostoni XV asr ijtimoiy-ma’naviy hayotining tufli qirra va jihatlarini butun ichki murakkabligi va o‘zaro qiyoslari bilan qamrab ola bilgan. “Hayrat ul-abror”dagi muammolar voqelik singari murakkabdir. Navoiyning masalalarga yondoshuvi hatto ustozlari va zamondoshi Abdurahmon Jomiy qarashlaridan ham ma’lum darajada farq qiladi. Ma’lumki, Jomiy o‘z badiiy ijodida diniy aqidalar va tasavvuf qoidalari ta’rifiga atroflicha o‘rin ajratgan. Uning “Haft avrang” (“Yetti taxt”) turkumidagi “Tuhfat ul-ahror” va “Suhbat ul-abror” dostonlarida namoz, ro‘za, zakot, haj, uzlat, tavba, zuhd,

¹ O‘sha kitob, 100-b.

² O‘sha kitob, 100-101-b.

faqr, havf-u rijo, tavakkul kabi turli islomiy va irfoniy tushunchalar sharhiga alohida boblar bag'ishlangan. Navoiy ham birinchi dostoni-ning asosiy qismini imon va islom sharhidagi maqolalar bilan boshlaydi. Ammo uning bu boradagi mulohazalari an'anaviy qarashlardan farq qiladi.

Namuna sifatida Islom haqidagi bob oxiriga berilgan hikoyat mazmuni bilan tanishaylik. Unda mashhur so'fiy shayxi "Ibrohim Adhamning Ka'bag'a namoz bila borg'oni va Robiyayi Adaviyag'a Ka'baning niyoz bila kelgona" rivoyat etiladi. Zohidlikni ixtiyor etgan shayx har qadamida ikki rakaat namoz o'qib, 14 yil riyozat chekib, Makka shahriga yetib kelib qarasa, Ka'ba o'z o'rnida yo'q. Shayxning "Ey, Alloh," deb hayrat bilan qilgan nidosiga g'oyibdan Ka'ba Robiyayi Adaviyani tavof qilish uchun ketganligi haqida javob bo'ladi¹. Robiya esa tasavvufda ishq yo'lini tanlagan so'fiy ayol edi. Navoiy islom va tasavvufda zuhd maqomidan ishq martabasini shu daraja yuksak qo'ygana. "Xamsa" dostonlarining har bir bobida shu kabi insonning ruhiy, ma'naviy, axloqiy dunyosi, insonlararo ijtimoiy munosabatlar xususida o'ta muhim, o'ta dolzarb, o'ta murakkab muammolar xususida bahs etadi. Ularda eng voqe hayot tasviri yuksak majoziy ishoralar bilan ajoyib bir uyg'unlikda keladi. "Xamsa"ning barcha dostonlarida shu badiiy qudrat har bir timsol, har bir qiyofa va hodi-saning ich-ichidan ufurib turadi.

Ikkinchi doston "Farhod va Shirin"ni olaylik. Nizomiy va Dehlaviy tarixiy shaxs Xusrav Parviz atrofida suhbat yuritgan bo'lsalar, Navoiy afsonaviy oshiq shahzoda Farhodni dostoniga bosh timsol qilib tanladi. Nizomiy shahzoda va shoh timsolida oddiy insonni tasavvur qilib, uning tantiqligi, ayb-u qusurlari samimiy ishq tufayli asta-sekin barham topib, oqila Shirin ta'sirida Xusravning kamolot va fozillik kasb eta borganligini ibrat qilib ko'rsatishni niyat etgan bo'lsa, Dehlaviy ijtimoiy mavqe va muhitning shaxs ma'naviy qiyofasi va xatti-harakatiga ta'sirini ochib berdi. Navoiy, salafllari tajribasidan tegishli xulosalar chiqarib, shoh Xusravni butkul salbiy timsol sifatida talqin etdi va oldingi dostonlarda ideal oshiq, ammo ikkinchi darajali qahramon mavqeyida turgan Farhodga asosiy diqqatni qaratdi. Ushbu o'zgarishning bosh sababi, Chin shahzodasining ma'naviyatidagi yetakchi fazilat – uning o'zligi (shahzodaligi va otasi Xoqon mulkiga

¹ O'sha kitob, 118–120-b.

vorisligi)dan butkul voz kechib, pok oshiqlik va elga naf yetkazish yo'lini tutganligi (toshkesar va naqqoshlik hunarini kasb qilib olganligi) bo'ldi. Chunki faqat shunday timsol Navoiy g'oyalarini mukammal ifodalay olishi mumkin edi.

Doston qahramoni Shirinning husniga maftun bo'lgan Chin shahzodasi ekanligini maktab darsliklaridan yaxshi bilamiz. Ammo zohiriy (tashqi) afsona bilan cheklanmaslik kerakligini shoir o'zi alohida uqtirgan. Navoiy insonning, millatning, bashariyatning ma'naviy kamoloti haqida qayg'uradi. Shahzodaning dilda ishq bilan tug'ilishi, uning Xoqon mulkini qabul qilib olishdan ilgari sirli sandiq va undagi ko'zgu tilsimini yechish qasdida Yunon safariga yo'l olishi, bu yo'lda avval ajdahoni, so'ng Axrimanni, oxiri temir tanli kamon otuvchini yengib, donishmand Suqrot bilan uchrashuvga muvaffaq bo'lishi – bu afsonaviy tasvirlar ortida bashariyatning, insonning, ayniqsa, turkiy elatning, o'z mohiyatini anglab yetish yo'lidagi kamolot bosqichlarini bir-bir bosib o'tishi badiiy-majoziy tasvir etilgan emasmi?

Suqrotning Farhodga purma'no nasihatlarini ushbu botiniy ishoralarga kalit bo'la olmaydimi? Asli sirli ko'zguda Farhod Shirinni emas, avvalo o'z taqdirini ko'radi. Ajdaho ibtidoiy jamoa kishisining asotir (mifologik) tafakkurida johillik va yovvoyilikni, Axriman Avesto ma'naviyatida zulmat, yolg'onchi kuchlar timsolini, kamon otuvchi temir odam esa qabilalararo, elatlararo ayovsiz nifoqlar davri – xudbin va beshafqat talonchilarining majoziy qiyofasini eslatmaydimi? Ajdodlarimiz o'z ruhiyatlaridagi shunday qattol yovlarni yengib, Suqrot qiyofasidagi islomgacha bashariyat erishgan ilm va hikmatni egallab, IX–XV asr islom ma'naviyatiga yetib kelmadilarmi? “Xamsa” dostonlarida buningdek botiniy ma'no qabatlari ixlos bilan, salaflar ijodiga qiyos bilan izlansa, cheksiz topiladi.

“Layli va Majnun” afsonasi fors va turkiy tillarda o'nlab dostonlariga mavzu bo'lgan. Ammo ularning har biri o'ziga xos, betakror ma'no qatlamlarini ifsho etadi. Bu dostonning eng asosiy xislati – Majnun ham, Layli ham teng oshiq, teng ma'shuq. Bu doston ikki oshiq Insonning haqiqiy ishqni anglab yetmaganlar orasidagi foje holati tasviriga bag'ishlangan deyish mumkin. Ammo bu eng umumiy ta'rifdir, har bir doston talqini esa o'ziga xos.

“Sab'ai sayyora” Insonning hayot va xayol dunyosidagi cheksiz adashuvlarining majoziy tasviridan iborat. Bunda yana “ahli qabul” va “ahli rad” orasidagi tazod (ziddiyat) birinchi o'ringa chiqadi. Muqbil

va Mudbir, Suhayl va Jobir, Juna va Jaysur, Ma'sud va Mallu timsollari ushbu ikki guruhga mansub bo'lib, hayot sinovlaridan qanday o'tishiga qarab, "ahli qabul" saodatga, "ahli rad" esa qilmishlariga yarasha jazoga erishadilar. Ichki qissalaridagi bu timsollar asar bosh qahramoni Bahromshoh uchun ham ibrat sifatida keltiriladi. Ammo hukmdor o'z xirs-u havaslarini jilovlab ola bilmaganligi, begunoh jon-zotlar qonini ayovsiz to'kkanligi kasofatidan o'zi ham yer yutib halok bo'ladi.

Buyuk jahongir taqdiri haqidagi oxirgi "Saddi Iskandariy" (Iskandar devori) dostoni shaklan ma'lum darajada "Xamsa" ning birinchi dostonini eslatadi. Unda ham har bobda turli ijtimoiy-axloqiy mavzudagi falsafiy mulohazalar, ibratli kichik hikoyat va hikmat-xulosa beriladi. Shundan so'nggina Iskandar hayotidan bir voqea hikoya qilinadi. Iskandar timsoli yaqingacha ham Y.E. Bertels talqiniga binoan odil shoh timsoli deb qabul qilib kelindi. Faqat Aziz Qayumov 1975-yilda nashr etilgan ushbu mavzudagi maxsus risolasida asli Navoiy qahramoni murakkab timsol ekanini, dostonida Iskandar qiyofasi tadrijiy o'zgarishda ochib berilganini ilmiy isbot etdi¹. Yunon shahzodasi avval shohlikka o'zini noqobil deb bilgan jur'atsiz va kamtar o'smir bo'lsa, hayot va fothlik siyosati taqozosi bilan asta-sekin o'z bilarmon va shafqatsiz istilochiga aylanib boradi va faqat o'limi yaqinlashganini sezgach, joh va kibr yo'lidagi butun urinishlari sarob ekanligini anglab yetib, ko'zi ochiladi.

"Xamsa"da majoziy ishq tasvirlanadi, insonning insonga munosabatidan, ya'ni axloqiy munosabatlaridan boshlab, hukmdorning fuqarolarga va, umuman, hukmdorlikka, toj-taxtga munosabati, o'z navbatida toj-taxtning, hukmdorlik mavqeyining insonga ta'siri, ya'ni insonlar hayotiga oid ijtimoiy, axloqiy munosabatlar majmuyi Tavhid e'tiqodi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. "Xamsanavislik" an'anasi islom mintaqa ma'naviyati takomilining badiiy tafakkurdagi o'ziga xos mahsuli bo'lib, shunga yarasha munosabatni talab qiladi. Bu an'ana tadqiqotchidan ham, oddiy kitobxondan ham har bir dostonning shakl va mazmuniga alohida e'tibor talab qiladi, chunki bir mavzuda yozilgan o'nlab dostonlar diqqat bilan o'qilsa, aslo bir-birini takror etmagan, balki o'zaro ijodiy bahsda yozilgani ma'lum bo'ladi. Shu sababdan har bir dostonni o'qiganda ham uning ushbu mavzu silsilasidagi

¹ A. Qayumov. «Saddi Iskandariy». T., 1975, 49–56-b.

o‘rniga, ham har bir shoir ijodiy merosidagi mavqeyiga ahamiyat qaratish lozim. Shundagina uning tamomila o‘ziga xosligi va mazmun qamrovini anglab yetish mumkin.

4-fasl. Navoiy va Attor. “Lison ut-tayr” ma’naviyati

Islom mintaqa adabiyotining bu murakkab xislati, uning, masalan, Yangi davr g‘arb adabiyotidan farqi XX asrning 30-yillaridayoq Y.E. Bertels tomonidan Navoiy va Attor, Nizomiy va Dehlaviy ijodini qiyosiy o‘rganish asosida ilmiy isbotlangan edi. “Xamsa” dunyosida ijtimoiy hayot ma’naviyatdan ajralmas, bir butundir. Ammo “*majoz tariqi*”ning islom davri ma’naviyati taraqqiyotida yangi alohida bir bosqich, eng oliy va yakuniy bosqich bo‘lishi uchun ochiq-oydin nazariy yakun lozim edi. Ushbu vazifani ham Alisher Navoiy mukammal ado etdi. Bu yumush shoir ijodiy takomilining uchinchi bosqichida bajarildi. Alisher Navoiyning hayot yo‘li va ijodi o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Bu masalada, ayniqsa, shoir va hukmdor, ya‘ni Navoiy va sulton Husayn Boyqaro munosabatlari diqqatga sazovor. Davrning bu ikki ulug‘ shaxsi orasida do‘stlik Alisher va shahzoda Husaynning go‘dak yoshlaridan boshlangan bo‘lib, umrlari oxiriga qadar davom etdi. Alisherning do‘stlarga sadoqati (“Jamolida vafo tug‘rosi paydo”) har qanday ta‘rif va tasavvurdan ortiqroq va bu ham uning Borliqqa munosabati va e‘tiqodi bilan belgilanadi. Bu chin inson nafaqat do‘stlari, yaqinlariga, balki barcha insoniyatga, hatto butun atrof-voqelikka sadoqat saqlar ediki, uning e‘tiqodida biror jonzotga, hatto buyumga xiyonat Allohga xiyonat darajasida edi.

Sulton Husayn haqiqiy darvesh-shoh edi, ma‘rifatli shoir edi. U ham do‘stiga xiyonat qilgan emas, ko‘nglida g‘araz saqlagan emas. Ammo hukmdorlik qoidalari ba‘zan ayovsizdir, Husayn esa inson.

Hijriy 892 (milodiy 1487)-yili qishda Navoiy Astrobod hokimi etib tayinlandi. Bu shahar “dorulfath” (sulton Husayn ilk g‘alaba qozongan shahar) deb ulug‘lanar va ko‘pincha valiahd shahzoda hukmida bo‘lar edi. Boshqa bek va amirlar uchun sharafli hisoblanishi joyiz bo‘lgan martaba Amir Alisherning nozik tabiati uchun muayyan darajada ozorli bo‘ldi. Ammo shoh hukmi vojib, Amiri Kabir o‘lkaning hassos bir hududini muhofaza va obod qilish niyatida jo‘nab ketdi. Astrobodda Navoiyning ikki yil chamasi hokimligi bu shahar ahli uchun saodatli, Boyqaro saltanati uchun xayrli bo‘ldi. O‘sha tarafdin xavf solgan muxoliflar Alisher hurmatidan xayrixohlik munosabatlari

oʻrnatdilar. Ammo shoir uchun oʻzi oʻrgangan muhitdan yovuqlik, doʻstlar vasliga intizorlik dil ranji edi.

Sulton Husayn Shohruh mirzo zamonidan vazirlar xonadoniga mansub boʻlgan Majiddin Muhammadni oʻziga yana yaqinlashtirgani ham doʻst rashkiga sabab boʻlardi. Amiri Kabirning Majiddin, Nizomulmulk, Xoja Afzal va boshqa aʼyonlar, Muzaffar Barlos kabi nu-fuzli beklar bilan oʻzaro munosabatlarini xolis va daqiq oʻrganish ikki doʻst – shoh va shoir munosabatlaridagi murakkab evrilishlarni teran-roq anglab yetishga yaqindan yordam bersa kerak. Hanuz davrning muhim yodgorliklari – Xondamir va Mirxond asarlari na oʻzbek tilida, na asl holida bosilib chiqqan emas. Qiziquvchilar faqat Izzat Sulton kabi baʼzi navoiyshunoslar keltirgan parchalar, baʼzi toʻplamlardagi iqtiboslar bilan qanoatlanishlariga toʻgʻri keladi.

Bu orada birin-ketin Navoiyning eng yaqin ustoz va musohiblari hayotdan koʻz yuma boshladilar. 1488-yili Sayid Hasan Ardasher, 1492-yili Abdurahmon Jomiy, 1493-yili Pahlavon Muhammad vafot etdi. Navoiy ancha yolgʻizlanib qoldi. Ustozlar xotirasiga bagʻishlab “Holoti Sayid Hasan Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad”, “Xamsat ul-mutahayyirin” (Jomiy haqida) asarlarini yozib tugalladi. Bu asarlarda oʻsha davr voqeligiga oid juda qimmatli maʼlumotlar bilan birga Navoiy yaratgan yangi badiiy olamning nazariy asoslariga oid koʻp dalil va mulohazalar ham bayon etilgan.

Bunday mulohazalar adibning 80-yillar oxiri 90-yillar boshlarida tasnif etilgan “Majolisun nafois” (“Nafis majlislar”), “Nasoimul mahabbat min shamoyim ul-futuvva” (“Futuvva boʻylarini eslatuvchi muhabbat shabbodalari”) kabi nasriy risolalarida ham oʻz ifodasini topgan. Undan tashqari shoir umri inti hosida yozilgan fors tilidagi falsafiy qasidaları (“Sittayi zaruriya”, “Fusuli arba”) ham shoir dunyoqarashini ravshan anglab yetishga yordam beradi.

Zahiriddin Muhammad Bobur haqiqatni ochiq bayon etishda oʻzini ham, boshqalarni ham ayagan emas. U sulton Husayn Boyqaro hukmdorligini barcha ijobiy va salbiy jihatlari bilan tavsiflab berdi. Sultonning mard va shijoatli kishi boʻlganini, taʼbi nazmi borligini qayd etish bilan birga, ayniqsa, podshohligining keyingi yillarida aysh-ishrat va ichkilikka qattiq berilib ketganini ham koʻrsatib oʻtadi. Umuman, sulton Husayn Boyqarodek noziktaʼb odam nega mayxoʻrlikka buncha berilib ketdi? Inson bekorga oʻzini ichkilikka urmaydi. Biz sulton qalbidagi murakkab ruhiy kechinmalarni hozir toʻliq tasavvur qila ol-

maymiz, ammo temuriylar saltanatining XV asr oxiridan boshlangan tanazzuli birgina ushbu xonadonning yozmishi emas, balki O'rta asrlar davlat boshqarish usullarining mintaqa xalqlari ma'naviy taraqqiyot darajasidan ancha-muncha orqada qola boshlaganidan nishona ekanini e'tirof etishga ehtiyoj seziladi.

Sulton Husayn va o'g'li Badiuzzamon orasidagi ixtiloflar axiyr borib fojia bilan yakunlandi. 1497-yili Astrobod hokimligi janjali ichida Mo'min Mirzo (Badiuzzamonning o'g'li, Navoiy tarbiyasini olgan 14 yoshli o'spirin, shoir yigitcha) avval Ixtiyoriddin qal'asida mahbuslikda saqlanib, keyin shoh bobosining mastlik bilan qo'l qo'ygan farmoni asosida qatl etiladi. Saltanat kelajagi uchun yomon fol darakchisi bo'lgan bu mudhish hodisa keksa Alisher Navoiyni qattiq iztirobga soladi. Bu hodisa asosida chiqarilgan achchiq xulosalar shoirning "vasiyatnoma"si o'rnida hisoblangan oxirgi uch asari mazmuniga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

1498-yilda "Lison ut-tayr", 1499-yilda "Muhokamat ul-lug'atayn", 1500-yili "Mahbub ul-qulub" asarlari yozildi. Bu uch asar buyuk shoir va mutafakkir ijodining eng avj nuqtalari edi. Adib "Muhokamat ul-lug'atayn"da o'zining butun ijodiy yo'lini sarhisob qiladi, turkiy tilidagi she'riyatning qudratini ta'kidlaydi. Unda, jumladan, quyidagi ma'lumot bor: "Chun "Lison ut-tayr" ilhomi bila tarannum tuzupmen, qush tili ishorati bila haqiqat asrorini majoz suratida ko'rguzupmen"¹. Alisher Navoiy go'daklik chog'laridan tasavvuf she'riyatining ustodi Farididdin Attor (1148–1229) yaratgan "Mantiq ut-tayr" asariga mehr qo'ygani ma'lum. Umrining oxirida ushbu asarga tatabbu-javob yozar ekan, Navoiy o'zining shungacha yozgan barcha asarlariga falsafiy yakun yasaydi. Attor asari Borliqning yagona mohiyati haqida, Haq asrori va inson uchun uni anglab yetish imkoni qay darajada ekanligi haqida edi. Navoiy asari ham asli shu haqda. Navoiy ustoz va salafiga zid fikr bildirmaydi, ammo uning fikrlarini takrorlamaydi ham. Asarda Foni (Navoiy)ning tarjima haqidagi so'zlari sharh, talqin ma'nosini bildiradi. "Lison ut-tayr"ning mutlaqo mustaqil asar ekanligini 1929-yildagi "Navoiy va Attor" risolasida Y.E. Bertels qoniqarli tarzda isbot etib bergan edi. O'sha risolada zukko rus sharhshunosi Attorni tasavvuf she'riyati vakili sifatida yodga olib, "Lison ut-tayr" muallifi haqida esa "Навои не был суфием..., он

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 16-jild. T., «Fan», 2000, 26-b.

представлял собой нечто большее” deb qayd etadi¹. Navoiyning dunyoni idrok etish va badiiy akslantirishi yuzasidan Y.E. Bertels bayon etgan ko‘p mulohazalar qatori bu fikri ham keyingi tadqiqotchilar diqqatini jalb etmadi. Albatta, buning o‘z sabablari ham mavjud, ammo hozir gap u haqda emas.

Attorning boshqa dostonlarida yaxshi voqeabandlik mavjud. Ammo qushlar tilidan yozilgan dostonida irfoniyl ehtiros nihoyatda jo‘shqindir. Navoiy esa bosiq voqeaband tasvirga urg‘u beradi, qushlar sarguzashida va ichki hikoyatlarda hayotiylikni kuchaytiradi. Bu bejiz emas. Oxirgi xulosada Navoiy salafiga qaraganda olg‘a ketadi, masala mohiyatini teranroq his qiladi va badiiy tasvirni ham shunga munosib yaratadi. Simurg‘ va qushlar nisbati haqida Attor:

*Surati murg‘oni olam sar-basar
Soyayi ust, in bidon, ey bexabar*

*(Olamdagi barcha qushlar surati,
Uning soyasidir, buni bilgin, ey bexabar) —*
deb tushuntirsa, Navoiy:

*Barcha olam qushlarining surati,
Bilgil, oning soyayi purhikmat²*

deb oddiy “soya” o‘rniga “hikmatli soya”ni ishlatadi. Agar biz “purhikmat” (ichki mazmunga boy) so‘zi faqat “Surat”ga qofiya kerak bo‘lgani uchun ishlatilgan deb sharhlasak, Navoiy iste’dodiga shak keltirgan bo‘lur edik.

Attordan ilgari “Qush risolasi”ni yaratgan Ibn Sino, Ahmad G‘azzoliylar bosh timsolni “Simurg‘” emas, “Anqo” deb nomlagan edilar. Attor “Simurg‘” timsoli bilan juda chuqur mazmunga ishora qildi. Ammo baribir eng mas‘ul o‘rinda:

*Chun shumo simurg‘ injo omadid,
Si dar in oyina paydo omadid.
Gar chihl, panjoh murg‘ oyad boz,
Pardaro az xesh bagushoyand boz³. —*

¹ Бертельс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. М., «Наука», 1965, с. 419.

² Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. T., 1991, 83-b.

³ Sittai Fariddin Attor(qo‘lyozma), 72 b-vaq.

*(Sizlar o'ttiz qush bu yerga kelganlaring sababli,
Bu ko'zguda o'ttizta ko'rindilaring.
Agar yana qirqta yo ellikta qush kelsa,
Yana o'zlarining yuzlaridan pardani ko'taradilar) —*

deb o'zi topgan timsol quvvatini kesib qo'yadi. Navoiy unday qilmaydi. Navoiy 30 qush (forscha — “si murg”) va Simurg‘ (jahondagi barcha qushlarning afsonaviy hukmdori) ni bir so‘z sifatida bir xil jaranglashiga qayta-qayta e‘tiborni jalb qiladi. Ammo bu majoziy talqinni yana jo‘nlashtirib, demak, o‘ttiz qush o‘zi Simurg‘ ekan, ya‘ni ular hukmdorini izlamasa ham bo‘lar ekan, deb tushunish shoirni to‘g‘ri anglab yetishimizga yordam bermaydi. Navoiyning timsollari ham, ular orqali anglatmoqchi bo‘lgan badiiy haqiqati ham bunday jo‘nlashtirishlardan behad yuqori turadi. Navoiyning talqinlari tasavvuf adabiyotining irfonini inkor qilmaydi, balki inson ma‘naviyatini undan-da yuksakroq bosqichga yetaklaydi. Attor XII asr oxiri XIII asr boshlaridagi tasavvuf adabiyotining namoyandasi bo‘lib, uning davrida hanuz Ibn al-Arabi (1165–1240) falsafasi yaratilmagan edi. Navoiy esa Ibn al-Arabi irfonini Iroqiy talqinida Jomiy yordami bilan chuqur o‘zlashtirgach, keyin qushlar tilida doston yozishga kirishdi. Shu sababli, aytish mumkinki, Alisher Navoiy asari zohiran Attor asariga tayangan bo‘lsa, botinan, mazmun mohiyatiga ko‘ra Iroqiy qarashlarini rivojlantirgan.

Oldingi bobdan ma‘lumki, badiiy adabiyotning bosh mavzusi inson, uning ruhiy kechinmalari bo‘lib, ular, asosan, ikki yo‘nalishda o‘zligini namoyon etadi: biri — insonning Haqqa, Borliqning mohiyatiga nisbati doirasida; ikkinchisi — insonning o‘zi singari maxluqlarga, ya‘ni o‘zga insonlarga, atrof-voqelik, mavjud jamiyatga munosabati yo‘nalishida. “Majoz tariqi”ning mohiyati, uning jahon badiiy tafakkur tarixida yetishgan ulug‘ martabasi shundaki — uning asoschilari yuqoridagi ikki yo‘nalishning o‘zaro teran uyg‘unligini sehrli bir tarzda ta‘min eta bildilar.

Navoiy Nizomiy va Dehlaviy kabi zabardast ustozlari yaratgan an‘analarni izchillik bilan davom ettirib, “Xamsa” dostonlarida o‘z davri ijtimoiy muammolarining ma‘naviy mohiyatini chuqur badiiy tadqiq etgan bo‘lsa, «Lison ut-tayr» dostonida Attorning irfoniy majozlariga xiyonat qilmagan holda ularga bir paytning o‘zida ijtimoiy jilo baxsh etishga muvassar bo‘ldi. Shu tarzda shoirning oxirgi dostoni ham mazmuniy teranlikda, ham shakliy mukammallikda “*majoz tariqi*”ning eng avj nuqtasi darajasiga ko‘tarildi.

Asarning mintaqadagi badiiy tafakkur tarixi jarayoni sahnida «Mantiq ut-tayr» bilan batafsil qiyosiy tahlili va oradagi farqlar mohiyatini shoirning butun hayoti va ijod yo‘li bilan qiyoslash orqali juda ajoyib kashfiyotlarga erishish mumkinligi shubhasiz. Bu yo‘ldagi dastlabki bosqich tadqiqotlarga tayanib turib, hozircha ushbu g‘oyat qisqa muhohazalarni bayon etish mumkin:

Birinchidan, tasavvuf an‘anasidagi solikning Oliy mutlaq zot mohiyatida o‘zlikdan butkul forig‘ bo‘lishi g‘oyasi Navoiyda shaxs sifatida mutlaq o‘zlikni yo‘qotish, hatto jisman mahv bo‘lish ma‘nosida emas, shaxs ma‘naviy kamolotining muayyan darajasi sifatida talqin etiladi. Ikkinchidan, Navoiy talqinida Simurg‘ timsoli bir paytning o‘zida ham soliklar (qushlar) intilgan Borliqning Oliy mohiyati, ham komil insonlar jamoasi (“si murg‘” – o‘ttiz qush) – Forobiy tasviridagi “fozil jamiyat” orzusi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu yo‘l bilan Navoiy tavhid g‘oyasining Qur‘on oyatlariga muvofiq eng mukammal va teran mazmunini badiiy timsol qudrati bilan ochib bera oldi. Inson Xalloqi olam tomonidan yer yuzida xalifa qilib yaratilgan. Uning mas‘uliyati ulug‘. Jumladan, yer yuzida ijtimoiy adolat o‘rnatish mas‘uliyati ham har bir insonning zimmasidagi burch bo‘lib, buning uchun, avvalo, u shaxs sifatida shakllanmog‘i, ya‘ni ma‘naviy kamolot kasb etmog‘i kerak. Shu nuqtayi nazardan dostonning ijtimoiy mazmuni haqida quyidagicha tasavvur hosil bo‘ladi:

Qushlar – insonlar, aniqrog‘i, butun insoniyat. Ularning Simurg‘ sari mashaqqatli yo‘li – baxtli va odilona jamiyat sari tarixiy izlanish jarayoni. Yo‘l boshida bu ko‘p asrlik orzu «odil shoh» izlash tariqasida namoyon bo‘ladi. Tarixiy jarayon davomida insonlar jamiyati olg‘a intilish bilan chiniqib, kamolotda yuksalib boradilar, turli ma‘naviy bosqichlarni bosib o‘tadilar. Va oxiri borib «odil shoh» orzusi muammoni asosli hal qilib bera olmasligi ravshan bo‘lib qoladi. Qushlar mardonavor parvozda davom etib, «ikkinchi fano» bosqichiga yetishadilar:

*Munda gar yaxshi taxayyul aylasang,
Yoki ish sirrin taammul aylasang,
Muttasif bo‘lsang sifotilloh ila,
Jazm etarsen xotiri ogoh ila –
Kim sen o‘q sen, har ne kim maqsud erur,
Sendin o‘zga yo‘q nekim mavjud erur.
Zotning ijmolig‘a tafsilsen,
Ham vujud ishkolig‘a ta‘vilsen.*

*O'z vujudingni tafakkur aylagil,
Har ne istarsen, o'zingdin istagil'.*

Bunda shoir har bir qushga murojaat etib, agar sen ulug' orzu yo'lida shaxsan o'zing fidoyilik ko'rsatmas ekansan, xayol xayolligicha qolaveradi; har neki istar bo'lsang, o'zingdan ista, o'z kuchingga, kamolingga tayan», demoqda. Bir so'z bilan aytganda, «Oliy haqiqat mazhari» sifatida olib qaralayotgan komil ijtimoiy tartibni vujudga keltirish ham insoniyatni¹ g o'z ma'naviy kamoli va faollik qudratiga bog'liqdir:

*Lek Simurg' istagan ul jam'i tayr,
Kim suluk ichra riyozat birla sayr
Aylabon chun o'zni qobil qildilar,
Ul talabdin vasl hosil qildilar.
Senda ham bilquvva ul mavjud erur.
Fe'lga kelsa davo maqsud erur².*

Demak, shoir fikricha, har bir insonda Oliy haqiqat – uyg'un va baxtiyor ijtimoiy tuzumga yetish uchun imkon sifatida barcha jihatlar berilgan, faqat bu imkoniyatni ro'yobga chiqarish uchun ma'naviy barkamollik va fidoyi faollik lozim.

Navoiy talqinidagi Simurg' – butun Insoniyatning yaxlitlikda erishuvi mumkin bo'lgan Oliy takomil bosqichiga har bir kishi, har bir jamoa o'zicha kamolot hosil qilib yetisha olmaydi. Butun insoniyat (jami qushlar) unga birgalikda intilmog'i, birga-birga parvoz qilib, yo'l mashaqqatlarini birga yengib o'tib erishmoqlari mumkin. Simurg' – bir qush emas, kamolotning oliy bosqichi – Tavhid bosqichiga ko'tarilib yetgan o'ttiz qush («si murg'»)ning birligi – ma'naviy yagonalik hosil qila bilgan uyg'un insonlar jamoasi, yaxlit insoniyat. Ushbu uyg'unlikka erishuvning yagona yo'li esa insonlarning bir-biriga Haq rizoligi yo'lidagi pok va samimiy mehridir.

Ulug' shoir asarlari zamonamizgacha omon yetib keldi. Ammo ulardagi majoziy qobiq ko'pincha teran va ezgu fikrlarni o'quvchi ko'zidan yashirib kelmoqda. Ko'p o'rinda ular an'anaviy talqin qilinmoqda. Shu sababli bo'lsa kerak, biz – shoir ijodining tadqiqotchilari – hanuz uning satrlari qatiga yashiringan ulug' asror va ramzlarni

¹ O'sha kitob, 238-b.

² O'sha kitob, 238-b.

kashf etishga yetarli jur'at va kamolot topa olmay qolmoqdamiz, ikkilanmoqdamiz, jo'n tahlillar bilan buyuk hikmatlar ustodi oldida o'zimizni xijolatda qoldirmoqdamiz. Navoiy nega o'ttiz qushni bizning zamonamizgacha yetkazib keldi? Chunki bu «o'ttiz qush» — bu «Simurg'» insoniyatning mingyillik tarixidan bizgacha tirik yetib kela olgan, butun insoniyatga bo'lgan yuksak mehrini ulkan qalblariga jo eta olgan va shu bilan baqoga-abadiyatga erishgan ajdodlarimizdir. Ular bugun ham tirik. Va biz bilan hamnafas, yangi taraqqiyot ufqlariga qarab toliqish bilmay parvoz etib bormoqdalar, hali ham bizni olg'a chorlamoqdalar. Bugungi kunda ularning ko'pgina armonlari kushoyish topa boshladi. Ammo biz — kamolot sari intilayotgan qushlar — bir nafas yo'l mashaqqatlaridan toliqsak, beg'amlik, taraddud va yo tushkunlikka berilsak, Oliy haqiqat sari intilishdan bir nafas chekinsak, butun insoniyatning mingyillik orzulariga xiyonat qilgan bo'lamiz, bobolarimizning tabarruk umidiga shak keltirgan bo'lamiz. Bunga bizning haqqimiz bormi?

Y.E.Bertels 1941-yilda “ Navoiy dunyoqarashiga doir” deb nomlangan maqola yozib, unda shoir ijodiga Ibn al-Arabiy va Faxriddin Iroqiylar ta'sirini alohida ta'kid etgan¹ va bu masalani jiddiy o'rganishga chaqirgan edi. Ammo hanuzgacha na navoyishunoslar, na jomiyshunoslar ushbu muhim muammoga e'tibor bergani yo'q, Jomiy asarlarining Dushanbeda nashr etilgan 8 jildlik to'plamiga “Asha'ot ul-lama'ot” mutlaqo kiritilmaganligi ham shundan darak beradi.

Navoiyning oxirgi asari “Mahbub ul-qulub”ni shoirning butun ijodiy merosiga o'zi tomonidan yozilgan nazariy xulosa va yakun, deyish mumkin. Bu asar mazmuni nihoyatda boy. Unda XV asrda mavjud bo'lgan barcha ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy hodisalarning o'zaro bog'liqligi, yaxlitligi ishonarli ta'kidlangan. Ushbu kitob sahifalarida badiiy tafakkurning nazariy muammolari, jumladan, oldinroq eslab o'tilgan badiiy ijod tariqi masalalari bo'yicha ham oldingi risola va she'riy asarlarda yo'l-yo'lakay aytib o'tilgan fikrlar umumlashtirilib xulosalar chiqarilgan. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, Sanoiy, Nizomiy, Sa'diy, Amir Xusrav, Hofiz asarlarida muayyan darajada o'z aksini topgan va Alisher Navoiy ijodida mukammal darajaga yetib, uning tomonidan nazariy asoslangan mutlaqo yangi mustaqil badiiy tafakkur tarzi “majoz tariqi” deb nom oldi va unda Haq (Oliy ha-

¹ Bertels E.Э. Избранные труды. Навои и Джами. М., 1965, 447–449-б.

qiqat) asrori “majoz suvratinda” namoyon bo‘lganligi alohida ta’kidlandi. Bu Borliqni o‘ziga xos idrok etish tarzi “naqshbandiya”ning “Dil ba yor-u dast ba kor” qoidasiga muvofiq bo‘lib, unda ibrat, ilm, irfon va amal bir nuqtada birlashar va yangi dunyoga ko‘z ochardi. Tavhid ta’limoti va e’tiqodini idrok etishning eng yuqori bosqichi bo‘lgan bu dunyoqarash tizimi “Xamsa” va “Lison ut-tayr” asarlarida, shoir lirikasida badiiy in’ikosini topgan bo‘lsa, bir qancha risolalarda muammoning nazariy jihatlariga e’tibor berildi. Biz yuqorida ularni o‘z idrokimiz yetgan qadar sharhlashga urindik.

7-BOB. YANGI DAVRDA MILLIY MA’NAVIYATIMIZ TAKOMILI

1-fasl. Alisher Navoiy ijodida yangi davr ma’naviyatiga poydevor qo‘yilishi. Yangi davrning ma’naviy mohiyati

Ma’naviyat – o‘zlikni anglashdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, milliy ma’naviyat tarixi millatning o‘zligini anglash yo‘lidagi takomil bosqichlaridan iborat. Avvalo inson urug‘ jamoasi, qabila darajasida, so‘ng xalq, millat darajasida o‘zligini anglab yetdi. Insoniyat takomilidagi necha ming yillar davom etgan bu birinchi katta davr millatimiz uchun VI–VII asrlarda Buyuk turk xoqonligining tashkil topishi bilan yakunlandi.

Keyingi davr millatimizning islom mintaqa madaniyati doirasida bosib o‘tgan takomil yo‘li bo‘lib, VIII asrdan XVI asr boshlarigacha davom etdi. Ilohiy kitoblarda avvalboshdanoq butun insoniyat, tabiat va koinotning yaxlitligi, birligi haqida xabar berilgan bo‘lsa ham, “yer yuzidagi xalifalar” atalmish insonlar umumbashariy miqyosda o‘zaro bir-biriga nisbatini mukammal anglab yetishi uchun ne-ne zamonlar kerak bo‘ldi.

XIV–XV asrlarga kelib tavhid ta’limotini tushunish eng yuksak bosqichga ko‘tarildi. Shu asrda Yevropa xristian dunyosi bilan bizning mintaqa orasida ham tarixiy-siyosiy, ham ruhiy-ma’naviy yaqinlashuv kuzatiladi. Siyosiy jihatdan bu hodisa Amir Temur davlatining xalqaro aloqalarida ko‘zga tashlansa, ma’naviy jihatdan Sharqda Alisher Navoiy, G‘arbda Piko della Mirandola (1463–1494) kabi buyuk siymolar ijodida yorqin namoyon bo‘ldi.

Shu jihatdan Alisher Navoiy ijodiy kamolotining uchinchi, eng

yuksak bosqichi haqida yana biroz to'xtashga to'g'ri keladi. 1497-yilda temuriyzoda o'smir, 14 yoshli Mo'min Mirzo xoinona qatl etildi. Bu hodisa VIII–XV asrlarda mintaqa miqyosida erishilgan buyuk ma'naviy kamolot bilan siyosiy hayot sohasidagi hanuz saqlanib kelayotgan xurofiiy an'analar orasida borgan sari chuqurlashib borayotgan ziddiyatning halokatli tus ola boshlaganiga yana bir jiddiy ishora bo'ldi.

Mastlik g'aflatida o'z sevimli nabirasi qatliga imzo chekkan sulton Husayn din-u imon nimaligini bilmagan johil va mutakabbir, xudbin va mustabid shaxs emas, balki Forobiy va Yusuf Xos Hojib tavsif etgan ma'rifatli hukmdor, Navoiy orzusidagi darvesh-shoh timsoli edi.

Bu fojia ortidagi teran mohiyatni butun ko'lami bilan Alisher Navoiy tushunib yetdi. Navoiyning vasiyatnomasi hisoblanuvchi so'nggi uch asari: "Lison ut-tayr" (1498), "Muhokamat ul -lug'atayn" (1499) va "Mahbub ul-qulub"(1500) o'z mazmun mohiyati bilan, bir jihatdan, VIII–XV asrlar islom mintaqa ma'naviyati takomiliga yakun yasasa, ikkinchi jihatdan, ham millatimiz, ham umumbashariyat ma'naviy takomilida uchinchi – Yangi davrni boshlab beradi. Alo-hida jiddiy tahlil talab qiluvchi bu masalani har tomonlama yoritishga intilmagan holda bir necha muhim nuqtalariga to'xtalib o'tamiz.

Alisher Navoiy butun ijodida salaflar an'anasiga tayandi. Ammo ushbu an'analar chegarasida turgan holda ularga o'z ijodida shunday nazm-u tartib baxsh etdiki, buning natijasida mutlaqo yangi mohiyatlar kashf etildi. Birinchidan, "Lison ut-tayr"da "majoz tariqi" vositasida insoniyatning yaxlitligi va buni anglab yetish har bir insonning ma'naviy kamolot sari cheksiz intilishi orqali yuz berishi mumkin ekanligi yana bir karra ta'kidlandi. Shu bilan birga bashariyat miqyosidagi mukammal ijtimoiy tizim shakllanishi undagi har bir shaxsning ma'naviy barkamolli-gi bilan bog'liq ekanligi, bu barkamollik bashariyatning har bir a'zosiga (uzviga) nisbatan beg'araz va samimiy *mehr mas'uliyati* bilan o'lchanishi yorqin timsollarda ochildi. Ayniqsa, Shayx San'on qissasida bu g'oya muhim va muayyan bir muammoni – har ikkisi ham "ahli kitob" bo'lmish islom va xristian dunyosi kishilarining o'z ichki ruhiyatidagi turli xuro-fotlarni yengib o'tib, beg'araz va fidoyi mehr asosida o'zaro yaqin-lashuvlari mumkinligini ko'rsatish bilan ifodalandi. Endi insoniyatning yaxlit mohiyat sifatida birlashuvi zo'rlik va bosqin asosida emas, o'zaro mehr va bir-birini tushunishga intilish, har bir shaxsning ma'naviy kamoloti orqali erishiladigan voqelik ekani – Yangi davrning bu buyuk haqiqati – 500 yil ilgari shunday bashorat etildi.

Ikkinchidan, “Muhokamat ul-lug‘atayn”da Alisher Navoiy davr taqozosi bilan mintaqa bo‘ylab sochilib ketgan turkiy qavm vakillarining yaxlit ma‘naviy qiyofasini tugal saqlab qolish yo‘lidagi barakali faoliyatiga nazariy yakun yasadi. Amir Temur yaratgan siyosiy-hududiy yaxlitlik oxirgi urinish ekanligini dildan sezgan ulug‘ shoir Yangi davr sharoitida ma‘naviy umumiylikka intilish xayrli ekanligini anglab yetdi va shuni aniq nazariy asosladi.

Uchinchidan, “Mahbub ul-qulub”da o‘sha davr jamiyatidagi turli toifalar o‘z salbiy va ijobiy xislatlari bilan to‘liq ta‘rif etilib, ularning har biri jamiyat taraqqiyoti va davlat tizimida qanday o‘ziga xos vazifa egasi ekanliklari tushuntirildi. Bu jihatdan, Alisher Navoiy Yusuf Xos Hojib, Nizomulmulk va boshqalarning siyosiy-ijtimoiy qarashlarini ijodiy rivojlantirdi. Agar “Qutadg‘u bilig” muallifi birinchi o‘ringa “xos ahli”ning to‘rt yetakchi namoyandasi elik (Kuntug‘di – adolat timsoli), vazir (Oyto‘ldi – baxt, davlat timsoli), uning o‘g‘li va o‘rinbosari (O‘g‘dulumish – aql, bilim timsoli) va Zohid (O‘zg‘urmish – qanoat timsoli)ni chiqarib, qolgan ijtimoiy toifalarni ularga tobe tarzda tasvirlagan bo‘lsa, Alisher Navoiy 40 bobda barcha toifalarga teng o‘rin ajratibgina qolmay, asosiy moddiy boylik yaratuvchi kuch – dehqonlar va ma‘naviyat ahli – ziyolilar timsoli – darveshlarni alohida mehr bilan tasvirladi. Yana alohida qismlarda eng muhim ijtimoiy-axloqiy xislatlar mohiyati va shaxs tarbiyasiga oid ibratli tanbehlar joy oldi. “Mahbub ul-qulub” mundarijasi, “Lison ut-tayr” dos-tonidagi ijtimoiy-siyosiy talqin qatlami bilan birgalikda, yangicha ijtimoiy tizim – *fuqarolik jamiyati* ma‘naviy talablariga ishora etuvchi ilk kurtaklardan bo‘lib chiqdi. Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy “vasiyatnomasi” Yangi davr ma‘naviyatining o‘zak tomirlarni o‘ziga xos badiiy va ilmiy shakllarda ilk bor izchil ifoda etish bilan islom mintaqa ma‘naviyati va Yangi davr o‘rtasida mustahkam ko‘prik bo‘lib xizmat qildi.

Alisher Navoiy ijodining bu “ko‘prik”lik xususiyati yaxlit olganda shoir ilmiy izohlab bergan “majoz tariqi” tushunchasida mukammal ifodasini topdi. Birinchi navbatda badiiy ijod sifatida mujassamlashgan bu tushuncha mohiyat jihatidan badiiy tafakkur doirasi bilan cheklanmas, balki “Al-majozu qantarat ul-haqiqa” (Majoz haqiqatning ko‘prigidir) hadisiga tayanuvchi alohida dunyoqarash tizimi sifatida inson hayotining barcha jabhalariga taalluqli edi. “Majoz tariqi” namoyandalari Haqiqat asrorini majozdan izladilar, “majoz”da Haqiqat

izlarini ko'rdilar va fano orqali baqoga intildilar. "Majoz tariqi" da Tavhid mohiyati Yangi davr qadriyatlariga muvofiq keluvchi yangicha talqin oldi. Bu olamshumul kashfiyot edi.

Sunna ibrat orqali e'tiqod bo'lib, Borliqning yagona Oliy Haqiqati mavjudligini tan olish va unga chin dildan e'tiqod qilishni taqozo etgan, ma'rifatchilik — insoniyat anglab yetgan barcha mavjud bilimlar mohiyatan Tavhid e'tiqodiga muvofiq ekanligini ilm va mantiqiy tahlil vositasida isbot qilishga qaratilgan, Irfon Haqiqat ishq alangasiga tik kirib borib, nafsni xudbinlik zangidan poklash va shu orqali shaxsning Oliy Haqiqatga daxldorligini amalda ta'minlash yo'li sifatida o'zini ko'rsatgan bo'lsa, "Majoz tariqi" Haqiqat izlovchilarni yana baqodan fanoga yuzlantirdi. O'zligini anglab yetganlar endi o'zgalarni anglashga intilib, o'z qalbiga sayqal berib, unda Haqiqat nurining aks etishiga crishganlar. Endi o'zgalar qalbiga ziyo baxsh etishni hayot mazmuniga aylantirmoqlari asosiy maqsad yo'nalishi qilib belgilandi. Navoiy aqidasisa binoan *yetakchi qoida "nafrasonlik"*, inson ko'nglini anglab yetish va insonni mehr vositasida tarbiyalash edi.

*Kimki bir ko'ngli buzuqning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim Ka'ba vayron bo'lsa, obod aylagay'.*

Ya'ni, bu foniyy dunyoda bir ko'ngli o'ksik insonga shodlik bag'ishlash Alloh Ka'basini, buzilib ketgan bo'lsa, qaytadan obod qilishga tengdir. Oriflar ko'ngil Ka'basini toshdan tiklangan Ka'badan ulug' bildilar. Chunki Ibrohim va o'g'li ko'ngillarida nurlangan Haq ishq tufayli Ka'ba qayta tiklandi. Tosh Ka'ba tavhid e'tiqodining timsoli bo'lsa, ko'ngil Ka'basi uning asl makoni etib mo'ljallangan. Ammo inson ko'nglini obod etish oson yumush emas. Buning uchun foniyy dunyo qonuniyatlarini yangidan kashf etmoq kerak. Endi faqat Borliqning asl mohiyatini izlash kifoya qilmaydi. Foniyy dunyo unsurlarini surat va ma'ni yaxlitligida tadqiq va tahlil etish talab etiladi. Ilohiy kitoblar Borliqning asl mohiyati va Tavhid Haqiqatidan xabar berishadi. Foniyy dunyo unsurlarining tadqiqi esa insonlarning o'z vazifasi doirasidadir. Faqat dilda Haqiqat ishq bilan halol va xolis yondoshuv lozim. Halollik va xolislik bo'lmasa, haqiqat yuzaga chiqmaydi. Inson yo'ldan ozadi va o'zgani ham halokatga eltishi mumkin. Xolislikning asosiy sharti kibr balosidan istig'for etishdir. Ko'ngilda Haqiqatdan o'zga zarra

¹ Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniy, 3-jild. T., 1960, 621-b.

g'ubor ham bo'lmasin. Ammo Haqiqat faqat mening ko'nglimda, deb o'ylagan inson ham yanglishadi. Ahli bashar barchasi Allohning xali-falaridir. Demak, Haq yagona, ammo uning turli qirralari turli ko'ngillarda qaror topishi mumkin. Agar ushbu asosni siyosatga tatbiq etsak, yer yuzida davlat hokimiyatining ham yagona manbayi umum-xalq irodasi bo'lib chiqadi.

Yangi davrning mohiyati ushbu ikki asos – dunyoni surat va ma'ni yaxlitligida o'rganish va bahamjihatlikda boshqarishga intilish bilan o'zligini namoyon etadi. Bu ikki asos bir-biri bilan uzviy chatishib ketgan. Yangi davr ma'rifatchiligi xos va avom orasidan chegarani olib tashlashga qaratildi. Buning, albatta, o'ziga yarasha xavfi ham yo'q emas edi. Navoiyning dehqonlarga bergan bahosi, ijtimoiy toifalar haqidagi mulohazalari ushbu muammoni to'g'ri hal qilishning, nazarimizda, eng maqbul yo'li edi.

Foniy dunyoni surat va ma'ni birligida tadqiq etish ijtimoiy voqeelik tadqiqini ham taqozo etadi. Bu harakat islom dunyosida Forobiy-lar davridan boshlangan bo'lib, Ibn Xaldun ijodida o'z cho'qqisiga erishdi. Bu ulug' tarixchi-faylasuf taqvodor va xudojo'y kishi edi. Uning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotga oid qarashlari insoniyatning ibtidoiy jamoa tuzumi darajasidan shahar jamoasi tuzumi darajasiga qarab yuksalishi va bu ikki ijtimoiy tuzum bosqichlarining o'zaro qiyosi asosiga qurilgan edi.

Bahouddin Naqshbandning "dil ba yor-u dast ba kor" qoidasi, Ibn Xaldunning tarixiy taraqqiyot haqidagi nazariyasi XIV asrda Amir Xusrav va Hofiz Sheroziylar she'riyati bilan bir paytda shakllandi va ular jami o'zaro uyg'unlik kasb etdi. Shu davrda hukmronlik qilgan Temur o'zini shoh yoki sulton atamadi, o'lgunicha boshqa amirlar qatori Amir Temur bo'lib qoldi. XV asr ma'naviyat zamoni, Xoja Ahror va Alisher Navoiylar zamoni bo'ldi.

Ammo, afsus, na sarbadorlar, na temuriy mirzolar Yangi davr davlatchiligi asoslarini uzil-kesil amalga tadbiq eta bilmadilar. Ma'naviyatda anglab yetilgan Haqiqat siyosatga to'liq joriy etilmadi. XV asrda Xoja Ahror va Alisher Navoiylar ijtimoiy mo'tadillikni saqlab turishga as-toydil intilgan bo'lsalar ham, XV asr ikkinchi yarmida Shohruh va Ulug'bek mirzolar hukmdorlik davridan keyin boshlangan siyosiy parokandalik jarayoni borgan sari kuchayib bordi. Na sulton Husayn, na Bobur bu jarayonni to'xtatib qola bilmadilar.

2-fasl. Islom mintaqa ma'naviyatining Yevropa madaniyatiga ta'siri

XV–XVI asrlar jahon tarixida Yangi davrning boshlanishi hisoblanadi. Shu davrdan Yevropa mintaqasida ma'naviy yangilanishlar pallasini boshlandi. Asli bu yangilanish islom mintaqa madaniyatining ta'siridan xoli emas edi.

Islom mintaqa madaniyati Volgabo'yi, Sharqiy Turkiston va Indoneziyadan to Shimoliy Afrika va Ispaniyagacha yoyilganligi ma'lum. Ispaniyada arab xalifaligi to XIV asrgacha davom etdi. IX asrdan boshlab rivoj ola boshlagan arab-istan musulmon madaniyati XI–XIV asrlarda Yevropa madaniyatiga ayricha ta'sir ko'rsatdi. Ispaniya va Shimoliy Afrika hududlarida Ibn Tufayl (vafoti 1185-y), Ibn Ro'shd (1126–1198) Ibn al-Arabiy (1165–1240), Ibn Xaldun (1332–1406) kabi islom olamining buyuk allomalari yetishib chiqdiki, ularning ijodiy merosisiz mintaqa ma'naviyatini mukammal anglab bo'lmaydi.

XI asrdan boshlab Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Ibn Sino, G'azzoliy va boshqa ulug' islom mutafakkirlarining asarlari lotin tiliga tarjima qilinib, xristian madaniyati rivojiga hissa qo'sha boshladi. Shu davrdan e'tiboran, yagona islom mintaqa ma'naviyati doirasida, ikki tamoyil shakllana borganligini bir qator hozirgi zamon sharqshunoslari qayd etadilar. Bu tamoyillarning birinchisi Abu Ali ibn Sino nomi bilan bog'liq bo'lib, Xuroson-Movarounnahr yoki sharqiy falsafa maktabi hisoblan-sa, ikkinchisi Ibn Ro'shd ijodida yorqin namoyon bo'luvchi g'arbiy falsafa maktabidir. Bu ikki tamoyil islom ma'naviyati doirasida o'zaro chambarchas bog'liq va qat'iy chegaralar bilan bir-biridan ajralgan emas. Ammo ularning keyingi ta'sir doirasi turlicha kechdi. Mavjud voqelik hamisha turli narsa va hodisalar, jihatlar va tamoyillardan iborat bo'lib, ular orasida o'zaro ziddiyat ham, uyg'unlik ham mavjud. Ibn Sino va G'azzoliylar ko'proq taraflarining o'zaro uyg'unligiga urg'u berishsa, Ibn Ro'shd oradagi farqlarga e'tibor qaratdi.

Uning qarashlari XIII–XVI asrlarda Yevropada "averroizm" nomi bilan¹ katta bir falsafiy an'ana hosil qildi. Ibn Ro'shdning Arastu asarlariga yozgan sharhlari Fransiya, Italiya va boshqa Yevropa davlatlarining yirik universitetlarida o'qitildi. Arab tilidagi falsafiy meros Siger Brabanskiy (1235–1282), Piko della Mirandola (1463–1494), Petro Pomponatssi (1462–1525), Jordano Bruno (1548–1600) kabi O'rta asr-

¹ Ibn Ro'shd nomi lotincha tarjimalarda Averroes bo'lib jaranglangan.

lar va Uygʻonish davrining yirik faylasuflariga sezilarli taʼsir koʻrsatdi. Siger Brabanskiy Ibn Roʻshd gʻoyalarini Yevropaning oʻsha davr oʻziga xos maʼnaviy muhitiga tadbqiq etib, “ikki haqiqat nazariyasi”ni ishlab chiqdi. Shu bilan birga arab falsafasi taʼsirida qadim Yunon-Rim merosi bilan bevosita tanishishga intilish kuchaydi. Bu harakat diniy va falsafiy qarashlarning oʻzaro jiddiy toʻqnashuviga olib keldi va natijada “averroizm” namoyandalari xristian cherkovi (Rim papasi) tomonidan qattiq taʼqibga duchor boʻldi. Siger Brabanskiy oʻldirildi. Jordano Bruno oʻtda kuydirildi. Ammo yangi kuchlar quvvat kasb etib bordi. Neoplatonizmning arab-islom madaniyatidagi talqini taʼsirida xristian diniy qarashlarida yangicha yondoshuvlar shakllanib, XV asrda Reformatsiya zarurati paydo boʻldi. Katolik va pravoslav mazhablari qatoriga protestantizmning turli oqimlari (kalvinizm, lyuteranlik, anglikan cherkovi va boshqalar) qoʻshildi. Badiiy va falsafiy tafakkur mustaqil rivoj olib, Renessans yoki Yevropa Uygʻonishi vujudga keldi. XVII asrdan adabiyotda klassitsizm yoʻnalishi, XVIII asrdan esa Yevropa maʼrifatchiligi shakllandi. Niderlandiya va Buyuk Britaniya burjua inqiloblari Yevropadagi ijtimoiy-maʼnaviy vaziyatni tubdan oʻzgartirib yubordi. Amerika kashf etildi. Sharqqa yurish boshlandi.

3-fasl. XVI–XX asrlar milliy maʼnaviyatimiz takomilining ikki bosqichi

- ✓ XVI–XX asrlar milliy maʼnaviyatimiz takomilini ikki katta bosqichga ajratish mumkin. Ulardan birinchisi – XVI–XVII asrlarni qamrab oladi. Bu bosqichda yaxlit islom mintaqa madaniyati erishgan yutuqlar zaminida mahalliy oʻlkalar keng xalq ommasining maʼnaviy saviyasi oshib bordi. Bu davrda mintaqa siyosiy hayotida tanazzul va parchalanish jarayoni kundan kunga, yildan yilga kuchaydi. Shu bilan bir paytda mintaqa xalqlari oʻtgan davrda erishilgan yuksak maʼnaviy qadriyatlarni saqlab qolishga va rivojlantirishga urindilar. Shu sabablarga koʻra bu jarayonni Yangi davr maʼnaviyatiga oʻtish yoki islom mintaqa madaniyati davri maʼnaviy yutuqlarining ommalashuvi bosqichi, deb atash mumkin.
- ✓ Ikkinchi bosqich – milliy maʼnaviyatimizning *Yangi davr Yevropa madaniyati bilan bevosita toʻqnashuviga* oid boʻlib, bu jarayon boshlanishdanoq foje bir tarzda – qadim Turon xalqlarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va 150 yillik mustamlaka holatida murakkab bir tarzda kechdi.

Birinchi bosqichga qisqacha to'xtalib o'tadigan bo'lsak, XVI asr boshlarida Eronda safaviylar sulolasi hokimiyatga kelishi bilan shia mazhabining davlat dini darajasigacha ko'tarilishi mintaqani bir necha siyosiy-madaniy qismlarga bo'lib yubordi. Turkiyada Usmonlilar sulolasi, Movarounnahrda Shayboniylar, Hindistonda Boburiylar (Buyuk mo'g'ullar) o'z hokimiyatlarini o'rnatdilar. Volgabo'ylari Moskva Rusi tomonidan bosib olina boshlandi. XVI asr davomida Eron, Xuroson va Movarounnahrning ko'plab taniqli ijodkor ustoz va allomalari Shimoliy Hindistonga, Boburiylar saroyiga ko'chib o'tdilar. Islom mintaqada madaniyatining markazi Shimoliy Hindiston bo'lib qoldi. Ayniqsa, Akbarshoh, Jahongir, Shohjahon, Avrangzeb davrlarida (1556–1707) bu hududda islom mintaqada ma'naviyatining eng yetuk an'analari mahalliy hind madaniyati sarchashmalaridan ijodiy oziqlanib, yanada yuksak cho'qqilarni zabt etdi. Bu ma'naviy yuksalishning eng oliy namunasi *Mirzo Abduqodir Bedil* (1644–1721) ijodi bo'lib, ota-bobosi Shahrisabz o'zbeklaridan bo'lgan bu buyuk mutafakkir “Tilsimi hayrat”, “Turi ma'rifat”, “Irfon” kabi badiiy-falsafiy asarlarida “majoz tariqi” ruhida aks etgan Oliy haqiqat sirlarini yanada teranroq ifoda etishga erishdi. Shu sababli bizning o'lkada XVIII–XIX asrlar mobaynida maxsus “Bedilxonlik” anjumanlari tashkil topdi va ulug' mutafakkir shoirning murakkab badiiy-falsafiy satrlari atroflicha sharhlandi. Hindistonda Bedil an'analari Mirzo Asadullo G'olib (1797–1869) va Muhammad Iqbol (1873–1938) ijodida davom ettirildi. Mirzo Asadulloxonning bobosi ham 1730-yilda Samarqanddan Hindistonga ko'chib borgan edi. Mirzo G'olib birinchilardan bo'lib, ingliz mustamlakachilarining maqsadlarini anglab yetdi va hind xalqining ozodlik uchun kurashini o'z asarlarida ulug'ladi. Mirzo G'olib va Muhammad Iqbol fors va urdu tillarida ijod etdilar.

Ma'naviyat ahlining siyosatga kuchli ta'siri Movarounnahrda XVI asrda ham davom etdi va bu holat, ayniqsa, Maxdumi A'zam (Ahmad Kosoniy – vafoti 1549-yil) va jo'ybor shayxlari faoliyatida yaqqol ko'zga tashlandi. Abdullaxon Soniy (1557–1598) hukmdorligi Movarounnahr o'lkasida siyosiy yaxlitlikni saqlab qolishga oxirgi urinish bo'ldi.

Bu orada yuksak ma'naviy qadriyatlarining keng xalq ommasi orasida yoyilishi tobora kuchayib bordi. Majlisiiy (XVI asr) va Poshshoxo'ja (XVI asr) lar ijodi orqali xalqning o'rta tabaqasi ongida o'z qudratiga ishonch kuchayib borganligini sezish mumkin. Turli ijtimoiy toifalar

o‘z maqomlarini dadil himoya eta boshladilar. Yilda bir g‘aribni podshoh saylash odati haqidagi Majlisiy keltirgan hikoyat xalq irodasi asosidagi yangicha boshqaruv uslubi haqida xalq shuurida yaratilgan ilk ibtidoiy tasavvurlardan darak beradi.

Shunday qilib, XVI asrdan sulolaviylik an‘anasi keskin tanazzulga yuz tutdi. Siyosiy jihatdan Movarounnahr uchun bu katta yo‘qotish bo‘ldi – mamlakatning siyosiy yaxlitligi qo‘ldan keta boshladi. Bu jarayonni ma‘naviyat ahlining siyosatga faol aralashuvi ham to‘xtatib qola olmadi. Bu jarayon natijasida yaxlit o‘lka avval ikkiga (Buxoro va Xorazm xonliklariga), keyinroq, XVIII asr boshlarida uch mustaqil davlatga (Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklariga) bo‘linib ketdi. Bu uch davlat hukmdorlari to‘xtovsiz bir-birlari bilan jang olib borardilar. Ushbu noittifoqlik balosi XIX asr ikkinchi yarmida o‘lkaning Rossiya mustamlakasiga aylanishiga olib keldi. Shu palladan Yangi davr ma‘naviy jarayonlarining ikkinchi bosqichi boshlanadiki, bu haqda suhbat alohidadir.

4-fasl. “Milliy iztirob” she‘riyati. Turdi va Mashrab

Ammo shunday bo‘hronli holatlarda ham millat ma‘naviyati yuksalib bordi. Turdi Farog‘iy va Mashrablarning hayoti va ijodiy faoliyati bunga yorqin misoldir. Turdi ijodida Navoiy badiiy tafakkurida olg‘a surilgan g‘oya milliy va siyosiy g‘oyaga aylandi. Turdi o‘z ijodida davr hukmdorining an‘anaviy huquqlarini ochiqdan-ochiq rad qilib (“Subhonqulixon haqida hajviya”) odil shoh madhiyasi o‘rniga zolim va noqobil sultonni keskin fosh etishni maqsad qilib qo‘ydi. Navoiy Bahromi va Iskandari foje shaxs edilar, Turdining bosh qahramoni jirkanch va tuban maxluq sifatida hukm etildi. Turdi beklarni ham ayab o‘tirgani yo‘q. (Navoiy “Mahbub ul-qulub”da beklar haqida nojo‘ya so‘z aytmaydi).

Turdi birgina sultonni emas, balki butun bir ijtimoiy toifani – o‘zi ham mansub bo‘lgan aslzodalar – beklar toifasini fosh etadi. Ularni “yuzi qaro”lik, ko‘zi ko‘r, qulog‘i karlikda ayblaydi:

*Yedingiz barchangiz itdek fuqaroning etini,
G‘asb ila molin olib, qo‘ymadingizlar bitini,
Qamchilar dog‘i solib bo‘yunig‘a, tilib betini,
Yordingiz zahrasini (ichidan) olib o‘tini,
Bo‘lmadi kam bu rayiyat boshida hech tayoq¹.*

¹ O‘zbek adabiyoti tarixi. III jild. T., «Fan», 1978. 224-b.

Qarang, Bobur Mirzo uchun tabiiy ko'ringan holat endi Turdi uchun chidab bo'lmas adolatsizlikdir. Bu Yangi davr ma'naviyatidan darak edi.

Turdi sulolaviylik o'rniga, odil shoh orzusi o'rniga yangi bir jozibali g'oya – yagona Vatan g'oyasini olg'a suradi. Bu Vatanda hali nohaqlik, zulm hukmron, hanuz bu yurt – “kofiriston”dir, ammo endi sulolaviylik, beklarning tor xudbinlik manfaatlariga qarshi qo'ysa arzigulik ulug' bir Voqelik shakllanmoqda – “O'zbekistondir bu mulk”, deydi shoir ham cheksiz iztirob, ham cheksiz umid bilan.

Tor ko'ngilli beklar, man-man demang, kenglik qiling,

To'qson ikki bori o'zbek yurtidir tenglik qiling.

Birni qipchoq-u xito-yu, birni yuz, nayman demang.

Qirq-u yuz, ming son bo'lib, bir jon oyinlik qiling'.

Turdi xalq maqoli – “el rabot-u to'ra qo'noq”ni siyosiy e'tiqodga aylantirdi. Turdi ma'naviyatida O'zbekiston va uning xalqi birinchi maqomga ko'tarildilar, irsiy “aslzodalik” huquqi rad etildi:

Baski bu tiyradarunlarda charog'e tilama.

Endi Haqiqat yo'li saroydan tashqaridadur:

To'g'ri yo'lni tilasang uz bu saroydan payvand.

Endi shoh cho'pon emas, xalq ham suruv emas. Xon faqat o'z maishati g'amidagi maxluqqa aylangan:

Ark ichin mahkam etib ayladim o'zimga yotoq².

Shoir davr hukmronining kayfiyatini nihoyatda aniq aks ettiradi. Endi xon va amirlar yurt oldidagi mas'uliyatni mutlaqo unutilgan edilar, ular “xos ahli” emas, oddiy “xudoning maxluqi” darajasida o'z maishati, aysh-ishrati va xudbin intilishlarining quliga aylanib, yurt egasi bo'lish huquqini butkul yo'qotdilar. Endi yangi davr siyosiy qadriyatlarini zamon taqozosiga aylana boshlagan edi. Afsus, bu qadriyatlarini to'liq va mukammal anglab yetish uchun Turkiston xalqlari yana bir necha asr jabr chekishlari, jumladan, 150 yil milliy asorat xo'rligini boshdan kechirishlariga to'g'ri keldi.

¹ O'sha kitob, 222-b.

² O'sha kitob, 228-b.

Fuqarolik jamiyatiga o'tishning ikki jihati bor. Birinchidan, agar fuqaro o'zligini anglab yetmagan bo'lsa, agar u hanuz o'zini yeb-ichib, "kayfi safo qilib" yurishdan ortiqqa arzitmasa – uning nomi fuqaro (grajdan) emas, oddiy bir "xudoning maxluqi"dir, bunday insonlar to'plansa, "xalq" emas, "olomon" bo'ladi. Alisher Navoiy insonlarni "xos" va "avom" ga ajratar ekan, bunda u biz sobiq sovet davrida talqin qilganimizdek, "zodagonlar" va "qora xalq" ma'nosida emas, balki *o'zligini anglab yetgan va anglab yetmaganlar* ma'nosida ishlatgan. Arablar islomgacha davrni "johiliya" deb atashgan. Bunda ham "johillik" xat-savodi yo'qligini emas, yagona Allohni tanimaganlik, ilohiy kalomdan bahramand bo'lmaganlik ma'nosida ishlatilgan. Xalq ichida "omi odam" degan ibora ishlatiladi. "Omi odam"ni – savodsiz, sodda odam ma'nosida talqin qilamiz. Bunday talqin birinchi qarashda "omilik"ni zararsiz qilib ko'rsatadi, aslida "omi odam" g'ofil bandadir, bunday avomdan iborat jamiyat hech qachon fuqarolik jamiyati, chinakam fuqarolar jamiyati bo'la olmaydi. Fuqarolik jamiyati ogoh odamlardan iborat bo'lmog'i kerak. Ogoh odam o'z insonlik burchini teran idrok etadi va unga aslo xiyonat qilmaydi.

Ikkinchidan, yurt hokimlari maydalashib, o'z ijtimoiy mas'uliyatini unutib, "arkni o'ziga yotoq bilib", atrofiga ham o'zi singari qorin qayg'usidan, aysh-ishratdan boshqani bilmaydiganlarni to'plab, xalq va millat ehtiyojlariga butkul bepisandlik bilan qarashni odat qila boshlasalar, Alloh oldidagi yurt egasi, degan yuksak mas'uliyatni tamomila unutsalar, ular aslzodalik huquqidan to'liq mahrum bo'ladilar. Xuddi shunday holat Yevropada kuchli ijtimoiy po'rtanalarga, qonli inqiloblarga olib keldi. Barcha hokimiyatning yagona manbayi xalq ekanligini Yevropa millatlari asrlar davomida fidoyilik bilan tinimsiz kurashib, isbot qildilar.

Ammo islom dunyosida bunday bo'lmadi. Tanazzul chuqurlashib bora berdi. Siyosiy doiralardagi tanazzul XVII asrga kelib asta-sekin ma'naviyat olamiga ham yoyila boshladi. Ma'naviyat arboblarning aralashuvi siyosatda katta ijobiy o'zgarishlar paydo qilmadi, qaytaga ma'naviyat olamining o'z ichida ziddiyatlar chuqurlashuviga sabab bo'ldi. Boborahim Mashrab faoliyati asl ma'nosi bilan ma'naviyat olamida paydo bo'layotgan ana shunday illatlarga qarshi tug'yon bo'lib chiqdi. Turdi Subhonqulixonga qarshi qo'lida qurol ko'tarib isyon qilgan bo'lsa, Mashrabning ma'naviyatdagi isyoni Mahmud Sul-tonning doriga o'z boshini tutib berishda namoyon bo'ldi. Chunki

ma'naviyat olami qilichbozlikni taqozo etmaydi, o'zgalar ruhidagi illatni qilich bilan, isyon bilan poklab bo'lmaydi. Mashrab o'zini qurbon etib, o'zgalarga ibrat ko'rsatdi. "Qissayi shoh Mashrab"ning xalq orasida mashhurligi bejiz emas. Xalq o'zining asl qahramonlarini, fi-doyi farzandlarini yaxshi taniydi va qadrini joyiga qo'yadi. Abu Mus-lim, "Shoh Mashrab" qissalari, Bedil g'azallarining shuhrati xalqning o'z ma'naviyati teranligini saqlab qolishga intilishidan darakdir.

8-BOB. MILLIY UYG'ONISH VA BOLSHEVIZM QATAG'ONLARI

1-fasl. Yangi davr ziddiyatlari va siyosiy qaramlikning ma'naviy sabablari

XIX–XX asrlar davomida fan va madaniyat taraqqiyoti jihatidan Yevropa mintaqasi boshqalardan uzil-kesil ilgarilab ketdi va natijada "jahon fani", "umuminsoniy qadriyatlar" deganda birinchi navbatda Yevropa madaniyati unsurlari tasavvur etila boshlandi. Yangi davrdagi bu mintaqaning yutuqlari ko'p jihatdan madaniy integratsiya jarayon-lari bilan bog'liq. Bu davrda Yevropa xalqlari (inglizlar, nemislar, fransuzlar va h.k.) mintaqa miqyosidagi o'zaro madaniy axborot al-mashinuv doirasidan chiqib, o'zga mintaqalarda yaralgan boyliklarni o'zlashtira boshladilar. Sharqshunoslik keng rivoj oldi. Turli fan soha-lari sharqshunoslarning yutuqlaridan ijodiy foydalana boshladilar. Islom mintaqasida esa XVI asrdan boshlab madaniy-ma'naviy yaxlitlikka rahna soluvchi jarayonlar yuz bera boshladi.

Yangi davr Yevropa ma'naviy muhitiga xos qarama-qarshiliklar kurashi keyin ham davom etdi. XVIII asr fransuz ma'rifatchiligi zami-nida shakllangan ateizm yo'nalishi Gelvetsiy (1715–1771), Gol-bax(1723–1789), Didro (1713–1784) qarashlaridan nemis mumtoz fal-safasiga o'tib, Feyerbax (1804–1872) orqali Karl Marks va F. Engels-ning murosasiz sinfiy kurash targ'ibiga qaratilgan kommunistik utopi-yaga olib keldi.

Islom mintaqa ma'naviyatida bunday ziddiyatli holat yuz bergan emas. Alisher Navoiy va Mirzo Bedil talqinlaridagi Tavhid ta'limoti ma'rifatchilik va irfon bosqichlarida ba'zan ko'zga tashlanadigan zid-diyatli o'rinlarni yengib o'tib, Oliy uyg'unlikka erisha bildi. Islom mintaqa ma'naviyatida "ikki haqiqat" tazodi emas, "ayni haqiqatdir

majoz”, „al-majoz-u qantaratul haqiqa” (majoz haqiqatning ko‘prigidir), degan jummalarda o‘z yorqin aksini topgan uyg‘unlik, „qarama-qarshiliklar kurashi” emas, „birligi” ko‘proq ustunlikni saqladi. Ammo bu mulohazalarni mutlaq haqiqat ma‘nosida tushunish noo‘rin bo‘lardi. Yangi davrning o‘ziga xosligi shundaki, ichki ziddiyatlar ba‘zan juda keskin yuzaga qalqib chiqa boshladi.

Umarxon saroyi ilm-u san‘at o‘chog‘i edi. Shu bilan birga Maxmurning „Hapalak” va Gulxaniyning Yapaloqqush va Boyo‘g‘li haqidagi „Zarbulmasal”lari shu davrda yaratildi. Uvaysiyning „Anor” chistoni ham shu davr mahsuli. Biz XIX asr birinchi yarmi ma‘naviyatidagi ziddiyatlarni to‘g‘ri anglab yetmog‘imiz kerak. Ma‘dalixonning shoirligi va shaxsiy hayotidagi murakkab jihatlar, ulamolalar bilan ziddiyatlari barchasi voqelikning murakkabligiga ishora radir.

Turkiy millat buyuk millat edi. Taqdir 2 marta bu millatning toleini yuksaklarga ko‘tardi. Birinchi marta V–VII asrlarda Buyuk Turk xoqonligining vujudga kelishi bilan katta bir mintaqada milliy davlat, milliy adabiy til shakllangan bo‘lsa, ikkinchi marta deyarli 1000 yil davomida butun mintaqada siyosiy hukmronlik turkiy elat namoyandalari qo‘lida bo‘lganligi bundan darak beradi. Shu bilan birga 2 marta jiddiy ogohlantirish ham berildi. Birinchisi, xorazmshohlar davrida mo‘g‘ullar bosqini orqali, ikkinchi marta Rossiya imperiyasining asorati, bolshevizm qatag‘onlari va makkor siyosati ko‘rinishida. Islom mintaqasida turkiy sulolalar bir-biri bilan jang olib borib, oxir-natijada millatni parokanda qildilar. Ayniqsa, Movarounnahrda oxirgi uch xonlikning o‘zaro mojarolari avval Rossiyaga qaramlikka, so‘ng yagona Vatan – Turkistonning uzil-kesil parchalanib ketishiga olib keldi. Bugungi voqelikda turkiy elatlarning yangi bosqichda yaqinlashuvi o‘zbek xalqining barcha dunyo millatlari bilan do‘stona hamkorligiga rahna solmagan holda asos maqsadlarimizdan bo‘lmog‘i tabiiydir. Arablar ham turli davlatlardan tashkil topgan. Ammo o‘zaro yaqinlashuvga harakatlari bor. Barcha islom davlatlarining xalqaro tashkilotlari ham ezgu maqsadlarni ko‘zda tutib tuzilgan. Insoniyat o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida erishgan yutuqlarini qo‘ldan bermasligi kerak.

XIX–XX asrlar xalqimiz tarixida iztirobli davr bo‘ldi. XVII– XVIII asrlarda milliy turg‘unlik, milliy parchalanish fojialari elning eng jonkuyar farzandlari dilini qiynoqli dard bo‘lib kuydirgan bo‘lsa, endi bevosita milliy qaramlik ma‘naviy xo‘rluk keltirdi, xalq ham ma‘naviy,

ham iqtisodiy kamsitildi, ezildi, oyoqosti qilindi. Elni ozod qilishni Feruz va Furqatlar ma'rifatda ko'rgan bo'lsa, Muhammad Ali eshon kabilar xalqni bevosita jihodga chorladilar. Muqimiy tasviridagi "tanobchilar", "moskovchi boylar" xalqni talashda mustamlakachilar bilan "musobaqa" qilishgan bo'lishsa, Buxoro amiri jadidlarni qatag'on qilishda bolsheviklarga o'rnak ko'rsatdi. XVIII–XIX asrlar o'lkamizda ta'lim tizimi ham turg'unlikka yuz tutganligini inkor etib bo'lmaydi. Fitratning 1912-yilda Istanbulda nashr etilgan "Hind sayyohining qisasi" asari XX asr boshlarida o'lkamiz ma'naviy hayotida yuzaga kelgan bo'hroniy holatning achchiq manzarasini Buxoro amirligi misolida shafqatsiz ochib tashlagan. Shu sababli bugungi mustaqillik sharo-fati bilan o'tmishimizni xolis o'rganish imkoni yaralgan ekan, yutuqlarimiz bilan bir qatorda ayblarimiz, xatolarimizni ham ro'yi-rost ko'ra olaylik.

Behbudiy, Fayzulla Xo'jayev, Fitrat kabi millat va Vatan fidoyilari johillik va ijtimoiy adolatsizlikni ma'rifat vositasi bilan yenga olmagach, avval Rossiya mustabidlari, so'ng sovetlar bilan murosa qilishga majbur bo'ldilar va, oxir-oqibatda, nafaqat ezgu niyatlari, balki tabarruk boshlari ham munofiqlar jodusida qirqildi. XX asr boshlarida yarq etgan Milliy uyg'onish harakati "kommunistik proletar utopiya-si" yo'lida mutaassib va munofiq tuzum tomonidan ayovsiz mahv etildi. Turkiston muxtoriyati harbiy kuch bilan yo'q qilindi. Yagona zamin sun'iy ravishda bir necha alohida "respublika"larga bo'lib yuborildi. Turar Risqulov kabi mahalliy siyosiy arboblarning dalil-isbotlari na o'lkaga maxsus yuborilgan "shovinst-kommunist"lar, na Moskvadagi ularning dohiylari tomonidan tan olinmadi.

2-fasl. Milliy uyg'onish va Yangi davr ma'rifatchiligi

✓ Turkiston o'lkasi xalqlarining milliy mustaqillik uchun kurashi ikki yo'nalishda kechdi. Birinchisi – qurolli kurash, qo'zg'olonlar yo'li bo'lib, 1892-yildagi Toshkentda yuz bergan "vabo qo'zg'oloni" (yoki "toshotar voqeasi"), 1898-yilda Andijon viloyatidagi Dukchi eshon (Muhammadali xalifa) jihodi, 1916-yil mardikor voqealari, keyinchalik, o'lkada bolsheviklar hukmronligi o'rnatilishiga qarshi "bosmachilik" yoki qo'rbohsilar harakati deb nom olgan milliy-ozodlik kurashi ushbu yo'nalishdagi mashhur voqealardandir. Ikkinchisi madaniy-ma'rifiy yo'nalish bo'lib, bu yo'lning asosiy maqsadi xalq madaniy-ma'rifiy saviyasini oshirish, milliy iqtisodni yangi izlardan yuksaltirish

yo'li bilan, vaqti kelganda nihoyatda qudratli harbiy-siyosiy mavqega ega bo'lgan Rossiya hukumati bilan ba'zi kelishuv, murosayi madora usullari bilan Yevropaning ilg'or idora usullarini o'zlashtirib, millatning haqiqiy ozodligini ta'minlash edi. Bu ikki yo'l ba'zan bir-biri bilan yaqinlashar, ba'zan o'zaro ziddiyatga kirishar, ammo amalda bir-birini to'ldirib, quvvatlab boruvchi yo'nalishlar edi. Ma'rifatchilik yo'li Ahmad Donish, Furqat, Feruz kabi XIX asr ikkinchi yarmida faoliyat ko'rsatgan yurt ulug'lari tashabbusi bilan boshlanib, XX asr boshida jadidlar harakatida yorqin namoyon bo'ldi. Har ikki yo'nalish ham XIX asr oxirida kichikroq ko'lamlarda boshlangan bo'lsa, XX asrning ikkinchi o'n yilligidan butun mintaqada yalpi rivoj olib, Milliy uyg'onish harakati darajasiga ko'tarildi. Bir tarafdin Turkiya, Misr, Eron, Xitoy kabi Sharq mamlakatlaridagi yangilanish to'lqini, ikkinchi tarafdin, Rossiya va Kavkazorti o'lka musulmonlarining ta'sirida Turkistonda Yangi davr nafasi shiddat bilan ufura boshladi. Mahalliy ishbilarmonlar Yevropa bilan savdo-sotiqni keng yo'lga qo'yidilar, yangicha tUSDagi ishlab chiqarish korxonalari — paxta tozalash, yog' zavodlari qurila boshlandi. Bank tizimi joriy etildi. 1884-yilda Bog'chasaroyda nashr etilayotgan «Tarjumon» gazetasiga Turkistondan 200 kishi obuna bo'ldi, o'sha yillarda Toshkentda Sayidg'ani Sayidazimboy, Sharifxo'ja qozi, Muhiddinxo'ja qozi kabi ilg'or fikrli kishilar mahalliy bolalar uchun yangicha (rus-tuzem atalmish) maktablar ochilishiga homiylik qildilar.

1901-yildan Qo'qon va Toshkentda, 1903-yildan Samarqanda G'aspirali Ismoilbek ishlab chiqqan «usuli jadid» (yoki usuli savtiya, ya'ni savod chiqarishning tovush tizimi) asosidagi yangicha maktablar ish boshladilar. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Siddiqiy Ajziy, Ashurali Zohidiy, Lutfulla Olimiy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov kabi ma'rifat fidoyilari maydonga kirib keldi. Yangicha tizimdagi maktablar uchun Ismoilbekning «Xo'jayi sibyon» (Bolalar muallimi) asaridan ibrat olib, Sayidrasul Sayidaziziy «Ustodi avval», Munavvarqori «Adibi avval», Abdulla Avloniy «Birinchi muallim», «Ikkinchi muallim» kabi o'quv qo'llanmalarini yaratdilar. Behbudiy, Fitrat, Ashurali Zohidiylar hisob, jug'rofiya, adabiyot, tarix fanlaridan darsliklar yoza boshladilar.

1906-yildan «Taraqqiy», «Xurshid», 1914-yildan «Sadoiy Turkiston», «Sadoiy Farg'ona» va boshqa qator gazetalar, 1913-yildan muntazam ravishda Behbudiy muharrirligida «Oyina» jurnali nashr etila boshladi. Yangi ma'rifatchilar tomonidan Buxoroda 1908-yilda «Tarbiyat ul-

atfol», Toshkentda 1911-yilda «Turon» jamiyati tuzildi. Shu yili yangicha tafakkurli islom ulamosi, mufti Behbudiy yangi davr o'zbek adabiyoti tarixida birinchi bo'lib «Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi» milliy fojiasini yaratdi va 1914-yilda Samarqand va Toshkentda bu ibratli tomosha sahna yuzini ko'rdi. Teatr tomoshasi Yangi davr ma'rifatchilari tomonidan xalq ma'rifatini yuksaltirishning eng samarali usuli – ibrat maktabi sifatida hayotga keng joriy etila boshladi. 1914–1916-yillar orasida o'ndan oshiq dramatik asarlar Samarqand, Toshkent, Qo'qon shaharlaridagi teatr truppalari tomonidan sahnaga qo'yildi va xalq orasida shuhrat qozondi. Xoji Muyin, Abdulla Badriy, Hamza, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy kabi yangi-yangi dramaturglar bu ishga bosh qo'shdilar.

Turkistonda Milliy uyg'onish harakatining ulug' yetakchisi va bayroqdori bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy faqat birinchi dramaturg bo'libgina qolmay, milliy teatr san'ati nazariyasining ham ilk asoschilaridan hisoblanadi. U o'z vaqtida Sayidahmad Vasliy, Fazlulvahhob qori kabi teatr san'atini shar'an harom deb isbot qilmoqchi bo'lgan eski ulamolarning chiqishlariga javoban islomiy manbalar va mantiqiy dalillarga tayanib, teatr san'atining “darsxonayi ibrat” va shar'an savob ekanligini isbot qilib berdi.

Rossiya imperatori Nikolay IIning mustamlaka o'lkalar mahalliy aholisini mardikorlikka jalb qilish haqidagi 1916-yil 25 iyunda chiqargan farmoni butun o'lkada istibdodga qarshi umumxalq qo'zg'oloni boshlanib ketishiga sabab bo'ldi. Tosh, tayoq, ketmon, panshaxa kabi qo'liga tushgan narsa bilan yurt qonini so'rib yotganlarga qarshi g'alayonga ko'tarilgan aholi juda og'ir qurbonlar berdi. Podshoh amri bilan 3 mingdan oshiq kishi sudga berilib, 347 kishi osib o'ldirishga hukm qilindi.

Jadidlar ushbu stixiyali harakatga boshlanishidan qarshi bo'ldilar, ular g'alayonlarga yo'l qo'ymaslik, qurolsiz aholining qo'lida zamonaviy qurol-yarog' bilan yuqori harbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan mustamlakachi jazo qo'shinlariga ro'baro' bo'lmasligi uchun butun imkoniyatlarini ishga solib urindilar. Chunki ularning aqidasiga ko'ra mavjud sharoitda jaholat, isyon yo'li bilan millat o'z maqsadlariga erisha olishi mumkin emas, faqat tinch islohotlar va ma'rifat bilan ijobiy natijalarni qo'lga kiritish mumkin edi. Jadidlar dushmanning makkor o'yinlarini chuqur tushunar edilar. Fitrat yozadi: «Zotan qurol kuchi bilan bir millatni yo'q etmak qulay, bor etmak mumkin emas-

dir. Qurol kuchi bilan hech bir jamoatni madaniyat sari jo'natib bo'lmaydi»¹.

1916-yilgacha asosan ma'rifatchilik yo'nalishida faoliyat ko'rsatgan jadidlar, 1916–1922-yillarda zamon talabidan kelib chiqib, siyosiy hayotda ham yetakchi maqomga ko'tarildilar. Turkiston muxtoriyatini oyoqqa qo'yish yo'lidagi urinishlarda ular oldingi qatorlarda bo'ldilar. Proletar diktaturasini zo'ravonlik bilan joriy qilishga uringan «qizil» shovinistlarning nayranglari-yu, fitnalariga qaramay, ularning barcha tazyiqlariga dosh berib, to 30-yillargacha xalq ma'rifatini yuksaltirish, uning ma'naviy dunyosini takomil toptirish uchun butun kuch-g'ayratlarini sarf etdilar. Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, So'fizoda, Hamza Hakimzoda va boshqalar yaratgan ajoyib asarlar xalqimizning boqiy mulkiga aylangan bo'lsa, Munavvarqori, G'oziy Yunus, Salimxon Tillaxonov, Ubaydulla Asadullaxo'jayev, Zaki Validiy To'g'on, Nosirxon To'ra, Sadriddin Maxsum, To'raqul Jonuzoqovlarning siyosiy-ma'rifiy faoliyatlari Vatan mustaqilligi va xalq ma'rifati yo'lidagi fidokorlik timsoli bo'lib qoldi.

3-fasl. Bolshevizm qatag'onlari va milliy ziyolilar taqdiri

Agar Chor Rossiyasi bizning ma'naviyatimizni turg'unlikda, qoloqlikda tutishga uringan bo'lsa, bolshevik-shovinistlar mahalliy xalqlarni o'z milliy ma'naviyatidan butkul begonalashtirish siyosatini tutdilar. “Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik” sovet madaniyati to'liq munofiqlik zaminiga qurildi. Dinni, xalqning mingyillik e'tiqodini rad etdilar, o'rniga “shaxsga sig'inish” balosi ro'baro' bo'ldi. “Paxta mustaqilligi uchun” kurash Turkiston xalqlarini iqtisodiy qaramlik va nochorlik, o'lka tabiatining vayron bo'lishi, suv, havo va tuproqning zaharlanishiga olib keldi. “Xalqlar do'stligi”, “internatsionalizm” bayroqlari ostida butun-butun millatlar ona yurtidan badarg'a qilindi, milliy o'lkalar aholisi tarkibini ruslashtirish siyosati qattiqqo'llik va izchillik bilan amalga oshirildi. Bugun ham o'sha qardosh xalqlar orasiga nifoq solish maqsadida sun'iy ravishda yuzaga keltirilgan holat Markaziy Osiyo xalqlarining yaqinlashuvi yo'lida qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Qozog'iston va Qirg'izistonning qator markaziy shaharlarida mahalliy aholi miqdori kamchilikni tashkil etishi natijasida yurt egalari o'z va-

¹ Sh. Rizayev. Jadid dramasi. T., 1997, 46-b. (Ushbu mavzu matni Sh.Rizayev kitobi materiallari asosida tayyorlandi.)

tanlarida hayron. Ittifoq davrida respublikalardagi barcha hal qiluvchi mansablarda mahalliy bo'lmagan millat namoyandalari hukm surar va siyosatni Moskva ko'rsatmasiga binoan olib borar edilar. Mahalliy xalq vakillaridan *xo'ja ko'rsinga* tayinlab qo'yilgan rahbar shaxslar barchasi har qadamda, har so'zda o'zlarining Moskva siyosatiga vafo-dor va sodiq ekanliklarini isbotlab turishlari yozilmagan qonun edi. Bu munofiqona yo'nalishdan bir bahya chekinganlarga shafqat bo'lmasdi. Madaniyat, mafkura sohasida faqat uzoqdagi "markaz"ga ta'zim, tagi puch kommunistik g'oyasiga dalil-ibotsiz, shubha-gumon-siz sajda qilish, yolg'on *sotsializm*ga munofiqona madh-u sano asosiy hukmron yo'nalish qilib belgilangan edi.

To'g'ri, milliy ziyolilarimiz ajdodlarimiz merosini o'rganishga ancha-muncha harakat qilishdi. Ammo bu sohada ham yolg'on aralash-tirmay so'z aytish mumkin emas edi. O'tmish ajdodlarimiz merosini o'rganish asosan o'tmishimizni qoralash, o'tmishdagi tariximiz "illat-larini" fosh etish maqsadlariga xizmat qildirilardi. Shunda ham miq-doriy nisbatlarga e'tibor bersak, necha mingyillik islomgacha ma'naviyatimiz tarixini o'rganuvchi mutaxassislar 70–80-yillargacha o'lkamizda deyarli mavjud bo'lmagan, 1200 yillik islom davrini o'rganuvchilar bir necha o'n kishidan oshmas edi, ammo 70 yillik "sovetlar" davrining har soniyasini turli jihatlardan madh-u sano etish uchun tarix, falsafa, adabiyot va boshqa ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlarda minglab oliy ma'lumotli mutaxassislarni o'z ichiga ol-gan mahobatli "mafkuraviy qo'shin" safarbar etilgan edi. Qanchadan-qancha iqtidor egalari o'z umrlarini behuda ovoragarchilikka sarf et-ganlari bugunga kelib ma'lum bo'lib turibdi. Achchiq haqiqatdan ko'z yummasligimiz kerak – bugun yuzlab fan doktorlari, minglab fan nomzodlari yana o'sha sovet davrida rus tilida asosan rus olimlari tomonidan yaratilgan ilmiy tadqiqotlarga tayanib, Yevropa olimlari-ning rus tilida bosilib chiqqan nazariy mulohazalariga asoslanib ish yuritishlariga to'g'ri kelmoqda. Sababi, ular rus tilidan boshqa tilni, rus yozuvidan boshqa yozuvni o'rganmaganlar, marksizm-leninizm-dan o'zga ta'limotni jiddiy o'zlashtirish imkonlari bo'lmagan. Ular-ning ko'plari hatto o'z ona tillarida o'z fikrlarini ilmiy uslubda bayon qilishga qiynaladilar. Bu qaramlik davridan qolgan ko'rgulik emasmi?

Biz aslo birovni ayblamoqchi emasmiz. Ammo ijtimoiy fanlari-mizning bugungi ahvoli, ma'naviyatimizdagi sovet totalitar mafkura hukmronligi yuzaga keltirgan vaziyat "Chernobil" hodisasini eslatadi,

shu darajada falokatlidir. Ko'pchilik ziyolilarimiz ongi o'zlari ham yaxshi tasavvur etmagan miqyosda munofiqona sovet mafkurasini bilan zaharlangan, jahon madaniyati, o'tmish milliy ma'naviy merosimiz bilan "sovet" filtrisiz bevosita tanishish imkoniyatidan til bilmaslik, yozuv bilmaslik orqasida mahrum etilgan edi. Mana endi mustaqillik tufayli bu sohada keskin jonlanish, faol intilish yuzaga kelmoqda, yoshlar turk tili, ingliz tili, boshqa tillar orqali jahon faniga kirib borishga urinishmoqda. Ammo ular ko'pchiligi hali yosh, vaqt esa kam, mustaqil ilmiy metodologiya hanzu ishlab chiqilmagan. Ochiq tan olish kerak, bugun aniq fanlar, tabii-iqtisodiy bilimlar sohasida ham muammolar ko'p, ammo ma'naviyat, milliy mafkura sohasida ahvol o'ta murakkab. XX asr milliy ma'naviyatimiz ulkan yutuqlarga erishdi, bu sohada, ayniqsa, 20–30-yillar milliy ziyolilarimizning jonbozligini aslo unutmashimiz kerak. O'sha davrda yetishgan rus ziyolilari ham bizning tariximiz, adabiyotimizni o'rganishga katta hissa qo'shdilar, buni ham inkor etish noinsoflik bo'ladi. U davrda hanzu sovet totalitar mafkura mexanizmi puxta sozlanib ulgurmagan, "yorqin kelajakka" umid bilan intiluvchi xayolparastlar mafkura sohasida ancha-muncha mavqega ega edilar. O'sha davrda ham milliy ma'naviyat uchun ochiqcha kurash xavfli edi, ammo hanzu "teshik-tuynuklar" to'liq berkitilmagan, hur fikrni "yangi mafkura"ga biroz moslab o'tkazsa bo'lardi. 30-yillarning o'rtalariga borib, milliy ma'naviyatimizni to'liq sindirib, yanchib tashlashga qaratilgan siyosat izchil amalga oshirila boshlandi. Asl ziyo egalari otib, bukib tashlandi. Yozuvimiz uch mar-ta qayta o'zgartirildi. Diniy e'tiqodning eng zaif uchqunlarigacha ayovsiz qatag'on qilindi. "Millatchilik" tamg'asi eng dahshatli ayblov bo'lib, millat uchun joni kuyganlar "xalq dushmani" ataldi. Hozir haqli savol tug'iladiki, qaysi millat manfaatini o'yilaganlar qaysi xalqning dushmani sifatida jazo oldilar?

4-fasl. «Sovet davri» o'zbek ziyolilari tomonidan yaratilgan ma'naviy merosga munosabat

50-yillar ikkinchi yarmi, 60-yillar boshlarida Stalin shaxsi fosh qilinishi munosabati bilan yana biroz "teshik-tuynuklar" ochilib, ziyo ahliga ozgina bo'lsa ham erkinroq nafas olish imkoni tug'ildi. Albatta, "sovet sotsialistik g'oyalari" chegarasida, ammo nisbatan halolroq, samimiy-roq so'zlovchi iqtidorli yoshlar adabiyot sohasiga kirib keldilar, o'tmish merosimizni o'rganishga ham e'tibor kuchaydi. 40–50-yillarda Sharq

fakultetini bitirgan kichik, ammo iqtidorli guruh, eski ta'limdan bahramand bo'lgan va tasodifiy sabablarga ko'ra 30-yillar qatag'on mashinasi changalidan tirik qutulib qolgan sanoqli ikkinchi qatlam ziyogalariga tayanib, e'tiborga sazovor ishlarni imkon doirasida amalga oshira boshladilar. Ba'zi rahbarlik lavozimidagi kishilar, Habib Muhamedov kabi fidoyilar "sovet sotsialistik mafkurasi"ga samimiy ishongan holda millat manfaati uchun qayg'urib, milliy ma'naviyat unsurlarini imkon doirasida yosh avlod ongiga yetkazishga urindilar, buning uchun harakat qilayotgan haqiqiy ilm egalari, ziyolilarga faoliyat maydonini erkin qo'yib berdilar. "Xamsa"ning to'liq matni, "Xazoyin ul -maoniy", "Boburnoma", "Qutadg'u bilig" matnlari shunday sharoitda nashr etildi, Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi shunday imkoniyat doirasida tashkil topdi. Ammo baribir, tez-tez ko'rib ko'rmaslikka solishga, bilib bilmaslikka olishga, Navoiyni, Jomiyni, Ulug'bekni, Nodirani yaxshi deyish uchun tarixiy voqelikka xilof ravishda Attorni, Xo'ja Ahrorni, Amir Temurni, Umarxonni yomonotliq qilib qoralashga majbur bo'lindi. Amiriy devonini, "Zafarnoma" matnini e'lon qilishga jur'at etgan olimlar do'q-po'pisa eshittidilar. Eng yomoni ajdodlarimiz merosi asli holicha emas, "kesilgan", "qirqilgan", hokim mafkura ruhiga moslab talqin qilingan holda yosh avlodga yetkazildi. Shu sababli asl matnni o'qiy olmaydigan, e'tibor qilishga vaqt topmagan, o'sha allomalar yashab ijod etgan ma'naviy muhitni to'g'ri idrok etish imkoniga ega bo'lmagan avlod ko'plab tarixiy haqiqatga zid fikr va "xulosalar"ni hanuz chippa-chin qabul qilib, shu asosda mulohaza yuritmoqda, hatto bu gumrohlik zamini-da ilmiy tadqiqotlar olib borishga urinishlar mavjud.

Qisqasi, inson erkin bo'lishi uchun, uning ma'naviyati mustaqil va erkin shakllanishi uchun birinchi shart millat va mamlakat mustaqilligidir.

Biz bu mustaqillikka 1991-yil 1-sentabrdan crishdik.

Ajab hodisaki, mustaqillik yomon odamni ham yaxshilik sari undar ekan. Sababi, inson bolasi tabiiy sharoitda tabiiylik sari intiladi, tabiiylik esa hamisha yaxshilik, ezgulikdir. Yomonlikni notabiiy sharoit paydo qiladi, milliy qaramlik vaziyati shunday notabiiy sharoitni vujudga keltirgan edi. Shu asosdan kelib chiqib, biz bugun hech kimni kechagi ayblari uchun gunohkor etmaganimiz ma'qul, faqat niyatlar farq qiladi, turli insonlarning imkoniyatlari bir-biridan o'zgacha ekanligi tabiiy holdir.

Biz yaqin o'tmishimiz, anig'i, "sovet davri"da yuzaga keltirilgan ma'naviy merosdan aslo voz kechishimiz, unga mensimay qarashimiz mumkin emas. Hamza va Sadridin Ayniy, Hamid Olimjon va G'afur G'ulom, Oybek va Abdulla Qahhor adabiy merosi o'zbek xalqining ma'naviyat xazinasidan munosib joy olgandir. Albatta, ular ijodida zamonasozlik ham, badiiy meyorga yetmagan ba'zi asarlar ham bo'lishi mumkin. Ammo ularning badiiy salohiyati, o'zbek xalqi va Vatanga mehri, xalq ma'naviy kamoloti uchun qo'shgan hissasi benazir ekani ni faxr bilan tan olsak arziydi. "Sovet davri" deb atalgan 70-yillik murakkab tarixiy jarayon davomida milliy ziyolilarimiz har biri tashqi imkon va ichki salohiyat darajasida xalq ko'nglini o'stirib, ma'naviy olamini boyitib keldilar, biz buni e'tirof etishimiz va minnatdorchiilik bilan ular izzatini joyiga qo'yib, asarlarini yangicha nuqtayi nazar bilan yangidan ko'rib chiqishimiz lozim. Umuman, bolsheviklar odatini takrorlab, bu – mutaraqqiy, narigi – mutaassib yoki reaksiyon deb tamg'a bosish insofdan ham emas, ilmga ham muvofiq emas. Har to'kisda bir ayb. Biz fazilatni ko'ra bilaylik.

Mustaqillik ma'naviyati xalqimizning necha mingyillik mustaqil ma'naviy kamolot yo'liga tayanadi, milliy ma'naviyatimiz takomil bosqichlarini eng umumiy sathda bir qur ko'zdan kechirib chiqishni lozim topganligimizning boisi ham ana shunda.

9-BOB. SHAXS VA MILLAT MA'NAVIY KAMOLO- TINING UYG'UNLIGI

1-fasl. Ma'naviyat va ma'rifat

XX asr boshlarida taniqli rus sharqshunosi Oldenburg Yevropaning ma'naviyat sohasida shu kungacha qo'lga kiritgan yutuqlari o'tmishda Sharq ma'naviyati ko'tarilgan kamolot cho'qqilariga nisbatan go'dak bolaning "chug'ur-chug'uri" darajasidadir, degan edi. Nega endi? Mening nazarimda, bu xulosa Sharqda ko'p asrlik ma'naviy takomil jarayonida ongli ravishda ishlab chiqilgan mukammal ma'rifat yo'llari, ma'naviy tarbiya vosita va usullaridan hayrat zaminida shakllangan bo'lishi kerak.

Ajdodlarimiz tashbehiga ko'ra, ma'naviyat inson qalbida aks etgan ilohiy nur, Oliy haqiqat nuri bo'lib, uni o'zida aks ettira olishi uchun inson qalbi sayqal topmog'i zarur. Zero, sayqallanmagan ko'ngilni

xudbinlik zangi, g'araz chirki egallab oladi va bunday inson ruhiyatida jaholat va zulmat ustunlik qila boshlaydi. "Ko'ngil ko'chalari qaylarga boshlamaydi" deyilganda, ana shu zulmatda qolgan ko'ngil ko'chalaridagi adashuv, gumrohlik nazarda tutilsa kerak.

Inson qalbiga sayqal berish jarayoni esa ma'rifat deyiladi. Ma'rifat ma'naviyat sari eltuvchi yo'llardan iborat bo'lib, Alisher Navoiy "ma'rifat vodiysi"ni shunday ta'rif etadi:

*Vodiyedur yuz tuman ming onda yo'l,
Ul bu bir kelmay, oningdekkim bu ul.
Ixtilofu juzv ila kull mundadur,
Kim taraqqi-yu tanazzul mundadur.
Yuz tuman rahrav ko'rarsen beqaror,
Har biri bir yo'lni aylab ixtiyor.
O'z borur yo'lig'a har bir muftaxir,
Yo'lni aylab o'z yo'lig'a munxasir.
Bu oni tutmay musallam, ul muni,
Har bir o'zdin o'zga ko'rmay, ul buni!*

(Nasriy bayoni:

Bu shunday bir vodiidirki, uni yuz tuman ming turli yo'llar kesib o'tadi, ammo ulardan biri ikkinchisiga sira o'xshamaydi. Butun va bo'lak o'rtasidagi qarama-qarshilik ham shu yerda mavjud. Taraqqiyot ham, tanazzul ham shu joydadir. Unda sen yuz tuman yo'lovchini beqaror bir tarzda, har biri o'zga bir yo'ldan ketib borayotgan holda ko'rasan. Ularning har biri o'zi ketayotgan yo'l bilan faxrlanadi, har biri yo'lni o'z yo'li tomonga buradi. Biri xush tutgan yo'lni ikkinchisi xohlamaydi, har birining ko'ziga o'ziniki yaxshi ko'rinadi, boshqasini esa nazarga ilmaydi).

Alisher Navoiy o'z mulohazalari so'ngida bir guruh so'qir kishilarning fil haqidagi bahslari xususida mashhur rivoyatni keltirib, xulosa qiladiki, agarchi ma'naviyat yo'llari behisob bo'lsa-da, maqsad yagona — Haqiqatni anglab yetish. Insonlarning Haqiqat haqidagi tasavvurlari turlicha bo'lsa ham, ularning barchasi bir yerga jamlansa, umumiy tasavvur asl mohiyatga yaqinlashadi.

Ma'naviy kamolot jarayoni turli o'lchamlarda amalga oshadi. Biri alohida shaxs umri davomida, ikkinchisi — millatning tarixiy taraqqiyo-

¹ Alisher Navoiy Lison ut-tayr. T., 1991, 198-b

tida, yana mintaqa miqyosida, umumbashariy miqyosda va hokazo. Bu jarayonlar, albatta, bir-biri bilan uzviy bog‘lanishda bo‘ladi. Masalan, yakka shaxs ma‘naviyatining shakllanishi umummilliy va umumbashariy ma‘naviy taraqqiyot darajasiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘lsa, millatning ma‘naviy takomili uni tashkil etuvchi shaxslar ma‘naviy dunyosidagi o‘zgarishlar tufayli yuz beradi. Biz shu paytgacha millatning ma‘naviy takomili haqida so‘zladik va uni uch katta davrga bo‘lib ko‘rib chiqdik. Bu uch davr bir-birining uzviy davomi bo‘lish bilan birga, o‘zaro tub xususiyatlariga ko‘ra farq qilishini ham alohida qayd etish zarur.

2-fasl. Islomgacha ma‘naviyat — asotir tafakkurdan milliy o‘zlikni anglash sari

Ulardan birinchiisi — islomgacha ma‘naviyat davri juda uzoq, bir necha ming yillar davom etdi. Uni insonning go‘daklik, bolalik, o‘smirlik yillariga qiyos qilish mumkin. Yosh bolada hali mantiqiy tafakkur yaxshi rivojlangan bo‘lmaydi, u ertaklar, afsonalarga ishonadi, bola uchun hayot sehrli ertakdek tuyuladi. Ayni shu holat ibtidoiy jamoa va ilk shaharlar davridagi aksariyat insonlar tafakkuriga ham xosdir. Go‘yo go‘dak inson zotini o‘z oila a‘zolari — ota-onasi, aka-ukalari miqyosida, olamni yashab turgan xonadoni miqyosida idrok etganidek, ibtidoiy odam ham hali na insoniyatni, na millatni yaxlit tasavvur eta olmaydi, oila, urug‘, jamoa, qabila, elat darajasida fikrlaydi. Mavhum tushunchalarni idrok etish bola ongi uchun og‘irlik qiladi, xuddi shuningdek ibtidoiy odamlar ham har qanday mavhum tushunchalarni biror muayyan narsa-hodisaga bog‘lab tasavvur etadilar. Ayni shu xususiyat asotir tafakkur (мифологическое мышление) uchun xosdir. Ibtidoiy odam uchun insoniyat — o‘z oila a‘zolari, urug‘ jamoasi (katta oila sifatida), keyincha borib, qabila, elatdan tashqarida emas. Qabila bir urug‘dan tarqalgan irsiy birodarlar uyushmasi deb tasavvur etiladi. Mushriklik, butparastlikning ham asl sababi — ayni shu asotir tafakkurdir. Chunki payg‘ambarlar doimo yagona Tangri nomidan so‘zlaganlar, faqat ibtidoiy insonlar qadim yahudiy-lar oltin buzoqqa sig‘inganidek, yagona Tangri haqidagi ilohiy vahiyning muayyan narsa-hodisa bilan bog‘lab tasavvur etganlari natijasida sanamlarga sig‘inish paydo bo‘lgan. Har bir qabila o‘zi c‘tiqod qilgan Parvardigorini boshqa qabilanikidan farq qiladi deb tasavvur etish natijasida, ayniqsa, shahar-davlatdan imperiyalar davriga o‘tish bosqichida ko‘pxudolik tizimlari yuzaga keladi.

Inson ma'naviyati takomil topib borgan sari uning shuuri yorishib, avval millat (xalq, budun) so'ng mintaq va, oxiri, insoniyat darajasida o'zligini anglab borgan. Bugun endi koinot darajasida fikrlashga o'tib, o'zga sayyoralaridan o'ziga teng aqlli mavjudotlarni qidirmoqda.

Ammo insoniyatning bolaligi ham behuda o'tmagan. U birinchi bo'lib, Vatanni, ona-zaminni tanigan, yaratuvchilik mehnatini qadrlashni o'rgangan. Ezgulik halollikda, rost so'zda ekanini, yomon niyat, yolg'on so'z, qing'ir amalning oqibati voy bo'lishini anglab yetgan. Payg'ambarlar keltirgan ilohiy vahiya quloq tutgan, aqli yetgan-cha yaxshilarga ergashgan. Milliy o'zlikni tanish va yagona Allohni tan olish bir-biriga yaqin va tutash davrlarda yuz bergani biz uchun ibratlidir. Bu davrda ma'naviy kamolot asosan ibrat zaminida yuz berishini ham alohida qayd etib o'tish lozim. Bu ham bolalikka xos xususiyatdir.

Turkiy millatning o'zligini anglash jarayoni turli begona imperiyalar bosqinidan yurtni himoya qilish bilan bog'liq ravishda kechganligini unutmashimiz kerakdir. Shu jihatdan ham milliy o'zlikni anglash o'smirlikdan yigitlikka tomon ulg'ayish — balog'at davriga o'xshab ketadi. Ayni shu davrda yoshlarimiz yurt himoyasiga tayyorgarlikni o'taydilar, Vatan nima ekanligini o'zlari uchun amalda yangidan kashf qiladilar.

3-fasl. Islom mintaqa madaniyati doirasida milliy ma'naviyatimiz takomili va ma'rifat yo'llari

Asotir tafakkur hukmronligidan e'tiqodiy bag'rikenglikaro milliy tafakkurga o'ta boshlagan turkiy elatlar tavhid e'tiqodi tufayli qo'shni xalqlar bilan yagona madaniy mintaqaga birlashdilar. Ushbu yagona madaniy birlik doirasida milliy ma'naviyatimiz yangi ufqlar sari yuk-salib bordi. Biz VIII — XV asrlarni o'z ichiga olgan ushbu qutlug' davrni 4 bosqichga ajratib o'rgandik. Ammo bir narsani, albatta ta'kidlab o'tish joiz. Islom mintaqa madaniyati o'zidan oldingi davrda insoniyat erishgan barcha yutuqlarni chuqur o'zlashtirdi, mushriklik e'tiqodining rad etilishi aslo qadimgi madaniyat samaralarini yoppasiga rad etish deb tushunmaslik kerak. Qolaversa, islom mintaqa madaniyati doirasidagi milliy ma'naviyatimiz rivojining birinchi pog'onasi bo'lmish sunna bosqichi, birinchi navbatda, ibratga qurilgan bo'lsa ham, hech qachon ilmni, riyozatni, mehrni inkor etgan emas. Keyingi

bosqichlarning ham yetakchi tamoyillariga biz alohida urg'u berganligimiz oldingi bosqichdagi tamoyillar yo'q bo'lib ketganini yoki nazardan chetda qolganini bildirmaydi. Milliy ma'naviyatimiz taraqqiyotining har bir davri, har bir bosqichi o'ta murakkab mazmunga, turli tamoyillarining o'zaro uzviy tutashgan muayyan uyg'unlikdagi tizimiga ega bo'lib, ularning har birini alohida o'rganish lozim. Ammo biz masalani ilk umumiy yondoshuv darajasida talqin etganimiz sababli, eng yorqin tamoyillarni yoritishga intildik va ko'p nozik jihatlar soyada qolib ketganini tan olib o'tamiz.

Bugungi kunda biz "ma'rifat" tushunchasini ba'zan tor talqin qilib, ilm o'rganish, turli sohalardan bilim hosil qilish deb o'ylaymiz. Asli aql bilan anglab yetiladigan bilimlarni o'zlashtirishga intilish "ma'rifat vodiysida"gi bir yo'nalish, xolos. Forobiy singari faylasuflar, Yusuf Xos Hojib kabi alloma shoirlar aqlni, mantiqiy tafakkur yo'li bilan o'zlashtiriladigan bilimlarni insonni baxt-saodat sari eltuvchi asosiy yo'l deb tushunganlar. XVIII–XIX asr Yevropa madaniyatida ham shu fikr yetakchi bo'ldi. Ammo keyingi davrlarda ko'p ajdodlarimiz ilm yo'lini yetarli deb bilgan emaslar.

a) Sunna bosqichi – ibrat ma'rifati

Muhaddislar nazdida hazrati payg'ambarimiz ibrati inson ma'naviy kamoloti uchun bosh mayoqdir. Shu sababli ular umr bo'yi riyozat chekib, hadis to'plaganlar, ularni tahqiq etib "sahih", ya'ni haqiqiy, ishonchlilarini "zaif"laridan ajratib tasniflaganlar. Natijada, inson hayoti uchun nihoyatda muhim muammolarga javob bera oladigan islomiy axloq-odob qoidalar tizimi vujudga kelgan. Ibrat yo'li bugun ham shaxs ma'naviyatini shakllantiruvchi muhim yo'nalishlardandir.

Asli ma'rifatning ilk yo'li ibratdir. Go'dak yorug' dunyo yuziga kelib, yashash ishq bilan hayotga intilar ekan, ishni ibratdan boshlaydi, ona ibrati, ota ibrati, akalar va opalar, buvilar va bobolar ibrati bilan voqelikka o'z munosabatini shakllantira boshlaydi. Bu dunyo asli insonga ibrat uchun yaralgan. Daraxtlarning quyosh sari bo'y cho'zmog'i – ibrat, jonivorlarning o'z taqdiriga rizoligi – ibrat, tog'lar ustuvorligi -ibrat, ummonlar teranligi ibrat, quyosh va oy xizmati, kecha va kunduz navbati – ibrat. Payg'ambarlar sidqi, valiylar karomati, allomalar ilmi, zohidlar taqvosi, oshiqlar ishq, eranlar jasorati, tashabbuskorlar g'ayrati, oqillar tadbiri, hayo egalarining andishasi, siddiqlar ibosi, onalar mehri, otalar bag'rikengligi, go'daklar

beg‘uborligi, keksalar ulug‘vorligi – barcha-barchasi inson uchun ibratdir.

Yomondan yomonlikni anglab, undan qaytmoq ibrat, yaxshidan yaxshilikni anglab unga ergashmoq – ibrat. O‘g‘rining taqdiri – ibrat, fohishaning fojiasi – ibrat, fotihlar umri – ibrat, sotqinlar tubanligi – ibrat. Nima ibrat emas? Barchasi ibrat.

Ibrat ola bilmoc – ma‘naviyat, ko‘rib ibrat olmaslik – ma‘naviy so‘qirlikdir. Ammo ibrat taqlid emasdir, ibrat o‘rniga taqlid – dil ko‘zining ko‘rligiga dalolatdir, qachonki, kimdagi, qayerda, qaysi zamonda ibrat o‘rnini taqlid egallasa, ma‘naviyatning o‘lgani ana shu. Masalan, payg‘ambarimizning ayollarga munosabati. Ul hazratning ayollarga bo‘lgan shafqati, mehri, hilmu, sadoqati, adolati – ibrat. Ul hazrat hayoti voqeligidan faqat ko‘p xotin olishga ruxsatni ko‘rish xamoqat, ul hazratni ko‘p xotinlikda ayblash musulmon uchun xiyonat, o‘zga uchun tuhmat. Har ikki oxirgi hukm mohiyatdan uzoq zohirbinlik va jaholat, shayton vasvasasidir. Bir necha ayolga uylanib, ularga payg‘ambar shafqati, mehri, adolati va himmatini ko‘rsata olaman deb, o‘z-o‘ziga firib berish – takabburlik, shahvatparastlik va g‘afolatning birgalashib insof va inson tafakkuri ustidan hukm o‘rnatishi, inson ma‘naviy halokatining ibtidosidir.

b) Islom ma‘rifatchiligi bosqichi – ilm ma‘rifati

Ma‘rifatning yana bir buyuk o‘chog‘i ilmdir. Ilmni Shaxs kamolotining ikkinchi bosqichi deb hisoblash mumkin. Agar bolaning ilk tarbiyasi ko‘proq atrofidagi kattalardan o‘rganish, o‘qigan-eshitgan ertak qahramonlaridan ibrat olish asosida bo‘lsa, o‘smir yoshiga o‘tishidan uning shuurida hayot hodisalariga tahliliy yondoshuv uyg‘onadi. Maktabda ham shu sababli alohida fan asoslaridan ta‘lim berish 6–7-sinflardan boshlanadi. Maxsus ilmlarga chuqur kirib borish esa oliy o‘quv yurtlarida amalga oshiriladi. Demak, ilmiy tafakkurning shakllanishi balog‘at yoshi bilan bog‘liq. Albatta, hayotga ilm asosida yondoshuv barchada bir xil darajada bo‘lishi qiyin. Haqiqiy ilmga qobillik alohida iste‘doddur.

Ilm tafakkur bilan bo‘ladi, axborot yig‘ish ilmga tayyorgarlik bo‘lishi mumkin, undan ortiq emas. Umr bo‘yi taom pishirmoc uchun sabzi-piyoz archib ovora bo‘lgan, ammo olov yoqib, qozon qizdirmagan odam ochlikdan o‘lar, ammo qorni to‘ymas. Ilm – asli ajdodlar ibratidir, o‘tganlar, biz ko‘rmaganlar haqida xabar orqali ibratdir.

Payg‘ambarimiz hayoti ibrat, Imom al-Buxoriy hayoti va faoliyati ibrat, “Jome’ as-sahih“ kitobi esa ilmdir. Forobiyning ilm yo‘lidagi fidoyiligi ibrat, “Fozil shahar fuqarolarining qarashlari” risolasi esa ilmdir. “Qonun fi-t-tib” ilm, Ibn Sinoning ilmga chanqoqligi esa ibratdir.

Biz Forobiy va Ibn Sino ilmini o‘zlashtirishga astoydil bo‘lmasak, ammo farzandimizga ularni ibrat qilib ko‘rsatsak, “Jome’-as-sahih“ni o‘zlashtirmasdan payg‘ambarimizga mehr-u sadoqatdan lof ursak, ri-yodir, munofiqlikdir, bu bilan faqat o‘zimizni insonlar va Alloh ol-dida sharmanda qilamiz, gunohlarimizni ko‘paytiramiz, jaholatimizni fosh etamiz. Ammo jahondagi barcha ilmlarni inson egallab ulgura olmasligi ham ma‘lum. Dunyoning ishi ilm va farosat bilan bo‘lur. Darvoqe, farosat ham Allohning in‘omi – ma‘naviyat nuridir. Inson o‘ziga nima va qay darajada lozim ekanligini farosat bilan (va farosati-ga yarasha) aniqlab oladi. Sodda bir misol: Ibn Sinoning “Qonun-fi-t-tib” kitobini mukammal o‘zlashtirmagan kishini ayblab bo‘lmas, In-son ma‘naviy kamoloti bu bilan belgilanmas. Ammo har bir shaxs o‘z sog‘lig‘ining qadriga yetish darajasida, har bir ona o‘z farzandini sog‘lom voyaga yetkazish zarurati darajasida tib ilmidan bahramand bo‘lmog‘i ayni ma‘naviy kamolotga ishoradir.

Ilm hosil qilingan bilimni idrok etmoqdir. Ammo ilmni faqat risola-lardan, qog‘oz yuzidan qidirmoq ham yetarli emas. Savodsiz dehqon-ning ziroat ilmi ba‘zi o‘qib-uqmagan yolg‘on akademiknikidan bir necha bor yuqori va mukammalroq bo‘lishi mumkin. Yer ilmi, tabiat ilmi yolg‘iz kitobdan o‘zlashtirilmaydi, yerga, tabiatga, har bir ko‘kat va jonli mavjudotga mehr bilan, e‘tibor va idrok bilan belgilanadi.

Sarkardalik ilmi, umuman, rahbarlik ilmi san‘at darajasidagi ilm-dir, harbiy mahorat haqida ming bir kitobni o‘qigan odam lashkarni jabhada g‘alabaga yetkiza olishiga hech kim kafolot bera olmaydi. Bir so‘z bilan aytganda, ilm faqat kitobda emas, ammo kitob o‘qimay ilmga erishaman, deyish ham oqillikdan tashqaridir.

Xalqimizning VIII–XV asrlar yagona islom mintaqa madaniyati doirasida ma‘naviy kamoloti millatimizning bugungi ma‘naviy qiyofasi shakllanuvda ayricha ahamiyatga ega bo‘ldi. Bu davr ajdodlarimiz merosidan xabardorlik, ushbu ma‘naviy takomil jarayonini to‘g‘ri id-rok etish milliy ma‘naviyatimizning tarkibiy jihatlari haqida salmoqli tasavvur beradi. Islom mintaqasi doirasidagi yaxlit ma‘naviy takomil jarayoni insonning o‘zligini anglash yo‘lidir. Bu yo‘lning asl mohiyati

Tavhid e'tiqodi bo'lib, uni ibtidoda ibrat darajasida, axloqiy kamolot egalari ergashuv tariqasida qabul etilgan bo'lsa, keyinroq aql, mantiqiy tafakkurga tayanib, umumbashariyat yaratgan yaxlit ilmiy va madaniy merosni anglab yetishga intilish kuchaydi. *Borliqning yagonaligi haqidagi ilmiy-falsafiy tasavvur* shakllandi, yagona borliq mohiyatiga qarashlar xilma-xilligi idrok etildi. E'tiqod ilm bilan mustahkamlandi. Inson o'zini va voqelikni tushinishda asotir tafakkur bosqichidan ilmiy tafakkur bosqichiga ko'tarildi.

d) Tasavvuf tariqatlari bosqichi – Riyozat ma'rifati

Ammo ilm, aql qudrati inson va jamiyat ma'naviy takomili uchun yetarli emasligi sezilib qoldi. Irfoniy takomil, riyozat yo'li mintaqa xalqlari ma'naviyatida tobora keng ko'lam kasb etdi. Haqiqat ishq iroda qudratini sinay boshladi. Inson haqiqat yo'lida o'zlikdan kechishni o'rgandi. Dillar xudbinlik zangidan poklana boshladi. Albatta, oriflik har kimga ham nasib etmaydi, valiylik rutbasi bugungi bizning tasavvurlarimizdan behad yuqoridir. Lekin ma'naviyat haqiqat yo'lida ruhiyat safarbarligi ekanligini ajdodlar bizga anglatdilar.

Tasavvuf ahli, ya'ni so'fiylar, ibrat va aqlga, bilimga tayanishni yetarli deb topmay, riyozat yo'lini, ruhiy safarbarlik, iroda qudratini namoyish etib, nafsni poklash yo'llarini ishlab chiqdilar. Tasavvuf ma'rifati o'zi bir hududsiz olam. Uning o'z maqom va hollari mavjud. XII–XIII asrlarda o'ndan ortiq tasavvuf suluklari (yo'llari) shakllangan. Jumladan, Markaziy Osiyoning o'zida yassaviya, qodiriya, kubraviya kabi turli yo'nalishlar keng urf bo'lgan. Bularning har biriga batafsil to'xtalinsa, so'z uzayadi. Riyozat chekib ko'ngilni poklash, uni xudbinlik zangidan tozalash tasavvuf suluklarining asl maqsadidir. Inson o'z boshiga tushgan, hayotida ro'y bergan qiyinchiliklar, turli balo-yu kulfatlarga chidashi, toqat qilishi sabr-bardosh deyiladi. U hali riyozat emas. *Haq yo'lida ongli ravishda inson o'z oldiga ulug' bir maqsadni belgilab, unga yetishish uchun ixtiyoriy ravishda barcha qiyinchiliklarni bo'yinga olib, to'siqlarni yengib o'tib, olg'a intilishigina riyozat bo'ladi.* Inson riyozat chekmay umuman biror narsaga erishishi qiyin. Xalqimiz shuning uchun, sodda qilib, “Jondan kechmasang, jonona qayda”, deydi. Darhaqiqat, riyozatsiz na u dunyo, na bu dunyo saodati insonga nasib bo'lmaydi.

Allohning inoyati bilan tasavvuf irfoni bizning zaminda takomil cho'qqisiga ko'tarildi. Hazrati Bahouddin kasb etilgan irfoniy quvvat-

ni ezgulik yo'lida amaliy faoliyatga tatbiq etishga da'vat etdi. Xoja Ahror va Jomiy, Alisher Navoiy va Maxdumi A'zamdek ma'naviyat darg'alari ushbu yo'lda yuksak namuna ko'rsatdilar.

Tasavvuf irfonida avval zuhd-u taqvo yetakchi maqom tutgan bo'lsa, keyinroq ilohiy ishq tushunchasi yuqori o'ringa ko'tarildi. Bu tuyg'u oxir-natijada insonni fanodan baqoga olib chiquvchi asosiy vosita deb topildi.

e) «Majoz tariqi» bosqichi – mehr ma'rifati

XIV asrga kelib Markaziy Osiyoda tugal shakllangan naqshbandiya suluki hazrati Bahouddin Naqshband olg'a surgan mashhur “dil ba yor-u, dast ba kor” shiori orqali ma'naviy kamolot egalarini yangi, yuqoriroq bosqichda amaliy faollikka undadi. Ayni shu davrdan mumtoz adabiyotda yangi yo'nalish, Navoiy ta'biri bilan aytganda, “*majoz tariqi*” shakllana boshladi. Bu yo'nalishning mohiyatida yangicha talqin etilgan “majoz ishq” yotadi. Hanuzgacha mumtoz adabiyotimizga doir tadqiqotlarda Alisher Navoiy aniq farqlab bergan “haqiqat tariqi” va “majoz tariqi” yo'nalishlari mavjudligi jiddiy e'tiborga olinmaydi, “majoz ishq” iborasi jo'ngina “dunyoviy ishq” deb talqin etish bilan chegaralanadi. Darhaqiqat, irfoniy adabiyot namoyandalari “majoz” tushunchasini shunday tushunib va tushuntirib kelganlar. Ammo mumtoz adabiyotda Amir Xusrav Dehlaviydan boshlab “ishqi majoziy” tushunchasining talqini o'zgara boshladi. Alisher Navoiy umrining oxirida ushbu yangicha talqin mohiyatiga ilmiy aniqlik kiritish maqsadida “ishq”ni ikki (ishqi haqiqiy va ishqi majoziy) emas, balki uch qismga ajratib: “avom ishq”, “xos ishq”, “siddiqlar ishq” deb atadi. Shunday qilib, ham biz “dunyoviy muhabbat” deb ta'riflaydigan “avom ishq”dan ham, “ilohiy muhabbat” deb ajratadigan “siddiqlar ishq” yoki “ishqi haqiqiy”dan ham farq qiluvchi alohida ma'naviy voqelik – “xos ishq” mavjudligi aniq bo'ldi. Uning asl mohiyati poklik, beg'arazlik bilan bog'liq. “Xos ishq” egalari insonga, butun voqelikka “Oliy haqiqatning mazhari”(inson ko'ziga namoyon bo'lishi) deb qaraydilar va shunga muvofiq munosabatda bo'ladilar. “Majoz haqiqatning ko'prigidir”, deyilishi shundan. Ular fanoda baqoni sevadilar, insonga “haqiqat asrorining ganjinasi” bo'lgan ko'ngil mulki tufayli mehr qo'yadilar.

Alisher Navoiy badiiy-falsafiy ijodida millat ma'naviyati o'zining eng oliy bosqichiga ko'tarildi. Buyuk shoir *pok insoniy mehrni*

ma'naviyatning tug'rosiga aylantirdi. Navoiy ma'naviyati timsolida e'tiqod va ilm, iroda qudrati va mehr, fidoylik va donishmandlik yagona mohiyat kasb etib, millat ma'naviyatini kamolotning oliy bosqichiga olib chiqdi.

Asl ma'nosiga diqqat qilsak, o'zbek tilidagi "mehr" so'zi Navoiylar davrida "majoz ishq", "xos ishq" deb ta'riflangan tuyg'uning mohiyatini ifodalaydi. Ruslarning achchiq maqollaridan birida "любовь зла..." deyilgan jumla bor. O'zbekning "mehr" tushunchasida ana o'sha "зло" yo'q, g'araz yo'q. Ota va ona mehri, farzandning o'z qiblagohi va validasiga bo'lgan mehri, og'a-ini, opa-singillararo mehr, Vatan mehri, tabiat va undagi turli jonzotlarga nisbatan mehr tuyg'usi, do'st mehri – bularning barchasi g'arazdan xoli, tabiiy va samimiy mehr namunalari. Nafaqat inson bolasini, balki turli hayvonlarning jajji bolachalarini ko'rganda inson dilida ajib shirin tuyg'u qo'zg'oladi. Begunoh go'dakning ma'sum qiyofasi, jovdirab sizdan mehr kutib turgan ko'zlari insonni befarq qoldirmaydi, beixtiyor jilmayasiz, erkalab so'zlar aytgiz keladi. Mehr tuyg'usi inson uchun ulug' ilohiy tuhfadir. Bu tuyg'udan inson o'zini mahrum qilsa, bu dunyoning o'zida do'zax azobi o'rtanishida qoladi. Chunki inson birovga mehr baxsh etmay, birovdan mehr ko'rmay yashay olmaydi.

Riyozat yo'li va mehr tuyg'usi barcha yosh uchun xosdir. Ammo inson oila qurgach, uning hayotida halol rizq bilan turmush o'tkazmoq, farzand tarbiyasi bilan shug'ullanish kabi jiddiy sinovlar paydo bo'ladi, bular endi ibrat va ilmning o'zi bilan bo'ladigan savdolar emas. Ilm yo'lida ham riyozat chekiladi, ammo halol rizq bilan ro'zg'or tebratish, solih farzandlar o'stirib, voyaga yetkazish bu aslida Borliq haqiqatini amaliy faoliyat jarayonida butun vujudingiz bilan his qilishga olib keluvchi haqiqiy ma'rifat maktabidir.

Insonning 30–40 yoshlik davrlari asosan riyozat bilan o'tsa, haqiqiy beg'araz mehr tuyg'usi odatda 50 yoshlar atrofida shakllanadi, deyish mumkin. Bobo va buvining nabiraga mehri ayni shu beg'araz mehrning yorqin namunasi. O'g'il-qiz meni qariganimda boqadi, parvarish qiladi deb umid qilish mumkin. Nabiralar deyarli bobo-buvilarni boqmaydilar. Chunki ularning qo'lidan bir ish kelguncha katta avlod bormi-yo'qmi? Ammo "nabira boladan shirin" deyilishi bejiz emas. Haqiqatan ham chol-kampirlarning nabiralarga mehri insonning yangi tug'ilib kelayotgan hayotga beg'araz muhabbatidir. Albatta, aytganlarimiz oddiy bir hayotiy misol. Asli mehr tuyg'usi niho-

yatda ulug' insoniy hissiyotdir. U haqda Alisher Navoiydan o'tkazib so'z aytish qiyin.

Xullas, ma'rifat Haqiqatni anglab yetish yo'li bo'lib, o'zligini anglab yetgan inson Haqni anglab yetadi, uni tasavvuf istilohida Orif dey-dilar, hozirgi tilimizdagi "ziyoli" tushunchasi asli ushbu darajada bo'lmog'i kerak, faqat "intelligent" (ya'ni aql sohibi) emas. Ma'naviy barkamollik ham shuning o'zidir. Ibrat, ilm, riyozat, mehr barchasi ma'rifat yo'llari bo'lib, inson ularning barchasini bosib o'tmay turib barkamol bo'lmaydi, mukammal ma'naviy qiyofa kasb etmaydi.

4-fasl. Yangi davrda milliy ma'naviyatimiz takomilining bosh muammosi – siyosiy va ma'naviy taraqqiyot uyg'unligi masalasi.

«Xavos» va «avom»

Yangi davrning ma'naviy mohiyati ikki asos : dunyoni surat va ma'no yaxlitligida o'rganish va bahamjihatlikda boshqarishga intilish bilan o'zligini namoyon etishini aytib o'tdik. Islom ma'naviyatining asl mazmuniga muvofiq keluvchi ushbu haqiqatni anglab yetish uchun islom mintaqasining ilg'or ziyo egalari 7 asr izlandilar va, nihoyat, Alisher Navoiy olg'a surgan "*majoz tariqi*" tafakkur tarzida ilk bor ushbu natijaga yetib kelindi. Shu bilan buyuk bobokalonimiz islom mintaqa ma'naviyatining asl mag'zini milliy ma'naviyatimiz o'zak tomi-riga aylantirib berdi va bizning ongimizni, tafakkurimizni O'rta asr-lardan Yangi davrga olib o'tib qo'ydi. Faqat buni anglab yetishga biz uchun yana 500 yil kerak bo'ldi.

Agar temuriy shahzodalar loaqal kenja o'g'il Shohruh darajasida oqil bo'lganida, agar faqat she'riyat va san'atgina emas, siyosat bora-sida ham Tavhid idroki g'alaba qilganida biz bugun ulug' bir millat, buyuk bir saltanat sohiblari bo'lur edik. Afsus, Alisher Navoiy va Mirzo Boburning armonlari 500 yil orqaga surilib ketdi. Inson dimog'ida kibr balosi joylashgan. Zuhd va kibr, mehr va shahvat ora-sidagi chegarani doim ham inson zoti to'g'ri belgilay bilmaydi. Temuriy shahzodalar bari shoir edi, bilim va zavq egasi edilar. Ammo ularni joh kibrga, shaydolik shahvatga yetakladi. Ular darvesh-shoh bo'lmoqchi edilar, ammo kibr va shahvat zalolatga mahkum etdi.

Balki Sohobqiron Temur Boyazidni armonda qoldirib, Haq irodasi-ni ado ctgandir. Harholda Yevropa XIV–XV asrlardan o'ziga o'zi hisob bera boshladi. Islom mintaqa madaniyati XI–XV asrlar davo-mida Yevropaga katta ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, "averroizm" an'anasi

10 asr gʻaflat uyqusiga choʻmgan xristian olamini Reformatsiya va Rennessans (Yevropa Uygʻonishi)ga olib keldi. Reformatsiya, yaʼni xristian dinidagi islohchilik harakatlari Yevropaning oʻz xatolarini anglab yeta boshlaganidan darak edi. Afsus, biz musulmonlar kibrga berildik. Oʻzimizga oshiqcha mahliyo boʻldik. XV–XVI asr chegarasi islom mintaqasi uchun maʼnaviy takomilning avj nuqtasi boʻlgan boʻlsa, Yevropa uchun maʼnaviy yuksalishning avj olish nuqtasi boʻldi. XVI asrdan mintaqamizda tanazzul, Yevropada yuksalish boshlandi. Bu, avvalo, Allohning irodasi. Ammo biz bandalar ham oʻz ayb-u xatolarimizni toʻgʻri anglab yetishga urinmogʻimiz farzdir.

Niderlandiya va Buyuk Britaniya burjua inqiloblari, XVIII asr fransuz maʼrifatchiligi va nihoyat Buyuk fransuz inqilobi Yevropadagi ijtimoiy-madaniy muhitni butkul oʻzgartirib yubordi. Amerika kashf etildi, Osiyo va Afrika davlatlari sari yurish boshlandi. XIX–XX asrlar davomida Yevropada aniq va tabiiy fanlar, sanoat va texnika sohasida erishilgan olamshumul yutuqlar bu mintaqani jahonda peshqadamlikka olib keldi va natijada bugungi kunda jahon fani, unuminsoniy qadriyatlar deganda, birinchi navbatda, Yevropa madaniyati unsurlari nazarda tutiladigan boʻldi.

Yevropa butun dunyo xalqlari erishgan madaniy-ilmiy boylikni faol oʻzlashtirdi. Orientalistika (sharqshunoslik) keng rivoj oldi va uning yutuqlarini barcha sohalar ijodiy oʻzlashtirib bordilar.

Islom dunyosi maʼnaviyati IX–XV asrlarda yuksak kamolot bosqichlariga koʻtarilgan boʻlishiga qaramay, bu mintaqada siyosiy struktura negizi Tavhid eʼtiqodiga muvofiq oʻzgarmaganligi juda ogʻir oqibatlariga olib keldi (Bu oʻzgarish Yevropada amalga oshdi).

Siyosiy tafakkurda qabilachilik davri asotir tafakkur qoldigʻi boʻlmish sulolaviylik anʼanasi va “farr” xurofotining toʻliq yengib oʻtilmaganligi islom mintaqasidagi Oʻrta asrlar siyosiy madaniyatining katta qusuri boʻldi. Na sarbadorlar, na temuriylar bu qusurni uzil-kesil yengib oʻta bilmadilar.

Albatta, bu davrda ham millat maʼnaviyati maʼlum maʼnoda rivojlanishda davom etdi. XVI–XX asrlarni maʼnaviy takomil nuqtayi nazari-dan 2 katta bosqichga ajratdik. Birinchi bosqichda maʼnaviyatning ommalashuvi borgan sari keng miqyos kasb etib, xos va avom orasidagi farq borgan sari kamayib bordi. Tan olish kerakki, bu jarayon ikki tomonlama namoyon boʻlar edi, yaʼni keng xalq ommasi maʼnaviyati yuksalib borishi bilan birga, zodagon toifalar maʼnaviyati ham muayyan darajada avomlashib borganligini kuzatish mumkin. Bu jarayonni

Turdi va Gulxaniy kabi allomalar o'z ijodida yorqin ifodalab berdilar. Bu bosqichni millatimiz uchun *Yangi davr ma'naviyatiga o'tish bosqichi*, deb atash mumkin.

Bu davrning eng katta yutug'i Vatan tuyg'usining shakllanishi – "O'zbekiston" tushunchasining iste'molga kirishi bo'ldi.

Islom mintaqasida XVI asrdan boshlab, dezintegratsiya (yagona mintaqa madaniyatining turli o'lka madaniyatlariga parchalanishi) jarayoni kuchayib bordi. Eronda safaviylar, Kichik Osiyoda usmonli turklar, Movarounnahr va Xurosonda shayboniylar saltanati o'rnashdi. Temur avlodi Boburiylar timsolida Shimoliy Hindistonda 300 yil saltanat yuritdi va bu qadim o'lkani islom mintaqa madaniyatining eng ilg'or an'analari o'chog'iga aylantirdi. Sharqiy Turkiston Xitoy imperiyasi va Volgabo'yi turklari Rossiya asoratiga duch keldilar. Shunday qilib, "Joh badmastligi"ning kibri va g'aflati oqibatida buyuk turkiy millat parchalanib ketdi.

Shayboniylar davlati ham 100 yildan oshiqqa dosh bermadi. Yagona o'lka ikki xonlik va bir amirlikaro taloshda qoldi. Bu noahillik balosi oxir-oqibat yagona Vatanni bosqinchilarga qurbon qildi.

Yangi davr Yevropa ma'naviy muhitiga xos qarama-qarshiliklar kurashi oxir-oqibat K.Marks va F. Engelsning murosasiz sinfiy kurash targ'ibiga qaratilgan kommunistik utopiyasiga olib keldi. Ammo bu utopiyaning muvaqqat siyosiy g'alabasi, asoschilar umid qilganidek, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida emas, balki siyosiy qoloq o'lkalarda yuz berdi. Natijada Markaziy Osiyo xalqlari ikki tomonlama jabr ko'rdilar. Hur va ozod jamiyat va'da qilgan bolshevoylar qadim Turon elatlarini sun'iy ravishda bir-biriga qarshi qo'yib, uzil-kesil parchalab tashlashga muvaffaq bo'ldilar. Turar Risqulov, Mustafo Cho'qay, Zaki Validiy To'g'on kabi millat jonkuyarlarining urinishlari o'z vaqtida besamar qoldi. Oradan 70 yil o'tdi, yolg'on va'dalar zaminiga qurilgan "sovetlar" tuzumi baribir yemirilib ketdi. Qadim Turkistonning yagona zaminida mustaqil davlatlar qad ko'tardi. Bugungi siyosiy voqelikda mavjud imkondan foydalanib, o'zaro yaqinlashuv, qardoshlik aloqalarini rivojlantirish yo'lini tutish yagona to'g'ri siyosat ekanligi ayon bo'lib qoldi. Bu yo'lda ma'naviy, madaniy birlik sari intilish, necha ming yillar davomida vujudga kelgan yaxlit ma'naviy merosni chuqur o'zlashtirish va uni yaxlit saqlab qolib, yangi bosqichda rivojlanishini ta'minlash barchamiz uchun ham farz, ham qarz, kelgusi avlodlar oldidagi muqaddas burchimizdir.

Millatimizga Haq taolo yana bir imkoniyat berdi. Agar o'tmish xatolarni inobatga olsak, ma'naviy kamolot yutuqlarini tiklay bilsak, inshoolloh, bu safar saodat yo'ldoshimiz bo'lg'ay.

Inson fitratida uch qusur bor – kibr, shahvat, g'aflat. Bu qusurlar inson tabiatining zotiy xususiyatlari bilan tutash. Shu sababli ulardan butkul qutulib bo'lmaydi. Faqat hushyor bo'lish va “Beayb parvardigor” ekanini aslo unutmash kerak. Ma'naviyatning mohiyati me'yorni saqlay bilishda.

O'rta asrlar ma'naviy hayotida “xos” va “avom” tushunchalari keng urf bo'ldi. Ya'ni “xos ahli” yuksak kamolot bosqichlariga erishdi, ammo “avom” ko'p jihatdan ibrat bosqichida qolib ketaverdi. Tasavvufdagi murid va murshid munosabatlari ham ayni shu ma'naviy tengsizlikka ishora qiladi. Pirning ko'nglidan kechgani ko'pchilik muridlarga qanchalik ayon bo'lgan, yolg'iz Allohga ma'lum. Albatta, ma'rifat yo'llarida har kim iqtidoriga yarasha bir darajaga erishadi, ammo ma'naviy kamolot jamiyatda faqat tor doiraning o'z “ichki holati” miqyosida qolib ketaversa, umumijtimoiy o'zgarishlarga olib kelmasa, hayot uyg'unligi buziladi. Ma'rifat tarqatish yo'li bilan siyosat va iqtisod sohalarida ham umumijtimoiy o'zgarishlar sodir bo'lishiga erishish esa ma'naviyat ahlining mas'uliyatidadir.

Faqat xos ahliga tayanib erkin va hur jamiyat qurish qiyin. Oddiy mehnatkash ham faqat samimiy e'tiqod egasi bo'libgina qolmay, ilm va irfondan boxabar bo'lmog'i, o'zi yashayotgan jamiyatning balandpastini tushunib (iqtisodiy va huquqiy bilimlarni egallab), atrof voqelikka ongli va faol munosabatda bo'lmog'i, hozirgi til bilan aytganda, fuqarolik jamiyatining, haqiqiy demokratik tuzumning poydevoridir.

Allohga ming shukurlar bo'lsinki, mustaqillik sharofati bilan milliy ma'naviyatimiz sarchashmalaridan bevosita qonib-qonib obi hayot shimmog'imiz imkoni yaraldi. Bugun endi e'tiqod va ilm, iroda qudrati va mehr, Vatan va xalq, tabiat va bashariyat, bir so'z bilan aytganda, Oliy haqiqat oldidagi insoniy mas'uliyat bir butun mohiyat sifatida har bir shaxsning, har bir O'zbekiston fuqarosining ma'naviyatini tashkil etmog'i kerak. Milliy ma'naviy merosimiz bizga tabiat va millat, bashariyat va koinot oldidagi burch va mas'uliyatimizdan saboq beradi. Millat ma'naviyati o'z tarixiy shakllangan qiyofasiga ega, shu bilan birga mohiyatan umumbashariy qadriyatlarga aslo zid emas, balki muvofiqdir. Zotan, bashariyat asli bir ota-onaning bolalari emasmi? Ma'naviyatimizning asos qirralari – e'tiqod va ibrat (Sunna), ilm va

mantiqiy tafakkur (islom ma'rifatchiligi), haqiqat ishqiy yo'lida ruhiyat safarbarligi va iroda qudrati (tasavvuf va irfon), pok insoniy mehr va ijtimoiy faollik ("majoz tariqi") – bir-birini inkor etmaydi, balki bu-larning biri kimda kam bo'lsa, unda ma'naviy to'kislik bo'lmaydi.

Inson ma'naviyati ming bir sifat, behisob jihat va qirralar bilan jilolanadi: hayo va andisha, vafu va sadoqat, o'ktamlik va tashab-buskorlik, himmat va saxovat, jur'at va shijoat, oriyat va xoksorlik, bosiqlik va hilm, farosat va zakovat, balog'at va fasohat, mardonalik va mas'uliyat va hokazo... Xullas, jami insoniy fazilatlar ma'naviyat darakchilaridir. Ularning har biri orqali inson botiniy dunyosi haqida muayyan tasavvur hosil qilish mumkin. Ma'naviyatning o'zak tomiri esa Haqiqat ishqiy, meyor va uyg'unlikda ifodalanadi.

III qism.

INSON RUHINING BORLIQ HAQIQATI BILAN UYG‘UNLASHUVI YOKI OLIY MA‘NAVIY QADRIYATLAR

1-BOB. BORLIQ HAQIQATI VA MA‘NAVIY QADRIYATLAR. VATAN TUYG‘USI

1-fasl. Oliy ma‘naviy qadriyatlar – Vatan, shaxs, millat, adolat, haqiqat – inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg‘unlashuv bosqichlari sifatida

Yevropa ilmida aksiologiya fani bor. O‘zbekchaga uni qadriyatshunoslik deb tarjima qilishadi. Qadr tushunchasi asli mohiyatiga ko‘ra ma‘naviyatga aloqador. Chunki qadr tushunchasi faqat Borliq mohiyati bilan uyg‘unlikda shakllanadi. Butun olam yagona Tangrining maxluqidir, u tomonidan yaratilgan. Alloh bir zarrani ham behuda, be-maqсад yaratmaydi, demakki, mavjud Borliqdagi har bir ashyoning, narsa-hodisaning o‘z qadri bor. Ayni shu haqiqatni, ya‘ni Borliqdagi mavjud narsa-hodisalarning behuda yaratilmaganligi, har birining o‘z vazifasi, mavqe va maqomi bor ekanligini anglab yetish tufayli inson ongida muayyan qadriyatlar tizimi shakllanadi. Tabiiyki, bu tizim o‘ta murakkab ichki qurilishga ega, shu sababli har qanday nazariy yondoshuv o‘z maqsad yo‘nalishiga muvofiq ravishda ushbu tizimning muayyan unsurlariga birinchi darajali ahamiyat ajratadi.

Milliy ma‘naviyatimiz millatning o‘tmishi, buguni va kelajagini qamraydi, ularni yaxlit tizimda tutib turadi. O‘tmish ajdodlarimiz merosida aks etgan ma‘naviy qadriyatlar bugungi bashariyat erishgan ma‘naviy kamolot darajasi bilan uyg‘unlashtirilsa, mamlakatimizdagi voqe ahvolga tatbiq etilsa, undan kelajak kurtaklari unib chiqadi, kelajak unsurlari shakllanadi.

Ma‘naviyat – insonning, xalqning, jamiyatning kuch-qudrati bo‘lishi uchun, insonga botiniy quvvat bag‘ishlashga qodir manbaga aylanishi uchun inson ruhi Borliq haqiqati bilan uyg‘unlik hosil qilishi, ya‘ni boqiy mohiyat bilan tutashuvi kerak bo‘ladi. Lekin shu uyg‘unlik qanday shakllanadi, uning muayyan pog‘onalari, idrok etish darajalari haqida so‘z yuritish mumkinmi? Biz islom mintaqa madaniyati doirasida milliy ma‘naviyatimizning takomil bosqichlaridan kelib chiqib, ular

bilan uyg'un ravishda Borliq haqiqatini anglash jarayoni bo'lmish ma'rifat yo'llari haqida muayyan tasavvur hosil qildik. Ulardan — ibrat, ilm, riyozat va mehrni alohida ajratib ko'rsatdik. Ammo bular Borliq haqiqatini anglash sari olib boradigan yo'llar, xolos. Borliq haqiqatini anglash darajalari, inson ruhining Borliq haqiqati bilan tobora uyg'unlashuviga eltuvchi pog'onalar emas. Borliq haqiqati cheksiz, inson uni hech qachon tugal anglab yeta olmaydi. Ammo insoniyatning necha mingyillik ma'naviy kamolot tarjibasi behuda ketgan, deb tasavvur qilish ham gumrohlik bo'lur edi. Ming yillar davomida inson Borliq haqiqatini anglash sari intilar ekan, qandaydir natijalarni qo'lga kiritgani shubhadan holidir. Ana shu qo'lga kiritilgan ma'naviy qadriyatlar majmuyini muayyan yaxlit tizimlar pog'onadorligi sifatida tasavvur qilsak, Borliq haqiqatini anglash darajalari, Inson ruhining Borliq haqiqati bilan tobora uyg'unlashuv bosqichlari ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Albatta, bu tizim ham har qanday inson bilimlari kabi nisbiydir, ko'proq o'zimizning milliy ma'naviyatimiz an'analariga tayanib shakllantirilgandir. Balki boshqa millat, boshqa mintaqa vakillarining tasavvurlari boshqacharoqdir. Hatto o'zimizning milliy an'analarimizni ham har kim o'zicha tasavvur qilishi mumkin. Alisher Navoiy hazratlari yozganlaridek, Haqiqat yo'llari hadsiz-hududsiz.

Biz ushbu qismda Prezident asarlarida bayon etilgan mulohazalarga tayanib, ularning ajdodlarimiz yaratgan boy meros va xalqimiz tilida, dilida, maqol va matallari, urf-odat va an'analarida saqlanib kelayotgan milliy ma'naviyatimizning bosh tamoyillarini teran aks ettirishlaridan kelib chiqib, Shaxs va millat ma'naviy kamolida besh ulug' ma'naviy qadriyatni ajratib oldik. Bular — **Vatan, Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat** deb ataldi. Bularning har biri bir paytning o'zida ham Millat ma'naviyatining bosh tayanchlari, ham ularning har biri alohida bir tizim, murakkab ichki mundarijali ma'naviy timsol — tushunchalardir.

Ma'naviyat haqida bahs yuritilar ekan, o'zak tushuncha Shaxs ekanligi shubhasiz. Ma'naviyat asli shaxsdan tashqarida bo'lmaydi, chunki u inson qalbida aks etgan ilohiy nur, Oliy haqiqat nuri. Ilohiy oyatga tayanuvchi bu majoziy ta'rif milliy ma'naviyatimiz takomil bosqichlari davomida shakllangan va turlicha tarzda qator allomalimiz merosida o'z ifodasini topgan. Biz uni hozirgi zamon ilmiy tiliga ko'chirib, inson ruhiyatida aks etgan Borliq haqiqati, yanada aniqrog'i Inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg'unlik deb ta'rifladik.

Ammo shunga qaramay, tan olish kerakki, har bir shaxs muayyan makonda tug'iladi va hayot kechiradi. Uning ruhiyati ushbu makonda shakllanadi, shu o'lka unga Vatan sanaladi, ko'ngil dunyosida unga ma'naviy munosabat yuzaga keladi. Dilida Vatan tuyg'usi shakllanmagan insonni hali shaxs sifatida tasavvur etish qiyin. Demak, shaxs ma'naviy kamoloti avvalida o'z kindik qoni to'kilgan zaminga mehr, uning ruhidagi ona tabiat bilan uyg'unlik yotadi.

Ma'naviyat muayyan shaxsdan tashqarida bo'lmas ekan, millat ma'naviyati ham aslida ushbu millatga aloqador alohida shaxslar ma'naviyatidan tashqari emasdir. Ma'naviyatning bepoyonligi alohida shaxs ma'naviyatining behududligi bilan bog'liq. Inson ruhiyati cheksiz jilolarga ega, Borliq haqiqati asli behudud, demakki, har bir shaxs ma'naviyati ikki karra bepoyon va cheksizdir. Millat ma'naviyati ushbu millatga qaysidir bir tarzda aloqador shaxslar ma'naviyatining majmuyidir. Ana endi 3 karra cheksizlik hosil bo'ldi.

Millat ma'naviyatini ushbu millatga aloqador shaxslar ma'naviy dunyosi majmuyi tashkil etadi, dedik. Ammo ular soni cheksiz, chunki millat ma'naviyati uning butun o'tmishi, buguni va kelajagini qamrab oladi. O'z navbatida bugun ko'z ochib dunyoni ko'rib turgan barcha inson u yoki bu muayyan millat ma'naviyatidan tashqarida bo'la olmaydi. Masalaning murakkabligi shundaki, hech bir inson o'zi mansub millat ma'naviyatini ota-onadan qon bilan, irsiy qabul qilib olishi kafolatlanmagan. Agar o'zbek to'lig'icha rus madaniyati muhitida tarbiyalansa, uning ruhida o'sha millat ma'naviyati shakllanadi. Chunki har bir shaxs ma'naviyati ushbu inson tarbiya topgan ma'naviy muhit bilan bevosita aloqadordir. Demak, shaxs ma'naviy to'kisligining ikkinchi nishonasi uning o'z milliy ma'naviyatiga aloqadorligi, uni qay darajada ruhiga singitib olganligi bilan bog'liq ekan. Albatta, Vatanga mehr endi milliy ma'naviyatning ham uzviy qismi ekanligi o'z-o'zidan ravshan.

Inson Vatanni tanidi, millatni suydi. Bo'ldimi? O'z shaxsiy manfaatidan o'zgani tan olmaydigan, his qilmaydigan odam — sof jaholat bandasidir. Ammo milliy xudbinlik ba'zan shaxsiy xudbinlikdan ko'ra xavfliroq bo'lishi mumkin. Bunga ham bashariyat tarixida istagancha foje hodisalar guvoh. Ayniqsa, Yangi tarixda. O'zgani sevisgacha hech kimni majburlab bo'lmaydi. Ammo inson ruhida doimo adolat tuyg'usi hukmron bo'lmog'i kerak. Bu — ayni ma'naviyat. Buni aslida uchinchi o'ringa qo'yish ham durust emasdir. Ammo adolat yuzasidan qayd etish kerakki, dilida Vatan tuyg'usi bo'lmagan, o'z millatini suymagan

inson o'zgalarga nisbatan sidqidildan adolatli bo'lishiga ham bovar qilmaydi.

Shu bilan birga inson ruhida tabiatga nisbatan, o'zgalarga nisbatan mehr va adolat tuyg'ulari shakllanishi uchun uning moddiyligi, undagi nafs, ya'ni g'aflet, shahvat va kibr doimo xalaqit berib turishini ham inobatga olib, hayotga sergak boqish lozim. Ushbu illatlar har bir inson fitrati bilan bog'liq bo'lgani tufayli, inson moddiy mavjudot sifatida tirik ekan, ulardan butkul qutulish umidi xomxayol, faqat ularni muvozanatlovchi kuch kerak, ayni shu kuch — ma'naviyatdir. Ma'naviyat — inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg'unlik dedik, ya'ni inson ruhi Borliq haqiqatini anglab yetsagina, o'ziga singdirsagina u bilan uyg'unlik hosil qila oladi. Demak, eng oliy poya — Haqiqat. U Borliqning mohiyatidir. Borliq haqiqati haqidagi har kimning, har millatning tasavvurlari turlicha bo'lishi tabiiy. Bir kishi barchaning ko'nglini bila olmaydi. Ammo bizning suhbatimiz milliy ma'naviyatga oid bo'lgani bois Borliq haqiqati haqidagi tasavvurlarni ham ushbu hududda qidirganimiz mantiqan o'rinli deb hisobladik.

Ma'rifat ma'naviy kamolot yo'li sifatida alohida shaxs ruhiga aloqador jarayon, millat ma'naviyatida esa ushbu jarayonni ta'minlovchi usullar, vosita va imkonlar haqida so'z yuritish mumkin. Iroda qudrati, irfon va riyozat, mehr bevosita shaxsning fardiy (individual) tajribasiga ko'proq aloqador bo'lgani sababli, biz asosan ilm yo'lidan borib mulohaza yuritishimizga to'g'ri keladi. Oldindan aytib qo'yish kerakki, Vatan yoki Adolat tuyg'usi haqida ushbu kitobda yozilganlarni o'qib chiqqan odam darhol Vatanning qadriga yetadigan yoki adolotga xiyonat qilmaydigan bo'lib qoladi deb tasavvur qilish ilm qudratiga oshiqcha bino qo'yish bo'lur edi. Har bir inson Vatan, Millat, adolat timsol-tushunchalarining o'z ruhidagi poydor ma'naviy qadriyatlarga aylanishi uchun o'zgalar ibratida sinashi, bu yo'lda riyozat chekishi, ularga nisbatan ko'nglida mehr uyg'onishi zarur. Bunga turli sabablar, turli vositalar bilan erishiladi. Biz tuzgan matnlar esa faqat ta'lim vositasi xolos.

2-fasl. Vatan tuyg'usi — Oliy qadriyat. Milliy ma'naviyatimizda «Vatan» timsol-tushunchasining ma'no jilolari

Hanuz xotiramizda, mustaqilligimizning ikkinchi yili Prezident *«O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li»* risolasini e'lon qildi.

Ushbu kitobning alohida bobi «*Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy – axloqiy negizlari*» deb nomlangan bo'lib, unda sanab o'tilgan 4 negizning biri «vatanparvarlik» edi.

Darhaqiqat, har bir shaxs uchun o'zlikni anglashning ibtidosi vatan tuyg'usidir. Bu muqaddas tuyg'u haqida sanoqsiz kitoblar yozilgan. Vatan tushunchasi keng qamrovli, ko'p ma'noli tushuncha. Inson o'z kindik qoni to'kilgan, tug'ilib o'sgan diyorini Vatan deydi, ammo har bir inson bu tushunchaga o'z ma'naviy kamolot darajasiga ko'ra qamrov beradi. “O'z uyim – o'lan to'shagim”, deydi birov, boshqasi tug'ilgan shahar yoki qishlog'ini Vatanim, yurtim, deydi. Ammo qanday talqin etilmasin, muhimi, vatan tushunchasi ma'naviy munosabatni bildiradi, ya'ni u ma'naviy qadriyatdir, vatan tuyg'usi inson ma'naviy kamoloti darajasidan xabar berguvchi ilk muhim nishonadir.

Vatan tushunchasi ma'naviy qadriyat sifatida inson ongida har xil tajassum topadi, vaziyatlardan kelib chiqib, turlicha talqin etiladi. Agar ularning barchasi nazarga olinmasa, qiyosiy tahlildan o'tkazilmasa, yosh avlod ruhiga singimaydi, oddiy bir shior darajasida qolib ketaveradi. Qani, milliy ma'naviyatimiz an'analarida Vatan deganda kim nimani tushunadi – bir ko'zdan kechiraylik-chi?

Avvalo, tasavvuf shayxlari – naqshbandiya pirlari nazdida ruh uchun badan – Vatan. «Safar dar Vatan» deydi hazrati Bahouddin ustozlar izidan borib. Ya'ni inson ruhi badanni, moddiy vujudni tark etmagan holda Haq bilan birlashuvi, ko'ngil ko'zqusini poklab, unda haq jamoli aks etishiga erishuvi lozim. Bu Tavhid e'tiqodining bosh talabidir. Inson Alloh tomonidan moddiy vujud sifatida yaratilgan, uni moddiy ehtiyojlarsiz tasavvur etish mumkin emas. Faqat inson o'z vujudini pok saqlashi kerak. Shu nuqtayi nazardan tahorat shunchaki rasmiyatchilik emas, balki poklanishning ibtidosi, boshlanishidir. Inson o'z vujudini, undagi har a'zoni pok saqlashga, ehtiyot qilishga Haq oldida mas'uldir. Ajdodlarimiz bu masalaga alohida e'tibor berishgan. Nopok vujudda pok ruhni tasavvur qilib bo'ladimi?

Xalqimiz «falonchi vatanli bo'libdi, o'ziga bir vatan solibdi» deydi. Bu endi Vatan so'zining ikkinchi ma'nosi – turarjoy, obod maskan, har bir inson ahli oilasi bilan panohtopuvchi go'sha. Modomiki, inson moddiy vujud ekan, bir obod go'shaga, ahli xonadon bilan istiqomat qiluvchi muayyan makonga ehtiyoji bor. O'zbek doimo bu ma'nodagi vatanga e'tibor ajratib kelgan, qayerda qo'nim topsa, o'sha yerni obod qilgan, bolam-chaqam deb imorat solgan, bog', chorbog' yaratgan.

Uyi yo'q odamga Vatan mehri haqida gapirib ko'ring. Agar u fidoyi bo'lsa, demak, millat uning qadriga yetmapdi, agar dangasa, uquvsiz bo'lsa, demak, o'z qadrini o'zi hali anglamabdi. Xalq so'qqabosh odam haqida «bedananing uyi yo'q, qayga borsa bitbildiq» deydi. Shunday ekan, uy-joy solish, birinchi navbatda, insonning yolg'iz o'zini o'ylashi emas, balki ahli oilasi, farzandlari haqida qayg'urishi, demak, mehr mas'uliyatining dastlabki tetapoyalaridir.

Vatan tushunchasining yanada kengroq talqini – har bir inson uchun o'z tug'ilib-o'sgan diyori, o'lkasi, qishlog'i, shahari, qasabasidir. Inson o'z kindik qoni to'kilgan yurti – qishlog'i, shahariga nisbatan alohida mehr tuyadi, undan uzoqlashsa, intiladi, sog'inadi. O'zga shaharda hamqishlog'ini ko'rsa, qarindoshini ko'rgandek bo'ladi, unga talpinaadi. Bu – tabiiy tuyg'u.

Urug'-jamo'a, ilk shahar jamoasi davrida, darhaqiqat, tug'ilgan qishlog'i, unib-o'sgan shahari insonga Vatan bo'lgan. Shaxs bo'lib shakllanayotgan ma'naviyat egasi, o'z shahri, qishlog'i, ovulini Vatan deb bilgan. Ammo bu holat milliy ma'naviyatimizning 5–3 ming yil avvalgi kamolot darajasidir. Bugungi avlod o'sha 3 ming yil ilgari yutuq hisoblasa bo'ladigan darajada qolib ketsa nima bo'ladi? Bugun mening Vatanim Qo'qon yo Samarqand, Qarshi yo Namangan emas, balki O'zbekiston atalmish mustaqil yurt, mustaqil mamlakatdir. Har kim o'zi yashab turgan qishlog'i, shaharining har bir ko'chasini, har bir guzarini, arig'i anhorini, suvi havosini pok tutishga intilmog'i, shunga hissa qo'shmog'i ham farz, ham qarz. Ammo Vatan tushunchasi tom ma'noda o'zi fuqaro bo'lib hisoblangan mamlakatga taalluqli ekanini bir zum unutmasligi kerak. Mahalliychilik, oila, qarindosh-urug' manfaatlarini xalq va millat maanfatlaridan ortiq qo'yish, ularni zidlashtirish ma'naviy noqislik nishonalaridir.

Nega Vatan tushunchasining bosh ma'nosi mamlakat, milliy davlat bilan bir keladi? Chunki, bunda ona zamin va millat tushunchalari birlashadi, uyg'unlashadi. Millat tuyg'usi bo'lmagan insonda o'z oilasi, tug'ilib o'sgan shahar-qishlog'iga intilish bo'lishi mumkin, ammo tom ma'nodagi Vatan mehri bo'lmaydi, fidoyilik darajasidagi Vatan tuyg'usi unga yot bo'ladi. Millat tuyg'usi Vatan tuyg'usi bilan birlashgan joyda haqiqiy Shaxs vujudga keladi, ma'naviy kamolot, yuksak mas'uliyat hissi shakllanadi.

Vatan mehri oliy qadriyatdir. Bugungi kunda Ona sayyora barcha bani basharga yagona Vatan ekanligini, uni pok saqlash, uning boylik-

larini asrab-avaylash insoniyat uchun hayot-mamot masalasiga aylanib borayotganligini barchamiz sezib turibmiz. Ammo, baribir, o'z Vatani sevmagan, millatining qadriga yetmagan inson o'zganing ham, bashariyatning ham, kurrayi zamın obodligining ham qadriga yetishiga ishonish qiyin. Vatanga sadoqat haqiqatga sadoqatning, millatga mehr ahli basharga mehrning ibtidosidir. Busiz na adolat g'alaba qiladi, na haqiqat yuzaga chiqadi, na insonning o'z shaxsiga ehtiromi shakllanadi. Vatan mehrini yo'qotgan shaxs oyog'i ostidagi zaminni yo'qotadi, bo'shliqda muallaq qoladi. Vatanga muhabbat ajdodlar merosiga qiziqish, milliy ma'naviyatdan bahramandlik, o'z shaxsiy salohiyatiga ishonch, umumbashariyatga hurmat, kelajak oldida mas'ullik tuyg'ularini tarbiyalaydi. Mustaqillik ma'naviyati Vatanga muhabbatdan, millat manfaatlariga sadoqatdan boshlanadi, har bir shaxsning o'z ichki imkoniyatlarini Vatan manfaati yo'lida unumli rivojlantirishi bilan namoyon bo'ladi. Unda milliy ma'naviy merosdan mukammal bahramandlikka intilish umumbashariy qadriyatlardan og'ishmaslik, o'zga millatlar madaniyati, o'zga mintaqa va o'lkalarda erishilgan ilg'or tajribalarini ijodiy o'zlashtirish ishtiyoqi bilan uyg'unlikda to'laqonli tajassum topadi. Bir so'z bilan aytganda, haqiqiy imon Vatanga mehrdan, Vatan va millat, mamlakat va xalq oldidagi yuksak mas'uliyat hissidan boshlanadi.

Vatan pokligini saqlash, Vatanni turli g'arazli kirdikorlardan muhofaza qilish, Vatan manfaatlarini, millat manfaatlarini teran anglab yetib, kelajak avlodga — farzandlarimizga ozod va obod Vatanni meros qoldirish uchun barcha iste'dod va imkoniyatlarimizni ishga solish — bizning Haq oldidagi eng ulug' mas'uliyatimiz emasmi?

3-fasl. Insonning moddiy borliqqa ma'naviy munosabati. Ekologik muammolarning hal etilishida ma'naviyat omili

Vatan mehri mavhum tuyg'u emas. U Vatan oldidagi mas'uliyatdir, uning kelajagi, obod va farovonligi yo'lidagi fidoyi mehnatdir, ona tabiatga e'zozli munosabatdir. Zero, qadam bosib turganimiz ona tuproq bo'lmasa, qaysi Vatan haqida so'zlash mumkin.

Bugungi kunda har bir shaxs o'zini inson sifatida tabiatning boshqa mavjudotlaridan ajratadi, muayyan millat vakili sifatida boshqa xalqlar va elatlardan farqini sezadi va, nihoyat, ahli bashar sifatida o'zga insonlar bilan umumiy jihatlari, ona sayyoraning ongli farzandi sifatidagi huquq va mas'uliyatlari haqida bosh qotiradi. Tabiat oldida har

bir alohida shaxs mas'uldir, chunki u yer yuzidagi xalifadir, har bir elat va millatning o'zi yashab turgan tabiiy makon — Ona Vatani oldida mas'ulligi bor, ammo, baribir, biz yashab turgan yer kurrasi yagona makon va maskanimiz ekan, ahli basharning uning oldidagi mas'ulligi ham yaxlitdir. Bugungi inson ahlining qudrati qarshisida tabiat ojizlanib qolganligi — umumbashariy muammo va umumbashariyat uchun tahlikali vaziyatdir. Aql — ma'naviyatga daxldor, ammo ma'naviyat aqldan iborat emas. Ma'naviyat muvozanatni saqlay bilishdadir va aqlning bugungi qudrati inson ma'naviyatining o'zga jihatlariga ham jiddiy e'tiborni taqozo qiladi. Zotan, aql va xudbinlikning birlashuvi yaxshilikka olib bormaydi. Buni insonning tabiatga munosabati doirasida ko'rib chiqaylik.

Bepoyon koinot miqyosida inson zoti istiqomat qilib turgan yer kurrasi kichik bir zarra, xolos. Shu jihatdan qaraganda, sayyoramiz ahli bashar uchun yaxlit Vatandir. Odam Ato va Momo Havoning farzandlari bugungi kunda taqdir taqozosi bilan turli millat va elatlarga bo'linib, turli o'lkalarga sochilib ketmishlar. Jumladan, turkiy elatlarning asl ota yurti Turkiston yangi asr boshlarida bolshevizm "dohiy"larining g'arazli nayranglari oqibatida parchalab tashlandi. Bugungi voqelik ushbu o'lkada bir qator mustaqil davlatlarning shakllanganligi bilan ifodalanadi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo deb atalayotgan ushbu mintaqaning qoq markazidan joy olib turibdi.

"O'zbekiston" nomi bugun ham jug'rofiy hudud, ham jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosi bo'lmish siyosiy birlik, ham ushbu diyorning barcha aholisini qamrab oluvchi yaxlit ijtimoiy voqelikni anglatadi. Ana shu Vatan uchun borlig'ini bag'ishlamagan o'zbek — o'zbek emas. Ammo hamma gapni birdan aytib bo'lmaydi. Biz suhbatni, birinchi navbatda, o'zimiz istiqomat qilib turgan atrof-voqelik, tabiiy muhit, ya'ni ona yerga munosabatdan boshlaganimiz durust. Inson ma'naviyatining birinchi o'lchovi uning ona zaminga, tabiatga munosabatidir, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Eslab o'tish joizki, tabiat, moddiy borliq ham, ma'naviy mohiyat ham bir manbaga — Xalloqi olamning qudratiga tutashadi, o'shaning hosilasidir. Hayotda asli juda oz miqdorni tashkil etuvchi dahriylargina haqdirlar, ilohiy qudratga ishongan dunyo ahlining ko'pchiligi esa yanglishadi, degan aqida nimalarga olib kelganini ko'rdik. Ko'pchilikning ziddiga ish qilish emas, ko'pchilikni tushunishga intilish xayrli amal ekanligiga iqror bo'lish paytimiz keldi. Zotan, ulug' ajdodlarimiz shu

yo'ldan borganlar, milliy ma'naviyatimiz shuni taqozo etadi. Ajdodlarimiz aqli va salohiyatini inobatga ollsak, ular bu dunyoni "suvrat" deb, "majoz" deb, "ko'zgu" deb ataydilar. Darhaqiqat, inson dastlab ko'z ochgach, dunyo, atrof-tabiatni ko'zgu singari qabul qiladi, undan o'zini izlaydi, o'zini tabiat orqali anglab yetishga intiladi. Xuddi ana shu davrdan milliy ma'naviyat shakllana boshlaydi. Har bir elat, har bir xalq doimiy istiqomat qiladigan makon o'zga o'lkalardan nimasi bilanidir farq qiladi, ajralib turadi. Turkiy elat yashagan tabiat sharoiti, albatta, tarixda doimo bir tusda bo'lmagan, turkiy qavmlar Volga va Oka bo'ylari, Shimoliy Kavkaz, Bosfor ko'rfazi qirg'oqlari va Onado'lida, Erondagi Urmiya ko'li va Kavkaz ortidagi Kuba vodiysi, Xuroson va Turonning obod vohalari, Tangritog' etaklari, Irtish va Enasoyini o'rab turgan quyuq o'rmonlar bag'rida, O'rxun va Yoyiq daryolaridan suv ichgan dasht-u dalalarda hayot kechirganlar. Ammo G'arbiy Mo'g'ulistondan Azov dengizigacha, O'rol tog'laridan Shimoliy Afg'onistongacha cho'zilgan ulug' bir sarhadning ko'pchilik qismida quyosh nuri mo'l, Allohning obi rahmati tanqisroq, yaylovlar behudud, tabiiy o'rmonlar siyrakroq, cho'l va sahrolar bepoyon, vodiy va vohalar noyobroq, tog'lar baland, ammo abadiy muzliklar kamroq saqlangandir. Shular barchasi bir bo'lib insonning tabiatga munosabatida o'ziga xos qadriyatlar tizimini shakllantirgan. Ajdodlarimiz obi hayot atalmish suvni, bizni boquvchi ona zamin tuprog'ini, quyosh va uning inson qo'lga o'rgangan parchasi – olovni muqaddas sanab e'zozlaganlar. Sababi, xuddi shu tabiatning asos unsurlari inson hayotini ta'minlovchi bosh omillar ekanligi necha mingyillik hayot tajribasidan ularga ayon bo'lgan.

Demak, inson tabiat, atrof-muhitni tushunishga intilish va u bilan amaliy munosabatlarga kirishish jarayonida o'z moddiyligini ta'minlab va o'zligini tanib borar ekan, inson va tabiat orasidagi munosabatlarining ma'naviy jihatlari haqida so'z yuritish o'rinlidir.

Inson o'zlikni anglash jarayonida ma'naviy kamolotga erishadi. Is-lomgacha bashariyat erishgan ma'naviy muvozanat asotir tafakkur darajasida bo'ldi. Asotir idroki ilmiy idrokdan jiddiy farq qiladi. Insonning tabiat bilan dastlabki munosabatlari faol moddiy munosabatlar bo'lib, yaxlit asotir tafakkur tizimi ushbu munosabatlarning necha mingyillik tajribasi natijasida shakllandi. Bu tizim "Avesto" kitobida, Gerodotning "Tarix"idagi ma'lumotlarda, qadim turkiy bitiklarda, xalq yaratgan og'zaki adabiyot namunalari, maqol va matallarda o'z ifodasini topgan.

“Avesto” kitobida tabiatga munosabat ikki jihati bilan namoyon bo‘ladi. Biri – tabiat unsurlarini muqaddaslashtirish, ikkinchisi – insonning tabiat bilan moddiy yaratuvchilik munosabatlarini muqaddaslashtirish. Masalan, Ardivisuraga bag‘ishlangan beshinchi yashtda suv ulug‘lanadi, uning don undirishi, chorva tashnaligini qondirishi, inson boyligiga baraka keltirib, mulkini ko‘paytirishi, o‘lkalarni gullab-yashnatishi tilga olinadi. Ammo bu suv mavhum tushuncha shaklida emas, to‘lib oqayotgan ulkan daryo timsolida namoyon bo‘ladi. Zaratushtra makoni qadim Xorazm ekanini yodga olsak, qut-baraka manbai hisoblangan bu azim daryo Amudaryo (Jayxun, O‘ko‘z daryosi,”Avesto”dagi nomlanishi “Doytiya”)dir.

“Avesto” matnlari murakkab mazmunga ega. Birgina ushbu alqov (yasht) mazmunini to‘liq olib tahlil eta boshlaganda necha qabat mazmunlar silsilasi ochila boshlaydi. Biz faqat eng qadimiy mazmun qabatiga nigoh tashlab o‘tdik. Umuman, “Avesto” mazmunini inson ma‘naviy takomili nuqtayi nazaridan tahlil etish nihoyatda qiziqarli xulosalarga imkon berishi shubhasiz.

Gerodotning “Tarix” asaridagi qadim asotirlarni turkiy bitiklar bilan qiyosiy o‘rganish osmon, yer va inson munosabatlari tarzida aks etgan “tabiat (yer) – inson – ma‘naviyat (osmon)” uyg‘unligini ajdodlarimiz qanday his etganligidan xabar beradi.

*“Yuzada ko‘k tangri
Ostida qora yer qilindi,
Ikkisiaro kishi o‘g‘li qilindi” –*

deb boshlanadi Kultegin katta bitigi¹. “Irq bitik”da ham inson o‘z taqdirini tabiat ko‘zgasidan qidiradi.

Islomgacha turkiy bitiklarda milliy tafakkur, yunonlarda mantiqiy tafakkur shakllana boshladi. Ammo islomgacha shakllangan falsafiy tafakkur tarkibida asotir tafakkur unsurlari kuchli ta‘sir qudratini saqlab qolgani o‘sha davr matnlarida ochiq namoyon bo‘ladi (masalan, Platonning “Ideyalar dunyosi”, yoki “Avesto”dagi turli moddiy hodisalar mohiyati bilan bog‘liq “iloha”lar).

¹ A.Qayumov. Qadimiyat obidalari. T., 1972, 139-b

4-fasl. Tabiatga mulkiy munosabat. Uning ma'naviy jihatlari

Islom davriga kelib insonning tabiatga munosabatida yangi bosqich boshlandi. Qur'oni karimning nozil bo'lishi asotir tafakkurga oxirgi hal qiluvchi zarba bo'ldi. Odam Ato avlodlari yer yuziga xalifalik mas'uliyati bilan yaratilganliklari haqida aniq xabar berildi. Bu inson tafakkurining yangi rivojlanish darajasiga muvofiq keluvchi ma'naviy vazifa bo'lib, endi faqat yaratuvchilik mehnati bilan faxrlanish, yer, suv, olovni e'zozlash kifoya qilmas edi.

Islom mintaqa madaniyatida asta-sekinlik bilan inson ongidagi asotir tafakkur unsurlari ilmiy va badiiy tafakkur qudrati bilan siqib chiqarildi. Asotir tafakkur o'rnini ilmiy tafakkur mustahkam va asosli egallay boshlaganligi sababli endi atrof-voqelik bilan munosabatlarni ham ilmiy asosga qo'yimoq taqozo etilardi. Bu mas'uliyatni to'kis-tugal anglab yetish osonlikcha kechgani yo'q. Bu davrdagi insonning tabiatga munosabatida bir necha yo'nalishni tilga olib o'tish lozim.

Birinchisi, tavhid ta'limotidan kelib chiqqan holda inson o'zini tabiatning uzviy bir qismi sifatida anglab yetishi bo'lib, bu holat tafsilotlarining tahlili asosan islom ma'rifatchiligi vakillari tomonidan amalga oshirildi.

Ikkinchisi, insonning yer yuzida xalifaligi, ya'ni insonning tabiat sohibi ekanligi masalasi. Bu masala mulk munosabatlari bilan bog'liq ravishda islom davrida asosan fiqh ilmi allomalarning diqqat markazida bo'ldi. Yerga, suvga, ma'danlarga insonning mulkiy munosabatlari darajasi bu yo'nalishdagi muhim muammolardan bo'lib, vaqf masalasida bevosita ma'naviyat va iqtisod nisbatiga oid masalalarga tutashib ketadi.

Qur'oni karimning "Mulk" surasi shunday boshlanadi: *"Taborak-al-lazi bi-yadihi-l-mulk va huva ala kulli shay'in qodiyr"* (Abdulaziz Mansur tarjimasida: "(Mutlaq) hukmronlik "qo'li"da bo'lgan zot – Alloh barakatli (buyuk)dir va U har narsaga qodirdir"). Bu yagona Allohning sifatidir. Butun borliqni u vujudga keltirgan, demak, borliq uning tasarrufidadir. Inson esa – uning yer yuzidagi xalifasi. Har bir insonning moddiy borliqni tasarruf etish huquqi ushbu mantiq asosida belgilanadi. Adolat har bir shaxsning unga Alloh ato etgan qudrati va salohiyatiga yarasha, mehnatiga loyiq mulk egasi bo'la olish huquqidadir. Inson o'zi yaratmagan, o'zi yarata olmaydigan narsalarga mutlaq egalik qilishi joizmi? Albatta, uning mehnati va salohiyati bilan yaratilgan

narsalar uning inon-ixtiyoridan tashqari o'zgarlar tasarrufiga zo'rlik yoki tazyiq bilan o'tkazilishi adolatsizlikdir. Tabiiy boyliklar esa Yaratgan-ning mulki, muqaddas mulk. Yer, suv, qazilma boyliklar, tabiiy o'rmon va hokazolar Xalqoq olam tomonidan o'sha zaminda yashovchi aholi foydalanishi uchun yaratilgan bo'lib, davlat qonunlari va xalqaro kelishuvlar asosida tasarruf etilmog'i lozim. Tabiatni o'zbochimchalik, zo'ra vonlik va tazyiq yo'li bilan inson ehtiyojiga moslashga urinish o'ta xavfli tamoyildir.

Tabiiy muhitga avaylab-e'zozlab munosabatda bo'lish, yer, suv, havo pokligi faqat biz uchun, bugungi avlod uchungina emas, necha mingyillik kelgusi avlodlar uchun ham atalgan ekanligini nihoyatda hushyorlik bilan yodda tutish, demakki, o'ta qat'iy qoidalar bilan muhofaza qilish lozimligi milliy ma'naviyatimizning tabarruk an'analaridandir. Yerdan, suvdan oqilon foydalanish zarur — ma'lum hudud yoki daryo, soy, ko'l, dengiz xususiy mulk bo'lishi, ya'ni to'lig'icha yakka bir shaxs inon-ixtiyoriga o'tib, obod-u vayronligi uning irodasi, xohishiga mutlaq bog'liq bo'lib qolishi Borliq haqiqatiga ziddir. Hatto davlat yoki umumxalq mulki deb hisoblanishi ham shartli holat. Shu ma'nodaki, hech bir davlat, hech bir xalq o'z kelajak avlodini, kelajak insoniyatni Alloh yaratgan tabiiy imkoniyatlardan mahrum etishga haqqi yo'q. Har kim bir narsani yaratsa, o'sha uning mulki bo'lsin — xohlasa sotsin, xohlasa buzib tashlasin. Ammo shunday deymiz-u, bu qoida hatto buyuk iste'dodlar qudrati bilan yaratilgan boyliklarga ham to'liq daxldor emas. Chunki iste'dod Alloh in'om etgan ne'matdir, demak, bu iste'dod mevasi ham o'z qiymati, ahamiyatiga ko'ra kamida umum-milliy, ko'p hollarda umumbashariy mulkka aylanadi. Demak, na uni yaratgan inson, na boshqalar bu mulkka shikast yetkazishga huquqli bo'lmay qoladi. Iste'dod egasining bashariyat oldida, Alloh oldida alohida ma'naviy mas'uliyati mavjud. U o'z iste'dodini Allohning ne'mati sifatida qadrlashi, uni botil xayollar ixtiyoriga berib qo'ymasligi, bepisand munosabatda bo'lmasligi kerak. Har kim o'zidagi yashirin iste'dodni izlashi, topishi, tarbiyalab kamolga yetkazishi, millat va bashariyat ma'naviy ravnaqi uchun hissa bo'lib qo'shiladigan voqe boylikka aylantirishi vojibdir. Iste'dod egasi el e'zoziga loyiq. O'z iste'dodlarining qadriga yetmagan xalq esa, shubhasiz, tanazzulga yuz tutadi.

Uchinchi muhim jihat insonning tabiat oldidagi mas'uliyati va tabiatga mehr masalasi bo'lib, bu muammo "Avesto"da asotir darajasida

hal qilingan bo'lsa, islom davriga kelib ko'proq badiiy tafakkur ixtiyoriga o'tdi va "majoz tariqi" bosqichida mukammal hal qilindi. Yangi davr Yevropasida, ayniqsa, marksistlar tafakkurida, ilm va imon, aql va tuyg'u, mulk va mehnat, moddiyat va ma'naviyataro ziddiyat, kurash yetakchi o'rin egallab, faqatgina ijtimoiy taraqqiyotni inqiloblar orqali amalga oshirish emas, balki tabiatni ham o'zboshimchalik, zo'ravonlik va tazyiq yo'li bilan inson ehtiyojiga moslash harakati rasm bo'ldi. Islom mintaqasida allomalarimiz uyg'unlik va yaratuvchilikni birinchi o'ringa qo'yib, o'zini va o'zgan tushunishga intilish, jumladan, tabiat va inson munosabatlarini asl mohiyatiga muvofiq anglab yetib, shunga yarasha muomalani shakllantirishga intildilar.

Navoiy nazdida tabiatning biror unsuriga ongli ravishda zarar yetkazish Allohga xiyonat darajasida tushunilar edi. Shu ma'noda Vatanga xiyonat ham faqat jang paytida dushman tarafga o'tib ketish emas, birinchi navbatda, ona yer, suv, havo, tuproqni qadr etmaslik, ularni bulg'ash, millat mulkiga ziyon yetkazish, avlodlar haqqiga xiyonat qilishda deb anglangan. Milliy ma'naviyatimiz uchun tabiatga munosabatda Yangi davrga o'tish bosqichining Navoiydan keyingi rivojini nazariy jihatdan Bedil merosidan va amaliyotda Milliy uyg'onish namoyandalari faoliyatidan qidirish maqsadga muvofiq bo'lsa kerak. Mana shu tabarruk ta'limlar bugunimiz uchun ham ma'naviy tarbiyaning ibtidolari hisoblanmog'i kerak. Shundagina Vatan obod, inson ruhi pok va barkamol bo'la borishi mumkin.

2-BOB. INSON VA SHAXS

1-fasl. Inson qadri va shaxs mas'uliyati

Inson va maymun orasida qanday farq bor? Marksizm asoschilari taxminiy mulohazalarga tayanib, maymunni bevosita insonga ajdod qilib ko'rsatdilar. Bu faraz na mantiqiy, na ilmiy-amaliy ishonchli dalillar topmadi. Ammo shunday bo'lsa ham biz Allohning bu ikki maxluqi orasida muayyan nisbat bor deb o'ylaymiz. Maymun Allohning xalifasi bo'lmish insonga ibrat uchun yaratilgan. Darhaqiqat, ular — o'xshash. Qo'l, oyoq, bosh... Yirik maymunlar jussasi ham, ikki oyog'ida yura olishi ham insonga monand. Faqat maymun har qanday hayvonot dunyosining vakili kabi instinktga bo'ysunib, o'ysiz yashaydi. Men bu dunyoga nima vazifa bilan keldim, deb o'ziga-o'zi savol bermaydi.

Unda or-nomus, hayo-andisha, imon-diyonat yo'q. Bu narsalarni hech kim maymundan kutmaydi ham. Xalqimiz taqlidchini bejiz maymunga o'xshatmaydi. Chunki har bir inson o'z mustaqil tafakkuri, ma'naviyati, imoni va irodasi bilan, yaratuvchiligi va mas'uliyati bilan Shaxsdir. Echkida soqol bo'lgani yoki to'ti gapirgani bilan inson bo'lib qolmaydi.

Har bir Inson zotida «bilquvva» (ya'ni potensiya darajasida) ma'naviy kamolot imkoni bor. Aslida Inson, bizning mavzu nuqtayi nazaridan, ma'naviy kamolot imkoniyatiga ega bo'lgan moddiy mavjudotdir¹. Insonning ijtimoiy mavjudot ekanligi ham uning ma'naviy kamolot imkoniga ega ekanligidan kelib chiqadi. Bu umuman inson mohiyati.

Shaxs — o'z ma'naviy kamolot imkoniyatlarini yuzaga chiqara boshlagan inson. Bu hodisa o'zlikni anglash deb aytiladi. Demak, Shaxs — o'zligini anglay boshlagan inson, deyish ham mumkin.

Huquqshunoslar tilida “jismoniy shaxs” va “huquqiy (yuridik) shaxs” tushunchalari mavjud. Xuddi skunga monand ma'naviyat nuqtayi nazaridan ham shaxs tushunchasi ikki holatni ko'zda tutadi. *Birinchi*, biz har bir insonga shaxs sifatida yondoshuvimiz zarurati. Chunki har bir insonning shaxs bo'lish imkoniyati bor. Bu imkoniyat unga yaralishdan Xalqoq olam tomonidan berilgan. Shundan kelib chiqib, biz har bir insonga Shaxs deb qarashimiz joiz, zohiriy ko'z bilan boqib, undan xatolar izlashimiz, unda ma'naviy noqislik ko'rishimiz inson odobiga, ma'naviyat talablariga xilofdir. Ba'zan dilidagi yashirin xazinani necha yillar inson o'zi bilmaydi, unga tashqaridan ko'z tashlab, biz qaydan bilamiz. Ayni shu o'rinda qadr tushunchasiga to'xtalib o'tish joiz.

Qadr o'zlikni anglash jarayonida paydo bo'ladi. «Men Alloh tomonidan yer yuzid xalifa etib yaratilganman», deb o'zlikni anglab yetish — o'z qadrini to'g'ri baholashning poydevoridir. Allohga ishongan odam Tangrining vahiysiga ham ishonadi, demak, yuqoridagi so'zlarni haqiqat deb qabul qiladi. *Ikkinchidan*, o'z qadrini anglab yetish barobarida inson o'zga insonlar ham yer yuzida xalifa ekanligiga imon keltirib, ularning ham qadrini o'zidan kam bilmaydi. *Uchinchidan*, u Alloh yaratgan barcha mavjudotning ayni Haqqa tegishli ekanligini anglab yetgani uchun qadrlaydi, behudaga biror narsani zoye qilishni o'ziga ep ko'rmaydi.

¹ Aslida Borliqdagi mavjudotlar moddiy yoki g'aynmoddiy (masalan, farishtalar) bo'lishi mumkin. Moddiy mavjudotning o'ziga xosligi makon va zamon kesishuvida muayyan o'rni egallashi bilan belgilanadi.

Har bir inson o'z qadrini umumiy bir tarzda emas, muayyan va aniq o'lchovlarda anglab yetmog'i kerak. Haqiqiy Shaxs darajasiga yetishgan inson o'z qadrini, shu bilan birga yorug' olamdagi barcha ashyo va mavjudotlar qadrini muayyan darajada anglab yetgan, shu asosda jamiyatning faol a'zosiga aylangan inson bo'ladi. Qadr tushunchasi ma'rifatning turli bosqichlarida turli darajada muayyanlashib boradi. U *imon*, *ilm* va *amal* darajalarida anglab yetilishi mumkin. Borliq haqiqatiga o'z nisbatini to'g'ri anglab yetmagan va komil e'tiqod hosil etmagan inson hanuz g'ofildir. Imon darajasida barcha mavjudot qadri Alloh in'omi sifatida, barcha inson qadri imkon (potensiya) darajasida namoyon bo'lsa, ilm darajasi har bir muayyan inson va ashyo qadri haqida aniq bilimlar hosil qilish bilan bog'liq bo'ladi. O'zligini anglash darajasi, Borliqning mohiyatini anglash yo'lidagi ijtihodi va amaliy faolligi bilan bog'liq ravishda insonning insondan farqi, har bir insonning kechagi holatidan bugungi holati orasidagi farq doimiy o'zgarib boradi. Uchinchi, eng yuksak va mas'uliyatli daraja — *amal*. Bu juda qiyin savdo. Bilish va amal qilish orasida yana necha qayta ilmga qaytiladi, qayta tahlil etiladi, har safar chuqurroq anglab yetib boriladi. Va amal riyozatini chekishda mehrgina ko'mak bera oladi. Mehrsiz na imon baquvvat bo'ladi, na amal riyozatiga inson bo'y beradi.

Ammo insonning fazilatlariga qarab (imon-e'tiqodi, ilmi, amaliy ko'nikmalari, axloqiy sifatleri va hokazolarga ko'ra) qadrlanishi o'z-o'zidan moddiy emas, ma'naviy ko'rinishda bo'ladi. Moddiy qadrlanish esa ilmning amalga tatbiq etilishi bilan bog'liq. Inson o'z imkoniyatlarini amalga tatbiq etishdan avval o'z qadrini ilm bosqichida anglab yetishi lozim. Bu bilim amaliy faoliyatda ikki shartga rioya etishni taqozo etadi. Birinchi shart — inson o'z qadriga nomunosib ishni o'ziga ravo ko'rmasligi kerak, ya'ni o'z ilm saviyasi, imoni, jamiyatdagi mavqeyiga nomuvofiq amalni sodir etmasligi kerak. Ikkinchisi inson hech kim bilan o'z qadriga noloyiq sharoitlarga rozi bo'lib bitim tuzmasligi kerak, kengroq ma'noda olganda, o'zganing unga nisbatan noloyiq xatti-harakatlar sodir etishiga yo'l qo'ymasligi lozim.

Inson o'zi va o'zga qadrini taqqoslab o'zaro muomalalarga kirishganda, ma'naviyatdan siyosatga o'tiladi. Inson o'z moddiy tabiatini ham hisobga olib, o'zgalar bilan munosabatga kirishuvida iqtisodiy munosabatlar yuzaga keladi. Ammo, bilib qo'yish kerakki, inson iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy maydonda doimo bir xil qadr topavermaydi.

Inson ma'naviy kamolotini belgilovchi omillardan biri uning ushbu uch yo'nalishda o'z qadrini uyg'un saqlay bilishi bilan ham belgilanadi. Ma'naviy kamolotni faqat ma'naviyat yo'nalishida o'z qadrini yuk-saltira bilish deb tasavur etish bir yoqlamalikdir.

Borliq o'zi tavhidni (yagonalikni) taqozo etadi. Bu yagonalikda eng ibtidoiy makonda siljish harakatidan eng oliy ma'rifat yo'llarigacha bir paytning o'zida mavjud. Faqat insoniy mantiqning muayyan darajada chekli ekanligi bois, biz tasavvur etgan zamon va makonda har bir narsa-hodisaning har bir holati kamolotning muayyan bosqichi doirasida tasavvur qilinadi.

Allohning barcha kitoblarida uqtirilgan, ajdodlarimiz asrlar davomida anglab yetgan va imon keltirgan Borliq haqiqati Tavhid haqiqatidir. «Tavhid» so'zining ma'nosi yagonalik va yaxlitlik, ya'ni milliy ma'naviyatimiz talqiniga ko'ra, dunyodagi jonli va jonsiz, harakatda va sokinlikda ko'ringan, o'tmish, bugun va kelajakka oid narsa va hodisalarning o'zaro uzviy bog'liqligi, yagona manba va manshaga oidligi, uyg'unligi va yaxlitligidir. Bu mohiyat ajdodlarimiz merosida «vahdatda kasrat, kasratda vahdat»(birlikda ko'plik, ko'plikda birlik) jumlasida ifodalanadi. Tavhid haqiqatining mohiyati shundaki, Borliqning har bir uzvi, qismi, zarrasi o'zgalari bilan bog'liq, o'zaro aloqadordir. Shu sababli Borliqdagi har bir zarra o'zgarishi butun Borliqni o'zgartiradi, har bir zarradagi o'zgarish esa, o'z navbatida, butun borliq-dagi o'zgarishdan kelib chiqadi. Bu umumjahoniy qonuniyataro inson zotiga alohida imtiyoz ato etilgan – uning irodasi erkin, unga ongli va ixtiyoriy harakat qilish imkoni berilgan. Demak, ongli va hur zot sifatida inson har bir qadami uchun butun Borliq oldida mas'ul, har bir xatti-harakatiga Alloh oldida javob beradi.

Ma'naviyat shu sababli ham avvalo mas'uliyatdir. Alloh mo'minga besh vaqt namozni farz qilgan. Bu insonning o'zi uchundir, Xalloqi olamning bizning ibodatimizga ehtiyoji yo'q. Mo'min kishi besh vaqt namozda ruhan poklanadi, ma'naviyat nuqtayi nazaridan, namoz har bir musulmonning o'z qilgan ishlari, qo'ygan qadamlari uchun yagona Alloh oldida sarhisobidir. Har bir sajdaga bosh qo'ygan inson Haq oldida yuzma-yuz turib, bugun men Borliq haqiqati oldidagi mas'uliyatimni qanday ado etdim, deb o'z ko'ngli oldida hisob beradi. Sababi, uning ko'ngli yagona Haqning makonidir.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti o'z mavqeyi va maqomidan kelib chiqib, doimo bir narsani bizga – yurtdoshlariga ta'kidlashdan

charchamaydi. Har bir inson «o'z mustaqil fikriga, sobit e'tiqodiga, o'zi tayanib yashaydigan hayotiy-milliy qadriyatlarga, shakllangan dunyoqarash va mustahkam iroda»ga, ya'ni bir so'z bilan aytsek, mustaqil ma'naviyatiga ega bo'lmog'i kerak¹.

Ma'naviyat insonning har bir xatti-harakatida o'z ifodasini topadi. Uning yashash tarzi, qilgan ishlari, yaratgan asari, mehnatining natijalari atrof-voqelikka munosabati – barcha-barchasi inson ma'naviyatining ko'zguvidir. Olimning kashfiyoti, shoirning she'ri, bastakorning musiqasi ma'naviy dunyo darakhchilaridir. Ammo did bo'lmasa, idrok va bilim yetishmasa, ularni sezib olish, anglab yetish mushkul. Demak, o'zganing ma'naviy kamolot darajasini his qilish uchun o'zingda ham yetarli saviya, barkamollik bo'lmog'i zarur.

2-fasl. Irsiyat, ruhiyat, ma'naviyat. Inson tabiati va Allohning inoyatlari

Mustaqil shaxs ma'naviy kamolotning muayyan darajasiga yetishgan insondir. Ma'naviy kamolotning chegarasi yo'q. Shu sababli uning muayyan darajasi deganda nimani tushunmoq kerak? Bu yo'nalishda biror aniqlikka erishish uchun, suhbatni inson tabiati va unga ma'naviyatning nisbati mavzusidan boshlamoq ma'qbul ko'rinadi.

Go'daklikdan o'smirlikka o'tishda inson ruhining mustaqil «men»ligi shakllanar ekan, unda o'z moddiy mavjudligiga nisbatan mas'uliyat hissi paydo bo'ladi. Shu davrda u izlanadi, «Men kimman?» degan savol uni qiynaydi. Bu savolga insoniyat tarixida turli javoblar mavjud. Masalan, dahriy-materialist aytadi: «Sen boshqa barcha jonzorlar yanglig biologik mavjudotsan, yeb-ichib, uylanib, o'zingdan zurriyot qol-dirib, bu dunyodan tugal o'tib ketasan. Shu sabab dunyodan oladiganingni olib qol, baxt – oniy lazzatdadir». Marksist aytadi: «Sen yoki proletariatsan – dunyodagi barcha o'zing singari yo'qsillar bilan birlashib, xususiy mulkka qarshi ayovsiz kurash olib borsang – avlodlarining kommunistik davriga yashaydi yoki sen burjua sinfi vakilisan, feodal singari, quldor singari tarixan o'tkinchisan, agar ixtiyoriy ravishda o'zligingdan kechmasang, ayovsiz sinfiy kurashda yo'q qilinasan». Dinni zohiriy talqin etuvchi aytadi: «Sen Allohning bir ojiz bandasisan, Yaratgandan qo'rq, unga ibodat qil, jannatga tushasan». Boshqa turli tal-

¹ Islom Karimov Asarlar 7-jild, 86-b

qinlar ham ko'p. Umumlashtirib aytsek, bu borada har bir insonning o'z qarashi bor deyish ham mumkin.

Tavhid imoni asosida shakllangan milliy ma'naviyatimiz uchun ayovsiz «qarama-qarshilik» va ular orasidagi «murosasiz kurash» tushunchalari mohiyatan yotdir. Jumladan, shaxs va jamiyat, millat va bashariyat manfaatlari biz uchun o'zaro zid emas, balki uyg'un va mohiyatiga ko'ra bir-biriga muvofiq bo'lib, ularni zidlashtirish qandaydir yovuz kuchlarning qabih nayranglari emas, balki ko'proq hodisalarni faqat tashqaridan, yuzaki bir tarzda ko'rib, ular mohiyatidagi o'zaro tutashlikni payqamay shoshqaloq xulosalar chiqarish natijasidir. Asli voqelik, Moniy tasavvur qilganidek, ezgulik va yovuzlikning mutlaq kurashi asosiga qurilgan emas, biz duch kelgan ziddiyatlarning aksariyati esa, agar chuqurroq tahlil etilsa, yagona Alloh haqiqatini insonlar noqis tushunganligi, oxirigacha mulohaza yuritishga tob-u toqati yetmasligi, jiddiy riyozat chekishga bo'yni yor bermay, muammolarni yengil-yelpi zohiriy hal qilib o'tib ketishga moyilligi tufayli yuzaga kelishi ma'lum bo'ladi.

Insonning yaralishi haqida, uning tabiatidagi azaliy murakkablikni izohlab, Alisher Navoiy yozadi:

*... O'ylakim dushman yaratib o'tqa suv,
Yelni ham tufroqqa aylab aduv.
Sun'idin ko'rgilki mundoq to'rt zid,
Bo'lub inson xilqatida muttahid...!*

(Mazmuni: O'ylab qara, Xalloqi olam suvni olovga dushman qilib yaratdi, shamolni ham tuproqqa yov qildi, ammo yaratuvchining qudratini ko'rgilki, ana shu bir-biriga zid to'rt unsur inson vujudida bir butun bo'lib birlashdi.)

Bu yerda moddiy dunyoning, tabiatning to'rt asosiy to'rt usuri (elementi), ularning bir-biriga zidligi va inson jismi ushbu ko'pqtbli ziddiyat holatidagi unsurlarning o'zaro uyg'unlashuvidan vujudga kelgani haqida ta'kidlanishi bejiz emas.

“Zubdat ul-haqoyiq” risolasida Azizuddin Nasafiy shu haqiqatni ilmiy til bilan bayon qilgan. U o'zidan oldin o'tgan allomalar fikrini umumlashtirib, inson mizojini belgilovchi to'rt moddani tabiatning to'rt usuri bilan muvofiqligi haqida yozadi. Uning fikricha o't (sav-

¹ Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. T. 1991, 19-b. (Nasny bayon muallifi Sh. Sharipov)

do) – tuproq mizojiga, balg‘am – suv mizojiga, qon – havo mizojiga va safro – olov mizojiga muvofiq keladi. Ma‘lumki, inson oziqlanadi va ozuqa uning tanasiga hazm bo‘lib, inson jisman o‘sadi. O‘shish xususiyati tufayli inson jonsiz tabiat, ya‘ni ma‘danlardan farq qiladi. Ana shu o‘shishni boshqaruvchi mexanizmni “Zubdat ul-haqoyiq” muallifi o‘*simlik ruhi* deb ataydi. O‘simlik ruhi jonli tabiatdagi turli ko‘katlar, daraxtlar va inson uchun umumiydir. Daraxtlar o‘sadi, ammo mustaqil ravishda o‘z makonini tez o‘zgartira olmaydi, boshqa jonzotlar bilan faol muloqotga kirmaydi. Bu xususiyatlar endi hayvonga xos bo‘lib, shu sababli insondagi sezgilarni – ko‘rish, eshitish, ta‘m bilish, hid ajratish, badani bilan sezish xususiyatlari *hayvon ruhiga* oid hisoblanadi. Sezgi organlari hayvon ruhini qo‘zg‘otadi. U tufayli insonda manfaatdorlik va huzurlanishga intilish, zarar va xatarga qarshi qo‘zg‘alish paydo bo‘ladi. Nasafiy ulardan birinchisini hirs (nafs), ikkinchisini g‘azab quvvati deb ataydi¹. Bular hayvonlarning hayot faoliyatida yetakchi o‘rin egallovchi xislatlardir. Bugungi kun Yevropa fani ularni instinkt deb ataydi. Demak, shaxsiy foydani va zararni bilib, birinchisiga tabiiy intilish va ikkinchisiga qarshilik ko‘rsatish hali insonlikdan darak emas, balki insonning hayvonlar bilan umumiy tomoni ekan.

Taraqqiyotning materialistik talqinida mexanik harakat, fizikaviy o‘zgarishlar, kimyoviy jarayonlar zaminida biologik hayot vujudga kelishi ta‘kidlanadi. O‘simliklar va jonzotlar qatori inson ham biologik mavjudot sifatida tan olinadi. Ammo ushbu biologik mavjudot jamoa bo‘lib yashash xususiyatiga ega va shu sababli u bir paytning o‘zida ijtimoiy mavjudot hamdir. Go‘yo ushbu mantiqda hech bahsga o‘rin qolgani yo‘qdek. Ammo bir savol borki, unga materializm da hech qachon qoniqarli javob topilmaydi: «Nega materiya harakatlanadi va nega ayni kamolotga intiladi, borgan sari murakkab jarayonlarga kirishib, bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o‘tib, yuksalib boradi? Yuksalib qayergacha boradi o‘zi?» Ana shu savollarga Tavhid ta‘limoti mukammal javob beradi. Yuksalishning siri bu yorug‘ olamning yaralishi bilan bog‘liq. Olam yaralishidan maqsad o‘zi yuksalishdir.

Nasafiy mulohazalarini kuzatishda davom etamiz. Hayvon ruhi faqat atrof-voqelikdagi aniq (konkret) narsa-hodisalarni idrok etadi, ularning o‘ziga ko‘rinib turgan foyda-zararini anglaydi. *Inson ruhi* esa moddiy muayyan narsalarni ham, ular ortidagi umumiylikni ham anglab yeta

¹ Aziziddin Nasafiy. Zubdat ul-haqoyiq. T., “Kamalak”, 1995, 36-b.

oladi. Ushbu xususiyati tufayli u imon, e'tiqod egasi bo'la oladi, irodasini erkin idora eta oladi, ongli ravishda riyozat chekishga qodir, Borliq mohiyatini anglab yetishga, ya'ni ma'rifatga va mehrga qodir. Insonda taqvodor bo'lish, narsalar mohiyatini anglab yetuvchi olim bo'lish, orif va hatto valiy darajasiga yetib karomat ko'rsatish imkoni ham mavjuddir. Haq taolo nabi va rasul (payg'ambar)larni inson zotidan tanladi, ularni ilohiy haqiqatga doxil bo'lish darajasigacha mu-sharraf etdi.

Inson atalgan mavjudot uchun irsiyat belgisi ham begona emas. Uning ruhiyati ikki asosda shakllanadi. Biri irsiyat va ikkinchisi ijtimoiy ta'sir va tarbiya. Yevropa ilmida irsiyat fani bugungi kunda yuksak rivojlanish nuqtasiga ko'tarilgan, shu sababli biz bu sohaga ko'p ham daxl qilmaganimiz ma'qul. Ammo milliy ma'naviyatimizga oid bir hikmat borki, uni eslab o'tmasak, ma'naviyat haqida mulohazalarimiz mukammal bo'lmaydi. "Haromdan hazar" deydi xalqimiz. Har bir inson bu sinov dunyosida halolga intilib, haromdan chetlanib yashashga urinmog'i lozim. Bu ma'naviyat qoidasining irsiyatga ikki jihatdan bevosita aloqasi bor.

Birinchisi shuki, er kishi ahli oilasini, farzandlarini halol kasb bilan yedirib-ichirayaptimi yoki harom-harishdan hazar qilmaslikka o'rgatayaptimi? Haromdan bo'lgan har narsa haromga tortadi. Insonning xulqiga harom aralashsa, unda harom ishlarga moyillik uyg'onadi. Demak, farzandini halol rizq bilan boqmagan kishi uning ma'naviy kamolini ham xatar ostiga qo'yadi. Irsiyat buziladi.

Musulmonlar uchun bir qator moddiy va g'ayri moddiy taqiqlar mavjud, ya'ni ularga ba'zi taom, ichimlik, gap-so'z, xatti-harakatlar harom qilingan. Qur'onda aniq aytilgan iste'mol uchun harom hisoblanuvchi narsalar shaxs ma'naviyatiga ham bevosita, ham bilvosita ta'sir qiladi. Masalan, mast qiluvchi ichimliklar inson ma'naviyatiga ham bevosita ularni ichgan paytning o'zida salbiy ta'sir o'tkazib, turli g'ayri axloqiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, ichuvchining farzandlari irsiyatida jiddiy qusurlar shakllanishiga sabab bo'lib, zurriyatini baxtiqaro etishi, jamiyatning ma'naviy hayotiga ham zarar keltirishi mumkin.

Biz ichkilik, to'ng'iz go'shti singari taomlardan o'zini tiymaganlarni qoralaymiz. Ammo ba'zan musulmonlik da'vo qilgan holda Alloh kitobida ro'yirost taqiq etilgan ko'p xatti-harakatlardan o'zimizni tiymaymiz. Jumladan, yolg'on so'zlash, g'iybat, tuhmat, o'zga haqqiga

xiyonat, tamagirlik, kibr-u havo, turli ma'naviy buzilishlar islomda va milliy ma'naviyatimiz an'anasida keskin qoralanib kelinishiga qaramay, kechagi kunimizda, ochig'i, odatiy ko'nikmalarga aylanib qolayozgan edi va bugun ham ulardan batamom forig' bo'la olganimiz yo'q. Eng achinarlisi, biz ularga shunchalik ko'nikib qolganmizki, o'zimiz qilma-gan taqdirda ham o'zgalar qilmishiga murosa bilan qaraymiz. Asli biz beparvo qaraydigan bunday illatlardan saqlanish har bir inson uchun ma'naviy nuqtayi nazardan ba'zi moddiy taqiqlardan muhimroqdir (o'z vaqtida Iso alayhissalom ham buni ta'kidlagan). Ayniqsa, poraxo'rlik va zinakorlik eng xavfli va ashaddiy fasod bo'lib, inson ma'naviyatini butkul xarob etuvchi omillardandir. Ba'zilar qonunga chap bera olsa, ko'ngli xotirjam bo'ladi. Ammo fosiq kishi o'z qilmish-larini Haqdan va xalqdan yashira oladimi?

Ikkinchi jiddiy muammo nikohning muqaddasligi masalasiga doir. Ma'lumki, islomda zino, ya'ni erkak-ayolning nikohsiz qo'shiluvi eng og'ir gunohlardan (gunohi kabiralardan) hisoblanadi. Buning sababi, erkak va ayol tabiatidagi zotiy farqlar bilan izohlanadi. Hayotda er kishi tabiatan erkinroq yaratilgan. Shu sababli uning ma'naviy mas'uliyati ham jiddiyroq. Erkak va ayolning birga yashashga ahdlashuvi, ko'pchilik xalqlar odatiga ko'ra, jumladan, islomda ham guvohlar ishtirokida Al-lohning nomi bilan rasmiylashtiriladi va to'y berib elga ovoza qilinadi. Chunki rasmiy nikohsiz dunyoga kelgan bola ko'pincha jamiyatda o'z munosib o'rnini topmaydi, o'zini ma'naviy kamsitilgan his qiladi. Bu nomukammallik tuyg'usi uning xotirida jamiyatga zid ish tutish tamo-yilini paydo qilishi mumkin. Badiiy adabiyotda ham bunga talay misol-lar mavjud. Agar bunday shaxslar ko'paysa, jamiyat hayoti izdan chi-qish xavfi tug'iladi. Shu sababli har bir inson kelgusi avlodlar haqqi o'z hayotini avvalboshdan to'g'ri izga solishni rejalashtirmog'i va bu yo'lda mas'uliyat bilan ish tutmog'i lozim. Jahonning ba'zi mamlakat-larida nikoh masalasiga munosabat o'zgarib bormoqda. Insonning jis-moniy va ma'naviy balog'ati orasidagi nisbat bilan bog'liq bu muam-moni ahli bashar jiddiy o'ylab ko'rmog'i joizdir.

Alloh insonni o'zining erka bandasi, xalifasi, ya'ni bu dunyodagi o'rinbosari qilib yaratgan ekan, unga juda ko'p inoyatlar ato etgan. Masa-lan, iroda erkinligi. Inson hayvonlikka qarab yuradimi yoki oliy ma'naviyat sari intiladimi – o'zi tanlab oladi, birov uni majbur qilmaydi.

Ikkinchi bir imkoniyat – ilm, dunyoni bilish qobiliyati. "Qisasi Rabg'uziy"da bayon qilinishicha, odam yaratilishida farishtalar Azo-

zilning soʻziga kirib, Odamni gʻiybat qiladilar. Shunda Olohh taolo Odamga “Asmo”ilmini oʻrgatib, soʻng farishtalarga qator narsalarni koʻrsatadi va *“ushbu narsalarni otini bilsangiz ayting”*, deb murojaat qiladi. Farishtalar, *“biz bularni bilmaymiz”*, deb ojiz qoladilar. Shunda Odamga buyruq boʻladi, u koʻrsatilgan narsalarni birma-bir “bu tosh, bu suv, bu daraxt” deb dona-dona aytib beradi. Alloma yurt-doshimiz yozadi: *“Xitob keldi: “Ey farishtalar, sizlarga aytmadimmu man bilganni sizlar bilmassiz deb. Emdi sizga maʼlum boʻldikim, Odam olim turur, siz obidsiz. Mening hazratimda ming obiddan bir olim fozilroq turur. Qayda obid ersa, olingʻa xizmat qilmoq kerak. Ul maxdum boʻlsun, sizlar xodim boʻlung. Ul masjid boʻlsin, sizlar sojidd boʻlung. Odamga sajda qiling”*. Shunday qilib Rabgʻuziy Qurʻoni karim oyatlariga tayangan holda, insonning ulugʻligi uning dunyoni bilish qobiliyatida, ilmida deb xulosa qiladi.

Allohning yana bir inoyati inson ruhining baqoga daxldorligidir. Barcha jonzot oʻlgach, tuproqqa qorishib ketadi. Inson tanasi ham. Ammo inson ruhi abadiyatga daxldor. Chunki insonda yaratuvchilik qobiliyati bor. U moddiy va maʼnaviy boyliklar yaratadi. Shu bilan oʻzini abadiyatga daxldor etadi. Inson oʻzining jismoniy oʻlimini biladi. Baʼzi kaltafahm moddiyunchilar uning jismoniy oʻlimini ruhiyat uchun ham soʻnggi nuqta deb tushunadilar. Vaholanki, ushbu talqin insonni hayvon bilan tenglashtiruvchi, uni alohida mohiyat sifatida inkor qiluvchi badbin yondoshuvdir. Inson maʼnaviyati fiziologik ehtiyojlar darajasidagi narsa emas. Inson oʻz jismoniy oʻlimini, bu imtihon dunyosiga faqat bir marta kelishini bilish barobarida, ruhning abadiyatga daxldor ekanini ham his qilar ekan, unda maʼnaviy kamolot istagi paydo boʻladi. Ana shu imkon, yaʼni alohida shaxsning maʼnaviy kamolot imkoni inson uchun Allohning eng ulugʻ inoyatidir. Ushbu imkon tufayli insoniyat oʻzgacha bir ezgu olam – maʼnaviyat olamiga daxldor boʻladi va uning ruhi mangulik kasb etadi.

Tavhid mohiyatini anglab yetgan inson qalbida ulugʻ bir tuygʻu – *mehr tuygʻusi* uygʻonadi va uning butun borligʻini chulgʻab oladi. Mehr tuygʻusi sanab oʻtilgan uch buyuk imkonni oʻzaro uygʻunlikda birlashtirib, inson koʻnglini, Navoiy iborasi bilan aytganda, *“haqiqat asrorining ganjinasi”* ga aylantiradi. Zero, bu uygʻunliksiz *Maʼnaviyat olami* zuhur etmaydi.

¹ Rabgʻuziy Qisasi Rabgʻuziy, 1-kitob. T., “Yozuvchi”. 1990, 20-b.

3-fasl. Odob, axloq, ma'naviyat. Ma'naviy tarbiya vosita va usullari pog'onadorligi

Biz bolaga odob o'rgatamiz. "Qani amakingga bir salom bergin", deymiz. Odob ma'naviyatimizning libosidir. Ba'zi holatlarda libosga qattiq e'tibor beriladi. Masalan, diplomatiya odobining o'z qonun-qoidalari bor. Ba'zan esa ma'naviyat fidoyilari umuman libosga e'tibor bermaydilar. Tasavvufning malomatiya tariqida hatto ichki kibri yengish, riyo (ikkiyuzlamachilik, munofiqlik)dan qochish uchun tashqi odobga zid ishlar qilganlar. Notanish inson birinchi bo'lib, qaddiqomati, husni, kiyinishi va odobi bilan diqqatimizni tortadi. "Voy, anavi kishining qo'polligini, kiygan kiyimi ham bir ahvol ekan", deyishadi rasida qizlar bir-biriga shivirlashib. Yoki navqiron yigitlar o'tib ketayotgan go'zal chehraga mahliyo bo'lishadi. Uning sarv qomati, did bilan kiyinishi, lola yuz, sunbul sochlari, xumor ko'z-u quyucuk kiprik, hilol qoshlari nigohimizni yashnatadi. Agar bunga hayo va andisha ham qo'shilsa, ko'ngilni tamom zabt etdi, deyavering.

Insonni tanish odobdan boshlansa, u bilan muloqot davomida axloqiy xislatlarini bila borasiz. Va'daga vafo qiladimi, do'stga sadoqati qanday, himmati va saxovati, jur'ati va shijoati, o'ktamligi va oriyati – barcha axloqiy fazilatlarini birma-bir ko'z oldingizda namoyon bo'la boradi. Bu fazilatlar majmuyi zamirida esa yaxlit shaxs ma'naviyati nurlanadi.

Axloq ma'naviyatga nisbatan surat, tashqi jihat bo'lsa, odob o'z navbatida axloqiy fazilatlarining yuzaga chiqishidir. Shu sababli insonni anglab yetish odobdan axloqqa, axloqdan ma'naviyatga qarab teranlashib boradi. Ammo shu bilan birga axloq odobga nisbatan, ma'naviyat esa axloqqa nisbatan keng qamrovli mohiyatlardir. Inson odobi uning barcha axloqiy fazilatlarini namoyon eta olmaganidek, shaxsning barcha axloqiy sifatlarini bir yerga jam etganda ham baribir, uning ma'naviy dunyosini to'liq qamrab olgan bo'lmaysiz. Asli ma'naviyat Haq nurining ko'ngil ko'zgidagi aks etishi bo'lganligidan muayyan ma'noda ko'ngil egasining o'ziga ham oxirigacha ma'lum emasdir, g'aybga tutashdir. Allomalar inson ko'nglini tilsim ataydilar. Ko'ngil ko'zgidagi ma'naviyat nuri tufayli har bir inson o'zi sehrli tilsimga aylanadi, mohiyatan cheksizlik kasb etadi.

Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asaridan yuqorida bir parcha keltirgan edik. Endi uning davomiga e'tibor qaratamiz:

*“... Ofarinisdin qilib inson g'araz,
Oni aylab xalq ichinda beevaz.
Ko'nglin oning maxzani irfon qilib,
Ul tilism ichra o'zin pinhon qilib.
Rozi maxfiy ganj o'lub bu turfa jism,
Sun'idin ul ganj hifzig'a tilism.
Ham tilism ul mahzan uzra, ham amin,
Ofarin sun'g'ungg'a, ey jonofarin.
Aylaganda rozining ganjini arz,
Ne samo aylab qabul, oni ne arz,
G'ayri insonkim qilib oni qabul..”¹.*

(Mazmuni: Butun olamni yaratishdan maqsad inson bo'lib, u ham-ma mavjudot ichida tengi yo'qdir. Uning ko'ngli Irfon xazinasini bo'ldi va bu tilsim ichida Haq o'zini yashirdi. Shunday qilib, bu ajoyib jism, ya'ni inson vujudi maxfiy xazina sirini o'zida yashirgan va ul xazinani saqlovchi tilsimdir. Inson ham bag'riga xazina yashirgan tilsim, ham ul xazinaning posboni, ishonchli ehtiyotlovchisidir.

Ey insonga jon baxsh etuvchi, bunday yaratgan mo'jizangga ofarinlar bo'lsin! Haq o'z sirining xazinasini taklif etganda, na yer, na osmon uni qabul etishga botinmadilar, faqat insongina uni qabul etdi...)

Demak, inson ko'ngli irfon xazinasini, Haq sirini o'zida yashirgan tilsim ekan. Inson shu sababli buyukdir. Irfon Haq sirini qalb bilan anglab yetish bo'lib, unga erishgan shaxs Orif deyiladi. Haq siri Tavhid ma'rifatidir. Tavhid – yagonalik, ya'ni butun borliqning yagona, yaxlit mohiyati. Bu oliy haqiqatni butun ko'lami va teranligi bilan tushunib yetish oson emas. Buning uchun inson atrof-voqelik, tabiatga, o'zga insonlar, bashariyatga, Vatan va millatga, ota-ona, farzand, do'stga nisbatan huquq va burchlarini mukammal anglab yetmog'i, o'zining ichki qudrati va salohiyati, ruhiyati, iroda va himmatini qalban his qilmog'i zarur. Har bir inson bu yorug' olamga, bu sinov maydoniga bir oliy vazifa bilan kelgan. O'sha asl vazifasi nima ekanini topa bilmasa, tushunib yetmasa, bu dunyodan notamom o'tib ketmog'i mumkin.

*Dunyodan notamom o'tmoq biaynih,
Erur hammomdin nopok chiqmoq –
deb ogohlantiradi ulug' shoir.*

¹ Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. T., 1991, 19-b

Ruh tarbiyasi va uning irsiyatga ta'siri haqida ajdodlarimiz ko'p ibratli kitoblar qoldirganlar. Jumladan, XIII asrda yashab o'tgan Shayx Najmiddin Kubroning iste'dodli muridi Najmiddin Doya qalamiga mansub "Mirsod ul-ibod min al-mabda ilal-maod"(Alloh bandalarining boshlang'ichdan tugallanishgacha bo'lgan hayot yo'li) risolasida ruhshunoslik va inson ma'naviy takomili haqida mufassal tahlil va mulohazalar mavjud. Bu kitobning millat ma'naviy takomiliga ta'sirini bilgan Xorazm xoni Muhammad Rahimxon Soniy (Feruz) XIX asrda maxsus topshiriq berib uni fors tilidan o'zbekchaga o'girtirgan va kitobat ettirgan. Risolaning birinchi bobi — debocha, 5 fasldan iborat ikkinchi bobi esa inson ruhining tabiati, ruh va tan nisbati kabi masalalarga oid bo'lib, mohiyatan ruhshunoslikka muqaddimadir. Kitobning eng asosiy qismi uchinchi bob — 20 faslni o'z ichiga oladi. Unda inson tarbiyasining asosiy masalalari qamrab olingan. Olimning fikriga ko'ra, eng avvalo, inson tanasini to'g'ri tarbiyalamog'i lozim. Muallif tanani ruhning g'ilofi (qolipi) deb hisoblaydi. Uni pok tutmoq, halol mehnatga, to'g'ri turmush tarziga odatlantirmoq lozim. Ikkinchi navbatda, ruhiyatni(ko'ngilni) poklamoq talab etiladi. Ushbu birinchi bosqich, Doyaning tasavvuriga ko'ra, shariat bosqichidir. Uni temir ma'dani (rudasi) dan sof temir moddasini ajratib olish jarayoniga qiyoslash mumkin. Ikkinchi bosqich, ya'ni po'lat eritish, undan ko'zgu yasash, toblash va sayqallash ishlari mohir ustalarning zukko mahoratini talab etadi. Shu sababli o'tmishda bu yumushlar tariqat suluklarida, ulug' shayxlar nazoratida amalga oshirilgan. Tariqat, ya'ni ma'naviy kamolot yo'li, inson nafsiga qayta ishlov berib, uni avval mumdek yumshatib, ko'ngil (dil) oynasini bunyod etuvchi olovli ko'raga o'xshatiladi. Ko'ngil ko'zgisiga shunday sayqal berish lozimki, u o'zida ilohiy nurni akslantirib, oy singari o'zi ham atrofga nur tarata boshlasin. Albatta, har bir inson mustaqil va samimiy ravishda butun vujudi bilan Borliq haqiqati sari intilmas ekan, hech qanday ma'naviy kamolotga erishib bo'lmaydi. Ma'rifat jarayoni ruhiyatda kechadi, tashqi vositalar bir ko'mak, xolos.

4-fasl. Shaxsning iqtisodiy mustaqillik mas'uliyati. Oila ma'naviy muhiti. Shaxs, millat, bashariyat

Shaxs ma'naviyatining turli qirralari bor. Ularning har biri xususida alohida to'xtalish, alohida tahlil zarur. Ammo bu mavzularni bir kitobda qamrab olish imkondan tashqari, zero shaxs ma'naviyatining

mufassal tahlili katta-katta risolalarni talab etadi. Biz bu o'rinda, ham namuna sifatida, ham bugungi sharoitda nihoyat darajada dolzarbligini nazarda tutib, faqat bir muammoga to'xtalib o'tamiz. Shaxs ma'naviyatining bosh belgisi, ilgari ham aytib o'tganimiz, mas'uliyat tuyg'usidir. Mas'uliyat tuyg'usining turli jihatlari, darajalari mavjud. Ularning eng asosiysi va bugungi kun voqeligida eng muhimi, nazari-mizda, shaxsning iqtisodiy mustaqillik mas'uliyatidir.

O'zlikni anglashning pog'onalari bor. Shaxsning o'zligini anglashi uning o'z insonlik mohiyatini anglay borishi bilan belgilanadi. Inson moddiy vujud ekan, avvalo, o'zining moddiy makonsiz mavjud bo'la olmasligini anglab yetsa va unga nisbatan ko'nglida mas'uliyat uyg'onsa, ushbu mas'uliyat ma'naviyat atalmish botiniy quvvatga dastlabki tutashuvni hosil qiladi. Insonni Shaxsga aylantiruvchi ma'naviy kamolotning birinchi pog'onasi shudir. Ayni shu pog'onada vatan tuyg'usi shakllanadi. Biz bu haqda oldingi bobda batafsil gapirdik.

Shaxsning moddiy vujud ekanligi, undan shu moddiy vujudni himoyalash, tirik saqlash, ya'ni o'z mavjudligini ta'minlash ehtiyojini paydo qiladi. Inson – hayvon emas, ammo farishta ham emas. Unga faqat biologik mavjudot deb qarash yetarli bo'lmas-da, ammo moddiy mavjudligini ta'minlash ehtiyoji va o'zidan so'ng zurriyot qoldirish vazifasi har bir insonda mavjud ekanligini ham inkor etib bo'lmaydi. Inson o'z moddiy mavjudligini umr bo'yi, uzluksiz ta'minlab borishga majbur, busiz u o'zga hech qanday vazifani bajara olish imkonini topmaydi. Ahli bashar naslining vorisiyligini ta'minlash ham inson bo'ynidagi qarzdur.

Ma'lumki, bu ikki ehtiyoj boshqa jonzotlarda – o'simlik va hayvonlarda ham mavjud. Ular ham o'z moddiy mavjudligini ta'minlab, o'zidan keyin nasl qoldirishga urinadi. Zohirbin moddiyunchi xuddi ana shu o'xshashlikka asoslanib muayyan xulosalar hosil qiladi. Ammo imon egasi uchun bu o'rinda inson va o'zga moddiy mavjudotlar orasida jiddiy farq ko'zga tashlanadi. Hayvon topganini yeydi. Uning uchun «o'zga haqqiga xiyonat», «halol» va «harom» tushunchalari yo'q. O'zligini anglab yetgan, Haqni tanigan inson esa halol mehnat bilan rizqi ro'z yaratadi. U xoh dehqon, xoh kosib, xoh tijoratchi-tadbirkor bo'lsin, tirikchilik yo'lida urinar ekan, bir o'zi va ahli oilasigagina emas, butun jamiyat, o'zi singari barcha insonlarga manfaat keltiradi, halol mehnati natijasiga ko'ra ezgulik yo'lida riyozat chekadi. Agar har bir hayvon zoti o'zi uchun buyurilgan doirada ko'katlar

yoki o'zga jonivorlarni tutib yeb, o'z nafsini qondirsa, inson, birinchi navbatda, yaratuvchi. U yer haydab, urug' tikadi, niholni parvarishlab, hosil undirib, rizqini mehnati bilan halollab iste'mol qiladi. Agar inson ushbu eng birinchi vazifasini yuksak mavqeyiga muvofiq bajar-masa, faqat rohatini o'ylab, har qanday yo'l bilan bo'lsin, nafsini qondirish payida bo'lsa, u tezda hayvondan ham tubanlashib ketishi hech gap emas. Barcha maxluqot Alloh buyurganini bajaradi, bunga shak yo'q. Ammo hayvonot va nabotot olamida har bir jins va tur Haq tomonidan qat'iy belgilangan vazifasini og'ishmay bajarsa, inson iroda erkinligi tufayli hayotdagi vazifasini imon-e'tiqodidan kelib chiqib o'zi ixtiyoriy belgilaydi. Ayni shu iroda erkinligi insondan o'z xatti-harakatiga ongli yondoshuvni taqozo qiladi. O'zligini anglashga urinmasa, nafsig-a erk bersa, bani odam uchun nafaqat mechkay, aroqxo'r va nashavand, balki o'g'ri va muttaham-kazzob, fohisha va qotilga aylani-sh xavfi doim tahdid solib turadi. Shunday razolatlardan insonni hayo va andisha, insof va or-nomus singari sof insoniy xislatlar saqlay-di, imon-e'tiqod nuri uni solihlar yo'liga undaydi.

Demak, barcha jonzotlardan farqli ravishda insonning har bir qada-mi ma'naviy o'lchamlarda baholanadi. Uning moddiy ehtiyoj va intilishlarining ham ma'naviy mezonlari mavjud bo'lib, moddiy hayotni davom ettirish maqsadida yeydigan bir burda noni ham «halol-harom»lik jihatidan baho oladi va taqdiriga ta'sir ko'rsatadi.

Bahouddin Naqshband hazratlari Payg'ambarimizning quyidagi ha-dislariga ko'p ishora etmishlar: «al-ibodat-u asharat-u ajzoin, tis'atun minho talab-ul-haloli va juz'un vohidun minho soir ul-ibodoti», ya'ni «ibodat o'n qismdur, uning o'ndan to'qqizi halol rizq topish haraka-tida, bir qismi esa boshqa ibodatlardadir».¹ Demak, halol rizq yo'lida urinish Allohga qulchilikning, Haq yo'lidagi ibodatning asosiy qismini tashkil etar ekan.

Har bir inson zimmasida iqtisodiy mustaqillik mas'uliyati bor. Hech kim o'zga bir kishi meni boqishi (iqtisodiy jihatdan ta'minlashi) kerak deb hisoblashi kerak emas. Lekin buning ba'zi shartlari ham mavjud. Har bir inson o'z iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashi uchun, mulkni erkin tasarruf etish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Sovet davrida xu-susiy mulk huquqining yo'q qilinishi aynan ana shu imkoniyatdan in-

¹ Muhammad Boqir. Bahouddin Balogardon (Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband). T., "Yozuvchi", 1993, 55-b.

sonlarni mahrum etdi va natijada har bir insonning mustaqil shaxs bo'lib shakllanishi uchun eng muhim omil bo'lgan iqtisodiy mustaqillik mas'uliyati tuyg'usi qattiq zarbaga uchradi. Mulkni erkin tasarruf qilish huquqidan ajralgan inson shaxs sifatida shakllanishning asosiy zaminini qo'ldan bergan, fazoda muallaq qolgan mavjudot ahvoriga tushgan edi. Mustaqillik bizni shunday xatarli holatdan olib chiqib ketdi.

Har bir er kishi o'z oilasini (rafiqasi, balog'at yoshiga yetmagan farzandlari, keksa ota-onalari, ba'zan yosh uka-singillari yoki boshqa yaqin qarindoshlarini) iqtisodiy jihatdan ta'minlash harakatida bo'lmog'i kerak. Biroq, oila a'zolari o'z boquvchisini oshiqcha xarajatlarga majbur qilmasliklari ham talab etiladi.

Sovet davrida bizda erkak va ayol teng huquqligi mavjud deb jahonga jar soldik. Asli shu to'g'rimi? Qonun oldidagi haq-huquq nuqtayi nazaridan to'g'ri. Ammo teng huquqlilik har jihatdan jo'n talqin etsa bo'ladigan tenglik emas. Ayol va erkakni Alloh taolo ko'p jihatdan farqli qilib yaratgan. Shu sababli jo'n talqin etiladigan "tenglik" ko'p o'rinda ayolning zarariga ishlaydi.

Ayolning mohiyati mehrga oid, ayol ruhi va jismi mehr bilan yo'g'rilgan. Shu sababli tabiatan farzandning onada haqi ko'p. Onasiz farzandni tasavvur etib bo'lmaydi. Go'dak to o'smir yoshiga yetguncha onaning yetovida bo'ladi. Hatto 5–6 yoshli bolaning ham tilini tushunib, ko'nglini ola biladigan, go'dak uchun har jihatdan ona o'rnini bosa oladigan otalar hayotda uncha ko'p uchramaydi. Erkak — ko'chaning odami. Ularda odatan his-tuyg'udan ko'ra aql-idrok, mantiqiy tafakkur kuchliroq. O'g'il bola o'smir bo'lib, o'zligini taniy boshlagach, otaga intilishi kuchayadi.

Ayol avvalo ona, uy bekasi, mehribon hamshira, egachi-singil, jon-sarak buvi, ya'ni mehr chashmasidir. Uyning sarishtaligi undan, erkakning ko'ngil xotirjamligi, farzand ko'zining nuri ayol tufaylidir.

Ammo 70 yillik sovetlarcha "tenglik" davrida ayol shaxtyor bo'ldi, mexanizator bo'ldi, yo'l quruvchi, beton quyuvchi bo'ldi, jazirama saratonda paxta chopiq qildi, toy-toy paxtani terdi, tashidi, chuvidi. Otilib chiqqanlari, haqini taniganlari pionerlikdan komsomolga, komsomoldan partiyaga o'tib, qo'l siltab erkaklarga va'z o'qidi. Ammo ayollikdan ularni birov ozod qilmadi, illo, Alloh buyurganini bandasi bekor qila olmaydi, uy bekaligini, onaligini, oshpazligi, kirchiligini "ikkinchi smena" da bajardi. Erkak-ayol "tengligi" shu edimi?

Ammo falokatning asosi bunda emas. Ayolni o'ziga "teng" bilgan erkak "ola xurjun"ning og'irroq qismini ayolga yuklashni mashq qila boshladi. Oilaning iqtisodiy, moliyaviy ta'minotining "teng" yarmini ayolga yuklashni o'ziga ep ko'rishga o'rgandi.

Axir Alloh er kishini behuda "salti-suvoy" qilib qo'yibdimi? Ayol farzandlarini eplab, xonadon sarishtaligini ta'minlasa, er kishi ko'chadan topib-tutib kelishni bo'yniga olishi lozim emasmi? Inson tug'ilib voyaga yetgach, balog'at yoshidan birinchi navbatda o'zining iqtisodiy mustaqillik mas'uliyatini bo'yniga olmog'i, er kishi oila qursa, ahli ayoli, norasida farzandlari ta'minotini tashkil etmog'i — ham qarzu ham farz emasmi? Ba'zi xotini, bolasini bozorga chiqarib qo'rganlar balki nochoridir, ammo tani-joni sog' bo'lsa, butun imkoniyatlarini ishga solib, o'zini bu sharmandalikdan qutqarmoqning astoydil harakatiga tushmog'i kerak emasmi?

Kim "xotin kishi ishlamasin" desa bekor aytibdi. Rag'bat bo'lsa, iste'dod bo'lsa ishlasin, elga nafi tegsin. Ammo ayol kishining ishlashi, pul topishi ixtiyoriy bo'lmog'i kerak, erning mas'uliyatsizligi natijasi emas. Yana bir aybimiz o'g'il farzandimiz o'ttizga kirsam ham "bola" deb qaraymiz. Bu ham yangi "o'zbekchilik" kasalliklaridan, ammo "milliy ma'naviyat" ga bunday "erkalik"larning aloqasi yo'q.

Bozor iqtisodi farzandlarimizni erta ulg'aytira boshladi. Bunga ming shukrona aytsak arziydi. Albatta, sigaret, saqich, "muzdek ayron" sotish nuqtayi nazaridan emas, balki o'z kelgusi hayotini to'g'ri qurishga mas'ullik hissi teranlashayotgani ko'zni quvontiradi.

Ayol kishining mas'uliyati esa, birinchi navbatda, uning iffatida, hayosida, sarishtaligida, hayotdagi o'z vazifasini chuqur tushunib, unga muvofiq yo'l tanlashi, o'zini farzand tarbiyasiga, bekalikka, onalikka to'g'ri tayyorlab borishida ko'rinadi.

Ayollarimiz o'ta iste'dodli. Ularni qadrlashimiz, iste'dodi kamol topishiga imkon yaratishimiz lozim. Ammo "ola xurjun"ni, marhamat qilib, o'z yelkangizga oling, omon bo'lgur alp yigitlar!

Ammo oila iqtisodini ta'minlash hali kamoli ma'naviyat emas. Ma'naviyat ahli oilani halol rizq bilan boqishda. Demak, taqvoning boshlanishi halol rizqdan. Agar inson besh vaqt namozni kanda qilmasa, ro'za tutsa, zakot bersa, haj ziyoratiga ham yetishsa-yu, rizqiga harom aralashtirsa, kishi haqqiga xiyonat qilsa, birovni aldab pul topsa, tamagirlik bilan kun o'tkazsa — natija ma'lum. Alisher Navoiy "Nasoyim ul — mahabba..". asarida yod etgan aksari mashoyihlar luq-

ma halolligiga alohida ahamiyat berganlar, ter to'kib kasb-u kor qilib o'z maishatlarini ta'minlaganlar. Afsuski, 70 yil davomida halol mehnat qilganlar emas, "yo'lini topganlar" ayshini surdi va insonlar ongida bu vaziyat juda og'ir asorat qoldirdi. Haromdan qo'rqmaydigan odam jamiyat uchun xavfli odamdur. Haromdan qo'rqmaslik yoki jaholat, yoki munofiqlikdir.

Inson iqtisodiy mustaqillik mas'uliyatini his qilmasa, halol rizq izlamosa, undagi qolgan barcha yaxshi xulqlar, go'zal odob o'z tarovatini, samimiyatini, qiymatini yo'qotadi. Ammo inson topganini uyiga tashigani bilan ma'naviy yuksaklik kasb etmasligi aniq. Har ishda me'yor tuzuk. O'zidan, ahli oilasidan ortirib, millat xizmatini gardanga olish chinakam mardonalik belgisidir. Faqat bir sharti bor. Men millatga xizmat qilayapman, mening tirikchiligimni davlat ta'minlab qo'ysin, deb da'vo qilish, hatto ko'ngildan o'tkazish ma'naviy o'zlikka ishordir. Ahli oilaga, bola-chaqa, ota-onaga, millatga, bashariyatga xizmat xolis va samimiy bo'ladi. O'tmish allomalar ibratini, bobolar vasiyati bu.

3-BOB. SHAXS VA MILLAT

1-fasl. Shaxsning millat oldidagi mas'uliyati

"Qachon xalq bo'lasan, ey sen, olomon!" deb hayqirgan edi ichi kuyib ketgan shoir xalqimiz majburiy manqurtlashtirilgan bir davrda. Elat millat bo'lishi uchun, mavhum qiyofali "olomon" asl ma'nodagi "xalq"ga ("budun"ga) aylanishi uchun, avvalo ushbu mamlakatning har bir fuqarosi Shaxsga, mustaqil ma'naviyat egasiga aylanishi kerak. Vatansiz Shaxs bo'lmaganidek, inson Shaxs bo'lib yetishmaguncha, elat millatga, olomon xalqqa aylanmaydi. Shu sababli millat haqida gapirishdan avval Shaxs kim degan savolga dastlabki javoblarni izlash zarur bo'ldi.

Ma'naviyat inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg'unlik ekan, demak, birgina Shaxs millat haqida o'ylay boshlasa – millatning shakllana boshlagani shudir. Bilka hoqon, Kulteginlar ruhidan nimalar kechgani bugun bizga Yo'llug' tigin toshga bitib qoldirgan yozuvlardan ma'lum. Millatning ulug' shoiri "turk buduni"ning taqdiri haqida dildan kuyunib, avlodlarga vasiyat qoldirgani millatning o'sha davrlardan shakllanganligining ishonchli dalili emasmi?

Shaxs va millat ma'naviyati biri-birini taqozo etuvchi hodisalar. Har bir shaxs *"o'zini xalqining bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda*

o'ylab, mehnat qilib yashagandagina ma'naviyat bilan tutashadi", deydi Prezident¹. Boshqacha qilib aytganda, shaxs ma'naviyati voqelikda millat ma'naviyatidan ayri, undan tashqarida bo'lmaydi. Har bir alohida shaxs o'z mustaqil ma'naviy dunyosiga ega, millat ma'naviyati esa, mutlaq ma'noda ushbu millatga mansub barcha shaxslar ma'naviyati asosida asrlar, balki ming yillar davomida shakllanib boradi. Shu bilan birga, voqean har bir shaxs ma'naviyatining shakllanuvida millat ma'naviyatining ta'siri yetakchi mavqe egallaydi. Millat o'z ma'naviy boyligini qancha unutsa, kelayotgan avlod shu darajada manqurtlashadi, o'zligini tanimaydigan darajaga keladi. Milliy ma'naviyatning kelajak avlodlarga to'laqonli, mukammal yetkazilishi uchun bosh omil millatning siyosiy va iqtisodiy mustaqilligidir. Millatning yo'l boshchilari – uning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohadagi yetakchilari ruhiyatida uyg'un barkamollik, Vatan va xalq oldidagi mas'uliyat hissi qay darajada ekanligi ham ko'p narsani belgilaydi. Millatning o'zligini tanishi uning umumbashariy miqyosda o'z o'rnini, maqom va mavqeyini, burch va mas'uliyatini qanchalik anglab yetishi bilan bog'liq. Har bir shaxsning, elat va millatning Haq oldida mas'uliyati bordir, umumbashariy miqyosda vazifasi va maqomi mavjud. Millat o'zligini anglab yetmagan bo'lsa, u hali millat emas, ma'naviy tanazzulga yuz tutsa, millat sifatida o'zligini boy bera boshlaydi.

Ma'naviyat dunyosida yaratuvchilik uchun erk lozim. Qullikdan, qaramlikdan ozod bo'lish ruh erkinligidan boshlanadi. Ruh erkinligi esa o'zlikni anglashdan kelib chiqadi. Inson tom ma'nosi bilan shaxs atalmog'i uchun mustaqil ma'naviyatga, ya'ni o'zi erkin belgilab olgan mustaqil kamolot yo'liga ega bo'lmog'i kerak. Ammo shu bilan birga dunyoda hech bir inson yolg'iz o'zi mavjud emasligi ham haqiqat. U tabiat bilan, o'zga insonlar bilan, Borliq haqiqati bilan cheksiz bog'lanuvchi halqalar orqali tutash. Shu sababli shaxs mustaqilligi va erkinligini burch bilan uyg'unlashtirmay, har qanday mutlaqlashtirishga urinish gumrohlikka olib boruvchi yo'ldir.

Har bir insonning tabiatda ham, jamiyatda ham o'z muayyan o'rni, shunga yarasha vazifasi bor. Faqat insonga ularni tanlashda ma'lum erkinlik berilgan. Iroda erkinligi ana shu o'z yo'lini o'zi tanlay olish va o'z ma'naviy dunyosini mustaqil yarata bilish imkonida namoyon bo'ladi.

Har bir insonning mustaqil ma'naviy dunyosi nisbiy tushunchadir.

¹ Islom Karimov. Asarlar. 1-jild, 81-b.

U har bir oilaning o'z yashash joyi, xonadoni yoki qo'rg'oni bo'lgani kabidir. Bu qo'rg'on ichida ham hamma joydagi kabi havo, suv, insonlar, yemish va jihozlar mavjud. Ammo ularning joylashuvi, taomning tayyorlanishi, o'zaro munosabat va boshqalarda o'ziga xoslik, boshqa xonadonlarga o'xshamagan joylari bor. Bir xonadonda oddiyroq, odmiroq jihozlar ko'rsangiz, boshqasida sifatliroq, noyobroq yoki g'aroyibroq jihozga ko'zingiz tushadi.

Xonadon va qo'rg'onlar mahalla va mavzela, ular o'z navbatida katta bir shaharni tashkil qilganidek, turli shaxslar ma'naviyati o'zaro uyushib muayyan toifalar ma'naviyatini, bular oxir borib millat ma'naviy dunyosini tashkil etadi.

Davlat va millat tushunchalari bir-biri bilan bog'liq. Buni hamma biladi. Ammo hech bir davlatda yagona millat yashamaydi. Shu sababli davlat va millatning o'zaro bog'liqligi doimiy nisbiydir. Shu nisbiylikda davlat mustaqilligi ko'proq iqtisodiy omil bilan, millat mustaqilligi ma'naviy omil bilan tutashdir. Mustaqil ma'naviyat millat mustaqilligini, mustaqil iqtisod esa davlat mustaqilligini ta'min etuvchi kuchdir.

Millat ma'naviyati bir kunda, bir yilda, hatto bir asrda ham tugal yaralmaydi, tugal yo'q bo'lishi ham qiyin. Agar alohida favqulodda choralar ko'rilmasa. Shu sababli siyosiy mustaqillikning boy berilishi birdaniga millatning yo'q bo'lishiga olib kelmaydi. Ammo shunday xavf mavjud, muayyan sharoitlarda ba'zan o'ta jiddiy xavf tug'ilishi begumon. O'zbek millati keyingi bir asrdan oshiq vaqt ichida xuddi shunday jiddiy xatar tazyiqida yashadi. Yaratganga beaded shukurlar bo'lsinki, ushbu tahlika boshimizdan aridi.

O'zbek ma'naviyati nihoyatda teran tomirlarga ega. Biz ko'pincha til tutashligidan kelib chiqib, o'zimizni turkiy millat deb ataymiz. Bu – to'g'ri. Ammo agar biz ma'naviyatimiz ildizlarini faqat turk tilidagi manbalardan qidirsak, o'zimizni o'zimiz nihoyatda kambag'allashtirib qo'ygan, kemtik bir merosga da'vo qilgan bo'lur edik. Bu borada biz buyuk ajdodlarimizdan ibrat olsak arziydi.

Xalqimizning buyuk allomalari Al-Buxoriy, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Al-Forobiy kabilar arab dunyosining ilm markazlarida ta'lim olib, uzoq vaqt o'sha yerlarda arab tilida ijod etishgan. Ularni kechagina g'arazli qutqularga uchib, birini qozoq, birini tojik, birini o'zbek deb talashib yurdik. Vaholanki, arablar bular bizning allomalarimiz, deb hurmat qilsa, eroniy xalqlar o'z ma'naviyatiga 'esh biladi, shu bilan birga barcha turkiy xalqlar ham ularni o'ziniki desa to'la haqlidir.

Moziyda islom madaniyati doimo yagona mintaqa madaniyati bo'lib kelgan, Hirot va Xamadon, Bag'dod va Buxoro, Misr va Koshg'ar, Bulg'or va Xorazm ilm va madaniyatda bir-birlaridan ayri yashaganlar. Uzoq Ispaniyadan Sharqiy Turkistongacha, Volgabo'yi o'lkalaridan Shimoliy Hindiston diyorigacha turli xalq va elatlar yagona ma'naviyat olamidani bahramand bo'lganlar.

O'zbek milliy ma'naviyati hududsiz ummonga tutashgan bir bahrdir. Xorazmda turkiy saltanat bo'lmish xorazmshohlar saroyida xizmat qilgan Rashiddin Vatvot o'zining XII asrda yozilgan "Hadoyiq as-sehr fi-daqiq ash-she'r" (She'riyat nazokatlarining sehri bog'lari) asarida she'riy san'at haqida gapirib, avval Qur'ondan va Rasululloh hadislaridan, so'ng mashhur arab shoirlaridan, shundan keyingina fors she'riyatidan namunalar keltiradi. Alisher Navoiy esa o'z ustoz va salafllari qatorida Lutfiy va Nasimiylar bilan bir qatorda Sanoiy va Nizomiy, Sa'diy va Amir Xusrav, Mavlaviy va Attor, Hofiz va Jomiy-larni teng yod etadi. Tasavvufning tariqatlari haqida yozganda turkistonlik yassaviya va naqshbandiya bilan bir qatorda hindistonlik chishtiya tariqati namoyandalarini ham birma-bir tilga olib o'tadi, qadim Yunonning buyuk hakimlarini Qur'onda qayd etilgan payg'ambarlar bilan bir kitobda yo'qlaydi. Demak, biz ham boshqacha yo'l tutsak, maqsadga erisha olmaymiz.

Asli bashariyat ma'naviy olami turli mintaqa ma'naviyatlarining uyg'un hamkorligidan vujudga kelar ekan, islom va nasoro dunyosi, hind va xitoy ma'naviyati o'zaro yaqinlashuvdan faqat yutadi. Ammo yagona til, yagona mafkuraning zo'rlik asosidagi tazyiqi o'rnatilsa, u yomon. Taqdir ekan, sobiq SSSR atalgan hududda turli xalqlar ziyolilari bir tildan foydalanib, 70 yil hamkorlik qilishgan bo'lsa, buning evaziga yaralgan boylik ushbu xalqlarning ma'lum darajada umumiy merosi hamdir. Bugun biz buni inkor qilsak, foyda qilmaymiz, faqat to'q mag'izlarni puchidan, puflab shishirilgan mafkura oqovasidan ajratib ola bilmog zarur. Qolaversa, bugun biz bilan yelkadosh turgan yurtimizning o'zga tilli ziyolilari ham milliy ma'naviyatimizga hissa qo'shishlari tabiiy. Faqat bir merosni ikkinchi merosga zid qo'ymaslik lozim.

Xullas, o'zbekning milliy ma'naviyati necha mingyillik tarix va mu-rakkab taqdirga ega bo'lgan, turli xalq va mintaqa madaniyatlariga esh bo'lib kelgan go'zal va rango-rang dunyo bo'lib, uning tarkibidan ne-ne buyuk shaxslarning ma'naviyat olamlari joy olgan.

Yana bir haqiqatni unutmaylik. An'anaga ko'ra qadimdan Mova-

rounnahrda turli siyosiy-hududiy birliklar (davlatlar) doimo ko'pmillatli bo'lgan. Avval Turon, keyincha Turkiston atalgan o'lkada faqat turkiy qavmlar emas, turli eroniy tillarda gaplashuvchi qabilalar, yunonlar, hindlar, arablar, mo'g'ullar va hokazo xalqlarning vakillari istiqomat qilib kelishgan. Mintaqamiz xalqlari doimo o'zaro hurmat-ehtirom bilan tinch-totuvlik, ittifoqlikda yashab kelishgan, o'zaro kelin olib, qiz berishgan. Siyosiy hokimiyat uchun kurash faqat sulolalararo mavjud bo'lib, milliy ziddiyatlar bizning xalqlarimiz uchun umuman begona bo'lgan. Bu an'ana bugun ham biz uchun qadri bo'lib, davlatimiz siyosatida o'z aksini topmoqda. Vatan xavfsizligini keng ma'noda tushunish, unga tahdid etishi mumkin bo'lgan asosiy xavflar va ularni bartaraf etish yo'llari Prezidentimizning yangi kitobida mukammal tahlil etib berilgan.

Bugungi mustaqil O'zbekiston xalqi turli tilda gaplashuvchi, turli diniy e'tiqod, turli ma'naviy qiyofa, tarixiy o'tmishga ega bo'lgan insonlarni yagona Vatanda birlashuvidan tashkil topgandir. Ularning aksariyat ko'pchiligi azaldan ushbu zaminda yashagan elatlar namoyandasi bo'lsa, ba'zilar o'zga o'lkalardan turli sabablar bilan, turli tarixiy sharoitda bu yurtga kelib o'rnashib qolgandirlar. Albatta, aksariyat fuqarolarimiz o'zbek tilini o'z ona tili deb biladi, shu sababli bu til davlat tili, turli elat vakillariaro rasmiy muloqot vositasi hisoblanadi. Bu dunyo amaliyotida qabul qilingan tabiiy hol. Masalan, Amerika Qo'shma Shtatlarida habash ham bor, o'zbek ham, polyak va ukrain ham yetarli. Ammo barchalari o'z uyida qanday tilda gaplashishlaridan qat'i nazar, bu mamlakatda rasmiy muloqot uchun ingliz tili qabul qilingan. Buni hech kim o'z insoniy huquqlarining qandaydir tarzda cheklanishi deb bilmaydi. «Milliy» sifati bugungi kunda ikki ma'noda qo'llaniladi, biri — til, tarix, ma'naviy qiyofa umumiyligi asosida yagona millatga mansub deb hisoblanuvchi insonlar guruhiga nisbatan bo'lsa, ikkinchisi, yagona davlatga birlashgan muayyan mamlakatning barcha fuqarolari birlashmasiga oid narsa-hodisalarga nisbatan ishlatiladi. Masalan, milliy boylik, milliy manfaatlar, yalpi milliy mahsulot va h.k. singari. Biz har bir insonni Shaxs deb qarashimiz lozim, deb aytdik, chunki unga shunday imkon berilgan. Xuddi shu tarzda biz har bir O'zbekiston fuqarosini yagona O'zbekiston xalqining tarkibida deb yondoshmog'imiz zarur. Chunki O'zbekiston fuqaroligini ixtiyoriy ravishda qabul qilgan har bir shaxs ongli ravishda o'zini Rossiya yoki Tojikiston, Koreya yoki Armaniston mamlakatiga taalluqli deb emas,

ayni O'zbekiston diyoriga mansub bilmogda, har bir o'zbekistonlik bu bilan faxrlanishi kerak. Sayidlar payg'ambar avlodi, xo'jalar sahobalar zurriyotlaridir. Ammo bugun barchasi o'zini arab emas, o'zbek deb anglaydi. Demak, ular o'zbek millatiga tegishli. Qadim xorazmliklar, Sug'diyona yoki Parkana ahli qaysi tilda gaplashgan bo'lmasin, bugun ularni biz — o'zbeklar o'z ajdodlarimiz deb bilamiz. Shunday ekan, bugungi mustaqil o'lkaning har bir fuqarosi O'zbekiston atalmish Vatan oldida, millat va xalq oldida mas'uldir.

2-fasl. Ijtimoiy faollik — ma'naviyat belgisi

Ma'naviyat imon, ilm, riyozat, mehr bilan bo'ladi. Ammo u, avvalo, mas'uliyatdir. Ilm va imon insonga mas'uliyat yukini yuklaydi, uni riyozat va mehr bilan umr dovonlaridan yelkalab o'tiladi. Inson shaxs bo'lib shakllanar ekan, yilma-yil o'zligini anglab boradi, bu o'zlikni anglash davomida ma'naviy kamolot pog'onalari bo'ylab yuksaladi.

Ko'pchilik insonlar ongli umrining o'ndan to'qqizi rizqi ro'z harakati, oila parvarishi bilan o'tadi. Ammo insonning bu yorug' dunyodagi vazifalari faqat shundan iborat desak, yetarli bo'lmas.

Buyuk ajdodimiz Abu Nasr Forobiy «Fozil shahar ahlining qarashlari» kitobining 26-bobida yozadi: «O'z tabiatiga ko'ra har bir inson shunday tuzilganki, u o'z mavjudligini ta'minlash va komil martabaga erishish uchun juda ko'p narsalarga ehtiyoji bor. Bu narsalarni uning bir o'zi hosil qila olmaydi va ularga erishish uchun muayyan bir kishilik jamoasiga ehtiyoj sezadi. Bu jamoaning har bir a'zosi o'ziga va o'zgalarga zarur bo'lgan biror-bir mahsulot, ashyo yoki xizmatni ta'minlaydi va natijada har bir kishining ehtiyojlari to'liq qondirilish imkoni paydo bo'ladi»¹. Shu ma'noda bunday jamoaning har bir a'zosi bir-biriga nisbatan burchlidir. Agar bunday jamoada har bir inson Haq oldidagi mas'uliyatini to'g'ri anglab, kamolot sari o'zi intilar ekan, o'zgalarning ham xuddi shunday intilishiga ko'makdosh bo'lishga astoydil urinsa, natijada «fozil shahar» (jamiyat, millat, mamlakat) vujudga keladi.

Har bir inson bu yorug' olamda halol-pok umr kechirishi uchun atrof voqelik, ya'ni ijtimoiy muhit nisbatan muvofiqroq yoki nomuvofiqroq bo'lishi mumkin. Halol rizq topish, o'zi va oilasi iqtisodiy

¹ Ал-Фараби. Философские трактаты. Алма-ата, 1972, с. 303 (O'zbekcha nashrda ayni shu bob va yana bir qator boblar tushib qolgan).

mustaqilligini ta'minlash insonning shaxs sifatidagi eng birinchi vazifasi bo'lsa, uning ikkinchi muhim vazifasi o'zi yashab turgan ijtimoiy hayotni takomillashtirish ishida ishtirok etishdir. Ijtimoiy hayot bugungi sharoitda yagona davlat hududida ko'pchilik tomonidan qabul qilingan o'z qonun-qoidalariga ega. Ana shu muayyan mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida umummilliy farovonlik va yuksalishi yo'lida faol ishtirok etish vazifasini fuqarolik mas'uliyati deyish mumkin.

Odatda ko'pchilik halol rizq topish va oila tashvishlarini hal qilish vazifasini o'z gardanida deb biladi. Ammo fuqarolik mas'uliyatiga ko'p ham e'tibor bermaydi. Diniy ibora ishlatsak, go'yo fuqarolik mas'uliyati «farzi kifoya»ga o'xshab qabul qilinadi. Kimdir jamiyat kamoloti uchun bosh qotirayaptimi, demak, bizga ish qolgani yo'q, deb hisoblanadi. Davlat boshlig'i (u shohmi, sultonmi, prezidentmi – qat'i nazar), vazirlar, turli daraja amaldorlar, qozilar (sudyalar), ya'ni davlat va jamiyat ishlarini bajarish bevosita mansab vazifasiga kiruvchi shaxslarga jamiyatni takomillashtirish mas'uliyati ham to'liq yuklab qo'yiladida, jamiyatning boshqa a'zolari «o'z bola-chaqa tashvishi, ro'zg'or g'amida» yuraveradilar. Bu ham bir jamiyat. Ammo fuqarolari ruhida ijtimoiy faollik, mas'uliyat bo'lmasa, bu jamiyatning komillik darajasi na Forobiy orzu qilgan «fozil odamlar shahri» va na bugungi ideal «fuqarolar jamiyati» talablariga mutlaqo javob bermaydi. Bunday jamiyatda saylovlar o'tkazilishi, parlament tashkil topishi, davlat va hukumatning turli daraja arboblari saylab qo'yilishi mumkin. Ammo bunday jamiyatning oddiy saylovchisi saylovda nomzodi qo'yilgan bir necha arbobdan qaysisi o'zi da'vo etayotgan o'ringa eng munosib ekanligi haqida voqelikka mos va mantiqiy dalillangan o'z xulosasiga ega bo'lmaydi. Demak, bunday sharoitda davlatning mas'ul maqomlariga kim saylanib qolishi ko'pincha tasodif orqali hal qilinadi, turli siyosiy o'yinlar tufayli yuz berishi ham mumkin.

Agar Allohning inoyati bilan yaxshi va munosib kishi saylovda yutib ketsa, xalqning omadi, ammo shunday bo'lmasa-chi? Yana ko'pchilik «o'z bola-chaqasi g'amidan, turmush tashvishidan» bo'lagini o'ylamagan insonlar boshlariga kulfat tushsa, u yoki bu amaldorning «adolatsizligidan» shikoyat qiladilar, zamondan, rahbarlardan noliydilar, kimlardan-dir najot kutadilar. «Men shu kungacha faqat o'zimni o'yladim-ku, jamiyat qayoqqa ketayotgani bilan bir pullik ishim bo'lmadi-ku, endi birov meni o'ylashi kerak deb da'vo qilishga nima haqqim bor?» deb o'ziga savol bermaydi.

Balki bizning oxirgi 5 asr davomida boshimizga tushgan savdolarning sababi ham ayni shu holatda yashirindir. Mahdumi A'zam — Movarounnahr tasavvufining so'nggi ulug' nazariyotchisi — so'fiyning, ya'ni ma'naviy yetuk kishining siyosatga faol aralashuvini joiz topgan edi. Ammo, nazarimda, XVII—XVIII asrlarda, ya'ni Yevropa va Amerika xalqlari ijtimoiy-siyosiy sohada faollashuvi astoydil avjlangan davrda bizning xalqlarimiz ko'pchiligi — xunuk ibora bo'lsa ham balki qo'llash kerakdir — «ijtimoiy-siyosiy tamballik»ka, harakatsizlikka berildilar. Aniqrog'i, ijtimoiy kamolot yo'llarida sustkashlik ko'rsatdilar. Natija ma'lum. Shu sababli har bir O'zbekiston fuqarosining Yurt mustaqilligini mustahkamlash, millat taqdiriga kuyunchaklik bilan munosabatda bo'lishiga erishish orzusida tinib-tinchimagan Prezidentimiz har bir ma'ruza, har bir suhbatida bizni faollikka, ijtimoiy fidokorlikka undaydi.

Yana Ustodi soniyga murojaat etamiz: «Insonlari haqiqiy saodatga erishish yo'lida bir-biriga yordam berish uchun birlashgan shahar — fozil shahardir va saodatga erishish maqsadida bir-biriga yordam beruvchi insonlar jamoasi — fozil jamoadir. Barcha shaharlari saodatli bo'lish yo'lida bir-biridan yordamini ayamaguvchi xalq (millat) — fozil xalq, fazilatli millatdir. Shunday ravish bilan agar butun olam ahli bir-biriga saodat yo'lida xolis ko'maklashuvga tayyor bo'lsa, kurrayi zamin fozil insonlar makoniga aylanadi»¹. Ushbu fuqarolik mas'uliyatini to'liq anglab yetmas ekanmiz, bizning shaxs sifatidagi ma'naviy kamolotimiz ham tugallik kasb etmaydi.

3-fasl. Shaxs erki va qonun ustuvorligi

Fuqarolik mas'uliyati nima, degan savolga eng umumiy tarzda *ijtimoiy hayotni takomillashtirish jarayonida ishtirok etish vazifasi* deb javob berdik.

Endi ushbu masalani mufassalroq ko'rib chiqaylik.

Avvalo, qaysi kasbda bo'lmasin rizqini halol topib yeyish harakati-da bo'lmagan odam *ijtimoiy hayotni takomillashtirish* emas, uni *buzishga, izdan chiqarishga* «hissa» qo'shadi. Shu sababli ham *halol rizq topish* shaxs ma'naviyatining ham, fuqarolik mas'uliyatining ham poydevorini tashkil etadi.

Ikkinchidan, qonunlarga to'liq rioya etish. Buning uchun, avvalo,

¹ Ал-Фараби. Философские трактаты. Алма-ата, 1972, с. 305

mamlakat qonunlarini yaxshi bilish talab etiladi. O'zi qonunga rioya etishni lozim bilmagan odam boshqalardan adolat umid qilishga haqlimi? Aslini olganda, «men bugun qonunlarga rioya qilsam, ertaga bir-varakay hamma narsa yaxshi bo'lib ketadi», deb o'ylash voqelikni juda jo'n tushunish bo'lar edi. Ammo bir narsa aniq: agar har bir fuqaro «faqat men qonunga rioya qilishim shartmi, avval boshqalardan bo'lsin», deb mulohaza yuritsa, yurtda hech qachon barqarorlik, ijtimoiy xavfsizlik, balki, umuman, oddiy yashash imkoni ham bo'lmaydi. Jamiyatda aksariyat ko'pchilik qonunlarga rioya qilgan joydagina muayyan rivojlanish, takomil umidi bo'lishi mumkin.

Ba'zan, zohiriy nazarda, qonunga so'zsiz rioya etish shaxsiy va oilaviy manfaatlarga zid ko'rinishi mumkin. Shu asosda ba'zi «dialektik tafakkur muxlislari» shaxs va jamiyat manfaatlari orasidagi ziddiyatlar muammosini olg'a surishadi. Asli bunday yondoshuv mutlaqo noo'rin va beasos. Chunki jamiyat manfaatlariga zid bo'lgan har qanday xatti-harakat asl mohiyatida har bir alohida shaxs manfaatiga ham zid bo'lib chiqadi va, bil'aks, har bir shaxs manfaatlariga zid narsa oxir-oqibat jamiyat manfaatlariga ham ziddir. «Ayshni nodon surib, kulfatni dono tortadur», degan mashhur satrlar fozil shahar qonuniyatlari emas, johil shahar boshboshdoqligi asosida yashovchi jamiyatga taalluqlidir. Nodon odamgina men qonunga rioya qilsam zarar ko'raman, deb mulohaza qilishi mumkin. Chunki nodon odamning eng asosiy xislati boshqalarni o'zidan ko'ra ahmoqroq deb o'ylashida namoyon bo'ladi. U men boshqalarni aldab, o'z ishimni bitirib keta olaman, deb xayol qiladi. Johil jamiyatda ikki nodon birlashib, qolganlarni aldab ketish rejasini tuzishadi. Qolganlarning ko'pchiligi ularning ishi bitganini ko'rib, o'zlarining to'g'ri xatti-harakatlarini «nodonlik» va qonun buzuvchilarning jinoyatini «ishbilarmonlik», deb o'ylay boshlashsa, tez kunda «johil shahar» razolat va badbaxtlik shahriga aylanadi. Bunday jamiyatda barcha badbaxt va ojiz bo'lib, bir-birini ayblashdan boshi chiqmaydi, bu bilan ish o'nnglanish o'rniga battar xaroblashadi.

Sobiq sovet davlatida kommunistik ideologiyaning total hukmronligi sababli amalda 250 mln. aholi ustidan yakka bir shaxs — KPSS bosh sekretarining mutlaq hokimligi vujudga kelgan bo'lib, adolat tarozisi faqat o'sha lavozimni egallagan odamning qo'lida hisoblanardi. U qanday hukm qilsa, shu — oxirgi va mutlaq haqiqat deb qabul qilinishidan o'zga chora yo'q edi. Shu sababli hamma jabr ko'rganlar yoki biror imtiyozdan umidvor bo'lganlar KPSS Markaziy Komitetiga, shaxsan

bosh kotib Falonchiyevga murojaat qilish uchun intilar edilar. Bu buyuk alloma nazaridagi «adashganlar shahri»ning yaqqol namunasidir. Oxiri borib bunday «adashganlar shahri» ham razolat va badbaxtlar shahriga aylanishi va halokatga yuz tutishi amalda o'z tarixiy isbotini topdi.

Aslida adolat har bir insonning qalbida bo'ladi. Har bir fuqaro avvalo adolatni o'z ko'nglidan axtarishi kerak. Agar jamiyatdagi har bir adolatsizlik sababini qidirgan fuqaro birinchi navbatda o'z vijdoniga, qalbiga murojaat qilsa, o'zi duch kelgan adolatsizlik ildizini avvalo o'zidan qidirsam, adolatni qaror toptirish uchun kurashni o'z kamchiliklarini tuzatishdan boshlash lozim deb hisoblasa – fuqaro mas'uliyati ayni shu daqiqadan uning ruhida uyg'ongan bo'ladi.

Qonunga rioya qilish bu yo'ldagi dastlabki qadamdir. Tan olish kerak, xalqimizning ko'pchiligida fozil shahar aholisining dastlabki ikki muhim sifati – halol rizq topish uchun intilish va qonunlarga rioya etish, ulardan bosh tovlamaslik xislatlari mavjud. Bular shu darajada muhim fazilatlariki, jamiyat barqarorligi, millat hamjihatligi, davlat xavfsizligi ko'p jihatdan shu ikki xislatning jamiyat a'zolari xatti-harakatida ustuvorligi bilan bog'liqdir. Ammo bu darajada to'xtab qolish fozil jamiyat uchun yetarli emas. Jamiyat hayoti faqat adolat asosida qurilishi mumkin. Boshqacha holatda jamiyat ilojsiz halokatga mahkum. Ammo adolat masalasida ajab bir muammo mavjud. Yuzaki qaraganda hamma adolat tarafdori, adolatsizlikka barcha qarshi. Shunday ekan, nega jamiyatda adolatsizlik yuz beradi? Masalaning bir nozik jihati bor. Adolat tarozisi har bir insonning barcha fazilat va nuqsonlarini, iste'dod va kamchiliklarini aniq «vaznini» belgilab, o'shanga yarasha har bir shaxsning ijtimoiy qiymatini o'lchaydi va baholaydi. Yana buning ustiga unga mavjud yutuq va kamchiliklariga yarasha ajrini ajratib beradi. Ya'ni faqat insonga ma'naviy baho beribgina qo'ya qolmay, unga umumijtimoiy moddiy ne'matlardan ham o'z «vazniga» yarasha ulush belgilaydi. Bunda shaxsning o'zi o'ziga bergan bahosi emas, jamiyatga yetkazgan nafi hisobga olinadi. Ana shu yerda zohiriy ziddiyat yuzaga chiqadi. Johil odam har vaqt o'zini eng oqil, eng iste'dodli, umumijtimoiy boylikdan eng katta hissaga haqdor, deb biladi. Bunga hozirgi zamon ijtimoiy tafakkurida keng urf bo'lgan qator tushunchalar mohiyatini tushunib-tushunmay g'aliz talqin qilish oqibatlarini ham ba'zan ta'sir ko'rsatadi. Masalan, «gumanizm» va «ijtimoiy adolat» tushunchalarini boqimandalik kayfiyatlarida, «demokra-

tiya»ni shaxsiy mas'uliyatsizlikka bahona sifatida o'z foydasiga burib safsatabozlikka aylantirishga urinish holatlari, «e'tiqod» tuyg'usidan aqidaparastlik ruhidagi da'volar uchun foydalanish, qon-qarindoshlik mehrini o'zgalar zarariga suyiiste'mol qilish harakatlari jamiyatda u yoki bu darajada kuzatiladigan holatlar bo'lib, bunday tamoyillarning avj olishi jamiyatni ayni «johillar shahri»ga aylantiruvchi omildir.

Har bir inson o'z xos tabiati yo'nalishida iste'dod egasi qilib yaratilgan. Agar u o'zligini anglashga urinsa, o'ziga eng muvofiq iste'dod yo'nalishini albatta topadi. Faqat jamiyat muayyan aqidani zo'rlik bilan unga singitishga urinmasa bo'ldi. Buning uchun mustaqil O'zbekiston asosiy qonunida aniq kafolatlar belgilangan. Biror-bir diniy yoxud falsafiy aqida asosida O'zbekiston fuqarolariga muayyan imtiyoz yoki cheklashlar joriy qilinishi mumkin emas.

Inson o'zligini qancha barvaqtroq anglab yetsa, jamiyatda shuncha tez o'z haqiqiy o'rnini topib oladi va hayotini to'g'ri izga sola biladi. Buning uchun ota-ona, jamiyatdagi mutasaddi shaxslar ko'maklashuvlari tabiiy. Barcha maxluqotning taqdiri Alloh taolo irodasidan tashqari emas. Ammo inson yer yuzidagi gunoh va savoblari uchun Yaratgan oldida mas'ul ekan, demak, sinov maydoni bo'lmish bu yorug' dunyoda muayyan ma'noda o'z taqdirini o'zi belgilaydi. Insonning iroda erkinligi shu yerda. Agar jamiyatda o'z o'rnini vaqtida to'g'ri belgilay olsa, bu dunyosini ham, u dunyosini ham obod qiladi, agar o'z taqdiriga bepisandlik bilan yondoshsa, o'zini har ikki dunyoda xarob qiladi. Milliy ma'naviyatimizning xos fazilatlaridan bo'lmish Allohga tavakkul esa hayot mashaqqatlarini sabr-bardosh bilan yengib o'tishga hozirlikni bildiradi, faoliyatsizlikni, fikriy tanballikni emas.

Har bir inson baxtga intiladi. Buning ustiga ertaga emas, shu bugundan boshlab baxtli yashashni xohlaydi. Bu istagiga dabdurustdan erisha olmagach, aybdor qidiradi. Ana shunda uning oldida ikki yo'l namoyon bo'ladi: biri boshiga tushgan hayot sinovlari uchun kimni bo'lmasin bironni aybdor deb bilish, ya'ni aybni o'zidan tashqaridan qidirish; ikkinchisi, ishlari yurishmayotganlik sabablarini o'z kamchiliklaridan deb bilib, sabr-toqat va matonat bilan ularni tuzatishga, hayotini yaxshi tomonga o'nglashga o'zini safarbar etish.

Ma'lumki, birinchi yo'l oxir natijada faqat vaziyatni murakkablashtirishga olib keladi, ikkinchi yo'lgina insonni ijobiy yutuqlarni qo'lga kiritishiga sabab bo'lishi mumkin. To'g'ri ba'zi odam urush-janjal bilan ham bir narsalarga erishaman deb o'ylaydi. Ammo bu yo'l bilan

qo'lg'a kiritilgan birgina «yutuq» o'z orqasidan ming kasofat-u kulfatni boshlab kelishi hech gap emas. Chunki yomonlik yo'lidan yaxshilikka erishib bo'ladi deb tasavvur etish, o'ta xavfli va halokatli xomxayodir. Inqilob yo'li bilan go'yo «katta yutuq»larni qo'lg'a kiritgan bolsheviklar oxir natijada o'zlari bir-birlarini qirib bitirdilar va bashariyat boshiga ham ne kulfatlarni keltirdilar. Shunday ekan, har kim jamiyatni kamchiliklardan xalos etmoqchi bo'lsa, avval o'z ayb-u xatolarini o'nglashdan boshlasin, jamiyat kamolotini orzu qilsa, o'z ma'naviy kamoloti yo'lida jiddu jahd ko'rsatsin. Chunki jamiyat shaxslardan tashkil topadi va ushbu shaxslarning ma'naviy qiyofasi umumjamoaning ma'naviy holatini belgilaydi.

Albatta, bu qoida juda umumiy va jo'n ko'rinadi. Hayot esa murakkab. Hayotda o'zi hech harakat qilmay, faqat birovlarini ayblab o'tiraveradigan odam deyarli uchramaydi. Odamlar bor – o'ta harakatchan, boshqalarning ayb-u xatosini ko'rsatish barobarida o'zlari ham jamiyatga naf yetkazish uchun muayyan ijobiy ishlarni bajarib boradilar. Boshqa bir toifa ko'p ham o'zgalarni ayblamaydi, o'z hayotiy qiyinchiliklariga ko'proq o'zini sababchi deb biladi, ammo baribir o'rgangan hayot tarzini keskin o'zgartirmaydi, na tashqi sharoitni, na o'z ahvolini o'nglash uchun faol harakatga kirishmaydi. Orada yana necha toifa bor. Biroq shu narsa aniqki, ta'sir aks ta'sir ko'rsatadi, xayrixohlik yaxshilikka eltadi, dushmanlik kurashni kuchaytiradi. Kurash esa buzg'unchilikdir. Albatta shahar markazida bir beo'xshov imorat husnbuzardek turib qolgan bo'lsa, uni buzib tashlab o'rniga yaxshi bir bino tiklagimiz keladi. Ammo buzishga kirishishdan ilgari obdan o'ylab, chamalab, kengashib ko'rmoq zarar qilmaydi, balki ozgina ta'mir bilan shu imoratning o'ziga husn kiritish mumkindir. Qolaversa, bizning didimiz, go'zallik va uyg'unlik xususidagi tasavvurimiz mukammalmi?

4-fasl. “Haq so'zni berkitmang”

Inson – «xom sut emgan banda» sifatida hech qachon kamchiliklardan xoli bo'lmaydi. Demak, «men o'zim mukammal emasman-ku», degan andisha bilan jamiyatda biror kamchilik kuzatsak yoki bizga shunday tuyulsa, fikrimizni ochiq bayon qilishdan tiyilganimiz ma'qulmi yoki biror chora ko'rish kerakmi? Biror o'zga shaxsning ayb-u xatosini ko'rgudek bo'lsak, uni qanday bildirish lozim? Yoki men avval o'z xatolarimni o'nglashim kerak, deb indamay o'tib keta berish kerakmi?

G'arbda so'z erkinligi masalasiga alohida e'tibor qaratiladi. Masa-

la, darhaqiqat, muhim. Ammo bir jihati bor. Agar soʻz erkinligi huquqidan birovni koʻpchilik orasida obroʻyini toʻkish, izza qilish, hatto turli mish-mishlar tarqatish bilan odamlar orasida shubha-gumonlar tugʻdirish uchun foydalanilsa-chi? Toʻgʻri, har kim oʻz obroʻyini himoya qilishi uchun sud bor, advokatlar xizmatidan foydalanish mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda bu kabi vositalar keng qoʻllaniladi. Ammo maʼnaviy omilning oʻrnini ular bosa olarmikin?

Tavhid maʼnaviyatida soʻz erkinligi muammosi bika hal qilingan. Allohning kitobida bu haqda aniq koʻrsatmalar mavjud. «Baqara» surasining 42-oyatida «Haqni nohaqlik bilan qorishtirmangiz, hamda bilaturib haqiqatni yashirmangiz», deyilgan. Qurʼon oyatlarining tafsirini har davr va zamon kishilari oʻz tushunchalari va oʻsha davr shart-sharoitidan kelib chiqib talqin qilganlar. Milliy maʼnaviyatimiz nuqtayi nazaridan yondoshsak, Haq Alloh taoloning haqiqatidir va undan har qanday chekinish nohaqlik, oʻziga yoki oʻzgaga zulm boʻladi. Haqqa qanday yetishish mumkinligi va bu haqiqatdan uzoqlashtiruvchi omillar nimalardan iborat ekanligi tasavvuf taʼlimotida mukammal sharh etilgan. Soʻfiylarning mingyillik irfoniy tajribasini bir jumla bilan ifoda etilsa, Haq soʻz – xolislik va xayrixohlik bilan, yagona Alloh rizoligi yoʻlida aytilgan soʻz, nohaq soʻz esa, har qanday gʻaraz, xudbin niyat aralashgan soʻz boʻlib, gʻiybatga, dushmanlikka, gʻarazli amallarga olib keladi. Gʻarazli niyatda hatto birovga shirin soʻz aytilsa ham, u achchiq meva beradi. Umuman insonga emas, illatga qarshi kayfiyatda boʻlish xayrlidir. Insonni unga yopishgan illatlardan farq qilish kerak. Insonni yerdagi xalifa deb qabul qilib, unga yarashmagan, koʻngil koʻzgasini xira torttirib turgan chang-u gʻubordan poklanishiga koʻmak yetkazuvchi xayrixohlik bilan yoʻgʻrilgan maslahatlar berish, yaxshi munosabat bilan uning qalbida ezgulik sari intilish tugʻdirishga urinmoq ayni savobdir. Har qanday gʻazab bilan, toqatsizlik bilan aytilgan gap esa aks taʼsir tugʻdiradi, dushmanlik qoʻzgʻatadi, zero yomon kayfiyat yaxshilik sari eltmaydi.

Ammo haq soʻzni xayrixohlik bilan aytish hali barcha ishni oʻnglovchi vosita emas. Jamiyatga naf yetkazishning eng muhim va eng unumli yoʻli – *muayyan kamchiliklarni fazilatlariga oʻgirishning amaliy vositalarini qidirib topish va uni amalga tatbiq etishdir.*

Prezident ijobiy (foйда keltiruvchi) muxolifat (конструктивная оппозиция) deganda ayni ana shu yoʻnalishda natijali yumushlarga qoʻl urganlarni nazarda tutadi. Maqsad nima oʻzi – jamiyat kamoloti-

ni ta'minlashmi yoki barqarorlikni izdan chiqarishmi? Hamma gap shunda. Ijtimoiy faol shaxs o'zining har bir qo'ymoqchi bo'lgan qadami kelajak natijasi haqida jiddiy o'ylab ko'rmog'i durust. Qadamni qo'ygach, oqibatga qarab yana bir karra o'zi uchun xulosa chiqarsa — yanada yaxshi.

Har bir inson zoti ma'naviy qiyofasi tufayli shaxsdir. Hayvon o'lgach, tuproqqa aylanadi, insonni esa uning ma'naviyati baqoga eltadi. Millat ham shunday. Bugungi mustaqillik sharoitida yurtboshimizning milliy ma'naviyatga ayricha e'tibori shu sabablidir. Ammo haqiqiy ozod fuqarolar jamiyati tashkil topishi uchun millatning har bir a'zosi, shu aziz Vatanning har bir fuqarosi o'zligini anglab yetishga intilmog'i, o'z ulug' maqomiga munosib amal qilmog'i taqozo etiladi. O'zbekistonning buyuk kelajagi mas'uliyati har biri-mizning zimmamizdadir.

4-BOB. ADOLAT — IJTIMOY HAYOTDA MA'NAVIYATNING NAMOYON BO'LISHI

1-fasl. Adolat muammosi. Siyosat va axloq

Adolat muammosi doimo insoniyatning diqqat markazida bo'lib kelgan. Bu tushuncha siyosatshunoslik fanining bosh mavzularidan biri ekanligi yaxshi ma'lum. Ammo adolat avvalo ma'naviy qadriyatdir. U aslida ma'naviyatning ijtimoiy hayotdagi zuhuridir. Bunga buyuk ajdodlarimizning ko'p asrli merosi guvoh. Albatta, ijtimoiy hayotda adolatning qay darajada barqaror bo'lishi bashariyat ma'naviy takomilining turli davrlarida, turli mintaqalarda turlicha omillarga bog'liq bo'lgan. Masalan, ibtidoiy jamoa odami o'z urug'i va qabilasi ko'lamida fikr yuritgan bo'lsa, qadim Yunonistonda boshqacharoq, O'rta asr xristian dunyosida bir xil, islom mintaqasida o'zgacha bir tusda talqin etilgan. Adolat muammosining yana bir murakkabligi u turli sohalarga tatbiq etilganda turlicha talqin etiladi. Masalan, milliy (aniqrog'i, millatlararo) adolat, diniy (dinlar aro, turli din vakillariaro, turli diniy tizimlar nuqtayi nazaridan) adolat, iqtisodiy adolat, ijtimoiy (ya'ni turli ijtimoiy toifalar aro) adolat, qozilikdagi (ikki da'volashuvchi shaxsaro) adolat va h.k. Bularning har birida adolat timsoli o'ziga xos tarzda tasavvur etiladi. Qazovatda, misol uchun, Yevropa an'anasiga ko'ra u ikki pallali tarozi shaklida tasavvur qilingan. Ikki tomon da'volashganda,

qat'iy hukm chiqarish uchun, balki noiloj tarozining bir pallasiga tosh qo'yishga to'g'ri kelar. Ammo ijtimoiy adolat mezoni bugungi kun voqeligida unchalik jo'n tasavvurlarga muvofiq kelmasligini tushunib yetmog'imiz zarur. Milliy ma'naviyatimizning mingyillik tajribasi, hayot mantiqi, bashariyat fikri yetishgan ilg'or tamoyillar bizni shunga undamoqda.

Fikrni oydinlashtirish uchun tashbihni badiiyat dunyosidan boshlasak. Ma'lumki, har bir san'at o'z imkon doirasida hayot haqiqatini aks ettirishga urinadi. Yangi-yangi tasvir vositalari topilgan sari voqelikni badiiy idrok etishimiz ham takomillashib boradi. San'at turlari ichida tarixan eng yangilari bo'lmish kino va teleko'rsatuvlar o'z imkoniyatlari bilan hayotni asl murakkabligida yorqin idrok etish imkonini bera olganligi tufayli XX asr avlodining eng sevimli tomoshasiga aylandi. Dastlab ekranda voqelik faqat oq va qora bo'yoqlar zidlashuvida ifodalanar edi. O'sha paytlarda bizga hayotni faqat "biznikilar" va "dushmanlar" ("qizillar" va "oqlar", "sovetlar" va "fa-shistlar", "mehnatkashlar" va "ezuvchilar")aro kurash sifatida ko'rsatishdi. Dunyoning holati go'yo zulmat va nur, "sotsializm" va "kapitalizm", "progressiv" va "reaksion" kuchlarga taqsimlangan holda namoyon etildi.

Asta-sekin hayotimizga rangli filmlar, rangli teleekran kirib kela boshladi. Atrof-voqelikning turfa jilolarga boy ekanligi o'ynayi jahonda ro'yirost ko'rindi. Ammo to 90-yillar boshlanishigacha dunyo o'zgarsa ham, sobiq SSSRning hukmron mafkurasi o'zgarmadi: voqelikning mohiyatini izohlashda asl haqiqat bitta – Marks ta'limoti, qolgan barcha nuqtayi nazarlar yo nomukammal, yoki haqiqatga zid, ya'ni reaksiyon deb qarash davom etdi. Shunga binoan dunyo ham ikki qutbli talqin etildi. Hayot ikki o'zaro zid kuchning murosasiz kurashidan iborat deb uqtirish davom etdi. Bu kurashda har bir inson jabhaning yo u tarafida, ya'ni "dushman", "begona", yo bu tarafida, ya'ni, "do'st", "o'zimizniki" bo'lishi shart edi. Bunday yondoshuv qancha-qancha begunoh jonlarni qurbon etganligi, ne-ne ezgu niyatlarni barbod aylagani hozir hech kimga sir emas.

Alloha beadad shukrlar bo'lsinkim, bunday alahsirash, vahshatli bosinqirash biz uchun o'tmish bo'lib qoldi. Mustaqillik sharofatidan dunyoga ochiq ko'z bilan qarash imkoniyatini qo'lga kiritdik. Endi bilsak, *dunyo ko'p qutbli ekan, hayot murakkab, ko'p qirrali tizimdan iborat* ekan. Kelajak ham murosasiz kurash, zidlashuv bilan emas, yaratuvchilik mehnati, do'stlik va insonlarning o'zaro bir-birini tushu-

nishga intilishi bilan fayzli bo'lar ekan. Hatto bir millatning xavfsizligini ta'min etish, jamiyat barqarorligi va ijtimoiy taraqqiyot kafolatlari turli omillarning o'zaro uyg'unligi bilan bog'liq ekan. Dastlabki boblarda bu haqda batafsil to'xtab o'tildi. Bu bob esa milliy ma'naviyatimizning asosiy qadriyatlaridan bo'lmish adolat hodisasining ijtimoiy hayotda o'zligini qanday namoyon etishi xususidadir.

Adolat ma'naviyatning insonlararo munosabatlarda namoyon bo'lishidir. Ma'naviyat nuqtayi nazaridan insonlarning bir-biri bilan har qanday munosabati siyosat sohasiga oiddir. Darhaqiqat, keng ma'noda, insonning uyda ahli oilasi bilan qilgan muomalasi ham, ko'chada tanish-notanish, qarindosh-begonalar bilan qilgan muomalasi ham, ish yuzasidan hamkasblari, boshliqlari, xodimlari va mijozlar bilan qilgan muomalasi ham siyosat. Ammo «avom» nazdida davlat miqyosidagi siyosat «katta siyosat» deb hisoblanib, katta siyosat bilan kattalar shug'ullanadi, biz kichik odamlarga bunday katta doiradagi siyosatga aralashish joiz emas, degan mazmundagi qarash ancha keng tarqalgan.

Insonlar bir-biri bilan qandaydir bir shakldagi maqbul munosabatlarga kirishga mahkum ekan, demak inson hayoti siyosatsiz bo'lmaydi. Faqat bugungi siyosatsihunoslar «katta siyosat», ya'ni davlat va fuqaro yoki davlatlararo miqyosdagi siyosatga asosiy e'tibor qaratishadi. Vaholanki, qadim dunyo allomalari asarlarida axloq va siyosat bir-biridan ajralmas hodisalar sifatida qaralar edi.

Bizning nazarimizda, siyosat va axloq bir tizimga birlashmas ekan, barcha uchun «katta siyosat» ham «kichik siyosat» kabi bevosita taaluqli hisoblanmas ekan, jamiyatda adolat va ijtimoiy uyg'unlik amalda barqaror bo'lmaydi. Albatta, ularning bir-biridan farqi ham yo'q emas. Masalan, siyosiy munosabatlar rasmiy qabul qilingan qonunlar doirasida olib boriladi, bu qonunlar majburiy ijro etiladi. Axloq qoidalari, ma'lum ma'noda, ixtiyoriy. Ya'ni, siyosat qonunlarini bu yorug' dunyoda insonlararo munosabatda farz desak, axloq qoidalarini sunnatga qiyos qilish mumkin. Allohning farzlari ilohiy kitob oyatlari orqali ayon etilgan, insonlar esa o'zaro munosabatlarini o'z aql-idroklariga tayanib ishlab chiqadilar. Shu sababli Alloh farzlari abadiy va mutlaq bo'lib, ularning yuzasidan oxirgi hukm qiyomat kunidir. Odamlar o'rnatgan qonun-qoidalar ularning ma'naviy takomil darajasiga bog'liq bo'lib, har zamonning, har mamlakatning o'z qonunlari bor va ular o'zgarib, mukammallashib boradi.

2-fasl. Qadr tushunchasining siyosatdagi in'ikosi

Oldingi boblarda ulug' qadriyatlar — Vatan va Millat haqida, inson qadri xususida gapirib o'tildi. Darhaqiqat, qadr birinchi navbatda ma'naviyat sohasiga oid tushuncha, chunki Xalloqi olamning birligi va borligini tan olmagan odam na o'z qadrini biladi, na o'zga mavjudotlar qadriga yetadi. Shu bilan birga *ma'naviyat, iqtisod, siyosat* yo'nalishlarining murakkab kesishuvida «*Adolat*» timsol-tushunchasi shakllanar ekan, ayni qadr tushunchasi bu sohalarini bir-biriga bog'lab turuvchi markaziy nuqta sifatida o'zligini namoyon etadi.

Qadr tushunchasi iqtisodda qiymatga aylansa, siyosat sohasiga tatbiq etilganda *mavqe* va *maqom* qiyofasini kasb etadi. Bu masala milliy ma'naviyatimizda allaqachon anglab yetilgan va uning yechimi ham berilgan. Siyosatdagi huquq, burch, imtiyoz hodisalarining tagzaminida ayni shu insonlarning bir-biriga nisbatan *mavqe* va *maqomi* masalasi joy olgandir.

Alloh Odamni yer yuzida xalifa qilib yaratgan. Ahli bashardan har bir fardning (alohida insonning) qadri ham, huquq va mas'uliyatlari ham uning ayni shu maqomi bilan belgilanadi. Aslida yaratilishdan insonlarning bir-biriga nisbatan huquqlari ham, burchlari ham azal va abad tengdir. Faqat turli insonlarda o'zligini anglash darajasi har xil. Ilohiy kitoblarda insonga yer yuzidagi ijtimoiy tartiblarni qanday belgilash yuzasidan qat'iy hukmlar e'lon qilinmagan, siyosat sohasida inson irodasi to'liq erkindir. Yer yuzida zulm saltanati barqaror bo'ladimi, adolat ustuvorligimi — insonning o'ziga bog'liq. Allohning imtihoni — bu. Ammo Yaratgan Parvardigorning va'dasi aniq: kim o'z umrida bir misqol savob qilsa ham ajrini oladi, bir botmon gunoh qilsa ham.

Adolat timsol-tushunchasi xuddi ana shu sinov maydonida inson hayotining turli sohalarini o'zaro muvozanatlab turadi. Milliy ma'naviyatimiz takomilida bu tushunchaga munosabat qanday shakllanib borgan, ya'ni adolat mezoni qanday talqin etilgan? Suhbatimiz mavzusi shu haqda.

Buyuk ajdodlarimiz davlat, jamiyat, ma'naviyat masalalarining o'zaro uyg'unligiga doimo katta ahamiyat berib kelganlar. Bu masala "Avesto" kitobida ham keng o'rin olgan. Ammo turkiy bitiklar, Forobiy merosi, "Qutadg'u bilig" kabi qomusiy yodgorliklarda bu muammo har biri o'z davri uchun butun ichki murakkabligi bilan ochib va yechib berilgan. Ular nisbatan batafsil o'rganilgan va hozir alohida to'xtab o'tish imkoni ham yo'qligi sababli biz faqat muammoning eng muhim o'rinlariga qisqacha to'xtab o'tamiz, xolos.

Ma'lumki, inson jamoa bo'lib yashaydi. Islom mintaqa madaniyatining buyuk nazariyotchilaridan, XIV asrning yirik faylasuf-tarixchisi va siyosatshunosi, Amir Temurga zamondosh va suhbatdosh bo'lgan Ibn Xaldun (1332–1406) inson jamoalarini ikki toifa yoki bosqichga ajratadi. Birinchisi – ibtidoiy jamoa, ya'ni urug' va qabila jamoasi bo'lib, bunda insonlarning bir jamoaga uyushuvi qon-qardoshlik munosabatlariga asoslangan bo'ladi. Bu davrda aksariyat insonlar o'zligini faqat o'z jamoasi, nari borsa, qabila va elati miqyosida anglab yetgan. Shu sababli o'zi bilan nasliy qon-qarindoshlik munosabatlarida bo'lmagan yoxud shunga teng bitimlar hosil qilmagan begona jamoa, urug' va elat vakilini nafaqat qabiladoshlari bilan teng sanamagan, balki uning inson darajasidagi qadrini ham idrok etmagan. Qadim johiliya arablarining hayotidan xabar beruvchi manbalar, masalan, «Ayyomi arab»da tasvirlangan qabilalar orasidagi ayovsiz jang-u jadallar, o'zga qabila a'zolari mulkini talon-toroj qilib, ayollari, bolalarini qul-cho'riga aylantirib, shuning hisobidan qabiladoshlariga ziyofat berishlar odatiy hol hisoblanib, yana bunday bedodliklarning «qahramonlik» sifatida she'riyatda vasf etilishi kabi holatlar bunga dalil bo'la oladi.

Ma'naviy kamolotning yuqoriroq bosqichiga ko'tarilgan insonlar uchun xos bo'lgan ikkinchi bosqichdagi jamoani allomalarimiz «shahar jamoasi» deb ataganlar. Asli bu tushuncha faqat «shahar» emas, «davlat» ma'nosini ham bildirgan. Yunonlarning «polis» so'zi bugun biz tushungan «shahar»ni emas, Afina, Sparta kabi shahar-davlatlarni anglatganligini dunyo tarixidan bilamiz. Insonlar jamiyatida ilk davlatning paydo bo'lishi asl ibtidoda shaharlar shakllanishi bilan bog'liq. Shu sababli yunonlardagi «polis» (shahar) so'zidan Yevropa mintaqasida «politika» (siyosat, ya'ni insonlararo muomala tartib-qoidalari) tushunchasi shakllangan bo'lsa, islom dunyosida arabcha «madina» (shahar) so'zidan «madaniyat» tushunchasi shakllandi. Bu tushunchalar kelib chiqish mohiyatiga ko'ra tutash ekanligi shundan ham ma'lum.

Ilk shaharlarda urug' o'rniga mahalla, qabila o'rniga elat shakllana boshladi. Ammo ibtidoiy jamoadan o'sib chiqqani sababli, unda qabilachilik davrining ko'p xurofotlari saqlanib qolgan edi. Masalan, o'zlarini yuksak madaniyat egasi deb bilgan qadim yunonlar o'zga xalqlarga past nazar bilan qarab, aslo ularni o'z millatdoshlari darajasida ko'rmas edilar. Ularni o'ldirish, yerlarini bosib olish, mulklarini o'zlashtirish jinoyat emas, balki jasorat namunasi sifatida qabul qilnardi. Hatto qadim Yunon elining eng ulug' allomasi Arastu ham

barcha huquq va imtiyozlarni faqat o'z xalqiga — yunonlarga lozim ko'rgan, dunyodagi o'zga elat vakillariga “varvar” (yovvoyi) deb qarab, ularga faqat qullikni ravo ko'rgan. Yunon demokratiyasi xuddi shu dunyoqarashga muvofiq bo'lib, faqat ozod ellinlarga taalluqli edi, qullar bu demokratiyadan tashqari hisoblanardi.

Shunday vaziyatda yengilgan qabila vakilini qatl etmay, qul sifatida saqlab qolish g'oliblar nazarida balki mag'lubga nisbatan himmat ko'rsatish deb baholanganidir. Quldorlik tartib-qoidalari ilk imperiyachilik davri mahsuli bo'lib, ibtidoiy urug'-jamo'a asosida paydo bo'lgan ilk shahar-davlatlardan ba'zilarining o'zgalari ustidan qudrat kasb etishi bilan bog'liq. Bu davrda ahli bashar muayyan darajada rivojlangan madaniyat bosqichiga erishgan bo'lsa-da, aksariyat xalqlar ongida hanuz asotir tafakkur hukmron edi.

Asotir tafakkur Borliq mohiyatini idrok etishga dastlabki urinish bo'lib, unda aksariyat insonlar mavhum tushunchalarni moddiy voqelik narsa-hodisalaridan ajratib tasavvur qila olmaydilar. Mushriklikning kelib chiqishi ham inson ongi rivojining ayni shu darajasi bilan bog'liq. Islomgacha hukmron bo'lgan johiliya davri deganda ham inson ongingin asotir tafakkur darajasidagi holati nazarda tutiladi.

Ibtidoiy jamoa inson hayotining iqtisod, siyosat, ma'naviyat kabi turli sohalarini bir-biridan ajralmagan holda tasavvur etgan, hayotiy taomil, huquq va axloq, din va e'tiqod bir-biridan alohida, mustaqil holda mavjud bo'lgan emas. Shunday sharoitda siyosiy hukmronlik, iqtisodiy mulkka egalik, ma'naviy qudrat bir-biri bilan chatishib, bir sohada qudratli bo'lgan inson boshqa sohalarni ham tasarruf etishga intilar edi. Siyosiy hukmronlik qo'lida bo'lgan odam ma'naviy, iqtisodiy sohalarda ham o'z qudratini yoyishga harakat qilar yoki iqtisodiy qudrat — *mulk egasi* siyosiy, ma'naviy sohalarga ham da'vo qila boshlardi.

Imperiyalar davrida qabilalar va shahar davlatlararo hokimiyat uchun kurashlar avj olib, unda g'olib chiqqan sulola atrof-voqelikni, tabiat unsurlarini va moddiy boyliklarni qanday tasarruf etsa, o'zga qabila, urug', jamoa vakillari bo'lmish insonlarni ham shunday tasarruf etishga urindi. Natijada «mulk» tushunchasi siyosat yo'nalishiga ham kirib keldi, u nafaqat yer-suv, hayvonot va buyumlarga, balki yengilgan urug', qabila, elat vakillariga nisbatan ham qo'llanila boshlandi. Yurt *mulk* ataldi, hukmdor *malik* bo'ldi.

“Avesto” kitobi mazmunida asotir tafakkur keng miqyosda o'zligini

zohir etgan. Jumladan, hukmdorlik huquqining belgilanishida “farr” (“Avesto” tilida “xvarno”) prinsipi qonuniy asos sifatida qabul qilingan. Uning ma’nosi shuki, oliy dunyoviy hokimiyat sulolaning bir vakilidan ikkinchisiga o’tishida muayyan ilohiy belgi sodir bo’ladi, ya’ni muayyan bir jonivor, qush yoki yog’du shu’lasi hukmdorlikka tanlangan kishini ajratib ko’rsatadi. Xalqimiz orasida tarqalgan “falonchining boshiga baxt qushi qo’nibdi”, iborasi ushbu qadim an’ananing izlariga ishora etadi. “Farr” odatda hukmdor sulola vakillari bilan bog’liq tasavvur etilgan. Erondagi ahmoniyalar, sosoniylar davrida ushbu prinsipga izchil rioya etilgan.

Oliy ilohiy hukmdor nomidan yurtni boshqaruvchi «farr» egasi — monarx (shahanshoh, qirol, xalifa, sulton, malik) statusi mintaqada shunday paydo bo’ldi. U mutlaq hukmdor bo’lib, faqat Tangri hukmlariga itoat qilardi. Johiliya davrida “farr” sohibining hukmi mutlaq bo’lib, unga hech kim e’tiroz bildirishga haqqi bo’lmagan. “Xalq hukmi”, “xalq irodasi” degan tushunchalar u davr uchun butkul notanish edi. Demak, johiliya davrida barcha insonlar teng qadr topgan emas edi.

Bu tartib-qoidalarning jiddiy o’zgarishi Iso alayhissalom da’vati bilan boshlandi, deyish mumkin. Iso alayhissalomgacha yuborilgan payg’ambarlar har biri bir qavmga Alloh haqiqatidan xabar bergan bo’lsalar, Ruhulloh barcha insoniyatga tegishli Haqiqat xabarini keltirdi. U birinchi bo’lib, barcha insonlar yagona Tangri oldida teng, o’zaro og’a-ini, opa-singil, birodar deb, Alloh hukmini e’lon qildi. Ammo bu Oliy haqiqat osonlikcha qabul qilingani yo’q. Avvalo, bunday ulug’ xabarni bergan payg’ambarni siyosiy hukmronlikni qo’ldan berishni istamagan yunon hukmdorlari va yahudiy ulamolari birlashib, chormixga hukm etdilar. Keyinchalik ham, Iso da’vati ilk cherkov otalari talqinida o’zgarishga uchrab, adolatli jamiyat yerdan osmonga ko’chirildi, inson ruhining ozodligi esa cherkov hukmlariga bog’lanib qoldi. Butun O’rta asrlarda xos va avom, zodagon va fuqaro orasidagi real farq saqlanib qolaverdi. Yevropada cherkov va feodallar o’zaro ziddiyatlaridan qutula olmagan bo’lsalar ham, avomga nisbatan imtiyozlarini saqlab qoldilar. “O’rta asrlar” degan tushuncha behuda emas, bu davr insoniyat uchun Qadim dunyodan Yangi tafakkurga o’tish bosqichidir.

VII asrga kelib, Muhammad(s.a.v.)ga nozil etilgan Qur’oni karim oyatlarida nihoyat uzil-kesil haq botildan judo etildi, insonlar yagona Allohning yer yuzidagi xalifalari ekani ochiq-oydin bayon etildi. Xalq

hokimiyati, ozod fuqarolar jamiyatiga tayanuvchi tuzumning umum-bashariy ma'naviy asoslari, shunday qilib Tavhid ta'limotida mujassam bo'ldi.

3-fasl. Milliy ma'naviyatimizda xalq hokimiyatchiligi masalasi

Milliy ma'naviyatimizda xalq hokimiyatchiligiga munosabat masalasi nihoyatda muhim, ham o'ta murakkab. Manbalar ahvoli, ularni o'rganish darajasi, talqinlar va umuman qamrov masalasi bir kishiga benihoya og'irlik qiladi. Kelgusida bu yo'nalishda jiddiy tadqiqotlar talab etiladi, hozircha bor ma'lumotlarga tayanib, masalaning faqat bir-ikki jihatiga ishora etib o'tish bilan cheklanamiz.

Payg'ambarimiz davrlaridan boshlab islomda musulmonlar jamoasi ma'nosini bildiruvchi "umma" tushunchasi shakllandi. Uning hech bir a'zosi Alloh oldida o'zgalardan ortiq imtiyozga ega emas edi. Albatta, "umma"ning mohiyati bir kunda, bir yilda, hatto bir asrda to'liq anglab yetilgani yo'q. Uning ma'nosi asta-sekin teranlashib, ma'naviy va siyosiy hayotdagi qator o'zgarishlar natijasida VIII asr ikkinchi yarmi – IX asr boshlarida mintaqada yagona madaniyat shakllandi. Mintaqadagi uch buyuk millat – arab, fors, turk xalqlarining orasida sobit muvozanat qaror topdi.

Islom huquqshunoslari musulmon jamiyatini boshqarish asoslarini ishlab chiqa boshladilar. XI asrning buyuk siyosatshunosi Abulhasan Ali ibn Muhammad al-Mavardiy (974–1058) mashhur "Al-ahkom as-sultoniya" (Hukmdorlik qonunlari) kitobida hukmdor va musulmon jamoasi orasida ijtimoiy shartnoma (akd) asosini ishlab chiqdi. Qur'oni karimda insonlarning eng muhtaramlari eng taqvodorlaridir, degan hukm bor. Shundan kelib chiqib, yurt hukmdorining tayinlanishida islom jamoasining mo'tabar kishilari – muftahid faqihlar, ulamolar va oliy martabali a'yonlarning mulohazalari inobatga olingan. Hukmdorlar, odatda, muhim qarorlar qabul qilish oldidan yurtning yirik ulamo va faqihlari, obro'li a'yonlarni yig'ib maslahat solardilar.

Abbosiylar xalifaligi to mo'g'ullar bosqiniga qadar, rasman bo'lsa ham, ushbu qoidaga muvofiq amal qilgan. Xalifa tirik chog'ida o'ziga voris tayinlamoqchi bo'lsa ham, ushbu mo'tabar jamoa roziligini olishi zarur bo'lgan. Agar yurt hukmdori o'z vazifasiga munosib ish olib bormasa, musulmon jamoasi uni o'z mavqeyiga noloyiqligi haqida xulosa berish huquqiga ega bo'lib, muammoni qanday hal qilish tar-

tiblari ham huquqshunoslik ilmida batafsil ishlab chiqilgan edi. Qoidaga ko'ra islom dunyosida hukmdor faqat ijro hokimiyatini boshqarib boradi, qonun ishlab chiqish esa, mujtahid faqihlar vazifasi hisoblangan. Sudlov hokimiyati mustaqil ravishda yurt qozilari tomonidan amalga oshirilgan.

Ibn Xaldun o'zidan oldingi qonunshunoslarning qarashlarini rivojlantirib, bir qator yangi mulohazalarni bayon qildi. U diniy va dunyoviy hokimiyatni bir-biridan farqlash va ajratish tarafdori bo'lib, davlat boshqarishni dunyoviy hokimiyat sifatida talqin qiladi. Ibn Xaldun, shuningdek, hukmdor faqat arablarning Quraysh qabilasidan bo'lishi kerak, degan xurofotni ham keskin rad etdi.

Davlatni qanday asoslarda idora etish masalasida faqat musulmon huquqshunoslari, fiqh ulamolarigina emas, islom ma'rifatchiligining boshqa yo'nalish vakillari ham jiddiy mulohazalar bayon etganlar. Jumladan, Forobiy "Fozil shahar odamlarining qarashlari" risolasida davlat hukmdori qanday fazilatlariga ega bo'lishi va qanday talablarga javob berishi lozim ekanligini batafsil tahlil etib bergan. Botiniylar va mutakallimlarning ham bu xususdagi o'ziga xos qarashlari ma'lum. "Qobusnoma", "Siyosatnoma", "Axloqi Muhsiniy" kabi didaktik risolalar, XI asr turkiy she'riyatining yuksak namunasi bo'lmish "Qutadg'u bilig" ijtimoiy-falsafiy dostonida davlatni boshqarish, turli ijtimoiy toifalarning o'zaro munosabatlari va jamiyatdagi mavqelari xususida muassal tahlil va xulosalar mavjud.

Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asarida asosiy voqealar "Qushlar ijtimol va taqdim va ta'xir uchun bir-biri bila nizo'i" deb ataluvchi bob bilan boshlanadi. Bu asarda, shunday qilib, qadr tushunchasining siyosatda (ya'ni insonlararo munosabatlarda) namoyon bo'lish shakli — *mavqe va maqom* masalasi bosh mavzu qilib olingan va bu muammo ma'naviy zaminda mukammal yechib berilgan.

VIII–XV asrlar milliy ma'naviyatimizning umumbashariy miqyosga yuksalish davri bo'lib, bu davrda millatimiz o'zini bashariyatning uzviy bir qismi sifatida anglab yetdi. Bu davrda yurtimizning ulug' allomalari ilohiy kitobning asosiy g'oyasi — *tavhid ta'limotini* borgan sari teranroq va mukammalroq talqin qilib borish orqali Yangi davr qadriyatlarini birinchi bo'lib idrok etish darajasiga yetishdilar va faxr bilan aytish mumkinki, Yevropadagi keyingi besh asrlik *ijtimoiy taraqqiyot yo'lini* bevosita oldindan bashorat eta bildilar.

Ammo biz uchun alamlı bo'lsa ham, voqelikni tan olmog'imiz ke-

rak, islom mintaqasida Haqiqat tantanasi ma'naviyatda qoldi, siyosatga tugal ko'chmadi. Afsus va nadomatlar bo'lsinki, Yevropa islom ma'naviy qudratidan turtki olib, faol ijtimoiy o'zgarishlarni amalga oshirishga kirishganda bizning mintaqa orqada qola boshladi, siyosat sohasidagi xurofiy tamoyillarni o'z vaqtida va dadil yengib o'ta olmay arosatga tushib qoldi. Keyinchalik ushbu arosat holati ming yildan oshiq dunyoning katta qismini bemaolol idora qilib kelgan turkiy xalqlarni qaramlik vaziyatiga tushib qolishiga sababchi bo'ldi.

Ijtimoiy munosabatlarda haqiqatning voqe, ochiq-oydin tantanasi Yevropa mintaqasida boshlandi. Qadim Yunonda mushriklik tafakkuri qa'ridan Arastu falsafasi o'sib chiqqanidek, O'rta asrlar feodal bosh-boshdoqligi zulmatidan *"xalq hokimiyati"* tushunchasi o'sib chiqdi.

Tavhid ta'limotining Alisher Navoiy "qushlar tili" bilan ifoda etgan falsafiy-ma'naviy talqini Yevropada amaliy harakatga aylanib, avval diniy tafakkurda (Reformatsiya), keyincha borib siyosiy tafakkurda (Niderlandiya va Angliya burjua inqiloblari) to'liq yangilanishga olib keldi. Tan olish kerak, Yevropada bu yangicha siyosiy tafakkur g'alabasi osonlikcha bo'lmadi, balki millionlab insonlarning qonlari va jonlari evaziga ta'minlandi.

Qirol hukmronligi g'oyasi baronlar yoki burjua hukmronligi g'oyasi bilan emas, "xalq hokimiyati" g'oyasi bilan almashti. Bu Qur'oni karimda hidoyat etilgan har bir insonning "yer yuzida xalifaligi" g'oyasiga eng muvofiq siyosiy tafakkur yo'nalishi edi.

Oxirgi paytda islom dini nomidan o'z g'arazli manfaatlarini ko'zlab «fatvo» chiqaruvchi bir guruh buzg'unchilar «demokratiya – kufr nizomi» deb da'vo qilmoqdalar. Mazkur guruhning yana bir iddaosi yer yuzidagi barcha musulmonlarning yagona diniy-siyosiy rahbari – «xalifa» bo'lishi kerak, deb qilayotgan da'volaridir. Bunday g'arazli da'volarga uzil-kesil javob berish uchun yana bir marta islom e'tiqodining bosh manbayi bo'lmish Qur'oni karim oyatlariga murojaat etish lozim bo'ladi. Chunki boshqa barcha manbalar, jumladan, Rasululloh hadislar ham Allohning oyatlariga muvofiq bo'lgan taqdiridagina «sahih» (ya'ni, haqiqatga muvofiq) deb tan olinadi. Qolaversa, Qur'oni karimdan o'zga jamiki manbalar, jumladan, tafsir va ta'villar ham, insonlar tomonidan ijod etilgani sababli ma'lum darajada o'z zamonasi va o'zi yaratilgan muhitdagi mavjud tasavvurlarni aks ettiradi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining birinchi bo'lim, ikkinchi bob, 7-moddasida aniq qilib «Xalq davlat hokimiyati»

ting bir dan-bir manbayidir» deb yozib qo'yilibdi¹. Ayni shu prinsip «xalq hokimiyatchiligi» (demokratiya) tushunchasining bosh va asosiy ma'nosidir.

Islom va demokratiyani bir-biriga zid qo'ymoqchi bo'layotganlarning asosiy da'vosi davlat hokimiyatining manbayi masalasiga oid bo'lib, ularning aytishicha, hokimiyat manbayi xalq emas, balki yagona Allohdir. Uning hukmi esa ilohiy vahiy bo'lmish Qur'oni karimda ifodalangan. Biz ham bir musulmon farzandi sifatida ilohiy vahiyning tan olamiz va shundan kelib chiqib ayni «xalq hokimiyatchiligi» xususida Allohning kalomini tushunib yetishga harakat qilamiz. Mavjud tafsirlar ikki muhim asosni, albatta, hisobga oladi. Biri – asbobi nuzul, ya'ni u yoki bu oyatning nozil bo'lish vaqti bilan bog'liq muayyan tarixiy vaziyat, ikkinchisi – o'sha davr tilining o'ziga xos jihatlari. Bu – tafsirshunoslikda keng ma'lum bo'lgan qat'iy talablar. Ammo Qur'on oyatlarining mo'jizaviyligi shundaki, ularda bir paytning o'zida ham Payg'ambarimiz zamonidagi muayyan tarixiy hodisaga munosabat oshkor etiladi, ham insonlarni Haq yo'l ("sirot ul-mustaqim")ga hidoyat etuvchi boqiy haqiqatlar tizimi o'zligini ko'rsatadi. Faqat ushbu tizim insonlarga birato'la butun borlig'i bilan namoyon bo'ladi, deyish qiyin. Ulug'larimiz qalbini "haqiqat asrorining ganjinasi" deb atagan inson ma'naviy kamolot pillapoyalaridan yuksalib borar ekan, o'zligini tanigani sari Haq kalomi-ning boqiy mo'jizalarida ham kun sayin teranroq ma'nolarni kashf etib bora beradi.

Qur'oni karimning «Baqara» surasi 30-oyatida shunday deyiladi (*Abdulaziz Mansur tarjimasiga ko'ra*): – «Eslang, (Ey, Muhammad), Rabbingiz farishtalarga: «Men yerda xalifa (Odam) yaratmoqchiman», deganida (ular) aytdilar: «Unda (Yerda) buzg'unchilik qiladigan, (nohaq ravishda) qonlar to'kadigan kimsani yaratmoqchimisan? Holbuki, biz Senga hamding bilan tasbehlarni aytamiz va Seni muqaddas deb bilamiz». (Alloh) aytdi: «Men sizlar bilmagan narsani bilaman».

Ushbu oyat ma'nosini chuqurroq anglab yetish uchun biz «xalifa» so'zining ma'no-mundarijasiga e'tibor qaratishimiz lozim. Albatta, tafsirlarda bu so'zning qaysi oyatda kelishiga qarab turli talqinlari uchraydi. Ammo Qur'oni karimda bir necha bor qaytariluvchi iboralar ma'nosi o'zaro qiyoslab o'rganilsa, bu takrorlarning hikmati yanada oydinlashib boraveradi.

¹ O'zbekiston konstitutsiyasi. T., 1992, 10-b.

Qur'oni karim matnida «xalafa» fe'l o'zagi bilan bog'liq turli so'zlar 125 martadan ortiq uchrashi aniqlangan. Shundan «xalifa» so'zi va uning ko'plikdagi shakllari jami 9 marta («xalifatan» 2 marta, «xaloifa» 4 marta, «xulafu» 3 marta) uchraydi. Diqqatga sazovor joyi shundaki, bu holatlardan 6 o'rinda «yer yuzidagi xalifa» yoki «yer yuzidagi xalifalar» mazmunini anglatuvchi birikmalar ishlatilgan («xalifatan fil-arz» 2 marta: Baqara surasi, 30-oyat, Sod surasi, 26-oyat; «xaloifa fil-arz» 2 marta: Yunus surasi, 14-oyat, Maloika yoki Fotir surasi, 39-oyat; «xaloifal-arz» 1 marta: An'om surasi, 165-oyat; «xulafu-al-arz» 1 marta: Naml surasi, 62-oyat). Bundan tashqari Nur surasi 55-oyatida, A'rof surasi 129-oyatida «yastaxlifu» fe'l shakli ham ayni shu «fil-arz» birikmasi bilan yuqoridagilarga muvofiq ma'noni ifodalab kelgan.

O'zbek va rus tiliga qilingan qator tarjimalarda bu holatlarni «xalifa», «o'rinbosar», «namestnik», «preyemnik», «naslednik» so'zlari bilan anglatishga urinilgan. Ammo agar qiyoslab ko'rilsa, yuqorida ko'rsatilgan oyatlarning barchasida yagona ma'no – «yer yuzida xalifa» yoki «yer yuzida xalifalar», (ruschada – «наместник на земле» yoki «наместники на земле») mazmuni qandaydir bir yagona «xalifa» haqida emas, balki bani basharning barchasi, ya'ni tamomi insoniyatni nazarda tutib ishlatilayotganiga amin bo'lamiz. Gapimiz ishonarli bo'lishi uchun yana 2 misol keltiramiz:

An'om surasi, 165-oyat:

«U sizlarni yerning xalifalari qilib qo'ygan va ato etgan (ne'mat)larida sizlarni sinash uchun ba'zilaringizni ba'zilaringizdan (yuqori) darajalarga ko'targan zotdir...»

Fotir(Maloika) surasi, 39-oyat:

«U sizlarni yerda xalifa qilib qo'ygan zotdir. Bas kim kofir bo'lsa, uning kufri faqat o'zining zarariga bo'lur...»

«Xalifa» so'zi bu jumalalarda dini, millati, ijtimoiy ahvolidan qat'iy nazar barcha inson zotiga nisbatan qo'llanilayotgani, ularning har biri bu dunyoda muvaqqatan, ya'ni insoniyatning yer yuzidagi hayoti davomida Alloh tomonidan (sinov uchun, imtihon qilib ko'rish uchun) moddiy borliqqa «ish boshqaruvchi vakil», oddiyroq qilib aytilsa, «noib» («наместник») qilib qo'yilganligini anglatib kelmoqda.

Demak, har bir inson Alloh tomonidan bu yorug' dunyoga xalifa (наместник) qilib yaratilgan. Bu vakolat, birinchidan, insonga yer yuzidagi hayoti davomida to'liq iroda erkinligi, jumladan, o'z hayotini siyosiy jihatdan ham o'zi ma'qul topgan tarzda tashkil etish erkin-

ligini beradi. Ikkinchi jihatdan, bu imkoniyatlarning bani basharga Alloh tarafidan imtihon, sinov uchun berilganligi har bir inson shaxsiga o'z hayotini to'g'ri tashkil etish borasida jiddiy mas'uliyat yuklaydi. Kim bu vakolatdan mas'uliyatni his qilgan holda, to'g'ri foydalanadi, kim mas'uliyatsizlik bilan buzg'unchilikka, fasodga, kufarga beriladi – o'z aql-irodasiga bog'liq, uning mukofoti yoki jazosini esa yagona Alloh beradi (xohlasa bu dunyoda, xohlasa oxiratda).

Bu yerda alohida bir insonning barcha mo'minlar ustidan "xalifa" bo'lishi kerakligi masalasi umuman yo'q. Qolaversa, bunday "vakolat"ni unga kim beradi? Allohdan vahiy kelishi "xotimat-un-nabi" bo'lmish Muhammad (s.a.v.) davrlarida tugallangan bo'lsa. Ma'lum bo'ladiki, bunday da'volar, umuman, Allohning kitobi va Payg'ambar hadislariga zid va ularning g'arazli talqinlari asosida sun'iy to'qib chiqarilgan-dir.

Insonlarning (qandaydir u yoki bu muayyan shaxsning emas, barcha insonlarning) «yer yuzida xalifalar» qilib yaratilganligi ularning bu vakolati doirasida teng huquqli ekanliklarini, demakki, siyosatda «xalq hokimiyatchiligi» islom arkonlariga eng muvofiq tamoyil ekanligini anglatadi va, demak, ekstremistik kayfiyatdagi buzg'unchilarning «xalifalik» haqidagi barcha da'volari jaholat yoki g'arazdan boshqa narsa emasligi ma'lum bo'ladi.

Nazariy jihatdan olganda, siyosatdagi diniy fundamentalizm g'oyalari ilohiy vahiyning asl mohiyatiga emas, balki bugungi kun voqeligidan butkul boshqacha davrlarda yashagan insonlarning o'sha tarixiy sharoit doirasida turib, Alloh kitobidagi mazmunlarni o'z sharoitlariga tatbiqan amalga oshirgan talqin va tafsirlariga tayanish natijasida kelib chiqadi. O'tmish allomalarining bu boradagi izlanishlarini islom ma'naviyatining takomil bosqichlari doirasida tarixiy izchillikda mukammal o'rganib chiqish alohida qiziqarli va keng ko'lamlı mavzu bo'lib, o'z navbatida yosh avlod ma'naviy kamolotini shakllantirishda samarali natijalarga olib kelishi mumkin.

4-fasl. Qonun hukmronligi – siyosatdagi ma'naviyat

Siyosatga ma'naviyat nuqtayi nazaridan yondoshganda ikki muhim muammo birinchi navbatda ko'zga tashlanadi. Birinchisi – hokimiyat manbaya masalasi, ikkinchisi – insonlar va ijtimoiy toifalarning jamiyatdagi o'zaro munosabati asoslari. Har ikki masala bir-biri bilan bevosita bog'liq va tutash, shu sababli ham ko'pgina allomalarimiz ular-

ni birga olib qaraganlar. Shu bilan birga ularning mustaqilligi ham doim sezilib turadi.

Biz birinchi masalani ko'rib chiqdik. Endi ikkinchisiga o'tsak. Insonlarning jamiyatdagi o'zaro munosabatlarida asosiy masala *mavqe* va *maqom* masalasi ekanligi aytiladi. Bu masaladagi bahsni hal qilish uchun xolis bir *hakamga* ehtiyoj tug'iladi. Ibtidoiy odamlarning katta bir oila shaklida birgalikda turmush kechirgan urug'-jamoasi a'zolari orasida ichki uyg'unlikni ta'minlash ko'p murakkab yumush emas edi. Hali Ashshurbanipal qonunlari yaratilguncha bo'lgan zamonlarda qabila boshlig'i yoki bosh kohin osonlik bilan oddiy jamoa a'zolari orasidagi muomalada muvozanatni ta'minlashi mumkin edi. Ibtidoiy jamoadan ilk shahar jamoasiga o'tish bilan insonlar orasidagi muomalalar ham murakkablashib, bora-bora pog'onadorlik kasb etib bordi. Jamiyat murakkablashgan sari uning boshqaruv tizimi ham mukammallashib borishiga ehtiyoj oshadi. Ayni shu tizimdan davlat kelib chiqadi. Qadimgi davrda davlat boshlig'i mutlaq hukmdor bo'lib, faqat Tangri hukmlariga itoat qilardi. Bu tuzum asta-sekin rivojlanib, yurtni boshqarishni yengillashtiruvchi qonunlar shakllandi. Asta-sekin insonlar qonunlarga itoat etishni o'rgandi. Keyinchalik qonunlar umumiyligi imtiyozli toifalarga barham berish evaziga kuchayib borib, hukmdorning ham qudratini cheklovchi *konstitutsion monarxiya* (mashrutiya nizomi) paydo bo'ldi.

Va nihoyat bizning davrga kelib, islomiy tavhid ta'limotini siyosatga to'liq va mukammal joriy qiluvchi *xalq hokimiyatchiligi* tuzumi jahonda yetakchi mavqe egallay boshladi. Xalq hokimiyatchiligi tuzumida barcha fuqaro qonun oldida teng bo'lib, ularning o'zaro munosabatlarini qonunlar tartibga solib turadi. Bunday sharoitda davlat idorasining barcha darajalari o'z qonunlari bilan belgilangan vakolat doirasida faoliyat olib boradi. Xalq hokimiyatchiligining eng yuksak bosqichi fuqarolar jamiyati yoki Forobiy iborasi bilan aytganda «Fozil shahar», aniqrog'i, mukammal siyosiy madaniyatga erishgan jamiyat bo'ladi. Unda qonun ustuvorligi yetakchi tamoyildir. Bunday jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish maqsadida barcha fuqarolar uchun huquq ta'limi joriy etiladi.

Agar jamiyatni bir shaxs (qirol, sulton, shoh) boshqarsa, u muayyan qonunlarga tayanib, muayyan shaxslarni mashvaratga jalb qilib, mustaqil qaror qabul qila beradi. Ammo xalq hokimiyatchiligida ijtimoiy adolat amalga qanday joriy qilinadi? Urug', jamoa, hatto ilk shahar-

davlat hududida agar jamoaning umumiy yig'ini imkon doirasida (ilk shahar aholisi ko'pi bilan bir necha ming oiladan tashkil topgan) bo'lsa, hozirgi davrda hatto bir tuman (shahar tumani) aholisini ham bir yerga yig'ib bo'lmaydi. Demak, "xalq hokimiyati" aslida *qonun hukmronligi* ma'nosini ifoda etadi. Chunki bir mamlakatning millionlab fuqarosi birgalashib hokimiyatni idora etishi faqat puxta o'ylangan qonunlar asosida yuzaga chiqishi mumkin. Qirol va sultonlar davrida ham qonunlar bo'lgan. Ammo bu qonunlar mutlaq hukmdorning idora usulini yengillashtirish vazifasini bajargan. "Xalq hokimiyati" davrida esa davlat boshlig'ining faoliyati ham qonunlar orqali xalq tomonidan nazorat etiladi va yo'naltiriladi. Qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish saylab qo'yilgan xalq vakillari uhdasida bo'ladi. Shu sababli demokratik tuzumning birinchi sharti qazovat(sud hokimiyati), ijro hokimiyati va qonun chiqaruvchi hokimiyatning bir-biridan mustaqilligi bo'lib chiqadi.

Bizning milliy ma'naviyatimizda huquq ilmi "fiqh" deyilgan va islom ta'limoti asosida O'rta asrlarda (ayniqsa, IX–XII asrlarda) nihoyatda yuksalib, rivoj olgan. Muhammad ash-Shaybondan Burhoniddin Marg'inoniygacha bo'lgan davrni islom mintaqasida fiqh ilmining "oltin davri" deb baholash mumkin. Ushbu davr oxirgi 70 yil davomida "sovet huquqshunosligi" tomonidan mutlaqo inkor etildi, ammo islom olami uchun bu qimmatli meros doimo dasturulamal bo'lib kelgan, bugun esa yana yangidan dolzarblik kasb etmoqda. Tan olish kerakki, islom mintaqasida doimo hokimiyat taqsimoti o'ziga xos tarzda amalda bo'lgan. Bunda ijroyia hokimiyati dunyoviy hukmdor va uning devoni qo'lida, sudlov ishlari shariat qozilari tasarrufida, mahalliy boshqaruv demokratik tamoyillarga asoslangan mahalla oqsoqollari va mahalla kengashi shaklida, qonun chiqarish esa faqih va muftiylar tomonidan amalga oshirilgan. Musulmon faqih va muftiylari Alloh va ulamolar oldida o'zini mas'ul sezgan, shoh va sultonlarga mutlaqo qaramligi bo'lmagan. Ular Allohning kalomi va payg'ambar hadislariga, buyuk allomalarning tadqiqotlariga, ra'y va qiyosga tayanganlar, ulamolar jamoasining umumiy nuqtayi nazarini (ijmo') hisobga olib, mustaqil hukm chiqarganlar.

Qonun siyosatdagi ma'naviyatdir. Chunki qonun hamma uchun barobar huquq va mas'uliyat yuklaydi va insonlararo muomala me'yorini ta'minlashga xizmat qiladi. Yakka shaxs irodasining ustuvorligidan qonun ustuvorligi tomon moyillik kuchaygan sari siyosatda ma'naviyatning

ahamiyati ham oshib boradi. Albatta, yakka shaxs adolatli bo'lishi, Alloh yo'lida, Haq yo'lida sobitlik ko'rsatishi ham mumkin va bunga tarixda misollar bor. Ammo alohida inson aqli ham, ma'naviy kamoloti ham mutlaq emas, noqisligidan kafolat yo'q. Demak, adolatni ta'minlashning eng ishonchli usuli – davr ruhiga muvofiq mukammal qonunlar ishlab chiqish va qonun ustuvorligini ta'minlashdir.

Qonun adolat tarozisidir. Uning vazifasi – ijtimoiy mo'tadillikni saqlash. Asosiy qonun, ya'ni konstitutsiya mamlakatda uzoq muddat ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning mustahkam poydevori bo'lmog'i ko'zda tutiladi. Shu sababli uning har bir moddasi ixcham, lo'nda va puxta, ya'ni har jihatdan mo'tadil bo'lishi, shu bilan birga Asosiy qonunning barcha modda va qismlari bir-biriga nisbatan to'g'ri muvozanatda turishi maqsadga muvofiqdir. Yurtimizning har bir fuqarosi O'zbekiston konstitutsiyasini sinchiklab o'rganar ekan, uning barcha jihatlardan yuqoridagi talablarga muvofiq ravishda tuzib chiqilganiga amin bo'ladi. Mustaqil O'zbekistonimizning rivojiga xizmat qiluvchi Oliy Majlisimizning qonun chiqarish faoliyatiga ushbu Asosiy qonun mana necha yildirki, mustahkam zamin bo'lib kelmoqda.

Qonunlar xalq saylagan vakillar tomonidan ishlab chiqiladi va qabul qilinadi. Qonunlar tizimining yaratilishi va jamiyatni boshqarishdagi ularning alohida ahamiyati qonunshunoslik fani va shu soha mutaxassislariga ehtiyoj tug'diradi. Fuqarolik jamiyatida qonun asosan har bir shaxsning davlat va jamiyatga nisbatan huquqlarini va o'z navbatida davlat organlarining har bir fuqaroga nisbatan huquqlarini belgilaydi. Huquq organlari har bir shaxsning qonun tomonidan berilgan huquqlarini himoya qiladi. Shu sababli qonunshunos mutaxassislar va huquq organlari xodimlari huquqshunos deb, fan esa huquqshunoslik deb atalib kelinmoqda. *Yurist* asli *qonunshunosdir*. *Yurisprudensiyani esa qonunshunoslik* ilmi, deyish mumkin.

Huquq va ma'naviyat ikki yondosh soha bo'lib, bir-biriga doimo ta'sir ko'rsatib turadi. Ularning tutashuv o'rinlari benihoya ko'p. Qonun va ma'naviyatning eng umumiy tomoni har ikkisining ham asosi muvozanat, uyg'unlikda ekanligidir. Qonun jamiyatdagi turli ijtimoiy toifalar va fuqarolararo muvozanat va uyg'unlikni, ma'naviyat esa inson ruhidagi uyg'unlikni belgilaydi, farqi shundaki, qonunning mukammalligi uni qabul qilgan insonlarning ma'naviy darajasi bilan bog'liq, ya'ni insonlarning ma'naviy takomil darajasi oxir-oqibat qonunlar mukammalligini ta'minlovchi omil bo'ladi. Ammo masalaning nozik to-

monlari ham bor. Agar Alloh inoyat etsa, davlat rahbarining o'z maqomi oldidagi mas'uliyati va umumxalq ma'naviyatidagi ijobiy tamoyil o'zaro muvofiq kelib biror jamiyatda, jahondagi alohida bir davlatda bashariyat ma'naviy takomili darajasidagi qonun qabul qilinishi mumkin. Ammo uning voqe hayotga tatbiq etilishi yana, baribir, mas'ul ijrochilarning ma'naviy salohiyati va millatning ongli faollik darajasiga bog'liq bo'lib qoladi. Shu sababli qonun mukammalligi bilan ijro muvofiqligi orasida anchagina muammolar, jumladan, ma'naviy tarbiyaga doir muammolar mavjud. Mukammal qonun qabul qilinishi uchun davlat rahbarining idroki va ma'lumoti, maslahatchilar donoligi va umumjahon ijobiy tajribasi mavjudligi yoniga umumxalq saylab qo'ygan vakillarning aksariyat xayrixohligi qo'shilsa kifoya. Ammo uni tushunib yetib, mohiyatiga muvofiq ijro etish uchun qo'shimcha bir qator omillar taqozo etiladi. Masalan, avvalo, qonun ijrochisi halol-pok inson bo'lishi, qolaversa, aqli, bilimi, salohiyati o'zi egallab turgan maqomga muvofiq bo'lishi, tabiatan g'ayratli va shijoatli, tashabbuskor va hushyor bo'lmog'i lozim. Agar o'nta halol va uddaburro ijrochiga bitta landovur yoki tovlamachi to'g'ri kelib qolsa ham ish murakkablashadi. Oltita komil insonga to'rtta muttaham to'g'ri kelsa-chi? Unda jamiyatning ahvoli qanday kechadi?

Bunday noxush holatlarni bartaraf qilishning yagona yo'li xalq hokimiyatchiligi (demokratiya) va erkin fuqarolar jamiyatini shakllantirib borishdir. Avvalo, Alloh qo'llasin. Ammo "harakatda barakat", degan naql bejiz emas. Ezgulik yo'lidagi astoydil harakatni Alloh ham qo'llashiga umid bog'lasak, adashmaymiz.

Qisqasi, davlat siyosati ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi: 1) yakka shaxs irodasi; 2) qonun hukmi. Ahli basharning siyosat sohasidagi takomili birinchi yo'nalish yetakchiligidan ikkinchi yo'nalish qudratining yuksalishi sari ketmoqda va shu sababli borgan sari huquq va qonunchilik sohasining ahamiyati oshib borishi kuzatilmoqda.

Bugungi kunda millatni nihoyatda umidvor qiladigan, quvontiradigan, ko'ngilga ishonch bag'ishlaydigan narsa – 1) mustaqil Konstitutsiyamizning ushbu ma'naviyatimiz quvvatiga javob bera oladigan darajada mukammal ekanligi, 2) Yurtboshimizning fikriy ko'lami va dadilligi, 3) xalqimizning mustaqil Vatan kelajagi yo'lidagi buyuk jihad amalida bardosh va qat'iyatidir.

Oldimizda ulug' va ezgu maqsad – har bir insonning o'z ichki imkoniyatlari, turfa iqtidori va salohiyatini namoyon qilishga, farovon

va o'z qadriga munosib turmush kechirishiga barcha sharoit muhayyo bo'lgan, qonun ustuvorligiga, barcha toifalarning o'zaro teng hamkorligi va bahamjihat faolligiga asoslangan hur va ozod jamiyat qurish, jahon hamjamiyatida o'z munosib o'rni egallab turgan mustaqil davlat, ilg'or millat sifatida bashariyat taraqqiyotiga hissa qo'shish vazifasi turibdi.

Prezidentning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida..." kitobida yozilganidek, "*shu ulug' maqsad yo'lida turgan muammolar va tahdidlarni aniq tushunish jamiyatni birlashtiradi, jipslashtiradi, har bir kishiga o'zining mas'uliyatini, o'z o'lkasi, jonajon Vatanining tarixi va hayotidagi murakkab voqealarga daxldorligini puxta o'ylash, yanada chuqurroq anglash imkonini beradi*".

5-BOB. BOZOR IQTISODI VA MA'NAVIYAT

1-fasl. Ma'naviy merosimizda bozor iqtisodiga munosabat

Inson farishta emas. U moddiy vujud sifatida yaratilgan. Shunday ekan, uning inkor etib bo'lmaydigan moddiy ehtiyojlari atrof-tabiati va o'zga mavjudotlar bilan doimiy amaliy munosabatlarni taqozo qiladi. Iqtisod ayni shu inson jismining moddiy voqelik bilan amaliy munosabatlariga oiddir. Insonning tabiatga munosabati iqtisodning asosini tashkil etadi, dedik, ammo bugungi kunda har bir inson o'z moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun faqat tabiat bilan emas, balki o'zga insonlar bilan ham turli munosabatlarga kirishadi. Bunday munosabatlarni, maqsad yo'nalishidan kelib chiqib, iqtisodiy munosabatlar deb ataymiz. Ularning tagzaminida mulk tushunchasi, talab va taklif nisbati asosiy nuqtalardan hisoblanadi.

Insonlar jamoasida iqtisodiy munosabatlarning turli daraja va yo'nalishlarini kuzatish mumkin:

1. Agar moddiy ehtiyojlarni qondirishda har bir inson tabiat bilan bevosita amaliy munosabatga kirishib, o'z aqli, malakasi, mehnati vositasida rizq topsa, bu *ibtidoiy (natural) xo'jalik* bo'ladi. Hayotda bunday xo'jalik usuli sof holda juda kam uchraydi, faqat badiiy adabiyotdagi Hayy ibn Yaqzon, Robinzon Kruzo faoliyatlari uning yaqqol namunasidir. Odatda ibtidoiy xo'jalik kamida oila miqyosida faoliyat olib boradi.

¹ I. Karimov. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida..."

2. Agar har bir mustaqil xo‘jalik bir turda yoki yo‘nalishda mahsulot ishlab chiqarib, so‘ng bozorda uni boshqa mahsulotlarga almasha, *ibtidoiy bozor iqtisodi* vujudga keladi.

3. Agar barcha mulk davlatga qarashli bo‘lib, barcha ishlab chiqarish va taqsimot davlat ixtiyorida bo‘lsa, *total (yalpi) davlat iqtisodi* vujudga keladi. Bu juda qadim utopiya (xomxayol) asosida sobiq SSSR da zo‘rluk bilan shakllantirilgan va zo‘rluk bilan ushlab turilgan iqtisodiy tuzum 70 yil ichida butkul yaroqsizligini isbot qildi.

4. Bugungi kunda butun dunyoda yetakchi mavqeda bo‘lgan rivojlangan bozor iqtisodi tizimi yuqoridagi jo‘n shakllardan farq qilib, murakkab ko‘rinishga ega. Jahondagi iqtisodga oid ilmlar asosan ana shu rivojlangan bozor iqtisodiga taalluqli muammolar bilan shug‘ullanadi.

Haqiqiy bozor iqtisodiy adolatdir. Chunki unda hech kim o‘z qarashlarini birovga zo‘rluk bilan o‘tkaza olmaydi. Burjua sinfining diktaturasi (mutlaq istibdodi) haqiqiy bozor emas, balki iqtisodiy zo‘ravonlikdir. “Yovvoyi bozor” (“дикий капитализм”) mutlaqo orzu qiladigan narsa emas. U ham insoniyat uchun bir sinov bosqichidir.

Insoniyatning katta bir qismini 70 yil davomida “sotsialistik umumxalq mulki”ga sadoqat ruhida “qayta tarbiya qilishga” urinishgan bo‘lishlariga qaramay, o‘zbek xalqi, o‘lkamiz xalqlari bozorni unutmadi, chunki bozor munosabatlari milliy ma‘naviyatimizning necha mingyillik qadriyatlaridan bo‘lib kelgan.

Bozor insonni o‘z-o‘zini qadrlashga o‘rgatadi, muomala odobiga o‘rgatadi, o‘zga mehnatining qadriga yetishga o‘rgatadi. Bizga yaqin-gacha “ta’lim” berganlaridek, bozor tovlamachilar, “chayqovchi” makoni emash, balki ibrat va tarbiya maktabidir. Bozor aylangan kishi ona yer, tabiatimiz saxovatini ko‘rib, Vatanga mehr tuyg‘ulari qalbini to‘ldiradi. Albatta, buni his etish uchun ham inson ma‘naviy kamolotining ma‘lum darajasi talab etiladi. Dehqonning, hunar egasining mehnati va bardoshiga, mahorati va didiga bozor aylanganda, bir yaxshi narsa xarid etganda baho beramiz, tasanno aytamiz. Didsizlik, uquvsizlik, o‘z ishiga e‘tiborsizlik bozorda darhol o‘zini oshkor etadi. Demak, bozor va ma‘naviyat aslo zid tushunchalar emas. Biz bozor iqtisodiga asoslangan jamiyat qurmoqchi ekanmiz, ayni o‘z milliy an‘ana va qadriyatlarimizga qaytgan bo‘lamiz, kelajak sari ularga tayanib olg‘a siljiymiz. Albatta, bu yangi tizim shundayicha oldingi asrlarni qaytarish bo‘lmaydi, XX asrning jahon taraqqiyoti erishgan barcha yutuq-

laridan ijodiy foydalaniladi, ammo hech bir o'ringa ko'r-ko'rona nusxa ko'chirish naf keltirmasligini ham unutmaslik lozim.

Bu mavzuda ham qadr masalasiga yana bir qaytishga to'g'ri keladi. Qadr tushunchasi iqtisod yo'nalishida qiymat, baho tarzida namoyon bo'lib, sof iqtisodiy mazmun kasb etadi. Bu yerda endi har bir insonning salohiyati, iste'dodi, malaka va uquvlari, bilimi o'z muayyan va aniq qiymatiga ega bo'ladi. Inson o'z yaratuvchilik mehnatining natijasiga qarab, u yaratgan moddiy yoki ma'naviy boylik o'zgaralar uchun qanchalik muhim va zarur ekanligi, qanchalik sifatli va zamon talablariga javob bera olishi, boshqa turli jihatlari asosida muayyan daromadga ega bo'ladi, jamiyatda muayyan obro', ehtiromga, muayyan mavqe va maqomga sazovor bo'ladi. Shunday qilib, iqtisod sohasida moddiy qadrlanish doimo inson imkoniyatlarining amalda qanday tatbiq etilishi bilan bog'liq.

2-fasl. Bozor va ma'naviyat

Endi bozor va ma'naviyat nisbatining o'zaro bog'liq ikki alohida jihatini ko'rib chiqaylik. Birinchisi – bozor ma'naviyati masalasi. Biz bozor ma'naviyati deganda, birinchi navbatda, insof va diyonatni insonlar ko'nglida qayta uyg'otish zaruratini anglaymiz. Insof va diyonat, halollik, xaridorga munosabatda samimiylik va hilm (yumshoq muomala, halimlik) xaridor ko'nglini topishga intilish, uning ehtiyojlarini tushunish – tadbirkor sarmoyasiga Allohning barakatini yog'diruvchi ma'naviy fazilatlaridir. Xaridor haqqiga xiyonat, tovlamachilik – hech qachon bozorga aralashgan odamga omad keltirgan emas. Buni bizning ajdodlarimiz yaxshi bilganlar.

Bugungi jahon bozorining muhim jihati – uning ilmiy asosga qo'yilganligidir. Marketing fani, ya'ni bozorni o'rganish ilmi ilgari asosan savdogar yo kosibning farosatiga bog'liq bo'lgan bo'lsa, bugun jiddiy tadqiqotlar asosiga tayanmoqda. Ilgari bir mintaqani qamragan bo'lsa, bugun jahon miqyosida yaxlit fikrlashni taqozo qilmoqda. Demak, bozor va ma'naviyat turli nuqtalarda tutashuv hosil qilmoqda. Ularning biri e'tiqod bo'lsa, ikkinchisi – ilm. Yana biri farosat bo'lsa, boshqasi – insonni tushunish. Bizga marksizm ideologiyasi olabo'jii qilib ko'rsatgan tuzum aslida bozorning axlatxonasi edi. Har sohada ham chiqindilar bo'ladi, shu jumladan, bozorda ham. O'sha barcha chiqindini bir joyga uyib tashlasa, iflos va ko'rimsiz bir uyum hosil bo'ladi, ana shuni bizga kapitalizm deb ro'baro' qilib kelishdi. Vaho-

lanki, “sotsializm” deb atalgan totalitar tuzumdagi qabohatlardan tashkil topgan butun boshli “arxipelag” lar mavjud bo‘lganligi endi ko‘pchilikka ma‘lum bo‘lib qoldi.

Dastlabki “kapitalizm”da ba‘zilar nochor yashagan bo‘lsa, “komunizmning birinchi bosqichi”da millionlab begunoh odamlar ochlikdan qirilib ketdi. Yolg‘on g‘oyalar uchun uka akani o‘ldirgani, bola otasini sotgani alohida masala. Aslini olganda na kapitalizm, na sotsializm insoniyatga baxt keltirmaydi. Asosiy masala inson ma‘naviyatida. Chunki ma‘naviyat avvalo me‘yor, u uyg‘unlikni ta‘minlaydi. Xususiy mulkning yagona hukmronligi ham, uning butkul taqiqlanishi ham me‘yorning buzilishiga olib keladi, demak, hayotdagi uyg‘unlikni buzadi. Bugungi bozor e‘tiqod, ilm, riyozat, mehr uyg‘unligi tomon ketmoqda. E‘tiqod bozorda insof ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. “Tesda bo‘lmasin, arra bo‘lgin”, – deydi Amir Xusrav. Chunki tesha doim o‘zi tomonga chopadi, payraha faqat chopayotgan kishi tarafga to‘planadi. Arra ikki tarafga borib keladi, qipiq ham ikki tarafga barobar to‘kiladi. “Qars ikki qo‘ldan chiqadi”, – deydi xalqimiz. “Faqat o‘zim bo‘lay”, degan odam uzoqqa bormaydi. “Insof sari baraka” – ma‘naviyatini yo‘qotmagan millatning bozoridagi bosh qonundir.

Bugungi kunda biz ba‘zi joylardagi kabi bir qirdan ikkinchi qirga sakrashga urinmay, insof va diyonatni saqlagan holda, qadim milliy an‘analarimizning eng ilg‘or jihatlariga tayanib, farosatli, insofli, ilmiy asosga qo‘yilgan, jahondagi eng ilg‘or tamoyillarga muvofiq keluvchi bozor iqtisodi sari intilib borayotirmiz. Albatta, xatolar ham ko‘p, ammo beayb parvardigor deydilar, niyat xolis bo‘lsa, natija yomon bo‘lmas.

3-fasl. Ma‘naviyat va bozor

Ma‘naviyatning bozori bormi? Yo‘q. Chunki bozor insonlararo iqtisodiy muomala maydoni, iqtisod esa ma‘naviyatga emas, moddiyatga aloqador hodisa. Ammo inson moddiy vujud ekan, uning ma‘naviyati ham moddiy voqelikda o‘zligini namoyon etishi tabiiy. Bu – madaniyatdir. Madaniyat – inson ma‘naviyatining moddiy voqelik shaklida namoyon bo‘lishi. Demak, ma‘naviyat va bozor munosabatlarning ikkinchi muhim jihati madaniyat va bozor nisbati tariqasida bugunning eng dolzarb muammolaridan bo‘lib turibdi. Madaniyat o‘z-o‘zicha olib qaralmaydi, u kimgadir nima uchundir kerak. Masalan, sho‘rolar tuzumida “sotsialistik madaniyat” degan tushuncha bo‘lardir. Bu kom-

munistik partiya va uning mutlaq hukmronligini ta'minlashga xizmat qilgan "sovet davlati" uchun kerak bo'lgan "madaniyat" edi. "Sotsialistik madaniyat" totalitar tuzum qadriyatlarini insonlar ongiga singdirishga yo'naltirilgan edi. "Burjua madaniyati" esa xususiy mulk egalari uchun qadrlil bo'lgan timsollarni ilgari suradi.

Dunyoda ijtimoiy toifalar ko'p. Har biri o'zi qadrlil deb bilgan narsalarni, o'z manfaati uchun xizmat qiluvchi g'oyalarni himoya qiladi. Ammo haqiqiy madaniyatni o'zligidan kechib qo'ygan, xolis Alloh bergan iste'dodni uning roziligi yo'lida yuzaga chiqarishni o'ziga burch deb bilgan insonlar yaratadi.

Haqiqiy madaniyat namunasidan ma'naviyat nuri yog'ilib turadi. Chunki iste'dodli shaxsning qalbidagi nur uning asariga ko'chadi. Bunday asarlar insoniyatning boqiy mulkidir. Ammo inson moddiy, bu dunyo moddiy voqelik, shunday ekan, iste'dodli insonlarning ham ro'zg'ori, oddiy insonga yarasha turmush tashvishlari bor. Madaniyat bozori eng murakkab voqelikdir. Bozor iqtisodining ibtidoiy bosqichlarida bu bozor butkul parokanda shaklda bo'ladi, unda noqislik korillik bahosida, yuksak iste'dod bir qop somon bahosida ketishi mumkin.

Ammo bu bozorning noqisligi ibtidoiyligi belgisidir, bozor iqtisodi rivojlangani sari madaniyatning bahosi oshib, ma'naviyatning mavqeyi yuksalib bora beradi. Bugun jahonning yuksak rivojlangan mamlakatlari da ilm, axborot, sifat ko'rsatkichlari (masalan, dizayn) jumladan, oziq-ovqat sifati, borgan sari yuqori baholanmoqda. Insonni tushunish endigi insoniyat rivojining belgilovchi omiliga aylanib borayotgani bunga dalildir.

Demak, ma'naviyatga, madaniyatga e'tibor bozor iqtisodining bugungi jahon talablari darajasiga ko'tarilib borishida yetakchi ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Ammo masalaning ikkinchi jihati ham bor. Biz – ma'naviyat va madaniyat sohasining odamlari, o'zini ziyoli sanab yurganlar ham eski aqidalardan, ko'nikmalardan iloji boricha tezroq forig' bo'lishimiz, Alloh bergan farosatimizni ishga solib, o'z sohamizda mantiqli tadbirlar ishlab chiqishimiz kerak. Agar qo'limizdan kelmasa, olimligimiz, ustozligimiz haqidagi da'volarni yig'ishtiraylik va boshqa kasbning boshini tutaylik. Ammo olim va ustoz bo'lish niyatimiz bo'lsa, haqiqiy olim, haqiqiy ustoz bo'laylik, ya'ni qilayotgan ishimiz, gapirayotgan gapimiz bugungi voqelikka qanchalik muvofiq ekani ustida o'ylab ko'rib, el tilagan ishni qilaylik. O'zimiz o'rgangan "eski plastinka"ni qayta-qayta aylantira bermaylik. Sotsializm yo'q,

uning talablari bugun bekor bo'ldi. Bugunning talablari qanday? Shu savolni o'z oldimizga qo'yib, bir tanamizga o'ylab ko'raylik. Qisqasi, bu yerda farosat masalasiga ahamiyat berish zarur bo'ladi. Tadbirkorga farosat kerak, lekin bugungi ma'naviyat va madaniyat sohasi xodimlariga o'n karra farosat lozim. O'z holimizni to'g'ri idrok etib, o'zgani ham tushunishga intilib, voqelik haqida to'g'ri tasavvur hosil qilmas ekanmiz, o'zimizga ham, jamiyatga ham, millatga ham tayinli foydamiz tegmaydi. Bozor iqtisodi insonni o'ylashga, farosatini ishlatishga majbur qilishi bilan qimmatlidir.

4-fasl. Tadbirkor ma'naviyati

Har bir insonga rizqni Alloh beradi. Musulmon farzandi komil ishonch bilan buni tasdiqlar ekan, hech qachon bu e'tiqodini faoliyatsizlikka da'vat ma'nosida talqin etmaydi, balki «harakatda barakat» deb halol rizq umidida biror-bir foydali mashg'ulotning boshini tutadi. Dehqon yerga ishlov berib, rizq yo'lini ochsa, hunar ahli insonlar koriga yaratuvchi bir buyum yaratadi. Muallim yosh avlodni ilm nuridan bahramand etsa, tadqiqotchi o'z kashfiyotlari bilan jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi. San'atkor el diliga huzurbaxsh etib, uni yaxshilik sari yo'naltirishga intiladi. Xullas, har toifaning jamiyat rivojiga qo'shadigan o'z hissasi bor, bu uning insonlararo mavqeyini ham belgilaydi. Biz shu ijtimoiy toifalardan birining faoliyatini ma'naviyat nuqtayi nazaridan kuzatib, uning hayotdagi mavqeyi haqida mulohaza bildirmoqchimiz.

Kommunistik g'oyaning eng katta kamchiligi turli ijtimoiy toifalar tabiatidagi o'ziga xosliklarni anglab yetishga hafsala qilmay, murakkab voqelikni faqat mulkchilik va mehnatga munosabat doirasida tor talqin etganligi bo'ldi. Mulikka munosabati qanday – ya'ni xususiy mulki bormi, yo'qmi? Mehnatga munosabati qanday – ya'ni davlatning moddiy boyligini yaratish jarayonida bevosita qatnashadimi, yo'qmi? Kommunistlar uchun asosiy masala shundan iborat bo'ldi. Xususiy mulk egasi bo'lish – salbiy jihat, moddiy boylik yaratishda bevosita qatnashish – ijobiy jihat sifatida baholandi. Mutlaqo xususiy mulki bo'lmagan, ammo bevosita jismoniy mehnat qilib, moddiy boylik yaratishda ishtirok etgan toifa – ishchilar eng ijobiy, eng ilg'or sinf deb; jismoniy mehnatda bevosita ishtirok etmagan, ammo xususiy mulk egasi bo'lgan toifa – burjuaziya – eng salbiy, eng reaksion sinf, “ekspluatator”, “kapitalist” deb baholandi. Jamiyatdagi o'zga toifalar ushbu ikki “an-

tagonistik”, ya’ni umuman bir-biri bilan murosaga kelishi mumkin bo’lmagan zid qutblar orasiga joylashtirildi. “Dohiyalar” talqinida, burjuaziyaning feodalizm tartiblarini yo’q qilishdagi xizmatlari tan olingan bo’lsa ham, grajdanlik jamiyatida o’ziga yarasha ijobiy mavqeyi, o’rni mavjudligi haqida chuqur mulohaza yuritilmadi.

Xo’sh, sovet ideologiyasida «kapitalist», «ekspluatator», ya’ni ezuvchi sinf deb qaralgan burjua, yoki bugungi kun atamasidagi tadbirkor kim?

Alloh bani basharga “yer yuzida xalifalik” mas’uliyatini yuklar ekan, unga o’z mutlaq sifatlariga muvofiq qator fazilatlar baxshida etgan. Albatta inson foniy, uning qudrati, fazilatlar ham to’kis emas, nokomil va o’tkinchi. Ammo inson fazilatlarida ma’naviyat nuri zohirdir. Bu nur unga boqiy dunyo bilan tutashlik imkonini beradi. Allohning insonga eng buyuk inoyati ham shunda. Ana shu fazilatlarining eng avvalida insonning yaratuvchiligi turadi. Yaratuvchilik fazilati insonga Alloh nasib etgan rizqini qo’lga kiritishi uchun bir vosita bo’lib xizmat qiladi. Inson o’z aqli, malakasi, mehnati, kasb-kori vositasida rizqini terib yeydi. Ammo vosita insonning o’zidagina emas, undan tashqari-da ham bo’lishi mumkin. Asli insonlar jamoasi ham iqtisodiy ehtiyojlarini qondirishda, ham ma’naviy kamolotga erishish yo’lida bir-birlari bilan hamkorlik natijasida tashkil topadi. Bugungi rivojlangan bozor iqtisodi tizimiga xos xususiyatlardan biri shuki, unda nafaqat almashuv jarayoni, balki bevosita ishlab chiqarish ham moddiy mahsulot yaratuvchilar va iste’molchilardan tashqari qator vositachilar toifasi mavjud bo’lishini taqozo qiladi. Ular moddiy yaratuvchilik va iste’mol jarayonining tashkiliy takomillashuvi va sifat jihatidan yuksalishida muhim o’rin tutadilar. Almashuvdagi vositachi tadbirkor qadimdan bizda savdogar qiyofasida mavjud bo’lsa, ishlab chiqarishni tashkil etuvchi tadbirkor ilgari nisbatan kamroq urf bo’lgan toifa vakilidir.

Amir Xusrav o’z vaqtida sultonlar, ya’ni hukmdorlarning qo’l ostidagilarga nisbatan himmat-saxovatini nazarda tutib, «sening o’z xodimlaringga qilayotgan inoyatlaring tarnovdan tushayotgan yomg’ir suvi kabidir», degan edi. Alloh marhamati bilan osmondan obi rahmat yomg’iri yog’adi, u, masalan, tomda to’planib, tarnov orqali yerga shovullab to’kiladi, tarnov ostiga chelak qo’yib, bir zumda kerakli suvni yig’ib olish mumkin, ammo hech kim bu suvni tarnov menga berdi, demaydi, tarnovni bir vosita deb hisoblaydi.

Hozirgi zamonda tadbirkor faoliyatini ma’lum ma’noda shunga

o'xshatish mumkin. Chunki u ham muayyan korxonani tashkil etib, unda turli ixtisosdagi odamlarni yollab ishlatib, ularga maosh berib, tirikchilik o'tkazishiga yordamlashar ekan, Alloh yuborgan rizqni odamlarga yetkazishda bir vosita vazifasini o'taydi. Bugungi kun jamiyatida yuzlab ixtisos egalari borki, ularga kimdir ish joyi tayinlab, o'z malaka va bilimlarini namoyon etishga sharoit yaratmasa, ular na jamiyatga foyda yetkaza oladi, na o'z oilalari ta'minotini eplaydi. Tadbirkor ayni shu muammoni hal qiluvchi insondir. U jamiyat uchun zarur bo'lgan bir buyumni ishlab chiqish yoki bir xizmatni bajarishga qaratilgan muayyan amaliy tizimni vujudga keltirib, uni harakatga soladi. Buning uchun mablag' topadi, bino ajratadi, asbob-uskuna o'rnatadi, xomashyo, zaruriy yordamchi vositalar bilan ta'minlab, tayyor ish o'rinlari hosil qiladi. Natijada ham ehtiyojmandlarning ishi bitadi, ham insonlar turmush kechirish uchun vositaga ega bo'ladilar. Albatta, tadbirkor ham orada behuda ovora bo'lib qola bormaydi, u o'zi tashkil etgan ishning unumiga qarab, muayyan moddiy manfaatlarni qo'lga kiritadi. Xullas, tadbirkor o'z faoliyati bilan jamiyatga har tomonlama naf yetkazib, uning takomiliga hissa qo'shadi. Agar siyosiy arbob, davlat xizmatchisi jamiyat hayotining siyosiy jihatdan mustahkamlanuvi va rivojiga ulush qo'shsa, tadbirkor jamiyat hayotida iqtisodiy sohaning tashkilotchisidir. U bevosita yaratuvchilik mehnati bilan shug'ullanmasa ham, ana shu yaratuvchilik mehnati bilan shug'ullanuvchilarga sharoit tayyorlab beradi va ular yaratgan narsalarning o'zaro almashinuvini ta'minlaydi.

Ilm va insof, riyozat va farosat bugungi kun tadbirkorlarining asosiy ma'naviy fazilatlarini bo'lishi lozim. Tadbirkorning bosh fazilati – farosat. Farosat bo'lmasa tadbirkorlikka urinish behuda ovoragarchilikdir. Farosat nima? Farosat, avvalo, o'zingni anglash, o'z holingni to'g'ri idrok etishdir. Ikkinchidan, o'zгани tushunish, o'zгалarning ehtiyoji, xohishi, imkoni haqida to'g'ri tasavvur hosil qila bilishdir. Qolaversa, farosat – voqelikni asliga muvofiq idrok etish, unga to'g'ri munosabat hosil qila bilmoqlik, nafaqat tushunish, balki voqelik talabiga muvofiq tadbir ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq eta bilish hamdir. Bu farosatning amaliy tarafini ba'zan alohida nom bilan uddaburonlik yoki tadbirkorlik ham deyishadi. Bizda “uddaburon” so'zi biroz salbiy munosabatga ishora etadi. Darhaqiqat, ustomonlik va uddaburonlikning yaqinlashib ketgan o'rinlari yo'q emas. Ammo farosat yetishmagan joyda uddaburonlik birovni aldab o'tish yo'lini izlay boshlasa, undan tovlamachilikning hidi kela boshlaydi. Bunday ustomonlik jinoyat sari

yetaklovchi tamoyil bo'lib, sarmoyani xatarga qo'yishdan boshqa natija bermaydi. Ustomonlik – shayton vasvasasidir, farosat – Allohning inoyati. Shayton vasvasasi 1–2 marta omad keltirib, insonning ko'zini shira bostiradi, so'ng uni halokatga yetaklaydi. Farosat insonga doimiy obodlik keltiradi.

Tadbirkorning fazilat va qusurlari uning kelib chiqishi bilan bog'liq. Bugungi yuksak rivojlangan bozor iqtisodiy tizimi asrlar davomida mukammallashib borgan ibtidoiy bozor xo'jaligidan o'sib chiqqanidek, shunga yarasha bugungi tadbirkorning xislatlari ham ibtidoiy tovar ishlab chiqaruvchining sifatlarini muayyan miqyosda va tadrijiylikda aks ettiradi. Ma'lumki, hunar ahlining ikki qiyofasi bor: biri jamiyat uchun zarur ashyoni yaratishda namoyon bo'lsa, ikkinchisi yasagan buyumini bozorda pullashda ko'rinadi. Agar kosibning yaratuvchiligi faqat moddiy ehtiyojlarni qondirish uchun zaruratan ijro etilsa va u o'z insonlik mohiyatini, binobarin, Haqni anglab yetmagan bo'lsa, uni bozor foyda izlashga o'rgatadi, olib sotarlikka, o'zgalarning soddaligi va halolligidan foydalanib, imkon boricha o'z o'chog'iga kul tortishga odatlantiradi.

Navoiy haqiqiy savdogarni (tijorat ahli) olib sotarlardan farq qiladi. Savdogar halol rizq topaman deb uzoq, mashaqqatli yo'llarni bosib o'tadi, ya'ni u inson jamoalariaro iqtisodiy munosabatlarning tashkilotchisidir. Bir yurtdagi ma'lum ashyolarning ortiqcha serobgarchiligi va qadrsizligi oldini olib, o'zga yurtdagi kamyobgarchilikka barham beradi, iqtisodiy muvozanatni ta'minlaydi. Bu kasbning o'ziga yarasha qiyinchiliklari va zavqlari bor. Ammo tojir boshida "birni yuz qilish savdosi va bo'zni shoyiga aylantirish tamannosi"¹ bor. Shahar olib sotarlarida esa ushbu xirs butkul insof o'rmini egallab olgan. Demak, hunarmand yaratuvchiligini unutsa va savdogar o'z ijtimoiy vazifasini ado qilmasa, har ikkisi ham bozor tovlamachisiga aylanadi.

Yangi davrga kelib hunarmand va savdogar yangi jihatlar kasb etdi va sarmoyador bilan ishchiga aylandi. Ishni tashkil etish sarmoya egasining vazifasi, tayyor ish qurollarida tayyor xomashyoni qayta ishlash ishchining vazifasi bo'lib qoldi. Albatta, XIX asr Yevropasidagi sobiq savdogar hanuz "birni yuz qilish" kayfiyatini saqlab qolgan va ishchiga oz haq berib, o'zi ko'p foyda olish harakatidan qaytmagan edi. Ammo ishchilar ham bu davrda asta-sekin o'z haqlarini tanib, birlasha bosh-

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 14-jild, 1998. 34-b.

ladilar va sarmoya egasining xudbinligiga qarshi o'z kurash usullarini ishlab chiqdilar.

Asli bozor munosabatlari hukmronligi ham insoniyatning kamolot sari intilishida bir bosqich, ya'ni jamiyatni tashkil etishda harbiy va siyosiy zo'rlik ishlatish usulidan iqtisodiy munosabatlar yo'liga o'tish bosqichidir. Bozor har bir insonni hushyorlikka, fursatni behuda o'tkazmaslikka o'rgatadi. Ammo agar jamiyatdagi turli toifalar o'zligini anglab yetmagan bo'lsalar, bozor korchalonlarining tanho hukmronligi insoniyatni razolatdan qutqarmaydi, tabiatni esa halokat sari eltishi mumkin. Buni unutmashligimiz kerak. Shu jihatdan qaraganda, ajdodlarimiz bizga qoldirgan tabarruk meros – futuvva axloqi – yaratuvchilik mehnatini ruhiy kamolot bilan uyg'unlashtirib, inson tabiatidagi moddiy va ma'naviy jihatlar mavzunligini ta'minlashga qaratilgani bilan ibratga sazovordir.

Manfaatlar to'qnashuvi, raqobat bozor iqtisodi uchun xos narsa. Ammo raqobatni kurashdan farqlash kerak. Agar raqobatni kurash deb tushunib, uni faqat raqibni moliyaviy sindirish yo'llarini izlash sifatida talqin etilsa, tadbirkorlarning raqobati bir-biriga ziyon yetkazish, ishidan ishkak chiqarishga qaratilsa, bunday yondoshuv nizo va buzg'unchilikka, millat va jamiyatning zarariga qarab yuradi. Agar raqobat deganda bir-biridan sifatliroq, xaridorgirroq, o'zgalar molidan arzonroq, inson ehtiyojiga yaroqliroq buyum, mahsulot chiqarish orqali bozorda oldingi o'rinlarni egallashga intilish, buning uchun yangi texnologiyalar, unumli ish usullarini izlash yo'lidan borish tushunilsa, ya'ni u ijobiy va ijodiy yo'nalish kasb etsa, jamiyat farovonligi, inson kamolotiga xizmat qiladi. Biz musulmon farzandimiz, Allohning adolatiga imonimiz komil. Har kim ekkanini o'radi, birovga qilinadigan yaxshilik ham, yomonlik ham bir kun albatta insonning o'ziga qaytadi, deb ishonamiz. Birov foyda ko'rishi uchun, albatta, ikkinchi odam zarar ko'rishi shart emas. Bizda hozir shunday tadbirkorlar yetishib chiqmoqdalarki, ular aqli, salohiyati, mehnati bilan o'ziga ham, boshqalarga ham manfaat keltirmoqdalar.

Tadbirkor ma'naviyati haqida aytilganlarga xulosa qiladigan bo'lsak, ikki ma'naviy tushunchaning yetakchi o'rin tutishi ma'lum bo'ladi. Bularning biri «farosat» bo'lsa, ikkinchisi “qadr”.

Inson o'z qadrini iqtisodiy maydonda o'lchar ekan, talab va taklif uyg'unligini hisobga olmog'iga to'g'ri keladi. Uning ilmi, malakasi kim uchun va qay darajada zarur – mana shu masala uning iqtisodiy

maydondagi qadrini belgilaydi. Tadbirkorning farosati yorug' olamdagi har bir inson, ashyo va mavjudotlar qadrini, jumladan, o'zi va o'zgalar qadrini, amaliy sharoitda, muayyan makon va zamonda aniq o'lchovlarda anglab yeta bilishi, shunga muvofiq tadbirlar tizimi ishlab chiqib, uni hayotga tatbiq eta bilishda namoyon bo'ladi. Shu qobiliyatni aql va bilim bilanmi, tabiiy salohiyat tufaylimi amalda isbot eta olgan odam haqiqiy tadbirkordir, va shu yo'l bilan jamiyatga nafi tekkan odamning noni halol, amali xayrlidir.

6-BOB. FUQAROLAR JAMIYATI

1-fasl. Uyg'un fuqarolar jamiyatining ma'naviy asoslari

Xalq hokimiyatchiligiga asoslangan ozod jamiyatning hayotga to'laqonli joriy bo'lishi uchun 3 talab bajarilishi zarur. Birinchisi, barcha fuqarolarning siyosiy jihatdan teng huquqli ekanligi tan olinishi, ikkinchisi, barcha fuqarolarning qonunlarga itoat etishni o'z burchi deb bilishi va uchinchisi, barcha fuqarolarning ijtimoiy hayotga faol va mas'uliyatli yondoshuvi. Bunga qo'shimcha yana ikki masala bor. Birinchisi iqtisodiy siyosatga oid bo'lib, mulk huquqi masalasidir. Insonlararo iqtisodiy munosabatlarda bozor iqtisodi tamoyillari joriy bo'lishi uchun har bir inson o'zi yaratgan yoki qonuniy o'zlashtirgan mulkini erkin tasarruf qilish va mulk shakllarini erkin tanlash huquqiga ega bo'lishi kerak. Bu sanab o'tilgan masalalar barchasi oldingi boblarda batafsil ko'rib chiqildi.

Endi oxirgi va eng muhim masala ijtimoiy uyg'unlik muammosi bo'lib, busiz oldingi sanab o'tilgan masalalarning hech biri tugal va mukammal hal bo'lmaydi. Suhbatni ajdodlar merosiga murojaatdan boshlagan maqbul.

Yaqingacha marksistlar bizni ishontirmoqchi bo'ldilarki, go'yo Karl Marksgacha hech kim bashariyatning tarixiy taraqqiyoti qonuniyatlarini ilmiy izohlab bera olgan emas. Vaholanki, ajdodlarimiz — buyuk islom mutaffakirlari bu sohada jiddiy yutuqlarni qo'lga kiritgan edilar. Jumladan, Forobiyning "Fozil shahar odamlarining qarashlari" asaridagi insonlar jamoasining kelib chiqishi haqida bugungi kunimiz uchun ham o'z qiymatini yo'qotmagan mulohazalarni eslash mumkin. Bu haqda oldingi boblarda ham to'xtalgan edik. Alloma ijtimoiy hodisalarni bevosta inson tabiatidan kelib chiqib izohlar ekan, bugungi kun-

da biz fuqarolar jamiyati deb atayotgan o'z orzusidagi «fozil shahar»ni shunday ta'rif qiladi: «Fozil shahar» mukammal va sog'lom badanga o'xshaydi, uning barcha a'zolari tirik vujud unsurlaridek to'laqonli hayot kechirishda bir-birlariga ko'maklashib bahamjihat faoliyat olib boradilar. Badandagi turli a'zolar o'z tabiati va xislatlariga ko'ra bir-biridan farq qilganidek, shahar jamoasi a'zolari ham tabiatan o'zaro bir xil emaslar va shunga muvofiq jamoadagi mavqelari ham turlicha-dir»¹.

Buyuk allomaning bu qarashlari keyinchalik Ibn Xaldunning «Kitob-al-umran» asarida o'z rivojini topib, tarixda birinchi marta insoniyatning tarixiy-ijtimoiy takomil jarayoni va uning bosqichlari haqidagi ta'limotga, ya'ni bashariyat tarixining rivojlanish nazariyasiga aylantirildi. Ibn Xaldun insonlar jamoasining shakllanishi va rivojida ikki yirik bosqichni ajratib ko'rsatdi. Ularning birinchisini ibtidoiy jamoa va ikkinchisini shahar jamoasi deb nomladi.

Ajdodlarimiz o'z asarlarida davlatning turli shakllarini tasvirlab, uning asosiy vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishda deb talqin etdilar. Bu jihatdan XI asr turkiy she'riyatning buyuk namoyandasi Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» ijtimoiy-falsafiy dostoni alohida e'tiborga loyiq. Unda davlatni boshqarish, turli ijtimoiy toifalarning o'zaro munosabatlari va jamiyatdagi mavqelari xususida mufassal tahlil va xulosalar yuksak badiiy shaklda ifodalab berilgan.

Yusuf Xos Hojib asarini islom ma'naviyatining badiiy-falsafiy, ijtimoiy-axloqiy qomusi deb bema'lol ta'riflash mumkin. Firdavsiy «Shohnoma»da mintaqa xalqlarining o'tmish tarixini badiiy aks ettirgan bo'lsa, «Qutadg'u bilig» dostoni islom davri ijtimoiy voqeligining badiiy-falsafiy tahlil va talqinini o'zida mujassam etgan. Behuda emaski, shoirning o'zi kitobi haqida gapirib, uning «Adab ul-muluk» (Hukmdorlar odobi) va «Oyin ul-mamlakat» (Mamlakatni idora etish qoidalari) nomlari ostida ham shuhrat topganini ta'kidlaydi. Asarning asosiy qahramonlari o'sha davr jamiyati bosh timsollarining ramziy ifodasi bo'lib gavdalanadi. Ulardan birinchisi Adolat – u bosh hukmdor, ismi – Kuntug'di, u quyoshdek barchaga barobar nur taratadi. Ikkinchi timsol – Qut yoki Davlat bo'lib, bu tushuncha ichki mazmuniga ko'ra Boylik, Baraka, Omad, Baxt, Quدرات ma'nolarini o'zida jamlagan, uning ismi Oyto'ldi, u hukmdorning tayanchi, uning beliga quvvat,

¹ Ал-Фараби. Философские трактаты. Алма-ата, 1972, с. 305–306.

ko'ziga nur, mulkiga farovonlik baxsh etuvchi bosh maslahatchi va nozir. Ammo Oyto'ldining umri foni. Davlat, Baxt, Omad kabi narsalar poydor emas. Osmondagi Oy yanglig' goh to'lib balqiydi, goh Hilol singari noziklashib, quvvatdan ketadi, orada ko'rinmay qolishi ham mumkin. Darhaqiqat, Oyto'ldi asar davomida xastalanib vafot etadi. Uning o'rniga o'g'li O'gdulmish o'rinbosar, hukmdorning yaqin maslahatchisi bo'lib qoladi. O'gdulmish Aql va Bilim ramzi (O'g – qadim turkiyda “aql”, “bilim” ma'nolarini beradi). Agar Boylik, Omad, Baxt o'tkinchi bo'lsa, kishi qo'lida doimiy turmasa, Aql va Bilim ularning o'rnini bosa oladi. Kitobning asl nomi – “Qutadg'u bilig” (Baxt keltiruvchi bilim) – asarning bosh timsoli, eng asosiy qahramoni O'gdulmish, ya'ni Aql va Bilim ekanligiga ishora qilib turadi. Asardagi to'rtinchi timsol – qanoat. Agar insonda, jamiyatda qanoat bo'lmasa, uning barcha fazilatlarini bir pul, oqibati ayanchli. Qanoatning ismi O'zg'urmish bo'lib, u Oyto'ldining, ya'ni Baxt va Davlatning, O'gdulmishning, ya'ni Aql va Bilimning qarindoshidir. Ammo Oyto'ldi qarindoshini eslamaydi, Baxt va Omad qanoatni xotirga keltirmaydi. Hukmdorga (shoir hukmdorni Elig deb ataydi), qarindoshi O'zg'urmish haqida O'gdulmish eslatadi, ya'ni Adolat Aql yordamida Qanoatdan xabar topadi va uning suhbatini istaydi. O'zg'urmish bilan bo'lgan suhbatlar ta'sirida O'gdulmishning ham ruhida o'zgarishlar yuz beradi. U ma'lum vaqt tavba-tazarruga berilib, moddiy dunyo tashvishlaridan o'zini olib qochishga intiladi. Ammo O'zg'urmish va Kunto'ldi uni bu niyatdan qaytaradilar, el-yurt tashvishi bilan yashashga undaydilar. O'zg'urmish orqali Yusuf Xos Hojib tasavvuf ta'limotiga o'z munosabatini bildiradi. Tasavvuf, taqvo, zohidlik va faqr shoir nazdida Qanoatning timsoli. Adolat Qanoatsiz bo'lmaydi. Hukmdor so'fiyning, zohidning suhbatidan bahramand bo'lib turishi kerak. So'fiy hukmdorni qidirib kelmaydi, hukmdor uni o'zi qidirishi, suhbatiga intiq bo'lishi kerak. Kuntug'di O'gdulmishni maktub bilan O'zg'urmish oldiga uch marta jo'natadi. Shoir fikricha, agar hukmdor e'tibor ko'rsatsa va mayl bildirsa, so'fiy uning suhbatidan bosh tortishi yaxshi emas. Ammo O'zg'urmish saroy a'yoniga aylanmaydi, ma'lum vaqt Elig bilan fikr almashib, yana o'z kulbasiga qaytadi. Qanoat Oqibatni o'ylash bilan bo'ladi, u insonga Ofiyat (ruhiy osöyishtalik, qoniqish) keltiradi. Shoir ularni ma'nodosh tushunchalar sifatida talqin etadi.

Yusuf Xos Hojib tasavvuf g'oyalariga, haqiqiy taqvo egalariga yuksak ehtirom bilan munosabatda bo'ladi, ammo jamiyat, xalq baxti

uchun, Adolat tantanasi uchun o'z umrini bag'ishlaganlar uning eng suyakli qahramonlaridir. Asar oxirida O'zg'urmish ham bu foniy dunyoni tark etadi. Kuntug'di va O'gdulmish — Adolat va Aql shoir badiiy olamida boqiy qoladilar.

Ilohiy kitoblar orqali insoniyatga ayon etilgan tavhid haqiqati tasavvuf ta'limoti tufayli inson ruhining mulkiga aylandi. Buyuk so'fiy shayxlari avvalo insonga o'zligini anglab yetishni o'rgatdilar. Tasavvuf tarixiy takomil jarayonida turli bosqichlarni bosib o'tib, XIV asr Naqshbandiya tariqati timsolida yana solikni xalqqa, hayotga qaytardi, faqat endi so'fiy o'zligini, Haqni anglab yetgan, dilini xudbinlik zangidan poklab, "Haqiqat asrorining ganjinasini" ga aylantirgan holda hayotga qaytib keldi. U endi o'z shaxsiy manfaatlari uchun emas, balki Haq uchun, xolis Alloh yo'lida moddiy hayot voqeligida faol qatnasha boshladi. Abdurahmon Jomiy, Xoja Ahror Valiy, Mahdumi A'zam kabi ulug' so'fiy shayxlari siyosiy va ijtimoiy hayotda yuksak mavqe kasb etdilar. Mahdumi A'zam siyosatga oid qator risolalar yaratdi.

Turkiy tildagi mumtoz adabiyot ijtimoiy masalalarga doimo jiddiy e'tibor berib kelgan. Biz toshbitiklar va Yusuf Xos Hojib asaridan buni yaxshi bilamiz. Ammo Nizomiy "Xamsa"sidan boshlangan badiiy tafakkurning murakkab izlanishlari ijtimoiy mavzuni — davlat, jamiyat va shaxs ma'naviyati orasidan uyg'unlik masalasini benihoya teran tahlil qilib beradi va bu tahlil Alisher Navoiy ijodiga kelib aytish mumkinki, bir millat yoki mintaqa emas, hatto jahon ahli ma'naviyati rivojida butkul yangi, yuksak kamolot bosqichini mukammal namoyon qildi. Navoiyning butun merosi — devonlaridagi g'azal, qit'a, qasida, tarjiband va soqiynomalar, dostonlari va nasriy asarlari, ilmiy ijodi — barchasi yaxlit bir manzara — Navoiy davridan bir necha asrlar keyin — bizning zamonamizda voqelikka aylanishi mumkin bo'lgan Yangi bir ijtimoiy — ma'naviy uyg'unlikdan bashorat qiladi. Qonun ustuvorligiga asoslangan, haqiqiy fuqarolar jamiyati desa arziydigan, tom ma'noda ijtimoiy adolat va xalq hokimiyati amal qilayotgan, davlat, jamiyat, xalq ma'naviyatining yuksak uyg'unligi asoslari bundan 500 yil ilgari shu daraja yorqin tasavvur etilgani va badiiy ifodalab berilgani insonni hayratga solmay iloji yo'q. Buyuk ajdodlarimiz ma'naviyati hanuz bugungi kunimizdan oldinda, kelajagimizni yoritib turibdi. Biz faqat o'z begonalashuv holatimizni yengib o'ta olsak, bas.

Navoiy yaratgan uyg'un jamiyat manzarasi qanday belgilarga ega?

Avvalo, bu manzara xayoliy (utopik) emas, voqe asosga qurilgan

manzaradir. Ikkinchidan, bu manzara moddiy tenglik va behisob to'kinchilik holati emas, ma'naviy voqelikdir. Uchinchidan, Navoiy yaratgan ijtimoiy-ma'naviy uyg'unlik manzarasi zo'rlik, muayyan kichik bir guruhning zo'ravonligi yo'li bilan joriy etilgan majburiy tenglik jamoasi emas, umum bashariyatning cheksiz adashuvlar, og'ir mashaqqat va iztiroblararo necha asrlar davomida asta-sekin va ixtiyoriy erishgan ma'naviy kamolot holatidir. Unda hali ham adashuvlar, qiyinchiliklar, iztiroblar, yo'qotishlar bo'lishi mumkin, ammo bahamjihatlik, insonning bir-birini tushunishga intilishi oxir-natijada g'olib chiqish ehtimoli kengaygan, shunga muvofiq ma'naviy muhit shakllangan. Bu jamiyatda mulkdor ham bor, mulksiz ham, ammo har ikkovi ham o'z ixtiyori bilan ushbu holatni kasb etgan.

Bu jamiyatning har bir a'zosi o'zligini anglab yetgan, o'z mavqeyiga ega: davlat arbobi ham, olim ham, dehqon ham, savdogar ham; go'dak ham, kekxa ham; erkak ham, ayol ham. Hech kim bir-biriga hasad qilmaydi, qo'lidan kelmagan yumushga da'vo qilmaydi, o'z yukini boshqaga ag'darmaydi, ko'tara olmaydigan yukni yelkaga olishga behuda urinmaydi.

Chunki insonlarda borliqning Oliy Haqiqatini tushunish bor, unga cheksiz intilish bor, nafaqat aql, balki butun vujud bilan, butun ehtiros bilan anglab yetilgan imon, e'tiqod bor. Bu e'tiqod barchada bir xil tusda emas, ya'ni yagona mafkuraning yalpi hukmronligi tarzida emas, balki o'zaro mehr, bir-birini tushunish va Haqqa intilishdagi samimiyat zaminida shakllangandir. Rioya, andisha, mehr-oqibat, hilm (muomalada halimlik), sabr-toqat va Oliy Haqiqat oldidagi mas'uliyat hissi ushbu e'tiqodning mevalaridir. Bu jamiyat kishilari go'zallikka intiladilar, ammo poklikka xiyonat etmaydilar; fidoyilikka ular qodir, ammo mutaassiblik ularga begona; har bir kishiga yuksak ehtirom bilan yondoshadilar, ammo hech kimga tilyog'lamalik qilmaydilar; har bir shaxs o'z qadrini biladi, ammo takabburlikni bilmaydi; ular har biri o'z e'tiqodiga sodiq, ammo birovni nodon deb o'ylamaydi, ular qalbi-da ehtiros jo'sh uradi, ammo ular ehtiroslarning quli emas; ular aqlli, ammo makkorlikdan or qiladilar. Bunday xislatlarni cheksiz sanash mumkin, ammo Navoiy yaratgan bu manzarani yaqqol ko'rish uchun nima talab etiladi, shoir o'zi bu darajada bashoratga qanday erisha olgan? – degan savol tug'ilishi mumkin. Sababi bitta – barcha salaf-lari singari Alisher Navoiy ham o'zidan oldin yaratilgan buyuk ma'naviy merosni imkoni darajasida mukammal o'zlashtirgan, faqat aqli bilan

emas, butun vujudi, borlig'i bilan, mehr-u samimiyati bilan o'zlashtirgan, but imon, e'tiqod bilan Haqiqatni izlagan va Haqiqat unga yuz ochgan. Bu Allohning inoyati insonning samimiyati, o'zligini anglashga cheksiz intilishi tufaylidir. Kimki ixlos bilan, imon va e'tiqod bilan, ezgu niyat bilan milliy va umumbashariy ma'naviy merosni o'rganishga, uning mag'zini anglab yetishga urinsa, inshoolloh, unga ham Haqiqat jamoli nasib bo'lgusidir.

2-fasl. Ijtimoiy toifalar tabiati va ma'naviyati

Qarama-qarshiliklar birligi va kurashini voqelik mohiyatining o'zak qonuni sifatida idrok etilishi barcha narsa-hodisalar mohiyatini juftlikda ko'rib, ularni albatta bir-biri bilan cheksiz kurash holatida tasavvur qilishga olib keladi. Nazariyada albatta zid tomonlar bir-birini taqozo qilishi tan olinadi, ammo inson faol zot, u bir ishni boshlasa, nihoyasiga yetkazmay qo'ymaydi: hayotning mohiyati kurashmi — demak, kurashni boshlab, oxirigacha olib borish kerak, ya'ni muxolifni butkul mahv etish (yo'q qilib tashlash) kerak. Agar muxolif tomon kurashni hayotning mohiyati deb bilmasa, badtar bo'lsin, uni yengish qaytaga osonroq. Nega Rossiyada burjuaziya yengildi, chunki hech qaysi “kapitalist” yoki, “feodal” ishchi yoki dehqonni butkul yo'q qilib tashlash kerak deb hisoblamaydi, ammo ishchi nazarida (aniqrog'i, marksizm ko'zi bilan qaraganda) “kapitalist”lar sinfi umuman jamiyat uchun befoyda unsur, uni qancha tez yo'q qilib tashlansa, shuncha tez “kommunizm” quriladi. Negadir hayot bu farazlarni tasdiqlamadi, faqat inson qoni daryo-daryo bo'lib oqqani qoldi.

Fuqarolar jamiyatining asosiy xususiyati — ijtimoiy uyg'unlikdir. Ijtimoiy uyg'unlik esa insonlarning bir-birini tushunishi bilan bo'ladi. Kommunistik g'oyaning eng katta kamchiligi ham turli ijtimoiy toifalar tabiatidagi o'ziga xosliklarni anglab yetishga hafsala qilmay, murakkab voqelikni faqat ikki sinf orasidagi ayovsiz kurash sifatida talqin etganligi bo'ldi. Masalan, Leninning eng ko'p g'azabiga ikki toifa: intelligensiya va dehqonlar duchor bo'lishgani ko'pchilikka ma'lum. Dehqon mehnatkashligi uchun tabiatan ishchiga ittifoqdosh deb qaralsa ham, uning xususiy mulkka moyilligi “dohiy” ning ko'p g'azabini qo'zg'atar edi. Bu “qusur”ga barham berish uchun “sodiq shogird” (Stalin) tomonidan yalpi kollektivizatsiya o'tkazildi, natijada dehqonlar to'liq totalitar davlat asoratiga tushdi. Buning xulosasi dunyoning oltidan bir qismini egallagan davlatda asosiy oziq-ovqat mah-

sulotlari chetdan naqd valyutaga sotib olinishiga o'tish bo'ldi. Ziyo ahlini ham bolsheviklar totalitar tuzumning itoatkor xizmatchilariga aylantirdilar.

Marksistlar o'zlaridan oldin o'tgan barcha insonlarni, ular qanchalik ulug' bo'lmasin, baribir dunyoqarashi cheklangan deb hisoblab keldilar. Sovet davrida o'tmish allomalarning butun "xizmati" kelajakda yaratilajak "dialektik materializm" nazariyasiga qanchalik muvofiq fikr yuritganliklari bilan belgilandi. Agar nomuvofiq bo'lsa, demak, "reaksion". Ular nazarida, o'tmishning eng progressiv allomalari ham, ayniqsa Sharqdan bo'lsa, sinflar kurashining mohiyatiga yetib bormagan. Jumladan, sotsialistik realizm nazariyotchilari Alisher Navoiy tafakkurini ham bu qusurdan xoli emas, deb hisoblashgan. U "zolim podshohlar" va "riyokor shayxlar" ni qoralagani – nihoyatda "progressiv" hodisa sanalsa-da, ammo jamiyatdagi ikki muxolif sinf, deylik, feodallar va dehqonlar orasidagi "murosasiz ziddiyat"ni to'g'ri ochib bera olmagan – buyuk shoir tafakkuridagi noqislik sifatida baholanagan. Aslida aqlimizni peshlab, insonlar jamiyatini Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy kabi buyuk allomalarimiz tushunganidek tushunsak edi, allaqachonlar ko'p muammolarimiz yechilgan bo'lur edi. Buyuk ajdodlarimizning ma'naviy merosi tuganmas xazinadir. Ularda nafaqat bir inson, balki butun insoniyat o'tmishi, buguni va kelajagi yaxlit namoyon bo'lgan. Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr", "Mahbub ul-qulub" asarlariga murojaat qilsak, bunga yaqqol ishonch hosil qilamiz.

Asli hayotda sinflar emas, turli ijtimoiy toifalar mavjud. Ularning har biri jamiyatda o'z aniq maqom va mavqeyiga ega. Shunga yarasha har birining o'z tabiati, ehtiyojlari, burch va vazifalari, o'z ma'naviy olami mavjud.

"Lison ut-tayr" badiiy asar, shu sababli undagi g'oya ilmiy tahlil emas, ramziy ishoralar vositasida bayon etilgan. O'ttiz qush (Simurg') timsoli jamiyatdagi ijtimoiy toifalarning ko'pligi va rang-barangligiga ishora. Ular barchasi bir bo'lib, yaxlit voqelikni tashkil etadi. Navoiy "Mahbub ul-qulub" da bu qarashni bevosita, ochiq ijtimoiy tahlil orqali ifodalagan. Unda o'sha davr jamiyatiga xos qirq toifaga ta'rif beriladi va ularning turli jihatlari mukammal tavsiflanadi. Har birining tabiatidagi fazilat va qusurlar xolis ochib tashlanadi.

a) Navoiy nigohida dehqon va darvesh

Inson avvalo yaratuvchidir. Bu unga Alloh tomonidan in'om etil-

gan mumtoz fazilat. Albatta, insonning yaratuvchiligi nisbiy, noto'kis va ikkilamchilik xususiyatlariga ega. Shu bilan birga bu fazilat cheksiz takomillashib borish tamoyilidan ham forig' emas. Insonning yaratuvchiligi ikki yo'nalishda zohir bo'ladi – biri insonlar ehtiyoji uchun zarur moddiy ne'matlar hosil qilish, ikkinchisi – insonlar qalbiga ma'naviy ziyo taratish, ularni boqiy dunyo bilan tutashuv hosil qilishiga ko'maklashish. Har ikki yaratuvchilik faoliyati ham Alloh inoyati bilan amalga oshadi, ammo bu yo'lda insonlarning o'zlari bir-biriga vosita etib qo'yilgandirlar. Navoiy asariga nazar solaylik. Shoir nazdida, inson yaratuvchiligining ibtidosi ziroatdadir. “Mahbub ul-qulub”ning bosh va suyukli qahramonlari, bizning tasavvurimizga ko'ra, shoh va sultonlar, munajjim va voizlar emas, balki dehqon va darveshdir: “Dehqonki, dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo'lin ochar..”.¹ Dunyoga dil ko'zi bilan qarashni o'rgangan shoir dehqonni Odam Atoga, o'zgalarni uning qaramog'idagi farzandlarga o'xshatadi, olamning obodligini dehqon mehnatidan deb hisoblaydi. Tabiatdagi juda ko'p jon-zotlar ham dehqon mehnati samaralaridan bahramand bo'ladi-lar. Chorvador va bog'bon ham asli shu toifadan. Shoir ta'kidicha, ular jamiyatdagi asosiy yaratuvchi kuchdir. Bu toifaning yana bir buyuk fazilati – insonlar va tabiat orasidagi muvozanatni saqlashda ko'rinadi.

Qadim ajdodlarimizning “Avesto” kitobida tabarruk hisoblangan zamin ayolga qiyos etiladi, uni erkalash, parvarish etish ulug' va muqaddas yumush sifa-tida dehqon zimmasiga yuklanadi. Ajdodlarimiz o'zligini tanigandan boshlab yer, suv va olovni ulug'laganlar va dastlabki ikkisini pok saqlash, ezgu niyatlarda istifoda etish dehqon uchun ham huquq, ham mas'uliyat sanalgan.

Mutafakkir adib jamiyatdagi yana bir toifaga – darveshlarga ham alohida mehr ko'rgazgan. Afsuski, mustaqillikkacha o'tgan 70 yil davomida Navoiy asarlaridagi ayrim mafkurachilarga ma'qul kelmagan jihatlilar ko'plab nashrlardan ayovsiz qirqib tashlanardi. Jumladan, “Darveshlar zikrida” deb nomlangan 1-bo'limning 40-fasli ham shoirning 15 jildlik “Asarlar” to'plamidan “tushib” qolgan. Holbuki, Navoiy bu toifa misolida haqiqiy ziyoli qiyofasini yaratadi. *Haqiqiy ziyoli, ya'ni darvesh elga faqat ma'rifat, ilm nurini tarqatish bilan kifoyalanmaydi, insonlar diliga poklik, mehr-oqibat, czgulikka intiqlik, o'z-o'zini anglash tuyg'ularini singdiradi*: “Ichi tashi bilan muvofiq, balki

¹ Alisher Navoiy Mukammal asarlar to'plami. 14-j., T., 1998, 37-b

arig'roq (pokroq), botini zohir bila musoviy (teng muvozanatda), balki yorug'roq..". Albatta, moddiy va ma'naviy qiyofa doim mutanosib bo'lavermaydi. "Darvesh to'ni yirtuq, andoq turur kim, ganj (xazina) makoni buzuq"¹.

Forobiy, Beruniy, Ibn Sinolar hukmdorni faylasuf bo'lishga da'vat qilgan bo'lsalar, Navoiy o'z asarlarida Husayn Boyqaroni "darveshshoh" bo'lishga undagan. O'sha zamonda darveshlar deganda ko'proq so'fiylar, tasavvuf ahli tushunilgan. Ularning yaratuvchiligi, avvalo ruhiy ogohlik, ma'naviy poklik timsollarini o'zliklarida tirik tajassum etishlari bilan bog'liq bo'lgan. Shu bois ular ma'no (ya'ni, Haq mohiyatidan ogohlikka intilish) va safo (poklikka, ma'naviy qusurlarni yengib o'tishga jahd qilish) ahli sifatida ulug'langanlar. Alisher Navoiyning asl darveshlar — ma'no va safo, ziyo va ishq ahli — haqidagi mukammal kitobi "Nasoyim ul-muhabbat min shamoyimul-futuvvat"dir. Biz hanuz uning to'liq nashridan umidvormiz.

Dehqon va ziyolidan tashqari yana ikki asosiy ijtimoiy toifa mavjud bo'lib, ular ham jamiyat uchun zaruriydir. Biri — barcha ijtimoiy sohalardagi tashkil etuvchilar, ikkinchisi — kosib-hunarmandlar, ya'ni sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilardir. Tashkil etuvchilar guruhi o'z tabiatiga ko'ra, to qadim dunyodagi qabila boshlig'idan tortib, o'rta asrlardagi shoh va sultonlar, yangi davrdagi burjua sinfigacha ko'pincha hukmronlik mavqeyini egallab kelganlar. Navoiy bu tabaqa vakillarini birinchi bo'lib ta'riflaydi: sultonlar, beklar, noiblar, vazirlar, sadrlar, shayhul-islom va qozilar, lashkarboshi va yasovullar... Bularning aksariyati mutafakkir shoirning achchiq ginalariga sazovor bo'ladi. Ularsiz jamiyat to'kis emas, ammo ularning "tashkil etish" usullari davr taqozosi va hukmronlikning murakkab botiniy qonuniyatlari ta'sirida o'ta johil va ayovsiz shakllarda namoyon bo'lar va shu sababli Navoiy singari oriflar va mehr ahli dilida iztiroblar uyg'otar edi.

Adib asarida "bozor kosiblari" va o'zga hunar ahlini ham ayamaydi. "Bozorda savdogar kosib tengriga xoin va va'daga kozib (yolg'onchi). Birga arzi rni yuzga sotmoqdin alarg'a ming mubohot, mingga tegarni yuzga olmoqdin alarg'a yo'q zarra uyot. Rostliq bila savdo alarg'a ziyonkorliq va va'daga vaf o alarg'a badkirdorliq."² Ko'rinib turibdiki, Navoiy kosibni bozorda, iqtisodiy muomalada tasvir etmoqda.

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 14-j., T., 1998, 46-b.

² Alisher Navoiy, Mukammal asarlar to'plami. 14-j., T., 1998, 35-b

Bu yerda u xususiy mulkchi, ushbu holatda uning savdogardan, sarmoyasini ko'paytirish g'amida yurgan korchalon (biznesmen)dan farqi yo'qdir. Hunar ahlining dehqondan farqi – u yaratuvchi sifatida ona tabiatdan uzilib qolganligidir. U tabiat bilan emas, bozor bilan bog'liq, bozorda hamma narsa nisbiy – yo sen aldaysan, yo seni aldaydilar. Dehqon esa tabiat bilan muloqotda, tabiatni aldab bo'lmaydi, oxiroqibat o'zing aldanib qolasan. Bu bilimni dehqon va chorvador mingyillik amaliy tajribasi bilan chuqur o'zlashtirgan.

Yaratuvchi kosib, hunar ahli o'z puxta ma'naviy asosini ishlab chiqmagan, insonlik mohiyatini anglab yetmagan bo'lsa, oddiy bozor tovlamachisi darajasiga tushib qolishi yoki xonavayron bo'lishi hech gap emas. Sababi – inson tabiati ham barcha voqelik hodisalari singari o'z ichki ziddiyatiga egadir. U bir tarafdin hayvonot olamiga, ikkinchi tomondan Haqqa, borliqning ma'naviy mohiyatiga tutashdir. “Lison ut-tayr”da ta'kidlanishicha, inson jismida to'rt bir-biriga zid moddiy unsur birlashgan, dili esa haqiqat asrorining ganjinasidir. Hayvonlarning har qanday toifasi, avvalo qorinning quli, qolaversa o'z naslidan avlod qoldirish vazifasini, tabiat buyurgan vazifani bajaradilar, yana bir-biriga yemish bo'ladilar. Insonda ham hayvonlarda bo'lgan barcha tabiiy ehtiyojlar mavjud. Agar inson o'z aqlini ma'rifat ziyosi bilan yoritmasa, yaratuvchilik vazifasini ado etishga ongli munosabatda bo'lib, astoydil shug'ullanmasa, dilida o'zgalarga mehr-shafqat tuyg'usi yoqlinlanmasa, u ham ikki oyoqli maxluq, qorinning quli bo'lib qolaveradi.

Insonga aql Haqni tanish uchun berilgan. Agar aql vazifasidan adashsa, dorilik uchun mo'ljallangan javhardan zahar sifatida foydalanish kabi holat vujudga keladi. Zahar vazifasini bajara boshlagan aql qudrati butun insoniyatni zaharlashga qodirdir. O'tmish “lison ul-g'ayb” egalarining asosiy faoliyat mazmuni ushbu falokatning oldini olishga qaratilgan edi.

b) ahli futuvva va yollanma ishchilar

Sobiq sho'rolar davrida biz sof materializm va jangovar ateizm pozitsiyalarida sobitqadamlik ko'rsatib, ajdodlarimiz merosidan ham dahriylik unsurlarini qidirar edik. Mo'ljalimizga biroz mos keladigan fikr yo jumla topsak, uni har tomonlama ko'z-ko'z qilardik. Bordi-yu, aksincha bo'lsa, ularni ommaviy nashrlardan tushirib qoldirar, murakkab o'rnlarni ko'rib-ko'rmaslikka olib o'tib ketar edik. Mustaqillik sharofati tufayli islomga umumiy qaytish jarayoni rivoj olib, biz ham

buyuk ajdodlarimiz asarlaridagi dinga aloqador o'rinlarga ayricha ahamiyat bera boshladik. O'tmish allomalar uchun o'z-o'zidan tabiiy bo'lgan e'tiqodlilik ko'zimizga to'tiyo bo'lib, "Mana falonchi ham e'tiqodli musulmon bo'lgan, Allohga munojot etgan", deb ta'kidlash bugun bizga faxr tuyg'usi baxsh eta boshladi. Tasavvufni ulug'lash, barcha o'tmish allomalarimizning mutasavvif ekanligiga e'tibor qaratish ham ushbu jarayonning uzviy qismidir. Har ishda me'yor tuzuk. Inson tabiati faqat ruhiy dunyodan iborat bo'lmagani sababli, u agar to'liq moddiy dunyo ehtiyojlarini rad etsa, yo bu foniy dunyoni tark etmog'i, yo ikkiyuzlamachilikni, ya'ni riyokorlikni kasb etmog'i lozim. Ahli futuva ushbu ziddiyatni yengib o'ta olgan jamoadir. Futuvva ma'naviyatini o'zlashtirgan kishi amalda yaratuvchi va ruhiyatda darveshdir. Uning axloqiy jihatdan sifati – javonmardlik, ya'ni saxovatlilik, oliyhimmatlilik, kamtarinlik, to'g'riso'zlik, mardlik kabi xislatlarning uzviy yaxlitlikda namoyon bo'lishidir. "Bu guruh mehnat bilan topgan nonini boylik deb bilgay", deb yozadi Unsuralmaoliy Kaykovus.

Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat min shamoim ul-futuvat" asarida tilga olingan mashoyix va avliyoning hayot tarzidagi asosiy xususiyatlardan avvali ularning har biri bir kasb bilan mashg'ul bo'lib, halol mehnatlari hisobiga ro'zg'or tebratishlaridir: Abu Sayid Xarroz – etikdo'z, Muhammad Sakkok – pichoqchi, Abu Hafz Haddod – temirchi, Abulabbos Omiliy – qassob, Ibrohim Ojiriy – g'isht quyuvchi, yana birlari hammol, boshqalari najjor, hech bo'lmasa, o'tin tashuvchi va hokazo¹.

Proletar diktaturasi zo'rlikka zo'rlik bilan javob beruvchi kuch sifatida paydo bo'ldi. Yo'qsillar yangi jamiyat barpo etish yo'lidagi asosiy to'siq ezuvchilar sinfi va xususiy mulk munosabatlari deb bildilar va ularning yo'q qilinishi barcha mushkulni hal qiladi, deb o'yladilar. XIX asr Yevropasida ushbu kayfiyatlarni aks ettiruvchi qator nazariyalar paydo bo'lib, ularning avj nuqtasi Karl Marks va Fridrix Engels qarashlarida namoyon bo'ldi. Rossiyada bu qarashlarning oddiy savodsiz yalangoyoq (proletar) ongida qanday talqin topishi mumkinligini buyuk iste'dod va foje taqdir egasi Andrey Platonov "Chevengur" romanida badiiy ifodalab berdi. Asar qahramoni Chepurniy yo'qsillar qurmoqchi bo'layotgan "adolatli" jamoaning asosiy xususiyatini aniq ifodalaydi: "Chevengur mulk yig'maydi, u mulkni yo'q qiladi". Ular

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 15-jild, 68-b.

tashkil etgan kommunaning tayanch g'oyasi: "Yo'qsillar boshqa sinflarsiz yolg'iz yashasa, kommunizm o'z-o'zidan paydo bo'ladi"¹. Bu juda xavfli xayolparastlik edi, shuning uchun Platonov singari sofdil va andishali san'atkorlar uni alohida bo'rttirib aks ettirdilar. Afsuski, ularga quloq soladigan odam bo'lmadi. Stalin diktaturasi proletar diktaturasining qonuniy hosilasi edi. Biz butun bir ijtimoiy guruh xatosini bir yoki bir necha shaxs bo'yniga yuklashimiz aslo insofdan ham, adolatdan ham emas va bu o'tmish tajribasidan to'g'ri xulosalar chiqarishimizga yordam bermaydi. V. Lenin yo'l qo'yilgan xatoni vaqtida sezib qolib muayyan chegarada isloh kiritishga harakat qilgan bo'lsa ham, ular tanlangan yo'lning umumiy mantiqi buni ko'tarmadi: ko'pchilik bolshevik arboblari zo'rlikni va butun jamiyatni proletarlashtirishni yangi jamiyat qurishning o'zak omillari hisoblar edilar. Buxarin yozadi: "Proletarlar majbur qilish (пролетарское принуждение) o'zining barcha shakllarida – ommaviy otib tashlashlardan tortib, majburiy mehnatgacha (трудова́я повинно́сть) – qanchalik aqlga xilof ko'rinmasin, baribir kapitalizm davrida shakllangan inson ashyosidan (человеческий материал) kommunistik insoniyatni barpo etishning asl usulidir". Totalitar tuzumning so'nggi davrida ba'zilar Stalinga Buxarinni qarama-qarshi qo'yimoqchi bo'lishdi. Balki, ularning biri makkorroq va ikkinchisi samimiyroq bo'lgandir va shu sababdan jabr ko'rgandir. Ammo tanlangan yo'l mohiyatda bir edi, buni e'tirof etmoq kerak. Marksistlar yollanma ishchining mehnatkash-yaratuvchi ekanligi, uyushgan va jangovar sinf ekanini doim ta'kidlab, shu asosda uni "eng ilg'or sinf" atab, dehqonga ham, ziyoliga ham o'rnak qilib ko'rsatib kelishdi. "Sovet" hukumati bu bilan ham cheklanmay, millionlab dehqonlarni amalda qishloq xo'jaligi ishchilariga aylantirdi. Barcha ziyolilarni davlat xizmatchisiga, umumdavlat mashinasining murvati va g'ildirakchalariga aylantirdi. 30-yillardagi zo'raki kollektivlashtirishdan so'ng yalpi proletarlashtirilgan jamiyat sotsializm deb e'lon qilindi, barcha "shakkoklar" yoki shunday gumon qilinganlar, tom ma'noda qirib tashlandi. Aslida esa o'shanda ijtimoiy adolat timsoli hisoblangan tuzumning ziddi qurilgan edi.

Ishchining ixtiyori o'zida emas. Majburan proletarlashtirilgan barcha mamlakatlarda shunday bo'lishi tabiiy. Hatto davlat xizmatchisining ham ahvoli shu, chunki u yuqoridan tushirilgan buyruqni bajara-

¹ А.Платонов. Чевенгур М., 1991, с. 274.

di. Agar vijdoni buyurgandek ish olib bormoqchi bo'lsa, yutqazadi, chunki maosh vijdon o'lchovlari asosida to'lanmaydi. Ishchiga ham ong o'lchovi bilan haq berilmaydi – necha miltiq yoki bomba yasa-ganiga qarab maosh belgilanadi. Endi davlat xizmatchisi, ijodkor zi-yoli, dehqon – barchasi yagona proletar ideologiyasi, yagona proletar siyosati, yagona proletar iqtisodiy tizimiga bo'ysunishi zaruriy va maj-buriy bo'lgan jamiyatni o'zingiz tasavvur qilib ko'ravering.

Sovet davrida doimo kommunistik partiya ishchilar, dehqonlar va ziyolilarning mushtarak manfaatlarini himoya qiladi, deb da'vo qilib kelindi. Hatto oxirgi XXVIII syezd dasturiy bayonotida ham bu qayd etilgan edi. Asli na nazariy, na amaliy jihatdan bu da'vo to'g'ri emas edi. Kommunistik partiya e'tiqodi va amaliy yo'nalishiga ko'ra (g'oyaning amaldagi hosilasi bo'lmish totalitar tuzum va riyokor part-nomenklaturani emas, sof g'oyaviy yo'nalishni nazarda tutgan taqdirda ham) ishchilar sinfining muayyan qismi – yo'qsil yollanma mehnat-chilar va sotsial himoyaga muhtoj bo'lgan kishilar manfaatini ifodalab, o'z nazariyasida ularning radikal qarashlarini ifoda etadi. Bugungi yangi-lanayotgan Rossiyada hanuz yo'qsil va muhtojlar yetarli, shu sababli u yerda kommunistik partiya hozirgacha ijtimoiy mavqeyini va omma-ning muayyan qismi orasidagi ta'sirini saqlab kelmoqda. Vaziyatning murakkabligi shundaki, Rossiya voqeligidagi hozirgi og'ir ahvolning asli sababchisi kommunistik partiyaning sobiq yakkahokimligi bo'lgan holda, bugungi kommunistlar yana o'zlarini xalq manfaatlari himoya-chisi qilib ko'rsatishga urinmoqdalar. Albatta, ishchilar – mehnatkash sinf, shu sababli uning ilg'ori (sof g'oya darajasida olganda) boshqa mehnatkash guruhlar manfaatini ham ma'lum darajada, ya'ni yo'qsil yollanma mehnatchilar manfaatiga mos kelgan hollarda ifodalashi mumkin. Mos kelmagan o'rinlarda-chi? Sho'rolar hokimiyatining bu-tun tarixi davomida dehqonlar va ziyolilar har doim kamsitilib va tazyiq ostida qolib keldilar. “Kollektivlashtirish”da necha millionlab dehqon ochlikdan o'ldi, xonavayron bo'ldi, chunki ular yollanma ish-chi emas, xususiy mulkchi edilar. Oktabr to'ntarishidan keyingi 70 yil ichida necha yuz minglab ziyolilar “xalq dushmani” tamg'asi bilan qatl etildilar, millionlab avaxta va surgunlarda jaf o'chib, yana qan-chalari vatangado bo'ldilar. Bu jarayon 1917-yildan 1987-yilgacha to'xtovsiz davom etib keldi va uning asoratlari sobiq SSSR hududida, ayniqsa, Rossiyaning o'zida, hanuz sezilib kelmoqda.

Xullas, millatlar yo'q bo'lmaganidek, turli ijtimoiy toifalar ham

hayotda yo‘q bo‘lib ketmas ekan. Ularni rasman bekor qilish mumkin, taqiqlash mumkin, qirib tashlash mumkin. Ammo ular boshqa bir qiyofada yana paydo bo‘laveradi, faqat behuda qurbonlar ko‘payadi, jamiyat rivojida og‘ishlar yuz beradi, noto‘g‘ri shakllar(mutantlar) yaralishi mumkin. Bunday xavfli va qonli “tajriba”lardan insoniyat naf ko‘rmasligi aniq bo‘ldi. Tanho bir sinf, tanho bir dunyoqarash, tanho bir e‘tiqodning yakkahokimligini har qanday usul bilan ta‘minlashga urinish nihoyatda mudhish, ammo, shukurlar bo‘lsinki, voqelikda imkondan tashqari xayol ekan, insoniyat bu tajribani ham bir bo‘lsa-da, boshidan o‘tkazdi. Insoniyatning o‘z-o‘zini anglab yetishida balki bu ham zaruriy bosqich bo‘lgandir. Alisher Navoiy “Ma‘rifat vodiysi vasfida” yozadi:

*Vodiyedur, yuz tuman ming onda yo‘l,
Ul bu bir kelmay, oningdekkim bu ul...
Yuz tuman rahrav ko‘rarsen beqaror,
Har biri bir yo‘lni aylab ixtiyor...
Bu oni tutmay musallam, ul muni,
Har bir o‘zdin o‘zga ko‘rmay ul muni...¹*

Haqiqat yagona, ammo unga eltuvchi yo‘llar had-hududsiz. Biz insonlar endi ma‘lum darajada kamolga erishganimizni namoyon etaylik: har qaysi inson, har qaysi toifa o‘z yo‘nalish, o‘z dunyoqarashida imoni sobit bo‘lsin, biroq shu bilan birga uning yo‘lidan yurmagan, uning ko‘zi bilan dunyoga qaramagan kishilarni dushman deb hisoblamasin, ularni ham tushunishni, hech bo‘lmaganda toqat qilishni o‘rgansin. Allohga ming shukurki, milliy ma‘naviyatimiz an‘analarida bu udum ham mavjud.

Dunyo rang-barang. Undagi har jism, har hodisa, har shaxs, har guruh o‘z mustaqil suvrat va siyratini namoyon etadi va bu dunyo go‘zalligining zaminidir. Bu husnni, tarovatni, mohiyatni ko‘ra bilmoq inson uchun baxtdir.

O‘zbek eli toifalar, ijtimoiy guruhlar nisbatida dehqonni mo‘tabar tutmog‘i tarix va makon taqozosidir. Shoh va darveshni teng tutmoq ham ajdodlarimizning tabarruk an‘anasi bo‘lib kelgan. Iqtisodda bozor munosabatlariga o‘tib bormoqdamiz. Bechora ishchi kommunistik g‘oyadan baxt qidirib kulfatga, hurlik istab qullikka duch keldi. Chun-

¹ Alisher Navoiy. Lison ut-tayr, 198-b.

ki ijtimoiy toifalarni biri – progressiv, biri – “reaksion” deb baholash, ayniqsa, zo‘rluk bilan tadbirkorlar toifasini yo‘q qilishga urinish ishchiga ham manfaat keltirmadi. G‘arb jamiyatlarida har kim o‘z foydasini o‘ylashidan umummanfaati shakllanib bormoqda. Tadbirkor farosat ishlatib, daromad olsa, osh bo‘lsin, iqtisod tashkilotchilari sa‘y-harakatlariga yarasha hosilga, hurmatga ega bo‘lsinlar. Bugungi mustaqil O‘zbekistonda tadbirkor ham, ziyoli ham o‘z ilg‘orini, mustaqil siyosiy namoyandasini shakllantirib, huquqlarini mustaqil himoya qilish tomon bormoqdalar. Dehqon ahli ham bugungi kun talablariga muvofiq tadbirkorlik xislatlarini kasb etib bormoqda. Ijod kishilari mustaqil uyushmalarini o‘zlari boshqarib borishga o‘rganmoqdalar. Faqat ahli futuvva an‘analarini unutmaylik, o‘tmish bobolarimiz vasiyatini yodda tutaylik.

Jamiyatimiz turli toifalar, turli diniy e‘tiqod vakillari, turli yoshdagi, turli qiziqishlarga ega bo‘lgan insonlardan iborat. Ammo O‘zbekiston yagona va kimki o‘z kelajagi, o‘z taqdirini ushbu Vatan bilan bog‘lagan ekan, mamlakatimizning yuksalishi, el farovonligining oshishi barchamiz uchun, har bir fuqaro uchun shaxsiy yutuqdir. Ziyolilarimiz, turli rahbarlik bo‘g‘inida sidqidil jon kuydirayotganlar ushbu fikrni yosh-u qari ongiga singdirib bormog‘i ham farz, ham qarz.

3-fasl. Ziyoli mas‘uliyati

O‘zbekning so‘zi chiroyli. Ziyoli. Rus tilida “intelligent” deyilgan-da, ko‘proq o‘sha shaxsning bilim doirasi, tafakkuri, qolaversa, madaniylik darajasi nazarda tutiladi. Zero “intelligent” atamasi “intellekt”, ya‘ni aql bilan bog‘liq va, demakki, aslida o‘zbeklarning “oqil”, “aql egasi” degan so‘zlari bilan muqobildir. Ammo chinakam ziyoli faqat aql va bilim emas, qalb va ehtiros egasi ham bo‘lmog‘i zarur.

U orif va oshiq bo‘lsagina butun vujudi, xatti-harakati, ijodiy faoliyati bilan atrof-muhitga ziyo, ezgu nur tarata oladi. Ziyoli – teran aql va hassos qalb egasi ma‘rifat va muhabbat yog‘dularining sarchashmasidir. Biz 70 yillik yo‘qsillar istibdodi davomida murakkab ichki qurilishli insonlar jamoasini zo‘rluk bilan jo‘nlashtirdik, mohiyatan siyqalash-tirdik. Savdogarni yo‘qotib, o‘rniga olibsotarni shakllantirdik, kosib-hunarmandni fabrika-zavodning bezabon quliga, “parragi” va “vinti” ga aylantirdik, erkin sanoatchi o‘rniga qog‘ozbozlikni do‘ndirib, yo‘qni og‘izda yo‘ndiruvchi lo‘ttiboz “rahbar”lar silsilasini vujudga keltirdik. Bizning jamiyatimiz rasman uch ijtimoiy guruhdan iborat bo‘lib qoldi:

ishchi, dehqon, xizmatchi. Ya'ni ziyoli asl mavqeyini yo'qotib, tahdid va tazyiq ostida majburan proletar diktaturasining "xizmatchi"sig'a aylantirildi. U endi "xalq nomidan" o'z hushiga kelganini amalga oshiruvchi mustabid davlatning dastyori, xudaychisi, malayi bo'lishga mahkum etildi. Bu taqdirga o'zi tushunib bo'yinsunmaganlar otildi, kesildi, tomiri quritildi. Va ziyolisini yo'qotgan xalq asta-sekin manqurtga aylana bordi. Xizmatchining bosh xususiyati — xo'jayinning har qanday buyrug'ini quloq qoqmay, do'ndirib bajarishida. Shunda u namunali xizmatchi bo'ladi. O'zining ko'ngliga kelganini qiladigan xizmatchining kimga keragi bor?

Ziyoli esa...

Darvoq, ziyoli xalqqa xizmat qilishi kerak, degan aqida tomir-tomirimizga singib ketgan. Darhaqiqat shundaymi? Xalq o'zi kim? Mustaqillikkacha 70 yillik "jonajon" sovet hukumati, "dono" partiya ko'rsatgan yo'ldan og'ishmay qadam tashlashni bildirmasmidi — "xalqqa xizmat" degani?

Sobiq "sovet mafkurasi" ruhida tarbiyalanganlar ongiga nomaqbul eshitilsa ham, ochiq aytadigan payt keldi — ziyoli avvalo Haqqa, Oliy Haqiqatga xizmat qilishi kerak. Agar u Oliy Haqiqatga intilmasa, xalqqa ham nafi tegishi qiyin. Biror-bir maxluqqa qilingan xizmat esa xalqqa xizmat sanalmaydi, xoh to'g'ri ma'noda bo'lsin, xoh majoziy.

Ziyoli Haqiqatni sevishi, yoniq dil bilan tinimsiz unga talpinishi, uning xayoli bilan yashamog'i lozim. Shundagina o'zidan ziyo taratib, insonlar yo'lini yoritadi.

Ba'zi o'qiganlar bu so'zlarni mubolag'a deb bilar, "ja oshirib yu-boribdi-ku" der. Asli unday emas. Forobiy va Ibn al-Arabiy hayotda yashab o'tmaganmi? Alisher Navoiy xayolimizdagi shaxsmi? Albatta, bular — nihoyatda buyuk siymolar. Ammo ko'ngliga Ziyo ahlidan aqalli bir uchqun sachragan inson o'ziga quloq solib ko'rsin — sira yuragi orziqib ulug' bir mohiyat sari intilmaganmikan? Oliy bir Haqiqatni izlamaganmikan? Agar bunday xayol ko'ngil ko'chasidan loqal bir marta o'tmagan bo'lsa — u suymasdan uylangan ayolini uyida behuda bandi qilib o'tirmasin, boshqa kasb qilsin, ziyoliman, demasin. Oliy ma'lumotli bo'lsa — ming rahmat, tirikchiligiga yaratsin, ammo kun kechirishning boshqa yo'lini qidirsin, ishbilarmon bo'lar, malakali ishchi bo'lar, xizmatchi bo'lsa ham ixtiyori.

Ziyoli bu — vrach, muhandis, muallim, tadqiqotchi, tarbiyachi, yer ilmining bilimdoni. Agar uning qalbidan Haq joy olmagan bo'lsa, Ha-

qiqatga mehri tovlanib turmasa, u bemorga shifo ato eta olmaydi, murg'ak aqlga bilim ziyosini singdira olmaydi, odob bera olmaydi. Uning muhandisligi ham bir pul, yerni esa u o'ldiradi. Oliy Haqiqatni izlamay turib kichik haqiqatlarni topib bo'lmaydi, chunki Haqiqat — bitta, biz esa uning ba'zi juz'iy qirralarinigina payqay olamiz, agar astoydil asl Haqiqatni qidirsak.

Arablar “qidirgan — topadi” deyishadi. Pulni qidirgan vrach uni topadi. Ammo undan bemor shifo topishi dargumon. Agar shifokor o'z yo'lidan borib Haqiqatni qidirsas, u juda ko'p ehtiyojmandlarga nafi tegishi mumkin. Shoir yoki olim turli unvonlarni alvon usullar bilan qo'lga kiritishi mumkin, ammo Haqiqatga tashnalik bo'lmasa, ular yozgan jild-jild kitoblar faqat qog'oz isrofgarchiligiga olib keladi, xolos.

Asli bu gaplar — ma'lum gaplar. Ammo yaqin o'tmishdagi chalkash zamonda turli yolg'onlar bilan qorishib ketganligidan bugun allaqachon ayon bo'lgan haqiqatlarni yana oydinlashtirib olish ehtiyoji sezilmoqda.

Ziyoli — ma'naviyatli insondir. Shu nuqtayi nazardan har qanday kasb egasi, barcha toifa vakillari ziyo egasi bo'lishi mumkin. Hatto xat-savodi bor-yo'qligi ham muhim emas. Ma'lumki hazrati Rasululloh xat-savod sohibi bo'lmaganlar. Ne'mat Aminovning padari buzrukvori — oddiy temirchi kasbi bilan yurtga tanilgan yozuvchi o'g'liga ko'p o'rinda ibrat bo'lib kelgan. Ba'zan oddiy dehqon uchun ma'lum bo'lgan sir-sinoat oliy ma'lumotli agronom tasavvuridan tashqari bo'ladi. Ma'naviy kamolot yo'li hech bir odam bolasiga, hech bir toifa namoyandasiga qatag'on etilgan emas. Shunday ekan, ma'naviyat ziyosi bilan qalbi nurlangan har bir insonni ziyoli deyish mumkinday ko'rinadi. Haqiqatan ham hayotda hech bir toifa qat'iy o'zgarmas guruhni tashkil etmaydi, saflar doim o'zgarib turadi. Insonlarning tabiati, ma'naviy qiyofasi va kasbi doim ham o'zaro muvofiq kelavermasligi ma'lum, hayot murakkab. Biroq, baribir, har bir shaxs har bir toifa vakili boshqa toifaga o'tib ketishi osonlikcha kechmaydi va yo'qotishlarsiz bo'lmaydi. Masalan, yuksak ma'naviyatli dehqon yoki hunarmand ziyoli toifasiga o'z-o'zidan o'tib qolishi qiyin. Ziyoli — olim, orif, ustoz-muallim. Albatta, barcha oliy ma'lumot haqidagi diplomga ega bo'lgan kishini ziyoli deyaverish haqiqatda o'zini oqlamasligi mumkin. Ammo tadqiqotchi yoki muallim bo'lish uchun tabiiy iste'dodning o'zi kifoya qilmaydi, muayyan bilimlar majmuyini o'zlashtirish talab etiladi. Ma-

salan, dehqon yoki hunarmand sifatida yuksak ma'naviy fazilatlar egasi bo'lgan odam muallimlik yoki tadqiqotchilikka da'vo qila boshlasa, bunda o'tish jarayoni oson kechmaydi. Hayotda shunday hodisalar kuzatilganki, yaxshi pedagog yoki olim o'z sohasida sal yuqori lavozimga ko'tarilishi bilan ma'naviy qusurlar paydo qila boshlaydi. Olim yoki ustoz sifatida hamma unga havas bilan qaragan bo'lsa, rahbar sifatida odamlarda norozilik uyg'onishiga sabab bo'ladi. Yoki juda yaxshi xonanda tadqiqotchilik da'vosi bilan chiqib, mutaxassislarning ensasini qotirishi mumkin. Bunday holatlar hayotda ko'p uchraydi. Qisqasi, har bir insonning ma'naviyati uning tabiati, kasbi, ijtimoiy mavqeyi bilan bevosita bog'liq va shu ma'noda betakrordir. Inson o'z tabiiy kamolotida yoshi o'tgan sari ulg'ayib, o'zgarib borganidek, o'z kasb sohasini, yo'nalishini o'zgartirmoqchi bo'lsa, buning uchun muayyan tayyorgarlik ko'rmog'i, yangidan yangi sifatlar, fazilatlar kasb etib bormog'i taqozo etiladi. Inson tug'ilgandan ulug'alloma yoki mumtoz adibga aylanib qolmaydi. U oddiy ishchi yoki dehqon sifatida hayot yo'lini boshlashi mumkin. Agar yoshi ulg'aygan sari o'zida iste'dod, ichki quvvat va intilish sezsa, ilmiy yoki badiiy ijod yo'liga asta-sekin o'tib boradi. Ammo har qancha qobiliyat bo'lmasin, bugungi ishchi ertaga jiddiy tadqiqotchiga yoki dehqon bir yo'la mumtoz adibga aylanib qolishi qiyin. Buning uchun muayyan bilimlar, ko'nikmalar hosil qilish, shunga yarasha muayyan fazilatlar sohibiga aylanish talab etiladi. Bu oddiy jarayon emas.

Shunday ekan, ziyoli toifasi umuman ma'naviyat egasini emas, odatda hayotning muayyan sohasiga bevosita aloqador ijtimoiy guruhni bildiradi, desak ma'qulroqdir.

Ular mohiyatan hayotda yetakchi, ta'bir joiz bo'lsa, hodiyy vazifasini o'taydilar. Buning uchun muayyan irsiy qobiliyat, tabiiy moyillik, iste'dod lozim. Sovet davrida ruscha mashhur ibora paydo bo'lgan: "Незаминимых людей нет". Bu mutlaqo noto'g'ri fikr, bu fikr hayotni konveyer tasmasi sifatida tasavvur qilishga asoslangan, hayotda o'zligini topmagan, bani odam xilqatini asli mohiyatida anglamagan odamlarning qarashi. Hayotda hech bir inson o'zgasining o'rnini to'liq bosa olmaydi. Har bir insonning hayotdan ko'z yumishi ma'naviyat o'lchovlarida insoniyat uchun mutlaq yo'qotish bo'ladi. Ziyolilarga nisbatan bu mumtozlik xislati ayniqsa xosdir.

Prezidentimizning ziyolilarni e'zozlash haqidagi qarashlari shu jihatdan nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Yurtboshimiz, ayniqsa, za-

monimizning alloma shoiri G'afur G'ulom tavalludining 90 yilligini nishonlash oqshomida so'zlagan samimiy nutqida bu masalaga alohida urg'u bergan edi. Ijod ahliga lozim sharoitni yaratib berish *"buyuk davlatning asosiy talablaridan"* va *"davlatning o'zini dunyoga mashhur qilishning asosiy sharti"* deb qattiq ta'kidlandi bu ma'ruzada¹. I. Karimovning qator ma'ruzalari mazmunida yana bir mulohaza ang-lashilib turadi.

"Xalqni aldab bo'lmaydi", – deydi Prezident, xalqning nazaridan qolish esa o'zligini bilgan odamga o'lim bilan barobardir. Har bir ishda tashabbuskor, g'ayratli shaxslar yutib ketadi. Ammo dilda imon bo'lsa. Hazrati Bahouddin Naqshbandning mashhur hikmati ba'zan bir yoqlama talqin etiladi. "Dil ba yor-u dast ba kor" deganda har ikki jihat, ya'ni "yor" ham muhim, "kor" ham muhim, tashabbuskor bo'lgin, quruq zo'hid bo'lma, elga foyda yetkazguvchi kasb egasi bo'l, degan da'vat qancha muhim bo'lsa, bir ishga qo'l urganda, bir amaliy niyat-ga qasd etganda, ko'ngilda Allohni saqla, haqiqat va insof mezonlari-dan bir bahya ham chekinishga o'zingga izn berma, degan yo'riq ham shunchalar e'tiborlidir. Birini qo'yib, biriga ruju etilsa, me'yor buzila-di va inson to'g'ri yo'ldan u yoki bu tarafga toyib keta boshlaydi. Agar shu odam rahbar bo'lsa, o'z orqasidan yana ko'plarni halokat sari yetaklashi turgan gap.

Ammo ziyolilar atalmish jamiyatdagi katta bir toifa uchun bu qusur-lardan saqlanish nihoyatda dolzarb masaladir. Chunki ziyolilar xalq-ning rahnamolari, yetakchilari. Ular ko'pchilikni bir yo'lga boshlashga qodir odamlar. Demak, ular yo'l qo'ygan xato bir o'zlari yoki oila a'zolari, shogirdlari, farzandlarigina emas, xalqning ko'pchilik qismini yo'ldan ozdirishi, adashtirishi mumkin.

Ziyolining yolg'oni oddiy yolg'on emas, ijtimoiy yolg'on, xalqni gumrohlikka boshlovchi yolg'ondir. Ziyolining o'z vijdoniga xiyonati Haqiqatga xiyonatdir. Ziyolining gumrohligi uning xiyonatidan ham, yolg'onidan ham badtardir, uning chalasavodligi xalqni jaholatga yetak-lovchi yo'ldir.

Ziyolining mulkka munosabati, uning moddiy ta'minoti masalasi alohida tahlilni talab qiladi. Ziyoli agar bir paytning o'zida ishbilar-mon ham bo'la olsa, qandini ursin. Ammo bunday qobiliyat bo'lmasa-chi? Faqat bir narsa aniq – Haqiqatni qidirgan ziyolisini kundalik

¹ Islom Karimov. Istiqlo'l va ma'naviyat. T., "O'zbekiston", 1994, 112-b.

qorin to'ydirish tashvishlariga band qilib qo'ygan jamiyat manqurtlikka mahkumdir, xoh proletar istibdodi atalsin, xoh bozor iqtisodi. Darvoqe ushbu muammoning qanday hal qilinishi ham yana ziyoli toifasining o'ziga bog'liq. Bu muammoning ba'zi dolzarb jihatlariga haqida yuqorida "Ma'naviyat va bozor" mavzusi munosabati bilan biroz to'xtab o'tildi.

Marks ham olim sifatida intelligensiya toifasiga mansub edi. Ammo davr ruhiga berilib, dahriyona yo'nalishda qarama-qarshiliklar orasidagi ayovsiz kurash g'oyasini taraqqiyotning asosi deb isbot etishga urindi va natijada, birinchi navbatda, ziyolilar toifasi manfaatlarini zarba ostiga qo'ydi. Chunki ziyolining bosh fazilati *kurash* emas, Haqni izlash, Haqiqatni anglab yetishga, Borliqni, jumladan, insonni tushunishga urinish. Kurash – harbiylar ishi, qurol bilan ish ko'ruvchilar shiori, u buzg'unchilik sari yo'nalgandir, harholda faylasuf uchun mos ish emas. Ziyoli insoniyatni birlashtiruvchi kuchdir, insonlarni qarama-qarshi qutblarga bo'lib tashlash g'oyasini olg'a surgan aql egasi – tanazzulga yuz tutgan bemor jamiyatning ruhiyati adashgan farzandi bo'lish mumkin xolos, asl ma'nodagi ziyoli emas.

4-fasl. Rahbar ma'naviyati

Insoniyat sulolalararo taxt talashuvlar, diniy nifoqlar, mafkuraviy janjallar, ijtimoiy inqiloblardan charchadi, to'ydi. Kurrayi zamin dahshatli yalpi qirg'in qurollariga to'lib ketdi. XX asr ikkinchi yarmidan boshlab, jahon hamjamiyati o'zaro dushmanlik yo'lidan murosa va hamkorlik yo'liga o'ta boshladi. Birlashgan millatlar tashkilotining xalqaro nufuzi o'sib bormoqda. Kommunistlar yaqin o'tmishda bu tashkilot a'zolarini ham ikki qutbga bo'lib tashlashga urindilar, ammo natija ular kutgandek bo'lmadi. Rivojlangan mamlakatlarda asta-sekin oliy rahbarlik lavozimlari harbiylar qo'lidan intelligensiya toifasi vakillariga o'tib bordi. Dunyodagi qator ilg'or mamlakatlarda (jumladan, O'zbekistonda ham) mudofaa vaziri kasbi harbiy bo'lmagan kishilardan tayinlanmoqda. Bu juda ijobiy tamoyil sifatida baholanmog'i kerak. XXI asr jamiyati, inshoolloh, insonni tushunish, murosa, ahillik va hamjihatlikka tayangan jamiyat bo'lsa, insonlar, ijtimoiy toifalararo muomalada qahr emas, mehr yo'nalishi ustunlik qilsa.

Bashariyat hayotida ilm va ijodning mavqeyi oshib borgan sari, ziyoli toifasining saflari kundan-kun kengaygani sayin, ijtimoiy hayotda ham kuch o'rnini aql, zug'um o'rnini farosat egallab boraveradi.

Siyosat maydonida avtoritar va totalitar tuzumlar kasodga uchrab, qonun ustuvorligi, xalq hokimiyati va fuqarolar jamiyati qudrat kasb etib borar ekan, xalq yo'lboshchilariga, rahbar xodimlarga bo'lgan talablar ham o'zgarib boraveradi.

Milliy ma'naviyatimizning qadim udumiga ko'ra rahbarning, yurt boshqaruvchining eng asosiy fazilati — *adolat* sanalgan. Bugun ham shunday. Ammo bugungi davrimizda adolat tushunchasi ilgarigi tasavvurlardan ancha farq qiladi. Bugun voqean adolatli bo'lish uchun bir guruh insonlar jamoasini boshqarib borishni zimmasiga olgan odamdan ko'p narsa talab etiladi.

Yaqin o'tmishda, xalqimiz o'zining necha mingyillik milliy ma'naviy merosidan begonalashtirilib, g'ayriinsoniy darajada aqidaparastlik jaholatiga botgan yot mafkuraga zug'um bilan qul qildirilgan davrda, ziyoli va rahbar xodimdan ilm, iqtidor, tashabbuskorlik va ma'naviy kamolot emas, yuqoridan tushirilgan har qanday ko'rsatmani so'zsiz bajarish, xalqni qullik itoatida tutish talab etilardi. Nazariy bilimlar dahriyona aqidabozlik va turli ijtimoiy toifalarni bir-biriga qarshi qo'yishdan nari o'tmasdi. Buning natijasida xalq yo'lboshchilari, tashabbuskor rahbarlar o'rnini o'zligini mutlaqo tanimaydigan, milliy g'ururni xiyonat deb tushunadigan, o'z tilini, xalq dilidagi yuksak e'tiqodni mensimaydigan manqurt toifa egallagan, hassos lavozimlarga asosan shunday shaxslar tayinlanib kelgan edi. Xalqni siyosiy va iqtisodiy qaramlikda saqlab turish uchun, ma'naviyatini butkul yo'qotish uchun o'sha davr hukmdorlariga shunday toifa xizmatchilar kerak edi.

Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda vaziyat tamomila o'zgardi. Mustaqil O'zbekiston Prezidenti olib borayotgan siyosat, ayniqsa uning xalq ma'naviyatini yuksaltirish yo'lidagi alohida xizmatlari kitobning birinchi qismida ancha batafsil bayon etildi. Rahbarlik mas'uliyati haqida ham gapirib o'tildi.

Ammo yurtni boshqarish, xalq osoyishtaligi, turmush farovonligini ta'minlash uchun faqat oliy rahbariyatning sa'y-harakatlari kamlik qiladi. Prezidentning qator nutqlarida, ayniqsa, Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi ochilishida so'zlagan ma'ruzalarida o'rta darajali rahbar xodimlarga bo'lgan ehtiyoj, fidoyi va tajribali tashkilotchilarning kamligi, eski tuzum yetishtirgan kadrlarning aksariyati bugungi kun uchun yaroqsizligi ta'kid etilib, mustaqil yurtni turli darajada va yo'nalishlarda boshqarib bora olish uchun birinchi navbatda nimalar talab etilishi batafsil bayon etilgan. Biz bu yerda ularni takrorlab o'tirmaymiz.

Bugungi hassos sharoitda yurt mustaqilligini mustahkamlash, islohotlarni hayotga samarali joriy etish, buyuk kelajakni yaqinlashtirish uchun bel bog'lab ishga kirishgan rahbar xodimlar ma'naviyati qanday bo'lishi kerakligi haqida, albatta, maxsus tadqiqotlar o'tkaziladi. Hozircha esa biz asosiy maqsaddan chalg'imaslik uchun bir-ikki yengil chizgilar bilan kifoyalanamiz.

Jamiyatdagi o'zga toifalarga nisbatan ziyolining yuki og'ir. Ammo 4 ta odamga rahbarlik mas'uliyatini zimmasiga olgan kishiga yanada og'irroqdir. Ziyoli olim bo'lsa, masalan, hayotni ilmiy asosda tadqiq etadi, shu asosda tavsiyalar beradi. Shoir yoki adib bo'lsa, voqelikning muayyan qirralarini badiiy timsollarda aks ettirib, ibrat yo'li bilan odamlarga ijobiy ta'sir etishga urinadi. Muallim saboq beradi. Ammo rahbar qo'l ostidagilar taqdiri uchun mas'uldir, ularni muayyan yo'ldan yetaklab, muayyan amaliy natijalarga erishtirishni zimmasiga olgan. Agar yo'l to'g'ri tanlanib, natija rejaga muvofiq chiqsa – barcha jamoaning yutug'i, ammo shunday bo'lmasa-chi? Insonlar umri, ularning aqliy va jismoniy quvvati, ular erishishi kerak bo'lgan natijaga ko'z tikib kutganlar umidi, qancha oila, o'g'il-qiz, ota-onalar orzu-armoni qarshisida qanday javob berish mumkin, qanday bosh ko'tarib yurish mumkin? Rahbarlik – og'ir savdo, mushkul yumush.

Bugun bevosita davlat rahbari, yurtboshimiz xalq ma'naviyatini har tomonlama yuksaltirishga, ma'naviy merosimiz va milliy qadriyatlarimizni butun ko'lami va viqori bilan tiklashga muntazam jon kuydirib kelmoqda. Bu haqda qator farmonlar sodir etilib, maxsus tuzilmalar tashkil etilmoqda, ko'plab mablag' ajratilmoqda.

Mustaqillik sharofati bilan milliy ma'naviyatni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi darajasiga ko'tarildi. Bunday sharoitda rahbar ma'naviyati ham ustuvor ma'no kasb etadi. Chunki ma'naviyat – rahbarning jamiyat, xalq va millat oldidagi ichki qoim mas'uliyatini ta'minlovchi eng bosh omil, tayanch nuqtadir. Ma'naviy ogoh va barkamol bo'lmagan insondan Vatani va xalqiga xolis bir yaxshilik umid qilish qiyin.

Ma'naviyat – o'zlikni anglashdir. Rahbarlik mas'uliyatini to'laqonli his qilish va bu zalvorli yukni yelkaga olishga ma'nan tayyor bo'lish uchun ko'p jihatdan barkamol inson bo'lish taqozo etiladi. Buning uchun nafaqat malaka va iqtidor, nafaqat har tomonlama chuqur iqtisodiy, huquqiy, siyosiy bilimlar, balki birinchi navbatda yuksak ma'naviy kamolot va ogohlik talab etiladi. Ma'naviy ogohlik esa o'zlikni anglash,

o'zini va o'zgani tushunish, Borliq Haqiqatini anglab yetib, o'z ruhiyatini Borliqning ulug' Haqiqati bilan uyg'unlashtira olishni taqozo etadi. Ushbu kitobning asosiy maqsadi ham imkon darajasida shu yo'lda intilganlarga ko'mak yetkazishdir. Albatta, har bir insonning ma'naviy kamoloti, avvalo, Alloh barakati va, qolaversa, o'z ichki intilishi, qalb riyozati bilan amalga oshadi.

7-BOB. HAQIQAT VA BASHARIYAT

1-fasl. Haqiqat nima? Turli millatlar ma'naviyati yagona Borliq haqiqatining jilolari sifatida

Eng mas'uliyatli mavzuga yetib keldik. Oldingi boblarda ma'naviyatga turli ta'riflar berildi. Avvalo, ma'naviyat insonni jamiki boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi mohiyat bo'lib, inson – tabiatning, barcha tirik mavjudotning gultoji, deyilganda uning ushbu xislati, ya'ni, yuksak ma'naviyat egasi bo'la olish imkonini nazarda tutilgandir. Bu imkonini boshqa jonzotlarda ko'rmaymiz. Agar hayvonot dunyosini faqat moddiy hayotga tegishli, farishtalar esa sof ma'naviy xilqatlar deb tasavvur qilinsa, odam bolasida moddiy ham, ma'naviyat ham mavjud. Ma'naviyat inson qalbidagi ilohiy nur, Oliy haqiqat nuri bo'lib, shu sababdan buyuk bobokalonlarimiz inson qalbini "Haqiqat asrorining ganjinasi" deb ataganlar. Haq asrori esa shunday sehrli tilsimki, uni tugal yechishga ahli bashar qudrati yetmaydi. Zotan, hech bir odam bolasi "*uni inson darajasiga ko'taradigan asoslarning asosini o'z aqli bilan tom ma'noda qamray olmaydi*".

Ma'naviyat o'zlikni anglashdir, deb ham ko'rdik. Inson nafaqat o'zgani, balki o'z mohiyatini ham hech qachon oxirigacha anglab yeta olmaydi. Ammo o'zlikni anglashga intilmagan inson ham hech qachon haqiqiy Shaxs bo'lib yetishmaydi. Inson ma'naviyati tufayli g'aybga tutashdir. U Haqdan ibtido olgan va intihoda ham Haqqa borib tutashadi. Insonlar aqli ham, ruhiyati ham turli qusurlardan, adashuvlardan, ba'zan hatto shaytoniy vasvasalardan xoli emas. Inson, baribir, moddiy. Uning moddiy mohiyati ziddiyatlardan xoli emas. Unda nafs bor, g'aflat va shahvat, kibr va hasad bor. Ma'naviyatni shularga aralashtirib yuborsak, o'zimizni ham, o'zgalarni ham chalg'itib

¹ I. Karimov. Asarlar. 1-jild, 81-b.

qo'yamiz. Ma'naviyat inson ruhida Oliy haqiqat bilan uyg'unlikni ta'minlab turuvchi ilohiy fayzdir. U har kimga bir xil darajada nasib eta bermaydi. Nopoklik, g'araz insondan ilohiy fayzni qochiradi. Bunday inson qalbini avval g'ubor, bora-bora zulmat qoplab boradi. Nopoklik va g'araz yo'lining nihoyasi ayanchlidir.

Haqiqat – cheksiz. Qur'oni karimning “Baqara” surasidagi “Oyatal kursi” nomi bilan mashhur bo'lgan 255-oyat nihoyatda el ichida mo'tabar tutiladi. Sababi, unda Alloh haqiqatiga juda ixcham, ammo mukammal ishora mavjuddir. “Alloh – undan o'zga iloh yo'qdir” deb boshlanuvchi ushbu oyatning faqat ikki jumlasini eslaylik: “Osmonlar va Yerdagi (barcha) narsalar Unikidir”..., “Uning kursisi Osmonlar va Yerdan (ham) kenglik qilur”, deb o'giradi ularni muhtaram tarjimon.

Milliy ma'naviyatimizda Borliq haqiqati Tavhid e'tiqodida ifodalangani. Barcha buyuk ajdodlarimiz ana shu ulug' Haqiqatni tushunish uchun intilib yashaganlar va har kim o'z holi darajasida uni tavsif va talqin etishga uringan. Nazarimizda, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida ushbu talqin eng mukammal suratda ifoda etilgan. Biz undan bir rivoyatning nasriy bayonini keltirish bilan cheklanamiz. Shoir “Ma'rifat vodiysi” ta'rifini bergach, uni izohlash uchun Sanoiydan bir rivoyat keltiradi:

“Eshit, bunga ushbu mojaro juda munosib misol bo'la oladi. Naql qilishlaricha, bir guruh ko'rlar to'dasi bir sabab bilan: musofirlik yoki asirlik tufayli Hindistonga borib qolishibdi. So'ngra falakning gardishi bilan ular o'z yurtiga qaytib kelishibdi. Bu yerda ulardan bir kishi : “Filni ko'rdilaringizmi?” – deb so'rabdi. Ular: “Ha”, – deb javob beribdilar. “Ko'rgan bo'lsangiz, dalil keltiring”, – debdi boyagi kishi.

Ular aslida filni ko'rmagan, u haqda hatto yaxshi so'rab ham olmagan edilar. Har biri filning bir a'zosini paypaslab, undan bilim hosil qilib olgan edi. Shu sababli filning qo'llarini ushlagan kishi fil sutunga o'xshar ekan, desa, qornini paypaslagan, yo'q, u besutun, dedi. Xartumini ushlagan fil ajdahoga o'xshash bir narsa ekan, desa, tishlarini bayon qiluvchi kishi esa, fil ikkita suyakdan iborat, dedi. Quyrug'idan xabar bergan kishi filni osilib turgan ilonga qiyos etdi. Qo'li bilan filning boshini paypaslagan kishi uni bir cho'qqining tumshug'i deb sharh qildi. Filning qulog'iga qo'l yetkazgan kishi uni qimirlab turgan ikki yelpig'ich ekan, dedi. Ularning barchasi shu tariqa ko'rlik yuzasidan turli so'zlar aytdilar. Garchi ular aytgan so'zlarning barchasi to'g'ri bo'lsa-da, ularning hammasi nuqsonli edi, ularda tartib mavjud emas edi.

Shuning uchun ham filbonlik sohasida ustod hisoblangan yetuk faylasuf, o'zi hind naslidan bo'lgan kishi, ular aytgan so'zlarni tinglab, naql qilganlarga ta'na so'z aytmadi va shunday dedi:

– Har bir kishi fil haqida o'zi bilganlarini aytib, u haqda nishon berdi. Ular bir-birlariga zid fikr aytgan bo'lsalar-da, kechirarlidir. Chunki ularning har biri o'z bilganicha so'z aytdi, ammo ulardan hech biri filni ko'rgan emas edi. Lekin ular aytgan bu sifatlarning barchasi bir yerga jam' qilinsa, ulardan fil haqida muayyan tasavvur hosil bo'ladi.

Uzoqni ko'ruvchi kishiga bu juda yaqin bo'lgani uchun u hech ikkilanmasdan ko'rlar aytgan barcha so'zlarni chin deb baholadi”¹.

Yuqoridagi oyatda yana ishora qilinadi:”(Odamlar) Uning ilmidan faqat (U) istaganicha o'zlashtirurlar”. Demak, har bir insonning bilimlari chegarali. Shu sababli Borliq haqiqatini anglab yetish uchun avvalo insonlar bir-biriga e'tibor qilishi, bir-birini tushunishga intilishi lozim. Tabiatni, undagi har bir zarrani, maysani, tirik jonni tushunishga intilib yashamoq, doim o'zgani tushunishga intilmoq – ma'naviyat yo'li shudir.

So'fiylar aytadiki, Haqqa yetishish uchun o'zligingni anglab yetmog'ing lozim. ”Majoz tariqi” namoyandalari qo'shimcha qiladilar: ”To'g'ri. Ammo inson o'zligini anglab yetishi uchun ham, avvalo, o'zgalarni tushunishga intilmog'i kerak bo'ladi”. Har bir odam bolasi-ning Haqqa nisbati uning o'zgalarga nisbati bilan belgilanadi, shuning uchun ham har bir shaxs ma'naviyati betakror va o'ziga xosdir. Demak, ushbu shaxslar ma'naviyati majmuyidan iborat bo'lgan millat ma'naviyati ham betakror va yaxlit hodisadir.

Turli millatlar ma'naviyatining o'zaro nisbati ham turli shaxslar nisbati kabidir, deyish mumkin. Chunki turli millatlar turlicha sharoitda istiqomat qiladilar, o'ziga xos tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tganlar. Shu sababli yagona haqiqatni idrok etishda bir-birlaridan farq qiladilar. Shunday ekan, bir millat vakili avvalo o'z milliy ma'naviyatini anglab yetishga harakat qilishdan boshlagani aqlga muvofiqdir. Zero, o'zining kimligini tushunib yetmagan millat o'zgani tushunishi ehtimoldan uzoq. Faqat turli xalq vakillari o'z milliy ma'naviyatlari xususida bir xulosaga kelgach, ularni o'zaro qiyoslash imkoni paydo bo'ladi.

Insonning dunyoni, haqiqatni anglab yetish jarayoniga xos bo'lgan tarixiy takomil jarayoni turli miqyosda: 1) umuminsoniyat rivojida,

¹ Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. T., 1991, 402-b (nasriy bayon muallifi Sh.Sharipov)

2) insonlar jamoasining turli zamoniylar va makoniylar birlashmalari doirasida, 3) har fard inson umri davomida ro'y beradi. Bularning har biri o'z navbatida boshqasi bilan murakkab bog'lanish, tutashuv hosil qilmasdan iloji yo'q. Demakki, agar biror hodisa haqida mulohaza yuritishga, uning mohiyatini jiddiy anglab yetishga qasd qilinsa, uni atrofvoqelik, o'zi mansub bo'lgan umumiy va xususiy hodisalar silsilasida olib qaralmog'i, makon va zamonidan uzib olmay idrok etilmog'i asli haqiqatni, ya'ni o'sha hodisa mohiyatini to'g'ri yoritishga yordam berishi mumkin.

Ma'naviyat ilmdan ham, mantiqiy tafakkurdan ham qamrovi kengroqdir. Bilimni inson ham hayotdan, ham kitoblardan o'rganadi. Ammo hayotni, insonni, ilmni anglab yetish uchun, avvalo, unga mehr bilan, beg'araz, "xolisani'lloh" yondoshmoq zarur. Oldingi boblarimizda Vatan va tabiat, shaxs va millat, din va madaniyat, siyosat va iqtisod, qonun va adolat xususida, ularning ma'naviyatga nisbati haqida mulohazalar yuritdik. Bular barchasi yagona Haqiqatning turli qirralaridir. Yagona mintaqa madaniyati uning tarkibiga kirgan har bir xalqning o'z ma'naviy qiyofasini yo'qotishiga olib kelgani yo'q, balki uni o'zaro boyitdi va mukammallashtirdi. Bu yagona mintaqa madaniyatini birlashtirib turgan ichki bosh ma'naviy omil tavhid e'tiqodini borgan sari teranroq va mukammalroq tushunishga intilish edi.

2-fasl. Tafakkur turlari va ma'naviyat

Borliq haqiqati makon va zamonda hududsizdir. Uni inson ongi yaxlit qamray olmaydi. Shu sababli ahli bashar haqiqatni idrok etishning turli yo'llarini qidiradi. Buning ilk namunasi asotir tafakkurdir. Biz bu masalani oldinroq, alohida bobda ko'rib chiqqan edik.

Haqiqat borliq yanglig' murakkab, rango-rangdir. Har bir inson uni ma'lum nisbiylikdagina anglab yetishga qodir. Buning ustiga turli davrlardagi odamlarning tafakkur darajasi turlicha. Asotir tafakkuri, ilmiy tafakkur, irfoniy tafakkur...

Asotir tafakkur mohiyatni biror muayyan ashyo yoki hodisa bilan bog'lab tasavvur etishga urinishdir. Bunday holat Tavrotta Muso Tur tog'iga ketganda yahudiylarning o'zlariga tilla buzoq yasab olib, o'shanga sig'inishgani tasvirida yorqin namoyon bo'lgan. Tarixda bunday misollar juda ko'p. Keyinchalik mantiqiy tafakkur rivoj olgach, u bilan hamzamon badiiy tafakkur ham shakllandi.

a) mantiqiy tafakkur

Mantiqiy tafakkur, ilm inson ma'naviyatida juda muhim o'rin tutadi. Yangi davrgacha ilm ko'proq hayotiy kuzatishlarning sof mantiqiy tahliliga tayangan, maxsus tajribalar kam o'tkazilgan. XV asrdan Yevropada maxsus ilmiy asoslardagi tajribaga ixlos va e'tibor kuchaydi.

Mantiqiy tafakkur hayotni, atrof-voqelikdagi narsa-hodisalarning bir-biriga munosabatini idrok etish, tushunib yetishda nihoyatda katta ahamiyatga ega bo'lib, ajdodlarimiz bu haqiqatni IX–X asrlardayoq teran anglab yetganlar. Sunna davridayoq mo'tazila yo'nalishi namoyandalari Allohning yagonaligi va adolatini mantiqiy dalillash yo'llarini qidira boshladilar. Ushbu intilish natijasi o'laroq kalom ilmi shakllandi. Botiniylar ham Qur'on oyatlari ta'vilini mantiq qonuniyatlari bilan muvofiq olib borishga intildilar. Asta-sekin Kalom ilmining ash'ariya va moturidiya yo'nalishlari shakllandi. Ular bilan bir paytda sof islom mashshoyiun falsafasi va mantiq ilmi keng taraqqiy etib boshladi. Islom qonunshunosligi, ya'ni fiqh ilmi ham doimo mantiq qoidalaridan keng istifoda etib keldi. Ilmlar tasnifi bilan shug'ullangan ko'pchilik allomalarimiz aniq fanlar (riyoziyot, handasa) va tabiiy fanlar (fizika, minerologiya, kimyo va hokazolar)ga falsafaning tarkibiy qismi sifatida qaradilar.

Mantiqiy tafakkur insonni fikrlash madaniyatiga o'rgatadi. Bashariyat ma'naviy takomili tarixida mantiqiy tafakkurning eng buyuk xizmati inson ongidagi asotir tafakkur asoratlarini yengib o'tishda namoyon bo'ldi. Yunonda shakllangan mantiq ilmi ulug' faylasuflar tafakkurini charxlab, asta-sekinlik bilan o'sha davrning hukmron tasavvuri – mushriklikni (Yevropa ilmida politeizm deb yuritiladi) yengib o'ta boshladi. Yunon donishmandlari Borliqning yagona mohiyatini qidirib, uni goh suv, goh olov, goh tuproq, goh atom tushunchalari bilan bog'ladilar. Bu jarayon Arastu falsafasida o'zining nihoyi cho'qqisiga erishdi va shu sababli keyincha uni "Birinchi muallim" deb ulug'lay boshlashdi. Mantiq ilmi asotir tafakkur va uning e'tiqoddagi asorati – mushriklikni shubha ostiga olishda yetakchi ahamiyatga ega bo'lganligidan islom mintaqa madaniyatida jiddiy ehtiromga sazovor bo'ldi. Al-Kindiy, Al-Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Tufayl, Ibn Ro'shd kabi ulug' faylasuflar bu tafakkur tarzini yuksak darajada rivojlantirdilar. Ular merosi Yevropa Uyg'onishiga hal qiluvchi turtki berdi. Mantiqiy tafakkur falsafiy va ilmiy tafakkurning asosini tashkil qiladi, shu sababli yoshlarga "Mantiq ilmi" dan saboq bermoq nihoyatda muhimdir. Ayniqsa, bugungi kunda axborot tizimlari va kompyuter ilmi hayotimizga kirib kelgan paytda bu ilmning o'ta zarurati sezilmoqda.

Ammo mantiqiy tafakkur aslo Borliq haqiqatini anglab yetishning yagona yo'li emas. Masalan, tasavvuf irfoni mutlaqo o'ziga xos tafakkur tarzi bo'lib, mantiqiy tafakkur vositasida uni anglab yetish mushkul. Mantiq faqat aqlga tayansa, irfon solikning butun aqliy va ruhiy quvvatini safarbar etadi.

Milliy ma'naviyatimiz an'anasida ilm va imon bir-biridan judo emas. Bir-biriga zid ham emas. Alisher Navoiy "Nasoyim ul-mahabba min shamoyim ul-futuvva" kitobida shayx Abubakr Tohir Abxariy haqida shunday rivoyat keltiradi: "Andin so'rdilarki, haqiqat nedir? Dedikim, barchasi ilmdir. Dedilar: ilm nedir? Dedikim, barchasi haqiqatdur"¹. «Ilm» so'zi asli Qur'oni karimda 750 martadan ortiq ishlatilgan «*alima» fe'l o'zagidan yasalgan ism-so'z bo'lib, o'zbek tilidagi «bilim» so'zining ma'nosini anglatadi.

E'tiqod va ilmara farqli jihatlar ham yo'q emas. E'tiqod hayotga yaxlit yondoshadi. Ilm esa doimo hayotning u yoki bu alohida hodisasini o'rganadi. Ilm — makon va zamonda cheksiz, bir kishi hatto muayyan bir sohada ham hech qachon barcha bilimni to'liq qamray olmaydi. Hozirgi zamon ilmi ikki ustunga tayanadi, biri tajriba va biri mantiqiy tafakkur qonunlari.

Ilova:

Bilim turlari haqida

Qur'on oyatlari mazmunidan kelib chiqadigan bo'lsak, bilim (ya'ni ilm), avvalo, 2 turga ajraladi:

1) *Ilohiy bilim* — faqat Allohga tegishli bo'lgan cheksiz-chegarasiz, azaliy va abadiy bilim bo'lib, insonlarga u vahiy sifatida payg'ambarlar orqali nozil etiladi. Uni inson imon bilan qabul qiladi, rad qilish ham, isbot qilish ham inson qudratida emas. Lekin, baribir, bu — bilim. Unda ramzlar aniq ishoralar, aniq xabarlar bor. Bu — insonlar o'z qudrati bilan bila olmaydigan bilim. Bu bilim ma'naviyatga oid;

2) *insoniy bilimlar* insonning yer yuzida xalifalik maqomidan kelib chiqqan holda unga yaratilishidan berilgan tafakkur va tahlil qobiliyati tufayli hosil qilinadi.

Har ikki bilimning asl manbayi Alloh taolo qudrati bilan bog'liqdir. Har ikki ilmning farqi shundaki, ilohiy ilm mutlaq haqiqatning inson tili bilan ifodalanishi bo'lsa, insoniy bilim nisbiy, ya'ni nomukammal

¹ Alisher Navoiy. Asarlar. 15-jild, 1968, 96-b.

va adashuvlardan xoli bo'lmagan bilimdir. Insoniy bilimning nisbiyligi, insonning yer yuzida xalifaligi uni Alloh tomonidan sinash, imtihon etish maqsadini nazarda tutilganligi bilan bog'liqdir.

Inson bilimining nisbiyligi, birinchidan, insonning Borliq haqiqatini ilg'ashi noto'liq, ya'ni nisbiy ekanligi bilan bog'liq. Har bir inson alohida olganda Borliq haqiqatini to'liq qamrab olish qudratiga ega emas. Bu qudrat faqat Allohga xosdir. Inson agar o'z tafakkur qudratining ayni shu cheklanganligini doimo nazardan qochirmay tursa, uning adashuv ehtimoli kamroq bo'ladi. Ammo, agar kibrga berilsa, «men bilaman, o'zgalar esa adashadi» deb o'ylasa, unda uning bilimi botil bilimga aylana boshlaydi. Ikkinchidan, bu nisbiylik, adashuvga moyillik, uning aqliga *nafs* ataluvchi shaytonning doimo ta'sir qilib turishi bilan ham bog'liq.

Insoniy bilimlar va ilohiy kitoblar orqali yetib kelgan bilimlararo uyg'unlik masalasida ba'zi nozik jihatlar mavjudligini ham nazardan qochirmaslik kerak. Avvalo, vahiy orqali kelgan bilim adashuvlardan xoli mutlaq bilim hisoblanadi. Shu sababli u insoniy bilimlarning barcha turidan ustun qo'yilishi lozim. Ammo ilohiy kitoblar insoniy til bilan bayon qilinganligi sababli, insonlar tomonidan turlicha talqin etilishi mumkin. Shu sababli ilohiy oyatlarning turli insoniy talqinlari biri ikkinchisidan mutlaqo ustun qo'yilishi ham joiz emas. Bu yerda yana insoniy tafakkur va tahlil, ajdodlarning turli talqinlari, o'zaro qiyoslashlarga ehtiyoj tug'iladi.

Insonga tahlil va tafakkur qobiliyati berilganligi – Allohning buyuk inoyatidir. Ushbu in'om doimo Haq yo'lida istifoda etilishi zarur. Demak, faqat o'zi tahlil va tafakkur bilan erishgan bilimlariga ishonib qolmay, o'zgalar bilimini ham e'tiborga olmoq, o'zi va o'zgalar bilimini xolis qiyoslab, o'z havoyi nafsidan Haq bilimi, ya'ni haqiqatni ustun qo'ya bilmoq kerak.

3) Bilimning yana bir turi *irfoniy bilim* bo'lib, unga ham ilohiy ilhom bilan erishiladi. Ammo u boshdan oyoq ramz va ibratlar orqali beriladi, unda aniq hukmlar ham, aniq xabarlar ham yo'q. Irfoniy bilimlarni haqiqat ekanligini isbot qilish mumkin emas, ularni ammo inobatga olmaslik ham adashuvga olib kelishi mumkin.

Insoniy bilimlar bir nechta turga bo'linadi:

a) o'zga insonlardan yetib kelgan bilimlar, ya'ni *naqliy bilimlar*;

b) inson o'z tafakkuri bilan yetishgan bilimlar, ya'ni *aqliy bilimlar*.

Insonning o'zi mustaqil erishgan bilimlari yana bir nechta turga bo'linadi:

- a) hayotni kuzatib va tahlil etib hosil qilingan bilimlar;
- b) mantiqiy bilim, ya'ni bilgan narsalarini o'zaro fikriy qiyoslash va tahlil qilish orqali hosil qilingan bilimlar;
- d) amaliy faoliyat jarayonida va yoki o'rganish bilan hosil qilingan malaka va ko'nikmalar shaklidagi bilim.

Ushbu barcha bilim turlarining o'zaro muvozanatda saqlanishi nihoyatda muhimdir. Ya'ni, birinchidan, mantiqiy tafakkur natijasida erishilgan nazariy bilim va insonning amaliy faoliyat jarayonida hosil bo'lgan amaliy malaka va ko'nikmalari o'zaro uyg'unlikda olib qaralishi maqsadga muvofiq bo'lsa, ikkinchidan, insonning o'zi erishgan va o'zgaralar hosil qilgan bilimlari ham uyg'unlashtirilmog'i zarur.

O'zgaralar bilimi deganda yana ikki guruh bilim nazarda tutiladi:

- a) sizning atrofingizdagi, siz bilan jonli muloqotga kirishi mumkin bo'lgan insonlar bilimi;
- b) o'tmish ajdodlar va butun insoniyatdan manbalar orqali yetib kelgan bilim.

Bu bilim ham ikki turga bo'linadi:

- a) yozma matn holdagi bilimlar;
- b) turli ashyolarda muhrlangan amaliy bilim natijalari.

Bu ikki bilimni anglab yetish yo'llari ham o'ziga xos bo'ladi.

Demak, har bir inson o'zining nazariy va amaliy bilimlarini, o'zi va o'zgaralar hosil qilgan bilimlarni, o'tmish ajdodlar va zamondoshlar bilimlarini, ilohiy kitoblarda hidoyat uchun berilgan bilimlar bilan inson tafakkuri hosil qilgan bilimlarni qiyoslab va o'zaro uyg'unlashtirishga harakat qilib borsa, uning adashuv ehtimoli kamayadi va bunda bilimlar ishonchliroq bo'la boradi.

Aqliy bilimlar 2 xil yo'nalishda hosil qilinadi:

- a) mantiqiy tafakkur orqali, b) modellashtirish orqali.

Modellashtirish – a) qiyosiy (ya'ni o'xshatish orqali); b) ramziy-majoziy, b) ilmiy-mantiqiy tushunchalarga tayangan holda amalga oshirilishi mumkin. Modellar ikki turga bo'linadi: 1) ramzlarga tayangan model; d) mavhum atamalarga tayangan model. Badiiy adabiyot asosan ramziy-majoziy modellashtirishga tayanadi. Ilmiy adabiyot uchun ramziy model birinchi bosqich vazifasini o'taydi. Mavhum atamalarga tayangan ikkinchi model ko'proq falsafiy tizimlarga xosdir.

Tajribaviy bilimga ham 2 yo'l bilan erishiladi:

- a) hayot tajribasi orqali; b) maxsus tajribalar tufayli.

Yana bir bo'linishni eslab o'tish joiz:

Aniq va tabiiy fanlar. Bular insonning moddiy ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan, ularni aniq bilish mumkin va kerak, taxminiylik bu yerda taxmin darajasida qoladi. Bu bilim bilan na ilohiy, na irfoniy bilimlarni hosil qilib bo'lmaydi, moddiy voqelikdan tashqari chiqmoqchi bo'linsa, tajovuz bo'ladi, adashuvga olib keladi, g'ayri ilmga aylanadi.

Ijtimoiy-siyosiy, aniqrog'i insonlararo munosabatlarga oid bilimlar. Bularda bir natijaga erishish uchun ilohiy, irfoniy, aqliy, ham naqliy bilimlarga tayanib ish yuritish kerak bo'ladi. Birortasi hisobga olinmasa, xatoga yo'l qo'yish ehtimoli ko'payadi.

b) san'at, adabiyot, ma'naviyat

Ma'naviy tarbiyaning vositalari faqat aql emas, balki ibrat, iroda, mehr hamdir. Milliy ma'naviyatimizda shular barchasi mujassam. Undan tashqari milliy ma'naviyatimizning tarkibiy qismlarida kalom ilmi, tasavvuf tariqatlari va irfoni, botiniya kabi o'ziga xos yo'nalishlar mavjudki, Yevropa ilmi o'zi ularni Sharqdan o'zlashtirmoqda.

Nafosat uyg'unlikka asoslanadi, shu sababli ma'naviy tarbiyaning eng ta'sirchan vositasidir. Uning ustiga badiiy asarlar insonga ibrat, aql, tafakkur, tuyg'u, his-hayajon, timsollar vositasida ta'sir etishga urinadi.

Baqa — cheksiz, mutlaq haqiqat esa — g'ayb. Demak, ilm uni oxirigacha anglab yeta olmaydi. Ilm majoz (metafora)dan boshlanadi. San'at esa to'lig'icha majozga quriladi. Ilm hech qachon Borliq haqiqatining oxiriga yeta olmaydi. Mumtoz san'at asari esa Borliq haqiqati haqida uyg'un tasavvur bera oladi. Asli shunga erisha olmasa, u mumtoz san'at emas. Ilmiy iste'dod va badiiy iste'dod boshqa-boshqa narsalar, ammo ulug' san'atkorlar va buyuk allomalar faqat bir tomonlama iste'dod egalari bo'lishgan emas.

Agar mantiqiy tafakkur har bir narsa-hodisani qismlarga ajratib ilmiy tushunchalar yordamida tahlil qilishga urinsa, badiiy tafakkur voqelikni yaxlit uyg'unlikda idrok etishga urinadi. Buning uchun turli ramzlar, timsollar, ishora va tashbeh (o'xshatish)lardan foydalanadi. Badiiy til ramz-u ishoralar tilidir. Agar ilm tilini mutaxassislariga tushunsa, badiiy ijod mahsuli ko'pchilikka taqdim etiladi. Badiiy tafakkur yaratgan dunyo san'at dunyosidir. Ilm faqat inson aqliga murojaat qilsa, haqiqiy san'at asari insonning ham aqli, ham tuyg'ularini junbishga keltiradi. Shu sababdan san'atning ilmdan qamrovi kengroqdir.

San'atkor faylasuf singari voqelikni ilmiy izohlashga urinmaydi, balki uning muayyan talqinini yaratib, uni o'zgalarga beyixtiyor yuqtirish yo'lidan boradi. San'atning ta'sir kuchi undagi timsoliy tafakkur quadratidandir.

Asotir (mif) bilan badiiy asarning umumiy tomoni – ular har ikkisi ham mohiyatni hayotiy yoki xayoliy timsollar asosida anglatishga urinadilar, farq qiluvchi tomoni – asotirni o'z davrining odami haqiqat deb qabul qiladi, san'at asarini esa insonlar mutlaq haqiqat deb o'ylamaydi, balki ibrat maktabi sifatida tushunadi. Qadim clatlar ma'lum muddat turli sanamlar qudratiga ishonganlar va ularga topinganlar. Zevs, Apollon, Afrodita kabi Olimp tog'ida abadiy yashaydi deb tasavvur qilingan sanamlar sharafiga yunonlar ibodatxonalar qurib, qurbonliklar keltirganlar. Badiiy timsol haqiqatni o'zida to'liq ifodalashga da'vo qilmaydi, faqat unga ishora qiladi. Attorning “Mantiq ut-tayr”, Navoiyning “Lison ut-tayr” asaridagi jahon qushlarining afsonaviy hukmdori Simurg' faqat badiiy timsol, Haqiqat sirlariga ishoradir. Farhod va Shirin, Layli va Majnun kabi qahramonlar ham shoir ko'nglidagi muayyan tasavvurlarga ishora qiladi, dostonlarning badiiy mazmuni shoirning Borliq haqiqati haqidagi fikr-u o'ylariga bizni oshno etadi.

San'at, jumladan, badiiy adabiyot o'zlikni anglab yetishning mustaqil bir yo'lidir. San'at aslida yosh bolaning o'yinidan kelib chiqqan narsa. O'yin – Borliq haqiqatini amaliy anglab yetish – o'zlashtirishning ilk ko'rinishi. Yosh bola Borliqni anglab yetish uchun hayotiy jarayonlarni o'yinda modellashtiradi.

San'at turlari behisob, ularning har biri voqelikda mavjud muayyan imkondan foydalanadi. Haykaltarosh toshni “jonlantiradi”, musavvir ranglar tovlanishini ishga soladi, musiqa san'ati qadimgilar ishonchiga ko'ra, inson tuyg'ulariga bevosita koinot uyg'unligini olib kiruvchi vosita hisoblanadi. Ammo badiiy tafakkurning eng qudratli va imkoniyatlari cheksiz vositasi, nazarimizda, badiiy so'zdir.

Inson xatti-harakat, imo-ishora bilan ham ko'p narsani tushuntira oladi. Ammo baribir so'z, inson nutqi axborot almashuvining bosh vositasidir. San'atni ham ahli basharning o'ziga xos axborot almashuv vositalaridan biri deb qarasa, so'z san'ati ushbu badiiyat dunyosida alohida mavqega egadir.

Adabiyot inson tafakkurining, ma'naviyatining asosi va bosh ozig'idir. Chunki unda hayot aks etadi. Ammo o'z holicha, ko'zgudagidek emas,

balki muallif maqsadiga bo'ysunib, uning nigohi orqali sizga ko'rinadi. Adabiy asar ko'z oldingizdan kechayotgan ayqash-uyqash hodisalar girdobini ma'lum ma'no tizimiga joylab, undan sizning ko'zingizga, ongingizga ma'no, mazmun chiqarib beradi.

Endigina harfni harfga urishtirib kitob o'qishga o'rgangan besh-yetti yoshli bola tevarak-atrofdagi hayotni qanday tahlil qilib, to'g'ri xulosalar chiqara oladi? Buning uchun unga kim yordam beradi? Albatta, birinchi navbatda, ona va otasi, opa-akalari, tarbiyachilari, atrof-muhitdagi insonlar ta'siri bo'ladi. Biroq ushbu insonlar ko'rsatadigan ta'sir, ular gapiradigan gaplar o'z navbatida ularning ong va saviya darajasiga, ularning o'zi hayotni qanday tushunishiga bog'liq. Kitob esa, agar arzigulik kitob bo'lsa, ma'lum ma'noda, umumbashariyat tajribasi asosida yozilgan, hayotning bir qirrasini bola uchun tushunarli usulda umumbashariyat ma'naviy olami ko'zgusi orqali xayrli bir niyat sari yo'naltirib aks ettirgan bo'ladi. Mana shu ma'noda adabiyotni inson ma'naviy dunyosining shakllanishidagi ilk va oziq vosita deya olamiz. Falsafiy va ilmiy dunyo daholari ham odatan badiiy adabiyot yo'rgagida voyaga yetadilar.

Adabiyot haqida yoshligidan kitobga mehri tushgan, kitob ichida o'sgan odamgina gapirishga haqli bo'lsa kerak. Keyincha katta bo'lib, sababi tirikchilik, adabiyotshunoslikka qo'l urgan kishilarning so'zlari bu dargoh uchun begona so'zlardir. Ular yo o'zgalardan ko'chirma qiladilar, yo chinakam adabiyot uchun yot bo'lgan qarashlarni unga tirkamoqchi bo'ladilar. Bu ishlarni ko'ra bila turib qiladilarmi, yo ko'ronami, bunisining oxir-natija uchun unchalik ahamiyati yo'q.

Yoshligidan kitob o'qishga o'rgangan odam odatda falsafiy, siyosiy, diniy adabiyotdan boshlamaydi, avval badiiy adabiyot namunalari bilan tanishadi. Agar boshqa biror tur adabiyot qo'lga tushganda ham, tabiiyki, bola tafakkuri bilan uni tushunishga qodir bo'lmaydi. Badiiy asar unday emas, u yetti yashardan yetmish yashargacha hammaga tushunarli, hamma ham undan o'z fahm- farosatiga loyiq bir hissa chiqara oladi. Adabiyot – ibrat maktabi, mehr parvarishidir. Mumtoz adabiyot Borliq haqiqatining botiniy jihatini zohiriy timsollar vositasi-da majoziy bayon etish qudratiga ega.

San'atni, jumladan, adabiyotni o'yinga qiyos qildik. Shu ma'noda san'at va adabiyot insoniyatning bolalik odatidan rivojlanib chiqqan. Bola o'ynaydi, o'yin orqali bola hayotni o'rganadi. Adabiyot ham o'ynab turib o'rgatadi, uning timsollari hayot ibratlaridir. Bolaning o'yini –

beg'araz. Kattalarning o'yiniga doimo g'araz xavf solib turadi. Adabiyot ham shunday. Adib va shoir beg'araz bo'lsa, u hayot haqiqatini uyg'un aks ettira oladi. Ammo g'araz aralashsa, g'arazli adabiyot vujudga keldi. G'arazli adabiyot inson diliga zulmat keltiradi, ruhini tumanlashtiradi, aqlini adashtiradi. Mumtoz adabiyot beg'arazdir.

Adabiyot inson ruhini Borliq haqiqati bilan uyg'unlashtirishga intiluvchi asosiy vositalardandir. Mustaqillikkacha bo'lgan davrda ilmiy tadqiqotlar va darsliklarda XII–XV asrlar o'zbek adabiyotidagi yaxlit jarayonni «dunyoviy adabiyot» deb nomlangan taraqqiyparvar yo'nalish; «diniy-mistik» va «feodal-saroy» adabiyotlari deb tamg'a bosilgan «reaksion» oqimlarga ajratib, ularni bir-biriga keskin qarshi qo'yib kelinganligi hammamizga ma'lum. Ammo bu atamalar davr badiiy tafakkuri mohiyatini uning asosiy badiiy mezonlar silsilasiga mos holda ochib bera olmadi. Chunki ular aslida marksistik mafkura nuqtayi nazarini ifodalab, ushbu mafkura targ'ibotchisining dunyoni idrok etish me'yorlarini o'tmish ajdodlar merosiga jiddiy tahrirsiz tatbiq etishga asoslangan. Shunday yondoshish oqibatida, masalan, Alisher Navoiy badiiy tafakkur olami o'z yaxlitligida to'g'ri talqinini topmadi, sun'iy ravishda turli usullar, turli uslublarning qovushmagan yig'indisiga «aylanib qoldi». Natijada, shoir asarlarini keng kitobxonga taqdim etish jarayonida uning ijodidagi ba'zi jihatlar, bob va qismlar «oshiqcha», «keraksiz» hisoblanib, tushirib qoldirildi. Masalan, «Hayrat ul-abror»ning kitobxon ko'zidan «yashirib» qolingani kirish boblari va birinchi, ikkinchi maqolalarida nafaqat yolg'iz bu asar, balki butun «Xamsa», demakki, shoir ijodining asosiy mohiyatini, undagi takomil bosqichlari silsilasini to'g'ri tushunib olish uchun kalit mavjud edi. Ularni ommaviy nashrlarda qisqartirib tashlab qoldirish bilan ulug' shoir ijodining asos mohiyatini to'g'ri anglash yo'liga mutlaqo oqlab bo'lmaydigan g'ovlar tashlandi.

Alisher Navoiyning dunyoni badiiy idrok etishi o'ziga xos murakkab jihatlariga ega. Agar biz uning badiiy tafakkur mohiyatini davr istiloh va tushunchalariga tayangan holda, ularning ichki mazmunini to'g'ri tushunib yetishga jiddiy intilib, talqin va ta'rif etmasak, o'zimiz o'ylab topgan, bugungi kunga xos yoki o'zga madaniyat an'anasiga moslangan atamalar bilan ifodalashga urinsak, ulug' daho qarashlarini ma'lum darajada jo'nlashtirib tushuna boshlaymiz, natijada o'z ma'naviy ufqlarimizni muayyan qoliqlar doirasida cheklab qo'yish xavfiga ro'baro' bo'lamiz. Shu sababli Navoiy fikrlarini uning o'z istilohlarida anglab yetishga uringanimiz xayrlidir.

Mavjud adabiyotshunoslik fani adabiyotning shaklini o'rganadi, mazmuniy mohiyatini jiddiy o'rganmaydi. Adabiyotshunoslik badiiy adabiyotni o'yin sifatida o'rganadi, ya'ni undagi o'yin qoidalarini tahlil etadi. Albatta, adabiy asar mazmunini to'g'ri tushunishimiz uchun undagi "o'yin qoidalarini", ya'ni shakliy, uslubiy o'ziga xosliklarni to'g'ri anglashimiz kerak. Ammo, baribir, badiiy tafakkur qonuniyatlarini bilish, shakl va uslubni farqlash hali asar mazmunini to'liq, asliga muvofiq tushunib yetish degani emas. Chunki adabiyotdan har bir shaxs o'z hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, tafakkur darajasiga ko'ra, qisqasi, o'ziga yarasha ibrat oladi. Mumtoz o'zbek adabiyotini she'riyatsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki o'zbek tilida yetib kelgan ma'naviy merosimizning 80 foizini she'riyat tashkil etadi. Ona zaminimizga islom dini bilan birga arab tili va she'riyat ilmi ham kirib keldi. Madrasalarda Qur'oni karim, tafsir, hadis ilmi, arab tili sarf-u nahvi bilan bir qatorda she'r ilmi – (aruz) nazariyasi qonun-qoidalari ham o'qitib, yodlatilar edi. Yod olish esa aqlni peshlatib chiniqtirar, tiniqlashtirar, tafakkurni chuqurlashtirib oydinlashtirar va fasohat bilan so'zlashga asos bo'lardi. Qomusiy olimlarimizning deyarli barchalari she'riyat bilan oshno bo'lib, yo she'riy qasida bitganlar, yo she'riyat nazariyasi aruzga oid asarlar yaratganlar. Buyuk ajdodlarimiz adabiyotshunoslik fanini mustaqil nazariy tizim darajasiga ko'targanlar.

Ma'lumki, har bir mintaqa madaniyatining o'z mezonlari bor. Ular o'sha mintaqa xalqlari ma'naviy takomili jarayonida, uzoq yillik tarixiy tajriba asosida shakllanadi. Jumladan, islom mintaqa adabiyotining rivojlanishi mobaynida uning o'ziga xos nazariy asoslari ham yaratildi. Bu an'anaga muvofiq bizda adabiyot nazariyasiga oid bir qator ilmlar vujudga keldi. Jumladan, aruz ilmi, qofiya ilmi, badiiy san'atlar nazariyasi (ilmi bade'), ilmi bayon, ilmi ma'oniyy va h.k. Islom mintaqasida dastlab bu ilm yo'nalishlari arab tilidagi adabiyot tajribasiga tayangan bo'lsa, ko'p o'tmay boshqa xalqlar ham bu sohaga o'z hissalarini qo'sha boshladilar. Bu haqdagi ma'lumotlar ilmlar tasnifiga oid turli qomusiy kitoblar mundarijasidan joy olgan.

d) xalq ijodi va ma'naviyat

Albatta barcha ma'naviy boylikni xalq yaratadi. Ammo Yevropa ilmida mumtoz (klassik) san'at va xalq ijodi (folklor)ni farqlash udum bo'lgan. Buning ma'lum asoslari ham bor.

O'rta asrlarda mumtoz san'at namunalari ko'proq hukmdorlar yoki

yirik zodagonlar, keyincha, bizning mintaqada, tasavvuf suluklari doirasida yaratilgan. Ammo oddiy mehnatkash kosiblar, shahar ahli, dehqonlar orasida ham o'ziga xos san'at turlari, yo'nalishlari vujudga kelgan bo'lib, ularni bir necha toifaga ajratish mumkin. Birinchi yo'nalish so'z san'atiga oid bo'lib, xalq dostonlari, termalar, turli marosim qo'shiqlari, xalq qissalari, ertaklar, afsonalar, topishmoqlar, matallar, maqollar va hokazolarni o'z ichiga oladi. Bularning ko'pchiligi xalq orasida og'zaki ijro etilgan. Ammo xalq kitoblari shaklida qo'lyozma holida tarqalgan doston va qissalar ham ko'p.

Ikkinchi yo'nalish ijrochilik yoki xalq teatri shaklida — muqallidlik, masxaraboz-qiziqchilik, askiyabozlik, hofizlik, raqqoslik san'ati, qo'g'irchoq o'yinlar, dorbozlik, turli sport o'yinlari, schrgarlik (ko'zboylog'chilik) va boshqalar bo'lib, bulardan ayniqsa baxshilar, qissaxonlar ijrosida musiqa, ijro va so'z san'ati chatishib ketgan.

Uchinchi yo'nalish xalq amaliy san'ati degan umumiy nom ostida birlashtirsa bo'ladigan kulolchilik, miskarlik, kandakorlik, yog'och o'ymakorligi, devoriy naqsh ishlash, ganchkorlik, zardo'zlik, kashtachilik, zargarlik va boshqa qator san'at turlari bo'lib, ularning o'ziga xos umumiy tomoni bunday san'at asarlarining ko'pchiligi inson turmushida muayyan amaliy vazifa ham bajarishga mo'ljallangan bo'lishidadir. Xalq amaliy san'ati ustalarining ko'pchiligi atoqli kosib-hunarmandlar sanaladi. Bu san'atlarning o'ziga xos sir-asrori, mahorat maktabi ustozshogirdlik shaklida asrdan asrga o'tib kelgan.

Xalq ijodi namunalari odatda turli toifalar did-farosatini charxlashga, ularning ma'naviy kamolotini yuksaltirishga, ularda nazokat, nafosat tuyg'ularini tarbiyalashga xizmat qiladi, dunyoni uyg'un idrok etishga yordam beradi.

Xalq ijodi, aniqrog'i, xalq san'ati — biz odatda uning muallifi xalq deb hisoblaymiz. Jumladan, baxshilar ijodini og'zaki adabiyotga mansub bilamiz. Ammo bunday xulosalar ancha nisbiy. Masalan, Ergash Jumanbulbul madrasa ko'rgan shoir, ko'p asarlarini yozma holda ijod etgan. Asli Fozil Yo'ldosh, Ergash Jumanbulbul, Islom shoir, Po'ikan va boshqalardan yozib olingan qator dostonlar o'z mazmuniy salmog'i va mahorat darajasiga ko'ra, chinakam mumtoz asarlar darajasidadir, ammo ular o'z uslubiy yo'nalishiga ko'ra Navoiy, Mashrab, Nodira she'riyatidan keskin farq etadi. Me'morlarimiz, ganchkor va o'ymakorlarimiz, naqqosh, kandakor va zargarlarimiz, koshinkor va musavvirlarimiz yaratgan asarlar har biri jahon ahlini hanuz hayratga

solib kelayotgan mo'jizalar emasmi? Qodirjon Haydarov, Usta Shirin kabi o'ymakor va ganchkorlar, To'ychi Xofiz va Yusuf qiziq Shakarjonovlar haqli ravishda xalq san'atining buyuk namoyandalari hisoblanadi. Ularning ijodi, yaratgan asarlari ko'pi mumtoz san'at darajasidadir. Albatta, xalq ijodi alohida soha. Ammo milliy mumtoz san'atlarimizni xalq ijodi bilan qiyoslab ko'rgan odam ular orasidagi murakkab nisbatlarni jiddiy o'rganish zarurligi sezmay iloji yo'q.

Muayyan asarni muayyan shaxs yaratadi. Ammo bizning mintaqa an'anasida mualliflik mutlaq tushuncha emas. Bizda har bir muallif mutlaqo yangicha uslub, yangi yo'nalish, yangi mavzu va yangi qahramonlar yaratishga ortiqcha urinmaydi. Kitobxon ham undan buni kutmaydi. Amir Xusrav 9 ta doston yozgan. Undan 4 tasi mutlaqo mustaqil mavzularda yaratilgan. Ammo ko'pchilik mintaqa xalqlari orasida bu buyuk hind shoiri Nizomiyga javoban yozilgan "Xamsa" muallifi sifatida shuhrat qozondi, uning mustaqil mavzudagi asarlari unchalik el og'ziga tushmadi. Ulardan faqat biri – "Do'valroni va Xizrxon" mashhur bo'ldi. Sababi, qahramonlari yangi bo'lsa ham, mavzu yo'nalishi an'anaviy ("Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Vomiq va Uzro" kabi ishqiy mavzuda) edi. An'anaviylik, albatta mumtoz adabiyotda o'ziga xos shaklda, xalq adabiyotida boshqacharoq namoyon bo'ladi. Ammo ular orasida ziddiyat, o'tib bo'lmas jarlik yo'q. Bu yerdagi asosiy farqlar muallif qaysi doira, qaysi toifaga mansubligi, asar kimga mo'ljallab yaratilganligi va qay darajada teranligi, qanday sharoitda ijro etilishi va boshqa omillarga bog'liq. Masalan, tasavvuf she'riyati. Yassaviy maktabida yaratilgan hikmatlar ko'p jihatdan mumtoz she'riyat namunalaridan ko'ra xalq she'riyatiga yaqin turadi. So'fi Olloyor ham, Mashrab ham tasavvuf adabiyoti vakillari. Ammo Mashrab she'riyati bilan So'fi Olloyor nazmi orasida Borliq mohiyatini anglab yetish, mazmuniy teranlikda juda sezilarli farq bor. Biz har ikkisinin merosini ham yozma adabiyotga taalluqli deb bilamiz. Aslida Mashrab ko'proq fil-badiha, og'zaki ijod etgan. Shunga qaramay, uning ijodi mumtoz she'riyat sanaladi, So'fi Olloyor ijodi haqida bunday qat'iy hukm chiqarish qiyin.

e) marosimlar ma'naviyati

Xalq badiiy tafakkurining an'anaviylik eng kuchli namoyon bo'ladigan, eng kam o'zgarishga uchraydigan shakli xalq urf-odatlari va marosimlaridir. Marosimlar masalasida biz uchun muhim jihat xalq

ongidagi asotir unsurlari va badiiy tafakkur nisbati bo'lib, ba'zi tadqiqotlarda xalq asotirlari va asotir marosimlar bilan xalq ijodi (ya'ni xalq san'atkorligi)ni aralastirib yuborish holatlari uchramoqda. Albatta, xalq ijodi asotir (mif) va marosimlarga yaqin turadi, hatto marosim folklori degan alohida tushuncha bor, darhaqiqat, xalq marosimlarida badiiy ijod unsurlari uchraydi. Ammo asotir boshqa, marosim boshqa, xalq badiiy ijodi yana alohida hodisalardir. Ularni bir-biridan farqlamoq lozim. Badiiy ijod o'yin, u shartli, ramziy va timsoliydir. Asotirda ham ramz bor, shartlilik, timsoliylik mavjud. Ammo asotir o'yin emas, u jiddiy narsa, asotir bilan hazillashib bo'lmaydi. Xalq marosimlari ikki toifaga bo'linadi: biri — asotir marosimlar (mifologik rituellar), ikkinchisi — an'anaviy urf-odatlar, ko'proq etiketga oid marosimlar, el orasida qabul qilingan rasm-rusumlar. Albatta, kelib chiqishiga ko'ra, bu ikki tur marosimlar orasida bog'lanish bo'lishi mumkin, ammo ularning turmushdagi vazifasi (funktional yo'nalishi) jiddiy farq qiladi. Asotir marosim, masalan, o'zbeklardagi yomg'ir chaqirish niyati bilan bog'liq "Sust xotin" (yoki "Suv xotin") marosimi o'z davrida dehqon uchun hayot-mamot masalasi bo'lgan va buning badiiy ijodga aloqasi yo'q. Hozir uni xalq tomoshasi sifatida badiiylashtirib ijro etilsa, maqsad butkul o'zgaradi. Badiiy ijod ibratga asoslanadi, asosan tarbiyaviy maqsadni ko'zlaydi, asotir marosim esa bevosita amaliy natijalar kush bilan bog'liq.

Davolash bilan bog'liq marosimlar — kinna, ko'chiriq (badik), avrash kabilar ham asotir marosimga oiddir. Ulardan ham maqsad bemorga shifo baxsh etishdir. Bunday marosimlarning o'z matnlari ham bor, ularning badiiylik darajasi har xil, ammo badiiylik bu matnlar uchun qo'shimcha ta'sir quvvati nuqtayi nazaridan e'tiborga olinadi, xolos. Ibrat vazifasi bu holatlarda mavjud emas. Albatta, ularni ham xalq ijodi sifatida o'rganish mumkin, ammo asl mohiyat boshqa ekanligi yodda turmog'i zarur.

Ba'zan nikoh, motam marosimlarida ham asotir unsurlari uchrab turadi. Ammo xalq orasida bugungi kunda mavjud bo'lgan ko'p marosimlar va ular bilan bog'liq matnlar estetik tarbiya vositasiga aylangandir. Ularni shu jihatdan naqsh (ornament) san'atiga qiyos etish mumkin. Biz uylarimizni turli naqsh-tasvirlar bilan bezagan singari hayotimizdagi turli o'zgarish voqea-hodisalarni ham milliy urf-odatlar, marosimlar bilan boyitib, ularning ahamiyatini ta'kid etamiz, turli ramzu ishoralar bilan tarbiyaviy kuch bag'ishlashga intilamiz. Kattalar yosh-

larga soʻz, ramziy xatti-harakatlar bilan taʼlim berishga, oʻyin bilan oʻrgatishga urinadilar. “Oʻyin bilan oʻrgatish” ayni badiiylikdir, adabiyot soʻzining oʻzagida adab yotganidek, bugungi turli milliy marosimlarimiz zamirida yaxshilik ibrati yashirindir. Marosimlarimiz maʼnaviyati ayni shu ezgulik ibratida, shu jihati boʻlmasa, qolganlarining deyarli maʼnaviyatga aloqasi yoʻq.

TAQDIR VA TADBIR.

Milliy ma'naviyatimizda «ahli qabul» va «ahli rad» tushunchalari (Xulosa o'rnida)

Qur'oni karimning “Nur” surasi 35-oyatida «Alloh osmonlar va yerining «nuri»dir», deb hidoyat etilgan. Kimning dil ko'zgusi ushbu nur ila munavvar etilgan bo'lsa, o'sha inson ma'naviyatlidir. Bir sodda moddiyunchi “Ma'naviyat inson qalbida aks etgan ilohiy nurdir” degan ta'rifni mahkam ushlab “ma'naviyat – nur” bo'ladigan bo'lsa, “nur” moddiy narsa, demak, ma'naviyat ham moddiy ekan, deb turib olsa nima bo'ladi? Inson tili va tafakkurining o'jizligi shunday o'rinlarda bilinadi. Axir, ilohiy kitobning yuqorida keltirilgan jumalari Alloh haqiqatiga ishora, ramz-ku!

“Nur” bu o'rinda ilmiy atama emas, ramziy timsol. Alloh haqiqati behudud, inson ongi va tasavvurlari esa chekli. Shu sababli, Tavhid haqiqatiga faqat ishora qilish mumkin, ta'rif berib bo'lmaydi. Inson ilmi cheklovchi ilmdir. Haq ilmi – chegarasiz. Shunday ekan, biz o'jiz bandalar ma'naviyat nazariyasi haqida nima ham deya olardik? Faqat ba'zi nisbatlar, ramz va ishoralar bilan cheklanishga to'g'ri keladi.

Ma'no Allohga tegishlidir. Borliqning ma'nosi Alloh haqiqatidan o'zga emasdir. Uni Haq derlar. Ma'naviyat esa inson ko'nglida Haq nurining aks etishidir. Shu sababli ma'naviyat Borliq yanglig' bepoyon. Inson aqli bu bepoyonlikni qamrab ola biladimi? Dahriyona tafakkurning eng o'jiz tomoni shuki, inson aqlining noqisligi aniq-ravshan bo'la turib, takabburlikka beriladi, “dunyoga yolg'iz o'zim xo'jayinman” demoqchi bo'ladi. Biz insonlarning dahriyligimiz ham, butparastligimiz ham aqlimizning noqisligi, taxayyulimizning o'jizligidandir.

Yuqorida boshlanishi esga olingan oyat xulosasida “Alloh o'zining (bu) nuriga o'zi xohlagan kishilarni hidoyat qilur” deb inoyat etilgan. Demak, ixtiyor O'zida, bizda emas. Buni taqdir deytilar. Inson zotining barcha xatti-harakati esa tadbir xolos. Tadbir amalga oshiriladi, ammo maqsad qo'lga kiradimi, yo'qmi, inson oldindan bashorat eta olmaydi. Nima qilish kerak? Najot qayerda?

Alisher Navoiyning buyuk “Xamsa”si ibrat va ishoratlar qo'musidir. Uning birinchi dostoni “Hayrat ul-abror” ning birinchi bobi (sovet davrida bu bob ko'pchilik nashrlarda tushirib qoldirilgan) “Bismillohir rahmonir rahim” ilohiy kalimasining majoziy sharhiga bag'ishlangan. Unda bu tabarruk kalimaning har bir harfiga ikki karra badiiy sharh

berilgan. Nega ikki karra? Chunki birinchi sharh – “ahli qabul” uchun, ikkinchisi “ahli rad” uchun.

*“Qilguvchi bu bodiya qat’ig’a mayl,
Ahli qabul-u rad erur ikki xayl”¹.*

Inson uchun imtihon maydoni bo‘lmish bu dunyo hayotiga qadam qo‘ygan har bir shaxs o‘ziga ikki yo‘ldan birini tanlaydi – insof va diyonat, sabr va rizolik, halollik va mehr yo‘lini yoki norizolik va badbinlik, xiyonat va xudbinlik, xarom va qahr yo‘lini. Biri – adolat va nurga, ikkinchisi – zalolat va zulmatga boshlaydi. Har birimizning Allohdan tilagimiz saodatmand taqdir erur. Ammo zulmat sari qadam bosib, kelajakdan yana nur-u yog‘du umid etsak, o‘zimiz hayotda xiyonat va kazzoblikni shior qilib, Allohdan rahmat-u shifoat kutsak, Yaratganning adolatiga shak keltirgan, hatto tuhmat etgan bo‘lmaymizmi?

Inson o‘z taqdirini oldindan bilmaydi. Shunday ekan, kim “ahli qabul” bo‘lsa, o‘zgalarga mehr-u savobni ravo ko‘rsa, hayotga yaxshilik umidi bilan qarasa, el-yurt, Haq oldida o‘zini mas’ul bilib, shunga muvofiq faoliyat ko‘rsatsa, uning taqdiri ham xayrli tadbiriga muvofiq bo‘lib chiqsa, ne ajab.

Agar kim hayotdan, o‘zgalardan doim norizo bo‘lsa, dilini xudbinlik chirki qoplab, birovga yaxshilik ravo ko‘rishga og‘rinib tursa, o‘zbekning achchiq mataliga binoan “keltir menga, yo‘qdir senga” shiorini bayroq qilib, faqat o‘z nafsini ko‘zlasa, insof va diyonatni yolg‘on va xiyonatga tamom almashtirib olgan bo‘lsa, uning barcha tadbirlari oxiri borib puch bo‘lib chiqsa, ishonganlari sarobga aylansa, ushbu taqdiri niyatiga, tadbiriga yarasha bo‘lmaydimi?

Yana bir mulohaza:

Agar bu dunyoda qilgan gunohlaringiz, yo‘l qo‘ygan xatolaringiz uchun shu dunyoda jazo olsangiz, ajrini tortsangiz, Allohga ming shukr etingki, o‘zi sizga inoyat etibdi, sizdan rahmatini darig‘ tutmabdi. Ammo gunoh ustiga gunoh, xiyonat ustiga xiyonat, yovuzlik ustiga yovuzlikni kimki qalashtirib tashlayotgan bo‘lsa-yu, ishlari kundan kunga rivoj olib, omadi “olg‘a bosib” ketayotgandek ko‘rinsa, unday zulmat bandasi Allohdan qo‘rqsin, taqdiri oldida titroqqa tushsinki, Haq undan tamom yuz o‘girgan, oxirati butkul kuyib ketmaganmikan? Inson umid bilan yashaydi. Ammo o‘z umidiga muvofiq yashasa, czgulik sari yo‘nalgan tadbirni niyat qilsa va shu yo‘lda sobitqadam bo‘lsa, inshoolloh, zarar ko‘rmagay. Yana Alloh bilguvchiroqdir.

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 7-jild, T., 1991, 12-b.

JADVALLAR VA XULOSALAR

1. MA'NAVIYATSIZ KELAJAK YO'Q

(O'zbekiston Prezidenti I. Karimovning ma'naviyat masalalariga alohida e'tibori va buning sabablari)

1. Kommunistik aqidaparastlar diktaturasi 70 yil davomida, izchil sur'atda million-million xalqlarni yalpi *manqurtlashtirish siyosatini* olib bordi. Natijada XX asrning 70-yillariga kelib «Sovet Ittifoqi» atalmish ulkan bir hududda «manqurtlar saltanati» shakllandi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi yig'ilishida Prezident I. Karimov bu haqda shunday fikr bildirgan edi: *“Bu tuzum o'z xalqining tarixini, uning ruhi va urf-odatlarini, o'z avlod-ajlodini bil-maydigan manqurtlarga tayanar edi”*. Darhaqiqat, o'sha davrda xalq ongiga “markscha-lenincha” totalitar mafkurani singdirish, uning barcha faoliyatini markaz izmiga so'zsiz bo'ysundirish ishonib topshirilgan aksariyat rahbarlar va ijtimoiy fan vakillari ayni shunday *manqurtlarga* tamomila aylanib bo'lgan edi.

2. *Insonlar ongining eski aqidalar asoratidan poklanishi oson savdo emas*. Ayniqsa, yurtning yetakchilari bo'lishi lozim bo'lgan ziyolilarimiz ruhiga singib ketgan ko'nikmalarni yengib o'tish mashaqqati har qadamda sezilib qolyapti. Insonlar tafakkurini eski andazalar, tor qoliplar tugal tark etishi qiyinchilik bilan amalga oshmoqda. Tafakkurimiz, qarashlarimizdagi yangi tamoyillar hanuz ancha yuzada, ongimizning sirtqi qatlamlarida qolib ketmoqda, ba'zan yangi qadriyatlarni ham eski o'lchovlar bilan baholashga urinmoqdamiz. Shunday ekan, yangicha, mustaqil tafakkur zarurati hanuz dolzarb, milliy mafkurani shakllantirish, xalq ma'naviyatini yuksaltirish bugunning ham eng muhim vazifasidir. Sababi insonlar ongida tub o'zgarishlar yuz bermas ekan, O'zbekistonning buyuk kelajagini qurish orzusi shirin xayoligicha qola beradi.

“O'z istiqlol va taraqqiyot yo'limiz, — deb yozgan edi I. Karimov mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq, — bu gul bilan qoplangan yo'l emas, totalitarizm merosidan xalos bo'lish va poklanish, mafkuraviylik illati yetkazgan ziyon-zahmatlarni bartaraf etishning qiyin, uzoq davom etadigan yo'lidir”.

¹ I.Karimov. Asarlar. 1-jild, 359-b.

3. *Mustaqillik ma'naviyatining bosh mezon, asos-poydevori mas'uliyat tuyg'usidir.* Ushbu tuyg'u, afsuski, ko'pchiligimizda yetishmaydi. Bu masalada mustaqillikning dastlabki qadamlaridan barchaga namuna bo'lib kelayotgan shaxs O'zbekistonning birinchi Prezidenti I. Karimov bo'lib, bu lavozimga ilk saylangan kunlaridan beri xalq ma'naviyatini yuksaltirishga birinchi darajali e'tibor qaratib kelmoqda. Prezidentning 1992-yilda e'lon qilingan *"O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li"* risolasi alohida bobi *"Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari"* deb nomlandi, unda ilk bor xalq ma'naviyatini rivojlantirish masalalari batafsil tahlil etildi.¹

1995-yil fevral oyida o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi birinchi chaqiriq Oliy Majlisining birinchi yig'ilishida Prezident I. Karimov *"O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari"* mavzusida katta ma'ruza qilib, mamlakatning siyosiy va iqtisodiy rivojiga oid muhim masalalar bilan bir qatorda millatning ma'naviy takomili yo'nalishida ham yangicha yondashuvlar, dolzarb muammolarning puxta o'ylangan yechimlarini xalq namoyandalari muhokamasiga havola etdi. Ma'ruzaning *"Yuksak ma'naviyat — kelajak poydevori"*² deb nomlangan faslida mustaqillikning dastlabki to'rt yilida bu sohada erishgan yutuqlarni tilga olish barobarida kelajak yo'nalishlarni ham batafsil tahlil etib berdi. *"Endigi asosiy vazifa, — deb fikrini davom etdi yurtboshimiz, — kishilarimizning mustaqil fikrlashga o'rganishi, o'ziga ishonchining orta borishidir"*³. Buning uchun har birimiz *"bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab", "buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o'tmishimizdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmog'imiz kerak"*⁴.

1994-yilda I. Karimovning *"Istiqlol va ma'naviyat"* nomli kitobi, 1997–98-yillarda bu mavzu yanada mukammallashib, *«Ma'naviy yuk-salish yo'lida» («На пути духовного Возрождения»)* kitobi o'zbek va rus tillarida nashr etildi⁵. Prezidentning ushbu kitoblari tarkibida va undan keyin e'lon qilingan *«Xalqni Vatan manfaatlarini birlashtiradi»* (Yozuvchilar bilan suhbat), *«Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot*

¹ I. Karimov. Asarlar. 1-jild, 76–85-b.

² O'sha kitob, 33–42-b.

³ O'sha kitob, 34-b.

⁴ O'sha kitob, 7-b.

⁵ I. Karimov. Ma'naviy yuk-salish yo'lida. T., «O'zbekiston», 1998.

I. Karimov. На пути духовного Возрождения. Т., «O'zbekiston», 1997.

omil» (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasining ochilishi marosimida so'zlangan nutq), «*Vatan –hamma narsadan mo'tabar*» (Mustaqillikning besh yilligidagi bayram tabrigi), «*Ma'naviy qadriyatlar va milliy o'zlikni anglashning tiklanishi*» («*O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari*» kitobida), «*Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin*» («Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga javoblar), «*Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q*» (Tarixchi olimlar bilan suhbat), «*Milliy istiqol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir*» («Fidokor» gazetasi muxbiri bilan suhbat), «*Egali yurt erkini bermas*» (2000-yil avgust Oliy majlis sessiyasida so'zlangan nutq), «*Alloh qalbimizda, yuragimizda*» kabi qator asarlarida ma'naviyat masalalariga oid muhim fikrlar, yangicha g'oyalar olg'a surilgan.

1994-yil bahorida «Ma'naviyat va ma'rifat» respublika jamoatchilik markazini tuzish haqida Prezidentning Farmoni chiqdi. 1996-yil sentabrda ushbu markaz faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida yana alohida Farmon bo'ldi va uning asosida Vazirlar Mahkamasi maxsus qaror qabul qildi. Nihoyat, 1999-yilga kelib, bu markaz Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashiga aylantirildi.

Yurtboshi xalqdan ayri emas. Chunki xalqning, millatning nihoniy tilagi, istagi bugun Yurtboshining ko'nglidagi tilakdir, istakdir. Prezidentning barcha nutq va risolalarini ma'naviyat mavzusi nuqtayi nazardan birma-bir ko'zdan o'tkazib chiqqan odamni hayratga soladigan narsa shuki, ajdodlarimiz yaratgan ma'naviy meros, xalqimizning dilida saralanib kelayotgan, uning og'zaki ijodi, hikmatlari, matal va maqollarida aks etgan ezgu aqidalar bilan O'zbekiston Prezidentining ma'naviyat masalalariga munosabati, mulohazalari, fikr yo'nalishi o'zak-ozagidan o'zaro muvofiq va uyg'undir.

2. MILLIY MA'NAVIYAT NAZARIYASINI SHAKLLANTIRISHNING UMUMMETODOLOGIK ASOSLARI

a) ko'p qutbli dunyo;

(Bu qoida Tavhid haqiqatining mohiyatidan kelib chiqadi va ma'naviy merosimizda allaqachon e'tirof etilgandir)

b) inson – dunyo mehvari;
(Chunki inson ko'ngli Haqning mazhargohidir)

d) iqtisod, siyosat, ma'naviyat: inson va jamiyat hayotida ularning o'zaro uyg'unligi zarurati.

3. INSON VA JAMIYAT HAYOTINING UCH SOHASI

(yoki Inson faoliyatining uch yo'nalishi)

IQTISOD

(Insonning moddiy voqelik (atrof-tabiati) bilan amaliy munosabati)

SIYOSAT

(Har bir insonning o'zga insonlar bilan bevosita munosabatlari)

MA'NAVIYAT

(Insonning Haqqa, Borliqning mohiyatiga munosabati)

(Ushbu sohalar insonning Borliq bilan turlicha mustaqil munosabatlariga oid bo'lib, ulardan har birining manbayi ham, maqsadi ham alohidadir)


4. MA'NAVIYAT NIMA?

(Ma'naviyatning turli nuqtayi nazardan ta'riflari)

a) Ma'naviyat – iqtidor, yaratuvchilik quvvati sifatida	«Ma'naviyat – Insonning, Xalqning, Jamiyatning, Davlatning kuch-qudratidir».
b) Ma'naviyatning qudratini izohlovchi ta'rif	“Ma'naviyat... – insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli, botiniy kuch...”
d) Ma'naviyatning ajdodlarimiz merosida aks etgan ramziy ta'rif	Ma'naviyat – Haqiqat nurining inson qalbida aks etishidir

e) Ma'naviy kamolotga jarayon sifatida yondoshuv («O'zini anglab yetgan Robbini anglab yetadi» hadisiga muvofiq)	Ma'naviyat – o'zlikni anglashdir
f) Ma'naviyatning ilmiy ta'rifi (ma'naviyat – ma'rifat yo'llarining nihoiy xulosasi sifatida)	Ma'naviyat – inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg'unlik
g) Ma'naviyatga diniy nuqtayi nazardan berilgan ta'rif	Ma'naviyat – dunyoviy va uxraviy maqsadlarning uyg'unligidir
h) Ma'naviyat fano va baqo nisbati sifatida	Ma'naviyat – baqoning fanoda zuhuri (namoyon bo'lishi)
i) Ma'naviyat – inson va jamiyat hayotining uch asosiy yo'nalishining biri sifatida	Ma'naviyat – insonning Haqqa (Borliq haqiqatiga) munosabati

5. MA'NAVIYAT, MADANIYAT VA SIYOSATNING O'ZARO NISBATI



6. JAMIYATDA DINNING O'RNI

Inson va jamiyat hayoti uch soha –
*Iqtisod, Siyosat, Ma'naviyat*dan
 iborat deb olinsa,
Ma'naviyat
 (Har bir alohida shaxsning **Borliq Haqiqatiga** munosabati sifatida)

4 asosiy jihatga ega bo'ladi:

Imon, ilm, mas'uliyat, mehr.


Din mohiyatan muayyan insonlar guruhining o'zlari Haqiqat deb qabul qilgan Borliq mohiyatiga ishonch-e'tiqodini, ya'ni imonini ifodalaydi

va shu ma'noda to'lig'icha shaxs ma'naviy dunyosiga taalluqlidir.

Dinning botiniy va zohiriy jihatlari mavjud bo'lib, botiniy jihati imon, zohiriy jihati ibodatlar. Diniy nuqtayi nazardan har ikkisi ham muhim, *ma'naviyat* nuqtayi nazaridan esa *imon* e'tiborlidir.

Siyosatga dinning ta'siri faqat har bir shaxs ma'naviyati orqali bo'lsa mohiyatan durustdir, ammo insonlar e'tiqodidan bevosita siyosiy qurol sifatida foydalanishga urinish siyosiy avantyurizmdan o'zga narsa emas.

7. UMUMINSONIY QADRIYATLAR VA MILLIY MA'NAVIYAT



Ushbu chizma murakkab voqelikni shartli ravishda aks ettiradi. Chunki, barcha xalqlar va mintaqalar ma'naviyati o'ziga xos bo'lib, ularning barchasini bir chizmada aks ettirish imkoniyati yo'q.

8. «MILLIY MA'NAVIYATIMIZ ASOSLARI» FANI BILAN MA'NAVIYAT SOHASIGA ALOQADOR BOSHQA FANLAR NISBATI

Ma'naviyat sohasiga aloqador fanlar	Fanning maxsus o'rganish sohasi (obyekti)	Fanning asosiy mavzusi (predmeti)
“Milliy ma'naviyatimiz asoslari”	Milliy ma'naviyatimizning asosiy masalalari	Inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg'unlik darajalari (Vatan, Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat), Shaxs ma'naviyatining asosiy jihatlari (imon, ilm, mas'uliyat, mehr), Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari
“Falsafa(shunoslik)”	Falsafa	Falsafiy tizimlar Borliq haqiqatini mantiqiy modellashtirish usullari sifatida
«Madaniyatshunoslik» (Kulturologiya)	Madaniyat	Jahon va mintaqa madaniyatlari Inson ma'naviy faoliyatining hosilasi (inson ma'naviyatining moddiy voqelikdagi izlari) sifatida
Ruhshunoslik (Psixologiya)	Ruhiyat	Inson va jamiyatning turli ruhiy holatlari va ulardagi o'zgarishlar
«Axloqshunoslik» (Etika)	Axloq	Inson xulqi, uning axloqiy fazilatlarini (inson qalbidagi ma'naviyat nurining ijolari sifatida) va qusurlari
“Dinshunoslik”	Dunyo dinlari	Imon-e'tiqod tizimlari (dinlarning botiniy jihati), ibodatlar, ularning turli dinlardagi o'ziga xos xususiyatlari (dinlarning zohiriy jihati)
San'atshunoslik	San'at turlari	Borliq haqiqatini badiiy tasvir vositalari asosida modellashtirish
Adabiyotshunoslik	Badiiy adabiyot so'z san'ati sifatida	Borliq haqiqatini badiiy timsollar asosida modellashtirish
Nafosatshunoslik (Estetika)	Badiiy tafakkur qonuniyatlari, go'zallikning mohiyati	Moddiy borliq va san'atning turli sohalarida shakl va ma'no uyg'unligi masalalari

Tarbiyashunoslik (Pedagogika)	Ta'lim-tarbiya masalalari	Ma'rifat yo'llari (jumladan, ibrat va ilm, riyozaat va mehr) orqali ifodalalanuvchi o'zlikni anglash (ko'ngil ko'zgisini sayqallash) jarayoni
Siyosatshunoslik (Politologiya)	Siyosat	Davlat tizimi va siyosiy partiyalar, demokratiya va ijtimoiy adolat masalalari
Jamiyatshunoslik (Sotsiologiya)	Insonlar jamiyatining sinxronik holati	Turli ijtimoiy toifalar va tuzilmalar holatidagi o'zgarishlar va ularning sabab-oqibatlar
Tarix(shunoslik)	Jahon va turli o'lkalar tarixi	Bashariyat va turli elatlarning siyosiy, ijtimoiy, madaniy taraqqiyoti qonuniyatlari
Elshunoslik (Etnografiya)	Turli xalqlarning urf-odatlar va marosimlari	Xalq ongidagi asotir tafakkur unsurlari, an'anaviylik va etiket, xalq ijodi turlari va shakllari, urf-odatlar va marosimlarning tarbiyaviy ahamiyati

9. MILLIY MA'NAVIYATIMIZNING TARIXIY TAKOMILI

Milliy ma'naviyatimiz millatimizning ma'naviy takomil jarayonida tashkil topgan va bugungi kunda ham mavjudligini saqlab turgan ko'p o'lchamli voqelik bo'lib, ajdodlarimiz yaratgan ma'naviy murosda o'z aksini topgandir.

Milliy ma'naviyatimizning tarixiy takomilining *uch davri*:

1. Islomgacha milliy ma'naviyatimiz taraqqiyoti (*eng qadimgi davrlardan – VIII asr boshlarigacha*).

2. Islom mintaqa madaniyati doirasida milliy ma'naviyatimizning takomili (*VIII – XV asrlar*).

3. Yangi davr jahon madaniyati miqyosida milliy ma'naviyatimiz ahvoli (*XVI – XX asrlar*).

10. MILLIY MA'NAVIYATIMIZ TARIXIY TAKOMILINI O'RGANISHDA MANBALAR AHVOLI

1. *Islomgacha ma'naviyatimiz takomili haqidagi eng muhim manbalar o'lkamizning bugungi milliy hududlaridan tashqarida topilgan bo'lib, asl matnlarning yaxlit va nisbatan mukammallari "Avesto" kitobi va turkiy toshbitiklardir.*

(Ikkinchi qismi bilvosita ma'lumotlar bo'lib, qadim Shumer, Bobil va Ashshur, qadimgi Misr va Yunon, Hind va Xitoy manbalarida, Eron shahanshohlaridan qolgan toshbitiklarda aks etgandir.

Uchinchi guruh manbalar arxeologik yodgorliklar bo'lib, ular bevosita yurtimiz hududidan yoki atrof-mintaqadan topilgan moddiy ash-yolar va inshootlar bilan bog'liq.

To'rtinchi guruh manbalar so'nggi davrlargacha og'zaki an'ana hoida yetib kelgan xalq adabiyoti, urf-odat va marosimlar, o'yinlar, bayramlar, xurofiy irim-sirimlar bo'lib, ular yuzasidan uzil-kesil xulosalar chiqarish, ayniqsa, murakkabdir.

Islomgacha ma'naviyat haqidagi tasavvurlarimiz, shu sabablarga ko'ra, baribir uzil-kesil bo'lishi qiyin va qancha qadim zamonlarga kirib borsak, shu qadar tarixiy haqiqat va afsonalar qorishib, chatishib ketadi).

2. *Islom davri manbalari qadim davrga nisbatan beqiyos darajada boy va ishonchliroqdir. Islom davridan boshlab, aytish mumkinki, masalaga ilmiy yondoshuv imkoni jiddiy tarzda oshadi va millatning ma'naviy kamolot bosqichlari mintaqa madaniyati doirasida aniq tarixiylik kasb etadi.*

3. *Uchinchi davr bizga eng yaqin bo'lgani sababli uni o'rganish masalalari tadqiqotchilarning ancha keng doirasini qamrab olgan. Bu davr manbalari asosan o'zbek, tojik, rus va qisman boshqa qardosh xalqlar tillarida saqlangan. Ammo bu davr manbalarini o'rganishda ham muammolar yetarli.*

11. ISLOMGACHA MILLIY MA'NAVIYATIMIZ TAKOMILI

Bosqichlar	Tarixiy davr	Asosiy ma'naviy qadriyatlar
I	Ibtidoiy jamoa	a) Oilaviy munosabatlarning tartibga solinishi va urug' jamoaning tashkil topishi; b) Yaratuvchilik mehnatining e'zozlanishi; d) Tuproq, suv, olovning e'zozlanishi;
II	Ilk shahar jamoasi	Ilm va imon uyg'unligining shakllanishi
III	Buyuk davlatlar (imperiya)	Millat, milliy adabiy til va milliy davlatning shakllanishi

12. ISLOM MINTAQA MADANIYATI DAVRIDA MILLIY MA'NAVIYATIMIZ TAKOMILI

Milliy ma'naviyatimiz rivojining tarixiy bosqichlari	Tarixiy davr	Shaxs va millat ma'naviyatining takomil bosqichlari yoki ma'rifat yo'llari
I Sunna	VIII–IX asrlar	<i>Ibrat</i>
II Islom ma'rifatchiligi	X–XI asrlar	<i>Ilm</i>
III Tasavvuf tariqatlari yoxud Irton	XII–XIII asrlar	<i>Riyozat</i>
IV "Majoz tariqi"	XIV–XV asrlar	<i>Mehr</i>

13. SUNNA BOSQICHINING ASOSIY YUTUQLARI

1. Payg'ambarimiz (s.a.v.) davridan *Tavhid e'tiqodi asosidagi insoniy birodarlik jamoasi* – "umma" tushunchasi shakllana boshlagan bo'lsa, VIII asr ikkinchi yarmi – IX asr boshlaridan (750-yil – Abu Muslim qo'zg'oloni va abbosiylarning hokimiyatga kelishi, 813-yilda Ma'munning xalifalik taxtiga o'tirishi natijasida) mintaqaning uch buyuk xalqi – arab, fors va turkiy elatlararo siyosiy qudratda o'ziga xos muvozanat holati vujudga keldi, ya'ni islomning asl g'oyasi – *musulmon ummatining tengligi* amalda joriy bo'lishiga voqe imkon tug'ildi.

2. Turli islomiy mazhablar (*xanafiya, shofe'iya, molikiya, xanbali*

ya, ja'fariya), ya'ni islom e'tiqodiga oid qarashlar va amallarning ba'zi farqlarga ega bo'lgan besh yo'nalishi shakllandi va bora-bora ular orasida bir-birini inkor etmaslik va o'zaro hurmat munosabatlari o'rnatildi. Bunday *turli talqinlararo o'zaro murosa holati* oxir natijada e'tiqod masalalarida taassub (fanatizm) va bir yoqlama aqidaparastlik xavfining oldini olishga asos bo'ldi.

3. Musulmon huquqi – *shariat va fiqh asoslarini* shakllantirish boshlandi. Imom A'zam – Abu Hanifa an-Nu'mon bin Sobit (699–767) va uning yaqin shogirdlari Imom Abu Yusuf Ansoriy (731–804) va Imomi Muhammad ash-Shaybon (749–805) bu sohada asoschi bo'ldilar.

4. *Payg'ambarimizning hayot yo'llari haqida dastlabki mukammal asarlar* – Ibn Is'hoq (704–707) va Ibn Hishom (vafoti 834-yillar) “Sira”lari (“*Sirat ar-Rasululloh*”) vujudga keldi. Bu kitoblarning asosiy g'oyasi *risolat (payg'ambarlik – messiya) masalasi* bo'lib, ular keyinchalik umuman payg'ambarlar hayoti va faoliyati haqida batafsil xabar beruvchi kitoblar – “Qisas ul-anbiyolar” yaratish an'anasiga asos namuna bo'ldi.

5. *Qur'on tafsirlarini* tadvin qilish (mukammal tafsir kitoblari tuzish) an'anasi rivoj oldi.

6. Xalifa Umar ibn Abdulaziz (717–720) davridan Muhammad (s.a.v.) hadislarini jamlash rasmiy tus olib, Imom Malik ibn Anas (713–795)ning “Al-Muvatto”, Imom Shofe'iy (767–820) va imom Ahmad ibn Xanbal (780–855)larning “Musnad” deb nomlangan yirik hadis to'plamlari vujudga kelgan bo'lsa, *IX asrda hadisshunoslik ilmi mukammal shakllanib*, uning qat'iy qoidalari asosida islom olamida Qur'oni karimdan keyingi eng nufuzli manba hisoblangan *6 sahih (ishonchli) hadis to'plamlari* yaratildi. Ularning mualliflari: Abu Abdulloh Ismoil al-Buxoriy (810–870), Imom Muslim ibn al-Xajjoj (819–874), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (824–874), Abu Dovud Sulaymon (817–888), Ahmad an-Nasoyi (830–935), Abu Iso Muhammad ibn Yazid ibn Mojja (824–886) kabi mashhur muhaddislardir.

7. Rasululloh (s.a.v.) hadislarining eng muhim va salmoqli qismi kishilarda *yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirishga* qaratilgan. Ulardagi ota-onaga ehtirom, ilmga intilish, sabr-bardosh, shukronalikka da'vat, o'zaro mehr, inoqlik, mehmondo'stlik, yetimparvarlik, vafo va sadoqat, mehnat-sevarlik va halol luqmani sharafdash, kamtarlik, kamsuqumlik, samimiyat va rostgo'ylik xislatlarining birinchi o'ringa qo'yilishi insoniyat uchun bebaho ma'naviy qadriyatlar silsilasini tashkil etadi. Ular asosida *islom axloqining munazzam va mukammal bir tizim holidi mintaqada puxta*

shakllanuvi bu davrning nihoyatda muhim hodisasi edi.

8. *Adab ilmiga* asos solindi, she'riyat, filologiya ilmlari rivojlandi. Ibn al-Muqaffaning (724–759) “Al-Adab as-Sag‘ir”, “Al-Adab-al-Kabir” asarlari, Xalil ibn Ahmadning (718–792) lug‘atshunoslik va aruz ilmining nazariy asoslariga bag‘ishlangan “Al-Ayn” asari dunyoga keldi, Ibn al-Mutazz(861–908) ilk bor “Ilmi bade’” (she’riy san’atlar haqida ilm)ni kashf etdi. Arab mumtoz she’riyatining asoschilari Abu Nuvas (762–813), Bashshar ibn Burd (714–784), Abul Ataxiya (718–825) kabi ulug‘ shoirlar, Al-Johiz (775–868) kabi adiblar, ilk bora Rasululloh hadislariga turkiy tilda she’riy sharhlar bag‘ishlab doston yozgan alloma shoir Adib Ahmad shu davrda yashab ijod etdilar.

14. ISLOM MA’RIFATCHILIGI BOSQICHIDA SHAKLLANGAN BORLIQ HAQIQATINI ANGLAB YETISHNING TURLI YO’NALISHLARI

(“Haqiqat izlovchi”larning 4 toifasi):

(Imom Abu Hamid G‘azzoliy (1058–1111)ning “Al-Munqiz min ad-dalal” asari va mutafakkir shoir va olim Umar Xayyom (1048–1122)ning “Darxostnoma” risolasi asosida)

Yo‘nalishlar (toifalar)	asosiy oqimlari	Asoschilari yoki mashhur vakillari
Kalom (<i>Mutakallimlar</i>)	a) Mo‘tazila b) Ash‘ariya d) Moturidiya	Vosil ibn Ato (699–748) Abul Hasan al-Ash‘ariy (873–935) Ab-u Mansur Muhammad al-Moturidiy as-Samarqandiy (870–944)
d) Falsafa (<i>Faylasuflar</i>)		Abu Nasr Forobiy (873–950) Abu Ali ibn Sino (980–1037)
B) Botiniya (<i>Botiniylar</i>)		“Ihvon-us-safo” ilmiy guruhi (X asr) (52 risoladan iborat qomusiy majmua yaratgan) badaxshonlik buyuk shoir va mutafakkir Nosir Xusrav (1004–1088)
G) Tasavvuf (<i>So‘fiylar</i>)		Junayd Bag‘dodiy (vafoti 910-yil) Mansur Halloj (858–922) Abdulloh Ansoriy (1006–1089) Abusayid Abulxayr (967–1049) Abdulhasan Xaroqoniy (vafoti 1033-yil)

15. ISLOM MA'RIFATCHILIGI BOSQICHINING ASOSIY YUTUQLARI:

1) Borliq haqiqatini anglab yetishning aqlga, mantiqiy tafakkurga tayanuvchi turli muvoziy (parallel) yo'nalishlari shakllanishi;

2) Kalom falsafasi tomonidan islomiy Tavhid ta'limotining min-taqadagi barcha eski aqidalar majmuyidan har tomonlama ustunligini aql va mantiq qudrati bilan isbotlab berilishi;

3) Allohning oxirgi kitobi Qur'oni karim oyatlaridagi ma'naviy boy-likni teran anglab yetish uchun islomgacha yaratilgan butun madaniy merosni chuqur o'rganish va yangicha asoslarda anglab yetish haraka-tining har taraflama rivojlanishi;

4) aniq va tabiatga oid fanlarga qiziqishning behad kuchayishi, fanlar tasnifi va qomusiy adabiyotlarning yuzaga kelishi ("Ihvon-us-safo" guruhi, Abu Nasr Forobiy, Abu Abdulloh Xorazmiy (vafoti 997-yil), Abu Rayhon Beruniy (973–1048), Abu Ali ibn Sino);

5) turkiy va forsiy badiiy adabiyotda Firdavsiy (940–1020) "Shohnoma"si, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostoni (1069-yilda yozilgan) kabi buyuk tarixiy va ma'rifiy asarlarning yaratilishi;

6) qiyosiy tilshunoslikning paydo bo'lishi (Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asari).

16. ISLOM OLAMIDAGI ASOSIY TASAVVUF TARIQATLARI

Asosiy tariqatlar	Asoschilari	Kelib chiqish makoni va tarqalish doirasi
Badaviya	Ahmad al -Badaviy (1199–1276)	Shimoliy Afrika
Dasukiya	Ibrohim ad-Dasukiy (1246–1288)	Shimoliy Afrika
Rifoia	Ahmad bin Ali ar-Rifoiy (1106–1182)	Shimoliy Afrika
Shoziliya	Abulhasan Ali ash-Shoziliy (1196–1258)	Shimoliy Afrika
Suhra- vardiya	Ziyouddin Abu Najib as-Suhravardiy – 1037–1168, Shahobiddin Yahyo as-Suhravardiy – 1155–1191 Shahobiddin Abu Hafs Umar as-Suhravardiy (vafoti 1234)	Eron
Yassaviya	Ahmad Yassaviy (vafoti – 1166-yil)	Markaziy Osiyo
Naqshban- diya- Xojagon	Abdulxoliq G'ijduvoni (vafoti 1179), Bahouddin Naqshband (1318–1383)	Markaziy Osiyo

Qodiriya	Abdulqodir bin Abu Solih Jiloniy (1077–1166).	Eron, Markaziy Osiyo
Kubraviya	Najmiddin Kubro (1145–1221)	Markaziy Osiyo
Chishtiya	Muiniddin Muhammad Chishtiy (vafoti 1236)	Hinduston
Mavlaviya	Jaloliddin Rumiy (1207–1273)	Turkiya

17. SO‘FIYLIK YO‘LINI IXTIYOR ETGANLARNING MA’NAVIY KAMOLOT BOSQICHLARI

Shariat

(Barcha musulmonlar uchun umumiy qonun-qoidalar)

Tariqat

(1.Tavba. 2. “Fano fi-sh-shayx”, ya’ni, pirga qo‘l berishdan “fano fi-l-loh” gacha)

Ma’rifat’

(“fano fi-l-loh” dan “baqo bi-l-loh” gacha)

Haqiqat

(“baqo bi-l-loh” yoxud oriflik maqomi)

18. “MAJOZ TARIQI” NIMA?

“Majoz tariqi” atamasi Alisher Navoiy ijodining so‘nggi davridagi qator asarlari, jumladan, “Holoti Pahlavon Muhammad” va “Muhokamat ul-lug‘atayn”larda tilga olinadi va “Mahbub ul-qulub”da *maxsus tushuncha* sifatida tahlil etiladi.

“*Majoz tariqi*” – Alisher Navoiy talqiniga ko‘ra – *Borliq haqiqatini anglab yetishning badiiy adabiyotga xos maxsus yo‘nalishi* bo‘lganligi sababli avvalo *badiiy adabiyotning milliy ma’naviyatimizdagi o‘rnini* ko‘rib chiqamiz:

¹ Bu bosqich asli “ma’rifatulloh” atalib, “Haqni tanish” ma’nosini bildiradi. Majoziy qiyosda piri murshid kulolga, murid loyga, “tavba” maqomi loyning xas-xashakdan tozalinishiga “ma’rifatulloh” bosqichi xumdonga o‘xshatiladi. Bu “xumdon”ning olovi esa “ishqi ilohiy”dir.

ADABIYOT NIMA?

Bola o'ynaydi. *O'yin* – Borliq haqiqatini amaliy anglab yetish – o'zlashtirishning ilk ko'rinishi. Yosh bola Borliqni anglab yetish uchun hayotiy jarayonlarni o'yinda *modellash*tiradi.

San'at, jumladan, *badiiy adabiyot o'zlikni anglab yetishning mustaqil yo'li* bo'lib, aslida *taxayyul o'yinlari*¹ vositasida *Borliq haqiqatini modellash*tirishga urinishdir. Haykaltarosh toshni “jonlaniradi”, musavvir ranglar tovlanishini ishga soladi, musiqa san'ati inson tuyg'ulariga bevosita koinot uyg'unligini olib kiradi. *Badiiy tafakkurning eng qudratli va imkoniyatlari cheksiz vositasi so'z san'atidir*. Bolaning o'yini beg'araz. Adib va shoir ham o'z ishiga beg'araz yondoshmagina, hayot haqiqatini uyg'un aks ettira oladi. *Mumtoz adabiyot beg'arazdir*.

Adabiyot inson ma'naviyatini shakllantiruvchi asosiy manbadir. Adabiy asar ko'z oldingizda kechayotgan ayqash-uyqash hodisalar gir-dobini ma'lum ma'no tizimiga joylab, undan sizning ko'zingizga, ong-ingizga ma'no, mazmun chiqarib beradi. Badiiy asar yetti yashardan yetmish yashargacha hammaga tushunarli, hamma ham undan o'z fahm-farosatiga loyiq bir hissa chiqara oladi. Shu sababli *adabiyot – ibrat maktabi, mehr parvarishidir. Mumtoz adabiyot Borliq haqiqatining botiniy jihatini zohiriy timsollar vositasida majoziy bayon etish qudratiga ega*. Ana shu xislati tufayli u *inson ruhini Borliq haqiqati bilan uyg'unlashtirishga yordam beruvchi asosiy vositalardan biri* hisoblanadi.

ISLOM MINTAQA ADABIYOTINING NAZARIY ASOSLARI

Ma'lumki, har bir mintaqa madaniyatining o'z mezonlari bor. Ular o'sha mintaqa xalqlari ma'naviy takomili jarayonida, uzoq yillik tarixiy tajriba asosida shakllanadi. Jumladan, *islom mintaqa adabiyotining rivojlanishi mobaynida uning o'ziga xos nazariy asoslari ham yaratildi*. Bu an'anaga muvofiq bizda *adabiyot nazariyasiga oid* bir qator *ilmlar* vujudga keldi. Bu ilmlar *ikki yo'nalishda* bo'lib, ulardan *birinchisi adabiyotning shakli, ya'ni badiiy tasvir vositalariga oiddir*. Jumladan, aruz ilmi, qofiya ilmi, badiiy san'atlar nazariyasi (ilmi bade'), ilmi

¹ “Imaginatsiya” (ruscha “воображение”) asotir tafakkur, falsafiy va badiiy tafakkurning asosiy qurol ekanligi taniqli rus olimi Y. Golosovkerning “Логика мифа” kitobida ishonarli isbot qilib berilgan.

bayon, ilmi maoniy va h.k. Islom mintaqasida dastlab bu ilm yoʻnalishlari arab tilidagi adabiyot tajribasiga tayangan boʻlsa, koʻp oʻtmay boshqa xalqlar ham bu sohaga oʻz hissalarini qoʻsha boshladilar. Buyuk ajdodlarimizning bu sohadagi xizmatlariga misol sifatida X–XV asrlar mobaynida Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan Abu Abdulloh al-Xorazmiyning “Mafotih al-ulum” (“Ilmlarning kalitlari”) asarining maxsus bobi, Abu Xafs an-Nasafiyning “Majmaʼ ul-ulum matlaʼ un-nujum” (“Ilmlarning jam boʻlishi – yulduzlarning chiqishi”) qomusiy risolalar toʻplamiga kiritilgan “Muxtasar al-aruz ala usul al-maʼruz”, Abul Hasan Nasr al-Margʼiloniyning “Mahosin al-kalom”, xorazmlik allo-ma Rashididdin Vatvotning “Hadoyiq as-sehr fi daqoyiq ush-sheʼr”, Mahmud az-Zamaxshariyning “Al-qustos fil aruz”, Yusuf as-Sakkokiyning “Miftoh ul-ulum”, Ahmad Taroziyning Mirzo Ulugʻbek zamonida turkiy tilda yaratilgan “Funun al-balogʻa” asarlarini, Navoiy va Boburning aruzga oid risolalarini eslab oʻtish kifoya.

Adabiyot nazariyasining ikkinchi muhim yoʻnalishi badiiy adabiyotning mazmuniy jihati, yaʼni badiiy tafakkur qonun-qoidalariga aloqador boʻlib, badiiy ijod tariqi (metodi) masalasi ushbu yoʻnalishning bosh mavzusidir.

Yangi davrda Yevropa adabiyotida *barokko, klassitsizm, roman-tizm, realizm* nomlari bilan ataluvchi hodisalar paydo boʻldi. Tadqiqotchilar bunday hodisalarni *adabiy yoʻnalish* yoki oqim (“Литературное направление или течение”) deb atadilar va keyinchalik shuning asosida *ijodiy yoki badiiy metod (творческий или художественный метод) nazariyasi* shakllantirildi.

Qadim yunonlarning falsafasini chuqur oʻrgangan ajdodimiz *Abu Nasr Forobiy* (873–950) oʻz ijodida ushbu muammoga ham maxsus toʻxtalib, “Sheʼr sanʼati qonunlari haqida risola” (Risola fi qavonin sinoʻat ash-sheʼr) va “Sheʼriyat haqida” (Kitob ash-sheʼr) asarlarini yaratdi. Bu risolalarda Arastu asarlarida ishlatilgan “*mimezis*” (tabiatga taqlid) va “*imaginatsiya*” tushunchalarini arab tiliga “*muhokot*” va “*taxayyul*” atamalari bilan tarjima qilib, *badiiy tafakkurning asos unsurlarini* islom mintaqa ilmida ilk martaba mantiqiy izohlab berdi. XI asrga kelib *Abu Qohir al-Joʻrjoniy* (vafoti 1078-yil) Qurʼoni karim oyatlarining yuksak badiiy qudratini ilmiy tahlil asosida dalillab berishga bagʻishlangan “Daloyil ul-eʼjov” va “Asror ul-balogʻa” asarlarida mutlaqo oʻziga xos *badiiy timsol nazariyasini* kashf etdi. XIII asr oxiri – XIV asr boshlarida *Amir Xusrav Dehlaviy* (1253–1325) oʻzining “*Ra-*

soil ul-e'joz" va boshqa asarlarida ushbu muammolarning yangicha yechimlarini berdi. Va nihoyat, XV asr oxirida Alisher Navoiy o'zigacha 8 asr davomida mintaqa miqyosida keng rivojlanib borgan badiiy tafakkur ilmini yanada yuksak nazariy umumlashmalar darajasiga ko'tarib, jahon ma'naviyati takomiliga o'zining mustaqil bosqich darajasidagi kashfiyotini olib kirdi.

Qadim yunon tilida "metodos" nima ma'noni bildirsa, IX–XV asrlar islom mintaqa madaniyatining ilmiy atamalar tili bo'lmish arab tilida "tariq" so'zi ham xuddi shu ma'noni, ya'ni "yo'l", "*Borliqni anglab yetish va aks ettirishning o'ziga xos yo'li*" ma'nosini anglatar edi. Alisher Navoiy ushbu atamadan ijodiy foydalanib, islom mintaqa adabiyotida "*haqiqat tariqi*" va "*majoz tariqi*" deb atalmish ikki adabiy yo'nalish va badiiy ijod tariqi mavjudligini kashf etdi va ularning har birini qisqacha ta'riflab, XII–XV asrlarda yashab forsiy va turkiy tillarda ijod etgan *ulug' shoirlarning qaysi biri qaysi yo'nalishga mansub ekanligini* aniq ko'rsatib berdi. Shunday qilib, *badiiy ijodga Borliq mohiyatini idrok etish va ijodiy akslantirishning alohida bir yo'nalishi sifatida ongli yondoshuv* islom mintaqasida Yevropadan bir necha asr ilgari mukammal shakllandi.

ALISHER NAVOIYNING BADIY IJOD TARIQIGA OID NAZARIY MULOHAZALARI

"Mahbub ul-qulub" risolasi "Avvalgi qism"ining 16-fasli shoirlar ta'rifida bo'lib, "*Nazm gulistonining xushnag'ma qushlari zikrida*" deb ataladi va shunday boshlanadi:

*"Ul necha tabaqadir: avvalgi jamoa nuqudi kunuzi ma'rifati ilohiydin g'aniylar va xalq ta'rifidin mustag'niylardur. Ishlari maoniy xazoinidin ma'rifat javharin termak va el fayzi uchun vazn silkida nazm bermak. Nazm adosi bag'oyat arjumand va benihiyat sharif va dildisand o'ldug'i uchun oyoti kalomda nozil bor va hadisi mo'jiznomda tilagan topar, chun maal-qasd emas, el hurmati jihatidin ani she'r demas"*¹.

(Nasriy bayoni: Ular bir necha guruhdir. Birinchi guruh ma'rifati ilohiy xazinasining naqdinalari bilan boyigan va xalq ta'rifiga ehtiyoj sezmaganolardir. Ishlari ma'nilar xazinasidan Ma'rifat gavharini termoq va u gavharni el fayz topsin uchun nazm ipiga tortmoq. Nazmlari-

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 14-jild, T. «Fan», 1998, 24-b.

ning ifodasi g'oyat qutlug' va benihoyat yoqimli va ulug' bo'lganligidan ilohiy kalom oyatlari va Rasulullohning mo'jizali hadisleri mazmunini izlagan kishi ulardan topa oladi va qasddan yozilmagani sababli el ularga ehtirom bildirib, she'r deb atashga jur'at etmaslar").

Alisher Navoiy bu toifani *"haqiqat tariqining suxanvari"*, deb ataydi va ular jumlasidan tasavvuf adabiyotining eng buyuk siymolari Fariddin Attor va Jaloliddin Rumiy nomlarini tilga oladi. Olim bu guruh vakillarini "avliyoi ogoh va mashoyix va ahlulloh", deb ulug'laydi.

Navoiy *"majoz tariqi"* xususidagi ta'riflarga o'tib, o'zi kashf etgan haqiqatlarni shunday bayon qiladi:

"Yana bir jamoatdurkim, haqiqat asrorig'a majoz tariqin maxlut qilubdurlar va kalomlarin bu uslubda marbut etibdurlar. Andoqki, maoniy ahlining nuqta pardozi Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy va ishq ahli guruhining pokbozi va pokravi Amir Xusrav Dehlaviy va tasavvuf va diqqat mushkulotining girkushoyi Shayx Zahiriddin Sanoiy va faridi ahli yaqin Shayx Avhadiddin va maoniy adosiga lofiz Xoja Shamsuddin Muhammad al-Hofiz.

Yana jam'e bordurlarki, majoz tariqi adosi alar nazmiga g'olib va alar bu shevaga ko'proq rog'ibdurlar. Andoqkim, Kamoli Isfahoniy va Xoqoniyi Shirvoniy va Xojuyi Kirmoniy va mavlono Jaloliddin va Xoja Kamol va Anvariyy va Zahir va Abdulvosi' va Asir va Salmon Sovajiy va Nosir Buxoriy va Kotibiy Nishopuriy va Shohiy Sabzavoriy".

(Nasriy bayoni: "Yana bir guruhdurkim, Haqiqat sirlariga majoz yo'lini aralashtiribdurlar va so'zlarini bu uslubda bog'labdurlar. Chunchi: ma'ni ahlining nozik so'zlisi Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy va ishq guruhining halol oshiqi Amir Xusrav Dehlaviy, tasavvuf va tafakkur mushkullarining chigalini yechuvchi Shayx Zahiriddin Sanoiy, haqiqat ahlining yagonasi Shayx Avhadiddin va lafz bilan ma'noni anglatishga mohir Shamsuddin Muhammad Hofiz.

Yana bir qanchalari bordurlarki, majoz yo'li ularning she'rlarida g'alaba qozongan va ular bu ravishga ko'proq rag'bat etganlar. Chunchi: Kamol Isfahoniy, Xoqoniy Shirvoniy, Xojuyi Kirmoniy, Mavlono Jaloliddin, Xoja Kamol, Anvariyy, Zohir, Abdulvosi', Asir, Salmon Sovajiy, Nosir Buxoriy, Kotibi Nishopuriy va Shohiy Sabzavoriy"².

¹ O'sha kitob, 25-b.

² Alisher Navoiy. Asarlar. 13-jild. T., 1966, 191-b.

ISLOM MINTAQA ADABIYOTINING RIVOJLANISH DAVRLARI

Islom mintaqa adabiyoti VIII – XV asrlar mobaynida dunyoni idrok etish va uni ijodiy akslantirish nuqtayi nazaridan ham taraqqiy etib bordi. Alisher Navoiyning nazariy kuzatishlari bilan adabiy jara-yonning borishini qiyoslab xulosa qilinsa, bu taraqqiyotni, birinchi navbatda, ikki katta davrga bo'lish mumkin.

Birinchisi, VIII – XI asrlar bo'lib, arab mumtoz adabiyotida “yangilanish” harakatiga asos solgan Bashshar ibn Burd (714–784), Ibn al-Muqaffa (724–759), Abu Nuvo (762–713), Abul Ataxiya (748–825) kabi mashhur shoir va adiblar ijodi bilan boshlanadi. VIII asr ikkinchi yarmi – IX asr boshlaridan turkiy tildagi dastlabki asarlar (Adib Ahmad va Mahmud Koshg'ariy asaridagi ba'zi namunalar) paydo bo'lgan bo'lsa, X asr birinchi yarmida Somoniylar saroyida Abu Abdulloh Rudakiy yetakchiligidagi baquvvat fors she'riyat maktabi shakllandi. IX–X asrlar davomida Movarounnahr va Xurosonda har uch tilda asarlar yaratilgan bo'lsa, XI asr boshlaridan arab tili asosan ilm tili sifatida saqlanib qolib, G'aznaviylar saroyida asosan fors tilida va Qoraxoniylar saroyida turkiy va forsiy tillaridagi she'riyat rivoj topdi. Bu davrda Unsuriy, Faruhiy, Manuchehriy va boshqalar fors tilida madhiyaviy qasidaning mumtoz namunarini yaratgan bo'lsalar, Firdavsiy Tusiy (940–1020) 60 ming baytli ulkan tarixiy epopeya – “Shohnoma”ni qog'ozga tushirdi. Turkiy tilda zamonasining dolzarb ijtimoiy va falsafiy qarashlarini keng ko'lamda aks ettirgan Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” dostoni (1069-yilda yozilgan) dunyoga keldi. Keyingi ikki asar shu davrgacha Eron va Turonda yaralgan boy ma'naviy merosning o'ziga xos badiiy qayta ishlangan qomusi edi. Arab tilida Abul A'lo al-Maarriy (973–1058)ning yuksak falsafiy mazmundagi asarlari ham shu davr mahsuli edi.

VIII–XI asrlarda islom mintaqasida shakllangan turli adabiy maktablar ham ilmiy doiralari singari ko'proq u yoki bu hukmdor saroyida markazlashgan bo'lib, ularning mazmuniy mundarijasida madhiya qasidalar, ishqiylar, g'azallar, xamriyot (may mavzuyi), zuhdiyot (dunyo va uning hoy-u havaslari bebaqoligi va ularga mehr qo'ymaslik mavzuyi), hijo (muayyan shaxslarga yo'naltirilgan hajv) kabi mavzu turlari yetakchilik qilardi, ya'ni, ma'lum ma'noda, badiiy adabiyotning vazifasi hanuz ikkinchi darajali, amaliyroq ko'rinishda edi. Shu davrda “eng yolg'on she'r – eng yaxshi she'rdir” va “eng rost she'r –

eng yaxshi she'rdir" degan iboralarda o'z aksini topgan she'riyatga ikki xil yondoshuv shakllangani ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan va bunga muayyan darajada o'sha davr adabiyotining mavzu qamrovi va vazifasi, ijtimoiy voqelikda tutgan mavqeyi ham sababchidir. XX asr adabiyotshunosligida urf bo'lgan «*dunyoviy adabiyot*» atamasi ayni shu davr adabiyotining aksariyat namunalari muayyan darajada muvofiq kelishi mumkin. *Alisher Navoiyning badiiy ijod tariqiga oid mulohazalari bu davrga daxl etmaydi.*

Ikkinchi yirik davr XII–XV asrlar bo'lib, Alisher Navoiy mintaqa adabiyotiga oid nazariy mulohazalarida ayni shu davr shoirlariga e'tibor qaratadi.

Alisher Navoiy forsiy "Shohnoma"ni yaxshi bilsa-da, badiiy ijod tariqi haqida mulohaza yuritganda Firdavsiyni eslamaydi, balki sanoqni fors mumtoz she'riyati vakillari ichida birinchilardan bo'lib saroyni va madhiyago'ylikni tark etib, she'riyatga jiddiy falsafiy-ijtimoiy va axloqiy masalalarni olib kirgan Abdulmajid Sanoiy (1048–1140)dan boshlaydi. Chunki uning – "Sayrul-ibod ilal-maod" ("Alloh bandalarining qaytar makonga safari") va 10 ming baytdan ortiq hajmdagi "Hadoyiq ul-haqiqat" ("Haqiqat bog'lari") dostonlari mintaqa adabiyotida yangicha yo'nalishga asos solgan edi. Undan keyin XII asr ikkinchi yarmida yashab ijod etgan Abdulvosi' Jabaliy (vafoti 1160), Anvariyy (vafoti 1191), Asiriddin Axsikatiy (1108–1196), Xoqoniyy (1120–1199), Zohir Faryobiyy (vafoti 1202) kabi qator taniqli shoirlar ham saroy madhiyago'yligini tark etib, ijtimoiy-falsafiy ruhda qasidalar yozishga kirishdilar.

Navoiy Sanoiy ijodini baholashda o'sha davr an'anasiga zid borib, uni "haqiqat tariqi" suxanvarlari qatorida emas, "haqiqat asrorig'a majoz tariqini maxlut" qilganlar safida tilga olgan. Darhaqiqat, asarlari o'z vaqtida buyuk xalaflari (izdoshlari) tomonidan so'fiyona ruhda talqin etilgan bo'lishiga qa-ramay, Sanoiy ham, Anvariyy va Hoqoniyy-lar ham hanuz tom ma'nodagi so'fiy shoirlar emas edilar. Sanoiyning "Hadoyiq ul-haqiqat" asarini Yevropa sharqshunoslari uzoq vaqt "tasavvuf qomusi" deb talqin etgan bo'lsalar-da, bu asarni diqqat bilan o'rgangan Y.E. Bertels bunday qarashni quvvatlamaydi. Darhaqiqat, 10 bobdan iborat bu yirik dostonda, Navoiy asosli ravishda ta'kidlaganidek, tasavvufga oid mavzular boshqa falsafiy-ijtimoiy masalalar bilan aralash (maxlut) holda bayon etilgan.

Sanoiy va Anvariyy-lar boshlab bergan she'riyatga yangicha yondoshuv

ularning yaqin izdoshlari – XII asr oxirgi choragidan boshlab fors tilidagi she'riyat osmonida porlagan ikki yorqin yulduz Nizomiy Ganjaviy (1141–1202) va Fariddin Attor (1147–1229) siymolari misolida ikki alohida yo'nalish bo'yicha rivoj oldi.

Bu ikki yo'nalishning farqi nimada?

Ma'lumki, adabiyot mavzularining markazida inson, uning ruhiyat dunyosi yotadi. Insonning kechinmalari esa, asosan, ikki yo'nalishda kechadi:

biri – insonning Oliy haqiqatga, Haqqa, Borliqning mohiyatiga, sodda qilib aytsak, maxluqning Xoliqqa munosabati, nisbati masalasi;

ikkinchisi insonning o'zi singari maxluqlarga, ya'ni o'zga insonlarga, atrof-voqelik, mavjud jamiyatga munosabati.

Birinchi yo'nalish Insonni o'z ko'ngli bilan suhbatga chaqiradi, ruhiyatning ichki teran qatlamlariga yo'nalgan bo'ladi.

Ikkinchi yo'nalishda ijtimoiy munosabatlar tizimida har bir insonning o'rni masalasiga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Keyinchalik Jaloliddin Rumiy (1207–1273) yozgan edi:

*Attor ruh budu Sanoiy du chashmi o',
Mo az payi Sanoiyu Attor omadem¹.*

(Attor ruh edi, Sanoiy uning ikki ko'zi,
Biz Sanoiy va Attor izidan keldik.)

Sanoiy “ikki ko'z”ga qiyos etilmoqda. Ko'z tashqaridagi narsalarni ko'radi, ichkaridan tashqariga yo'nalgan bo'ladi. Attor esa “ruh” – uning nazmdan maqsadi “*asrori ilohiy adosi*” (“ilohiy sirlarni bayon etish”) – *inson ruhiyatidagi ilohiy asror pardalarini birma-bir ochib ko'rsatish*. “*Masnaviyi ma'naviy*” dek buyuk irfoniy qomusni yaratgan Jaloliddin Rumiy ham ayni shu yo'ldan bordi. *Tasavvuf she'riyatining mohiyati* aslida shu.

Fors tilida ijod etgan buyuk ozarboyjon shoiri va mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy esa faqat *inson ruhiyatining ichki qatlamlariga teran nazar tashlash bilan cheklanib qolmay* o'z dostonlarida shaxsning *Haq va jamiyat oldidagi mas'uliyati masalasiga ham alohida e'tibor qaratishni lozim topdi*, ya'ni, uning asarlarida *irfoniy va ijtimoiy muam-molar oliy bir uyg'unlikda ifodalandi*. Ayni shu uyg'unlik ifodasiga keyinchalik Alisher Navoiy tomonidan “*Majoz tariqi*” deb nom

¹ Бертельс Е.Э. Избранные труды. Низами и Фуззули. М., «Наука», 1962, с.174.

berilgan edi. Ammo XII asrda hanuz “Haqiqat” va “majoz” tazodi kun tartibiga ro‘yirost qo‘yilgan emas, Nizomiy asarlarida “majoz” atamasi umuman iste‘molga ham kirgan emas edi. Navoiy bu yo‘nalishda *mumtoz natijalarga erishgan zot* asarlarini o‘z ijodiy yo‘lini belgilashda *porloq bir namuna* sifatida tanlagan bo‘lsa-da, nazariy tadqiqotlarida Nizomiy nomini biror guruhga mansub etib tilga olmaydi.

XI asrda tasavvuf she‘riyati kichik lirik janrlar (ruboiy, g‘azal) bilan cheklangan bo‘lsa, XII asrdan boshlab tasavvufiy ruhda dostonlar yaratildi. XII–XIII asrlar mobaynida islom mintaqa madaniyati doirasida irfoniy she‘riyat va tasavvuf falsafasi yuksak cho‘qqilarga ko‘tarildi. Fors tilida Farididdin Attor (1147–1229) va Jaloliddin Rumi (1207–1273)larning tasavvufiy ehtirosiga yo‘g‘rilgan buyuk epik asarlari, arab tilida irfoniy ishqning otashin kuychisi Ibn al-Farid (1181–1234) she‘riyati va Ibn al-Arabiy (1165–1240) yaratgan timsoliy tafakkurning mumtoz namunasi “Futuhoti Makkiya” asari ushbu davr mintaqa ma‘naviyatining noyob namunalaridir.

Irfon – o‘zlikni anglashdir. Men kimman? Yagona Allohga mening nisbatim qanday? Tasavvuf shu savolga javob qidiradi. Uning javobi qisqa va sodda qilib ifodalanganda, quyidagichadir: *Haq – yagona va mutlaq borliq, Ahad (yakkalik, birlik). Haq o‘z jamolini ko‘rmoq istaydi va o‘ziga ko‘zgu sifatida foniy dunyoni* (ya‘ni, biz ko‘rib turgan *moddiy borliqni*) *bunyod etadi*. So‘fiylar Haqning asl zotini *Haqiqat* va uning mazhari, qiyosan aytganda, ko‘zgudagi aksini “*majoz*” (“inoskazanie”, metafora), deb ataydilar. “*Haqiqat*” va “*majoz*” tazodi shundan boshlanadi.

Tasavvuf mashoyixlari “*Haqiqat*” va “*majoz*” tazodiga turli davrda turlicha yondoshib keldilar. Agar XIII asr boshlari va o‘rtalarida Farididdin Attor va Jaloliddin Rumiylar insonlarni “*majoz*”, ya‘ni tashqi moddiy dunyo hoy-u havaslariga berilib ketishdan qaytarib, Borliqning asl (azaliy va abadiy) Haqiqati sari intilishga, Mohiyatga e‘tibor berishga chaqirgan bo‘lsalar, majozga (suratga) berilish, Haqiqatdan (ma‘nodan) chalg‘itadi deb hisoblagan bo‘lsalar, XIII asr oxirlariga kelib Faxriddin Iroqiy (1207–1289), Avhadiddin Kirmoniy (vafoti 1298-yil) kabi so‘fiylar ijodida muammoning idroki teranlashdi. Ibn al-Arabiy g‘oyalari ta‘sirida “Lama‘ot” asarini yozgan Iroqiy “majoz” va “haqiqat” nisbatini dengiz va tuzga qiyos etadi. Tuz dengiz suvi tarkibida bo‘lgani uchun bu suvning har qatrasida ham tuz ta‘mi bordir.

Shayx Avhadiddin Kirmoniy ushbu nicbatni quyidagicha talqin etadi:

Z-on minigaram ba chashmi sar dar surat,

Zero-ki zi ma'nest asar dar surat.

In olami suratest-u mo dar suvarem,

Ma'ni natvon did magar dar surat'.

(Shu sababdan boshdagi ko'z bilan suratga tikilamanki,

Suratda ma'noning izi bordir.

Bu olam suratdir, biz suratlar ichidamiz,

Ma'noni suratdan tashqarida ko'rish mumkin emas.)

Ya'ni, inson Oliy haqiqatni (Borliqning yagona oliy mohiyatini) bevosita uning mazharidan (moddiy borliqda o'zligini ko'rsatishi, zuhur etishi, namoyon bo'lishidan) tashqarida ko'ra olmaydi, chunki u o'zi ham shu mazhardan tashqarida emasdir ("surat" ichidadir). *Inson ruhida Borliq haqiqati bilan uyg'unlik hosil bo'lishi uchun, birinchi navbatda, o'zga insonlar bilan o'zaro uyg'unlikka intilish, ular dilidan Borliq haqiqatini qidirishi lozim, boshqa yo'l bilan bu maqsadga erishib bo'lmaydi. Mana shayxning xulosasi. Aslida bu xulosa Irfonning niho-yasidir.*

Naqshbandiya tariqati irfoniy tafakkurning oliy cho'qqisi bo'ldi. Bahovuddin Naqshband (1318–1383) yashagan davrni "Majoz tariqi" bosqichiga taalluqli deb hisoblashga yetarli asoslar bor. Chunki bu ulug' irfon muallimidan bizga yodgor qolgan hikmatlar – "xilvat dar anjuman", "dil ba yor-u dast ba kor" – o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra *dunyoviy va uxraviy maqsadlarning uyg'unligiga* erishishga da'vat qiladi va shunisi bilan millat ma'naviyatini tasavvuf tariqatlari bosqichidan "*Majoz tariqi*" bosqichiga olib o'tadi.

Nizomiyning badiiy tafakkur darajasi o'z davridan shu darajada ilgari ketgan ediki, uning asarlarida ifodalangan ma'nolar mohiyatini tushunish uchun XII asrdan ko'ra XIV asrda muvofiqroq fikriy muhit hosil bo'ldi, buning bir tasdig'i Nizomiy Ganjaviy dostonlarining bizgacha yetib kelgan eng qadimgi qo'lyozmalari XIV asr o'rtalariga mansubligidir².

XIII asrda Attor va Rumiylar bilan bir paytda yashab ijod etgan Shayx Muslihiddin Sa'diy Sheroziy (1189–1292) va Kamol

¹ Alisher Navoiy. Asarlar. 15-jild. T., 1968, 166-b.

² Nizomiy Ganjaviy "Xamsa"ning hozir ilmiy iste'molda mavjud to'liq nusxalari 1362–1365-yillarda ko'chirilgan bo'lib, ulardan ko'ra qadimyroq, ayniqsa, XII-XIII asr nusxalari hanuz topilgan emas.

Isfahoniy(vafoti 1237)lar o‘z asarlarida Sanoiy va Anvariylar an‘anasini davom ettirib, “Haq asrori”ni “majoz tariqi”ga, ya’ni inson hayoti-ning dunyoviy muammolariga “maxlut qilib” (aralastirib) bayon etdilar, Sa’diyning “Bo‘ston” va “Guliston” asarlari “Hadiqa” yo‘nalishda, o‘sha erkin uslubda yaratildi, ammo ular ham o‘z yo‘nalishlarining “haqiqat tariqi”dan farqini alohida ta’kidlagan emaslar.

Faqat XIII asr oxiri – XIV asr boshlarida Amir Xusrav Dehlaviy (1253–1325) Nizomiy dostonlariga birinchi bo‘lib javob yozish bilan ongli ravishda “majoz tariqi” yo‘nalishini tanlaganini namoyish qildi. Amir Xusrav “Xamsa” si shu darajada shuhrat qozondiki, islom mintaqa she‘riyatida “majoziy ishq”ni kuylash va “Xamsa” dostonlariga tatabbu bag‘ishlash keng ko‘lamli an‘anaga aylandi. XIV–XV asrlar mintaqa ma‘naviyati “Xamsa” an‘anasi ta’sirida rivoj oldi, shoirning salohiyati va iqtidori hech bo‘lmaganda “Xamsa”ning bir dostoniga munosib javob yoza bilish bilan o‘lchanadigan bo‘ldi¹. Bu jahon ma‘naviyati tarixida betakror hodisa edi. Navoiy eslagan Xojuyi Kirmoniy (1281–1352), Salmon Sovajiy (1300–1376) va Kotibiy (vafoti 1436)lar ushbu dostonchilik an‘anasiga mansub shoirlardir. Shunday qilib, XIV–XV asrlar mintaqa she‘riyatida “*majoz tariqi*” yetakchi mavqega ko‘tarilganligini qayd etish mumkin.

Bu davrda nafaqat dostonchilik, balki g‘azalnavislikda ham “Haq asrori”ni “majoz tariqi”ga “maxlut qilib” bayon etish keng urf bo‘ldi. Alisher Navoiy bu yo‘nalishdagi ijodkorlardan “Lison-ul-g‘ayb” laqabi bilan dunyoga dong‘i taralgan Xo‘ja Hofiz Sheroziy (1320–1389), mumtoz g‘azal va qasidalar ustasi Nosir Buxoriy (vafoti 1371) va Kamol Xo‘jandiy(1318–1401), sarbadorlar shoiri Shohiy Sabzavoriy (1385–1453)larni eslab o‘tadi.

Navoiyning “Holoti Pahlavon Muhammad” risolasida atoqli turkigo‘y shoirlardan XIV asrda yashagan Nasimiy “haqiqat tariqi”ning va XV asrda ijod etgan Mavlono Lutfiy “majoz tariqi” ning namoyandalari sifatida tilga olinadi.

Shunday qilib, XII–XV asrlar islom mintaqa adabiyotida mustaqil *adabiy yo‘nalishlar va badiiy ijod tariqlarining shakllanishini*, shartli ravishda, uch bosqichga ajratish mumkin. Birinchi bosqich XII asr

¹ G. Aliyevning “Темы и сюжеты Низами в литературе народов Востока» (М. 1985) kitobida XIV–XV asrlarda yashab, forsiy va turkiy tillarda Nizomiy va Dehlaviy dostonlari- ga tatabbu bag‘ishlagan 50ga yaqin shoir haqida ma‘lumot berilgan.

oxirlarigacha davom etib (Sanoiy, Anvari, Xoqoniy, Nizomiy), unda she'riyat mavzularining jiddiylashuvi, insonning Borliq haqiqatiga munosabati mumtoz adabiyotning yetakchi tamoyiliga aylana boshlagani kuzatiladi, ammo hanuz "haqiqat" va "majoz" tazodi shoirlar diqqatini jalb etgan emas. Ikkinchi bosqich XIII asrni o'z ichiga oladi. Bu asrda "*haqiqat tariqi*" buyuk tasavvuf shoirlari Fariddin Attor va Jaloliddin Rumiy ijodlari misolida adabiy yo'nalish va badiiy ijod tariqi sifatida eng yuksak takomil darajasiga ko'tarildi. Uchinchi bosqich XIII asr oxiri – XVI asr boshlarini qamrab olgan bo'lib, bu ikki asrdan ko'proq muddat davomida "*majoz tariqi*"ning mintaqa bo'ylab ham adabiy yo'nalish, ham badiiy ijod tariqi sifatida ongli ravishda mukammal shakllanishi va keng miqyosda taraqqiy etishi kuzatiladi.

b) Islom mintaqa madaniyatida ishq mavzusi

Adabiyotning asosiy mavzusi *insonning ruhiy kechinmalari* bo'lsa, bular ichida eng go'zali, eng yuksak darajasi, eng ta'sirchani ishq-muhabbatga oid kechinmalar bo'lib, shu sababli *ishq mavzusi* butun zamon va makonlar adabiyotida yetakchi mavzu sifatida ko'zga tashlanadi.

Navoiy she'r ishq haqida bo'lmasa, bekorchi so'z deb hisoblaydi: «So'z kim dard choshnisidin harorati bo'lmag'ay va nazmkim, ishq haroratidin hirqati bo'lmag'ay, nursiz sham' bil va sarvarsiz jam' gumon qil. Hosilikim, so'zga bu taronadur va mundin o'zga barcha afsonadur va *so'z ishq so'zidur va ko'ngulda hayot nash'asi ishq o'zidur*». Ya'ni, shoir nazarida inson hayotining mazmuni va zavqi ishqdan tashqari emas.

Ibn Sinoning "*Ishq haqida risola*" (*Risola fil-ishq*) asarida "Poklik birodarlari" ("Ihvon us-safo") va Forobiyning bu mavzudagi falsafiy mushohadalarini ijodiy rivojlantirib, *ishqni ruhiy hodisa mazmuni* sifatida tadqiq etadi. Ibn Sino ishqni (bir narsaga moyillik ma'nosida) barcha tabiat unsurlariga xos deb biladi va inson ishqidagi *hayvoniy va ruhoniyl jihatlarini* ajratib ko'rsatadi¹. Olim fikriga ko'ra ulardan qaysi biri g'olib kelishiga qarab inson ishqni hayvoniy hirsdan *ilohiy ishq* sari ulug'lashib boradi. *Alloh ma'rifatiga intilish ishqning eng oliy darajasidir*, deb hisoblaydi Ibn Sino.

¹ Серебряков С. Б. Трактат Ибн Сины (Авиценны) о любви. Тбилиси, 1976, с. 47–68.

G'azzoliyning "Diniy ilmlarning tiklanishi" ("Ihyoi ulum-ad-din") kitobi to'rtinchi qismi "*Najotga eltuvchilar*" ("Munjiyot") atalib, uning tarkibidagi "Ishq haqida kitob"da bu insoniy tuyg'u kimga yo'naltirilganiga ko'ra besh turga ajratiladi:

1. Insonning o'z-o'ziga muhabbati.
2. Uning o'z homiylari, unga mehr-shafqat ko'rsatuvchilarga muhabbati.
3. Uning umuman insonlarga yaxshilik qiluvchilarga muhabbati.
4. Insonning barcha ichki va tashqi go'zallik egalariga muhabbati.
5. Mohiyat jihatdan o'ziga o'xshagan zotga muhabbati¹.

Ushbu *barcha muhabbat turlari* G'azzoliyning keyingi mantiqiy tahlili natijasida insonning butun borliq va mavjudotlarning yaratuvchisi va xojasi Allohga bo'lgan muhabbatida yagona oliy tuyg'uga birlashadi.

Tasavvuf ta'limotida ushbu qarashlar umumlashtirilib, oxir-natijada "ishqi haqiqiy" va "ishqi majoziy" tushunchalari shakllandi. Ularning birinchisi Allohga muhabbat, ya'ni "ishqi ilohiy" ma'nosida bo'lib, Haq vasliga intilish, faqat uning xayoli bilan yashashni bildirsa, ikkinchisi – insonlarning bir-biriga, foni dunyo ashvolariga bo'lgan ishqi sifatida talqin etildi va ko'p hollarda biri ikkinchisiga zid qo'yildi. Masalan, buyuk tasavvuf shoiri Farididdin Attor eng mashhur asari "Mantiq ut-tayr"da qushlarni Simurg' sari da'vat etuvchi Hudhud tili-dan shunday xitob qiladi:

... *Ey, giriftori majoz,*
Az sifat dur-u ba surat monda boz².
(...Ey, majoz tuzog'iga ilingan,
(ichki) sifatdan uzoqlashib,
(tashqi) suratga mahliyo bo'lib qolgan.)

Navoiy yigitlik chog'laridan Jomiyni o'ziga pir tutgan, undan tasavvuf irfoni bo'yicha maxsus ta'lim olgan. "Mahbub ul-qulub"da shoir ustozini "*haqiqat va majoz tariqida komil va ilmi har ikkalasi tariqida vofiy va shomil*", deb ulug'laydi. Darhaqiqat, Jomiy nafaqat irfoniy tuyg'ular ifodasida, balki majoziy ishq tasvirida ham nihoyatda yuksak mahorat ko'rsata olgan. Ammo Yusuf va Zulayho, Layli va Majnun, Solomon va Ibsollarning otashin muhabbatini ehtiros bilan gavdalantirib

¹ Абу Хамид ал-Газали. Воскресение наук о вере. М., «Наука», 1980, 238-б.

² Sittayi Farididdin Attor (O'zFA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar xazinasi, inventar №813), 17a-varaq.

bergach, asar oxirida baribir *barcha majoziy timsollarning irfoniy sharhini berishni unutmaydi. Ya'ni Attor kabi Jomiy uchun ham "majoziy ishq" ramzdir, allegoriyadir.*

Lekin "majoz tariqi" namoyandalari Nizomiy, Dehlaviy, Sa'diy, Hofizlar uchun majoziy ishq (ya'ni foniy olam mavjudotlarining bir-biriga muhabbati) mustaqil qiymatga ega. Amir Xusrav "Shirin va Xusrav" dostoni kirish boblarida yozadi:

*Fidoi ishq shav, gar xud majozist,
Ki davlatro dar-u po'shida rozist,
Haqiqat dar majoz inak padid ast,
Ki fathi on xazina z-in kalidast.¹
(O'zingni ishqqa baxsh et, agar u majoziy bo'lsa ham,
Chunki unda saodat sirlari yashirindir.
Haqiqat majozda shunday o'zini namoyon etadiki,
Ul xazinani qo'lga kiritmoq imkoni ushbu kalit orqali bo'ladi.)*

Shoir "majoziy ishq"ga ta'rif berish bilan cheklanib qolmay, o'z davridagi ba'zi "ishqi haqiqiy"dan lof uruvchilarga dashnom berishni ham lozim topadi:

*Tu k-az "ishqi haqiqiy" lofiy, ey do'st,
Xaroshi so'zane benmoy dar pust,
Tu k-az bongi sage az din shavi fard,
Nadori sharm az-in imoni bedard.²
(Ey, sen "ishqi haqiqiy" dan lof uruvchi do'st,
Badaningga bir igna qadalishini tasavvur qilib ko'r.
Nogahon it "vov" desa cho'chib dindan chiqib ketasan-u,
Yana bunday "dardsiz imon"ingni ko'z-ko'z qilgani uyalmaysanmi?)*

Amir Xusrav "Xamsa"dan keyin yozilgan tarixiy ishqiy dostoni "Duvallroniy va Xizraxon" qahramonlarining muhabbati ham majoziy ekanligini alohida ta'kidlab ko'rsatadi:

*Chu ishq andar majozash jilvagoh dod
Majozash bar puli tahqiq rah dod³.
(Ishq o'z majozida namoyon bo'lgani sababli,
Bu majoz Haqiqatni anglab yetish uchun ko'prik bo'ldi.)*

¹ Amir Xusrav Dikhlati. Shirin va Xusrav. M., «Наука», 1979, 40-b.

² O'sha kitob, 40-b.

³ Amir Xusrav Dikhlati. Duvallroniy va Xizraxon. Душанбе, «Дониш», 1975, 224-b.

Ko‘rinib turibdiki, bunday yondoshuv Payg‘ambarimiz(s.a.v.)ning “al-majoz-u qantarat ul-haqiqat” (majoz haqiqatning ko‘prigidir) degan mashhur hadislariga tamomila muvofiq kelmoqda. Alisher Navoiy “Xazoyin ul-maoniy”ning oxirgi devoni “Favoyid ul-kibar”da ushbu yondoshuvni to‘liq quvvatlab maxsus qit‘a bitadi:

*Ko‘rmasa husni majozi ichra juz Haq sun‘ini,
Oshiqekim bo‘lsa ishq atvori ichra pokboz.
Zohido, bu ishqdin man’ aylama oshiqnikim,
Gar sen idrok aylasang, ayni Haqiqatdir majoz’.*

Ammo “majoziy ishq”ni insonlarning bir-biriga muhabbati deb tushunilsa, voqelikka bu masalani tatbiq etganda bir murakkablik vujudga kelardi. Ya‘ni insoniy muhabbat hayotda doimo beg‘araz bo‘lavermasligi ma‘lum bo‘lib, bu endi oshiqning ma‘naviy saviyasi bilan bog‘liq edi. Alisher Navoiy ijodiy yo‘lining nazariy xulosasi bo‘lmish “Mahbub ul-qulub” risolasining ikkinchi qismidagi “Ishq zikrida” atalmish 10-bobida ushbu muammoni mukammal hal qilib berdi. Unda adib ishqni uch qismga ajratadi va ularga shunday ta‘riflar beradi:

“Avvalg‘i qism avom ishqidurki, avomunnos orasida bu mashhur va shoyedurkim, derlar: “Falon falong‘a oshiq bo‘lubtur”. Va bu nav‘ kishi har nav‘ kishig‘a bo‘lsa bo‘lur, shag‘ab va iztiroblaricha lazzati jismoniy va shahvati nafsoniy emas va bu qismning biyikrak martabasi shar‘iy nikohdurkim, bari xaloyiqqa sunnatdur va muboh. Va pastroq martabasida parishonliq va mushavvashliqlar va besomonliq va noxushliqlareki zikri tarki adabdur va bayoni behijobliqqa sabab”².

(Qisqartirilgan nasriy bayoni: “Birinch qism oddiy odamlar (avom) ishq bo‘lib, xalq orasida mashhur va keng tarqalgandir... Bu ishq jismoniy lazzat va shahvoniy nafs bilan chegaralanadiki, oliy martabasi – shar‘iy nikohdir... Quyiroq martabasida janjal, tashvishlar, ko‘ngilsizlik va sharmandaliklar ko‘rinadiki, bu haqda so‘zlash – odob-sizlik, bayon etish hayosizlikdir”)³.

“Ikkinchi qism xavos ishqidurkim, xavos ul ishqqa mansubdurlar. Ul pok ko‘zni pok nazar bila pok yuzga solmoqdur va pok ko‘ngil ul pok yuz oshubidin qo‘zg‘almoq va bu pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz mahbubi haqiqiy jamolidin bahra olmoq”⁴. («Ikkinchi qism –

¹ Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 6-j., T., 1990, 512–513-b.

² Alisher Navoiy. Asarlar. 13-jild. T., 1966, 42-b.

³ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub.T., 1983, 51-52-b.

⁴ Alisher Navoiy. Asarlar 13-j., 42-b.

alohida fazilat egalariga xos ishq bo‘lib, bu xos ishqqa mansub shaxslar pok ko‘zni pok niyat bilan pok yuzga soladilar va pok ko‘ngil u pok yuzning shavq-zavqi bilan beqaror bo‘ladi. Va bu pok yuz vositasi bilan pok oshiq haqiqiy mahbubning jamolidan bahra oladi”¹.

«Uchinchi qism *siddiqlar ishqidurkim*, Oliy haqiqatning tajallisi (nurlanishi) jamolig‘a uning (moddiy olam mavjudotlari qiyofasidagi) ko‘rinishidan tashqari, bevosita maftun bo‘lganlar va o‘zlarini shu yo‘lga taslim etganlar va ushbu (oliy haqiqat jamolini bevosita) ko‘rishga intilish behushligida idrok qilish qobiliyati ulardan begona bo‘lgan. Ularni (Oliy haqiqatni bevosita) ko‘rish (istagi) butkul g‘arq etgan va ular g‘arq bo‘lishdan o‘tib, halok bo‘lish darajasiga yetganlar»...² «Agar hodisalar bo‘roni osmon gulshanining bir qabatini uchirib ketsa – ular bexabar va agar yulduzlar gulbargini har tomonga sovrursa, bularga ta’sir qilmaydi. Ularning hislari Haq jamolini ko‘rish tashvishi bilan ishdan chiqqan, shavq-zavqlari esa, unga bo‘lgan ishq hujumlari ostida yo‘qolib bitgan...»³

«*Mahbub ul-qulub*» – ijtimoiy-tarbiyaviy asar. Unda muallif o‘z qarashlarini ham izchil mantiqiy bayon orqali, ham jummalardagi ta’sirchanlik, badiiy tasvir vositalarining maxsus tanlanishi orqali izhor qilishgan. Shu jihatdan shoirning uchinchi qismdagi oshiqlar («siddiqlar»), ya’ni tasavvuf ahliga munosabatida ular e’tiqodiga ehtirom tuyg‘ulari bilan bir paytda ularning moddiy dunyo, real insonlar tashvishidan uzoqlashib ketganliklari, «xalq g‘amidin g‘ami» yo‘qligiga muayyan ishoralar ham mavjud.

Xalqimiz aytadiki, bir ish qilsang “xolisanlilloh” qilgin, ya’ni xolis Alloh taolo yo‘lida qilingan har bir ish xayrlidir, agar unga xudbinlik, g‘araz aralasha, yaxshiday ko‘ringan ish ham yomonlikka olib kelishi mumkin. Navoiy nazdida “*xavos ishq*” insonning insonga bo‘lgan ayni shunday Haq yo‘lidagi *har qanday g‘arazdan xoli, pok mehridir*. Ana shunday ishq namoyandalarini shoir “*ishq ahlining pokbozlari*”, deb ataydi. Ular qatorida Amir Xusrav Dehlaviy, Shayx Iroqiy va Xoja Hofiz Sheroziylarni sanab ko‘rsatadiki, bulardan ikki ustoz shoir

¹ Alisher Navoiy. *Mahbub ul-qulub*. 52-b

² Alisher Navoiy. *Mukammal asarlar to‘plami*. 14-j., T., 1998, 70-b.

³ Alisher Navoiy. *Mahbub ul-qulub*. 1983, 54-b. (Ushbu uchinchi ishq ta’rifi qaramlik davrida ommaviy nashrlarda tushirib qoldirilardi va faqat arab yozuvida bosilgan yig‘ma nusxadagina mavjud edi. Biz uni tushumarli bo‘lishi uchun faqat nasriy bayonda ifoda etdik – muallif.)

va mutafakkirni adib “haqiqat asroriga majoz tariqin maxlut qilgan”lar qatorida eslab o‘tgan edi. Shayx Faxriddin Iroqiyning qarashlari ham ularning yondoshuvi bilan mushtarakdir.

Navoiy pok insoniy ishqni oshiq uchun o‘zlikni anglash yo‘li, “Haqiqat asrori” ganjinasining kaliti deb biladi. Shoir “Layli va Majnun” xotimasida yozadi:

*Ey ishq, g‘arib kimiyo sen,
Bal oyinai jahonnamo sen.
Ham zotingga darj kimiyoliq,
Ham oyinai jahonnamoliq...
Xurshedi jahonkushoy sensen,
Mir‘oti jahonnamoy sensen,
Kim qildi senga nazarni ravshan,
Ko‘rdi yer-u ko‘kdagin muayyan.
Chun boqqali ixtiyor topti,
Har soriki boqti yor topti’l.*

Ko‘rinib turibdiki, shoir muhabbatga g‘aroyib kimyo, ya’ni misni oltina aylantira oluvchi sehri kuch, insonga Borliq sirlarini oshkor qiluvchi ko‘zgu, deb ta’rif bermoqda. Alisher Navoiy, salaflar izidan borib, «ishq» tushunchasiga, birinchi navbatda, ijtimoiy-axloqiy munosabatlar nuqtayi nazaridan qaraydi, shu asosda «majoziy ishq»ni voqe hayotdagi insonlararo muomalada birinchi o‘ringa chiqaradi, o‘zak mohiyatga aylantiradi. Inson ma’naviy kamoloti darajasini ushbu mahak toshiga urib o‘lchaydi.

“Farhod va Shirin” dostonida qadim Yunon falsafasining timsoli bo‘lmish Suqrot Farhodning kelajak taqdiridan bashorat etar ekan, unga nasihat qilib, bu dunyoning o‘tkinchiligi, inson hayotidan asl maqsad «ishqi haqiqiy», ya’ni Haq vasliga intilish ekanligi, buning uchun inson, avvalo, o‘zligidan, ya’ni xudbin nafsining hoy-u havaslaridan kechmog‘i lozimligini ta’kid etib, aytadi:

*Bu o‘zluqdin qutulmoq chorasoz,
Nima yo‘q, o‘ylakim ishqi majoziy...
Majoziy ishq bo‘ldi subhi anvar,
Haqiqiy ishq anga xurshedi xovar...
Sening olingdadir ishqi majoziy,
Ki jisming o‘rtabon so‘z-u gudozi –*

‡ Alisher Navoiy. Xamsa. T., 1960, 447-b.

*Ham ovozangni ofoq ichra solg'ay,
Ham ovozing ko'xan toq ichra solg'ay!*

Demak, “*majoz tariqi*” namoyandalari nuqtayi nazariga ko'ra, pok oshiq uchun Borliq sirlarini namoyon etuvchi qudrat – *ishq* ekan.

“*Majoz tariqi*” nima? (*Xulosa*)

Alisher Navoiy dastlab o'zi ham «majoziy ishq» deb ishlatib kelgan hodisani “Mahbub ul-qulub” asarida mohiyatan alohida ikki turga farqlab, birini “avom ishq” va ikkinchisini “xavos ishq” deb nomladi. Shu bilan Farhod va Shirin, Layli va Majnun kabi boshdan-oyoq pok tuyg'ularga yo'g'rilgan «*alohida fazilat egalariga xos ishq*»ning ko'pchilik yigit-qizlar orasidagi oddiy “oshiq-ma'shuq”likdan ham, tasavvuf ahli “ishqi haqiqiy” deb atagan irfoniy itilishlaridan ham butunlay farq qiluvchi mumtoz bir tuyg'u, alohida holat ekanligini maxsus ta'kid etishga erishdi. Suqrot tilidan «haqiqiy ishq» yo'lida bir vosita sifatida ta'rif etilgan «majoziy ishq» oxir-natijada Navoiy badiiyat olamida mustaqil hodisa sifatida o'zligini namoyon etdi. Bu hodisaning mohiyati shunda ediki, unda insonning Oliy haqiqatga, Haqqa, Borliqning mohiyatiga munosabati uning o'zga insonlarga, atrof-voqelik, mavjud jamiyatga munosabati bilan uyg'unlik hosil qilardi. Badiiy ijod mazmunidagi mana shu teranlikka erishish yo'li *majoz tariqi* deb nom oldi. Milliy ma'naviyatimiz takomilidagi ushbu eng yuksak bosqichni alohida inson ma'naviy kamoloti jarayoniga tatbiq etsak, uni biz bugungi tilda *mehr ma'rifati* deb ataganimiz ma'qul.

Majoz tariqi bosqichi islom mintaqa ma'naviyati takomilining eng oliy pog'onasi bo'lib, Tavhid ta'limotining eng mukammal talqini deb, qarash mumkin. “Haqiqat asrori”, ya'ni Tavhid mazmunini “majoz”, ya'ni ushbu zohir bo'lib turgan olamdan qidirish, Haq asrorini anglab yetish uchun xolis niyat, pok ko'ngil bilan “majoz”ni, “foniy”, o'tkinchi dunyo, “surat” ni tadqiq etish, tushunib yetish orqali Haqiqatni, “ma'noni” anglashga urinish, birinchi navbatda, inson qalbiga quloq tutish, samimiy va beg'araz mehr bilan o'zgalar qalbiga yo'l topish, Insonlarni, tabiatni tushunish orqali Haq asrorini, Tavhid mohiyatini idrok etish – “Majoz tariqi”ning buyuk ajdodlarimiz Xusrav Dehlaviy va Bahouddin Naqshband, Hofiz Shero-

¹ O'sha asar 219-b

ziy va Lutfiylardan meros bo'lib, Alisher Navoiy ijodida o'zining eng mukammal ifodasini topgan o'ziga xos dunyoqarash, tafakkur tarzining mohiyati, asl o'zagidir. Bu bosqich yagona islom mintaqa ma'naviyati takomilining qonuniy yakuni bo'lib, turkiy tilda, o'zbek mumtoz adabiyotining bobokoloni ijodida avj nuqtaga erishdi. Bu dunyoqarashni butun ichki murakkabligi, ko'lami va teranligi bilan o'sha davr sharoitida faqat badiiy adabiyotda, badiiy timsollar tili bilangina ifodalash mumkin edi. Zero, "majoz" tushunchasi o'zi badiiy adabiyot tilining asosiy xususiyatiga oiddir.

19. ALISHER NAVOIYNING BADIYYAT OLAMI

Alisher Navoiy o'z ijodida Nizomiy va Amir Xusrav, Attor va Faxriddin Iroqiy yaratgan badiiy va irfoniy olamlar yog'dusidan bahramand bo'ldi. Sa'diy, Hofiz, Anvari, Xoqoniy kabi o'nlab fors mumtoz adabiyoti vakillarining g'azal va qasidalari tatabbu javoblar yozdi. Va o'z mustaqil badiiy olamini yaratdi. Bu olam turkiy she'riyat olamiga taalluqli edi. Turkiy adabiyot vakillari esa azaldan ijtimoiy-axloqiy muammolarga alohida e'tibor berib keladilar. Yo'llig' Tigin, To'nyuquq (VII–VIII asrlar), Adib Ahmad (VIII–IX asrlar), Yusuf Xos Hojib (XI asr), Ahmad Yassaviy va Sulaymon Boqirg'oniy (XII asr), Qul Ali (XII–XIII asrlar), Yunus Emro (XIII asr), Rabg'uziy (XIV asr) kabi buyuk siymolarni yetishtirgan turkiy tildagi adabiyot XIV asrdan boshlab yanada gurrakib rivojlandi. Bu tilda mintaqa bo'ylab turli adabiy maktablar shakllana boshladi. Xorazm (Xorazmiy "Muhabbatnoma"si, Qutbning "Xusrav va Shirin"i, Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy"si), Ozarboyjon (Nasimiy), Sheroz (Hofiz Xorazmiy), Samarqand (Sakokiy), Hirot (Sayyid Qosimiy, Haydar Xorazmiy, Atoyi, Gadoyi, Yusuf Amiriy, Yaqiniy, Lutfiy) adabiy maktablarida ijod etgan o'nlab zabardast g'azalnavis va dostonnavis shoirlar o'zlaridan salmoqli badiiy meros qoldirishdi. Ularning aksariyati Navoiy ta'riflagan "majoz tariqiga" mansub ijodkorlar edi.

Alisher Navoiy ham ustozlar izidan borib, *haqiqat asrorini* (sirlarini) "majoz"dan izladi. Navoiy g'azallari, tarjibandlari, qit'alari, "Xamsa" dostonlari va, ayniqsa, "Lison ut-tayr" asarida "majoziy ishqni" Haqiqatga yetishishning asosiy yo'li deb talqin etgan. Ishaqni ijtimoiy munosabatlar asosida ko'rishni orzu qilgan shoir odamiylikni o'zgalari g'amini o'zinikidek bilishda deb tushunadi:

*Odame ersang demagil odame -
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami'.*

Shoir insonlarni “*nafrason*”, ya’ni o’zgalarga, xalqqa foydasi tegadigan shaxs bo’lishga da’vat etadi, insonning bu dunyoda yashashdan asl maqsadi o’zga insonlarga, el-yurtga foydasi, nafi tegishda deb biladi.

Navoiyning bosh qahramoni – oshiq inson. Ammo bu qanday oshiqlik?

Shoir badiiy kamolotining *birinchi bosqichi* 1470-yillardan keyin uning o’z qo’li bilan tartib bergan birinchi devoni “Badoyi ul-bidoya”da o’z aksini topgan. Shu majmuadan ikki asarni: 1) devonni boshlab beruvchi “*Ashraquat*” g’azali va 2) devon tarkibidagi “*Ketur soqiy, ul mayki, subhi alast...*” deb boshlanuvchi tarjibandni o’zaro qiyosiy tahlil qilib ko’rilsa, ularda ishlatilgan bosh timsollar – “*may*”, “*jom*” va “*sing’on safol*” majozlari orqali bu davr shoir ijodining asos tamoyili yorqin namoyon bo’ladi.

Asl maqsad izhoriga o’tishdan avval shuni qayd etib o’tish lozimki, Alisher Navoiy ishlatgan har bir so’z, har bir badiiy timsol shoir xayolotining oddiygina mahsuli emas. Ularnig har birida ilohiy kitob – Qur’oni karim oyatlariga ishoralar, irfoniy ramzlar yashiringan va ularni chuqur anglamay, asl manbani kashf etmay turib, Navoiy satrlarining mazmun-mohiyatiga kirib borish qiyin. Masalan, “*Ashraquat*” g’azalining oxirgi bayti maqtasida arabcha “*Ishrabu yo ayyuhal-ats-hon*” (“*Ichinglar, ey tashnalar*”) iborasi ishlatilgan. Ushbu iborada Qur’oni karim “*Baqara*” surasining 60-oyati mazmuniga ishora bor². Yana ushbu she’rda uchraydigan “*sing’on safol*” timsoli Qur’oni karimning “*ar-Rahmon*” surasi 14-oyatida Allohning yaratuvchilik qudrati ifoda etilgan “*Xalaqa-l-insana min salsolin ka-l-faxxor*” (U insonni sopol yanglig’ quruq loydan yaratdi)³ jumlasiga tayanib shakllantirilgan, deyish mumkin. Tarjibandning ilk satridagi “*subhi alast*” iborasi esa “*A’rof*” surasining 172-oyatida aytilgan “*Alastu bi-Robbikum? Qolu: Balo...*”⁴ jummalari asosida paydo bo’lgan. Oyatning to’liq mazmuni Abdulaziz Mansur tafsirida shunday berilgan: “*Robbimiz odam o’g’illarining bel-*

¹ “*Hayrat ul-abror*”, 13-maqolat.

² Qur’oni karim ma’nolarining tarjimasi. (Tarjima va izohlar muallifi *Abdulaziz Mansur*). T., 2001, 9-b.

³ O’sha kitob, 531-b.

⁴ O’sha kitob, 173-b.

lari (pushti kamarlari)dan zurriyotlari (ruhlari)ni olib, ularni o'ziga guvoh qilib turib, "Men Robbingiz emasmanmi?" (dedi). (Ular) "Yo'g'e! (Robbimizsan!) Guvohlik berdik", dedilar". Bashariyatning yaratilish tongida bo'lib o'tgan bu muqaddas ahd Islomda "al-Miy-soq" (ahdlashuv) atamasi bilan mashhurdir.

Ketur, soqiy, ul mayki, subhi alast,

Aning nash'asidin ko'ngil erdi mast,—

deb she'rini boshlar ekan, shoir qanday "may"ga ishora qilayotganini "subhi alast" iborasining ma'nosi va manbasidan bexabar odam, albat-ta, to'g'ri tushunib yetishga qodir bo'lmaydi.

Alloh taolo bashariyat otasi Odam jismini safol yanglig' loydan yaratib, unga o'z ruhidan pufladi¹. Shunday qilib, jisman moddiy, ammo ma'naviy kamolot qudratiga ega bo'lgan inson paydo bo'ldi.

Odam va Havvo jannatdan chiqarilgach, ularning zurriyotlari bo'lmish bashariyat ahli butun yer yuziga tarqalib ketdi. Ayni shu holatni Alisher Navoiy o'z tarjibandining birinchi bandida ramziy ravishda "may" to'la ko'zaning sinib, behisob "sing'on safol" bo'laklariga aylanishi sifatida tasvirlaydi. She'rning har bir bandi chuqur majoziy mazmunni o'zida aks ettiruvchi quyidagi bayt bilan yakunlanadi:

Xarobat aro kirdim oshuftahol,

May istarga ilgimda sing'on safol.

"*Xarobot*" timsoli mumtoz adabiyotimizda juda ko'p ma'nolarga ega. U ham vayrona, ham mayxona, ham mug' dayri, ya'ni otashpa-rastlar ibodatxonasi, ham bu foniy dunyo — asli barchasi bir narsa — xarobot. Shoir may istaydi, ammo may to'la ko'za chil-chil bo'lgan, uning qo'lida faqat bir parcha "*sing'on safol*" qolgan.

Ammo haqiqiy oshiq uchun may ko'zasining sinig'i — sopol parcha yuzida saqlangan bir qultum may quyqasi (loyi) ham butun jahonni (balki koinotni) o'zida aks ettira oluvchi vahdat mayi to'la qadah (jom) o'rniga o'taveradi, o'sha vazifani ijro qilaveradi.

Bu nima degani?

Borliq mohiyati vohid va yagona. Ammo inson ushbu yagona mohi-yatni ko'z bilan ko'ra olmaydi, inson faqat uning majozini — ko'zgdagi aksini ko'rishga qodir. Majozda, ya'ni tabiat, voqelik ko'zgdagi tasvir parchalanib ketgan, vahdat (yagonalik) zohiran kasrat (ko'plik)ga ay-langan, shu sababli bu voqeyiy dunyo xarobotdir, vayronadir, butpa-

¹ O'sha kitob, "Hijr" surasi, 28—29-oyatlar, 263-b.

rastlar ibodatxonasidir, uni oshiq mayxona sifatida ko‘radi, har sanamda yagona bir sanamni ko‘rib unga oshiq bo‘ladi.

Inson ko‘ngli vahdat mayi bilan to‘la bo‘lgan ko‘za (sabu)ning singan bir parchasi, unda bir qultum loyqa aralash may mavjud. Vahdat mayiga tashna oshiq shu may quyqasini yaxshilab tinitmog‘i lozim, shundagina u yaxlit ko‘zguning bir parchasi singari Haqiqat nurini o‘zida aks ettira boshlaydi. Oshiq unga boqib mast bo‘ladi, o‘zligini yo‘qotib, abadiyatga daxldor bo‘lish imkonini paydo qiladi. Bunday oshiqlik—mastlik inson ko‘nglidan hirs-u havas zangini, xudbinlik (egoizm) zangini (ranjini, g‘amini) yuvib tashlaydi. G‘ayr (begona) shu xudbinlikdir, shirk shu xudbinlikka dildan joy berishdir, ko‘ngil ko‘zqusini bosgan zang ham ushbu xudbinlikning o‘zidir.

Bu timsol va tasvirlar naqshbandiya irfoni doirasidan turib ilgari intilayotgan oshiq shoir qalbida tug‘ilib kelayotgan majoz tariqi unsurlaridir. Ular kelgusida yangi poyalarga ko‘tarilish uchun qo‘yilgan ilk qadamlardir. 15 yoshida kekxa Lutfiyni hayratga solgan ilohiy iste‘dod shu tariqa yangi ufqlarga ko‘z tikmoqda edi.

Buyuk bobokalonimiz o‘zi tuzgan birinchi devoni “Badoyi ul-bidoya” bilanoq turkiy tildagi she‘riyatni arab va fors mumtoz adabiyotining eng peshqadam namunalari darajasiga olib chiqdi. Ammo bunday qaraganda, bu ishlar barchasi “Xamsa”ning debochasi edi, xolos. Nazarimizda, agar turkiy “Xamsa” yozilmasa, nafaqat bizning, ya‘ni turkiy xalqlarning adabiyoti, ma‘naviyati, balki butun islom mintaqa ma‘naviyati bugungi yaxlitligi, bugungi tugalligiga ega bo‘lmas edi. Shunday ekan, Navoiy ijodiy takomili ikkinchi bosqichining tayanch ustuni — shoirning shoh asari “*Xamsa*” desak, yanglishmaymiz. 1483–1485-yillar ichida yozib tugallangan bu ulkan badiiy qomus 50 ming misradan oshiq bo‘lib, Navoiyning barcha she‘riy merosining deyarli yarmini tashkil qiladi.

Islom ma‘naviyati namoyandalari o‘z ijodlarida salaflarini inkor etish, ilgari batamom ko‘rilmagan yangilik yaratishga intilish emas, balki ustozlar yaratgan ma‘naviy boylikni yanada takomillashtirish, unga yangi jilo berish, ular izlagan yaxlit va buyuk Haqiqatning yangi va toza qirralarini kashf etish, mazmuniy boyitish yo‘lidan borganlar. Bu tom ma‘nosi bilan muqaddas an‘ana bo‘lib, islomning ilohiy kitobi “Qur‘oni karim”dan sarchashma oladi. Dehlaviy “Xamsa”si Nizomiya ajoyib sharh va undagi mazmunlarning yangicha talqini sifatida o‘zining ham, salafining ham shuhratini olamga yoydi. Turkiy adabiyotda Qutb va

Haydar Xorazmiylar boshlab bergan “xamsachilik” an’anasi o‘zining kamolini Alisher Navoiy ijodida kutayotgan edi va bu qutlug‘ intizorlik benihoya ezgu samara berdi. *Nizomiy, Amir Xusrav, Alisher Navoiy ruhiyatlari “Xamsa”ning ma’naviyat maydonida birlashib, yagona iqlim, yagona mohiyat kasb etdilar. Ushbu yagona mohiyat butun islom mintaqa ma’naviyatining eng buyuk cho‘qqisidir.*

Shoir o‘zi dostonlarini “zohir yuzidan afsona” degan edi. Afsus, yaqin kunlarga XX asr avlodiga “Xamsa” dostonlari ushbu “afsona” darajasida, yuzaki talqin etilib, tushuntirib kelindi. Bugungi mustaqillik, hurlik zamonida endi ma’naviyatimizning asl mohiyati haqida ochiq-oydin gapirish, fikr yuritish imkoniyati mavjud ekan, muammolar mohiyatiga chuqurroq kirib borish, teran tahlilga o‘zimizni ham, yosh avlodni ham o‘rgatib borish ayni farzdir. *Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonining muqaddima qismida “Xamsa”ning har bir dostoni yozulishini kunning ma’lum vaqtlarida o‘qiladigan sahar (fajr), peshin (zuhr), asr, shom va xufton namozlari bilan qiyos etadi.* Bu bejiz emas. “Xamsa” dostonlari ijtimoiy hayotni, turli toifalarning hayotdagi o‘rni va vazifalarini ularning butun ichki dunyosi va ruhiyati bilan bog‘liq holda tadqiq etgan holda, undagi barcha botiniy rishtalar yana borib Tavhid c‘tiqodiga ulanadi.

“Xamsa” alohida bir olam. Undagi nafaqat har bir doston, balki har bir bob behudud boy mazmun va mohiyatlarni o‘z ichiga yashirgan ajib tilsimdir. Aytishlaricha, me’roj tunida Muhammad alayhissalom arshi a‘lo ostida qulflog‘lik bir xona ko‘rib Jabroildan: “Bu qanday makon?” deb so‘rabdilar. Javob bo‘libdiki: “Ey, Rasululloh, bu makon teran ma’nolar xazinasidir va sening ummatlaring ichidagi shoirlar tili ushbu xazinaning kaliti turur”. Ushbu rivoyatdan kelib chiqib, Nizomiy o‘zining birinchi dostonini “Maxzan ul-asror”, ya’ni (ilohiy) sirlar xazinasini, deb atagan edi. Ustozlari singari Navoiy ham ilk dostoni “Hayrat ul-abror”ni ilohiy kalom ibtidosi “*Bismillohir rahmonir rahim*” bilan boshlaydi va ushbu satrni sharhlash uchun alohida bir bob bag‘ishlaydi. Komil inson tarbiyasi ushbu bobdan – undagi ajoyib ibratli tazod – “ahli qabul” va “ahli rad” tushunchalarining qiyosiy izohlaridan boshlanadi.

XV asr ijtimoiy-ma’naviy hayotining turli qirra va jihatlarini butun ichki murakkabligi va o‘zaro qiyoslari bilan qamrab ola bilgan bu dostonning birinchi maqolati imon haqida bo‘lsa, ikkinchisi islom ha-

qida. Navoiyning masalalarga yondoshuvi hatto ustoz va zamondoshi Abdurahmon Jomiy qarashlaridan ham ma'lum darajada farq qiladi. Ma'lumki, Jomiy o'z badiiy ijodida diniy aqidalar va tasavvuf qoidalarini ta'rifiga atroflicha o'rin ajratgan bo'lib, uning "Haft avrang" ("Yetti taxt") turkumidagi "Tuhfat ul-ahror" va "Subhat ul-abror" dostonlarida namoz, ro'za, zakot, haj, uzlat, tavba, zuhd, faqr, havf-u rijo, tavakkul kabi turli islomiy va irfoniy tushunchalar sharhiga alohida boblar bag'ishlangan. Navoiyning bu boradagi mulohazalaridan namuna sifatida Islom haqidagi bob oxirida berilgan hikoyat mazmuniga e'tibor qarataylik. Unda mashhur so'fiy shayxi "Ibrohim Adhamning Ka'bag'a namoz bila borg'oni va Robiyai Adaviyag'a Ka'baning niyoz bila kelgani" rivoyat etiladi. Zohidlikni ixtiyor etgan shayx har qadamida ikki rakaat namoz o'qib, 14 yil riyozat chekib, Makka shahriga yetib kelib qarasa, Ka'ba o'z o'rnida yo'q. Shayxning "Ey, Alloh," deb hayrat bilan qilgan nidosiga g'oyibdan Ka'ba Robiyai Adaviyani tavof qilish uchun ketganligi haqida javob bo'ladi.¹ Robiya esa tasavvufda ishq yo'lini tanlagan so'fiy ayol edi. Navoiy islom va tasavvufda zuhd maqomidan *ishq martabasini* shu daraja yuksak qo'yadi.

Ikkinchi doston "Farhod va Shirin"ni olaylik. Nizomiy va Dehlaviy asarlarida asosan tarixiy shaxs Xusrav Parviz atrofida suhbat yuritilgan, Nizomiy shahzoda va shoh timsolida oddiy insonni tasavvur qilib, uning tantiqligi, ayb-u qusurlari samimiy ishqiy tufayli asta-sekin barham topib, oqila Shirin ta'sirida Xusravning kamolot va fozillik kasb eta borganligini ibrat qilib ko'rsatishni niyat etgan bo'lsa, Dehlaviy ijtimoiy mavqe va muhitning shaxs ma'naviy qiyofasi va xatti-harakatiga ta'sirini ochib bergan edi. Navoiy salaflari tajribasidan tegishli xulosalar chiqarib, shoh Xusravni butkul salbiy timsol sifatida talqin etdi va oldingi dostonlarda ideal oshiq, ammo ikkinchi darajali qahramon mavqeyida turgan Farhodga asosiy diqqatni qaratdi. Ushbu o'zgarishning bosh sababi, Chin shahzodasining ma'naviyatidagi yetakchi fazilat — uning o'zligi (shahzodaligi va otasi Xoqon mulkiga vorisligi)dan butkul voz kechib, pok oshiqlik va elga naf yetkazish yo'lini tutganligi (toshkesar va naqshlik hunarini kasb qilib olganligi)dir.

Doston Farhodning arman malikasi Shirin ishqida boshdan kechirgan sarguzashtlari bayonidan iborat emas. Navoiy insonning, millatning, bashariyatning ma'naviy kamoloti haqida qayg'uradi. Shahzodaning

¹ O'sha kitob, 118—120-b.

dilda ishq bilan tugʻilishi, uning Xoqon mulkini qabul qilib olishdan ilgari sirli sandiq va undagi koʻzgu tilsimini yechish qasdidagi Yunon safariga yoʻl olishi, bu yoʻlda avval ajdahoni, soʻng Axrimanni, oxiri temir tanli kamon otuvchini yengib, donishmand Suqrot bilan uchrashuvga muvaffaq boʻlishi — bu afsonaviy tasvirlar ortida bashariyatning, insonning, ayniqsa, turkiy elatning, oʻz mohiyatini anglab yetish yoʻlidagi kamolot bosqichlarini bir-bir bosib oʻtishi badiiy-majoziy tasvir etilgan.

Sirli koʻzguda Farhod Shirinni emas, avvalo oʻz taqdirini koʻradi. Ajdah o ibtidoiy jamoa kishisining asotir (mifologik) tafakkurida johillik va yovvoyilikni, Axriman Avesto maʼnaviyatida zulmat, yolgʻonchi kuchlar timsolini, kamon otuvchi temir odam esa qabilalararo, elatlararo ayovsiz nifoqlar davri — xudbin va beshafqat talonchilarining majoziy qiyofasini eslatadi. Ajdodlarimiz oʻz ruhiyatlaridagi shunday qattol yovlarni yengib, Suqrot qiyofasidagi islomgacha bashariyat erishgan ilm va hikmatni egallab, IX–XV asr islom maʼnaviyatiga yetib keldilar. “Xamsa” dostonlarida buningdek botiniy maʼno qabatlari ixlos bilan, salaflar ijodiga qiyos bilan izlansa, cheksiz topiladi.

“Layli va Majnun” afsonasi fors va turkiy tillarda oʻnlab dostonlarga mavzu boʻlgan. Ammo ularning har biri oʻziga xos, betakror maʼno qatlamlarini ifsho etadi. Bu dostonning eng asosiy xislati — Majnun ham, Layli ham teng oshiq, teng maʼshuq. Bu doston ikki oshiq Insonning haqiqiy ishqni anglab yetmaganlar orasidagi fojeʼ holati tasviriga bagʻishlangan deyish mumkin.

“Sabʼayi sayyora” insonning hayot va xayol dunyosidagi cheksiz adashuvlarining majoziy tasviridan iborat. Bunda yana “ahli qabul” va “ahli rad” orasidagi tazod (ziddiyat) birinchi oʻringa chiqadi. Muqbil va Mudbir, Suhayl va Jobir, Juna va Jaysur, Maʼsud va Mallu timsollari ushbu ikki guruhga mansub boʻlib, hayot sinovlaridan qanday oʻtishiga qarab, “ahli qabul” saodatga, “ahli rad” esa qilmishlariga yarasha jazoga erishadilar. Ichki qissalaridagi bu timsollar asar bosh qahramoni Bahromshoh uchun ham ibrat sifatida keltiriladi. Ammo hukmdor oʻz hirs-u havaslarini jilovlab ola bilmaganligi, begunoh jon-zotlar qonini ayovsiz toʻkkanligi kasofatidan oʻzi ham yer yutib halok boʻladi.

Buyuk jahongir taqdiri haqidagi oxirgi “Saddi Iskandariy” (Iskandar devori) dostoni shaklan maʼlum darajada “Xamsa” ning birinchi dostonini eslatadi. Unda ham har bobda turli ijtimoiy-axloqiy mavzudagi

falsafiy mulohazalar, ibratli kichik hikoyat va hikmat-xulosa beriladi. Orada Iskandar hayotidan bir voqea hikoya qilinadi. Iskandar timsoli yaqingacha ham Y.E. Bertels talqiniga binoan odil shoh timsoli deb qabul qilib kelindi. Faqat Aziz Qayumov 1975-yilda nashr etilgan ushbu mavzudagi maxsus risolasida Navoiy qahramoni aslida murakkab timsol ekanini, dostonda Iskandar qiyofasi tadrijiy o'zgarishda ochib berilganini ilmiy isbot etdi¹. Yunon shahzodasi avval shohlikka o'zini noqobil deb bilgan jur'atsiz va kamtar o'smir bo'lsa, hayot va fothlik siyosati taqozosi bilan asta-sekin o'zbilarmon va shafqatsiz istilochiga aylanib boradi va faqat o'limi yaqinlashganini sezgach, joh va kibr yo'lidagi butun urinishlari sarob ekanligini anglab yetib, ko'zi ochiladi.

"Xamsa"da majoziy ishq tasvirlanadi, insonning insonga munosabatidan, ya'ni axloqiy munosabatlaridan boshlab, hukmdorning fuqarolarga va, umuman, hukmdorlikka, toj-taxtga munosabati, o'z navbatida toj-taxtning, hukmdorlik mavqeyining insonga ta'siri, ya'ni insonlar hayotiga oid ijtimoiy, axloqiy munosabatlar majmuyi Tavhid e'tiqodi nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. "Xamsanavislik" an'anasi islom mintaqa ma'naviyati takomilining badiiy tafakkurdagi o'ziga xos in'ikosi bo'lib, shunga yarasha munosabatni talab qiladi. Bu an'ana tadqiqotchidan ham, oddiy kitobxondan ham har bir dostonning shakl va mazmuniga alohida e'tibor talab qiladi, chunki bir mavzuda yozilgan o'nlab dostonlar diqqat bilan o'qilsa, aslo bir-birini takror etmagani, balki o'zaro ijodiy bahsda yozilgani ma'lum bo'ladi. Shu sababdan har bir dostonni o'qiganda ham uning ushbu mavzu silsilasidagi o'rniga, ham har bir shoir ijodiy merosidagi mavqeyiga ahamiyat qaratish lozim. Shundagina uning tamomila o'ziga xosligi va mazmun qamrovini anglab yetish mumkin.

Islom mintaqa adabiyotining bu murakkab xislati, uning, masalan, Yangi davr g'arb adabiyotidan farqi XX asrning 30-yillaridayoq Y.E. Bertels tomonidan Navoiy va Attor, Nizomiy va Dehlaviy ijodini qiyosiy o'rganish asosida ilmiy isbotlangan edi. "Xamsa" dunyosida ijtimoiy hayot tasviri inson ma'naviy takomili muammolardan ajralmas, bir butundir.

Navoiy o'z ijodining uchinchi, yakuniy bosqichida Farididdin Attorning mashhur irfoniy-ramziy dostoni "*Mantiq ut-tayr*"ga javoban oxirgi dostoni «Lison ut-tayr»ni yaratdi va unda ulug' so'fiy shoirning

¹ A. Qayumov. "Saddi Iskandariy". T, 1975, 49—56-b.

irfoniy majozlariga xiyonat qilmagan holda ularga bir paytning o'zida ijtimoiy jilo baxsh etishga muvassar bo'ldi. Shu tarzda shoir ham mazmuniy teranlikda, ham shakliy mukammallikda "majoz tariqi"ning eng avj nuqtasiga ko'tarildi.

Navoiyning talqinlari tasavvuf adabiyotining irfoniy ma'nolarini inkor qilmagan holda inson ma'naviyatini undan-da yuksakroq bosqichga yetaklaydi. Attor(1147–1229) asari yaratilganda Ibn al-Arabiy (1165–1240) falsafasi hali shuhrat topmagan edi. Navoiy esa Ibn al-Arabiy irfonini Iroqiy talqinida Jomiy yordami bilan chuqur o'zlashtirib, keyin qushlar tilida doston yozishga kirishdi. Shu sababli, aytish mumkinki, *Alisher Navoiy asari zohiran Attor asariga tayangan bo'lsa, botinan, mazmun mohiyatiga ko'ra Iroqiy qarashlarini rivojlantirgan.*

Attordan ilgari "Qush risolasi"ni yaratgan Ibn Sino, Ahmad G'azzoliylar asardagi bosh timsolni "Simurg'" emas, "Anqo" deb nomlagan edilar. Attor "Simurg'" timsoli bilan juda chuqur mazmunga ishora qildi. Ammo baribir eng mas'ul o'rinda:

Chun shum o si murg' injo omadid,

Si dar in oyina paydo omadid.

Gar chihl, panjoh murg' oyad boz,

Pardaro az xesh bagushoyand boz'.

(Sizlar o'ttiz qush bu yerga kelganlaring sababli,

Bu ko'zguda o'ttizta ko'rindilaring.

Agar yana qirqta yo ellikta qush kelsa,

Yana o'zlarining yuzlaridan pardani ko'taradilar) --

deb o'zi topgan timsol quvvatini kesib qo'ydi. Navoiy unday qilmaydi. U "si murg'" (forscha "o'ttiz qush" degani) va Simurg' (jahondagi barcha qushlarning afsonaviy hukmdori) ni bir so'z sifatida bir xil jaranglashiga qayta-qayta e'tiborni jalb qiladi.

Navoiy talqinidagi Simurg' – butun Insoniyatning yaxlitlikda erishuvi mumkin bo'lgan Oliy takomil bosqichiga har bir kishi, har bir jamoa o'zicha kamolot hosil qilib yetisha olmaydi. Butun insoniyat (jami qushlar) unga birgalikda intilmog'i, birga-birga parvoz qilib, yo'l mashaqqatlarini birga yengib o'tib erishmoqlari mumkin. Simurg' – bir qush emas, kamolotning oliy bosqichi —Tavhid bosqichiga ko'tarilib yetgan o'ttiz qush («si murg'»)ning birligi – ma'naviy yagonalik hosil

¹ Sittai Farididdin Attor(qo'lyozma), 72 b-varaqa

qila bilgan uyg'un insonlar jamoasi, yaxlit insoniyat. Ushbu uyg'unlikka erishuvning yagona yo'li esa insonlarning bir-biriga Haq rizoligi yo'lidagi pok va samimiy mehridir.

20. YANGI DAVRDA MILLIY MA'NAVIYATIMIZ AHVOLI (XVI – XX asrlar)

Yangi davrning mohiyati ikki asos – *dunyoni surat va ma'ni yaxlitligida o'rganish va bahamjihatlikda boshqarishga intilish* bilan o'zligini namoyon etadi. Foniylar dunyoni surat va ma'ni birligida tadqiq etish *ijtimoiy voqelik tadqiqi*ni ham taqozo etadi.

XVI–XX asrlar milliy ma'naviyatimiz takomilini ikki katta bosqichga ajratish mumkin:

1. *Yangi davr ma'naviyatiga otish yoki islom mintaqada madaniyati davri ma'naviy yutuqlarining ommalashuvi bosqichi*

(XVI–XVIII asrlar)

(Bu bosqich xalqimiz tarixida ziddiyatli asosga ega bo'lib, *bir tomondan*, yaxlit islom mintaqada madaniyati erishgan yutuqlar zaminida keng *xalq ommasining ma'naviy saviyasi* oshib borgan bo'lsa, *ikkinchi tomondan*, mintaqada *siyosiy hayotida tanazzul* va parchalanish jarayoni kundan kunga, yildan yilga kuchaydi. Yagona o'lkaning ikki xonlik va bir amirlikka bo'linib ketishi ana shu tanazzul ohibatidir).

Davr ma'naviyatining o'ziga xosligi:

“Milliy izzat” she'riyat. Turdi, Mashrab, Maxmur, Gulxaniylar ijodida ijtimoiy voqelikning keskin tanqidi, Vatan va millatning foje holatini shaxsiy fojia darajasida qabul qilish.

2. *Milliy ma'naviyatimizning Yangi davr Yevropa madaniyati bilan bevosita to'qnashuvi*

(XIX–XX asrlar)

(Bu jarayon boshlanishdanoq foje bir tarzda – qadim Turon xalqlarining *Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va 150 yillik mustamlaka holatida* murakkab bir tarzda kechdi. Milliy qaramlik ma'naviy xo'rlik keltirdi, xalq ham ma'naviy, ham iqtisodiy kamsitildi, XX asr kommunistik diktatura tuzumi esa o'z ayovsiz qatag'onlari va ideologik zug'umi bilan millat ziyolilarini jismonan mahv qilib, xalqni “manqurtlashtirish” siyosatini joriy qildi.)

Davr ma'naviyatining o'ziga xosligi:

Milliy uyg'onish – Turkiston o'lkasi xalqlarining *milliy mustaqillik uchun kurashi* ikki yo'nalishda namoyon bo'ldi: *birinchisi* – qurolli kurash, qo'zg'olonlar yo'li, *ikkinchisi*, jadidlar olg'a surgan madaniy-ma'rifiy yo'nalish bo'lib, bu yo'lning *asosiy maqsadi xalq madaniy-ma'rifiy saviyasini oshirish*, shu yo'l bilan milliy ongni yuksaltirib, dunyoni yangicha idrok etish asosida o'lkani davr talablariga muvofiq mustaqil siyosat va rivojlangan iqtisodiy munosabatlar darajasiga olib chiqish edi.

21. SHAXS MA'NAVIY TARBIYASINING TAKOMIL BOSQICHLARI (yoki ma'rifat yo'llari):

IBRAT,

ILM,

RIYOZAT,

MEHR

22. ISLOM MINTAQA MADANIYATI DAVRIDA MILLIY MA'NAVIYATIMIZ TAKOMILI

Milliy ma'naviyatimiz rivojining tarixiy bosqichlari	Tarixiy davr	Shaxs va millat ma'naviyatining takomil bosqichlari yoki ma'rifat yo'llari
I Sunna	VIII–IX asrlar	<i>Ibrat</i>
II Islom ma'rifatchiligi	X–XI asrlar	<i>Ilm</i>
III Tasavvuf tariqatlari yoxud Irfon	XII–XIII asrlar	<i>Riyoza</i> t
IV “Majoz tariqi”	XIV–XV asrlar	<i>Mehr</i>

23. HAQIQATNI ANGLAB YETISH BOSQICHLARI YOKI BOSH MA'NAVIY QADRIYATLAR:

HAQIQAT
ADOLAT,
MILLAT,
SHAXS,
VATAN.

24. VATANNI ANGLASH BOSQICHLARI (Vatan timsol-tushunchasining umumiy ta'rifi: *Moddiy makonga ma'naviy munosabat*)

1. Ruh uchun badan – Vatan.
2. Vatan – turarjoy, obod maskan, har bir inson ahli oilasi bilan panoh topuvchi go'sha.
3. Vatan har bir inson uchun o'z tug'ilib-o'sgan diyori, o'lkasi – qishlog'i, shahari, qasabasi.
4. Vatan – O'zbekiston, mustaqil yurt, mustaqil mamlakat (*millatni tushunish bosqichida anglab yetiladi*);
5. Ona sayyora barcha bani basharga yagona Vatan (*adolat bosqichida anglab yetiladi*).

25. INSON VA SHAXS

Inson – ma'naviy kamolot imkoniyatiga ega bo'lgan moddiy mavjudot (Insonning ijtimoiy mavjudot ekanligi ham uning ma'naviy kamolot imkoniga ega ekanligidan kelib chiqadi).

Shaxs – o'z ma'naviy kamolot imkoniyatlarini yuzaga chiqara boshlagan inson (Bu hodisa – o'zlikni anglash deb aytiladi. Shu ma'noda, Shaxs – o'zligini anglay boshlagan inson, deyinsh ham mumkin).

Ma'naviyat nuqtayi nazaridan Shaxs tushunchasiga yondoshuvimizda ikki holatni ko'zda tutish lozim:

1) biz har bir o'zga insonni *Shaxs* sifatida qabul qilmog'imiz joiz, chunki unga yaratilishdan bu imkoniyat Xalloqi olam tomonidan berilgan. O'zga inson dilidagini biz bilmaymiz, shu sababli zohiriy ko'z

bilan undan xatolar izlashimiz, unda ma'naviy noqislik ko'rishimiz Inson odobiga, ma'naviyat talablariga xilofdir;

2) har bir inson o'zini *Shaxs* sifatida anglar ekan, tinimsiz ma'naviy kamolot imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, ya'ni o'zligini anglash jarayonida bo'lmog'i joiz sanaladi. Bu jarayon to'xtagan onidan uning Shaxs sifatidagi tanazzuli boshlanadi.

26. SHAXS MA'NAVIYATINING ASOSIY JIHATLARI

IMON,
ILM,
MAS'ULIYAT,
MEHR.

27. SHAXS VA MILLAT

Inson ma'naviy kamolot imkoniga ega bo'lgan biz bilgan yagona moddiy mavjudot. Shaxs o'zidagi ma'naviy kamolot imkonini yuzaga chiqara boshlagan inson. Demak, Shaxs ma'naviyati ushbu sohani o'rganishda asosiy obyekt ekanligi o'z-o'zidan ravshanlashadi.

Shaxs ma'naviyatini o'rganish ikki yo'nalishda bo'lishi mumkin. Birinchisi, muayyan shaxs ma'naviyatini o'rganish, ikkinchisi, ushbu hodisa-ning umumiy jihatlarni tasnif va tadqiq etish. Inkon nuqtayi nazaridan, birinchi yo'nalishda faqat ayrim hodisalarni, masalan, o'tmish va bugun-ning umummilliy ahamiyatga ega bo'lgan buyuk shaxslari ma'naviy dunyosini o'rganish mumkin bo'lib, mohiyatan bu ish millat ma'naviyatining tarkibiy qismlarini o'rganish demakdir. Chunki Millat ma'naviyati, tom ma'noda olganda, ushbu millatga qaysidir bir tarzda aloqador hisoblanuvchi o'tmish, bugun va kelajakdagi barcha shaxslar ma'naviyatining majmuyidan iborat.

Har bir shaxs, o'zi buni chuqur idrok qiladimi, yo'qmi – qat'i nazar, biror elat yo millatga mansub bo'lmay iloji yo'q, hech bir inson eldan butkul ajralib yashamaydi. Prezidentning g'oyatda hikmatli iborasi bilan aytganda, har bir inson *“o'zini xalqining bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o'ylab, mehnat qilib yashagandagina ma'naviyat bilan ʻtutashadi”*¹. Buning ma'nosi, shaxs ma'naviyati voqelikda millat ma'naviyatidan ayri, undan tashqarida bo'lmaydi. Shunday ekan, mavjud

¹ Islom Karimov. Asarlar. 1-jild, 81-b.

ahvolni to'g'ri idrok etadigan bo'lsak, millat ma'naviyati haqida muayyan tasavvurga ega bo'lmay turib, alohida shaxs ma'naviyatini ham o'rganish imkondan tashqari.

28. MA'NAVIYATDA QADR TUSHUNCHASI

O'zlikni anglash jarayonida *Qadr* tushunchasi paydo bo'ladi.

Borliq haqiqatiga o'z nisbatini to'g'ri anglab yetmagan va komil e'tiqod hosil etmagan inson hanuz g'ofildir.

1. «Men Alloh tomonidan *yer yuzida xalifa* etib yaratilganman», deb *o'zlikni anglab yetish* — o'z qadrini to'g'ri baholashning poydevoridir.

2. O'z qadrini anglab yetish barobarida *inson o'zga insonlar ham yer yuzida xalifa ekanligiga imon keltirib*, ularning ham qadrini o'zidan kam bilmaydi.

3. U Alloh yaratgan *barcha mavjudotning ayni Haqqa tegishli ekanligini anglab yetgani* uchun qadr qiladi, behudaga biror narsani zoye qilishni o'ziga ep ko'rmaydi.

Haqiqiy Shaxs darajasiga yetishgan inson o'z qadrini, shu bilan birga yorug' olamdagi barcha ashyo va mavjudotlar qadrini muayyan darajada anglab yetgan, shu asosda jamiyatning faol a'zosiga aylangan inson bo'ladi.

29. QADR TUSHUNCHASI VA MA'RIFATNING TURLI BOSQICHLARI

Qadr tushunchasi ma'rifatning turli bosqichlarida turli darajada muayyanlashib boradi. U *imon, ilm* va *amal* darajalarida anglab yetishi mumkin.

1. *Imon* darajasida barcha mavjudot qadri Alloh in'omi sifatida, barcha inson qadri imkon (potensiya) darajasida anglab yetiladi.

2. *Ilm* darajasi har bir muayyan inson va ashyo qadri haqida aniq bilimlar hosil qilish bilan bog'liq bo'ladi. O'zligini anglash darajasi, Borliqning mohiyatini anglash yo'lidagi ijtihodi va amaliy faolligi bilan bog'liq ravishda insonning insondan farqi, har bir insonning kechagi holatidan bugungi holati orasidagi farq doimiy o'zgarib boradi.

3. Eng yuksak va mas'uliyatli daraja — *amal*. *Amal* riyozatsiz bo'lmaydi. *Riyozat* ya'ni, tanlangan yo'lda barcha sinovlarga bardosh berib olg'a intilish uchun esa faqat haqiqiy *Mehrgina* ko'mak bera oladi.

Mehrsiz na imon baquvvat bo'ladi, na amal riyozatiga inson bo'y beradi.

30. JAMIYAT HAYOTINING TURLI SOHALARIDA QADR TUSHUNCHASINING O'ZIGA XOS NAMOYON BO'LISHI

Ma'naviyat	Siyosat	Iqtisod
Qadr	<i>mavqe</i>	<i>qiyamat</i>
<i>(Alloh hech bir mavjudotni behuda yaratmagan)</i>	<i>(maqom)</i>	<i>(baho)</i>

Inson o'zi va o'zga qadrini taqqoslab o'zaro muomalalarga kirishganda, ma'naviyatdan siyosatga o'tiladi.

Inson o'z moddiy tabiatini ham hisobga olib, o'zgaralar bilan munosabatga kirishuvda iqtisodiy munosabatlar yuzaga keladi.

31. IJTIMOIIY HAYOT VA INSON QADRI

Inson *iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy* maydonda doimo bir xil qadr topa bermaydi. *Inson ma'naviy kamolotini belgilovchi omillardan biri uning ushbu uch yo'nalishda o'z qadrini uyg'un saqlay bilishi bilan ham belgilanadi.* Ma'naviy kamolotni faqat ma'naviyat yo'nalishida o'z qadrini yuksaltira bilish deb tasavvur etish — bir yoqlamalikdir.

Insonning fazilatlariga qarab (imon-e'tiqodi, ilmi, amaliy ko'nikmalari, axloqiy sifatlari va hokazolarga ko'ra) qadrlanishi moddiy emas, ma'naviy ko'rinishda bo'ladi. Moddiy qadrlanish esa inson fazilatlarining amalga tatbiq etilishi bilan bog'liq.

Inson o'z imkoniyatlarini amalga tatbiq etishdan avval o'z qadrini ilm bosqichida anglab yetishi lozim. Bu bilim amaliy faoliyatda ikki shartga rioya etishni taqozo etadi:

Birinchi shart — inson o'z qadriga nomunosib ishni o'ziga ravo ko'rmasligi kerak, ya'ni o'z ilm saviyasi, imoni, jamiyatdagi mavqeyiga nomuvofiq amalni sodir etmasligi kerak.

Ikkinchi shart — inson hech kim bilan o'z qadriga noloyiq sharoitlarga rozi bo'lib bitim tuzmasligi kerak, kengroq ma'noda olganda, o'zganing unga nisbatan noloyiq xatti-harakatlar sodir etishiga yo'l qo'ymasligi lozim.

32. ADOLAT

Adolat – ma’naviyatning insonlararo munosabatlarda (ya’ni, siyosat sohasida) namoyon bo‘lishi.

milliy adolat – o‘z millatiga mehr tuyg‘usi o‘zga millat namoyandasiga nisbatan noxolis yondoshuvga sabab (bahona) bo‘lmasligi;
diniy adolat – o‘z e’tiqodiga sodiqlik tufayli o‘zga e’tiqod egasiga noxolis munosabat izhor etmaslik;

siyosiy adolat – siyosiy hokimiyatning yagona manbayi xalq irodasi deb tan olinishi va qonun ustuvorligi tamoyiliga qat’iy rioya qilinishi;
iqtisodiy adolat – bozor iqtisodi qonuniyatlariga (mulk shakllarini erkin tanlash huquqi, talab va taklif erkinligi, erkin raqobat tamoyillariga) rioya qilish;

ijtimoiy adolat – barcha ijtimoiy toifalarning jamiyatda o‘z o‘rni mavjudligini va qonun oldida ularning o‘zaro teng huquqlarga ega ekanligini e’tirof etish.

33. BOZOR IQTISODI IQTISODIY ADOLATDIR

Iqtisod sohasi – inson jismining moddiy voqelik bilan amaliy munosabatlari;

Iqtisodiy munosabatlar – har bir insonning o‘z moddiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida o‘zga insonlar bilan turli munosabatlarga kirishuvi.

Insonlar jamoasidagi iqtisodiy munosabatlarning asosiy tarixiy shakllari:

1. *Ibtidoiy (natural) xo‘jalik* – har bir insonning o‘z moddiy ehtiyojlarni qondirish uchun tabiat bilan bevosita amaliy munosabatlarga kirishib, o‘z aqli, malakasi, mehnati bilan o‘zi va oilasi uchun rizq topishi.

Ishlab chiqarish vositalari – *ibtidoiy*.

(Ibtidoiy jamoaga xos yetakchi tizim – Ibn Xaldun ta’rifi asosida.)

2. *Bozor iqtisodi* – mulk turlarining xilmaxilligi, erkin talab va taklif asosida o‘zaro mahsulot almashuviga tayanuvchi iqtisod tizim (Bu tizimning turli ibtidoiy shakllari ming yillar davomida insonlar jamiyatida yashab kelmoqda).

3. *Total (yalpi) davlat iqtisodi* – barcha mulk davlatga qarash-

li bo'lib, barcha ishlab chiqarish va taqsimot davlat ixtiyorida bo'lishi. (Sobiq SSSR da zo'rlik bilan shakllantirilgan va 70 yil zo'rlik bilan ushlab turilgan iqtisodiy tuzum).

Bozor iqtisodi umumiy tushuncha bo'lib, insoniyat tarixiy taraqqiyoti davomida uning turli shakllari kuzatiladi. Ularni biroz soddalash-tirgan holda uch toifaga ajratish mumkin:

A. *Ibtidoiy bozor iqtisodi* – har bir mustaqil xo'jalikning biror tur yoki yo'nalishda mahsulot ishlab chiqarib, bozorda uni boshqa mahsulotlarga almashishi. Ishlab chiqarish vositalarining *ibtidoiyligi* saqlanib qoladi .

B. *“Yovvoyi bozor”* – bu atama nisbatan shartli bo'lib, ibtidoiy bozor iqtisodi yoki *yalpi davlat iqtisodidan rivojlangan bozor iqtisodi-ga “o'tish davri”*da yuzaga kelishi mumkin. Ko'pchilik yangi tizimga o'tilayotganligini aniq anglab yetmagan, yangi tizimning puxta ilmiy asoslari ishlab chiqilmagan, siyosat va ma'naviyatda yetarli yangilani-shlar ro'y bermagan holatda *ayrim guruhlarning uddaburonlik (tov-lamachilik va tadbirkorlikni o'zaro farqlamaslik) mayllari avj olishi* natijasida shakllanadi va ommaviy norozilik va ijtimoiy ziddiyatlar-ning kuchayishiga sabab bo'ladi. Asosan Yangi davrning boshlarida avval Yevropada vujudga kelib, bora-bora butun dunyoda mustam-lakachilik sistemasining shakllanishiga olib kelgan. Bugungi kunda dunyoning ba'zi nuqtalarida, jumladan, sobiq “sotsialistik sistema”ning yemirilishi oqibatida tashkil bo'lgan yangi davlatlarda ushbu tizimning ba'zi unsurlari kuzatilmoqda.

D. *Rivojlangan bozor iqtisodi*. Yuqori darajada takomillashgan ishlab chiqarish vositalariga, yuqori texnologiya va ilmiy taraqqiyotga tayangan, siyosatda demokratiya va ongli fuqarolik jamiyati bilan ham-qadam taraqqiy etayotgan murakkab ko'rinishli iqtisodiy tizim. Ja-hondagi iqtisodga oid ilmlar asosan ana shu rivojlangan bozor iqtiso-diga taalluqli muammolar bilan shug'ullanadi.

34. BOZOR IQTISODINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI:

- 1) mulk turlarini erkin tanlash imkoniyati;
- 2) talab va taklif erkinligi;
- 3) erkin raqobat imkoniyati;
- 4) bozorning har uch yo'nalishi: mahsulot, ishchi kuchi va qimmat-li qog'ozlar bozorining mukammal shakllanganligi.

35. BOZOR MA'NAVIYATI

Haqiqiy bozor iqtisodiy adolatdir. Chunki unda hech kim o'z qarashlarini birovga zo'rlik bilan o'tkaza olmaydi. Bozor insonni o'z-o'zini qadrlashga o'rgatadi, muomala odobiga o'rgatadi, o'zga mehnatining qadriga yetishga o'rgatadi. Bozor ibrat va tarbiya maktabidir. Inson o'z yaratuvchilik mehnatining natijasiga, bozordagi bahosi, qiymatiga qarab, u yaratgan moddiy yoki ma'naviy boylik o'zгалar uchun qanchalik muhim va zarur ekanligi, qanchalik sifatli va zamon talablariga javob bera olishi, boshqa turli jihatlari asosida muayyan daromadga ega bo'ladi, jamiyatda muayyan obro', ehtiromga, muayyan mavqe va maqomga sazovor bo'ladi.

Bozor va ma'naviyat bugungi kunda turli nuqtalarda tutashuv hosil qilmoqda. Ularning biri e'tiqod bo'lsa, ikkinchisi – ilm. Yana biri farosat bo'lsa, boshqasi – insonni tushunish. E'tiqod bozorda insof ko'rinishida namoyon bo'ladi. “Faqat o'zim bo'lay”, degan odam bu yerda uzoqqa borolmaydi. “Insof sari baraka” – ma'naviyatini yo'qotmagan millatning bozoridagi bosh qonundir.

Bozor ma'naviyatidagi milliy an'analarimizning tiklanishi, birinchi navbatda, insof va diyonatni insonlar ko'nglida qayta uyg'otish zarurati bilan bog'liq. Insof va diyonat, halollik, xaridorga munosabatda samimiylilik va hilm (yumshoq muomala, halimlik) xaridor ko'nglini topishga intilish, uning ehtiyojlarini tushunish tadbirkor sarmoyasiga Allohning barakatini yog'diruvchi ma'naviy fazilatlardir. Xaridor haqiqiga xiyonat, tovlamachilik hech qachon bozorga aralashgan odamga omad keltirgan emas. Buni bizning ajdodlarimiz yaxshi bilganlar.

Bugungi jahon bozorining muhim jihati uning ilmiy asosga qo'yilganligi. Marketing fani, ya'ni bozorni o'rganish ilmi ilgari asosan savdogar yo kosibning farosatiga bog'liq bo'lgan bo'lsa, bugun jiddiy tadqiqotlar asosiga tayanmoqda. Ilgari bir mintaqani qamragan bo'lsa, bugun jahon miqyosida yaxlit fikrlashni taqozo qilmoqda.

Manfaatlar to'qnashuvi, raqobat bozor iqtisodi uchun xos narsa. Ammo raqobatni kurashdan farqlash kerak. Agar raqobatni kurash deb tushunib, uni faqat raqibni moliyaviy sindirish yo'llarini izlash sifatida talqin etilsa, tadbirkorlarning raqobati bir-biriga ziyon yetkazish, ishidan ishal chiqarishga qaratilsa, bunday yondoshuv nizo va buzg'unchilikka, millat va jamiyatning zarariga qarab yuradi. Agar raqobat deganda bir-biridan sifatliroq, xaridorgirroq, o'zгалar molidan arzonroq, inson ehtiyojiga yaroqliroq buyum, mahsulot chiqarish orqali bozorda oldingi

o‘rinlarni egallashga intilish, buning uchun yangi texnologiyalar, unumli ish usullarini izlash yo‘lidan borish tushunilsa, ya‘ni u ijobiy va ijodiy yo‘nalish kasb etsa, jamiyat farovonligi, inson kamolotiga xizmat qiladi. Biz musulmon farzandimiz, Allohning adolatiga imonimiz komil. Har kim ekkanini o‘radi, birovga qilinadigan yaxshilik ham, yomonlik ham bir kun albatta insonning o‘ziga qaytadi, deb ishonamiz. Birov foyda ko‘rishi uchun, albatta, ikkinchi odam zarar ko‘rishi shart emas.

Insonni tushunish, uning eng nozik talablari va didini hisobga olish iqtisodiy rivojlanishning belgilovchi omiliga aylanib bormoqda. Demak, farosat masalasiga borgan sari iqtisodiy sohada ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda. O‘z holimizni to‘g‘ri idrok etib, o‘zgani ham tushunishga intilib, voqelik haqida to‘g‘ri tasavvur hosil qilmas ekanmiz, o‘zimizga ham, jamiyatga ham, millatga ham tayinli foydamiz tegmaydi. Bozor iqtisodi insonni o‘ylashga, farosatini ishlatishga majbur qilishi bilan qimmatlidir.

36. MADANIYAT BOZORI

Madaniyat – inson ma‘naviyatining moddiy voqelik shaklida namoyon bo‘lishidir. Madaniyat bozori murakkab voqelikdir. Bugun jahonning yuksak rivojlangan mamlakatlarida ilm, axborot, sifat ko‘rsatkichlari (masalan, dizayn) jumladan, oziq-ovqat sifati, borgan sari yuqori baholanmoqda. Shu bilan birga bevosita madaniyat sohasiga aloqador bozor yo‘nalishlari ham shakllanib bormoqdaki, ulardan eng muhimlarini sanab o‘tamiz:

1. *Axborot bozori.*
2. *Aqliy mehnat (mahsulotlari) bozori.*
3. *Shou-biznes.*
4. *Madaniy xizmatlar bozori.*

37. TADBIRKOR KIM?

Bugungi rivojlangan bozor iqtisodi tizimiga xos xususiyatlardan biri shuki, unda nafaqat almashuv jarayoni, balki bevosita ishlab chiqarish ham moddiy mahsulot yaratuvchilar va iste‘mo‘lchilardan tashqari qator vositachilar toifasi mavjud bo‘lishini taqozo qiladi. Ular moddiy yaratuvchilik va iste‘mol jarayonining tashkiliy takomillashuvi va sifat jihatidan yuksalishida muhim o‘rin tutadilar.

Bugungi kun jamiyatida yuzlab ixtisos egalari borki, ularga kimdir

ish joyi tayinlab, o'z malaka va bilimlarini namoyon etishga sharoit yaratmasa, ular na jamiyatga foyda yetkaza oladi, na o'z oilalari ta'minotini eplaydi. Tadbirkor ayni shu muammoni hal qiluvchi inson bo'lib, u muayyan korxonani tashkil etib, unda turli ixtisosdagi odamlarni yollab ishlatib, ularga maosh berib, tirikchilik o'tkazishiga yordamlashar ekan, Alloh yuborgan rizqni odamlarga yetkazishda bir vosita vazifasini o'taydi. U faol tafakkurli inson bo'lib, jamiyat uchun zarur bo'lgan biror buyumni ishlab chiqish yoki biror xizmatni bajarishga qaratilgan muayyan amaliy tizimni vujudga keltiradi va uni harakatga soladi. Buning uchun mablag' topadi, bino ajratadi, asbob-uskuna o'rnatadi, xomashyo, zaruriy yordamchi vositalar bilan ta'minlab, tayyor ish o'rnlari hosil qiladi. Natijada ham ehtiyojmandlarning ishi bitadi, ham insonlar turmush kechirish uchun vositaga ega bo'ladilar. Albatta, tadbirkor ham o'zi tashkil etgan ishning unumiga qarab, muayyan moddiy manfaatlarni qo'lga kiritadi. Xullas, tadbirkor o'z faoliyati bilan jamiyatga har tomonlama naf yetkazib, uning takomiliga hissa qo'shadi. Agar siyosiy arbob, davlat xizmatchisi jamiyat hayotining siyosiy jihatdan mustahkamlanuvi va rivojiga ulush qo'shsa, tadbirkor jamiyat hayotida iqtisodiy sohaning tashkilotchisidir.

38. TADBIRKORNING BOSH MA'NAVIY FAZILATI

Ilm va insof, riyozat va farosat bugungi kun tadbirkorlarining asosiy ma'naviy fazilatlaridir.

Tadbirkorning bosh fazilati – farosat. Farosat bo'lmasa tadbirkorlikka urinish behuda ovoragarchilikdir. Farosat nima? Farosat, avvalo, o'zingni anglash, o'z holingni to'g'ri idrok etishdir. Ikkinchidan, o'zgani tushunish, o'zgalarning ehtiyoji, xohishi, imkoni haqida to'g'ri tasavvur hosil qila bilishdir. Qolaversa, *farosat – voqelikni asliga muvofiq idrok etish, unga to'g'ri munosabat hosil qila bilmoqlik, nafaqat tushunish, balki voqelik talabiga muvofiq tadbir ishlab chiqish va uni hayotga tatbiq eta bilish hamdir.* Bu farosatning amaliy tarafini ba'zan alohida nom bilan uddaburonlik yoki tadbirkorlik ham deyishadi. Ustomonlik – shayton vasvasasidir, farosat – Allohning inoyati. Shayton vasvasasi 1–2 marta omad keltirib, insonning ko'zini shira bostiradi, so'ng uni halokatga yetaklaydi. Farosat insonga doimiy obodlik keltiradi.

Inson o'z qadrini iqtisodiy maydonda o'lchar ekan, talab va taklif uyg'unligini hisobga olmog'iga to'g'ri keladi. Uning ilmi, malakasi kim uchun va qay darajada zarur – mana shu masala uning iqtisodiy

maydondagi qadrini belgilaydi. *Tadbirkorning farosati yorug' olamdagi har bir inson, ashyo va mavjudotlar qadrini, jumladan, o'zi va o'zgalari qadrini, amaliy sharoitda, muayyan makon va zamonda aniq o'lchovlarda anglab yeta bilishi, shunga muvofiq tadbirlar tizimi ishlab chiqib, uni hayotga tatbiq eta bilishda namoyon bo'ladi.* Shu qobiliyatni aql va bilim bilanmi, tabiiy salohiyat tufaylimi amalda isbot eta olgan odam haqiqiy tadbirkordir va shu yo'l bilan jamiyatga nafi tekkan odamning noni halol, amali xayrlidir.

39. IJTIMOY TOIFALAR

O'tmishda:

dehqonlar, ahli hunar (ahli futuvva), tijorat ahli, ahli ilm, beklar va xonlar, kanizlar va g'ulomlar.

Bugun:

Ijtimoiy toifa	Tavsifi	Ijtimoiy vazifasi	Bosh ma'naviy fazilati
Dehqon ("fermer") (chorvador, bog'bon, ekinchi)	<i>Millatning boquvchisi</i>	<i>Birlamchi moddiy ne'matlar yetishtiruvchi</i>	<i>Tabiatga mehr</i>
Ziyoli (san'atkor, olim, muallim)	<i>Millat tarbiyachisi</i>	<i>Ma'naviy qadriyatlarini shakllantiruvchi</i>	<i>Borliq haqiqatni anglash va anglatishga intilish</i>
Hunarmand-kosib	<i>Qo'li gul usta</i>	<i>Sanoat sohasida mustaqil ishlab chiqaruvchi</i>	<i>Mahorat</i>
Tadbirkor (sanoatchi, tijoratchi, bankir)	<i>Mamlakatning iqtisodiy rivojini ta'minlovchi</i>	<i>Ishlab chiqarish, tijorat va moliya ishlari tashkilotchisi</i>	<i>Farosat</i>
Ishchi	<i>Tadbirkorning qo'li va oyog'i</i>	<i>Yollanma mehnat asosida ishlab chiqaruvchi</i>	<i>Mehnatkashlik</i>
Xizmatchi	<i>Tadbirkor va siyosiy arbobning ko'zi va qulog'i</i>	<i>Yollanma mehnat asosida turli xizmatlar bajaruvchi</i>	<i>Hozirjavoblik</i>

Siyosiy arbob (davlat va boshqa siyosiy tashkilotlarning mas'ul rahbarlik lavozimidagi ziyolilar)	<i>Mamlakatning siyosiy mustaqilligi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi</i>	<i>Siyosiy boshqaruv</i>	<i>Millat taqdiri oldidagi mas'uliyatni his etish</i>
Harbiy (jangchi va sarkarda)	<i>Millat himoyachisi</i>	<i>Favqulodda holatlarga doimiy jangovar hozirlikda turish</i>	<i>Fidoiylik</i>

40. TAVHID HAQIQATI

Allohning barcha kitoblarida uqtirilgan, ajdodlarimiz asrlar davomida anglab yetgan va imon keltirgan Borliq haqiqati *Tavhid haqiqatidir*.

«Tavhid» so'zining turli ma'nolari bor. Uning leksik ma'nosi – yagonalik va yaxlitlik, diniy talqini – faqat Allohning yagona ma'bud (sig'inishga loyiq yagona zot) ekanligi, tasavvufiy (irfoniy) talqini haqiqiy (boqiy) Borliq faqat Haqning Borlig'i ekanligi, ilmiy talqini dunyodagi jonli va jonsiz, harakatda va sokinlikda ko'ringan, o'tmish, bugun va kelajakka oid narsa va hodisalarning o'zaro uzviy bog'liqligi, yagona manba va manshaga oidligi, uyg'unligi va yaxlitligidir. Bu talqinlarning birortasi boshqalariga zid emas, milliy ma'naviyatimizda ular mohiyatan bir-birini to'ldirib keladilar.

Ma'naviyat nuqtayi nazaridan *Tavhid haqiqatining mohiyati* shundaki, yagona Alloh irodasi bilan biz ko'rib turgan Borliqning har bir uzvi, qismi, zarrasi o'zgalari bilan bog'liq, o'zaro aloqadordir. Shu sababli Borliqdagi har bir zarra o'zgarishi butun Borliqni o'zgartiradi, har bir zarradagi o'zgarish esa, o'z navbatida, butun borliqdagi o'zgarishdan kelib chiqadi.

Bu umumjahoniy qonuniyataro *yer yuzida xalifa* qilib yaratilgan Inson zotining alohida imtiyozi – uning irodasi erkin, unga ongli va ixtiyoriy harakat qilish imkoni berilgan.

Yer yuzida xalifalik ham katta imtiyoz, ham jiddiy mas'uliyatdir – ongli va hur zot sifatida Inson har bir qadami uchun butun Borliq oldida mas'ul, har bir xatti-harakatiga Alloh oldida javob beradi.

(*Tavhid haqiqatining* yana bir sirini e'tirof etish kerak. Borliqning

yagonaligi shuni taqozo qiladiki, undagi eng ibtidoiy makonda siljish harakatidan eng oliy ma'rifat yo'llarigacha aslida bir paytning o'zida mavjud. Faqat insoniy mantiqning muayyan darajada chekli ekanligi bois, biz tasavvur etgan zamon va makonda har bir narsa-hodisaning har bir holati kamolotning muayyan bosqichi doirasida tasavvur qilindi.)

41. TAFAKKUR TURLARI

I

*(Ibtidoiy jamoa,
qisman qadimgi dunyo va o'rta asrlar odamining
fikrlash tarzi)*

asotir tafakkur

(g'ayb olami va mavhum tushunchalarni
moddiy ashyo va hodisalarga bog'liq
holda tasavvur qilish)
(Oqibati: mushriklik)

amaliy tafakkur

(muayyan hayotiy tajriba asosida xulosa qilish)

II

*(Qadimgi dunyo odami,
Yangi davr odamlarining
fikrlash tarzi)*

Asosiy tafakkur turlari:

Mantiqiy tafakkur

(sabab-oqibat bog'lanishlari
asosida fikr yuritish)

Timsoliy tafakkur

(badiiy tafakkur, o'z fikrini ramz va timsollar
vositasida ifodalash)

Tarixiy tafakkur

(turli manbalar orqali aniqlangan ma'lumotlarga tayanib xulosalar qilish)

Evristik tafakkur

(ilohiy ilhom, ilmiy va badiiy ijod jarayonida tamomila yangicha g'oyalar, yechimlar, timsol va tasavvurlarning yaxlit shakllanishi)

Murakkab tarkibli tafakkur turlari:

Irfoniy tafakkur

(ilohiy ilhom, riyozat va ilohiy jazba natijasida hosil qilingan laduniy bilimlarni timsol va ishoralar vositasida ifodalash)

Falsafiy tafakkur

(mantiqiy va evristik tafakkur asosida Borliq haqiqatini modellashtirishga urinish)

Ilmiy tafakkur

(mantiqiy va evristik tafakkurga hamda maxsus amaliy tajribalarga tayangan holda muayyan nazariy muammoni hal qilishga urinish)

Riyoziy (matematik) tafakkur

(aniq formulalar, chizmalar, tenglamalar, raqamlar nisbati vositasida o'z fikr va g'oyalarini ifoda etish)

Estetik tafakkur

(muayyan hayotiy hodisalarga go'zallik va ichki uyg'unlik talablari-dan kelib chiqib munosabatda bo'lish)

Axloqiy tafakkur

(insonlarning amaliy faoliyatini muayyan ma'naviy-axloqiy tartib-qoidalar nuqtayi nazaridan baholash)

Siyosiy tafakkur

(ijtimoiy hodisalarga muayyan siyosiy manfaatlar nuqtayi nazaridan yondoshish)

Huquqiy tafakkur

(insonlarning xatti harakatlariga muayyan qonunlar bilan belgilangan huquqiy normalar nuqtayi nazaridan yondoshish)

III

XXI asr odamining fikrlash tarzi:

Tavhidiy tafakkur

(Insoniyatga xos barcha tafakkur turlari yagona Borliq haqiqatining turlicha jilolari ekanini anglab yetib, e'tirof etish, o'zgacha fikrlovchi insonni tushunishga intilish)

42. HAQIQAT NIMA?

Haqiqat – cheksiz. Qur'oni karimning “Baqara” surasidagi “Oyat al-kursi” nomi bilan mashhur bo'lgan 255-oyat nihoyatda e'l ichida mo'tabar sanaladi. Sababi, unda Alloh haqiqatiga juda ixcham, ammo mukammal ishora mavjuddir. “Alloh – undan o'zga iloh yo'qdir” deb boshlanuvchi ushbu oyatning faqat ikki jumlasini eslaylik: “Osmonlar va Yerdagi (barcha) narsalar Unikidir”..., “Uning kursisi Osmonlar va Yerdan (ham) kenglik qilur”, deb o'giradi ularni muhtaram tarjimon.

Milliy ma'naviyatimizda Borliq haqiqati Tavhid e'tiqodida ifodalanadi. Barcha buyuk ajdodlarimiz ana shu ulug' Haqiqatni tushunish uchun intilib yashaganlar va har kim o'z holi darajasida uni tavsif va talqin etishga uringan. Nazarimizda, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonida ushbu talqin eng mukammal suratda ifoda etilgan. Biz undan bir rivoyatning nasriy bayonini keltirish bilan cheklanamiz. Shoir “Ma'rifat vodiysi” ta'rifini bergach, uni izohlash uchun Sanoiydan bir rivoyat keltiradi:

“Eshit, bunga ushbu mojaro juda munosib misol bo'la oladi. Naql qilishlaricha, bir guruh ko'rlar to'dasi bir sabab bilan: musofirlik yoki asirlik tufayli Hindistonga borib qolishibdi. So'ngra falakning gardishi bilan ular o'z yurtiga qaytib keli-shibdi. Bu yerda ulardan bir kishi : “Filni ko'rdilaringizmi?” – deb so'rabdi. Ular: “Ha”, – deb javob beribdilar. “Ko'rgan bo'lsangiz, dalil keltiring”, – debdi boyagi kishi.

Ular aslida filni ko'rmagan, u haqda hatto yaxshi so'rab ham olmagan edilar. Har biri filning bir a'zosini paypaslab,

undan bilim hosil qilib olgan edi. Shu sababli filning qo'llarini ushlagan kishi fil sutunga o'xshar ekan, desa, qornini paypaslagan, yo'q, u besutun, dedi. Xartumini ushlagan, fil ajdahoga o'xshash bir narsa ekan, desa, tishlarini bayon qiluvchi kishi esa, fil ikkita suyakdan iborat, dedi. Quyrug'idan xabar bergan kishi filni osilib turgan ilonga qiyos etdi. Qo'li bilan filning boshini paypaslagan kishi uni bir cho'qqining tumshug'i deb sharh qildi. Filning qulog'iga qo'l yetkazgan kishi uni qimirlab turgan ikki yelpig'ich ekan, dedi. Ularning barchasi shu tariqa ko'rlik yuzasidan turli so'zlar aytdilar. Garchi ular aytdan so'zlarning barchasi to'g'ri bo'lsa-da, ularning hammasi nuqsonli edi, ularda tartib mavjud emas edi.

Shuning uchun ham filbonlik sohasida ustod hisoblangan yetuk faylasuf, o'zi hind naslidan bo'lgan kishi, ular aytdan so'zlarni tinglab, naql qilganlarga ta'na so'z aytmadi va shunday dedi:

– Har bir kishi fil haqida o'zi bilganlarini aytib, u haqda nishon berdi. Ular bir-birlariga zid fikr aytdan bo'lsalar-da, kechirarlidir. Chunki ularning har biri o'z bilganicha so'z aytdi, ammo ulardan hech biri filni ko'rgan emas edi. Lekin ular aytdan bu sifatlarning barchasi bir yerga jam' qilinsa, ulardan fil haqida muayyan tasavvur hosil bo'ladi.

Uzoqni ko'ruvchi kishiga bu juda yaqin bo'lgani uchun u hech ikkilanmasdan ko'rlar aytdan barcha so'zlarni chin deb baholadi"¹.

Yuqoridagi oyatda yana ishora qilinadi: "(Odamlar) Uning ilmidan faqat (U) istaganicha o'zlashtirurlar". Demak, har bir insonning bilimlari chegarali. Shu sababli *Borliq haqiqatini anglab yetish uchun avvalo insonlar bir-biriga e'tibor qilishi, bir-birini tushunishga intilishi lozim. Tabiatni, undagi har bir zarrani, maysani, tirik jonni tushunishga intilib yashamoq, doim o'zгани tushunishga intilmoq – ma'naviyat yo'li shudir.*

¹ Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. T., 1991, 402-b. (nasriy bayon muallifi Sh. Sharipov)

43. BILIM TURLARI HAQIDA

Qur'on oyatlari mazmunidan kelib chiqadigan bo'lsak, bilim (ya'ni ilm), avvalo, 2 turga ajraladi:

1) *Ilohiy bilim* – faqat Allohga tegishli bo'lgan cheksiz-chegarasiz, azaliy va abadiy bilim bo'lib, insonlarga u vahiy sifatida payg'ambarlar orqali nozil etiladi. Uni inson imon bilan qabul qiladi, rad qilish ham, isbot qilish ham inson qudratida emas. Bu, insonlar o'z tafakkur qudrati bilan bila olmaydigan bilim, mutlaq haqiqatning insonlar tilida ifodalanishi. Vahiy orqali kelgan ilohiy bilim adashuvlardan xoli mutlaq bilimdir. Ammo ilohiy kitoblar insoniy til bilan bayon qilinganligi sababli, insonlar tomonidan turlicha talqin etilishi mumkin.

2) *insoniy bilimlar* – insonning yer yuzida xalifalik maqomidan kelib chiqqan holda unga yaratilishidan berilgan tafakkur va tahlil qobiliyati tufayli hosil qilinadi, nisbiy, ya'ni nomukammal va adashuvlardan xoli bo'lmagan bilim. Har bir inson alohida olganda Borliq haqiqatini to'liq qamrab olish qudratiga ega emas. Bu qudrat faqat Allohga xosdir. Inson bilimlarining nisbiyligi, adashuvga moyilligi uning aqliga *nafs* ataluvchi shaytonning doimo ta'sir qilib turishi bilan ham bog'liq. Demak, faqat har bir shaxs o'zi tahlil va tafakkur bilan erishgan bilimlariga ishonib qolmay, o'zgalar bilimini ham e'tiborga olmog'i, o'zi va o'zgalar bilimini xolis qiyoslab, o'z havoyi-nafsidan Haq bilimi, ya'ni haqiqatni ustun qo'ya bilmog'i kerak;

3) bilimning yana bir turi *irfoniy bilim* bo'lib, unga ham ilohiy ilhom bilan erishiladi. Ammo u boshdan-oyoq ramz va ibratlar orqali beriladi, unda aniq hukmlar ham, aniq xabarlar ham yo'q. Irfoniy bilimlarni haqiqat ekanligini isbot qilish mumkin emas, ammo ularni inobatga olmaslik ham adashuvga olib kelishi mumkin.

Insoniy bilimlar bir nechta turga bo'linadi:

1. O'zga insonlardan yetib kelgan bilimlar, ya'ni *naqliy bilimlar*.

Naqliy bilimlar ikki guruhga bo'linadi: a) sizning atrofingizdagi, siz bilan jonli muloqotga kirishi mumkin bo'lgan insonlar bilimi; b) o'tmish ajdodlar va butun insoniyatdan manbalar orqali yetib kelgan bilim. Keyingisini yana ikki turga bo'lish mumkin: a) yozma matn holiday bilimlar, b) turli ashyolarda muhrlangan amaliy bilim natijalari. Bu ikki bilimni anglab yetish yo'llari ham o'ziga xos bo'ladi.

2. Inson o'z tafakkuri bilan yetishgan bilimlar, ya'ni *aqliy bilimlar*. Insonning o'zi mustaqil erishgan bilimlari ham bir nechta turga bo'linadi: a) hayotni kuzatib va tahlil etib hosil qilingan bilimlar; b) mantiqiy

bilim, ya'ni bilgan narsalarini o'zaro fikriy qiyoslash va tahlil qilish orqali hosil qilingan bilimlar; d) amaliy faoliyat jarayonida va yoki o'rganish bilan hosil qilingan malaka va ko'nikmalar shaklidagi bilim.

Ushbu barcha bilim turlarining o'zaro muvozanatda saqlanishi nihoyatda muhimdir. Mantiqiy tafakkur natijasida erishilgan *nazariy bilim* va insonning amaliy faoliyat jarayonida hosil bo'lgan *amaliy malaka va ko'nikmalari* o'zaro uyg'unlikda olib qaralishi maqsadga muvofiq bo'lsa, ikkinchidan, insonning o'zi erishgan va o'zgalar hosil qilgan bilimlari ham uyg'unlashtirilmog'i zarur.

Demak, har bir inson o'zining nazariy va amaliy bilimlarini, o'zi va o'zgalar hosil qilgan bilimlarni, o'tmish ajdodlar va zamondoshlar bilimlarini, ilohiy kitoblarda hidoyat uchun berilgan bilimlar bilan inson tafakkuri hosil qilgan bilimlarni qiyoslab va o'zaro uyg'unlashtirishga harakat qilib borsa, uning adashuv ehtimoli kamayadi va bunda bilimlar ishonchliroq bo'la boradi.

Aqliy bilimlar 2 xil yo'nalishda hosil qilinadi: a) *mantiqiy tafakkur orqali*, b) *modellashirish orqali*. Modellashirish, o'z navbatida – a) qiyosiy (ya'ni o'xshatish orqali); b) ramziy-majoziy; d) ilmiy-mantiqiy tushunchalarga tayangan holda analga oshirilishi mumkin. Modellar ham ikki turga bo'linadi: 1) ramzlarga tayangan model; 2) mavhum atamalarga tayangan model.

Badiiy adabiyot asosan ramziy-majoziy modellashirishga tayanadi. Ilmiy adabiyot uchun ramziy model birinchi bosqich vazifasini o'taydi. Mavhum atamalarga tayangan ikkinchi bosqich ko'proq falsafiy model tizimlarga xosdir. Yana matematik modellar ham uchraydi.

Tajribaviy bilimga ham 2 yo'l bilan erishiladi:

- a) hayot tajribasi orqali;
- b) maxsus tajribalar tufayli.

Yana bir bo'linishni eslab o'tish joiz:

a) **aniq va tabiiy fanlar.** Bular insonning moddiy ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan, ularni aniq bilish zarur, taxminiylik bu yerda taxmin darajasida qoladi. Bu bilim bilan na ilohiy, na irfoniy bilimlarni hosil qilib bo'lmaydi, moddiy voqelikdan tashqari chiqmoqchi bo'linsa, tajovuz bo'ladi, adashuvga olib keladi, g'ayri ilmga aylanadi;

Ijtimoiy-siyosiy, aniqrog'i insonlararo munosabatlarga oid bilimlar. Bularda bir natijaga erishish uchun ham ilohiy, ham irfoniy, ham aqliy, ham naqliy bilimlarga tayanib ish yuritish kerak bo'ladi. Birortasi hisobga olinmasa, xatoga yo'l qo'yish ehtimoli ko'payadi.

“MILLIY MA’NAVIYATIMIZ ASOSLARI” FANIGA OID ASOSIY TIMSOL-TUSHUNCHALARNING QISQACHA IZOHLI LUG’ATI

Kirish

Avvalo ushbu jahon ilmi uchun mutlaqo yangilik bo‘lgan fanning ba’zi o‘ziga xos jihatlariga izoh berib o‘tish lozim. Bugungi davrda jahon ilmi juda ildam qadamlar bilan taraqqiy etib bormoqda va har qadamda yangi-yangi fanlar shakllanmoqda. Ularning aksariyati ilgari ma’lum va mashhur bo‘lgan fanlarning u yoki bu tarmoqlarning rivoji orqali yoki ikki-uch fan o‘zaro kesishgan o‘rinlarda paydo bo‘layotgan bo‘lsa, ba’zida mutlaqo yangi asoslarga tayangan fanlar ham (kibernetika singari) ko‘zga tashlanib qolmoqda. Bunday holatlarni tabiiy qabul qilmoq kerak. Qadim zamonlarda ham falsafa, ilm-fan va san’at bir-biridan ajralmagan holatda bo‘lgan. Masalan, “Avesto” kitobida o’sha davrdagi xalqimizning e’tiqodi, voqelik haqidagi bilimlari, badiiy tafakkuri o‘zining yaxlit ifodasini topgan edi.

Bugungi tug‘ilib kelayotgan “Ma’naviyat asoslari” fani avvalo ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimiga mansub bo‘lib, shu sababli u tarixiy-nazariy fandir. Ya’ni, har bir xalq ma’naviyati uning o‘ziga xos madaniy-tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangani tufayli millat ma’naviyatining nazariy asoslari ham bir vaqtning o‘zida ham naqliy, ham aqliy bilimlarga tayanadi, ularning o‘zaro uyg‘unlashuvidan paydo bo‘ladi.

“Nega boshqa barcha fanlarda biz to‘g‘ridan-to‘g‘ri “tushuncha” (понятие) so‘zini ishlatamiz-ku, bu yerda “timsol-tushuncha” atamasi qo‘llanilyapti”, degan tabiiy savol tug‘iladi. Gap shundaki, millat ma’naviyati ilocsiz ravishda timsol-tushunchalarga tayanadi. Chunki ma’naviyat botiniy (ya’ni ichki, inson ruhiyat olamiga oid) hodisa, uni tashqaridan, oddiy ko‘z bilan ko‘rib, quloq bilan eshitib, qo‘l bilan paypaslab bo‘lmaydi. Shunday ekan, uning aniq o‘lchovlari, rangi, tusi, vazni haqida gap ortiqcha. Uning turli jihatlarini faqat ishoralar, timsollar orqali ifodalash mumkin, xalos, va xalqimiz doimo shu usulni qo‘llab kelgan. Biz bu yerda yangilik yaratishdan oqizimiz. Biz faqat xalq doim ishlatib kelgan timsol-tushunchalarni o‘zaro qiyoslab, bir-biriga nisbatini ifodalashga urinib ko‘rishimiz mumkin.

Boshqa fanlarda har bir atama aniq bir ma’noda qo‘llanilishi qabul qilingan. Ma’naviyatda unday emas. Ma’naviyatning timsol-tushunchalari har biri juda keng ma’no qamroviga ega. Biz xalqqa tegishli narsani o‘zimizcha o‘zgartirish imkoniga ega emasmiz. Biz faqat xalq

dilida gi muayyan tasavvurlarning ifodasi bo'lmish timsol-tushunchalarni anglab yetishga va ularni o'zimiz tushungan darajada ilmiy til bilan imkon boricha aniqroq bir ta'rifga keltirishga harakat qildik.

Oxirgi va aslida bugungi kun aksariyat ziyolilarimiz (ayniqsa, ijtimoiy fan vakillari) uchun qabul qilinishi juda og'ir kechayotgan muammo, bu — “Milliy ma'naviyatimiz asoslari” fanining umummetodologik asosi masalasidir. Ya'ni, ushbu fanni tushunishda qaysi dunyoqarashga tayanish lozim, degan muammo. Dunyoda nima ko'p, dunyoqarash ko'p. Har bir haqiqiy faylasuf o'z mustaqil dunyoqarash tizimiga ega. Ammo, sobiq Sho'rolar ittifoqida yagona dunyoqarash hukmron edi — dialektik materializm (ya'ni, marksizm-leninizm). Ushbu “eng to'g'ri ta'limot”ning tarix sahifalaridan tushib qolganiga kamida 15 yil bo'ldi. Mustaqillikning dastlabki yillari ba'zilar, ko'p ham mulohaza qilib o'tirmay, xalqimiz aksariyati musulmonlar, shunday ekan, dunyoqarashimiz ham islomiy bo'lishi kerak, degan fikrlarni ham o'rtaga tashlashdi. Ammo, avval islom o'zi nima, din va dunyoqarash bir narsami, deb o'ylab ko'rmasdan muammoni bunday “oson” hal qilishga urinish biror tayinli natija berishi qiyin. Musulmon olamida azaldan dunyoqarashlar xilma-xilligi mavjud bo'lib kelganligini tarixga bir nazar tashlagan odam bilib oladi. Bundan tashqari, turli dinlar dunyo xalqlarini turli toifalarga ajratib keladi, ma'naviyat esa insonlarni bir-biridan uzoqlashtiruvchi emas, birlashtiruvchi omil bo'lsagina, chin ma'noda ma'naviyatdir. Biz “islom dini” desak, xristian, yahudiy, mazdayasna dinlaridan farq qiluvchi e'tiqodni tushunamiz, ammo, “islom ma'naviyati”, ya'ni, ilohiy ta'limotning ma'naviyatga (qalb tarbiyasiga, botiniy kamolotga) tegishli qismi, insonlarni bir-biridan ajratuvchi emas, yaqinlashtiruvchi xususiyatga ega. Aniqrog'i, o'zgacha fikrlovchi insonlarni tushunishga qaratilgan, o'z ruhiy olamini Borliq haqiqati bilan uyg'unlashtirishga bo'lgan intilish ma'naviyat belgisidir. Xullas, milliy ma'naviyatimizning o'ziga xos dunyoqarash tizimi mavjuddirki, uni anglab yetish uchun milliy ma'naviy merosimizni xolis o'rganmoq, uni qalb orqali o'tkazmoq zarur. Xususan, bizning milliy dunyoqarashimiz ulug' shoirimiz Alisher Navoiy dunyoqarashida o'zining eng mukammal ifodasini topgan desak, ko'p ham yanglishmagan bo'lamiz. Faqat, Alisher Navoiy dunyoqarashini teran anglab yetishimiz uchun milliy ma'naviyatimiz tarixiy takomilining ungacha o'tgan bosqichlarini yaxshi bilishimiz kerak bo'ladi. Ushbu dunyoqarash tizimining asosiy tamoyillari O'zbekiston Prezidenti I. Karimov asarlarida o'z aksini topgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1) Ko'p qutbli dunyo; 2) inson – olam mehvari; 3) inson va jamiyat hayotining uch soha yoki yo'nalish (iqtisod, siyosat, ma'naviyat)dan iborat ekanligi, bu uch sohaning har biri mustaqil qiymatga ega bo'lib, ularni bir-biriga bo'yinsundirishga urinish noxush oqibatlariga sabab bo'lishi mumkinligi. inson va jamiyat kamolotining asosi ushbu uch yo'nalishning uyg'un rivojida ekanligi.

“Milliy ma'naviyatimiz asoslari” fani yaxlit tizim sifatida oson qabul qilinishi uchun lug'at alfavit tartibida emas, eng muhim timsol-tushunchalardan ikkinchi-uchinchi darajadagilariga qarab yo'nalgan ichki bir tartib asosida berildi. Ta'riflar lug'atda iloji boricha qisqa keltirilgan bo'lib, har bir timsol-tushuncha haqida to'liq tasavvur qilish uchun kitobning tegishli fasliga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Ta'riflar “Milliy ma'naviyatimiz asoslari” fani nuqtayi nazaridan berilganligini e'tiborga olish lozim.)

1. Ko'p qutbli dunyo – milliy dunyoqarashimizning tayanch nuqtalaridan biri, biz ko'rib turgan olamning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohalarda yuksak qudrat va mavqe kasb etgan shaxslar, guruhlar, davlatlar, mintaqalar xilma-xilligidan tashkil topganligi.

2. Inson – dunyo mehvari – milliy dunyoqarashimizning tayanch nuqtalaridan biri, ma'naviyat nuqtayi nazaridan, har bir insonga, imkoniyat (potensiya) darajasida, bu moddiy olamning markazi deb qarash, chunki u Alloh tomonidan «yer yuzining xalifasi» qilib yaratilgan va uning qalbi Borliq haqiqatining mazhari (namoyon bo'lish joyi)dir. Shunday ekan, har bir inson, agar astoydil xohlasa, butun olam holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatish imkoniga ega.

3. Iqtisod, siyosat, ma'naviyat uyg'unligi – milliy dunyoqarashimizning tayanch nuqtalaridan biri, inson va jamiyat hayoti ushbu uch sohadan (uch yo'nalishdan) iborat bo'lib, inson va jamiyat kamolotining asosi ularning o'zaro uyg'un rivojida ekanligi.

4. Iqtisod – inson va jamiyat hayotining uch asosiy sohasidan (yo'nalishidan) biri, har bir insonning atrof-tabiati (moddiy voqe)lik)ka amaliy munosabati.

5. Iqtisod fanlari – ijtimoiy-siyosiy fanlar tarkibiga kiruvchi ushbu ilm tarmog'i bugungi kunda o'zi ko'p tarmoqli mustaqil tizimga aylangan bo'lib, tabiiy va texnika fan tizimlari ham asli ko'p jihatdan keng ma'nodagi iqtisod sohasi ehtiyojlariga xizmat qiladi.

6. Siyosat – inson va jamiyat hayotining uch asosiy sohasidan

(yo'nalishidan) biri, har bir insonning o'zga insonlar bilan bevosita munosabatlari. Siyosat sohasi o'z navbatida axloq va huquq qatlamlaridan iborat bo'lib, ularning har birini o'rganuvchi alohida fan yo'nalishlari mavjud.

7. **Siyosatda huquq qatlami** – insonlararo munosabatlarning qonunlar orqali tartibga solinishi.

8. **Siyosatda axloq qatlami** – insonlararo munosabatlarning muayyan ma'naviy qadriyatlar asosida muvozanatda saqlanishi.

9. **Siyosatshunoslik (Politologiya)** – siyosat sohasini o'ziga xos muayyan yo'nalishda o'rganuvchi fan bo'lib, uning asosiy mavzusi (predmeti) davlat tizimi va siyosiy partiyalar, demokratiya va ijtimoiy adolat masalalarini qamrab oladi. Bugungi kunda siyosiy fanlar alohida tizimni tashkil etishidan tashqari agar siyosat sohasini keng ma'noda olib qaraladigan bo'lsa, huquqshunoslik, axloqshunoslik, jamiyatshunoslik kabi yana bir qator zamonaviy fanlar ham ayni shu sohaga oid masalalar bilan bevosita shug'ullanishini nazarda tutish lozim. Ulardan ba'zilari, masalan axloqshunoslik, bir paytning o'zida ma'naviyat sohasiga ham bevosita aloqador fanlar tizimiga kiradi.

10. **Ma'naviyat** – inson va jamiyat hayotining uch asosiy sohasidan (yo'nalishidan) biri, har bir insonning Haqqa, Borliqning mohiyatiga bo'lgan munosabati. Ma'naviyat – o'z mazmuniga ko'ra ko'p qirrali murakkab botiniy hodisa bo'lib, mohiyatan Inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg'unlikni anglatadi. Shu ma'noda uni Insonning, Xalqning, Jamiyatning, Davlatning kuch-qudrati, insonni ruhiy poklanish va yuksalishga da'vat etadigan, uning ichki olamini boyitadigan, iymon-irodasini, e'tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg'otadigan qudratli botiniy kuch, Haqiqat nurining inson qalbida aks etishi, yoki baqoning fanoda zuhuri, dunyoviy va uxraviy maqsadlarning uyg'unligi, insonning o'z mohiyati oldidagi mas'ulligi, o'zligini anglashi deb ham ta'riflash mumkin. Insonning Borliq abadiyatiga daxldorligi ayni uning ma'naviyati tufaylidir.

11. **Dunyoviy maqsadlar** – biz yashab turgan moddiy dunyoga oid (o'tkinchi) maqsadlar.

12. **Uxraviy maqsadlar** – oxiratga oid, keng ma'noda, azal va abad olamida o'z qadrini yo'qotmaydigan (Borliq haqiqatiga muvofiq) maqsadlar.

13. **Ba'qo** – abadiylik, azaliy va abadiy qudrat, mutlaq Haqiqat, inson ma'naviy kamolotining nihoiy maqsadi.

14. **Fano** – o‘tkinchi, muvaqqat holat, insonning moddiy olamdagi holati.

15. **Ma’naviyat asoslari** – Ma’naviyat sohasining asosiy masalalarini nazariy tadqiq etuvchi yangi fan. Bugungi kunda, hanuz jahon ilmi darajasida tadqiqotlar o‘tkazilmaganligini hisobga olib, «Milliy ma’naviyatimiz asoslari» deb atalishi maqsadga muvofiqdir. Inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg‘unlik darajalari (Vatan, Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat), Shaxs ma’naviyatining asosiy jihatlari (imom, ilm, mas’uliyat, mehr), Milliy ma’naviyatimizning takomil bosqichlari va shu kabilar bu fanning asosiy mavzusi (predmeti)ni tashkil qiladi.

16. **Inson** – ma’naviy kamolot imkoniga ega bo‘lgan (yagona) moddiy (biologik) mavjudot. Qur’oni karim oyatlarida ta’kidlanishicha, har bir inson Alloh tomonidan «er yuzining xalifasi» qilib yaratilgan, shunday ekan, butun moddiy olam uning tasarrufida va u dunyodagi barcha mavjudot taqdiri uchun mas’uldir. Insonning irodasi erkin va shu sababli har bir xatti-harakati uchun Alloh oldida javob beradi. Inson o‘z ma’naviy kamolot imkoniyatlarini yuzaga chiqara boshlagan sari tom ma’noda Shaxsga aylana boradi.

17. **Shaxs ma’naviyati** – har bir inson ruhidagi Borliq haqiqati bilan uyg‘unlik darajasi. Bu uyg‘unlik har bir shaxsning imoni, ilmi, mas’uliyati, mehri orqali namoyon bo‘ladi va Vatan, Shaxs, Millat, Adolat, Haqiqat tuyg‘ularida ifodalanadi.

18. **Borliq haqiqati** – (Истина Бытия) mavjud borliqning asl mohiyati, inson zoti hech qachon oxirigacha anglab yeta olmaydigan, ammo cheksiz ravishda turli yo‘llar bilan anglab yetishga intiladigan mutlaq haqiqat. Har bir inson Borliq haqiqati haqida muayyan tasavvurga ega bo‘lib, ushbu tasavvuri umri bo‘yi takomillashib borishi, ba’zan hatto keskin o‘zgarib ketishi ham mumkin.

19. **Imon** – shaxs ma’naviyatining muhim tarkibiy jihati, o‘zi anglab yetgan va to‘g‘ri deb bilgan Borliq haqiqatiga samimiy e’tiqod. Imon e’tiqod ma’naviyatning o‘zak tomiri bo‘lib, shaxs ma’naviyati imondan boshlanadi. Xalqimiz tilida “imonsiz” degan so‘z eng og‘ir haqorat sanalishi bejiz emas.

20. **Ilm** – shaxs ma’naviyatining muhim tarkibiy jihati va milliy ma’naviyatimizga xos ma’rifat yo‘llaridan biri, Borliq haqiqatini anglab yetishda bilimga, aql va tafakkurga tayanish. Ilm nuri bilan yorishmagan e’tiqod “taqlidiy imon” hisoblanadi va takabburlik bilan birlashsa aqidaparastlikka olib boradi.

21. **Mas'uliyat** – shaxs ma'naviyatining muhim tarkibiy jihati, o'zi anglab yetgan va to'g'ri deb bilgan Borliq haqiqatiga amalda sadoqat saqlash, har bir xatti-harakatining oqibatini o'ylab qadam qo'yish. Inson erkin irodasi bilan o'zini dunyodagi barcha mavjudot uchun mas'ul deb bilsa va har bir qadamini qo'yishda ana shu mas'uliyatni his qilib tursa ayni shu shaxs haqiqiy ma'naviyat sohibidir.

22. **Mehr** – shaxs ma'naviyatining muhim tarkibiy jihati va milliy ma'naviyatimizga xos ma'rifat yo'llaridan biri, insonlarga, tabiatga, har bir ishga beg'araz fidoyilik bilan munosabatda bo'lish. Mehr ma'rifati 1) inson ko'nglini anglab yetish va unga mehr ko'rsatish bilan tarbiyalash, 2) insonning boshqa bir insonga bo'lgan beg'araz muhabbati tufayli xudbinlik balosidan forig' bo'lishi va Borliq haqiqatini anglab yetishi (Alisher Navoiy talqinida) ma'nolarini anglatadi.

23. **Ma'rifat** – ma'naviy kamolot yo'li, insonning ko'ngil ko'zgisini sayqallash jarayoni, ya'ni har bir insonning butun ongli hayoti davomida o'zligini anglash, o'zining Borliq haqiqatiga nisbatini aniqlash va o'z ruhini Borliq haqiqati bilan uyg'unlashtirib borish yo'lidagi harakati.

24. **Tarbiyashunoslik (Pedagogika)** – ta'lim-tarbiya sohasining dolzarb masalalarini tadqiq etish bilan shug'ullanuvchi maxsus fan bo'lib, ma'naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga kiradi. Ma'rifat yo'llari (jumladan, ibrat va ilm, riyozat va mehr) orqali ifodalovchi o'zlikni anglash ya'ni ko'ngil ko'zgisini sayqallash jarayoni milliy pedagogikamizning asosiy mavzularidandir.

25. **Ibrat** – milliy ma'naviyatimizga xos ma'rifat yo'llaridan biri, el-yurt ehtiromiga sazovor ulug' bir insonning yashash tarzi, e'tiborga loyiq xatti-harakatlaridan namuna olib, hayotda ularga rioya qilish. Jumladan, islom ma'naviyatida payg'ambarimiz Muhammad(s.a.v) ibratlari yetakchi ahamiyatga egadir. Shu bilan birga ibrat ma'rifatini ko'r-kona taqliddan farq qilish juda muhim.

26. **Riyozat** – milliy ma'naviyatimizga xos ma'rifat yo'llaridan biri, muayyan ezgu maqsad yo'lida barcha qiyinchiliklarga bardosh berib, olg'a intilish. Islom mintaqa madaniyati doirasida riyozat ma'rifatini yuksak mukammallik darajasiga olib chiqishda tasavvuf piri murshidlarining xizmati beqiyosdir.

27. **Oliy ma'naviy qadriyatlar** – inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg'unlashuvining turli darajalarini ifodalovchi timsol-tushunchalar. Shaxs va millat ma'naviy kamolida besh daraja sifatida besh ulug' ma'naviy qadriyatni ajratib ko'rsatish mumkin. Bular – *Vatan, Shaxs,*

Millat, Adolat, Haqiqat. Bularning har biri bir paytning o'zida ham Millat ma'naviyatining bosh tayanchlari, murakkab ichki mundarijaga ega bo'lgan timsol-tushunchalardir.

28. **Vatan (tuyg'usi)** – milliy ma'naviyatimizga xos Oliy ma'naviy qadriyat, inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg'unlashuvining avvalgi darajasi, har bir insonning muayyan moddiy makonga ma'naviy munosabati. Bu timsol-tushunchaning ma'no ko'lami yana o'z ichki takomil darajalariga ega (1-ruh uchun badan, 2-xonadon, 3-shahar, qishloq, 4-mamlakat, 5-ona sayyora).

29. **Shaxs (tuyg'usi)** – milliy ma'naviyatimizga xos Oliy ma'naviy qadriyat, inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg'unlashuvining ikkinchi darajasi, har bir inson ma'naviy takomilning muayyan bosqichiga ko'tarilib, o'zligini anglay boshlagan holati.

30. **Millat (tuyg'usi)** – milliy ma'naviyatimizga xos Oliy ma'naviy qadriyat, inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg'unlashuvining uchinchi darajasi, har bir insonning muayyan (o'z tili, davlati, ma'naviy, siyosiy va hududiy birligiga ega bo'lgan) insonlar uyushmasiga o'zini aloqador ekanligini anglab yetishi.

31. **Adolat (tuyg'usi)** – milliy ma'naviyatimizga xos Oliy ma'naviy qadriyat, inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg'unlashuvining to'rtinchi darajasi, ma'naviyatning siyosat sohasida (ya'ni, insonlararo munosabatlarda) akslanishi (yuzaga chiqishi).

32. **Haqiqat (tuyg'usi)** – milliy ma'naviyatimizga xos Oliy ma'naviy qadriyat, inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg'unlashuvining eng yuqori darajasi, inson ma'naviy kamolotining tasavvur qilish mumkin bo'lgan ideal holati.

33. **Milliy ma'naviyat** – har bir millatga qaysidir bir tarzda aloqador hisoblanuvchi o'tmish, bugun va kelajakdagi barcha shaxslar ma'naviyati majmuyini muayyan bir tizim sifatida anglanishi. Milliy ma'naviyatimiz ham tarixiy hodisa, ham zamonaviy voqelik bo'lib, millatning o'tmishi, buguni, hamda kelajagini o'zida mujassam etadi. U millatimizning ma'naviy takomil jarayoni bilan bog'liq va nafaqat ajdodlarimiz yaratgan ma'naviy merosda, balki bugungi kun va kelajak avlodlarning hayotga munosabatida, orzu-istaklarida o'z aksini top-gandir. Uning teranligi va ko'lami ajdodlarimizning ming yillar davomida to'plagan yaxlit tarixiy-ma'naviy tajribasi bilan belgilanadi, shu bilan birga xalq donishmandligining turli suratlarda zuhur etishi ham u haqdagi nazariy xulosalarning manbayi bo'lib xizmat qiladi.

34. **Madaniyat** – inson ma’naviy faoliyatining hosilasi, ma’naviyatning moddiy voqelikdagi izlari. Boshqacha qilib aytganda, ma’naviyat botiniy imkon bo’lsa, madaniyat – ushbu imkondan tug’ilgan voqe mavjudlik. Shaxs va millat ma’naviyatining nazariy masalalarini o’rganish uchun ilojisiz ravishda ayni shu voqe mavjudlik dalillaridan kelib chiqishga to’g’ri keladi. Ma’naviyat sohasiga aloqador barcha fanlarning mavzulari ham aslida ana shu mavjud voqelik dalillariga tayangan holda ishlab chiqilishi tabiiy holdir.

35. **Madaniyatshunoslik (Kulturologiya)** – Ma’naviyat sohasiga aloqador yo’nalishdagi asosiy fanlardan bo’lib, jahon va mintaqa madaniyatlarini inson ma’naviy faoliyatining hosilasi bo’lmish mavjud voqelik sifatida olib o’rganish ushbu fanning asosiy mavzusi (predmeti)ni tashkil etadi.

36. **Islom mintaqa madaniyati** – asosan VIII – IX asrlarda shakllanib, Ispaniya va Shimoliy Afrikadan Volgabo’yi va Sharqiy Turkistongacha cho’zilgan hududdagi musulmonlar jamoasi uchun umumiy bo’lgan va deyarli XVI asr boshlarigacha nisbatan yaxlitligini saqlab kelgan madaniy-ma’naviy an’analar tizini.

37. **Milliy ma’naviyatimizning takomil bosqichlari** – Millatning ma’naviy kamoloti uning butun tarixi davomida yuz beradi, u ba’zan shiddat bilan yuksalib borsa, ba’zan ma’lum darajada tanazzulga yuz tutishi, unda ba’zan asrlar kunlarga, va aksincha, kunlar asrlarga teng bo’lishi mumkin. Ma’naviy takomil jarayonining o’ziga xosligi shundaki, agar tarix hodisalari, shaxslar, voqealar o’tkinchi bo’lsa, moddiy madaniyat unsurlari vaqt o’tishi bilan yemirilsa, ma’naviyat esa yuksalib, boyib, tobora kengroq ko’lam va teranroq mazmun kasb etib boraveradi. Millatning aksariyati ma’naviy tanazzulga yuz tutgan fojeiy sharoitlarda ham milliy ma’naviyat yo’qolmaydi, ko’lam va mazmunda o’zi yetishgan kamolot bosqichini yo’qotmaydi. Milliy ma’naviyatimizning necha mingyillik takomili shartli ravishda uch yirik davrga bo’linadi: 1. Islomgacha milliy ma’naviyatimiz taraqqiyoti. 2. Islom mintaqa madaniyati doirasida milliy ma’naviyatimiz takomili. 3. Yangi davrda milliy ma’naviyatimiz ahvoli. Bu davrlar o’z qamrab olgan muddatlariga ko’ra o’zaro teng emas. Birinchi davr necha ming yilni qamrasa, ikkinchi davr 8–9 asrni o’z ichiga oladi, uchinchi davr esa bizning o’lkamiz – Turkiston uchun 5 asr chamasi davom etib, oxirgi 200 yili ko’proq fojialarga to’liq bo’ldi. Bu davrlar o’z navbatida yana qator bosqichlarga bo’linadi.

38. **Eng qadimgi ma'naviyat unsurlari** – islomgacha milliy ma'naviyatimiz taraqqiyotining birinchi bosqichi. Tosh asriga muvofiq keluvchi ibtidoiy jamoa davrida shakllangan ma'naviy qadriyatlar. Bu davrda hanzuz yozuv ixtiro qilinmagani uchun yaxlit shakllangan alohida ma'naviyat tizimi haqida xulosa qilish qiyin.

39. **Ilk shahar jamoasi ma'naviyati** – islomgacha milliy ma'naviyatimiz taraqqiyotining ikkinchi bosqichi. Asosan bronza asriga muvofiq keluvchi ilk shahar-davlatlar davrida shakllangan yaxlit ma'naviyat tizimi (masalan, shumerlar ma'naviyati yoki “Avesto” ma'naviyati). Bu davr odamlari Borliq haqiqatini asosan asotir tarzida tasavvur etganlar.

40. **Asotir (mif)** – ibtidoiy inson ongida Borliq haqiqatining xayoliy timsollar vositasida ifodalanishi. Hozirgi zamon odami asotirni afsona sifatida tushunadi, ammo qadimgi dunyo odamlari asotirning Borliq haqiqatini ifodalashiga shubha qilmaganlar. Masalan, Qadimgi yunonlar Zevs, Apollon, Afrodita kabi turli sanamlarni Olimp tog'ida abadiy yashaydi deb tasavvur qilganlar va ular sharafiga ibodatxonalar qurib, qurbonliklar keltirganlar. Asotir va badiiy asarning umumiy tomoni Borliq haqiqatini timsollar vositasida anglash va anglatishga urinish bo'lib, ularning o'zaro farq qiluvchi tomoni – asotirni o'z davrining odami haqiqat deb qabul qilgan, san'at asarini esa insonlar mutlaq haqiqat deb o'ylamaydi, balki ibrat maktabi sifatida tushunadi.

41. **Millat va milliy davlatning shakllanishi** – islomgacha milliy ma'naviyatimiz taraqqiyotining uchinchi bosqichi. Temir asri yoki buyuk saltanatlar davrida shakllangan ma'naviy qadriyat – millat timsol-tushunchasining vujudga kelishi (masalan, turkiy bitiklarda o'z ifodasini topgan “turk buduni” timsol-tushunchasi).

42. **“Turk buduni”** – Buyuk turk xoqonligi (Ko'k turk xoqonligi) davrida umumturkiy adabiy til, mustaqil davlatchilik g'oyalari asosida mukammal shakllangan va “Kultegin bitigi”, “Bilka qog'on bitigi”, “To'nyuquq bitigi” kabi turkiy toshbitiklarda o'z ifodasini topgan yagona turkiy xalq va millat timsol-tushunchasi.

43. **Sunna bosqichi** – milliy ma'naviyatimizning islom mintaqa madaniyati doirasidagi takomilining birinchi bosqichi va yetakchi tamoyillaridan birinchisi, Tavhid Haqiqatini butun ko'lam bilan anglab yetishning dastlabki pog'onasi bo'lib, VIII–IX asrlarni o'z ichiga olgan bu bosqichda Payg'ambarimiz (s.a.v) sunnatlarining asosi bo'lmish hadis ilmi mukammal darajaga ko'tarildi va eng mo'tabar olti hadis

to'plami tuzildi. Bu bosqichning yetakchi tamoyilini Ibrat ma'rifati deb hisoblash mumkin. Sunna ibrat orqali e'tiqod bo'lib, Borliqning yagona Oliy haqiqati mavjudligini tan olish va unga chin dildan e'tiqod qilishni taqozo etgan,

44. Taqlidiy imon – ilm darajasiga ko'tarilmagan, mohiyatan anglab yetilmagan, faqat ibrat asosidagi e'tiqod bo'lib, uning egalari turli botil yo'nalishlar va aqidaparastlik ta'siriga oson berilish xavfidan xoli emaslar.

45. Tahliliy imon – chuqur bilim va tafakkur natijasida shakllangan, yuksak ma'naviyat egalari, orif insonlarga xos mohiyatan anglab yetilgan e'tiqod.

46. Islom ma'rifatchiligi bosqichi – milliy ma'naviyatimizning islom mintaqa madaniyati doirasidagi takomilining ikkinchi bosqichi va yetakchi tamoyillaridan biri, X–XI asrlarda o'zining eng yuksak takomilini namoyon qilgan va Tavhid haqiqatini mantiqiy tafakkur darajasida anglab yetishga erishilgan bu tamoyilni Ilm ma'rifati deb ta'riflash joizdir. "Islom ma'rifatchiligi" insoniyat anglab yetgan barcha mavjud bilimlar mohiyatan Tavhid e'tiqodiga muvofiq ekanligini ilm va mantiqiy tahlil vositasida isbot qilishga qaratilgan turli yo'nalishdagi qomusiy allomalar guruhining umumiy faoliyatini anglatadi.

47. Kalom (ilmi) – naqliy va aqliy bilimlar uyg'unligiga tayangan xos islom falsafasi va ilohiyot ilmi. Kalom ilmining dastlabki yirik oqimi bo'lgan mo'tazila din aqidalarini aql tarozisida o'lchab talqin etishga asoslangan edi, bu oqim vakillari islomning eng muhim ikki masalasi – Adolat va Tavhid tushunchalari talqinida shu darajada ilgari ketdilarki, ular izidan islom ma'rifatchiligining buyuk to'lqini kelishi davrning mantiqiy taqozosi bo'lib qoldi. Xalifa Ma'mun (813–833) davrida islomning mo'tazila talqini rasmiy ta'limotga aylandi va hatto mo'tazilaning Qur'onning yaratilganligi haqidagi qarashiga qo'shilmagan ruhoniylar tazyiq ostiga olina boshlandi. Bu holat to 849-yilda xalifa Mutavakkil (847–866) bunday bahslarni taqiqlash haqida farmon chiqarguncha davom etdi. X asrga kelib, kalom ilmining ashariya va moturidiya oqimlari shakllandi. Kalom falsafasi Tavhid ta'limotini minta-qadagi barcha eski aqidalar majmuyidan har tomonlama ustunligini aql va mantiq qudrati bilan isbotlab bergach, islomning ma'naviy mavqeyi beqiyos yuksalib ketdi, shu bilan birga Qur'oni karim oyatlarida ta'kidlangan tarixiy tadrijiylik qoidasi chuqurroq id-

rok etila boshlandi. Allohning oxirgi kitobi keltirgan ma'naviy boylikni teran anglab yetish uchun islomgacha yaratilgan butun madaniy merosni chuqur o'rganish va to'g'ri talqinda o'zlashtirish lozimligi ma'lum bo'lib qoldi.

48. **Falsafa – Borliq haqiqatini** (Borliqning mohiyati, unda insonning o'rni va vazifasi kabi eng umumiy muammolarni) mantiqiy tafakkur asosida anglab yetish va anglatishga urinish, aniqroq aytganda, Borliq haqiqatini turlicha xususiy timsol-tushunchalar asosida modellashtirishga urinish. Islom mintaqa madaniyati doirasida qadim yunon falsafiy maktabi an'analarini tavhid ta'limoti doirasida rivojlantirgan Forobiy, Ibn Sino kabi allomalarimiz merosi shu nom bilan atalgan.

49. **Falsafa(shunoslik) – ma'naviyat sohasiga aloqador fanlardan bo'lib, asosiy mavzusi (predmeti) jahon tarixida mavjud bo'lgan turli falsafiy tizimlarni Borliq haqiqatini mantiqiy modellashtirish usullari sifatida qiyosiy o'rganishdir.**Fan va uning tadqiq sohasi (obyekti) bir nom bilan atalganligi tufayli ba'zi ilmdan uzoq kishilar hayotda ularni o'zaro adashtirishi kuzatiladi.

50. **Faylasuf – Borliq haqiqatini o'zi anglab yetgan yoki tasavvur etgan darajada mustaqil falsafiy tizim shaklida modellashtira olgan ijodkor shaxs.**

51. **Falsafiy tizim – Borliq haqiqatining har bir faylasuf tasavvuridagi yaxlit mantiqiy modeli.**

52. **Botiniya –Islom ma'rifatchiligi bosqichida shakllangan Borliq haqiqatini idrok etishga oid yana bir yirik yo'nalish bo'lib, uning asosida ismoiliya bid'ati yotadi.** Shia mazhabidan ajralib chiqqan bu bid'at namoyandalari boshqa shialar kabi oltinchi imom Ja'far as-Sodiq (700–765) ning kichik o'g'li Muso al-Kozim (vafoti 799-yil) ni emas, katta o'g'li Ismoilni imomlikdagi vorisi degan da'vo bilan chiqdilar (Ismoil bin Ja'far otasi hayot chog'ida 762-yilda vafot etgan). Misrda Fotimiy-lar davlat tepasiga kelgach (909-yil), ismoiliylarning mintaqa bo'ylab faoliyati avj oldi va ta'siri ham kuchaydi. Davr aql va mantiqiy tafakkur davri edi. Shunga munosib ravishda ismoiliya bid'ati targ'ibotchilari o'zlarining murakkab falsafiy tizimini ishlab chiqdilar. Ular bilimni zohiriy (tashqi) va botiniy (ichki) darajaga ajratdilar. Zohiriy bilim avom uchun mo'ljallangan bo'lib, asosan shia mazhabi shariat ahkomlariga mos kelardi. Botiniy bilim esa faqat tanlangan tor doira – xoslar orasidagina tarqalishi nazarda tutilar va borliqni idrok etishning murakkab falsafiy tizimidan iborat edi. Botiniy bilimlar qomusi sifatida

shuhrat qozongan buyuk meros — X asrda yaratilgan 52 risoladan iborat “Rasoili ixvon-us-safo va xullon ul-vafo” (“Pok birodarlar va vafodor do’stlar risolalari”) majmuasi bo‘lib, bu majmuada 14 risola riyoziyot (matematika)ga, 17 risola tabiiy fanlarga, 11 kitob Oliy haqiqat sirlari va yana 10 kitob diniy masalalarning mantiqiy tahliliga bag‘ishlangan edi. Bu mukammal qomus islomgacha hosil bo‘lgan ilmiy-falsafiy merosni chuqur o‘zlashtirish asosida yuzaga kelgan bo‘lib, mintaqa ilmining keyingi rivojiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Botiniya yo‘nalishi asosan ismoiliya bid‘atiga bog‘lab talqin etilsa ham, aslida o‘sha davrlarda ko‘pchilik rasmiy aqidaga muxolif qarashlar shu nom ostida umumlashtirib talqin qilinganligini ham nazardan qochirmasligimiz kerak. Ushbu yo‘nalishning Movarounnahrda yirik namoyandasi buyuk shoir va mutafakkir Nosir Xusrav (1004—1088) ismoiliya qarashlarini jiddiy falsafiy ruhda talqin qilib, ijtimoiy adolat masalalariga alohida diqqatini qaratdi.

53. **Tasavvuf tariqatlari yoxud irfon bosqichi** — milliy ma’naviyatimizning Islom mintaqa madaniyati doirasidagi takomilining uchinchi bosqichi va yetakchi tamoyillaridan biri, Tavhid Haqiqatining irfoniy ta’rifini shakllantirgan tasavvuf tamoyili tarixida ayni XII—XIII asrlar keng xalq ommasini o‘ziga jalb eta boshlagan ulug‘ tariqatlar zamoni bo‘ldi va bu yo‘nalishning eng mukammal nazariy asoslari ham shu asrlarda yaratildi. Riyozat ma’rifatining eng yuksak namunalari ko‘rsatgan o‘z zamonasining ma’naviy qutblari — ulug‘ piri murshidlarning aksariyati shu asrlarda yashab o‘tdilar.

54. **Irfon** — tasavvuf nazariyasi, Borliq haqiqatini anglab yetishning tasavvufiy yo‘nalishi. Irfon Haqiqat ishqi alangasiga tik kirib borib, nafsni xudbinlik zangidan poklash va shu orqali shaxsning Oliy Haqiqatga daxldorligini amalda ta’minlash yo‘li.

55. **Zuhd** — zohidlik, moddiy olam hirs-u havaslaridan butkul yuz o‘girib, Alloh ibodatiga berilish, tarkidunyochilik, tasavvuf tamoyili tarixida birinchi bosqich.

56. **Shariat** — (arab tilidagi lug‘aviy ma’nosi “yo‘l”). Islom dinida barcha musulmonlar rioya qilishi shart bo‘lgan umumiy qonun-qoidalar. Tasavvuf yo‘lini tanlagan so‘fiylar uchun rioya qilish shart bo‘lgan birinchi bosqich.

57. **Tariqat** — arab tilida “tariq”so‘zining lug‘aviy ma’nosi ham “yo‘l” bo‘lib, “tariqa(t)”ning tasavvufiy ma’nosi ma’naviy kamolot sari intilgan so‘fiyning maxsus tanlagan yo‘lidir. Bu yo‘l tavba maqo-

midan boshlanib, muridning bir ulug' piri murshidga qo'l berishidan ("fano fi-sh-shayx" maqomi) to "fano fi-l-loh" darajasiga yetishguncha davom etadi. Majoziy ma'noda bu bosqichdagi piri murshidning vazifasini kulolga, muridni uning qo'lidagi loyga, "tavba" maqomini loyning xas-xashakdan tozalanishiga qiyos qilish mumkin. Barcha gunohlaridan astoydil tavba qilgan muridni sopol yoki chinni yasashga yaraydigan loy deb tasavvur qilsak, piri murshid unga ishlov berib, yaxshi bir ko'za yasaydi, unga jilo berib, "oftobda quritgach", pishirish uchun "xumdon"ga soladi.

58. **Ma'rifat(ulloh)** – tasavvufda tariqatdan keyingi uchinchi bosqich bo'lib, "Alloh(Haq)ni tanish" ma'nosini bildiradi va "fano fi-l-loh" maqomidan "baqo bi-l-loh" maqomigacha bo'lgan ma'naviy takomil darajasini anglatadi. Yuqoridagi majoziy o'xshatishni davom ettirsak, "ma'rifatulloh" bosqichini xumdonga qiyos etish o'rinli bo'lib, bu "xumdon"ning olovi esa "ishqi ilohiy"dir. Ana shu muqaddas ishq olovi butun borlig'ini chulg'ab olib, inson ruhiyatidagi nafs yo'liga moyillik va xudbinlik "chirki"ni butkul kuydirib tashlagan bo'lsa, so'fiy "haqiqat" bosqichiga ko'tarilib, oriflik maqomiga erishadi. Tasavvufda faqat oriflik maqomiga erishgan so'fiygina piri murshid xirqasiga noil bo'lishi mumkin.

59. "Fano fi-sh-shayx" – to'liq ishonch bilan piri murshid irodasiga o'zligini topshirish. Bu maqomni to'g'ri talqin qilish uchun tasavvufdagi piri murshidlik maqomining asl mohiyatini anglab yetish talab etiladi.

60. "Fano fi-l-loh" – lug'aviy ma'nosi:"Allohda yo'q bo'lish". Tasavvufiy ma'nosi: ilohiy ishq jazbasida butkul o'zlikdan kechish. Mansuri Xalloyning mashhur "Analhaq" xitobi ushbu holatning eng yorqin namunasidir.

61. "Baqo bi-l-loh" – lug'aviy ma'nosi "boqiylikda (abadiylikda) Allah bilan". Tasavvufiy ma'nosi: nafsoniy va xudbinlik mayllaridan butkul ozod bo'lib, irodasini to'liq Borliq haqiqatiga bo'ysundirish, oriflik maqomiga yetishish.

62. **Oriflik maqomi** – irfoniy kamolotda "haqiqat" bosqichiga ko'tarilib, valiylik darajasiga yetish.

63. **Orif** – laduniy bilim egasi, Borliq haqiqatini mohiyatan anglab yetgan, o'z ruhiyatida Borliq haqiqati bilan mukammal uyg'unlik hosil qila bilgan shaxs, tasavvufda ma'naviy kamolotning oliy darajasi bo'lmish "Haqiqat" bosqichiga ko'tarilgan solik.

64. Piri murshid – Oriflik maqomiga yetishib ustozi tomonidan muridlarni mustaqil tarbiyat qilish huquqiga musharraf bo'lgan solik, muayyan tariqat silsilasida alohida halqa sohibi.

65. Ilmi laduniy (laduniy bilim) – irodasini to'liq Borliq haqiqatiga bo'ysundirgan alohida insonlar musharraf bo'ladigan, Alloh inoyati bilan erishiladigan bilim (Imom G'azzoliy uni "mukoshafa ilmi" ya'ni kashf etiladigan ilm deb ataydi). Bu ilmga noil bo'lganlar valiylik maqomiga erishgan karomatli zotlar hisoblanadi.

66. Ilohiy fayz – (1) Qur'oni karimning «Nur» surasi 35-oyatida ishora etilgan Alloh «nuri», (2) Allohning alohida inoyatiga noil bo'lgan xos insonlarga nasib qiladigan ma'naviy quvvat, (3) ilmi laduniy (mukoshafa ilmi) ba'zan shunga tenglashtiriladi.

67. Olim – o'qish-o'rganish, ustozdan ta'lim olish yo'li bilan erishiladigan bilim egasi, zohiriy (xoh diniy, xoh dunyoviy) ilmlarni o'zlashtirgan inson.

68. Moddiy olam – biz yashab turgan zohiriy dunyo, moddiy mavjudotlar olami.

69. Moddiy mavjudot – Zamon va makon kesishuvida muayyan o'rin egallab turgan ashyo, mavjudlik.

70. G'ayb olami – inson o'z aqli va tafakkuri, hayotiy tajribalari va maxsus uskunalar yordamida bila olmaydigan, faqat ilohiy kitoblardagi maxsus xabarlar va ishoralar orqaligina bizga ma'lum bo'lgan voqelik. Materialistik dunyoqarashning cheklanganligi g'ayb olamini tan olmaslikda yaqqol ko'zga tashlanadi.

71. Zohir – tashqi, inson va narsa-hodisalarning ko'zga ko'rinib turgan, sezgi a'zolari bilan bilsa bo'ladigan tomoni.

72. Botin – ichki, inson ruhiyatiga oid tashqi sezgi a'zolari bilan bilib bo'lmaydigan jihatlar.

73. "Majoz tariqi" – milliy ma'naviyatimizning islom mintaqa madaniyati doirasidagi takomilining to'rtinchi bosqichi va yetakchi tamoyillaridan biri, "Al-majoz-u qantarat ul-haqiqa" (Majoz haqiqatning ko'prigidir) hadisiga tayanuvchi alohida dunyoqarash tizimi. XIV–XV asrlarda to'kis shakllangan Tavhid haqiqatini anglab yetishning eng yuqori pog'onasini tashkil etuvchi ushbu tamoyil Borliq haqiqatini anglab yetishning badiiy adabiyotga xos maxsus yo'nalishi bo'lib, Alisher Navoiy ijodida o'zining ham nazariy, ham amaliy mukammal ifodasini topdi. Bu tamoyilning ulug' mutafakkir shoir "pok ishq" deb atagan o'zak timsol-tushunchasini bugungi kun xalqimiz tilidagi aniq

ifodasidan kelib chiqib mehr ma'rifati deyilsa, xato bo'lmas. "Majoz tariqi" Haqiqat izlovchilarni yana baqodan fanoga yuzlantirdi. O'zligini anglab yetganlar o'z qalbiga sayqal berib, unda Haqiqat nurining aks etishiga erishganlar endi o'zgalar qalbiga ziyo baxsh etishni hayot mazmuniga aylantirmoqlari asosiy maqsad yo'nalishi qilib belgilandi. Alisher Navoiy talqiniga ko'ra yetakchi qoida "Majoz tariqi" namoyandalari Haqiqat asrorini majozdan izladilar, "majoz"da Haqiqat izlarini ko'rdilar va fano orqali baqoga intildilar.

74. **Badiiy ijod tariqi** – adabiyot nazariyasiga oid muhim tushuncha, badiiy adabiyotning mazmuniy jihati, ya'ni badiiy tafakkur qonun-qoidalariga aloqador bo'lib, arab tilidagi "tariq" so'zi qadim yunon tilidagi "metodos", ya'ni "yo'l", "borliqni anglab yetish va aks ettirishning o'ziga xos yo'li" ma'nosini anglatadi. Alisher Navoiy ushbu atamadan ijodiy foydalanib, islom mintaqa adabiyotida "haqiqat tariqi" va "majoz tariqi" deb atalmish ikki adabiy yo'nalish va badiiy ijod tariqi mavjudligini kashf etdi va ularning har birini qisqacha ta'riflab, XII–XV asrlarda yashab forsiy va turkiy tillarda ijod etgan ulug' shoirlarning qaysi biri qaysi yo'nalishga mansub ekanligini aniq ko'rsatib berdi. Natijada badiiy ijodga Borliq mohiyatini idrok etish va ijodiy akslantirishning alohida bir yo'nalishi sifatida ongli yondoshuv islom mintaqasida Yevropadan bir necha asr ilgari mukammal shakllandi. Alisher Navoiyning badiiy ijod tariqiga oid nazariy mulohazalari "Mahbub ul-qulub" risolasi "Avvalgi qism"ining "Nazm gulistonining xushnag'ma qushlari zikrida" deb atalgan 16-faslida mukammal bayon qilingan.

75. **Ko'ngil ko'zgusi** – milliy ma'naviyatimiz an'alariga ko'ra Inson ko'ngli ma'rifat xazinasi bo'lib, bu sehrli tilsim ichiga Alloh haqiqati o'z sirrini pinhon etgandir. Ma'naviyat ana shu ko'ngil tilsimiga yashiringan Alloh haqiqatining zuhuridir. Inson ruhi Borliq haqiqati bilan doimiy uyg'unligini saqlashi uchun ibrat va ilm, riyozat va mehr ma'rifati uni bir zum tark etmasligi talab etiladi, ayni shular ko'ngil ko'zgasini pok tutib turadi.

76. **"Ishqi haqiqiy"** – tasavvuf irfonida Haq ishqi, Borliq haqiqatiga fidoyilik, "ishqi ilohiy".

77. **"Ishqi majoziy"** – tasavvuf ahli nazdida bu dunyo, o'tkinchi olam mavjudotlariga qaratilgan muhabbat. So'fiylar bunday ishqni arzimas hisoblab, "ishqi haqiqiy"ga intilishni ma'qul ko'rsalar, "Majoz tariqi" vakillari Payg'ambarimiz(s.a.v)ning "Al-majoz-u qantarat ul-

haqiqa” (Majoz haqiqatning ko‘prigidir) hadisidan kelib chiqib, “ishqi majoziy”ni “ishqi haqiqiy”ga eltuvchi yo‘l sifatida ulug‘laydilar.

78. “Avom ishqi” — Alisher Navoiyning ta‘rifiga ko‘ra “oddiy odamlar ishqi bo‘lib, xalq orasida mashhur va keng tarqalgandir... Bu ishqi jismoniy lazzat va shahvoniy nafs bilan chegaralanadiki, oliy martabasi — shar‘iy nikohdir... Quyiroq martabasida janjal, tashvishlar, ko‘ngilsizlik va sharmandaliklar ko‘rinadiki, bu haqda so‘zlash — odobsizlik, bayon etish hayosizlikdir” (“Mahbub ul-qulub” asari, 2-qism, 10-bob).

79. “Xavos ishqi” — Alisher Navoiyning ta‘rifiga ko‘ra, alohida fazilat egalariga xos ishqi bo‘lib, “pok ko‘zni pok nazar bila pok yuzga solmoqdur va pok ko‘ngil ul pok yuz oshubidin qo‘zg‘almoq va bu pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz mahbubi haqiqiy jamolidin bahra olmoq” (pok ko‘zni pok niyat bilan pok yuzga qaratmoq va pok ko‘ngil ul pok yuzning shavq-zavqi bilan beqaror bo‘lmog‘i va bu pok yuz vositasi bilan pok oshiq haqiqiy mahbubning jamolidan bahra olmog‘i). Xalqimiz aytadiki, bir ish qilsang “xolisanlilloh” qilgin, ya‘ni xolis Alloh taolo yo‘lida qilingan har bir ish xayrlidir, agar unga xudbinlik, g‘araz aralasha, yaxshiday ko‘ringan ish ham yomonlikka olib kelishi mumkin. Navoiy nazdida “xavos ishqi” insonning insonga bo‘lgan ayni shunday Haq yo‘lidagi har qanday g‘arazdan xoli, pok mehridir. O‘z ijodida ana shunday pok insoniy ishqni tarannum etgan Amir Xusrav Dehlaviy va Hofiz Sheroziy kabi ulug‘ shoirlarni Navoiy “ishq ahlining pokbozlari” deb ataydi. “Layli va Majnun” dostonida bir insonning o‘zga insonga bunday pok mehri “oyinayi getinamo” (Borliq haqiqatini o‘zida aks ettiruvchi ko‘zgu) deb ta‘riflanadi.

80. “Siddiqlar ishqi” — Alisher Navoiyning ta‘rifiga ko‘ra moddiy olam orzu-havaslarini butkul tark etgan tasavvuf ahliga xos bo‘lib, ular “Oliy haqiqatning tajallisi (nurlanishi) jamolig‘a uning (moddiy olam mavjudotlari qiyofasidagi) ko‘rinishidan tashqari, bevosita maf-tun bo‘lganlar va o‘zlarini shu yo‘lga taslim etganlar va ushbu (Oliy haqiqat jamolini bevosita) ko‘rishga intilish behushligida idrok qilish qobiliyati ulardan begona bo‘lgan. Ularni (Oliy haqiqatni bevosita) ko‘rish (istagi) butkul g‘arq etgan va ular g‘arq bo‘lishdan o‘tib, halok bo‘lish darajasiga yetganlar...», «Agar hodisalar bo‘roni osmon gulshaning bir qabatini uchirib ketsa — ular bexabar va agar yulduzlar gulbargini har tomonga sovrursa, bularga ta‘sir qilmaydi. Ularning his-lari Haq jamolini ko‘rish tashvishi bilan ishdan chiqqan, shavq-za-

vqlari esa, unga bo'lgan ishq hujumlari ostida yo'qolib bitgan...» Adibning bunday mubolag'ali ta'riflarida uning «siddiqlar», ya'ni tarkidunyochi tasavvuf ahli qarashlariga munosabati aniq aks etgan bo'lib, bu daraja fidoyi e'tiqodga ehtirom tuyg'ulari bilan bir paytda ularning moddiy dunyo, real insonlar tashvishidan uzoqlashib ketganliklari, «xalq g'amidini g'amini» yo'qligiga muayyan ishoralar ham mavjud.

81. **“Xavos”** – 1) xos kishilar, Alisher Navoiy nazdida o'zligini anglab yetgan, ya'ni, o'zining Borliq haqiqatiga nisbatini to'g'ri anglab yetib, shunga yarasha hayotiy mezonlarini belgilab olgan, o'z insonlik burchini teran idrok etib, shunga yarasha amal qiluvchi yuksak ma'naviyatli ogoh shaxslar; 2) XIX – XX asrlarga kelib, oddiy xalq tushunchasida yuqori tabaqa vakillari, beklar, aslzodalar, “zodagonlar” ma'nosida ishlatila boshlagan.

82. **“Avom”** – 1) omi odamlar, Alisher Navoiy nazdida ijtimoiy kelib chiqishi, boyligi va amalidan qat'i nazar, o'zligini anglab yetmagan, ma'naviy saviyasi past bo'lgan insonlar, agar kimki o'zligini anglab yetmagan bo'lsa, o'zini yeb-ichib, “kayfi safo qilib” yurishdan ortiqqa arzitmasa hanz u haqiqiy shaxs maqomiga ko'tarilmagan, oddiy bir “xudoning maxluqi” darajasida qolib ketgan, bunday insonlarning jamlanmasi esa “xalq” emas, “olomon” atalishga loyiq bo'ladi. Haqiqiy fuqarolik jamiyati, o'zini muayyan millatga mansub deb bilgan shaxslar ogoh odamlardan iborat bo'lmog'i kerak; 2) keyingi davrlarda yuqori tabaqa vakillari orasida “qora xalq”, past tabaqa vakillari ma'nosida ishlatila boshlagan.

83. **“Ahli qabul”** – Alisher Navoiy nazdida Borliq Haqiqatini e'tirof etuvchi, insof va diyonat, sabr va rizolik, halollik va mehr yo'lini tanlagan imon-e'tiqodli insonlar.

84. **“Ahli rad”** – Alisher Navoiy nazdida Borliq Haqiqatini tan olishdan bosh tortuvchi, norizolik va badbinlik, xiyonat va xudbinlik, harom va qahr yo'lini tanlaganlar, imonsiz kishilar.

85. **Ahli futuvva, yoki javonmardlar** – IX–XV asrlarda islom mintaqasida keng tarqalgan ijtimoiy-ma'naviy oqim namoyandalari, asosan shahar kosib-hunarmandlaridan iborat bo'lib, piri komil rahbarligida ham jismoniy, ham ma'naviy kamolot sari intilishni halol rizq topish harakati bilan uyg'unlikda olib borgan yuksak ma'naviyatli shaxslar jamoasi.

86. **Darvesh** – Navoiy nazdida ma'naviy kamolotga erishgan shaxs, haqiqiy ziyoli timsoli, “ichi tashi bilan muvofiq, balki arig'roq (pok-

roq), botini zohir bila musoviy (teng muvozanatda), balki yorug‘roq” deb ta’riflaydi ularni shoir. Bu toifa ahli elga faqat ma’rifat, ilm nurini tarqatish bilan kifoyalanmaydi, ular insonlar diliga poklik, mehr-oqibat, ezgulikka intiqlik, o‘z-o‘zini anglash tuyg‘ularini singdiradi.

87. **Simurg’** – Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” asaridagi o‘ta muhim ijtimoiy-irfoniy ma’no tashuvchi yetakchi timsol. Bashariyat miqyosidagi mukammal ijtimoiy tizimning shakllanishi undagi har bir shaxsning ma’naviy barkamolligi bilan bog‘liq ekanligi, bu barkamollik bani odamning har bir a‘zosi ko‘nglidagi bir-biriga nisbatan beg‘araz va samimiy mehr mas’uliyati bilan o‘lchanishi, insoniyatning mohiyatan yaxlitligi va buni anglab yetish har bir insonning ma’naviy kamolot sari cheksiz intilishi orqali yuz berishi mumkin ekanligi, insoniyatning yaxlit mohiyat sifatidagi birlashuvi esa zo‘rluk va bosqin asosida emas, turli inson toifalari, millat va elatlararo bir-birini tushunishga intilish, beg‘araz va fidoyi mehr asosida o‘zaro yaqinlashuvi orqali erishiladigan voqelik ekanligini anglatuvchi badiiy tashbih.

88. **“Nafrasonlik”** – Alisher Navoiy asarlarida (xususan, “Hayrat ul-abror” dostonining maxsus bobida) ulug‘langan yuksak ma’naviyat egalariga xos insoniy fazilat. Jamiyatga, o‘zga insonlarga xolis yordam berish, mehr ko‘rgazish, o‘zgalarning mushkulini oson qilishni o‘zining hayotdagi asosiy maqsadi deb bilish. Shoirning quyidagi satrlarida bu g‘oya yorqin ifodalangan:

*Kimki bir ko‘ngli buzuqning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim Ka’ba vayron bo’lsa, obod aylagay.*

89. **Tavhid** – so‘zning leksik ma’nosi – *yagonalik* va *yaxlitlik* bo‘lib, timsol-tushuncha sifatida milliy ma’naviyatimiz tarixiy takomilida turli zamon va turli soha namoyandalari tomonidan turlicha talqin etilgan. Masalan, (Sunna bosqichiga xos) *diniy talqini* – faqat Allohning yagona ma’bud (sig‘inishga loyiq yagona zot) ekanligi, (Islom ma’rifatchiligi bosqichiga xos) *ilmiy talqini* dunyodagi jonli va jonsiz, harakatda va sokinlikda ko‘ringan, o‘tmish, bugun va kelajakka oid narsa va hodisalarning o‘zaro uzviy bog‘liqligi, yagona manba va manshaga oidligi, uyg‘unligi va yaxlitligi, (Tasavvuf tariqatlari yoxud irfon bosqichiga xos) *tasavvufiy (irfoniy) talqini* – haqiqiy (boqiy) Borliq faqat Haqning Borlig‘i ekanligi, (“Majoz tariqi” bosqichida shakllangan) *mumtoz adabiyotimiz namoyandalari ijodida aks etgan qarash* – haqiqiy Borliq – Haqning Borlig‘i, bu dunyo – ya’ni biz ko‘rib turgan moddiy olam esa Haqning mazhari (ko‘zguda namoyon bo‘lishi), ammo

biz insonlar ham ushbu ko'zgodan (majoz olamidanda) tashqarida emas-miz, shunday ekan, biz asosiy e'tiborni Haq jamoli aks etuvchi ko'zgu bo'lmish inson qalbiga qaratishimiz, insonga mehr qo'yishimiz, qolaversa, Alloh yaratgan moddiy olamning har bir zarrasiga mehr va e'tibor bilan qarashimiz, jiddiy o'rganishimiz, ijtimoiy hayotimizni ham ma'naviy qadriyatlarga tayangan holda takomillashtirib borishimiz lozim. Shunday qilib, "Majoz tariqi"da Tavhid mohiyati Yangi davr qadriyatlariga muvofiq keluvchi yangicha talqin oldi. Ammo sanab o'tilgan talqinlarning birortasi boshqalariga zid emas, milliy ma'naviyatimizda ular mohiyatan bir-birini to'ldirib keladi.

90. **Tavhid haqiqati** – Allohning barcha kitoblarida uqtirilgan, ajdodlarimiz asrlar davomida anglab yetgan va imon keltirgan Borliq haqiqati bo'lib, Tavhid e'tiqodida ifodalanadi. Tavhid haqiqatining mohiyati shundaki, yagona Alloh irodasi bilan biz ko'rib turgan Borliqning har bir uzvi, qismi, zarrasi o'zgalari bilan bog'liq, o'zaro aloqadordir. Shu sababli Borliqdagi har bir zarra o'zgarishi butun Borliqni o'zgartiradi, har bir zarradagi o'zgarish esa, o'z navbatida, butun borliqdagi o'zgarishdan kelib chiqadi. Bu umumjahoniy qonuniyataro yer yuzida xalifa qilib yaratilgan Inson zotining alohida imtiyozi – uning irodasi erkin, unga ongli va ixtiyoriy harakat qilish imkoni berilgan. Shu bilan birga Yer yuzida xalifalik ham katta imtiyoz, ham jiddiy mas'uliyatdir – ongli va hur zot sifatida Inson har bir qadami uchun butun Borliq oldida mas'ul, har bir xatti-harakatiga Alloh oldida javob beradi. Tavhid haqiqatining yana bir sirini e'tirof etish kerak. Borliqning yagonaligi shuni taqozo qiladiki, undagi eng ibtidoiy makonda siljish harakatidan eng oliy ma'rifat yo'llarigacha aslida bir paytning o'zida mavjud. Faqat insoniy mantiqning muayyan darajada chekli ekanligi bois, biz tasavvur etgan zamon va makonda har bir narsa-hodisaning holati kamolotning muayyan bosqichi doirasida tasavvur qilinadi.

91. **Yangi davrning ma'naviy mohiyati** – Yangi davrning buyuk haqiqati ikki asosda: 1) dunyoni surat va ma'no yaxlitligida o'rganish va 2) bahamjihatlikda boshqarishga intilish bilan o'zligini namoyon etadi.

92. **Yangi davr ma'naviyatiga o'tish yoki islom mintaqa madaniyati davri ma'naviy yutuqlarining ommalashuvi bosqichi** – Yangi davr milliy ma'naviyatimiz takomilining ikki bosqichidan birinchisi, XVI asrdan XIX asrning birinchi yarmigacha davom etadi. Bu bosqichda yaxlit

islom mintaqa madaniyati erishgan yutuqlar zaminida mahalliy o'lkalar keng xalq ommasining ma'naviy saviyasi oshib bordi, mintaqa xalqlari o'tgan davrda erishilgan yuksak ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolishga va rivojlantirishga urindilar, shu bilan birga mintaqa siyosiy hayotida tanazzul jarayonlari yildan yilga kuchayib, islom dunyosida siyosiy parokandalik va yaxlit mintaqa madaniyatining parchalana boshlashi, hokimiyatni boshqarishda sulolaviylik an'anasining jamiyat ma'naviy takomil darajasi bilan nomuvofiqligining keskin namoyon bo'lishi, turli siyosiy guruhlararo noittifoqlik balosi, ma'naviyat ahlining siyosatga aralashuvi, xos va avom orasidagi ma'naviy chegaraning yo'qolib borishi kuzatiladi.

93. "Milliy iztirob" she'riyati — XVII—XIX asr birinchi yarmida millat hayotida yuz bergan siyosiy va ma'naviy tanazzul asoratlari-dan ma'naviy azoblanishning Turdi Farog'iy, Mashrab, Maxmur, Gulxaniy kabi shoir va adiblar ijodida yorqin namoyon bo'lishi.

94. Siyosiy qaramlik davrida ma'naviyatimiz ahvoli yoki Milliy ma'naviyatimizning Yangi davr Yevropa madaniyati bilan bevosita to'qnashuvi Yangi davr milliy ma'naviyatimiz takomilining ikkinchi bosqichi bo'lib, bu jarayon boshlanishdanoq foje bir tarzda — qadim Turon xalqlarining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va 150 yillik mustamlaka holatida murakkab bir tarzda kechdi. Bu bosqichdagi milliy ma'naviyatimiz uchun eng ahamiyatli hodisa Milliy uyg'onish va jadidlarning madaniy-ma'rifiy faoliyatidir.

95. Milliy uyg'onish va Yangi davr ma'rifatchiligi — Qaramlik davri Turkiston o'lkasi xalqlarining milliy mustaqillik uchun kurashi ikki yo'nalishda kechdi. Birinchisi — qurolli kurash, qo'zg'olonlar yo'li bo'lib, ikkinchisi ma'rifatparvarlar va jadidlar harakatida yorqin namoyon bo'lgan madaniy-ma'rifiy yo'nalish edi. Ikkinchi yo'nalishning asosiy maqsadi xalq madaniy-ma'rifiy saviyasini oshirish, ma'naviyatini takomil toptirish, milliy iqtisodni yangi izlardan yuksaltirish yo'li bilan, Yevropaning ilg'or idora usullarini o'zlashtirib, millatning haqiqiy ozodligini ta'minlash bo'lib, "usuli jadid" maktablaridan boshlangan bu harakat XX asrning ikkinchi o'n yilligidan butun mintaqada yalpi rivoj olib, Milliy uyg'onish harakati darajasiga ko'tarildi. Bu harakat vakillari Vatan mustaqilligi va xalq ma'rifati yo'lida butun kuchg'ayratlarini sarf etdilar, ularning aksariyati bu yo'lda jonlarini fido etib, o'zlarining jo'shqin va barakali siyosiy-ma'rifiy faoliyatlari bilan millat xotirasida fidokorlik timsoli bo'lib qoldilar.

96. Jadidchilik harakati — milliy mustaqillik uchun kurashning

jadidlar olg'a surgan madaniy-ma'rifiy yo'nalishi bo'lib, bu yo'lning fidoyilari ishni "usuli jadid" maktablari ochish, ularga mos darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlab nashr etish, "darsxonayi ibrat" hisoblangan milliy teatr va milliy dramaturgiyani shakllantirishdan boshlab, asta-sekin keng ko'lamlı siyosiy va iqtisodiy mustaqillik uchun kurash ("Turkiston muxtoriyati"), milliy ma'naviy merosdan ajralmagan holda yangi davr saviyasiga muvofiq ilm-fan asoslarini ishlab chiqish, ilg'or jahon ilmi darajasida fikrlovchi milliy ziyolilar qatlamini tarbiyalab yetkazish vazifalarini barcha to'sqinliklar va qarshiliklarga qaramay dadillik va izchillik bilan amalga oshirib borishga erishdilar va ushbu sobitqadam intilishga butun borliqlarini baxsh etdilar. Ularning urinishlari behuda ketmadi, sho'rolar davrida ham millat fidoyilari qaramlik sharoitining butun murakkabliklariga qaramay, ushbu yo'lni imkon darajasida rivojlantirib bordilar, mustaqillik davriga kelib esa bu ulug'an'analalar bor bo'yi bilan qad rostlab, jahoniy miqyos kasb etdi.

97. "Usuli jadid" maktablari – Yangi davr ma'rifatchilari (jadidlar) ishlab chiqqan usuli savtiya, ya'ni savod chiqarishning tovush tizimi asosidagi yangicha maktablar.

98. **Ruhiyat** – bir tomondan, insonning moddiy tabiati bilan (shahvat, nafs, jahl-g'azab, qo'rquv), ikkinchi tomondan, ma'naviyat olami bilan (imon-e'tiqod, mehr, mas'uliyat, iroda, ilm) tutashgan murakkab voqelik bo'lib, "Ruhshunoslik" fani inson ruhiy olamini ayni shu ziddiyatli murakkablik holatida olib o'rganadi.

99. **Ruhshunoslik (Psixologiya)** – Ma'naviyat sohasiga aloqador fanlardan bo'lib, uning asosiy mavzusi (predmeti) inson va jamiyatning turli ruhiy holatlari va ulardagi o'zgarishlarni o'rganishdir. Bu fan, bir tomondan, juda qadim, ikkinchi tarafdan, nisbatan yosh fan. Uzoq vaqtgacha falsafiy fanlar sohasiga oid hisoblangan psixologiya fanida hozirgi zamonga kelib ruhiyatni insonning moddiy borlig'i, undagi fiziologik jarayonlar bilan bog'liq ravishda (ya'ni eksperimental – zo-hiriy tajribalar asosida) o'rganish yetakchi o'ringa ko'tarildi. Yevropa psixologik maktablari o'z tadqiq mavzularini inson jismi, moddiy mohiyat bilan bog'liq holda o'rganishadi. Uning tibbiyot fanlari bilan bevosita bog'liqligi ham shu sabablidir. Ammo inson ruhiyatini faqat uning sezish a'zolari va miya faoliyati bilangina bog'lab tushuntirishga urinish, ya'ni sof materialistik yondoshuv, bizning nazarimizda, bugungi kun ilmi uchun yetarli emas. Bu sohada milliy ma'naviy merosimiz an'analarga ham murojaat etish maqsadga muvofiq.

100. **Nafs** – milliy ma’naviyatimiz an’analariga binoan inson ruhiyatida moddiy olam ne’matlariga moyillikni ifodalovchi timsol-tushuncha. Tasavvuf tariqatlarida nafs tarbiyasiga alohida ahamiyat qaratilgan va uning turli darajalari belgilangan.

101. **Jon** – biologik mavjudotlar (hayvonlar va insonlar) uchun xos bo‘lgan tiriklik va erkin harakatga qobillikni anglatuvchi timsol-tushuncha.

102. **Ruh** – ilohiy kitob (Qur’oni karim) oyatlari mazmuniga binoan Alloh tomonidan faqat insonga in’om etilgan alohida g’aybiy quvvat bo‘lib, bani odamning ma’naviy kamolot kasb etish imkoniyatining asosidir.

103. **Nafsi ammora** – insonni tamomila o‘z jiloviga olgan, har qanday og‘ir gunohlarga boshlovchi tarbiyaga bo‘ysunmagan, o‘jar nafs. Qur’oni karimning “Yusuf” surasida eslanadi.

104. **Nafsi lavvoma** – gunoh ishlarga yo‘l qo‘yganda vijdoni qiy-nala boshlagan, o‘z xatolaridan afsuslanish hissi paydo bo‘lgan inson nafsining holati. Qur’oni karimning “Qiyomat” surasida eslanadi.

105. **Nafsi mutma’inna** – sokin muvozanatga erishgan, xotirjam, gunohlardan tiyilgan nafs. Qur’oni karimning “Al-Fajr” surasida eslanadi.

106. **Nafsi mulhama** – ilhomlangan nafs tarbiyasining bu darajasiga erishgan insonlar o‘zgalarga beminnat yordam ko‘rsatishga moyil bo‘ladilar, savob uchun vaqtini, molini, mehnatini ayamaydilar.

107. **Nafsi marziya** – rozi bo‘lgan nafs, Alloh taqdir etgan yaxshiyomon ishlarga sabr qiluvchi, turmush og‘irliklariga bardoshli, odamlarning noo‘rin munosabatlaridan xafa bo‘lib, gina qilmaydigan insonlar nafs.

108. **Nafsi sofiya** – dunyo orzu-havaslaridan, obro‘-e’tiborga intilish tamoyillaridan butkul forig‘lik darajasiga erishgan nafs, oriflik maqomiga yetishgan piri murshidlar, valiyar nafs.

109. **Nafsi komila** – payg‘ambarlar nafs. Oddiy kishilar nafs tarbiyasi bilan bu darajaga yetishi qiyin, ammo komil nafs egasi bo‘lishga intilish ma’naviyat nishonasidir¹.

110. **“O‘simlik ruhi”** – milliy ma’naviyatimiz an’analarida ruhshunoslik ilmiga oid timsol-tushuncha, barcha biologik mavjudotlar (nabotot, ya’ni o‘simliklar, hayvonot va insonlar) uchun umumiy bo‘lgan

¹ Nafs darajalari haqidagi ma’lumotlar I. Ostanaqulov maqolalaridan olindi.

oziqlanish va o'sish xususiyati, "quyi olamdan" (Azizuddin Nasafiyning "Zubdat ul-haqoyiq" risolasi asosida).

111. "Hayvon ruhi" – milliy ma'naviyatimiz an'analarida ruhshunoslik ilmiga oid timsol-tushuncha, tirik mavjudotlar (hayvonlar va insonlar) uchun umumiy bo'lgan erkin harakatlanish va nafs (ya'ni, moddiy mayllar)ga ega bo'lish xususiyati, "quyi olamdan" (Azizuddin Nasafiyning "Zubdat ul-haqoyiq" risolasi asosida).

112. "Inson ruhi" – milliy ma'naviyatimiz an'analarida ruhshunoslik ilmiga oid timsol-tushuncha, barcha inson zoti uchun umumiy bo'lgan tafakkur (fikrlash, aql ishlata bilish) va nutq (fikrini erkin bayon eta bilish) xususiyati, (Azizuddin Nasafiyning "Zubdat ul-haqoyiq" risolasi asosida).

113. "Muqaddas ruh" – milliy ma'naviyatimiz an'analarida ruhshunoslik ilmiga oid timsol-tushuncha, haqiqiy imon egalari, payg'ambarlar va valiyar (orif insonlar) ruhiyatiga aloqador g'ayb olami bilan tutashlikni anglatuvchi atama, "yuqori olamdan" (Azizuddin Nasafiyning "Zubdat ul-haqoyiq" risolasida "osmoniy farishtalar jinsidan" deb ta'riflanadi).

114. Axloq – har bir shaxs ma'naviyatining uning xulqida, o'zga insonlarga munosabatida aks etishi, yuzaga chiqishi. Ma'naviyat va siyosat sohalarining kesishuvida namoyon bo'ladi.

115. Axloqiy fazilatlar – shaxs ma'naviyati turli qirralarining inson amaliy faoliyatida doimiy asosda namoyon bo'lishi, inson qalbidagi ma'naviyat nurining jilolari.

116. Axloqiy qusurlar – insonning ko'ngil ko'zgidagi zang va chirklarning o'zgalar nigohiga namoyon bo'lishi.

117. Axloqshunoslik (Etika) – Ma'naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga mansub bo'lib, inson xulqi, uning axloqiy fazilatlarini va qusurlarining xolis tahlili bu fanning asosiy mavzusi (predmetini) tashkil etadi.

118. Adolat tarozisi – ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga ega bo'lgan timsol-tushuncha bo'lib, har bir zamon va makonda o'ziga xos ko'rsatkichlarni namoyon etadi va har bir insonning barcha fazilat va nuqsonlarini, iste'dod va kamchiliklarini aniq «vaznini» belgilab, o'shanga yarasha har bir shaxsning ijtimoiy qiymatini o'lchash va baholashga xizmat qiladi.

119. Milliy adolat – o'z millatiga mehr tuyg'usi o'zga millat namoyandasiga nisbatan noxolis yondoshuvga sabab (bahona) bo'lmashligi.

120. **Diniy adolat** – o‘z e‘tiqodiga sodiqlik tufayli o‘zga e‘tiqod egasiga noxolis munosabat izhor etmaslik.

121. **Siyosiy adolat** – siyosiy hokimiyatning yagona manbaya xalq irodasi deb tan olinishi va Qonun ustuvorligi famoyiliga qat‘iy rioya qilinishi.

122. **Ijtimoiy adolat** – barcha ijtimoiy toifalarning jamiyatda o‘z o‘mi mavjudligini va qonun oldida ularning o‘zaro teng huquqlarga ega ekanligini e‘tirof etish.

123. **Dehqon** – xususiy yer-mulk egasi bo‘lgan mehnatkash toifa (fermer chorvador, bog‘bon). Ijtimoiy vazifasi: millatning boquvchisi, birlamchi moddiy ne‘matlar yetishtiruvchi. Bosh ma‘naviy fazilati: tabiatga mehr.

124. **Ziyoli** – ma‘naviyat sohasida yetakchi ijtimoiy toifa (san‘atkor, olim, muallim), muayyan sohaning oliy toifali mutaxassisi (vrach, muhandis, agronom) Ijtimoiy vazifasi. Millat tarbiyasi, ma‘naviy qadriyatlarini shakllantirish, turli sohalarning ilmiy asoslarini ishlab chiqish. Bosh ma‘naviy fazilati: Borliq haqiqatini anglash va anglatishga intilish. O‘tmishda ahli ilm, darveshlar, ahli hunar shoir va voizlar shu toifaga mansub bo‘lganlar.

125. **Hunarmand-kosib** – xususiy mulk egasi bo‘lgan mehnatkash toifa vakili, qo‘li gul usta. Ijtimoiy vazifasi: sanoat sohasida mustaqil ishlab chiqaruvchi. Bosh ma‘naviy fazilati: mahorat. O‘tmishda “ahli futuvva” ayni shulardan bo‘lgan.

126. **Ishchi** – yollanma mehnat asosida ish bajaruvchi ijtimoiy toifa. Ijtimoiy vazifasi: mijozlarga xizmat ko‘rsatish va mahsulot ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etish. Bosh ma‘naviy fazilati: mehnatkashlik.

127. **Xizmatchi** – yollanma mehnat asosida turli xizmatlar bajaruvchi ijtimoiy toifa Ijtimoiy vazifasi: turli tashkilot va muassasalarda tashkiliy ishlarni amalga oshirish. Bosh ma‘naviy fazilati: hozirjavoblik.

128. **Siyosiy arbob** – davlat va boshqa siyosiy tashkilotlarning mas‘ul rahbarlik lavozimidagi asosan, ziyolilar toifasiga mansub guruh vakili. Ijtimoiy vazifasi: siyosiy boshqaruv orqali mamlakatning siyosiy mustaqilligi va ijtimoiy barqarorligini ta‘minlash. Bosh ma‘naviy fazilati: millat taqdiri oldidagi mas‘uliyatni his etish.

129. **Harbiy** – mamlakat qurolli kuchlari, ichki ishlar va xavfsizlik sohasida xizmat qiluvchilar. Ijtimoiy vazifasi: Millat himoyachisi, tinchlik

paytida ham favqulodda holatlarga doimiy jangovar hozirlik saqlash, insonlar hayotiga xavf tug'diruvchi jinoyatlarning oldini olish. Bosh ma'naviy fazilati: fidoyilik.

130. **Beklar va xonlar** — o'tmishda hukmron ijtimoiy toifa, zodagonlar. Harbiy ishlar va siyosiy boshqaruv shu toifa vakillari qo'lida bo'lgan.

131. **Kanizlar va g'ulomlar** — o'tmishda zodagonlar xonadonida barcha qora ishlarni bajaruvchi qaram ijtimoiy toifa. Qadimgi davr qullaridan farqli o'laroq, islom dunyosida ular muayyan chekli huquqlarga ega bo'lishgan.

132. **Fuqarolik mas'uliyati** — qonun ustuvorligini tan olish va har bir shaxsning ijtimoiy hayotni takomillashtirish jarayonida ishtirok etish vazifasini teran his qilish. Ushbu fuqarolik mas'uliyatini to'liq anglab yetmas ekanmiz, bizning shaxs sifatidagi ma'naviy kamolotimiz ham tugallik kasb etmaydi.

133. **“Fozil shahar”** — Abu Nasr Forobiy talqinida «Insonlari haqiqiy saodatga erishish yo'lida bir-biriga yordam berish uchun birlashgan shahar». Har bir inson Haq oldidagi mas'uliyatini to'g'ri anglab, kamolot sari o'zi intilar ekan, o'zgalarning ham xuddi shunday intilishiga ko'makdosh bo'lishga astoydil urinsa, natijada «fozil shahar» (jamiyat, millat, mamlakat) vujudga keladi. Ulug' allomaning bu qarashlari bugungi kundagi «fuqarolik jamiyati» tushunchasini mukammal ifodalaydi.

134. **Qadr** — Xoliqi olam irodasi va qudrati bilan yaratilgan har bir mavjudotning olamdagi o'ziga yarasha o'rni va salmog'i, har bir insonga yaratilishdan ato etilgan ilohiy ne'mat. Haqiqiy Shaxs darajasiga yetishgan inson o'z qadrini, shu bilan birga yorug' olamdagi barcha ashyo va mavjudotlar qadrini muayyan darajada anglab yetgan, shu asosda jamiyatning faol a'zosisga aylangan inson bo'ladi. «Men Alloh tomonidan yer yuzida xalifa etib yaratilganman», deb o'zlikni anglab yetish o'z qadrini to'g'ri baholashning poydevoridir. O'z qadrini anglab yetish barobarida har bir inson o'zga insonlar ham yer yuzida xalifa ekanligiga imon keltirib, ularning ham qadrini o'zidan kam bilmaydi. Qadr timsol-tushunchasi ma'naviyatga oid bo'lib, uni iqtisod sohasiga tatbiq etilsa, qiymat va bahoga, siyosatda mavqe' va maqomga aylana-di.

135. **Mavqe** — har bir insonning jamiyatda ishg'ol etib turgan muayyan o'rni, qadri va qudrati. Siyosatdagi huquq, burch, imtiyoz hodisalari-

ning tagzaminida ayni shu insonlarning bir-biriga nisbatan mavqe va maqomi masalasi joy olgandir.

136. **Maqom** – har bir insonning jamiyat hayotida rasmiy hujjatlar bilan tasdiqlangan muayyan oʻrni, holati. Har bir insonning mavqe va maqomi orasidagi farq qancha kuchayib borsa, uning ruhiyatida ham ziddiyat kuchayadi, natijada bu holat jamiyat hayotiga ham salbiy taʼsir koʻrsata boshlaydi.

137. **Tadbirkor** – mamlakatda ishlab chiqarish, tijorat va moliya ishlarini tashkil etuvchi va boshqaruvchi ijtimoiy toifa (sanoatchi, tijoratchi, bankir). Ijtimoiy vazifasi: mamlakatning iqtisodiy rivojini taʼminlash. Bosh maʼnaviy fazilati: Farosat. Oʻtmishda asosan tijorat ahli sifatida namoyon boʻlgan.

138. **Farosat** – voqelikni asliga muvofiq idrok etish, unga toʻgʻri munosabat hosil qila bilmoqlik, shu bilan birga voqelik talabiga muvofiq tadbir ishlab chiqib, uni hayotga tatbiq eta bilishdir. Buning uchun inson, avvalo, oʻz holini toʻgʻri idrok etishi, ikkinchidan, oʻzгани tushunish, oʻzgalarning ehtiyoji, xohishi, imkoni haqida toʻgʻri tasavvur hosil qila bilishi kerak.

139. **Iqtisodiy adolat** – bozor iqtisodi qonuniyatlariga (mulk shakllarini erkin tanlash huquqi, talab va taklif erkinligi, erkin raqobat tamoyillariga) rioya qilish.

140. **Iqtisodiy munosabatlar** – har bir insonning oʻz moddiy ehtiyojlarini qondirish maqsadida oʻzga insonlar bilan turli munosabatlarga kirishuvi.

141. **Shaxsning iqtisodiy mustaqillik masʼuliyati** – har bir balogʻat yoshidagi inson oʻzi va oʻz qoʻl ostidagilar moddiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda va halol yoʻl bilan taʼminlash zaruratini toʻgʻri anglab yetib shunga yarasha harakatda boʻlishi. Inson – hayvon emas, ammo farishta ham emas. Unga faqat biologik mavjudot deb qarash yetarli boʻlmas-da, ammo moddiy mavjudligini taʼminlash ehtiyoji va oʻzidan soʻng zurriyot qoldirish vazifasi har bir insonda mavjud ekanligini ham inkor etib boʻlmaydi. Inson oʻz moddiy mavjudligini umr boʻyi, uzluksiz taʼminlab borishga majbur, busiz u oʻzga hech qanday vazifani bajara olish imkonini topmaydi.

142. **Qiyamat** – har bir narsa-hodisaning iqtisodiy oʻlchovlarda ifodalangan salmogʻi.

143. **Baho** – har bir narsa, hodisaning muayyan zamon va makon oʻzgarishi bilan oʻzgarib turuvchi qiymati.

144. **Ibtidoiy (natural) xo'jalik** – insonlar jamoasidagi iqtisodiy munosabatlarning asosiy tarixiy shakllaridan biri, har bir insonning o'z moddiy ehtiyojlarni qondirish uchun tabiat bilan bevosita amaliy munosabatlarga kirishib, o'z aqli, malakasi, mehnati yordamida o'zi va oilasi uchun rizq topishi.

145. **Bozor iqtisodi** – mulk turlarining xilma-xilligi, erkin talab va taklif asosida o'zaro mahsulot almashuviga tayanuvchi tizim.

146. **Total (yalpi) davlat iqtisodi** – insonlar jamoasidagi iqtisodiy munosabatlarning tarixiy shakllaridan biri, barcha mulk davlatga qarashli bo'lib, barcha ishlab chiqarish va taqsimot davlat ixtiyorida bo'lishi. Bunday tuzumda ilojisiz ravishda total siyosiy va mafkuraviy istibdod (diktatura) mavjud bo'ladi. Iqtisodiy rivojlanish asta-sekin susayib boradi.

147. **Ibtidoiy bozor iqtisodi** – insonlar jamoasidagi iqtisodiy munosabatlarning asosiy tarixiy shakllaridan biri, har bir mustaqil xo'jalikning ibtidoiy ishlab chiqarish vositalariga tayangan holda biror tur yoki yo'nalishda mahsulot ishlab chiqarib, bozorda uni boshqa mahsulotlarga almashishi.

148. **“Yovvoyi bozor”** (shartli atama) – ibtidoiy bozor iqtisodi yoki yalpi davlat iqtisodidan rivojlangan bozor iqtisodiga o'tish davrida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan, hanuz siyosat va ma'naviyatda yetarli yangilanishlar ro'y bermagan holatda hukmron guruhlarining xudbinlik mayllari avj olishi natijasida shakllanuvchi va ommaviy norozilik va ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga sabab bo'luvchi iqtisodiy vaziyat bo'lib, asosan Yangi davrning boshlarida Yevropada vujudga kelib, bora-bora butun dunyoda mustamlakachilik sistemasining shakllanishiga olib kelgan. Bugungi kunda ham dunyoning ba'zi nuqtalarida ushbu tizimning bir qator unsurlari muayyan holatlarda yuzaga chiqishi mumkin.

149. **Rivojlangan bozor iqtisodi** – insonlar jamoasidagi iqtisodiy munosabatlarning asosiy tarixiy shakllaridan biri, yuqori darajada takomillashgan ishlab chiqarish vositalariga, yuqori texnologiya va ilmiy taraqqiyotga tayangan, siyosatda demokratiya va ongli fuqarolik jamiyati bilan hamqadam taraqqiy etayotgan murakkab ko'rinishli iqtisodiy tizim.

150. **Bozor iqtisodining asosiy ko'rsatkichlari** – 1) mulk turlarini erkin tanlash imkoniyati, 2) talab va taklif erkinligi, 3) erkin raqobat imkoniyati, 4) bozorning har uch yo'nalishi: mahsulot, ishchi

kuchi va qimmatli qog'ozlar bozorining mukammal shakllanganligi.

151. **Ilohiy bilim** – faqat Allohga tegishli bo'lgan cheksiz-chegarasiz, azaliy va abadiy bilim, insonlarga u vahiy sifatida payg'ambarlar orqali nozil etiladi. Uni inson imon bilan qabul qiladi, rad qilish ham, isbot qilish ham inson qudratida emas.

152. **Insoniy bilimlar** – insonga yaratilishdan berilgan tafakkur va tahlil qobiliyati tufayli hosil qilingan, nisbiy, ya'ni nomukammal va adashuvlardan xoli bo'lmagan bilim.

153. **Irfoniy bilim** – tasavvufda oriflik darajasiga erishgan so'fiylarga ilohiy ilhom orqali beriladigan bilim, ilmi laduniy. Insonlar tilida boshdan-oyoq faqat ramz va ishoralar orqali ifodalanadi.

154. **Naqliy bilimlar** – ilohiy kitoblari orqali yoki turli yo'llar bilan (asosan, yozma manbalarda) o'tmish ajdodlardan yetib kelgan bilimlar.

155. **Aqliy bilimlar** – inson tafakkuri bilan yetishgan bilimlari.

156. **Mantiqiy bilim** – inson bilgan narsalarini fikriy qiyoslash va tahlil qilish orqali hosil qilgan bilimlari.

157. **Nazariy bilim** – mantiqiy tafakkur natijasida erishilgan bilim.

158. **Modellashtirish** – Borliq haqiqatini anglab yetish va o'zgalarga anglatishga urinishning o'ziga xos yo'nalishi, muayyan tushunchalar yoki timsollar tizimi vositasida murakkab voqelikni soddalashtirib, yaxlit shaklda ifodalash.

159. **Tafakkur turlari** – Borliq mohiyatini anglab yetishga urinishning turli usullari, asosan tushuncha, tasavvur va timsollarga tayanib olib boriladigan aqliy faoliyat turlari.

160. **Asotir tafakkur** – Borliq mohiyatini idrok etishga dastlabki urinish bo'lib, ibtidoiy jamoa, qisman qadimgi dunyo va o'rta asrlar odamining fikrlash tarziga xosdir. Bu davrlarda aksariyat insonlar g'ayb olamiga oid narsa-hodisalar va mavhum tushunchalarni moddiy voqelik ashyolaridan ajratib tasavvur qila olmaydilar, mushriklikning kelib chiqish sababi ham shunda.

161. **Amaliy tafakkur** – muayyan hayotiy tajriba asosida amaliy xulosa qilish.

162. **Mantiqiy tafakkur** – asosiy tafakkur turlaridan, sabab-qibat bog'lanishlari asosida fikr yuritish.

163. **Timsoliy tafakkur** – asosiy tafakkur turlaridan, badiiy tafakkurning asosi, o'z fikrini ramz va timsollar vositasida ifodalash.

164. **Tarixiy tafakkur** – asosiy tafakkur turlaridan, turli manbalar orqali aniqlangan ma'lumotlarga tayanib xulosalar qilish.

165. **Evristik tafakkur** – asosiy tafakkur turlaridan, ilohiy ilhom, ilmiy va badiiy ijod jarayonida tamomila yangicha g'oyalar, yechimlar, timsol va tasavvurlarning yaxlit shakllanishi.

166. **Irfoniy tafakkur** – murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, ilohiy ilhom, riyozat va ilohiy jazba natijasida hosil qilingan laduniy bilimlarni timsol va ishoralar vositasida ifodalash.

167. **Falsafiy tafakkur** – murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, mantiqiy va evristik tafakkur asosida Borliq haqiqatini modellashtirishga urinish.

168. **Ilmiy tafakkur** – murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, mantiqiy va evristik tafakkurga hamda maxsus amaliy tajribalarga tayangan holda muayyan nazariy muammoni hal qilishga urinish.

169. **Riyoziy (matematik) tafakkur** – murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, aniq formulalar, chizmalar, tenglamalar, raqamlar nisbati vositasida o'z fikr va g'oyalarini ifoda etish.

170. **Estetik tafakkur** – murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, muayyan hayotiy hodisalarga go'zallik va ichki uyg'unlik talablaridan kelib chiqib munosabatda bo'lish.

171. **Badiiy tafakkur** – ko'proq timsoliy va evristik tafakkur asosiga qurilgan murakkab tarkibli tafakkur turlaridan bo'lib, ijodkorning Borliq haqiqati haqidagi o'z tasavvurlarini, hayotiy yoki xayoliy timsollar tizimi vositasida modellashtirishi. Badiiy timsol haqiqatni o'zida to'liq ifodalashga da'vo qilmaydi, faqat unga ishora qiladi.

172. **Nafosatshunoslik (Estetika)** – Ma'naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga mansub bo'lib, badiiy tafakkur qonuniyatlari, go'zallikning mohiyati, moddiy borliq va san'atning turli sohalarida shakl va ma'no uyg'unligi masalalari ushbu fanning asosiy mavzusi (predmeti) ni tashkil qiladi.

173. **Axloqiy tafakkur** – murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, insonlarning amaliy faoliyatini muayyan ma'naviy-axloqiy tartib-qoidalar nuqtayi nazaridan baholash.

174. **Siyosiy tafakkur** – murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, ijtimoiy hodisalarga muayyan siyosiy manfaatlar nuqtayi nazaridan yondoshish.

175. **Huquqiy tafakkur** – murakkab tarkibli tafakkur turlaridan, insonlarning xatti-harakatlariga muayyan qonunlar bilan belgilangan huquqiy normalar nuqtayi nazaridan yondoshish.

176. **Tavhidiy tafakkur** – Insoniyatga xos barcha tafakkur turlari

yagona Borliq haqiqatining turlicha jilolari ekanini anglab yetib, e'tirof etish, o'zgacha fikrlovchi insonni tushunishga intilish, XXI asr odami-ning fikrlash tarzi.

177. **Jahon madaniyati** – turli o'lka va mintaqalarning o'ziga xos madaniyatlari majmuyidan iborat bo'lib, mavhum bir shakldagi umuminsoniy madaniyat hayotda asli mavjud emas. Insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida avval muayyan kichik jamoalar doirasida shakllangan madaniyat unsurlari bora-bora kengroq miqyos kasb etib, turli elat va millatlar, mintaqalar madaniyati darajasiga ko'tarilib bordi va nihoyat Yangi davrga kelib yaxlit bir voqelik sifatida idrok etila boshladi.

178. **Umuminsoniy (ma'naviy) qadriyatlar** – ularni biror-bir alohida xalq yaratmaydi, aslida dastlab har bir millat ma'naviy qadriyatlarini o'ziga xos tizim shaklida namoyon bo'ladi, keyinroq har bir xalq, har bir elat o'z tarixiy tajribasi davomida asta-sekin shakllantirib borgan bunday tizimlar turli elat va millatlarning o'zaro munosabatlari tufayli bir-birini tushunish, barcha xalqlar uchun umumiy bo'lgan jihatlarni tadrijiy anglab borish jarayonida asta-sekin umuminsoniy mohiyat kasb etib boradi. Zotan, milliy ma'naviyatimiz zamirini bizni o'zgalardan ajratib turuvchi mohiyatlar emas, balki birlashtiruvchi omillar tashkil etadi.

179. **Din** – muayyan insonlar guruhining Borliq Haqiqati haqidagi (odatda ilohiy vahiyga asoslangan) tasavvurlari, ularga qat'iy ishonchi, shu ishonchga muvofiq amal qilishga intilishi. Dinning botiniy va zohiriy jihatlari mavjud bo'lib, botiniy jihati imon, zohiriy jihati ibodatlardir. Imon masalasi din va ma'naviyatning umumiy jihati bo'lib, diniy imon ma'naviyatning muayyan jihatiga nisbatan xususiy holdir.

180. **Islom dini** – Muhammad(s.a.v.) ga vahiy orqali nozil bo'lgan Allohning oxirgi kitobi Qur'oni karimda va Payg'ambarimizdan yetib kelgan sahih hadislarida o'z ifodasini topgan e'tiqod tizimi.

181. **Musulmonchilik** – Allohning borligi va birligi hamda Muhammad (s.a.v.) uning oxirgi haq payg'ambari ekanligiga imon keltirgan barcha insonlarning islom dini haqidagi tasavvurlari. Islom madaniyati tarixida islom aqidalarini tushunishdagi turlicha qarashlarning mavjud ekanligi islom va musulmonchilik o'zaro bog'liq bo'lgan turli voqeliklarni anglatishini ko'rsatadi.

182. **Islom ma'naviyati** – Oxirgi va mukammal ilohiy kitob bo'lmish Qur'oni karim mazmunida ifodalangan ma'naviyat tizimi bo'lib, Inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg'unlashuv sari intili-

shida g'aybiy hidoyat yo'li hisoblanadi. Islom dini va ma'naviyati mohiyatan boshqa-boshqa narsalar emas, ammo insonlar tasavvurida ular farq qilishi mumkin. Masalan, islom dinida qabul qilingan farz, ibodatlar va aqidaviy qoidalar boshqa tavhidiy dinlardan farq qiladi, ammo islom ma'naviyatiga ko'ra har bir inson o'z aqidasi va Borliq haqiqati to'g'risidagi tasavvurlaridan qat'i nazar "er yuzidagi xalifa" sifatida ehtiromga sazovordir.

183. **Dinshunoslik** – Ma'naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga mansub bo'lib, dunyoda mavjud diniy tizimlar, ularning yuzaga kelish sabablari va rivojlanish bosqichlari, turli dinlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning jamiyatdagi o'rni bu fanning asosiy mavzusi (predmeti)ni tashkil qiladi.

184. **Siyosat va din munosabatlari** – jamiyatda har bir shaxs ma'naviyati orqali dinning siyosatga ta'siri o'z-o'zidan mavjud, ammo diniy e'tiqoddan bevosita siyosiy qurol sifatida foydalanishga urinish bugungi kunda nihoyatda xavfli siyosiy avantyurizm bo'lib, mohiyatan ma'naviyat sohasiga aloqador bo'lgan imon-e'tiqod masalasiga mutlaq aloqasi yo'qdir.

185. **Ilm-fan** – shaklan madaniyat sohasining tarkibiy qismi, naqliy va aqliy bilimlar majmuyi, mazmunan turli iqtidor egalari ma'naviyatining samarasi sifatida tashkil topgan bo'lib, aniq va tabiiy fanlar, iqtisod fanlari, ijtimoiy-siyosiy fanlar, texnika fanlari, ma'naviyat sohasiga aloqador fanlar kabi turli yo'nalishlar va tizimlardan iborat.

186. **Aniq va tabiiy fanlar** – insonning moddiy ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgan bilimlar majmuyi, ularni aniq bilish mumkin va kerak, taxminiylik bu yerda taxmin (gipoteza) darajasida qoladi. Ammo bu bilimlar doimo xususiy hodisalarga oid bo'lib, ular yordamida Borliq haqiqatini yaxlit anglab yetishga urinish befoyda, ularga tayanib moddiy voqelikdan tashqari chiqmoqchi bo'linsa, tajovuz bo'ladi, adashuvga olib keladi, g'ayri ilmga aylanadi.

187. **Ijtimoiy-siyosiy bilimlar** – insonlararo munosabatlarga oid bilimlar. Bu sohada qoniqarli xulosalarga erishish uchun ham ilohiy, ham irfoniy, ham aqliy, ham naqliy bilimlarga tayanib ish yuritish kerak bo'ladi. Birortasi hisobga olinmasa, xatoga yo'l qo'yish ehtimoli ko'payadi. Chunki aslida bu sohadagi tushunchalar tarixan shakllanadi. Ularni anglab yetish uchun mintaq va millat tarixini, uning madaniy merosini chuqur o'rganish zarur.

188. **San'at** – Borliq haqiqatini anglab yetish va anglatishning

mustaqil yo'li, taxayyul o'yinlari vositasida Borliq haqiqatini model-lashtirishga urinish. San'at ma'lum ma'noda insoniyatning bolalik odati-dan rivojlanib chiqqan. Bola o'ynaydi, o'yin orqali hayotiy ko'nikmalar hosil qilib boradi. San'at turlari ham o'ynab turib o'rgatadi, uning timsollari hayot ibratlaridir. Bolaning o'yini – beg'araz. Kattalarning o'yiniga esa doimo g'araz xavf solib turadi. Ammo haqiqiy san'atkor o'z ishiga beg'araz yondoshmagina, u hayot haqiqatini uyg'un aks etti-ra oladi.

189. **Taxayyul** – (qadim Yunon terminologiyasida “imaginatsiya”, ruscha “воображение”), Borliq haqiqatini anglab yetish va anglatish-da asotir tafakkur, falsafiy va badiiy tafakkurning asosiy vositasi bo'lib, ijodkor shaxsning Borliq haqidagi o'z tasavvurlarini xayoliy timsol-larda modellashtirishini bildiradi. Uning mohiyati taniqli rus olimi Y. Golosovkerning “Логика мифа” kitobida batafsil izohlab berilgan.

190. **O'yin** – jonli mavjudotlar, (inson va hayvonlar) tabiatiga xos ixtiyoriy harakat tizimi bo'lib, faol dam olish va hayotiy ehtiyojlarga moslashish usuli. Bola o'ynaydi, o'yin orqali bola hayotni o'rganadi. Sport, adabiyot va san'atning barcha turlariga ham ma'lum darajada ana shu tamoyil xos bo'lib, inson zoti ular orqali “o'ynab turib” jis-moniy va ma'naviy kamol topib boradi.

191. **San'atshunoslik** – san'atning turli yo'nalishlarini o'rganuvchi fan bo'lib, bugungi kunda musiqashunoslik, teatrshunoslik, kinoshu-noslik, kabi turli yo'nalishlarga tarmoqlanib ketgan. Borliq haqiqatini turli badiiy tasvir vositalari asosida modellashtirishning o'ziga xos yo'llarini o'rganishi jihatidan ma'naviyat sohasiga aloqador fanlardan hisoblanadi.

192. **Badiiy adabiyot** – san'atning bir turi, inson ruhini Borliq haqiqati bilan uyg'unlashtirishga intiluvchi asosiy vositalardan bo'lib, milliy ma'naviyatimiz an'analarida ibrat maktabi, mehr parvarishidir. Mumtoz adabiyot o'z mohiyatiga ko'ra Borliq haqiqatining botiniy sirlarini zohiriy timsollar vositasida majoziy ifodalash qudratiga ega.

193. **Adabiyotshunoslik** – ma'naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga mansub bo'lib, badiiy adabiyotni Borliq haqiqatini badiiy timsollar asosida modellashtiruvchi so'z san'ati sifatida o'rganadi. Ja-hon va milliy adabiyotlar tarixi, adabiy tanqid va adabiyotning nazariy masalalari bu fanning asosiy mavzulari (predmeti)ni tashkil etadi.

194. **Jamiyatshunoslik (Sotsiologiya)** – insonlar jamiyatini sinxronik kesimda o'rganadi. Turli ijtimoiy toifalar va tuzilmalar hola-

tidagi o'zgarishlar va ularning sabab-oqibatlarini xolis tahlil qilish bu fanning asosiy mavzusi (predmeti) bo'lib, ma'lum darajada ma'naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga mansub deyish mumkin

195. **Tarix(shunoslik)** – Insonlar jamiyatini diaxronik kesimda o'rganadi. Jahon va turli o'lkalar tarixi, umumbashariy, turli min-taqalar va elatlarga xos siyosiy, ijtimoiy, madaniy taraqqiyot qonuniyat-lari bu fanning asosiy mavzusi (predmeti)ni tashkil qiladi. Ma'naviyat sohasiga aloqador fanlar tizimiga kiradi

196. **Sinxroniya** – muayyan bir zamonga xos masalalarni yaxlit tizimda olib qarash.

197. **Diaxroniya** – muayyan bir masalalar tizimini tarixiy izchillik-da olib qarash.

198. **Xalq ijodi** – Borliq haqiqatini anglab yetish va anglatishning mustaqil yo'li bo'lib, ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi: 1) xalq badiiy ijodi mumtoz san'at namunalaridan muayyan jihatlariga ko'ra farq qiladi, masalan, xalq ijodi namunalarida an'anaviylik, ijod va ijro yax-litligi, so'z, harakat va musiqa uyg'unligi yorqin namoyon bo'ladi, bir asar ustozdan shogirdga o'tgan sari sayqal topib boradi, ya'ni ijodiy jarayon davomiylik kasb etib, mualliflik yakka bir shaxs doirasidan tashqari chiqadi; 2) xalq amaliy san'ati, xalq ijodining bu turida yara-tilgan ashyolar bir paytning o'zida ikki yo'nalishda – ham amaliy (utilitar), ham estetik vazifa bajarishi bilan sof san'at asarlaridan farqlanadi.

199. **Marosimlar** – Borliq haqiqatini anglab yetish va anglatish-ning mustaqil yo'li, ular ikki turli bo'ladi: 1) asotir marosimlar (mi-fologik rituallar), ular insoniyatning ibtidoiy tafakkuriga xos bo'lib, muayyan narsa-hodisalar va xatti-harakatlarning inson va tabiat hayoti-ga sirli ta'siri bor, degan aqidaga tayanadi; 2) an'anaviy urf-odatlar, el orasida joriy bo'lgan rasm-rusumlar, ularning aksariyati muayyan tarbi-yaviy ahamiyatga ega bo'lib, shu jihatdan bolalar o'yini va xalq ijodi namunalariga yondosh turadi.

200. **Elshunoslik (Etnografiya)** – ma'naviyat sohasiga aloqador fanlardan bo'lib, turli xalqlarning urf-odatlar va marosimlari xalq ongi-dagi asotir tafakkur unsurlari, an'anaviylik va etiket, xalq ijodi turlari va shakllari, urf-odatlar va marosimlarning tarbiyaviy ahamiyati kabi masalalar bu fanning asosiy mavzusi (predmeti) hisoblanadi.

TAVSIYA ETILUVCHI VA FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyot:

1. Qur'oni karim (Abdulaziz Mansur tarjimasi). T., 2001.
2. Imom Buxoriy. Jome' as-sahih. 1–4-jildlar, T., 1990–1995.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., 2001.
4. Karimov I. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya isloh etishdir. T., «O'zbekiston», 2005-y.
5. Karimov I. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmaz irodasiga bog'liq. T., «O'zbekiston», 2004-y.
6. Karimov I. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. T., «O'zbekiston», 1996, 3–139, 178–189, 200–218, 240–246, 360–362-b.
7. Karimov I. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. T., «O'zbekiston», 1996, 37–38, 58–82, 119–121, 202–206, 249–264, 292–313-b.
8. Karimov I. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. T., «O'zbekiston» –1996, 3–54, 60–69, 74–85-b.
9. Karimov I. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. T., «O'zbekiston», 1996, 39–55, 58–91, 117–131, 156–187, 331–339-b.
10. Karimov I. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-jild. T., «O'zbekiston», 1997, 145–150, 166–191, 207–217, 282–304-b.
11. Karimov I. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. 6-jild. T., «O'zbekiston», 1998, 25–30, 31–41, 125–135, 262–267, 314–323-b.
12. Karimov I. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. T., «O'zbekiston», 1999, 79–102, 132–154, 183–257, 293–312, 324–346, 349–410-b.
13. Karimov I. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. T., «O'zbekiston», 2000, 3–17, 3–31, 59–67, 72–82, 87–99, 272–291, 319–329, 330–351, 341–343, 405–441, 442–461, 462–478, 489–508-b.
14. Karimov I. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T., «O'zbekiston», 1999.
15. Karimov I. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., 1997-y.
16. Karimov I. Istiqlol va ma'naviyat. T., 1994-y.
17. Karimov I. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T., 1998-y.

18. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunning yangi tahriri. T., 1998-y.

19. «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. T., 1996-y.

20. «Avesto» yaratilganining 2700-yilligini nishonlash to'g'risida.(O'zR Vazirlar Mahkamasining qarori.) T., 29-mart, 2000-y.

21. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. T., 1993-y.

22. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar.1-jild. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. T. – «Fan»–1968-y.

23. Abu Hamid al-Gazali. Voskreshenie nauk o vere. M., 1980-y.

24. Abu Hamid al-G'azzoliy. Kimiyoi saodat. T., 2005-y..

25. Abu Hamid al-G'azzoliy. Ihyo-u ulum id-din. Ilm kitobi. T., 2003-y..

26. Abu Hamid al-G'azzoliy. Ihyo-u ulum id-din. Muhabbat, shavq, uns va rizo kitobi. T., 2005-y.

27. Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Bahovuddin Balogardon (Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband), T., 1993-y.

28. Avesto. T. «Sharq», 2001.(Asqar Mahkam tarjimasi).

29. Avesto. Dushanbe, 1990-y.

30. Aziz Qayumov. Qadimiyat obidalari. T., 1972-y.

31. Aziz Qayumov. Saddi Iskandariy. T., 1975-y.

32. Aziziddin Nasafiy. Zubdat-ul-haqoyiq. T., 1995-y.

33. Alisher Navoiy. Asarlar. 1–15-jildlar, T.,1966–1968-y.

34. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. T., 1991-y.

35. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. M. -L., 1948-y.

36. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 1–20 jildlar. T., 1987–2000-y.

37. Alisher Navoiy. Xamsa. T., 1960-y.

38. Ал-Фараби. Философские трактаты. Алма-Ата, 1972.

39. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Навои и Джами. М., 1963.

40. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Суфизм и суфийская литература. М., 1965.

41. Behbudiy. Tanlangan asarlar. T., 1999-y.

42. Бойс М. Зороастрийцы. Верования и обычаи. 2-издание. М., 1998.

43. Большаков О.Г. История халифата. 1–3 части. М., 1989–1998.

44. G'afurov I. Millatning billurlanishi. T., 1995-y.

45. Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии. М., 1986.

46. Jabborov Sh. Ma'naviyatning falsafiy qirralari. "Ma'rifat". 1996-y.

47. Jumaboev Y. O'rtasiy etikasi tarixi ocherklari. T., 1980-y.
48. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'rayev A. Vatan tuyg'usi. T., 1996-y.
49. Ibrohimov N. Ibn Battuta va uning O'rtasiyoga sayohati. T., 1993-y.
50. Imomnazarov M.S. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. T., 1998-y.
51. Imomnazarov M.S. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari. T., 1996-y.
52. Karamatov H. Xo'rlangan payg'ambarlar g'alabasi. T., 1998-y.
53. Komil ma'naviyat – mustaqillik tayanchi. T., 1997-y.
54. Komilov N. Tasavvuf. 1–2?kitoblar. T., 1996–1998-y.
55. Komilov N. Tafakkur karvonlari. T., 1999-y.
56. Конрад Н.М. Запад и Восток. М., 1972.
57. Куранов М. Научно-педагогические основы национального воспитания в общеобразовательных средних школах Узбекистана (Автореферат докт. дисс.). T., 1998.
58. «Ma'naviyat va ma'rifat» markazlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. Samarqand, 1997.
59. Ma'naviyat kamolot omillari. T., 1995.
60. Ma'naviyat – mas'ullik. 1-kitob (Ma'naviyat nashrlari. Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi). T., 1997.
61. Ma'naviyat va komillik. 3-kitob. (Ma'naviyat nashrlari. Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» markazi). T., 1997-y.
62. Ma'naviyat iymondan boshlanadi. “Guliston”, 1995, №1.
63. Ma'naviyat yulduzlari. T., 1999-y.
64. Ma'naviyatning oydin yo'li. 2-kitob (Ma'naviyat nashrlari. Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi). T., 1997-y.
65. Мец А. Мусульманский Ренессанс. М., 1973.
66. Milliy istiqlol g'oyasi: Asosiy tushuncha va tamoyillar. T., “O'zbekiston”, 2000-y.
67. Монтогомери Уотт У. Влияние Ислама на Средневековую Европу. М., 1976.
68. Mustaqil O'zbekiston: falsafa va huquq fanlarining dolzarb muammolari. T., 1994-y.
69. Mustafu Cho'qay o'g'li. Istiqlol jallodlari. T., 1992-y.
70. Musurmonova Oynisa. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. T., 1996-y.
71. Muhammad Rahimxon Feruz. Elga shoh-u ishqqa qul. T., 1994-y.
72. Mo'minov I.M. Tanlangan asarlar. 1-tom. T., 1969-y.
73. Nizomiy Ganjaviy. Kulliyot. (dar 5 jild) Dush., 1983–1984-y.

74. Nizomulmuluk. Siyosatnoma yoki siyar-ul-muluk. T., 1997-y.
75. Ortiqov N. Ma'naviyat: milliy va umuminsoniy qadriyatlar. T., 1997-y.
76. Rabg'uziy. Qisasi Rabg'uziy. T., 1990-y.
77. Rajabova M. Diniy ekstremizm va terrorchilik. T., 2000-y.
78. Rizayev Sh. Jadid dramasi. T., 1997-y.
79. Рустамов Э. Узбекская поэзия в 1-ой половине XV века. М., 1963.
80. Sog'lom avlod orzusi. T., 1998-y.
81. Sodiqova T. Mehr qolur. T. 1997-y.
82. Sulaymonova F. Sharq va G'arb. T., 1997-y.
83. Суфизм в контексте мусульманской культуры. М., 1989.
84. Тлашев Х.Х. Общепедагогические и дидактические идеи учёных-энциклопедистов Ближнего и Среднего Востока эпохи Средневековья. Т., 1989.
85. Трименгем Дж. С. Суфийские ордена в Исламе. М., 1989.
86. Turdi Farog'iy. Devon. T., 1978-y.
87. Uvatov U. Imom Moturidiy. T., 1999-y.
88. Ульрих Рудольф. Ал-Матуриди и суннитская теология в Самарканде. Алматы. Фонд "XXI век", 1999.
89. Usmanov M. Yaxshi fazilat insonga ziynat. T., 1992.
90. Fitrat. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. T., 2000–2003-y.
91. Shayxova X., Nazarov Q. Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolot. T., 1992-y.
92. O'zbek adabiyoti tarixi. 3-kitob, T., 1978-y.
93. O'zbekiston SSR tarixi (bir tomlik) T., 1958-y.
94. Салимов В. М. Behbudiy. T., 1997-y.
95. Салимов В. М. Milliy uyg'onish. T., 2001-y.
96. Hayitmetov A. Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari. T., 1959-y.
97. Hasanov A.A. Makka va Madina tarixi. T., 1992-y.

Qo'shimcha adabiyot:

1. «Milliy mafkura: dastlabki saboqlar». (j. «Muloqot» №12, 1991.)
2. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy. T., 1989.
3. Abdurahmoni Chomi. Osor. (dar 8 jild) Dush., 1986–1989.
4. Abdurahmonov F. Mustaqillik va milliy manfaatlar. T., 1994.
5. Abilov O'. Milliy g'oya. Ma'naviy omillar. T., “Ma'naviyat”, 1999.
6. Абу Али ибн Сина. Избранные произведения. Т.1. Dush. 1980.
7. Abu Tohir Hoja. Samariya. T., 1991.
8. Абу Фараж ал-Исфахани. Книга песен. М., 1980.
9. Azizxo'jayev A. Davlatchilik va ma'naviyat. T., 1997.
10. Алиев Г.Ю. Темы и сюжеты Низами в литературах народов Востока. М., 1985.
11. Alisher Navoiy. Xazoyin ul-maoniyy. 1-jild. G'aroyib us-sig'ar. T., 1959, 5–28-b.
12. Al-Moturidiy ta'limoti va uning Sharq xalqlari madaniyatidagi o'rni. (Boblar to'plami). T., 2000
13. Альбер Камю. Избранное. М., 1969.
14. Aminov B., Shodiev M., Rasulev T. Sharqona bozor fazilatlar. T., 1996
15. Амир Хусрау Дихлави. Ширин и Хусрау. М., “Наука”, 1979.
16. Amiriy Devon. T., 1972.
17. Ан-Наубахти. Шиитские секты. М., 1973.
18. Антонович И.И. Современная философская антропология. Минск. 1970.
19. Арипов М.К. Социальная утопия как течение общественно философской мысли в Средней Азии. Т., 1989.
20. Асмус В.Ф. Иммануил Кант. М., 1973.
21. Афросиаб (Вып. 1) Т., 1969.
22. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. T., 1990.
23. Ахмедов А. Социальная доктрина ислама. М., 1982.
24. Ahmedov V. Tarixdan saboqlar. T., 1994.
25. Ахундов М.Ф. Обманутые звёзды. Избранное. М., 1963.
26. Басилов В.Н. Шаманство у народов Средней Азии и Казахстана. М., 1992.
27. Бердяев Н.А. Самопознание. М., 1991.
28. Бертельс А.Е. Насири Хосров и исмаилизм. М., 1965.
29. Бертельс Е.Э. Избранные труды. Низами и Фузули. М., 1962.
30. Библейская энциклопедия. М., 1990.
31. Bobir. Asarlar. (3-jild) T., 1965.
32. Boboev H., Normatov K. Milliy davlatchilik haqida. T., 1999.

33. Bobomurodov A. Islom odobi va madaniyati. T., 1995.
34. Botirxon Akrom. Fasohat mulkining sohibqironi. T., 1991.
35. Брагинский И.С. Из истории таджикской и персидской литературы. М., 1972.
36. Valixo'jayev B. Hoja Ahror tarixi. T., 1994.
37. Васильев Л.С. История религий Востока. М., 1998.
38. Vasliy Samarqandiy. Imom A'zam tarixi. T., 1995.
39. Васютинский Н. Золотая пропорция. М. 1990.
40. Vatan va millat muqaddasdir. T., 1996.
41. Vatan saodati. T., 1998.
42. Вдовина И.С. Эстетика французского персонализма. М. 1981
43. Восточный Туркестан в древности и раннем средневековье: этнос, языки, религии. М., 1992.
44. Выготский Л.С. Психология искусства. М., 1987.
45. Г.Э. фон Грюнебаум. Классический ислам. М., 1988.
46. G'aybulloh as-Salom. Ezgulikka chog'lan, odamzod. T., 1997.
47. G'aybulloh as-Salom. Ey umri aziz. T., 1997.
48. Гегель Ф. Наука логики. М., 1970.
49. Геродот. История. Л., 1972.
50. Гёте. Западно-восточной диван. М., 1988.
51. Гинзбург В.В., Трофимова Т.А. Палеоантропология Средней Азии. М., 1972.
52. G'oyiblar xaylidan yongan chiroqlar. T., 1994.
53. Горский Д.П. Проблемы общей методологии наук и диалектической логики. М., 1966.
54. Горький М. Несвоевременные мысли. М., 1990.
55. Григорьян С.Н. Из истории философии Средней Азии и Ирана. М., 1960.
56. Грязнов А.Ф. Эволюция философских взглядов Л. Витгенштейна. М., 1985.
57. Гулшани адаб. Намунаҳои назми форсу-тожик. (ибораат аз 5 ҷилд) Душ. 1975–1977.
58. Гусейнов А. Золотое правило нравственности. М., 1979.
59. Davlat, jamiyat, oila va yoshlar tarbiyasi muammolari. T., 1997 .
60. Джемс В. Многообразие религиозного опыта. Санкт-Петербург. 1993.
61. Дьяконов И.М. Люди города Ура. М., 1990.
62. Jalilov To'xtasin. O'zbek shoiralari. T., 1970.
63. Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma'naviy. 1- jild. T., 1999.(Asqar Mahkam tarjimasi).

64. Jaloliddin Rumiy. Masnaviyi ma'naviy. 6 jildlik. T., 2001–2005. (Jamol Kamol tarjiması).
65. Jalolov A. Mustaqillik mas'uliyati. T., 1994.
66. Жан-Поль Сартр. Слова. М., 1966.
67. Жирмунский В.М. Тюркский героический эпос. Л., 1974.
68. Jumaboev Y. Hayot mazmuni va komil inson muammosi. T., 1997.
69. Jumaboev Y.J. Tadbirkorlik va ma'naviy kamolot. "Iqtisod va hisobot" 1996, 3-son.
70. Jumaxo'ja N., I. Adizova. So'zdin baqoliroq yodgor yo'qdir. T., 1995.
71. Журавский А.В. Христианство и ислам. М., 1990.
72. Jo'rayev. Tarix falsafasi. T., 1999.
73. Заблоцка Ю. История Ближнего Востока в древности. М., 1989.
74. Ziyomhammadov B. Ma'rifat asoslari. T., 1998.
75. Зохилов А. Формирование и особенности развития свободомыслия в Средней Азии в период раннего средневековья. Т., 1979.
76. Zohidov V. Ulug' shoir ijodining qalbi. T., 1970.
77. И.П. Петрушевский. Ислам в Иране. Л., 1966.
78. Ibrohimov A. Poklik – milliy tiklanish kurtagi. // "Tafakkur", №6, 1996.
79. Идибеков Н. Этика Насридина Туси в свете его теории свободы воли. Душ., 1987.
80. Из истории суфизма: источники и социальная практика. Т., 1991.
81. Izzat Sulton. Navoiyning qalb daftari. T., 1969.
82. Imom al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad. T., 1990.
83. Imomnazarov M. Tadbirkor ma'naviyati yoxud qadr va farosat haqida. «Jamiyat va boshqaruv» jur., №4, 2000.
84. Imomnazarov M. Shaxs ma'naviyati va qonun ustuvorligi. "Xalq so'zi" gaz., №24, 5 fev. 1999.
85. Imomnazarov M. Shaxs ma'naviyati va fuqaro mas'uliyati. "Xalq so'zi" gaz., №10, 15 yanv. 1999.
86. Ислам. Энциклопедический словарь. М., 1991.
87. Islom: bag'rikenglik va mutaassiblik(to'plam). T., 1998.
88. Is'hoqov M. Unutilgan podsholikdan xatlar. T., 1994.
89. Is'hoqov M.M. Xalq dahosining qadimgi ildizlari va ilk kurtaklari (Zardo'shtiylik, Zardusht va «Avesto» haqida). «Til va adabiyot ta'limi» jurnali, 1993, №2.

90. Карнеги Д. Как завоевать друзей и оказывать влияние на людей. М., 1992.
91. Каррыев Б.А. Эпические сказания о Кор-оглы у туркоязычных народов. М., 1968.
92. Qodirov A. Ma'naviyatning iqtisodiy tamoyillari. T., 1999.
93. Komron Mirzo. Devon. T., 1993.
94. Конрад Н.М. Запад и Восток. М., 1972.
95. Qoraboev U. Millatning kamoloti. "Muloqot" jur., №2, 1999.
96. Крамер С.Н.. История начинается в Шумере. М., 1991.
97. Крывелев И.А. Библия: историко-критический анализ. М., 1982.
98. Кулизаде З. Хурифизм и его представители в Азербайджане.
99. Kuronbekov A. Hofiz g'azaliyotida ma'nolar silsilasi. T., 1994.
100. Ko'ngildagi buzilish. T., 1997.
101. Маёров Г.Г. Формирование Средневековой философии. Латинская патристика. М., 1979.
102. Mamadaliev S. Imom Vuxoriy ta'rifi. T., 1996.
103. Массон В.М., Сарияниди В.И. Каракумы. Заря цивилизации. Т., 1972.
104. Mashrab. Devon. T., 2006.
105. Ma'naviyat imondan boshlanadi. «Guliston» j., 1995 №1.
106. Mahmud As'ad Jo'shon. Tasavvuf va nafs tarbiyasi. T., 1998.
107. Мень А. История религии. М., 1994.
108. Milliy istiqloq g'oyasi: Ko'rgazmali vositalar. T., "Ma'naviyat", 2001.
109. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi. T., 1994.
110. Митрохин Л.Н. Философия религии. М., 1993.
111. Мифология Ближнего Востока. М., 1991.
112. Молла Непес. Лирика. Ашхабад, 1973.
113. Морочник С.Б., Розенфельд Б.А. Омар Хайям. Поэт, мыслитель, ученый. Сталинабад, 1957.
114. Mulla Panoh Voqif. Tanlagan she'rlar. T., 1969.
115. Munavvarov Z.I. va boshqalar. Dunyoviy davlat va din. T., 1998.
116. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. T., 1998.
117. Musurmonova O. Ma'naviy bir butunlik va milliy istiqloq mafkurasini. T., 1995.
118. Muhammad Rahimxon Feruz. Ne bo'ldi, yorim kelmadi. T., 1991.
119. Muhammad Rizo Ogahiy. Ta'vizul-oshiqin. T., 1960.
120. Muhammad Siddiq Rushdiy. Avliyolar sultoni. Turonlik valiyalar. T., 1995.
121. Muhammadjonov A. Qadimgi Toshkent. T., 1988.

122. Муҳаммадходжаев А. Гносеология суфизма. Душ., 1980.
123. Муҳаммадходжаев А. Идеология нақибандизма. Душ., 1991.
124. Mo'minov I.M. Tanlangan asarlar. 1-tom. T., 1969.
125. Navoiy zamondoshlari xotirasida. T. 1985.
126. Nasimxon Rahmon. Turk xoqonligi. T., 1993.
127. Nizomulmuluk. Siyosatnoma yoki siyar ul-muluk. T., 1997.
128. Nodira. Devon. T., 1968.
129. Nurulloxon hoji Abdulloxon o'g'li. Savdogarning 101 siri. T., 1995
130. Ogoh bo'laylik(to'plam). T., 1999.
131. Odobnoma. T., 1992.
132. Oila axloqi va odobi. T., 1995.
133. Olim S. Naqshband va Navoiy. T., 1996.
134. Олимов К. Хорасанский суфизм. Душ. 1994.
135. Османов М.-Н.О. Стиль персидско-таджикской поэзии (9–10вв.). М., 1974
136. Основы философии. Т., 1999
137. Ochilov S. Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari. 1997.
138. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. T., 1993.
139. Петрушевский И.П. Ислам в Иране. Л., 1966.
140. Платонов К.К. Краткий словарь системы психологических понятий. М., 1984.
141. Поль Фресс, Жан Пиаже. Экпериментальная психология. М., 1966.
142. Поппер К. Открытое общество и его враги. М., 1992
143. Ravshanov P., O'g'qov R. Ajdodlarimiz qadri. T., 1993.
144. Райевский Д.С. Модель мира скифской культуры. М., 1985.
145. Ранович А.Б. Первоисточники по истории раннего христианства. М., 1990.
146. Rahmatov O. Ogohlik – muqaddas burch. T., “Movarounnahr”, 2000.
147. Рашид Муҳаммад. Фалсафа аз оғози тарих. Душ., 1990.
148. Религиозные традиции мира. Буддизм, иудаизм, христианство, ислам. Бишкек, 1997.
149. Религия в истории и культуре. М., 1998.
150. Религия и демократия: На пути к свободе совести. М., 1993
151. Ренан Э. Жизнь Иисуса. Апостолы. М., 1991.
152. Рижский М.И. Книга Иова. Новосибирск, 1991.
153. Роузенталь Ф. Торжество знания. М., 1978.
154. Румий. Поэма о скрытом смысле. М., 1986.
155. Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. T., 1979.

156. Sadridin Salim Buxoriy. Dilda yor. T., 1993.
157. Sattor M. O'zbek udumlari. T., 1993.
158. Sa'diy Sheroziy. Kulliyot(dar 2 child). Dush., 1988–1989.
159. Словарь по этике. М., 1981.
160. Sodiq Sanjar. So'z san'ati jozibasi. T., 1996.
161. Soifnazarov I. Bozor iqtisodiyoti va shaxs kamoloti. T., 1996.
162. Стеблева И.В. Поэтика древнепуркской литературы. М., 1976.
163. Стеблева И.В. Семантика газелей Бабура. М., 1982.
164. Стеблин-Каменский М.И. Миф. Л., 1976.
165. Столович А.М. Жизнь, творчество, человек. М., 1985.
166. So'fi Olloyor. Sabotul-ojizin. T., 1991.
167. Тайлор Э.Б. Первобытная культура. М., 1989.
168. Трактат ибн Сины о любви. Тб. 1976.
169. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. T., 1998.
170. Tulenov J., G'ofurov Z. Falsafa. T., 1997.
171. Turkiyada yassaviyshunoslik.(Qul Xoja Ahmad Yassaviyning hayoti, ijodi va tariqati mavzusida turk yassaviyshunoslari bilan o'tkazilgan suhbatlar to'plami) /Suhbat qiluvchi va nashrga tayyorlovchi N. Hasan./ Mas'ul muharrir: S. Sayfulloh. – T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1999, 56-b.)
172. Turon Usmon. Turkiy xalqlar mafkurasi. T., 1995.
173. Usmanov M. Islom aqidalari va marosimlari. T., O'zbekiston, 1975.
174. Usmanov M. Yaxshi fazilat insonga ziynat. T., 1992.
175. Усманов М.А. Основные этапы эволюции ислама. М., 1978.
176. Usmanov R. Saodatnoma. T., 1995.
177. Usmonov K., G'aniev D. O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lida. T., 1994.
178. O'zbek adabiyoti tarixi. 2-kitob, T., 1978.
179. O'zbekiston Respublikasi "Ma'naviyat va ma'rifatning ilmiy asoslari va rivojlantirish tamoyillarini ishlab chiqish" davlat ilmiy-texnik dasturi. T., 1999.
180. O'zbekiston sharqshunoslari. T., 1996.
181. O'lmas obidalar. T., 1989.
182. O'rta Osiyo xalqlari hurfikrligi tarixidan. T., 1990.
183. Farididdin Attor. Ilohiynoma. T., 1994.
184. Farididdin Attor. Tazkiratul-avliyo. T., 1997.
185. Fattohiyi Nishopuriy. Husn va Dil. Dush., 1985.
186. Философия любви. М., 1990.
187. Философское наследие народов Средней Азии и борьба идей. Т., 1988.

188. Firdavsi. Shohnoma. (dar 9 child) Dush. 1987–1991.
189. Фрай Р. Наследие Ирана. М., 1972.
190. Фрейд Зигмунд. Я и Оно. М., 1990.
191. Фрейденберг О.М. Миф и литература древности. М. 1978.
192. Фролов И.Т., Юдин Б.Г. Этика науки. М., 1986.
193. Фрезер Дж. Золотая ветвь. М., 1986.
194. Fuad Ko'prulu. Turk adabiyotida ilk mutasavviflar. Ankara, 1976.
195. Hayitmetov A. Alisher Navoiyning ijodiy metodi masalalari. Т., 1963.
196. Hayitmetov A. Navoiy lirikasi. Т., 1961.
197. Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. Т., 1993.
198. Hayitmetov A. Sharq adabiyotining ijodiy metodi tarixidan. Т., 1970.
199. Хайруллайев М.М. Мировоззрение Фороби и его значение в истории философии. Т., 1967.
200. Хакани. Ветер в руке. М., 1986.
201. Haqqul Ibrohim. Tasavvuf va she'riyat. Т., 1991.
202. Ханна ал-Фарухи. История арабской литературы. (1-2 книги) М., 1961.
203. Hasan Ato Abushiy. Turkiy qavmlar tarixi. Т., 1993.
204. Хасанов А.А. Мекка, Мадина и верования арабов накануне возникновения ислама. Т., 1994.
205. Hasanov H. Sayyoh olimlar. Т., 1981.
206. Hasanxo'ja Nisoriy. Muzakkiri ahhob. Т., 1993.
207. Xolbekov A.J. Sharq va G'arb mutafakkirlarining sotsiologik ta'limoti. Т., 1996.
208. Хрестоматия по исламу. М., 1991.
209. Shayx Najmiddin Kubro. Qutbi Dahr. Т., 1998.
210. Shayx Najmiddin Kubro. Т., 1995.
211. Shamsiev P. O'zbek matnshunosligiga oid tadqiqotlar. Т., 1986.
212. Sharifxo'jayev M., Davronov Z. Ma'naviyat asoslari. Т., 2005.
213. Шептулин А.П. Диалектический метод познания. М., 1983
214. Шидфар Б.Я. Абу Нувас. М., 1978.
215. Шидфар Б.Я. Образная система классической арабской поэзии. М., 1979.
216. Шишкин И.Б. У стен великой Намазги. М., 1977.
217. Эккарцгаузен Карл. Ключ к таинствам природы. Т., 1993.
218. Эльбрус А. Поэтика и математика. Баку, 1979.
219. Erkayev A. Ma'naviyat – millat nishoni. Т., 1997.
220. Эрматов М. Этногенез и формирование предков узбекского народа. Т., 1968.

221. Этическая мысль. М., 1988.
222. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. T., 1998.
223. Yusuf Hamadoniy. Hayot mezonlari. T., 2003.
224. Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig. T., 1971.
225. Я.Э. Голосовкер. Теория мифа. М., 1987.
226. Yangi O'zbekistonning 7 zafarli yili. T., 1999
227. Ярошевский М. Г. История психологии. М.,1985.

MUNDARIJA

Inson hayotining ma'nosi (muqaddima)	4
I qism Mustaqillik ma'naviyati	6
1-bob. Istiqlol va ma'naviyat	6
2-bob. Milliy g'oya, mafkura, ma'naviyat. Milliy ma'naviyat nazariyasining umumiy metodologik asoslari	14
3-bob. Ma'naviyat – botiniy qudrat	27
4-bob. Din va ma'naviyat	36
5-bob. Umuminsoniy qadriyatlar va milliy ma'naviyatimizning uyg'unligi.	47
6-bob. «Milliy ma'naviyat asoslari» fani ijtimoiy va ma'naviyat aloqador fanlar tizimida	57
II qism. Shaxs va millat ma'naviy kamoloti. Milliy ma'naviyatimizning takomil bosqichlari.	80
1-bob. Islomgacha milliy ma'naviyatimiz takomili	80
2-bob. Islom mintaqa madaniyati doirasida milliy ma'naviyatimizning takomili. Islom mintaqa ma'naviyatida Sunna bosqichi	105
3-bob. Islom ma'rifatchiligi bosqichi	117
4-bob. Tasavvuf tariqatlari va irfon bosqichi	136
5-bob. Islom mintaqa ma'naviyatida “Majoz tariqi” bosqichi	148
6-bob. Alisher Navoiy ma'naviyati.	171
7-bob. Yangi davrda milliy ma'naviyatimiz takomili	197
8-bob. Milliy uyg'unlik va bolshevizm qatag'onlari	208
9-bob. Shaxs va millat ma'naviy kamolotining uyg'unligi.	217
III qism. Inson ruhining Borliq haqiqati bilan uyg'unlashuvi yoki Oliy ma'naviy qadriyatlar	232
1-bob. Borliq haqiqati va ma'naviy qadriyatlar. Vatan tuyg'usi	232
2-bob. Inson va Shaxs	244
3-bob. Shaxs va Millat	261
4-bob. Adolat – ijtimoiy hayotda ma'naviyatning namoyon bo'lishi	274
5-bob. Bozor iqtisodi va ma'naviyat	291
6-bob. Fuqarolar jamiyati	301
7-bob. Haqiqat va bashariyat.	323
Taqdir va tadbir. Milliy ma'naviyatimizda «ahli qabul» va «ahli rad» tushunchalari. (Xulosa o'rnida)	340
Jaqvdallar va xulosalar	342
“Milliy ma'naviyatimiz asoslari” faniga oid asosiy timsol-tushunchalarning qisqacha izohli lug'ati	401
Tavsiya etiluvchi va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	434

71.04

I-48

Imomnazarov, Muhammadjon.

Milliy ma'naviyatimiz asoslari: O'quv
qo'll./ Muhammadjon Imomnazarov; Mas'ul
muharrirlar: N. Komilov, M. Quronov; O'zR Oliy
va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. -T.: O'zbekiston
faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. 448-b.

ББК 71.04я73

**MILLIY MA'NAVIYATIMIZ
ASOSLARI**
(o'quv qo'llanma)


Muharrirlar:
Nashr uchun mas'ul
Musahhih
Sahifalovchi

*S. Abdusamatova, O. Bozorova
M. Tursunova
S. Sharifxo'jayev
N. Mamanov*

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 700029, Toshkent
shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41.

Terishga berildi 01.11.2006-y. Bosishga ruxsat etildi 14.12.2006-y. Bichimi 60x84^{1/16}.
Bosma tabog'i 28,0. Adadi 3000 nusxa. Bahosi shartnoma asosida. Buyurtma № 254

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Toshkent, U.Yusupov ko'chasi, 86-uy.



**O'zbekiston faylasuflari milliy
jamiyati nashriyoti**